Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti

YANGI O‘ZBEKISTON:
MA’NAVIY JARAYONLAR VA MAFKURAVIY TAHDIDLAR

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami

«ELNUR-PRINT»
Toshkent – 2024

UO‘K: 821.512.133
KBK: 84 (5O‘)
Д 16
“Yangi O‘zbekiston: ma’naviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar”: mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent: “Elnur-print” nashriyoti, 2024. – 588 bet.

Mas’ul muharrir:
Olimjon Davlatov,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

To‘plab, nashrga tayyorlovchilar:
Sh.To‘rayev, A.Madraximov, N.Xusanova, S.G‘ofurov,
M.Musayev, K.To‘rayev, J.Xidirov, X.Serobov, L.Eshonkulov

Ushbu to‘plamda “Yangi O‘zbekiston: ma’naviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar” mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasiga yuborilgan ilmiy maqolalar jamlangan. Shuningdek, to‘plam “O‘zbekiston-2030” strategiyasi, “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” davlat dasturi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining 50-son yig‘ilish bayonida ko‘rsatib o‘tilgan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tomonidan amalga oshirilayotgan ALM-202403110247 sonli “Yoshlarni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish va ma’naviy-axloqiy tarbiyalash bo‘yicha o‘quv va ilmiy-metodik qo‘llanmalar, uslubiy tavsiya, ma’rifiy adabiyot va media mahsulotlar majmuasini yaratish” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi (2024-2025 y.y.) doirasida bajarilgan.

ISBN 978-9910-9145-3-9

© Olimjon DAVLATOV, 2024
© “ELNUR-PRINT” nashriyoti, 2024

OTABEK HASANOV,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari,
siyosiy fanlar doktori (DSc)

KIRISH SO‘ZI

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi jamiyatni qurish bilan bog‘liq ustuvor vazifalar belgilab olindi. Ana shu vazifalarning asosida Yangi O‘zbekistonni barpo etish masalasi turibdi. Bu g‘oya shunchaki aytilgan emas buning tub negiza xalqimizning asriy orzulari maqsad mo‘ljallari turibdi. Binobarin, Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Muayyan xalq yoki davlat hayoti uchun g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadigan biror bir fenomen yoki u haqdagi tushuncha va tamoyillar o‘z-o‘zidan osongina paydo bo‘lmaydi va tasodifan dunyoga kelib qolmaydi.

Shu ma'noda, har qanday hodisa, tushuncha yoki atamaning o‘ziga xos shakllanish jarayoni bor. Yangi O‘zbekiston fenomeni ham bundan mutasno emas.

...Biz orzu qilgan va qat'iy intilayotgan Yangi O‘zbekiston, avvalo, xalqimiz o‘z milliy taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘yganini, jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallayotgani, bu borada oldimizda ko‘plab yangi imkoniyatlar paydo bo‘layotganini anglatadigan tushunchadir”. Demak, millatning qalb amri bo‘lgan bu istakni amalga oshirish fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokiga bog‘liq ekanini anglamog‘imiz lozim bo‘ladi. Inchunun, Yangi O‘zbekiston g‘oyasi ma'naviy jarayonlarning rivojini ta'minlab beruvchi asos bo‘lib xizmat qiladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Jamiyat hayotida kechayotgan demokratik islohotlar jadal sur'atlar bilan rivojlanishida, muhim bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishda mamlakatimizda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish kabi maqsadlar sari intilish kuzatilayotgan ekan, mamlakatning taqdiri ham, kuchli fuqarolik jamiyatining qaror topishi ham fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Ushbu jarayonda fuqarolarning ishtiroki, ularning ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash kabi masalalarni hal qilishda ma'naviyatning roli alohida ahamiyatga molikdir.

Ta'kidlash joizki, Jamiyat taraqqiyoti yo‘lida amalga oshirilgan sa'y-harakatlar o‘z natijasini ko‘rsatdi va ijtimoiy-ma'naviy hayotda keskin o‘zgarishlarni vujudga kelishiga xizmat qildi. Binobarin, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlar sezilarli darajada jonlandi.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotidagi ma'naviy jarayonlarning salohiyati

o‘z ifodasini topadi. Shuning uchun ham ma'naviyatning O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishdagi o‘rni va ahamiyatini, uning o‘ziga xos jihatlarini tadqiq etish yurtimizda shakllanayotgan demokratik jamiyatning ustuvor yo‘nalishlari, tendensiyalari va tamoyillarini aniqlash, ularni rivojlantirish va takomillashtirishning aniq yo‘llarini belgilash imkonini beradi. Bu esa:

Birinchidan, ma'naviy jarayonlar mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalardagi o‘zgarishlarning ijtimoiy-ma'naviy jihatlarini uyg‘unlashtiradigan uzluksiz jarayon sifatida o‘zining aniq ifodasini topadi, ya'ni barcha sohalardagi islohotlarning asosiy maqsadi bo‘lgan inson kamolotini, qadr qimmati va manfaatini ta'minlaydigan ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirish bilan bog‘liq vazifalarni amalga oshirishdagi asosiy mezon sifatida muayyan ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, jamiyat rivoji bilan bog‘liq muommolarning yechimlarini o‘zida aks ettiradi hamda ularni hal etish uchun jamiyat a'zolarini birlashtirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, jamiyat rivoji uchun olib borilayotgan islohotlar va o‘zgarishlarning asosiy maqsadi hisoblangan demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, qonunning ustuvorligi va milliy qadriyatlarni inkor etmagan holda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik kabi xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan tizimga intilishlarini umumlashtirish uchun imkon yaratadi.

To‘rtinchidan, Mamlakatning ichki hayotini boshqarish jamiyat a'zolarining asosiy mezonlaridan biri bo‘lish bilan birga, tashqi siyosatda davlatning salohiyatini ko‘rsatadigan, bugungi mafkuraviy jarayonlar avj olayotgan davrda mamlakatning jahon hamjamiyati va halqaro maydondagi obro‘-e'tiborini namoyon qila oladigan ma'naviy qadriyat mezonlarini, inson huquqlari, fuqarolarning imkoniyatlari, shuningdek, umumbashariy muammolarni hal qilish istiqbollari qay tarzda amaliyotga aylanayotganligini bildiradigan omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ma'naviy jarayonlar rivojini bevosita mafkura bilan bog‘liqligini inkor etib bo‘lmaydi. Binobarin, vatanimiz mustaqilligining milliy-ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, ma'naviy meros, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, ulardan oqilona foydalanish va kelgusi, zamonaviy baxtli hayotni tashkil etishda xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ongi-shuurida ona yurtga muhabbat, istiqlolga sadoqat tuyg‘ularini chuqur singdirish, ularda g‘urur va iftixor uyg‘otish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Insoniyatning ko‘p asrlik tarixidan ma'lumki, bu dunyoda o‘zining milliy davlatchiligini qurishga qaror qilgan xalq, jamiyat o‘z oldiga

yuksak maqsad va vazifalarni qo‘yishi tabiiy. Belgilab olingan yo‘lda barchani safarbar qilish, ularning ongi va qalbida buyuk kelajakka ishonch va umid uyg‘otishi, rivojlanishga xadaqit beradigan eski tuzumning har qanday sarqitlaridan, illatlaridan qutilib, mutlaqo yangi tuzum g‘oyasi bilan oziqlantira olishi, bir maqsad va milliy manfaat yo‘lida o‘zining kelajagini aks ettiradigan milliy g‘oya va mafkurasiga asoslanishi kerak bo‘ladi. Aks holda bugungi global makonda, turli ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, g‘oyaviy qarama-qarshiliklar, o‘zaro raqobat nihoyatda kuchaygan bir paytda, har qanday jamiyat o‘z yo‘lini yo‘qotib qo‘yishi ehtimoldan holi emas. Bunday sharoitda yosh avlod tarbiyasining o‘rni har qachongidan ham ortib borishi hech kimga sir emas.

Binobarin, dunyo mafkuraviy maydonida g‘oyaviy, mafkuraviy va informatsion kurashlarlarning tobora kuchayib borayotgan hozirgi tahlikali davrda milliy g‘oya va mafkuralar bilan bog‘liq tarixni chuqur o‘rganishni, zamon talablari asosida tashkil etish, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizni shiddat bilan kirib kelayotgan turli yot g‘oyalar va mafkuraviy xurujlardan himoya qilishda ulardan oqilona foydalanish. Ular asosida, yosh avlodni hayotga ongli munosabatini shakllantirish, Vatan kelajagi uchun mas’ullik, va dahldorlik hissini oshirish, yurtimiz mustaqilligi, tinch-osoyishta hayotimizga xavf tug‘dirishi, davlatchiligimizni izdan chiqarishi mumkin bo‘lgan turli tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish, ulug‘ ajdodlardan meros bu Vatanni asrab-avaylash, uni avlodlarga munosib tarzda yetkazishdek muqaddas tuyg‘ularni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Shu ma’noda, bugungi anjuman yoshlarning har qanday tahdidlarga qarshi tura oladigan bilimli, jasur va g‘ururi baland insonlar bo‘lib yetishiga xizmat qilishiga ishonaman.

SHAVKAT TO‘RAYEV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i, falsafa fanlari doktori (DSc)

YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY JARAYONLAR

Mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni bappo etish muhim ustuvor vazifa sifatida belgilab olindi. Bu yo‘lda amalga oshipiladigan islohotlarning tub negizida ma’naviy rivojlanish masalasi turadi. Binobarin, davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, «Muayyan xalq yoki davlat hayoti uchun g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadigan biror bir fenomen yoki u haqdagi tushuncha va tamoyillar o‘z-o‘zidan osongina paydo bo‘lmaydi va tasodifan dunyoga kelib qolmaydi.

Shu ma’noda, har qanday hodisa, tushuncha yoki atamaning o‘ziga xos shakllanish jarayoni bor. Yangi O‘zbekiston fenomeni ham bundan mutasno emas.

...Biz orzu qilgan va qat’iy intilayotgan Yangi O‘zbekiston, avvalo, xalqimiz o‘z milliy tapaqqiyotining yangi davriga qadam qo‘yganini, jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallayotgani, bu borada oldimizda ko‘plab yangi imkoniyatlar paydo bo‘layotganini anglatadigan tushunchadir»[1]. Demak, millatning qalb amri bo‘lgan bu istakni amalga oshirish fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokiga bog‘liq ekanini anglamog‘imiz lozim bo‘ladi. Inchunun, Yangi O‘zbekiston g‘oyasi ma’naviy jarayonlarning rivojini ta’minlab beruvchi asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, asos sifatida berilgan mazkur mazmunning o‘zida inson va jamiyatning hayoti uzviy ravishda ma’naviy jarayonlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Binobarin, mamlakatimizda mustaqillikning ilk davrlaridan boshlab ma’naviyatga qaratilgan e’tiborning asl maqsadi barkamol shaxsni tarbiyalash va ijtimoiy-ma’naviy muhitni barqarorlashtirishdan iborat.

Vatanimiz mustaqilligining ma’naviy asoslarini mustahkamlash, ming yillar davomida tarkib topgan milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqlolga sadoqat tuyg‘ularini singdipish, eng asosiysi, yurtdoshlarimiz tafakkurida milliy g‘ururni shakllantirish masalasi ma’naviy jarayonlarning tarkibiy qismini tashkil qiladi.

Ma’lumki, jamiyat taraqqiyoti yo‘lida amalga oshirilgan sa’y-harakatlar o‘z natijasini ko‘rsatdi va ijtimoiy-ma’naviy hayotda keskin

o‘zgarishlarni vujudga kelishiga xizmat qildi. Binobarin, ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ishlar sezilarli darajada jonlandi.

Aynan ma’naviy jarayonlarning ijtimoiy hayotdagi o‘rnining salmog‘i kundan-kun ortib borishi natijasida bu yo‘nalishdagi islohotlar jadal tus ola boshladi. Ushbu masala davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Respublika hukumati tizimli va tadrijiy ravishda ma’naviy-ma’rifiy masalalarni jiddiy nazoratga olib, muntazam rivojlantipish ishlarini yanada kuchaytirdi.

Mamlakatimizda vatanparvar, fidoiy, mustaqil fikriga ega, yurtimiz kelajagiga xavf soladigan har qanday tahdidlarga qarshi tura oladigan, istiqlol g‘oyalariga sadoqatli, o‘zining intellektual salohiyati bilan dunyo arenalarida vatanimiz bayrog‘ini baland ko‘tara oladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishni nazarda tutgan qator tadbirlar tizimi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi [2].

Albatta, har qanday jamiyatda islohotlarni hamma qabul qilishi yoki birdaniga uni amalga oshirishga kirishib ketishi murakkab jarayon. Ayniqsa, asrlar davomida biror g‘oya bilan yashab, birdaniga boshqa g‘oyalarga o‘zgartirishning o‘zi bo‘lmaydi. Ana shunday murakkab jarayonlar sababli, yangi g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning mazmun-mohiyatini teran anglamaslik yoki yillar davomida kishilar ongida shakllanib kelgan rasmiyatchilik, xo‘jako‘rsinga ishlash, tadbirbozlik va kompaniyabozlik illatlarining mavjudligi, yoshlarni ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga jalb etishda qat’iyatsizlik, tashabbuskorlikning yetishmasligi, kishilar ongini o‘zgartirishda xalqchil va ta’sirchan usullardan foydalana bilmaslik kabi kamchiliklar ko‘zga tashlana boshladi.

Qayd etilganlarni inobatga olib, mavjud nuqsonlarni bartaraf etish nuqtai nazaridan, bu borada olib borilayotgan islohotlarning davomiyligini ta’minlash va ularni yanada takomillashtirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish ito‘g‘risida»gi Qarori «Manaviy jarayonlar»ning ikkinchi bosqichini boshlab berdi.

Qarorda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish maqsadidan kelib chiqqan holda, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarining mazmun-mundarijasini tubdan yaxshilash, ularning ko‘lami va miqyosini kengaytirish, tizimda faoliyat ko‘rsatayotgan soha xodimlarining bilim va malakasini izchil oshirib borish, tuman (shahar) darajasidagi xodimlar mehnatiga haq to‘lashning barqaror tizimini yo‘lga qo‘yish, sohada faoliyat olib borayotgan muassasa va tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish

vazifalari yuklatilgan.

Ma’naviy jarayonlarning o‘tgan davrida ulkan islohotlar amalga oshirilsada, ko‘pgina kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgani hech kimga sir emas. Qarorda qayd etilishicha ibugungi globallashuv sharoitida itinchlik va barqarorlikka qarshi tahdid va xatarlar ko‘payib borayotgani, bunday tahlikali vaziyatda amalga ioshirilgan ishlarni itanqidiy baholab, faoliyatni zamon italablari asosida takomillashtirish zaruriyati ko‘rsatib o‘tilgan.

Xususan, oila, mahalla va ita’lim muassasalarida yoshlar tarbiyasida kamchiliklar mavjudligi, mahallalarda yoshlar bilan g‘oyaviy-tarbiyaviy ishlarning yuzaki itarzda olib borilayotgani, adashib har xil harakatlarga qo‘shilib qolish, milliy qadriyatlarimizga nisbatan e’tiborsizlik, oilaviy ajrimlar, erta turmush qurish kabi salbiy holatlarning oldini olish, ularni bartaraf etishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini tizimli yo‘lga qo‘yishda sustkashlikka yo‘l qo‘yilayotgani yoki aksariyat hollarda kutilgan natijani bermayotgani bilan bog‘liq masalalarga jiddiy e’tibor qaratish lozimligi ta’kidlangan.

Shu munosabat bilan qarorda:

- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun-mohiyatini aholiga yetkazish, targ‘ibot ishlarini tizimli va izchil tashkil qilish, bu borada olimlar, mutaxassislar, ijodkor ziyolilardan, keng jamoatchilikdan iborat «Ma’rifat» targ‘ibotchilar jamiyatini shakllantipish, uning faoliyatini doimiy asosda yo‘lga qo‘yish;

- dunyoda yuz berayotgan g‘oyaviy-mafkuraviy va murakkab geosiyosiy jarayonlarning asl mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib borish, diniy ekstremizm, terrorizm, separatizm, aqidaparastlik, «ommaviy madaniyat», narkobiznes, odam savdosi va boshqa itahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash iolib borish;

- jamiyatimiz rivojiga to‘sqinlik iqilayotgan ichki tahdidlar – el-yurt taqdirigailoqaydlik, urug‘-aymoqchilik, mahalliychilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar itarbiyasiga e’tiborsizlik kabi holatlarni bartaraf etish va oldini olishga qartilgan kompleks itadbirlar tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

- milliy g‘oyani targ‘ib qilishda, yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlarni, barcha ijtimoiy toifa vakillarini qamrab olish, ularda bunyodkorlik ruhini shakllantipish, ertangi kunga ishonch tuyg‘ularini kuchaytipish;

- targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirishda aholining hududiy, yosh va kasbiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, tizimli, maqsadli va mazmunli yondashuvni joriy etish kabi vazifalar yuklatildi.

Mazkur vazifalarning bajarilishi islohotlar bilan bog‘liq. Islohotlarning amalga oshirilishi esa, jamiyat manfaatlarida yangi ehtiyojlarning paydo bo‘lishi qarorlarning, dasturlarning o‘zgarishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, 2019 yil 3-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mipziyoyev itomonidan «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini ioshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»[3] gi qarori qabul qilindi.

Ma’naviy jarayonlarning mantiqiy davomi bo‘lgan mazkur qaror ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etishda aholi, ayniqsa yoshlarning ongu tafakkuri, intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, yurtga muhabbat, vatanga sadoqat tuyg‘ulari bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e’tibop qaratilgani bilan ahamiyatli.

Qarorda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ita’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Oliy iva o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, «Oila» ilmiy-amaliy tadqiqot markazi va Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi loyihasini ishlab chiqish vazifasining yuklatilgani aynan, ma’naviy jarayonlarning uzluksizligini ta’minlash ekanligidan dalolatdir.

Ma’naviy jarayonlarning uzluksizligini ta’minlash bilan bog‘liq vazifalarning yuklatilishi masalaning bir tomoni, ammo uni bajarish uchun mustahkam mexanizm zarur bo‘ladi. Endigi vazifa ana shu mexanizmni shakllantipish edi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021 yil 26 martdagi «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi [4] qarori «ma’naviy jarayonlar» mexanizmini konseptual asosda ko‘rsatib berdi. Unda ta’lim tizimi ma’naviy jarayonlarning asosiy richagi sifatida belgilandi. Jumladan,

- davlat oliy ta’lim muassasalarida yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha propektor lavozimi joriy etildi;

- barcha umumta’lim maktablarida 2021-yilning 1-yanvaridan boshlab faoliyat yuritayotgan yoshlarning yaqin maslahatchisi bo‘lgan yoshlar yetakchisi lavozimi saqlab qolindi;

-har bir umumta’lim muassasasida ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchi lavozimi joriy etildi;

- har bir tuman, shahar va viloyat markazlari hududlarida ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlash, oila va mahallalarda hamjihatlikni ta’minlash, yoshlar ongi va qalbida ma’naviy fazilatlarni yuksaltipish maqsadida «Ma’naviyat va ma’rifat maskani»ni tashkil etish manzilli ro‘yxati tasdiqlandi;

- targ‘ibot tashviqot ishlarini ilmiy asosda tashkil etish, ma’naviy-ma’rifiy sohada ilmiy-uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlash bilan bog‘liq doimiy monitoring tizimini joriy qilish qayd etildi;

- sohada ilmiy faoliyatni yo‘lga qo‘yish maqsadida “Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti” tashkil qilish vazifasining yuklatilishi, ma’naviy jarayonlarning jadal suratlar bilan rivojlanishiga turtki bo‘ldi [5].

Mazkur qaror bilan birgina “Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti”ning tashkil etilishi sohaga olimlarning jalb qilinishiga xizmat qildi. Bugungi kunda mazkur muassasada yigirmaga yaqin olimlar faoliyat yupitayotgan bo‘lsa, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan tasdiqlangan “09.00.07 – Ma’naviyat tarixi va nazariyasi” ixtisosligi, “09.00.08 – Ma’naviy tarbiya” ixtisosligi, “09.00.09 – Ma’naviy jarayonlar va texnologiyalar” ixtisosliklari bo‘yicha 30dan ortiq mustaqil tadqiqotchilar faoliyat olib bormoqda. Institutning mazkur yo‘nalishlari bo‘yicha ochilgan kunduzgi doktorantura bo‘limiga o‘qishga kirish uchun ko‘plab talabgorlarning hujjat topshipganining o‘zi ham ilmiy sohada ishlar tizimli yo‘lga qo‘yilishidan dalolatdir.

Ma’naviy jarayonlar bilan bog‘liq islohotlarni izchillik bilan olib borilishining asosiy sababi, fuqarolarimiz iqalbida milliy tafakkur va sog‘lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash, ularning iongli yashashga, o‘z fikriga ega ibo‘lishga, turli ma’naviy tajovuzlarga iqarshi sobit tura olishga iqodir bo‘lgan, irodali, fidoyi va ivatanparvar insonlar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan amaliy ishlardir. Bu borada ma’naviy-ma’rifiy itarg‘ibot ishlarining ta’sirchanligini ita’minlaydigan zamonaviy tashviqot texnologiyalari va mexanizmlarini, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlabi chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari iuchun tegishli tavsiya va takliflar tayyorlash masalalari ham keng yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bularning barchasi ma’naviy jarayonlarning jamiyat taraqqiyoti va davlat siyosatida ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Ma’naviy jarayonlarning jamiyat tapaqqiyotidagi o‘rni haqida gap ketar ekan, tadqiqotimiz uning mazmun-mohiyati va namoyon bo‘lish xususiyatlarini tahlil qilishni taqozo qiladi. Shundan kelib chiqib, ma’naviy jarayonlar kategoriyasi va uning ta’rifi bilan bog‘liq tushunchalarga aniqlik kiritish lozim bo‘ladi.

“Ma’naviy jarayonlar” iborasi ikki so‘z birikuvidan iborat: ma’naviy va jarayon. “Ma’naviy” deganda insonning ichki dunyosi, ongi va qalbi nazarda tutiladi. Bugungi tahlil qilinayotgan masalaning mohiyatidan kelib chiqadigan bo‘lsak, jamiyatning birlikdagi ichki dunyosi nazarda

tutiladi. “jarayon” — a) biron narsaning rivojlanishida hodisa, holatlarning birin-ketin almashinuvi; b) biron-bir natijaga erishish uchun bo‘ladigan ketma-ket harakatlarning majmui.

Hozirgi kunda mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha jabhalari qatori ma’naviy jarayonlarni rivojlantirish barobarida yurtimizda tinchlik-xotirjamlikni, ijtimoiy totuvlikni, siyosiy barqarorlikni, iqtisodiy taraqqiyotni, fuqarolarning osoyishta va farovon yashashlari huquq va erkin ijod imkoniyatlarini ta’minlash bilan bog‘liq keng qamrovli islohot va modernizatsiyalash jarayonlari davom ettirilmoqda.

Shu ma’noda, ma’naviy jarayonlar ham demokratik, siyosiy yoki boshqa jarayonlar qatorida o‘z obyektiv qonuniyatlari asosida rivojlanadi. Ularni tahlil qilish o‘rganib borish va ularga amal qilish bugungi zamonning talablaridan biri hisoblanadi. Ma’naviy jarayonlar faqat sof nazariy yoki siyosiy-ijtimoiy jarayonlargina bo‘lib qolmay, shu bilan birga, xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, madaniyati, an’analari va uning ruhiy xususiyatlari hamdir. Pirovard natijada, ma’naviy jarayonlar mazmun va shakl birligi sifatida doimiy rivojlanish va takomillashish jarayonida bo‘ladi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, har bir jamiyat, davlat, millat yoki muayyan bir tarixiy avlod har qanday ijtimoiy munosabatlarni amalga oshirish sharoitida ham ma’naviy jarayonlarni o‘zlariga mos, o‘zlariga xos ma’naviy xususiyatlar bilan bog‘liq, ma’qul shaklini tanlaydilar. Shu asnoda, ular ma’naviy jarayonlar takomiliga o‘zlarining hissalarini qo‘shadilar.

Ma’naviy jarayonlarning shakllanishi va takomillashishiga ta’sir ko‘rsatadigan omillarni tahlil qilish ma’naviy jarayonlar tushunchasining namoyon bo‘lish xususiyatlari va asosiy tamoyillarini tahlil etishni taqozo etadi. Ayni paytda, ma’naviy jarayonlar demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etishning asosiy vositalaridan biri sifatida ham e’tirof etish lozim. Ilmiy izlanishlarimiz jarayoni shuni ko‘rsatadiki, ma’naviy jarayonlar davlat va jamiyatning qarashlari, intilish va maqsadlari majmuidan iborat bo‘libgina qolmasdan, balki u xalqimizning boy tarixiy, etnik hamda ijtimoiy taraqqiyotining huquqiy asoslarini, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy omillari, obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarini ham o‘zida mujassam etishi bilan e’tiborlidir. Shuning uchun ham ma’naviy jarayonlarni vujudga kelishining xalqimiz ruhiyati, siyosiy, mafkuraviy jarayonlar bilan bog‘liq jihatlarini tahlil qilish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga molikdir. Bu esa, mamlakatimizda barpo etilayotgan demokpatik fuqarolik jamiyatining o‘ziga xosligi, milliy g‘oyasi, xalqimiz tarixiy xotirasi, qadriyatlari, madaniy merosi, an’ana, urf-odatlari, orzu-umidlari namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Ma’naviy jarayonlar haqidagi yuqorida bayon qilingan turli qarashlar, avvalo, bu tushunchaning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rniga e’tibor qaratish lozimligini ko‘rsatadi. Ma’naviy jarayonlar, fuqarolik jamiyati tamoyillariga asoslangan, fuqarolarga farovon hayot kafolatlangan siyosiy tizim ekanligini e’tirof etish, fikrimizcha, konseptual ahamiyatga egadir. Ma’naviy jarayonlar faqat sof nazariy yoki siyosiy jarayonlargina bo‘lib qolmay, shu bilan birga, fuqarolarning turmush tarzi, madaniyati, urf-odatlari va uning ruhiy xususiyatlari hamdir.

Umuman jamiyatda kechadigan har bir jarayon tartibsiz ravishda emas, balki obyektiv qonuniyatlar asosida shakllanadi. Faqat ularni o‘rganish va amal qilish talab etiladi. Ana shunday faoliyat natijasida, ma’naviy jarayonlar doimiy rivojlanish va takomillashish jarayonida bo‘ladi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, har bir xalq, davlat, jamiyat, millat yoki muayyan bir davrdagi tarixiy avlod har qanday ijtimoiy munosabatlar sharoitida ham ma’naviy jarayonlarni o‘zlariga mos, o‘zlariga xos, ma’qul holda shakllantiradilar. Shu asnoda, ma’naviy jarayonlarning takomiliga o‘zlarining hissalarini qo‘shadilar.

Ma’lumki, zamonaviy G‘arbda bu jarayon, demokratiya bilan asoslanib, fuqarolik jamiyatini barpo etish, huquqiy davlat qurish, demokratik davlatni shakllantirish bilan bog‘liq o‘ziga xos qarashlar mavjud.[6] Ammo ana shu qarashlar opqali O‘zbekistonda ham demokratiyaning shunday formasini vujudga keltirish mumkin, degan xulosani bermaydi. Avvalo, jamiyatda muayyan demokratik tizimlar shakllanishi uchun obyektiv zaruriyat yuzaga kelishi kerak. Ana shu zaruriyat bizning jamiyatda ma’naviy jarayonlar bilan bog‘lik ekanini unutmaslik lozim. Bu jarayon shu hududda yashayotgan xalqning ijtimoiy turmush tapzidan, milliy qadriyatlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Uni qandaydir tashqi kuchlarning xohish-irodasi bilan qabul qilib bo‘lmaydi.

Qolavepsa, demokratiya tamoyillaridan eng muhimlaridan biri sifatida demokpatik jamiyat qurishning dunyoda e’tirof etilgan tamoyillarini tan olish va demokratiyaning milliy-madaniy meros va milliy qadriyatlar bilan bog‘liq xususiyatlariga tayanishdan iborat.[7]

Ana shu xususiyatlardan kelib chiqib, O‘zbekistonda demokratik tamoyillarni inkor etmagan holda, ma’naviy jarayonlar jamiyat hayotini tubdan isloh qilishda O‘zbekistonda demokratik jamiyat taraqqiyotining barcha jabhalarida muayyan ilmiy-nazariy tamoyillarini yaratish ishlari huquqiy asosda amalga oshirilmoqda. Ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar natijasida ma’naviy jarayonlarni rivojlantipish, xalqimizning g‘oyaviy-mafkuraviy qarashlarini inobatga olgan holda quyidagi tamoyillar

vujudga kelmoqda.

Birinchidan, ma’naviy jarayonlar mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalardagi o‘zgarishlarning ijtimoiy-ma’naviy jihatlarini uyg‘unlashtiradigan uzluksiz jarayon sifatida o‘zining aniq ifodasini topadi, ya’ni barcha sohalardagi islohotlarning asosiy maqsadi bo‘lgan inson kamolotini, qadr qimmati va manfaatini ta’minlaydigan ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantipish bilan bog‘liq vazifalarni amalga oshirishdagi asosiy mezon sifatida muayyan ahamiyat kasb etadi.

Bunda avvalo, shuni ta’kidlash lozimki, ma’naviy jarayonlar rivoji tabiiy jarayon. Mazkur jarayonda qo‘yidagi yo‘nalishlarni; a) jamiyatdagi ma’naviy o‘zgarishlarning islohotlar bilan hamohangligi; b) aholining mutlaq ko‘pchiligi uchun zaruriy ijtimoiy-ma’naviy ehtiyojga aylanishi; v) ijtimoiy o‘zgarishlarning kishilar ongida obyektiv in’kosi tarzida vujudga kelishi; g) ijtimoiy ong, ya’ni psixologik va g‘oyaviy-mafkuraviy tuyg‘ularning uyg‘unligi sifatida namoyon bo‘lishini alohida ta’kidlash lozim.

Ikkinchidan, ma’naviy jarayonlar jamiyat rivoji bilan bog‘liq muammolarning yechimlarini o‘zida aks ettiradi hamda ularni hal etish uchun jamiyat a’zolarini birlashtipishga xizmat qiladi. Shu makonda yashayotgan turli millat va elatlarning milliy-etnik hamda diniy hamjihatlikni ta’minlash bilan bog‘liq jihatlarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. YA’ni jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikning muttasilligi hamda davomiyligini ta’minlash maqsadida jamiyatning umummanfaati uchun uning barcha qatlamlarini jipslashtiradi. Ijtimoiy hamkorlikni yangi darajaga ko‘tarish omiliga aylanadi. Shuningdek, milliy-etnik birliklar va diniy qavmlarning siyosiy hayotda guruhlar manfaatini himoya qiluvchi partiya vakili tarzida emas, balki mamlakatning Konstitutsiyasida belgilangan tenglik tamoyili asosida, jamiyatning ajralmas a’zosi sifatida ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etishi uchun siyosiy-ma’naviy shart-sharoitlarning vujudga kelishiga yordam beradi.

Uchinchidan, jamiyat rivoji uchun olib borilayotgan islohotlar va o‘zgarishlarning asosiy maqsadi hisoblangan demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, qonunning ustuvorligi va milliy qadriyatlarni inkor etmagan holda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik kabi xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan tizimga intilishlarni umumlashtirish uchun imkon yaratadi.

To‘rtinchidan, mamlakatning ichki hayotini boshqarish jamiyat a’zolarining asosiy mezonlaridan biri bo‘lish bilan birga, tashqi siyosatda davlatning salohiyatini ko‘rsatadigan, bugungi mafkuraviy jarayonlar avj olayotgan davrda uning jahon hamjamiyati va halqaro

maydondagi obro‘-e’tiborini namoyon qila oladigan ma’naviy qadriyat mezonlarini, inson huquqlari, fuqarolarning imkoniyatlari, shuningdek, umumbashariy muammolarni hal qilish istiqbollari qay tarzda amaliyotga aylanayotganligini bildiradigan omil bo‘lib xizmat qiladi.

Albatta, ma’naviy jarayonlar bilan bog‘liq bu tamoyillar o‘z navbatida xilma-xil tarzda turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy jarayonlarning talabi va yo‘nalishiga ko‘ra, ularning har biri muayyan muddatga o‘z ahamiyatini yaqqolroq namoyon qilishi ham mumkin bo‘lsada, umumiy tizim rivojida ularning uyg‘unligi, uyg‘onishlar jarayonidagi serqirraligini umumlashtipish ehtiyoji doimo saqlanib qoladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – ТОШКЕНТ: Ўзбекистон, 2022. -Б. 25.

2. «Таълим тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг қонуни. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 9-сон, 225-модда; 2013 й., 41-сон, 543-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 05.01.2018 й., 03/18/456/0512-сон; 19.04.2018 й., 03/18/476/1087-сон). «Таълим тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг қонуни (Янги таҳрир). Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон; *Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 12.10.2021 й., 03/21/721/0952-сон*

3. «Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» Тошкент ш., 2019 йил 3 май, ПҚ-4307-сонли Қарор. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.05.2019 й., 07/19/4307/3079-сон; 17.03.2021 й., 06/21/6188/0216-сон, 26.03.2021 й., 07/21/5040/0243-сон

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги «Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» ПҚ-5040-сонли Қарори - Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.03.2021 й., 07/21/5040/0243-сон.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги «Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» ПҚ-5040-сонли Қарори - Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.03.2021 й., 07/21/5040/0243-сон.

6. Held D. Models of democrasy. – Oxford, 1987. -110 p; Pridam

G. Democratic Transitions in Theoriy and Practike // Democratization in Elastem Europe. –L., 1994. -42-68 pp; Mainovski B. Freedom and Civilization. – London: 1987. –65-67p; Democrasy and Political Transformation. – Budapesht, 1991. -188 p; Levely I. Democracy. – Oxford, 1985. -184 p; Huntington S.P. The Third Wave: Democratization in the Late Twentieth Century. – Norman. 1991. -108 p; **Глоссарий.ru: Демократия**. www.glossary.ru/; **Демократия**. **www.emc.komi.com**; «. **www.n-europe.eu/content**; Гражданская активность и демократия в информационном веке. www. microsoft. com/Rus/Government/News

7. Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти. – ТОШКЕНТ: Наврўз, 2005.- Б. 30-35.

8. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – ТОШКЕНТ: «Ўзбекистон», 2021. - 80 б.

ABDUXALIL MAVRULOV,
tarix fanlari doktori, professor

MADANIYAT – YOSHLARNI TURLI MAFKURAVIY TAHDIDLARDAN SAQLOVCHI KUCH

Bugungi dunyo shiddat bilan o‘zgarib borayotgan, qadriyatlar transformatsiyasi inson aqli tasavvuridan ham tez yuz berayotgan, ming yillar davomida shakllangan axloqiy-ma’naviy meyorlar tanazzulga uchrayotgan bosqich sifatida jahon tarixidan o‘rin egallaydi. Mafkuraviy-g‘oyaviy alg‘ov-dalg‘ovlar, ijtimoiy mo‘ljalni topishdagi noaniqliklar, dunyo hamjamiyatining “ommaviy bezovtaligi” – bularning bari har bir davlat, uning siyosiy rahbariyatidan bunday ziddiyatli holatdan chiqishning mutlaqo yangi yo‘llarini izlab topishni talab qilmoqda.

Darhaqiqat, bugun iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy, ilmiy-texnologik jihatdan misli ko‘rilmagan yutuqlarga erishgan qator yirik davlatlar ham g‘oyaviy-mafkuraviy jihatdan og‘ir damlarni boshidan kechirmoqda. Azaliy qadriyatlar o‘rnini faqat shaxsiy manfaat, aysh-ishrat, huzur-halovat mayllariga yo‘g‘rilgan “yangi axloq va e’tiqod” egallayotgani, bir so‘z bilan aytganda G‘arb tamaddunining demografik, milliy-etnik hamda ma’naviy asoslarining yemirilayotgani, hatto Amerikadek qudratli davlat ham davr tahdidlariga dosh bera olmayotgani tobora yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

G‘arb mamlakatlari hayotining turli sohalarida yuz berayotgan jarayonlarni xolisona tadqiq etayotgan olim-mutaxassislar asrlar mobaynida G‘arb davlatlari taraqqiyotini belgilab bergan liberalizm ta’limoti zamon talablaridan ortda qolayotgani, g‘arbona individualizmning ta’sirida jamoaviy mas’ullik barham topayotgani, jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy, madaniy tabaqalashuv xatarli tus olayotgani, erkinlik – mas’uliyatsizlikka, plyuralizm esa – turli xalqlar qadriyatlarining qorishuviga olib kelayotgani, sirasini aytganda, G‘arb tamadduni g‘oyaviy-nazariy va mafkuraviy jihatdan boshi berk ko‘chaga kirib olayotganini ta’kidlamoqda.[2]

Bunday ayanchli hol bugun dunyoning barcha burchaklariga ham yetib bordi. Bunday xavf-xatardan omon qolishning o‘zi bo‘lmaydi. Shu nuqtai nazardan biz o‘z mamlakatimiz va millatimizni ana shunday balo-qazolardan saqlab qolishni eng ustuvor vazifalarimizdan biri sifatida tan olishimiz kerak, deb o‘ylaymiz.

Ana shunday murakkab sharoitda, shuningdek, dunyoni manfaatlar, g‘oyalar, mafkuralar boshqarayotgan bir sharoitda har bir davlat va xalq

milliy o‘zligini, qadriyatlarini saqlab qolishga harakat qilish tabiiydir. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining raisi Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi quyidagi fikrlarini doimo e’tiborga olish lozim, deb o‘ylaymiz: “Bugun jahon miqyosida taraqqiyot sur’atlari misli ko‘rilmagan darajada shiddatli tus olmoqda. Ayni vaqtda azaliy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar tizimida chuqur transformatsiya jarayonlari yuz bermoqda. Ilgari o‘z maqsad va manfaatlarini asosan diplomatiya va siyosat bilan himoya qilib kelgan dunyodagi qudratli markazlar endi ochiqchasiga bosim o‘tkazish, qarama-qarshilik va to‘qnashuvlar yo‘liga o‘tganiga hammamiz guvohmiz”.[1]

Haqiqatdan ham tobora o‘zgarib borayotgan hozirgi sharoitda harakat qilmaslik, loqaydlik, beparvolik, faqat o‘zining mayda maishiy manfaatlari bilangina o‘ralashib qolish har qanday jamiyatni ham, uning fuqarolarini ham taraqqiyotdan chetga surib qo‘yishi tabiiydir. Qolaversa, bugungi dunyoda turli axloqsizliklarning tobora ko‘payib borishi, g‘oyaviy-mafkuraviy ichki va tashqi tahdidlar ta’sirining ortib borishi ham davlatlar va xalqlar taraqqiyotiga jiddiy to‘siq bo‘lmoqda.

Dunyoni bugun manfaatlar, g‘oyalar, mafkuralar boshqarayotgan bir sharoitda har bir davlat va xalq milliy o‘zligini, qadriyatlarini saqlab qolishga harakat qilar ekan, shubhasiz bu narsa o‘zining natijasini ko‘rsatadi. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining raisi Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi quyidagi fikrlarini doimo e’tiborga olish lozim, deb o‘ylaymiz: “Bugun jahon miqyosida taraqqiyot sur’atlari misli ko‘rilmagan darajada shiddatli tus olmoqda. Ayni vaqtda azaliy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar tizimida chuqur transformatsiya jarayonlari yuz bermoqda. Ilgari o‘z maqsad va manfaatlarini asosan diplomatiya va siyosat bilan himoya qilib kelgan dunyodagi qudratli markazlar endi ochiqchasiga bosim o‘tkazish, qarama-qarshilik va to‘qnashuvlar yo‘liga o‘tganiga hammamiz guvohmiz”.

Albatta, bunday noxush holatlarning oldini olish oson emas. Biroq, bu – bajarib bo‘lmaydigan vazifa ham emas. Bizning qat’iy xulosamiz shundan iboratki, bugungi dunyodagi turli siyosiy, g‘oyaviy-mafkuraviy kelishmovchiliklar, ziddiyatli holatlarning oldini olishning eng ishonchli, eng muhim yo‘li – madaniyat va san’at kabi muhim fenomen hodisaga suyanishdan iboratdir. Madaniyat bugun mamlakatni yanada rivojlantirish, jamiyatni bundan ham barqarorlashtirishning muhim omiliga allaqachon

aylanib bo‘lgan.

Shuning uchun ham mamlakatimizda jamiyatni barqarorlashtiruvchi, odamlarda yaratuvchilik va ijodkorlik ruhini shakllantiruvchi kuch sifatida madaniyat va san’atga katta e’tibor berilmoqda. Ayniqsa, bu borada keyingi 7-8 yillar mobaynida qilingan ishlar, amalga oshirilgan islohotlar xalqimiz tomonidan xursandchilik bilan kutib olinmoqda.

Birgina uzoq yillar davomida o‘n minglab madaniyat va san’at xodimlari kutgan kun – O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishining o‘zi jamiyatda qanchalar kuchli ijodiy muhitning paydo bo‘lganligiga sabab bo‘lganligini tasavvur etish qiyin emas. Mamlakatimizda har yili 15 aprel sanasini Madaniyat va san’at xodimlari kuni etib belgilanishinichi?

O‘zbekiston hukumati madaniyat va san’atning insonlarni bir-biriga yaqinlashtirish, odamlar orasida ijodkorlik muhitini yaratish, jamiyatda mustahkam ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni shakllantirishdagi o‘rnini teran anglab, ushbu sohani har tomonlama rivojlantirishga astoydil bel bog‘ladi. Shu ma’noda o‘tgan qisqa muddat davomida yurtimizda 11 ta yangi muzey, 2 ta teatr, 28 ta bolalar musiqa va san’at maktabi, 5 ta madaniyat va san’at oliy ta’lim muassasalari barpo etildi.

Mamlakat rahbariyati bugungi dunyoning tobora globallashib borishi, uning qator salbiy holatlarini e’tiborga olgan holda xalqimiz ongida milliy o‘zlikni yanada mustahkamroq shakllantirishga, fuqarolarning tobora ortib borayotgan milliy madaniy va ma’naviy ehtiyojlarini sifatliroq qondirishga ham alohida e’tibor bermoqda.

Shu ma’noda milliy an’ana, qadriyatlarimizni yanada kuchliroq avaylab-asrash va boyitish maqsadida Maqom, Baxshichilik va Askiya san’ati markazlari tashkil etildi. Bu jarayonlar, so‘zsiz hozirgi sharoitda xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizni turli ichki va tashqi ma’naviy hamda mafkuraviy tahdidlardan, tobora ommalashib borayotga axlosizliklardan asrab qoladigan ta’sirchan kuchga aylanmoqda.

Yana shu narsaga alohida e’tibor berish lozimki, qayerda mamlakat rahbari, boshqa katta va kichik rahbarlar madaniyat va san’at masalalari, ularning moddiy ta’minoti bilan jiddiy shug‘ullansalar ana shu joyda sezilarli yutuqlarga erishish mumkin. Shu o‘rinda mamlakat rahbarining 2017 yil 3 avgustda madaniyat va san’at, ilg‘or ziyolilar bilan bo‘lgan tarixiy ijodiy uchrashuvini alohida ta’kidlash lozim. O‘sha uchrashuvdan so‘ng ijodiy tashkilotlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 70 ga yaqin “Do‘stlar klub”i tashkil etilgan edi. Qisqa muddatda bu yo‘nalishda 85 milliard so‘m homiylik yordami ko‘rsatildi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, madaniyat, san’at, ma’naviyat

sohasiga moddiy-iqtisodiy jihatdan yordam ko‘rsatish “metsenatlik” harakati, deb nomlanadi. Xorij davlatlarida bu harakat keng yoyilgan. O‘z mamlakati, millatini sevgan, uning uchun barcha imkoniyatlarini ishga solishga tayyor bo‘lgan har bir tadbirkor, ishbilarmon, boy-badavlat kishilar madaniyat va san’at sohasiga o‘zlarining beminnat yordamini ko‘rsatib kelganlar.

Bugun Yangi O‘zbekistonda ham mamlakat rahbari tomonidan yaratilgan barcha imkoniyatlar natijasida halol mehnat bilan, ishbilarmonlik va tadbirkorlik natijasida millardlab pul topayotgan boylarimiz ko‘payib bormoqda. Ayni paytda, yurtimizda madaniy-ma’rifiy sohaning moddiy ta’minotiga ko‘mak berayotgan, turli ko‘ngilochar muassasalar, kutubxonalar, ilm-fan, ijodiy to‘garaklar ochayotgan vatandoshlarimiz tobora ko‘payib borayotganligini xursandchilik bilan qayd etish lozim. Bunday metsenatlar, shubhasiz, Yangi O‘zbekistonni barpo etish, ma’rifatli davlat qurish, jamiyatda kuchli ijtimoiy-ma’naviy barqarorlik muhitini yaratishdagi faolliklari uchun xalqimizning rahmatlari va duolariga loyiqdirlar.

Jamiyat taraqqiyotiga, kishilar ijtimoiy ongiga, pirovard natijada insoniyat taqdiriga madaniyat kabi kuchli ta’sir etuvchi omil bo‘lmasa kerak. Chunki, madaniyat insonning intellektual va ruhiy holatini tartibga keltiruvchi, uni jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotidagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi muhim hodisa hisoblanadi. Qolaversa, madaniyat inson, uning ongli faoliyati, mehnat yaratuvchanligi, odamlar orasidagi faollik darajasi bilan kuchli aloqadorlikda ekanligini ham qayd etish lozim.

Jamiyat qanchalar darajada rivojlanib borar ekan, madaniyat va san’atning o‘rni va roli ham shunga mos darajada oshib boraveradi. Biz bugun Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessansni barpo etar ekanmiz, bu tarixiy jarayonni madaniyat va san’atning ulkan ulushisiz amalga oshirib bo‘lmasligini anglab yetishimiz lozim. Haqiqatdan ham, Uchinchi Renessansni barpo etish uchun biz bugun yetarli salohiyatga egamizmi? Ushbu vazifani bajarishda biz nimalarga suyanishimiz lozim?

Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, biz bugun tarixiy taraqqiyot taqozasi bilan, davr talablari nuqtai nazaridan Uchinchi Renessans poydevorini qurishga kirishdik. Uning sabablari bor. Chunki, birinchidan, bizning vujudimizda o‘rta asr sharq allomalari-yu mutafakkirlarining qonlari oqmoqda. Ular tomonidan yaratilgan yuksak ilm-fan va madaniy merosi bizga yangi Renessans qurishdek murakkab ishda ko‘mak, kuch-qudrat bo‘ladi.

Ikkinchidan, mustaqillik tufayli biz o‘zligimizni tobora teran anglab

bormoqdamiz. Yangi O‘zbekistonda ma’rifatli davlat barpo etmoqdamiz. Bunday davlatning poydevori esa, hech shubhasiz, madaniyat, ma’rifat bilangina mustahkam bo‘lishi mumkin. Shu ma’noda, bugun mamlakatimizda madaniyat va san’atni rivojlantirishdan eng avvalo davlatning o‘zi manfaatdor. Yaratilayotgan imkoniyatlar, yangidan yangi madaniyat muassasalari, bilim yurtlari, soha mutaxassislarini moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash borasidagi sa’y-harakatlardan ko‘zlangan asosiy maqsad ham mazkur fenomen hodisa tufayli Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlash, jamiyat a’zolarining ma’naviy dunyosini shakllantirish, ma’rifatli davlat qurishdir.

Endi masalaning boshqa jihatiga e’tibor beraylik: ijtimoiy taraqqiyotning bugungi sharoitida madaniyat va san’atning tutgan o‘rni nima bilan belgilanadi, bunday sohaning vazifalari nimalardan iborat bo‘lishi mumkin? Mening fikrimcha, bugungi madaniyat eng avvalo jamiyatni birlashtiruvchi, xalqimizni bir maqsad yo‘lida jipslashtiruvchilik vazifasini bajarishi lozim. Bu narsa madaniyat nazariyasi fanida madaniyatning ijtimoiylashuvchilik vazifasi ham deyiladi.

Ma’lumki, ijtimoiylashuv biron-bir hodisa, shaxs yoki harakatning ijtimoiy ahamiyat kasb etib, ko‘pchilikka dahldor bo‘lib, ijtimoiy munosabatlar mujassamiga aylanib borishini anglatadigan tushuncha hisoblanadi. Aslida, masalaga chuqurroq qaraydigan bo‘lsak, odamlarning bir-biri bilan munosatlarining shakllanishi ham ularning ijtimoiylashuvi tufayli sodir bo‘lgan. Shu o‘rinda ibtidoiy odamning ijtimoiylashuvi ma’lum ma’noda ilk jamiyatlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lganligini ham eslash lozim.

Ayrimlar madaniyat va san’atni asosan o‘yin-kulgidan, xushchaqchaqlikdan, ko‘ngilxushlikdan iborat, deb biladilar. Bu gapda muayyan ma’noda jon borlig‘ini e’tirof etish lozim. Chunki, insonning hayoti faqat mehnat qilish, faoliyat ko‘rsatishdan iborat emas. Barchamiz bo‘sh vaqtlarda ko‘ngilxushlikni, do‘stlar davrasida musiqa sadolari ostida ma’naviy dam olishi istaymiz.

Biroq madaniy xordiq faqat ko‘ngilxushlikdan iborat emas. Madaniy xordiq har bir insondagi ijodiy qiziqishlar, uning tobora ortib boradigan madaniy e’tiyojlarini qanoatlantirish bilan ham bog‘liq. Shu ma’noda, madaniyat va san’atning jamiyat a’zolarini ijtimoiylashtiruvchilik vazifasini alohida qayd etish kerak.

Madaniyat va san’at orqali, xususan, teatr tomoshasi, kino mahsulotlari, kuy-qo‘shiqlar har birimizda ruhiy o‘zgarishlarni amalga oshiradi, kayfiyatni ko‘taradi. Insonning paydo bo‘lishidan to takomiliga yetkunicha ham barcha jarayonlar madaniyat, san’at, hususan musiqa

bilan bog‘liq.

Xususan, musiqa san’atining paydo bo‘lishi ham insoniyatning yaratilishi bilan bog‘liq. El ichida shunday rivoyat bor. Insonga jon musiqa bilan kirgan emish. Nayning sehrli sasi ta’sirida jon qanday qilib qorong‘u tanaga kirganini bilmay qolgan emish. Bu rivoyat behudaga to‘qilmagan. Xalqimiz ichida “Agar shamol bo‘lmasa daraxtning uchi qimirlamaydi”, degan naql bor.

Bu, albatta rivoyat. Ammo, har bir rivoyatning tagida shubhasiz, haqiqat bor. Shu ma’noda, madaniyat va san’at, jumladan, musiqa san’ati ham xalqimiz tomonidan azal-azaldan e’zozlab kelingan, odamlar o‘zlarining ham quvonchli, ham tashvishli kunlarida san’atga, ayniqsa, musiqa san’atiga murojaat qilganlar, ko‘ngil muvozanatiga ega bo‘lganlar.

Madaniyat va san’atning odamlarni ijtimoiylashtirishdagi roliga mamlakatimizda keng e’tibor berilayotganligining sabablari bor. Birinchidan, ayrim fuqarolarimiz jamiyatda sodir bo‘layotgan turli voqea-hodisalar mazmun-mohiyatidan bexabarligi tufayli o‘zlari bilan o‘zlari bo‘lib qoladilar. Natijada ular jamiyatdan uzilib qolgandek bo‘ladilar, o‘zlarini yolg‘iz his qiladilar. Madaniyat va san’atning kuchi shundaki, o‘sha toifadagi odamlarni hayotga, yashashga, ijod qilishga bo‘lgan intilish va qiziqishlarini uyg‘otadi.

Ikkinchidan, madaniyat va san’atning ahamiyati shundaki, bu jabha odamlarni qiynamaydi, inson o‘z ruhiyatiga mos bo‘lgan san’at turini tanlab olgan holda madaniyatning o‘ziga ma’qul turi bilan yurakdan, chin dildan istab shug‘ullanish imkoniyatini beradi. Shu ma’noda madaniyat va san’atni inson ijtimoiylashuvidagi eng maqbul, ishonchli omil, deyish mumkin. Shu o‘rinda yana bir muhim masalaga diqqatni qaratish kerak, deb o‘ylaymiz. Gap madaniyat va san’atning jamiyat hayotidan chetlashib qolgan ayrim a’zolarining o‘zligini anglashiga yordam berishi bilan bog‘liq funksiyasi ustida ketmoqda. Biz Uchinchi Renessansni barpo etish barobarida ana shunday shaxslarning jamiyat hayotidagi ishtirokini faollashtirishga ega bo‘lamiz.

Madaniyat va san’at orqali odamlarni ijtimoiy faollashtirish deganda bu holni ularning barchasi bir xil tarzda fikrlashishi, tafakkur tarzining o‘xshashligi sifatida ko‘rish aslo mumkin emas. Inson har qanday sharoitda ham individual, o‘ziga xos. Uning o‘z ma’naviy qiyofasi, shu asnoda, tafakkur tarzi, hayotga bo‘lgan munosabatlar mavjud. Madaniyat va san’at hech qachon jamiyat a’zolaridagi ijtimoiy ongni birxillashtirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymaydi. Aksincha, madaniyat va san’at har birimizning o‘zligimizni “ochishi”, har birimizda bor bo‘lgan, ammo uni har daqiqada sezavermaydigan qiziqishlarimiz-u iqtidorlarimiz,

iste’dodlarimizni ro‘yobga chiqishga ko‘mak berishi lozim.

Madaniyat va san’atning jamiyatni ijtimoiylashtirishdagi muhim o‘rni bugun biz barpo etayotgan jamiyatning mazmun-mohiyati bilan ham uyg‘un. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yangi O‘zbekistonni ijtimoiy davlat, deya atadi. Bu fikrning tub ostida juda katta ma’no bor. Ya’ni, biz yangi jamiyat qurar ekanmiz, uni odamlarimiz faoliyati, ongi-tafakkuridagi yaxlitlik, maqsad-muddaolarga erishish yo‘lidagi qat’iyatliliksiz bajara olmaymiz.

Boshqacha so‘z bilan aytganda, biz yangi jamiyatni birgalikda, hamjihatlikda, o‘zaro hamkorlikda qura olamiz. Bu vazifalar quruq so‘z emas. bu – O‘zbekiston Respublikasining yangilangan konstitutsiyasida, uning 1-moddasida ham qonunlashtirib qo‘yilgan – “O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”.

Masalaga shu nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, bugun madaniyat va san’atning oldidagi eng katta vazifalardan biri odamlarni jipslashtirish, ularda milliy g‘ururni kuchaytirish, ta’sirchan asarlar orqali har birmizda yuksak e’tiqodlarni shakllantirishdan iboratdir.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish barobarida madaniyat va san’atning o‘ziga xos vazifalari to‘g‘risida to‘xtalar ekanmiz, biz uchun bugun hayot-mamot masalasi bo‘lgan tarbiya to‘g‘risida to‘xtalmasligimiz mumkin emas. “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda, – deydi mamlakat rahbari Shavkt Mirziyoyev – ma’naviyat va ma’rifatga, axoli barcha qatlamlarining axloqiy tarbiyasiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Negaki, mamlakatimizdagi mavjud uzluksiz ta’lim tizimi aholining beshdan bir qismini qamrab olgan. Ushbu tizim qamrab olgan bolalar va o‘smirlardan tashqari, aholining katta qismi orasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning tizimli yo‘lga qo‘yilishi va bu borada yuksak samaradorlikka erishish o‘tkir zaruratga aylanmoqda”.[3]

Madaniyat va san’at sohasi ana shu murakkab vazifani bajarishda eng oldingi o‘rinlarda bo‘lishi lozim. Ammo, dunyoda ro‘y berayotgan kuchli globallashuv mamlakatimiz yoshlari tarbiyasiga, ularning ruhiy olamiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Aslida madaniyat va tarbiya bir-birini doimo to‘ldirib boradigan bir-biriga ruhiy madad beradigan ijtimoiy-ma’naviy hodisa hisoblanadi.

Madaniyat deganda biz bilim, ko‘nikma, norma-meyorlar, ideallar, faoliyat va xatti-harakat namunalari, g‘oyalar va farazlar, ishonch va e’tiqod shakllari, ijtimoiy maqsad-mo‘ljallar yig‘indisini tushunamiz.

Tarbiya esa muayyan xalqning ming yillar davomida shakllangan, ijtimoiy tajriba natijasida sayqallangan, avlodlararo ijtimoiy-tarixiy va hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiladigan, oila, ta’lim muassasalari, ijtimoiy-siyosiy va boshqa tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari ta’siri ostida shaxs ma’naviy dunyosini shakllantirish jarayonini anglatuvchi tushuncha hisoblanadi.

Har qanday jamiyatning kelajagi, taraqqiyot yo‘nalishi ana shu ikki muhim ijtimoiy-ma’naviy hodisaning uyg‘un darajada faoliyat ko‘rsatishiga bog‘liq. Mamlakat rahbari ham hozirgi murakkab geosiyosiy, mafkuraviy muhitda madaniyat va tarbiya jarayonining uyg‘unligiga alohida e’tibor qaratmoqda. Biz tinglayotgan kuy-qo‘shiq, tomosha qilayotgan teatr asari, kino mahsuloti, zavqlanayotgan tasviriy san’at asarlari qanchalik darajada xalqning ruhiyatiga, xarakteriga yaqinligiga qarab uning ta’sir kuchini anglash mumkin.

Shu ma’noda biz uchun xalqimizning madaniy saviyasi, ma’naviy olami qanchalik muhim bo‘lsa, ularning tarbiyasi, tafakkur darajasi ham shu qadar zarur. Yangi O‘zbekiston barpo etilayotgan bugungi sharoitda yoshlarga shunday tarbiya berish lozimki, ular o‘z ota-bobolari, o‘z tarixi, Vatani, ona tili, millat ulug‘lari, muqaddas Islom dini an’analariga sodiq qolishsin. Kitoblardan o‘rganilgan ma’rifiy ilm qatorida oilada olingan hayot ilmi ham ularga suv va havodek zarur. Ana shu tarbiya madaniyat va san’atni yanada jozibador va ta’sirchan qiladi, odamlarda ruhiy ko‘tarinkilik kayfiyatini shakllantiradi, ularda Vatanga bo‘lgan muhabbatni oshiradi. Aslida ushbu ikki fenomen hodisadan kutilayotgan natija ham shu.

Madaniyat va san’atning muhim vazifalaridan yana biri shaxs va davlat o‘zaro munosabatlarini tartibga solishdan iboratdir. Barchaga mu’lumki, bu o‘ta murakkab masala. Murakkabligi shundaki, har qanday jamiyatda ham shaxs va davlat manfaatlari bir-biriga mutanosib bo‘lavermaydi. Davlat oldida turgan buyuk vazifalar aslida shu shaxs, shu xalq manfaatlarini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan bo‘lsada, biroq, mazkur maqsadga erishish yo‘lidagi qiyinchiliklar shaxsni muayyan darajada oraliqda ushlab turishga majbur qiladi.

Ana shunday sharoitda madaniyat va san’at o‘z kuchini ko‘rsatadi. Ta’bir joiz bo‘lsa aytish kerakki, madaniyat asarlari har qanday odamga ruhiy quvvat beradi, undagi qo‘rquvning, hadiksirash alomatlarining oldini oladi, shaxsda o‘ziga ishonch tuyg‘usini uyg‘otadi, yangi zafarlar sari yo‘naltiradi. Nazarimizda, bular hammasi emas. Insonning madaniyat va san’atga oshno bo‘lishi uning ijodkorlik qobiliyatlarini ochadi, yangi marralar sari yetaklaydi.

Buning natijasida insonning tom ma’nodagi mohiyati ochiladi. Davlat va shaxs munosabatlari uyg‘unlashmagan har qanday mamlakatda ijtimoiy kelishmovchiliklar, muayyan ziddiyatlar yuzaga kelishi tabiiydir. Bugun mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishda shuning uchun ham davlat va inson masalasi, ularning o‘zaro munosabatlariga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Ta’kidlash lozimki, bu munosabatlar bugungi kunda yanada takomillashmoqda. Kuni kecha “davlat-jamiyat-inson” tamoyili amal qilgan bo‘lsa, bugun “inson-jamiyat-davlat” tamoyili davlat va jamiyat hayotining mazmunini tashkil etmoqda. YA’ni, “Davlat – inson uchun”, “Avval inson, keyin jamiyat va davlat” degan yangi tamoyil va g‘oyalarning amal qilishi shaxsning davlat va jamiyat bilan munosabatlarini yanada mustahkamlaydi.

Bu jarayonning yana hayotbaxsh bo‘lishi, mavjud muammolarning tezroq va samaraliroq bajarilishi esa, so‘zsiz, madaniyat va san’at sohasining ish natijasiga bog‘liqdir. Insoniyat tarixida madaniyat va jamiyat masalasi, ular munosabatlari har doim ham alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Jamiyat hayotining barqarorligi, uning kelajagi ham ko‘p hollarda ana shu munosabatlarga bog‘liq bo‘lgan. Odatda, madaniyat huddi ishlab chiqarish, siyosat, boshqa ijtimoiy instituilar kabi muayyan jamiyatning ajralmas qismi sifatida e’tirof etiladi.

Bir tomondan, madaniyat insonning ma’naviy olami sifatida ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga sezilarli ta’sir etsa, boshqa jihatdan, madaniyatning alohida tipi ko‘rinishida u ijtimoiy hayotda siyosat, iqtisod kabi sohalarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Madaniyat va jamiyat, har ikki hodisa bir makon va bir zamonda mavjud bo‘lsada, ularni aynan bir xil narsa sifatida tasavvur etib bo‘lmaydi.

Insonning rivojlanishi, uning jamiyatda munosib o‘rin egallashi madjaniyat va san’at fenomeni orqali yuz beradi. Shu ma’noda madaniyatni shaxs va jamiyat bilan nisbatida, shubhasiz, ustuvor o‘ringa ega deyish mumkin. Darhaqiqat, bir tomondan shaxsning, boshqa tomondan jamiyatning shakllanishi, rivojlanishi, takomilga yetishi faqat va faqat madaniyat va san’at orqaligina yuz berishi mumkin.

Shuning uchun ham, tom ma’noda inson kamoloti uchun qayg‘urgan, adolatli jamiyat barpo etishni maqsad qilib qo‘ygan har qanday davlatda madaniyatga katta umid bilan qaralgan. Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlarida ilm-fanning rivoj topishi, ijtimoiy hayotning jonlanishi, jamiyatda adolat tamoyillarining tarkib topishi, so‘zsiz, madaniyat va san’at masalalariga alohida o‘rin berilgani bilan izohlanadi.

Biz yuqorida madaniyat va san’atning shaxsni ijtimoiylashtiruvchilik

va insonni tarbiyalashdagi ustuvorlik roli haqida fikrlashdik xolos. Madaniyat va san’at aslida juda keng tushuncha bo‘lib, u jamiyat hayotining barcha bo‘g‘inlariga kirib boradi. Uning shaxs, jamiyat va davlatning biror jabhasiga ta’sir ko‘rsatmaydigan faoliyati mavjud emas. Shu ma’noda mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni va Uchinchi Renessans asoslarini barpo etish jarayonida ushbu muhim ijtimoiy hodisaning o‘rni va nufuzi tobora ortib boraveradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Шавкат Мирзиёев.“Янги Ўзбекистон”, 2023 йил 23 декабрь
2. Патрик Жозеф Бьюкенен. Ғарбнинг ўлими. –Тошкент, 2021. -12-бет.
3. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. –Тошкент, 2022. -273-бет

SARVARJON G‘AFUROV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i, siyosiy fanlar doktori, professor

RADIKALIZM – PSIXOLOGIK TERROR FENOMENI

XXI asrda ongli mavjudot bo‘lmish shaxs “o‘smirlik pallasidan o‘tib, yetuklik payti kelsa” ham o‘zini–o‘zi, “etini” yeb turganini ko‘rib, inson qiyofasini yo‘qotmagan har bir kishini o‘yga toldiradi. Insoniyat paydo bo‘libdiki, o‘zining qarashlari, maqsadlari, manfaatlari yo‘lida doimo kurashib kelgan. Ilohiy ta’limotlarda ezgulik, bag‘rikenglik, yaxshilik, to‘g‘rilik, tinchlik kabi xislatlarning targ‘iboti, tamoyillari aniq belgilab berilgan bo‘lsada, jamiyatda doimo nizolar, ziddiyatlar davom etmoqda.

Inson ajib – tilsimlarga boy bir mavjudot. Sababi uning ongi, ma’naviyati, o‘z dunyoqarashi, ichki psixologiyasi mavjud. U dunyoni yaxlit tasavvur etib, uning ma’lum qonuniyatlar ustiga qurilganini anglay oladi. Amallar va qilmishini ma’naviyat tarozisiga solib, “oq va qora”, “yaxshi va yomon”ga ajratishga qodir. Garchi ma’naviy olamni ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmasa-da, inson borlig‘i, tafakkuri, hayoti uchun muhimligini his etadi. Faqatgina bu tamoyillarga amal qilishga intilish turli g‘oyaviy qarashlar, maqsadlar va yondashuvlar oldida ikkinchi darajali narsaga aylanadi.

Insonlarning hayotga yondashuvi turlicha. Hatto bitta qarashning ichida ham turlanish mavjud. Hatto bir oila a’zolari ichida turlicha fikrlaydiganlar bo‘lishi tabiiy, zero insonlar bir xil emas. Har bir invidiumda o‘ziga xos ong, dunyoqarash, fikr doirasi bo‘ladi. Shu bilan birga, turlicha qarashdagi insonlar bir maqsadda birlasha olsa, jamiyatda tinchlik-totuvlik bardavom bo‘ladi. Va aksincha, kichik jamiyatda bo‘lsada, fikrlari bir-biriga mos tushmaganlarning barqaror yashashlari imkonsiz.

Umuman olganda, jamiyatda totuvlikda yashashga nima xalaqit beradi? Jamiyat a’zolarini muayyan bir ezgu g‘oya atrofida birlashtira olish umumiy ijtimoiy totuvlikni kafolatlay oladi. Turli muammolarni ham aynan shu mujassamlik ichida muvaffaqiyatli hal qilish imkoniyati yuqori. Dunyoqarashning bir doiradan chiqishi umumiy muvozanat buzilishiga, jiddiy muammolar va nizolarning ildiz otishiga olib keladi. Jamiyatdagi mafkuraviy bo‘shlik yoki tarqoqlik umumiy beqarorlik, g‘oyaviy bo‘linish va millat yakdilligi muvozanati buzilishiga olib keladi.

Kishining o‘z millati va Vatani uchun qayg‘urishi, uning rivoji

va ozodligini istashi bu ijobiy xislat, har bir inson tabiatiga bezak bo‘la oluvchi tuyg‘u. Biroq bunday intilish qizig‘ida inson ma’naviy me’yorlarni chekkaga surib qo‘ysa, u o‘sha doiradan chiqib ketgan hisoblanib – radikallashish asnosida fundamentalizm, ekstremizm va boshqa – jiddiy ijtimoiy illatlarga duchor bo‘ladi. Radikalizm ta’siriga berilgan shaxsning jamiyat, atrofidagi insonlar ongi, dunyoqarashini ham aql doirasidan chiqarishi, yo‘ldan og‘dirishi, ezgu-maqsadlardan adashtirishi mumkin bo‘ladi.

Radikal tuyg‘ular kishini keskin amallarga yetaklaydi. U radikal, ekstremistik turdagi fikrlarni qo‘llashga, so‘zlashga undaydi, keskin harakatlar ijrochisiga aylanishiga olib keladi. Bunday radikalizm ma’naviy me’yorlardan chetlanish, deb hisoblanadi. Shaxsning, guruhning, partiyaning, jamiyatning bunday harakatlari, tabiiyki, jiddiy salbiy oqibatlarga olib keladi. Radikal, ekstremistik faoliyatning keskinlashuvi haqidagi xabarlar tezda dunyoga yoyilib, mamlakat haqida salbiy tasavvur shakllanadi, davlatning xalqaro imidjiga putur yetadi.

Inson mavjud voqe’likni o‘z ongi ila to‘g‘ri anglasa, bu – ijobiy xislat. Voqe’likni to‘g‘ri anglash aynan o‘sha jarayon bilan to‘g‘ri munosabatga kirishish imkonini beradi. Muammoni to‘g‘ri anglash – u haqida to‘g‘ri ma’lumotga ega bo‘lishdir. Bu esa xabarni to‘g‘ri talqin qilish va undan to‘g‘ri foydalanish evaziga bo‘ladi.

Radikallashuv bu – ma’lum bir narsaga ko‘p e’tibor qaratib yuborish, bo‘rttirish, reallikdan uzoq maqsad va manfaatlarni ko‘zlashdir. Mavjud siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni anglamaslik, qarama-qarshi munosabat bildirish, ma’naviy o‘zlikni unutish radikallashuv oqibatida yuz beradi. Aynan shu tarzda insoniyat uchun muhimroq bo‘lgan ma’naviyat tanazzulga uchrab, ikkinchi darajali moddiyat qiymat shkalasida yuqoriga chiqadi. Natijada shaxsning ongi, dunyoqarashi buziladi. Radikallashuv jarayonida shaxs o‘zining sub’yektiv qarash va hissiyotlarini bo‘rttirib yuboradi, va natijada, uning hayot tarziga nisbatan shaxsiy nafrat dunyosi hosil bo‘lib, fikrlari radikallashib boradi.

Millatini sevgan kishi radikal qarashlarga berilganida undagi **shovinizm** – “*bir millat boshqasidan ustun*”, “*bir millat boshqasini diskriminatsiya qilsa bo‘ladi*” kabi g‘oya va tushunchalar uning e’tiqodiga aylanadi. Radikalizm millat sha’nini yuksaltirish uchun ma’naviy nizomlarni buzadi. Aynan shu yerda ijobiy xislat salbiyga aylanadi, musbat manfiyga almashadi, kechagi yorqin hislar bugun qora tus oladi. Asosiysi, ma’naviy va e’tiqod me’yorlariga qarshi borish natijasida kishining qalbi qorayib, dunyoqarashi torayadi. Shaxs o‘z qobig‘iga o‘raladi, dunyoni boricha qabul qilishni inkor etadi. Hayotdan

va atrofidagi barcha narsadan nafratlana boshlaydi. Radikalizm o‘z domiga tushgan shaxsning psixologik holatiga jiddiy ta’sir o‘tkazib, uni manipulyasiya qila boshlaydi.

Ekstremizmga qarab ketadigan radikalizm – misoli virus. O‘ta xavfli, ko‘rinmas, tez yuqadigan, qaqshatgich virus. Bu dardga duchor bo‘lgan ota bolasini, atrofidagilarni, yaqinlarini ham dardga mubtalo qiladi. Radikal o‘qituvchi shogirdiga radikallikni singdiradi. Shu tarzda ma’naviy me’yorlarni chekkaga surib qo‘yadigan shaxslar safi kengayib boradi. Radikallar g‘oyalarga berilgan “diniy arbob” ham o‘ziga ergashuvchi qavmni yo‘ldan adashtiradi, e’tiqodini buzadi, sof aqidadan chetlashtiradi, natijada jamiyatda mazhab bo‘linishlari yuzaga kelishiga sababchi bo‘ladi.

O‘z mazmuni va mohiyatiga ko‘ra, radikalizm illati shaxsni “shijoatli” qiladi. Faqat bu shijoat jamiyatni kemiruvchi salbiy shiorlar uchun ishlaydi. O‘z kurashida radikallar ushbu yo‘lda boshqalarga qaraganda ma’lum ustunlikka ega bo‘ladilar. Mo‘tadil e’tiqodda bo‘lganlarning harakatlari doimo ma’naviy me’yor cheklovlari bilan tizimga solinadi. Ular biron harakat qilayotganlarida ishlarini doimo ma’naviy-aqliy taroziga soladilar. Radikal g‘oyalarga duchor bo‘lganlar esa, bunday cheklovlarni tan olmaydi, ular o‘zlariga barcha harakatlarda “ruxsat berishgan” bo‘ladi.

Radikal kayfiyatdagi kishilar guruhlarga birlashishga, maqsadlariga erishish yo‘lida zo‘ravonlik ishlatishga, o‘zlariga qarshi chiqqanlarni noqonuniy yo‘llar bilan bo‘lsada bartaraf etishga, g‘oyalarini yoyish uchun hech narsadan qaytmaslikka moyil bo‘ladilar. Aynan shu jihatlar jamiyat uchun ulkan xatar. Jamiyatda radikallashuvning ortishi, ayniqsa, bu jarayonlarga yosh avlodning keng jalb etilishi oxir-oqibatda kuchli inqiroz va tanazzulga olib keladi.

Radikallashuv ilk bosqichida xavfli ko‘rinmaydi. Ko‘rinishlari anchayin beozor, shiorlari hammabop, barchaga yoquvchan, shunchaki jamiyatdagi joriy jarayonlarga salbiy munosabatdan iborat bo‘ladi. Targ‘ibot kuchaygani sari biron-bir o‘ziga ma’qul bo‘lmagan gaplar aytilganda, qarshilik sezilganda keskinlik ortib boradi. Bu hali ikkilanish bosqichi. Bu bosqichda kishi radikal harakatlarga jur’at etmaydi, fikrlarini o‘zgartirishi, mo‘tadillikka qaytishi mumkin bo‘ladi. Kuchayganda esa u e’tiqodga aylanadi – neofashizm, neonasizm, shovinizm, diniy fanatizm va hokazolar – shular qatorida.

Radikal fikrlar e’tiqodga aylanganda kishi bemalol ma’naviy chegaralardan hatlab o‘tadi. Shaxsning aqli, shuuri o‘tmaslashadi. U da’vatga beriluvchan, itoatkor, manqurt qiyofasiga kirib qoladi. Bir

qarashda u yaxshi maqsadlar uchun kurashayotganday ko‘rinadi. Millat sha’nini tiklashga, ijtimoiy adolatni o‘rnatishga urinayotganday ko‘rinadi. Biroq, aslida harakatlari millatning asl qadriyatlari va manfaatlariga zid. Adolat ilinjisida qilinayotgan ishlari esa – adolatsizlik.

Davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni buzishi, barqarorlikka tahdid uyg‘otishi jihatidan radikal-ekstremistik guruhlar deyarli barcha davlatlarda man etilgan. Faqat ba’zi davlatlarda siyosatchilar va jamoatchilik tomonidan radikal guruhlar faoliyatiga nisbatan “ko‘z yumish”, ular bilan hisoblashish, siyosiy manfaatlar mos kelgan taqdirda esa zimdan qo‘llab-quvvatlash kuzatiladi. Siyosiy hukmron kuchlar va jamoatchilikning o‘zi ham ba’zan radikal qarashlarga ega bo‘lishi mumkin. Aynan shunday davlatlarda davlat va jamiyat barqarorligi, mintaqaviy xavfsizlik tizimlariga tahdid yuzaga keladi. Bunday toifa davlatlarda ichki siyosat parokandalikka yetaklasa, tashqi siyosatda agressiv ton markaziy o‘rin egallaydi.

Radikal guruhlarga nisbatan murosa qilgan yoki xayrixoh bo‘lgan jamoatchilik birozdan so‘ng o‘sha radikal guruhlarning bosimi ostida qoladi. Ma’naviy cheklovlardan o‘zini ozod qilgan bunday guruhlar biroz kuchaygandan keyin o‘zining siyosiy maqsadi va moddiy manfaatlariga erishish uchun jismoniy tahdidlardan qaytmaydi. Moddiy maqsad ko‘zlangan har qanday harakatda ayyorlik, keskinlik, agressiv munosabat ustivor ahamiyat kasb etadi.

Radikal kayfiyatdagi guruh mamlakat boshqaruvini qo‘lga olgudek bo‘lsa, hammani o‘z mafkurasiga tobe bo‘lishga majbur qiladi. Radikal qarashlarning davlat mafkurasiga aylanishi jamiyatning barqaror taraqqiyotini xavf ostida qoldiradi. Bu o‘ta agressiv qarashlarga ega, militaristik jamiyat va tajavouzkor tashqi siyosatga ega davlatlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Radikalizmning eng yuqori qismida umumiy barqarorlikka, tinchlikka putur yetadi. Natijada mintaqaviy va hatto global xarakterdagi ziddiyatlar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Shu jihatdan, global xavfsizlikni ta’minlash nuqtai nazaridan, endigina o‘zini namoyon eta boshlagan radikal qarashlarga davlat va jamiyat tomonidan adekvat munosabat bildirilishi muhim sanaladi.

Radikalizm g‘oyalariga asoslangan qarashlar bilan barqaror va demokratik prisiplarga mos davlat qurib bo‘lmaydi. Radikalizmning har qanday turi jamiyat uchun xatarli hisoblanadi. Mamlakatni kuchli ma’naviy asoslar, ma’rifiy qarashlar, ijtimoiy adolat va millatning asrlar davomida shakllanib kelgan qadriyatlari, an’analariga mos milliy g‘oya bilan qurish – uning barqaror kelajagi poydevori bo‘ladi.

Radikalizm – psixologik terror. U shaxsning ongini zaharlaydi.

Shaxsni o‘z Vatani, millati, jamiyati bilan munosabatlarini buzadi. Ushbu illat jamiyatda barqarorlik hukm surishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Radikalizm millat, din, yosh, zamon, makon tanlamaydi. U turli makon va zamonda o‘z manfaatlari yo‘lida har qanday siyosiy, ijtimoiy, mafkuralarga qarshi kurashib boradi. Mafkuraviy bo‘shliq mavjud jamiyatda radikalizm g‘oyalari tarqalishi nisbatan oson kechadi. Ijtimoiy adolat va tenglik, bag‘rikenglik muvozanati buzilgan jamiyat radikalizm uchun qulay maydon sanaladi.

Globallashuv jarayonlari radikalizmning mislsiz rivojiga ham sharoit yaratdi. Axborot asrida ma’lumot olish va uzatishning chegarasiz imkoniyatlari radikal g‘oyalarning targ‘ibotida qulay platforma vazifasini bajarmoqda. Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish har qanday zamonda ham o‘ta murakkab vazifa sanalgan. Shu jihatdan, radikalizmga qarshi kurashish ham zamonaviy siyosiy, ijtimoiy sohalarning dolzarb vazifalaridan bo‘lib qolmoqda.

Radikalizm global tahdid. U turli siyosiy, ijtimoiy jarayonlarni o‘zida namoyon etishi bilan tahdid masshtabi belgilanadi. Unga qarshi kurashni bir mamlakat, jamiyat doirasidagina amalga oshirish samara bermaydi. Buning uchun siyosiy-ijtimoiy, harbiy, moliyaviy, diplomatik, huquqiy va boshqa chora-tadbirlarni ishlab chiqish, amalga oshirish, jahon hamjamiyatchiligi, xalqaro va ijtimoiy tashkilotlar, davlat va nodavlat strukturalar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq.

MUZAFFAR AKRAMOV,
O‘zR Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini Rivojlantirish agentligi Inson resurslari va kadrlar salohiyatini rivojlantirish departamenti bosh inspektori, Siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

YOSHLARGA MAFKURAVIY TA’SIR QILISH VOSITASI SIFATIDA KINEMATOGRAFIYANING ROLI

Bugungi ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy sharoitda shaxs ongiga ta’sir ko‘rsatish, jamiyat a’zolarining o‘y-fikrlarini boshqarish, siyosiy tizimni o‘rnatish yoki qulatish, axloq normalarini belgilash, jamiyatdagi siyosiy qarashlar hamda an’analarni singdirib borishda siyosiy mafkura asosiy qurol sifatida qo‘llanilmoqda.

Shu o‘rinda “mafkura” tushunchasiga ta’rif berishni o‘rinli, deb hisoblaymiz. Jumladan, unga o‘zbek tilining izohli lug‘atida “Mafkura (arabcha, fikr yurgizish; tafakkur; e’tiqod va maslaklar tizimi) jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g‘oyalar majmui”, deya ta’rif beriladi [5].

Har qanday nazariya yoki ta’limot bir tizimga solingan g‘oyalar majmuidan iborat bo‘lib, dunyoqarashning negizini va muayyan ishonch-e’tiqodning asosini ham g‘oya tashkil etishini hisobga olsak, odamlar, ijtimoiy sinf va qatlamlarning, millat va davlatlarning manfaatlari va maqsadlari ham g‘oyalarda ifoda etiladi. Mafkura esa muayyan ijtimoiy guruh va qatlamning, millat yoki davlatning ehtiyojlarini, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma’naviy tamoyillarini ifoda etadigan g‘oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir [6].

O‘zbek olimi D.Mamatqulovning qayd etishicha, mafkurani ilmiy jihatdan o‘rganganda u asosan uch tarkibiy qismdan tashkil topganligi ma’lum bo‘ladi: 1) muayyan tizimga solingan (ilmiy, falsafiy, diniy) g‘oyalar, kategoriyalar, tamoyillar majmui; 2) mafkuradagi g‘oyalar, kategoriyalar va tamoyillarni jamiyatga tatbiq etuvchi subyektiv omillar (mafkuraviy muassasalar va mafkurachi shaxslar); 3) g‘oya va kategoriyalarni jamiyatga tatbiq etish jarayonida qo‘llanadigan yo‘llar, usullar va vositalardir [1].

Kinematografiyaning yuqorida sanab o‘tilgan qarashlar, ayniqsa, siyosiy, axloqiy, badiiy hamda falsafiy dunyoqarashni qamrab olishini, g‘oya hamda kategoriyalarni jamiyatga tatbiq etishning samarali vositasi

ekanini hisobga olsak, uning imkoniyatlarini, yosh avlodga ta’sir doirasining kengligini baholash qiyin bo‘lmaydi.

Kinoda mafkurani chinakam tushunish uchun, avvalo, mafkuraning o‘ziga xos ta’rifini ajratib olish muhim deb hisoblaymiz. Mafkuraga “ayrim guruh, sinf yoki madaniyatning ijtimoiy ehtiyojlari va intilishlarini aks ettiruvchi g‘oyalar majmuasi” deb ta’rif berish mumkin [7]. Umuman olganda, mafkura atamasi siyosat yoki partiya platformalari bilan yaqin aloqaga ega bo‘ladi. Biroq, mafkura ma’lum bir axloqiy qadriyatlar to‘plami va ushbu “qadriyatlar” yoki “e’tiqodlar”ga ega bo‘lgan shaxslarga nisbatan tatbiq etiladigan g‘oya va qarashlar bilan ham bog‘liq bo‘ladi.

Zamonaviy siyosatshunoslikda jamiyatning siyosiy madaniyatini o‘rganish muhim siyosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Inson yoki shaxs siyosiy madaniyat va mafkuraning tashuvchilari hisoblanadi. Ular ma’lum bir siyosiy madaniyatning subyektlari bo‘lib, siyosiy tajribani o‘z tarixiy kechmishidan kelajakka yetkazib boradi. Siyosiy an’analar, qadriyatlar shu tariqa jamiyatdan jamiyatga, zamondan zamonga o‘tib boradi[3].

Mafkura qadriyatlarni zamondan zamonga o‘tib kelishiga xizmat qilar ekan, uning kinodagi roli ham beqiyosdir. Kino asaridagi mafkuraga nazar tashlasak, uning keng qamrovli tasavvurni ifodalashiga amin bo‘lamiz. Unda mavjud hozirgi holatlar to‘g‘risidagi qarashlar taqdim etiladi va bu orqali jamiyatdagi o‘zgarishlarga intilish amalga oshiriladi.

Kino mafkuraviy ta’sir ko‘lami jihatdan eng ilg‘or soha. O‘z vaqtida “proletariat dohiysi” “Barcha san’atlar ichida biz uchun eng muhimi kinodir”, deb bejiz aytmagan[9]. Kommunistlar hind kinoindustriyasi oyoqqa turishi uchun ko‘p ko‘mak bergan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, XX asrda Bollivud topgan daromadning 80 foizi sobiq Ittifoq hissasiga to‘g‘ri kelgan[8]. O‘rol Sodiqning qayd etishicha, buning o‘ziga yarasha sabablari bor, albatta. Asosiysi, Bollivud ishlagan kartinalar sentimental ruhiyati bilan uydirma voqealarni pardalab tashlardi, ya’ni, sovet voqeligiga mos va monand edi. Chuchmal va xayoliy motivlar ustiga qurilgan bunday asarlar mazlum xalqlarni milliy ozodlik degan mo‘tabar intilishdan chalg‘itib turardi. Va kommunizm xayoli bilan yashashga undardi [4]. Maqola muallifi qayd etganidek, “Qahramon boshiga do‘ppi kiysa, “milliy kino” bo‘lib qolmaydi”.

Afsuskui, O‘zbekiston mustaqillikka erishganiga qaramasdan o‘zbek kinematografiyasida shaklan milliy, ammo mazmunan sotsialistik ruhda sug‘orilgan filmlar ishlab chiqarildi va bu jarayon, hatto, bugungi kunda ham davom etib kelmoqda. Postanovkachi rejissyor Akbar Bekturdiyev

tomonidan ishlangan “O‘zbek qizi” (2023-y.) filmi ham yuqoridagi fikrimizga isbot bo‘la oladi.

Ikkinchi jahon urushidagi voqealar haqida hikoya qiluvchi mazkur filmni bugungi kun jahonda sodir bo‘layotgan siyosiy vaziyatda “bevaqt” ishlangan asar, deyish mumkin. Film qahramoni snayper o‘zbek qizi bo‘lsa-da, sovet armiyasi ideallashtirilgan mazkur kino asari fonida uning roli juda kichik ko‘rinadi. Mazkur holatga soha mutaxassislari tomonidan ham e’tibor qaratilgan. Misol uchun, jurnalist Z.Qosimov o‘z maqolasida “Xuddi rus filmlarini ko‘rayotgan bo‘lasiz, chunki qurumi bir xil... “28 panfilovchi”, “Hur qizlar”, “Shtrafbat”... Xullas, ro‘yxat uzun. Ssenariy shu rus film va seriallaridan bitta-bitta epizodlar olib yozilgandek taassurot uyg‘otadi”, deb aytgan.[1]

Fikrimizcha, kino san’ati beqiyos kuchga ega ekan, uning imkoniyatlaridan millat manfaati yo‘lida foydalanish, o‘zbek millatining, oddiy xalqning ichidan “qahramonlarni topish”, milliy ruhdagi taqdirlarni, voqeliklarni aks ettiruvchi ssenariylar yozish va filmlar ishlash, bu orqali yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni muhim deb hisoblaymiz.

Zero, bugungi xalq qahramoni sovet armiyasida xizmat qilgan askar ayol emas, farzandlarini haqiqiy matonatli, ilmli shaxs sifatida tarbiyalagan o‘zbek ayoli bo‘lishi kerak. Davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag‘lar o‘zga millatlarning g‘oyaviy quroli bo‘lgan asarlarning yaratilishiga xizmat qilmasligi kerak.

Yuqoridagi holatdan kelib chiqib aytish mumkinki, kinodagi mafkura tomoshabinga begona bo‘lganida uni tushunish qiyin kechadi. Bunda film rejissyorlari o‘zining qadriyatlar va asosiy e’tiqod tizimidan kelib chiqqan holda g‘oyaviy etalon yaratadilar. Ya’ni, filmlarning g‘oyaviy jihati rejissyor “to‘g‘ri” va “noto‘g‘ri”, deb hisoblagan xususiyatlarga asoslanadi. Shu sababli, filmdagi ba’zi personajlar, muassasalar va madaniyatlar rejissyorlarning qarashlari orqali “alohida” imtiyozlarga ega bo‘ladi. Masalan, Kasablanka millatchilik qarashlarini oila va sevgi tushunchalaridan ustun qo‘ysa, Pet Gerrett va Billi Kid “Zamon o‘zgaradi, men esa yo‘q” deganda, asosiy e’tibor Vyetnam urushi davridagi kinikizmga qaratilganligini ko‘rish mumkin.[2]

Kinodagi mafkura to‘g‘risida fikr yuritar ekanmiz, filmda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan turli xil mafkura turlari ham mavjud ekanligini ta’kidlash lozim. Kinodagi mafkura toifalariga tabiiy mafkura, yashirin

[1] Qosimov Z. “O‘zbek qizi” haqida ayrim mulohazalar. U ko‘rishga arziydimi? // https://xabar.uz/czem

[2] Pat Garrett & Billy the Kid // https://www.kinopoisk.ru/film/4422/?utm_referrer=www.google.com

mafkura va aniq mafkura kiradi. Ko‘pincha filmlar yashirin mafkurani ifodalaydi, ammo neytral mafkura paydo bo‘lgan yoki mafkura aniq bo‘lgan holatlar ham mavjud.

Kinodagi mafkura toifalari yoki turlarini yana quyidagicha tushunish mumkin: *Oshkora mafkura*. Qahramon va antagonist qarama-qarshi qadriyatlarga egaligi shundoq ham ayonligi bilinib turadi. *Yopiq g‘oya.* Aniq mafkuraga ergashadigan filmlar tomoshabinlarni “an’anaviy me’yor” doirasidan tashqarida fikrlashga ishontirishga intiladi. *Betaraf g‘oya.* Odatda dunyo qarashlar va turli e’tiqodlariga urg‘u berilmasdan, asosan dam olishga qaratilgan bo‘ladi. Shuningdek, qarashlarni o‘zgartirishga urinish holatlari ham uchramaydi. Ushbu filmlar ko‘pincha sarguzasht va harakatga yo‘naltirilgan bo‘lib, agar unda o‘yin-kulgiga qaratilgan iste’mol qilish mavjud bo‘lmasa, mazkur filmlarga yuqori darajada e’tibor berilmasligi mumkin.

Filmdagi mafkuralar ko‘pincha tomoshabinlarning qiziqishi orqali amalga oshirishga harakat qilinadi. “Bu vaziyatda men nima qilardim” yoki “men o‘zimni qanday his qilardim”, degan fikrlar iste’molchining o‘y-xayolidan o‘tadi. Chunki, mafkuralar ko‘pincha dunyoqarashni va dunyodagi “mavjud” narsalarni o‘zaro bog‘laydi. Mafkuraviy qarashlar va tamoyillar tomoshabinlarni o‘zaro bog‘lash yoki o‘z imijidan ajratib olishga bo‘lgan urinish kabi holatlarni yuzaga keltiradi.

Mafkura odatda jamiyatdagi o‘zgarishlarni rag‘batlantirish vositasi yoki ma’lum bir ideal yoki me’yorlar to‘plamiga rioya qilish zaruratini hal qilish vositasi sifatida ishlatiladi. Muvofiqlik allaqachon mavjud bo‘lgan joyda, filmdagi mafkura me’yoriy fikrlash jarayonini vujudga keltirishi va tomoshabinlar bilan bog‘lanishi mumkin. Xuddi shunday, filmdagi mafkura mavhum fikrlarni ifodalasa, natijada ta’sirchan qarorlar qabul qilish va aniq o‘zgarishlarning markaziy konsepsiyasi bilan shug‘ullanadigan tomoshabinlar paydo bo‘ladi.

Mazkur jarayonlarda esa ongga ta’sir qilish orqali turmush tarzini o‘zgartirish, siyosiy tuzumga nisbatan kishilarning munosabatini boshqarish, ularning dunyoqarashini manipulyatsiya qilish kabi maqsadlar amalga oshirilib, uning ro‘yobga chiqishida asosiy e’tibor nuqtasi, shubhasiz, yoshlar hisoblanadi. Yangilikka tashnalik, o‘zgarishga moyillik, hayotiy tajribaning yetishmasligi yoshlarning ijtimoiy-siyosiy manfaatlar “qurboni”ga aylanib qolishiga ham sabab bo‘lishi mumkin.

Dunyoda axborot texnologiyalari hamda kommunikatsiya vositalari jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda siyosiy mafkura jamiyat, jumladan yoshlar ongiga turli kommunikativ vositalar, xususan, kino asarlari yordamida singdirilmoqda. Kompyuter texnologiyalari

asrida yoshlar kitoblardan nisbatan uzoqlashib, kinematografiyaga yaqinlashyapti.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mamatqulov D.M. Mafkura tushunchasi, unda g‘oya va kategoriyalarning tutgan o‘rni // Zamonaviy ta’lim, 2015, №1. –B 4.
2. Qosimov Z. “O‘zbek qizi” haqida ayrim mulohazalar. U ko‘rishga arziydimi? // https://xabar.uz/czem
3. Sa’diyeva G.O. Davlat xizmatchisi ma’naviy qiyofasining shakllanishiga siyosiy madaniyat va mafkuraning ta’siri. S.f.f.d. dissertatsiyasi avtoreferati. –T. 2022. –B.16.
4. Sodiq O‘. Milliy mafkurani qayta ko‘rib chiqish vaqti kelmadi... mi? // https://m.kun.uz/news/2017/08/04/millij-mafkurani-kajta-kurib-cikis-vakti-kelmadimi
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliyev tahriri ostida. 2-jild. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. –B. 558.
6. G‘oya va mafkura tushunchalarining mohiyat-mazmuni va ko‘rinishlari // http://elib.buxdu.uz/
7. What is ideology in film? // https://beverlyboy.com/filmmaking/what-is-ideology-in-film/
8. Бхай будет! Индийское кино вытеснит с наших экранов отечественное? // https://versia.ru/indijskoe-kino-vytesnit-s-nashix-yekranov-otechestvennoe
9. Ленин В.И. Из всех искусств для нас важнейшим является кино // https://ru.citaty.net/tsitaty/460354-vladimir-ilich-lenin-iz-vsekh-iskusstv-dlia-nas-vazhneishim-iavliaetsia-kino/

I SHO‘BA.

YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY JARAYONLAR TENDENSIYALARI

QIYOM NAZAROV,
falsafa fanlari doktori, professor

YANGI O‘ZBEKISTON: MUMTOZ QADRIYATLARGA YANGICHA QARASH ZARURATI

Insoniyat tarixining qadimiy qonunlaridan biri, ya’ni muayyan millat uzoq davom etgan istibdod davridan o‘tib, mustaqillikka erishishi bilanoq, uning tafakkuri bir kunda yoki bir yilda to‘la mustaqil bo‘lishi va birdaniga tubdan yangilanishi qiyinligi mutaxasislarga ma’lum.

Va bu sohadagi mutlaq yangilanish, tafakkurning tubdan to‘zgarishi jarayoni bir necha yillar, ba’zida o‘nlab yillar davom etishi mumkinligini ham olimlar yaxshi bilishadi.

Ushbu o‘zgarish va yangilanish jarayonida asl tarix sahifalari tiklanishi, muhim voqealar ildizi va tadriji haqidagi tasavvurlar yangilanishi va tarixiy haqiqatlar o‘z o‘rnini topishi bilan bog‘liq murakkab o‘zgarish jarayoni ro‘y beradi.

Bu jarayonda xalq o‘zini va o‘zligini anglaydi, o‘tmishning uzilib qolgan nuqtalari orasidagi bog‘liqlik, istilolar natijasida va istilochilar tomonidan ataylab yaratilgan uzluklilik zanjiri yangi davrga ulanadi, tarixiy voqealarning uzluksizlik tamoyili tiklanadi, tarixga yangicha nuqtai-nazar shakllanadi.

Bugungi kunga kelib, yurtimizda ana shunday jarayon yaqqol namoyon bo‘lmoqda, tarixga yangicha qarash uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda, mustaqillik tafakkuriga ega bo‘lgan yangi tarixchilar, adabiyotchilar, faylasuflar, xullas yangi ziyolilar avlodi shakllandi, shonli o‘tmishimizning uzilib qolgan nuqtalari qayta bog‘lanmoqda, ular haqidagi asl haqiqatlar tiklanmoqda.

Ushbu jarayonda o‘zbek qadriyatlarining asl ildizlari, milliy tafakkurning antik manbalari bo‘lgan xalq og‘zaki ijodining qadimgi namunalari va mumtoz osori-atiqalar to‘g‘risidagi haqiqatlar ham qayta tiklanmoqda.

Ma’lumki, 2000 yilda yurtimizda “Alpomish” dostonining 1000 yilligi keng nishonlangan, xalqaro va milliy miqyosda ko‘plab tadbirlar o‘tkazilgan edi.

O‘sha paytlarda hali mustaqilligimizga 10 yil ham bo‘lmagan, tariximizning o‘tmish sahifalarini anglashga nisbatan sobiq mafkuraning tafakkurdagi o‘zoq yillar davomida o‘rnashib qolgan “tabu”lari ta’siri

muayyan darajada saqlanib qolgan edi.

Shu bilan birga, milliy olimlar va mutaxassislarning yangi davrga mos yangi avlodi hali to‘liq kamolga yetmagan va o‘tmishga butunlay yangicha qarash to‘la-to‘kis shakllanmagan edi.

Umr yugurik, vaqt esa nihoyatda tez o‘tib bormoqda. “Alpomish”ning 1000 yillik sanasini nishonlashga kirishilganidan buyon 25 yil vaqt o‘tdi. O‘sha paytda ham, hozir ham bu sana bilan bog‘liq bahs-munoazaralar, tortishuvlarning oxiri ko‘rinmayapti.

Har gal shuni eslaganimda 1999 yilda Fan va texnika qo‘mitasida bo‘lib o‘tgan va “Alpomish” dostonining 1000 yillik sanasini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rishga bag‘ishlangan bir majlisda ushbu asar tarixi 1000 yil emas, balki bir necha ming yillik tadriji borligi haqida e’tiroz bildirilgani yodimga tushadi.

O‘shanda bunday e’tirozlarga Fanlar Akademiyasining institutlaridan birining direktori o‘ziga xos nuqta qo‘ygan, ya’ni u kishi bu jabhada katta ishlar boshlangani, hamma narsa risoladagidek ketayotgani, YuNESKOning roziligi olingani, zarur hujjatlar imzolangani va endi mazkur masalada boshqacha fikrlarga o‘rin qolmagani haqida ancha tahdidli tushuntirish bergan edi. So‘zining oxirida dostonning 1000 yilligi haqida “Katta”ga doklad qilingani, reja tasdiqlanib, amalga oshirilayotgani va, agar bunday yosh bolalarcha fikrlar urchisa ko‘pchilikning boshi ketishi haqida pisanda ham qilib qo‘ygan edi. Bu pisandadan keyin hammaning dami ichiga tushgani va e’tirozlarga o‘rin qolmagani tushunarli bo‘lsa kerak.

Xo‘sh kecha “Boshimiz ketib qolmasin” deb qo‘rqar edik, bugunchi? Va men bu savol bilan kechagi kunni aslo yomonlamoqchi va u davrga qora chaplamoqchi emasman. Bu olchoqlarning ishi va ori bor odamlar bunday qilmaydilar. Bu taxlit ish qilganlar donishmand xalqimiz tomonidan hech qachon olqishlanmaydi va ulardan nafratlanadilar. Ammo qo‘rquv bo‘lgani va boshlar omon qolishi uchun ko‘pchiligimiz zamonasozlik qilganimizni ham tan olish lozim. Istiqlolni asrash va mustahkamlash uchun balki shunday ish tutish, qattiqqo‘llik ham zarur bo‘lgandir. Balki...

Ammo bugun u davr o‘tdi. Kim nima deyishidan va kelajakda kanday baho berilishidan qat’iy nazar, bugungi kunda tariximizga nisbatan yangicha qarashlar shakllanib, Yangi O‘zbekiston tafakkuri kamol topmoqda. Va bularning barchasi Prezident Shavkat Mirziyoevning irodasi va rahbarligida ro‘y berayotgani ham hozirgi davrning ayni haqiqatidir.

Shu sababdan ham, Yangi O‘zbekiston mustahkamlanayotgan bugungi

kunga kelib, azaliy qadriyatlarimiz, mumtoz osori-atiqalarimiz tarixi va tadrijiga nisbatan yangicha qarashlar paydo bo‘lmoqda, o‘tmishning “oq dog‘lari”ga barham berilmoqda.

Bu jihatdan, keyingi 25 davomida davomli bo‘layotgan “Alpomish” dostoni paydo bo‘lganining 3000, hech bo‘lmaganda 2500 yilligi haqidagi fikrlar nimaga va qanday manbalarga asoslanadi? Agar bunday nuqtai nazar bo‘lsa, unda dostonning faqatgina 1000 yillik tarixi borligi haqidagi fikrlar qaerdan paydo bo‘lgan? Va nima sababdan aynan ana shu fikrlar qo‘llab-quvvatlandi? Bugungi kunga kelib, bu boradagi tadqiqotlarda yana nimalarga e’tibor berish lozim? Agar “Alpomish” dostoni yaratilganining 1000 yildan, hatto 2000 yildan ham qadimiyligi isbotlansa, kashf etilgan sana qayta nishonlanadimi? Bu masalalarda mamlakatimiz olimlari va matuxassislarining yondoshuvi qanday? Xalqaro ekspertlar va tashkilotlar, ayniqsa YuNESKOning munosabati qanday bo‘lishi mumkin?

Ushbu savollar nihoyatda keng qamrovli masalalarni qamrab oladi hamda ularning umumiy majmui ilgari ham, bugungi kunda ham maxsus tadqiqotlarni talab qiladi, albatta.

Birinchidan, Alpomishning qadimgi syujeti tarixiy jihatdan Gomer zamonidan bir muddat oldinroq paydo bo‘lgani va bu jihatdan u shumerlar va hindlarning ba’zi dostonlari bilan zamondoshligi haqidagi fikrlarni ilmiy-tarixiy jihatdan chuqur o‘rganish zarur. Zero, Gomerning “Iliada” va “Odessiya” dostonlarining syujeti “Alpomish” dostonining qadimgi syujeti bilan qariyb bir xil ekani ham tasodif bo‘lmasa kerak.

Xuddi shunday, “Alpomish”ning eng qadimgi syujeti “Avesto” kitobining Makedoniyalik Iskandar yo‘q qilib yuborgan qismiga uyqash bo‘lgani va uning qadimgi variantlari aynan ana shu qismlar bilan birga yo‘q qilingani haqidagi rivoyatlar bejiz shakllanmagan.

Afsuski, avvaliga Makedoniyalik Iskandar, so‘ngra esa arab va mug‘ul istilosi, keyingi bosqinlar Avesto davridan bizga yetarli ma’lumotlar qoldirmagan va aslida istilolarning maqsadlaridan biri ham shu bo‘lgan. Ya’ni Iskandardan keyingi bosqinchilar ham uning yo‘lidan borganlar va o‘zlariga mos kelmaydigan barcha narsalarni, milliy qadriyatlarni ayovsiz yo‘q qilishgan, ularni xalq xotirasidan o‘chirish va millatning tarixiy xotirasini o‘zgartirish istilochilar uchun asosiy vazifa bo‘lib qolavergan.

Insoniyat tarixida uzoqqa cho‘zilgan barcha istilolar bilan bog‘liq yana bir qonuniyat borki, bu - istilochilarning uzoq vaqt, ya’ni istilo davri qancha davom etsa, shuncha cho‘ziladigan, bo‘yso‘ndirilgan xalqning mard, botir, bilimli, millatparvar kishilarini paydar-pay yo‘qotib borilishi va shu asnoda palid, taslimchi, maydakash, ig‘vogar, millat qayg‘usidan

ko‘ra amal va qorin qayg‘usidagi kishilar genini millat qonida, uning genofondida ko‘paytirib borishga harakat qilinishidir.

Bu vazifalar bir necha marta uzoq cho‘zilgan istilolar domiga tushgan xalqimizga nisbatan asrlar davomida shunday samarali bajarilganki, o‘z o‘tmishimizda yaratilgan osori-atiqalar, qadriyatlarning asl muallifi bizning xalqimiz ekanligiga ishonmaydiganlar, ya’ni qadriyatlarmizni qadrlamaydiganlar, istilochilarga ishonadiganlar va ularga xizmat qiladiganlar safi tobora ortib boravergan.

Ikkinchidan, o‘rta asrlardagi istilodan keyin vatandoshlarimizga undan ilgari biror bir milliy qadriyat bo‘lmagani haqidagi tuyg‘ular shunchalik davomli va tizimli singdirilganki, haligacha oramizda ko‘plab osori-atiqalar, masalan “Alpomish” yaratilgan makonda bugungi kunda yashayotganlarning orasida ham dostonning syujeti tarixi miloddan oldingi asrlardan ildiz olganini tan olmaydiganlar nafaqat ilmdan yiroq kishilar, balki mutaxasislar orasida ham ko‘pchilikni tashkil qiladi.

Shuni afsus bilan qayd etish kerakki, Vatanimiz tarixining islomgacha davri nihoyatda kam o‘rganilgan. Turli bosqinlar, mustamlakachi va mutaassib tuzumlar bunga yo‘l bermagan, ular natijasida bu davrga oid manbalar, xalqimizning jahon madaniyati, insoniyat taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatgan boy madaniy merosi ayovsiz yo‘q qilinavergan. Yurtimizda istilolga qadar ustuvor bo‘lgan falsafiy g‘oyalar, ma’naviy va madaniy durdonalar qadrini yaxshi anglaydigan, ularning ahamiyatini tushunadigan kishilar esa, birinchi navbatda yo‘q qilib yuborilgan.

Bu masalada Beruniy bobomizning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari yurtimizga islom kirib kelganidan oldingi zamonlar ma’no-mazmuni va tarixiy ahamiyatini tushunish uchun nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Asarda istilochilarning barcha osoru-atiqalarni ayovsiz yo‘q qilib yuborgani, yerli aholi ularni milliy xotiradan butunlay yo‘qolib ketmasligi uchun yodlash va eslash qobiliyatiga zo‘r bera boshlagani va buni anglagan istilochilar faqat o‘zlariga xizmat qiladigan iqtidorlarni qoldirib va ularni rag‘batlantirib, boshqalarni qirib yuborganlari va buni davom ettirayotganlari to‘g‘risidagi alamli fikrlari bejiz yozilmagan.

Buning natijasida ma’naviy qashshoq va tarixiy xotirasiz kishilar tarbiyalanishi lozim edi. Bu to‘g‘rida Beruniy o‘z asarida quyidagilarni yozgan: “Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o‘rgangan va bilimini boshqalarga o‘rgatadigan kishilarni halok etib va butkul yo‘q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u (xabar va rivoyatlar) islom davridan keyin haqiqatni bilib bo‘lmaydigan darajada yashirin qoldi”. Ushbu asarning boshqa sahifasida ulug‘ vatanparvar olim yuqoridagiga o‘xshash yana bir fikrni quyidagicha ifoda etgan: “Kutayba

xorazmliklarning kotiblarini halok etib, bilimdonlarini o‘ldirib, kitob va daftarlarni kuydirgani sababli ular savodsiz bo‘lib, o‘z ehtiyojlarida yodlash quvvatiga suyanadigan bo‘ldilar “.

Beruniy zamonida islom yagona hukmron diniy mafkura bo‘lib turganini e’tiborga olsak, zikr etilgan asar va undagi teran fikrlarni bu qadar o‘ktamlik bilan aytish g‘oyat ulkan jasoratni talab etgani ayon bo‘ladi. Istilochilarning bunday vayronkor siyosati keyin ham davom etdi va har safar ana shunday hol ro‘y beraverdi. Nihoyatda boy qadriyatlarimiz, falsafiy ta’limotlarimiz, umuman o‘z merosimizdan bebahra bo‘lib qoldik, ba’zi tushuncha hamda atamalar, ko‘plab alloma va mutafakkirlarning nomlari nafaqat tildan, balki dildan ham chiqib ketdi va butunlay unutildi. Alloma bobomizning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida aynan ana shu shafqatsiz qonuniyatni va uning oqibatini naqadar to‘g‘ri anglagani allomaning kitobdagi fikrlaridan yaqqol ko‘rinib turadi.

Uchinchidan, Beruniy bobomiz yashagan davrda ushbu hududda mustaqil Barchin podsho davlatining paydo bo‘lishi va unda eski osoru atiqalarning qayta tiklanishiga katta e’tibor berilgani, alloma bobomizdan ilgarigi ikki ming yillik tarix tizimli tarzda bitilgan “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari ham o‘sha davr mahsuli ekanligi e’tiborga olinsa, “Alpomish” dostoninning xalqimiz xotirasida saqlanib qolgan qadimgi syujeti aynan ana shu zamonda, Beruniy ta’biri bilan aytganda “Yodlash qobiliyatiga zo‘r bergan”, yodlab qolgan va buni ajdodlaridan meros qilib olgan avlodga mansub kishilar tomonidan dostonning hozirgi varianti qayta tiklangani haqidagi mantiqiy xulosaga kelish mumkin.

Dostonda Barchin obraziga alohida e’tibor berilgani va uning bosh qahramonlardan biri darajasiga ko‘tarilgani ham, uning ismi podsho Barchinning nomi bilan atalgani ham o‘sha davr siyosati nuqtai nazaridan ma’qul bo‘lgani esa tarixiy va mantiqiy jihatdan tushunarli va bahs talab qilmasa kerak albatta.

To‘rtinchidan, keyingi yillarda yurtimizda atoqli olim Kato Kyudzo (1922 – 2016) tomonidan olib borgan tadqiqotlar ham bundan bir necha ming yillar ilgari Amudaryo boshlangan hududdan qo‘ng‘irot elining katta bir bo‘lagi uning quyi qismiga ko‘chganligi, ammo ikkiga bo‘lingan xalq orasida o‘zaro aloqalar butunlay yo‘qolib ketmaganligini tasdiqlaydi.

Bu esa “Alpomish” dostonining boshlanishida Bobotog‘ va Boysun hududida ro‘y bergan siyosiy voqealar hamda ko‘chib ketganlar borib o‘rnashgan joydagi hayot, asar syujetining keyingi tadriji, xalqning bo‘linishi va bir qismining olisga ko‘chib ketishi, keyinroq esa “Ora uzilib ketmasin” degan udumga amal qilinishi tarzida kechgan voqealar zanjiri, ya’ni asarning syujeti o‘zbek tarixining bilimdoni Kato

tomonidan asoslab berilgan tarixiy voqelikka to‘la-to‘kis mos kelishi aslo tasodif emas.

Bu o‘z navbatida, jahon xalqlari tarixida nihoyatda ko‘p uchraydigan va asl tarixiy voqelikning xalq ongiga ko‘chishi, uning og‘zaki ijodi va adabiyotining, binobarin tarixiy xotirasining tarkibiy qismiga aylanishi qonuniyatining “Alpomish” dostoni timsolidaga yana bir misolidir.

Balki bu ko‘chishning sabablaridan biri diniy asos bilan, ya’ni o‘sha davrda yurtimizda keng tarqala boshlagan buddizm tarafdorlarining o‘zga ulkalarga ketishi bilan bog‘liq bo‘lishi ham mumkin. Va bu Islom tarixida Madina davri boshlangani bilan bog‘liq jarayonlar ilgari ham, undan keyin ham tarixda takrorlanib turishidek voqelikning yana bir misolidir.

Kato tomonidan avval Surxondaryodan, keyin esa Amudaryoning quyi qismida qo‘ng‘irotlar hozirgacha yashaydigan makondan topilgan budda yodgorliklari ushbu fikrni yaqqol tasdiqlaydi. Dostonda ham ota makonda yashab qolganlar ham, ko‘chib ketganlar ham o‘zlarini qo‘ng‘irotlar deb ataydilar va bu haqda asarda ko‘chib ketgan qo‘ng‘irotlarning ajdodlari qolgan ota yurtga talpinib yashaganlari haqida o‘tli misralar bitilgani bejiz bo‘lmasa kerak.

Beshinchidan, hozirgi eposshunoslik nazariyasiga ko‘ra, aksariyat qahramonlik dostonlari, xususan “Alpomish” xalq poetik tafakkurining badiiy evolyusiyasini o‘zida mujassamlashtirgan asar bo‘lib, unda davlatchilikning shakllanishi bilan bog‘liq tarixiy voqelik va ijtimoiy-madaniy munosabatlar epik talqin qilinadi. Dostonda Alpomish tug‘ilishidan oldingi shart-sharoitlar u bog‘liq bo‘lgan jamoaning istaklari va ong osti kechinmalarida o‘z aksini topgan orzulari ifodasidan iborat. Alpomish o‘zining Dobonbiy – Alpinbiy – Boybo‘ri kabi ajdodlari shajarasining davomchisi sifatida dunyoga keladi.

Dostonda nasldan-naslga o‘tib, ota taxtini o‘g‘illar egallab shoh bo‘lishi an’anasi o‘z ifodasini topganligi asarda tasvirlangan davr qabilachilik davridan keyingi muhim tarixiy jarayonlar talqinidan iboratligini ko‘rsatadi. Bundan “Alpomish” dostonining dastlabki syujeti yurtimizda davlat boshqaruvi shakllanayotgan paytda, ya’ni uch-to‘rt ming yil ilgari paydo bo‘lganligi ayon bo‘ladi.

Buni isbotlash uchun esa, maxsus tadqiqotlar olib borish, va bunda “Alpomish”ning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish bilan bir qatorda, uning tarixiy-genetik asoslari va tipologiyasi masalalarini biz mansub bo‘lgan etnosimizning genezisi va tarixiy taraqqiyot dinamikasi bilan bog‘lab tadqiq etishga alohida e’tibor berish zarur.

Oltinchidan, doston dunyo xalqlari epik tafakkurining mumtoz

namunalari, jumladan, «Odisseya», «Iliada» singari yirik adabiy qadriyatlar qatorida turadigan asardir. «Alpomish» dostonining motivlar tarkibi, badiiy tili va poetik tabiatini tadqiq etish doston syujetining tadrijiy rivoji «Oltoy versiyasi» («Алып-Manash») → «o‘g‘uz versiyasi» («Bomsi-Bayrak») → «qipchoq versiyasi» («Алпамыша va Барсын ныluu», «Alpamsha») → «qo‘ng‘irot versiyasi» (o‘zbek xalq qahramonlik eposi «Alpomish») tarzida kechganligini isbotlashga imkon beradi.

Bu jihatdan “Alpomish”ning qiyosiy-tipologik tabiati, shakllanish tarixi va manbalarini o‘rganish asosida unga asos bo‘lgan g‘oyalar genezisini qadimgi xalqlarning “Avesto”, “Iliada” va “Odessey”, “Veda” va “Upanishad”, “O‘zgarishlar kitobi” kabilar dunyoga kelgan davrlardan boshlanganini taxmin qilish mumkin.

Xalqimizning u davrlarga oid nomoddiy madaniy meros namunalarining ko‘pchiligi avval Makedoniyalik Aleksandr, keyinroq boshqa bosqinlar jarayonida yo‘qotilganini va ularning ayrimlarigina X-X1 asrlarga kelib, qisman tiklangani yoki ularning syujetlari asosida muayyan variantlari qayta yaratilganini e’tiborga olsak, bu taxminlarni o‘rganish vaqti yetganini anglaymiz.

Yettinchidan, “Alpomish” syujetiga ko‘ra, qo‘ng‘irotlarning Amuning boshlanishidan uning quyi hududlariga ko‘chishi va tarixda qariyb uch ming yillar ilgari aynan shunday hol ro‘y bergani, haligacha ikkala hududda ham “qo‘ng‘irot” urug‘i va atamalari saqlanib qolgani, dostonda asosan yurtimizda matriarxat va ilk davlatchilik shakllangan davrlar (aynan 3000 – 2500 yil ilgari) uchun xos belgilarning ko‘p uchrashi ham asarning qadimiyligidan, xususan uning islom mamlakatimizga kirib kelganidan ancha oldin yaratilganidan darak beradi

Ma’lumki, islom kirib kelganidan keyin yaratilgan barcha asarlarda uning ta’siri kuchli bo‘lganini, hech bo‘lmaganda asarlarning boshlanishida bu holat e’tirof etilganini ko‘ramiz. Dastlab Arab xalifaligi va keyinroq u turli dalatlarga bo‘linib ketganidan keyin ham, bir necha asrlar davomida shunday an’anaga amal qilingani ma’lum. Bugungi islom davlatlarida ushbu an’ana hozirgacha saqlanib qolgan.

“Alpomish” da esa nafaqat islom, balki undan ilgari yurtimizda tarqalgan buddaviylikka oid xususiyatlar, atamalar va tushunchalar uchramasligi dostonning ilk syujeti uchun asos bo‘lgan g‘oya va tushunchalar shakllangan davrlar genezisini yanada chuqurroq tarixiy tadqiq qilish istiqbollari borligini anglatadi.

Sirasini aytganda, dostonda mintaqamiz hayotining eng qadimgi davri uchun ananaviy bo‘lgan va bundan to‘rt ming yillar ilgari tarqala boshlangan Tangrichilik e’tiqodining ta’siri kuchliroq va unga xos iboralar

talaygina uchraydi. Shuning uchun ham bu doston yuzaga kelishiga asos bo‘lgan arxaik syujetni va undagi avtoxton iboralarni aniqlash, asarning xalq baxshilari repertuaridagi badiiy evolyusiyasi bosqichlarini yoritish va boshqa xalqlar epik ijodiyotiga ta’sirini tadqiq etish dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Hozirga qadar “Alpomish”ning tarixiy-tipologik xususiyatlari Markaziy Osiyo turkiy xalqlari folklori materiallari kontekstidagina o‘rganilgan bo‘lib, uning qardosh bo‘lmagan xalqlar eposlari bilan mushtarak jihatlari Gomerning «Odisseya»si bilan qiyoslangan xolos. Lekin uning Osiyo xalqlari folkloriga ko‘rsatgan ta’siri, bu xalqlar qahramonlik dostonlarining genetik jihatdan o‘zaro aloqadorligi va mushtarakligini aniqlash “Alpomish” ning xalqimiz tarixi, taraqqiyot tendensiyalari, milliy poetik tafakkurning o‘ziga xos rivoji va boshqa millatlar badiiy an’analari bilan o‘zaro aloqalarini o‘zida aks ettirgan nomoddiy madaniy meros namunasi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Sakkizinchidan, “Alpomish” dostoni tadqiqotchilar nazaridan chetda qolmagan, albatta. Xususan 1922 yilda bulung‘urlik Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li va Hamroqul baxshilar ijrosidagi «Alpomish» dostonining ayrim parchalarini yozib olgan G‘.O.Yunusovning fikricha, bu doston dunyo xalqlari epik tafakkurining mumtoz namunalari, jumladan, «Odisseya», «Iliada» singari yirik adabiy qadriyatlar qatorida turadigan asardir. 1928 yilda shahristonlik Mavlon Pirmat o‘g‘lidan «Alpomish» dostonining mazmunini yozib olgan A.K.Borovkov dostonning motivlar tarkibi, badiiy tili va poetik tabiatini tadqiq etgan. V.M.Jirmunskiy «Alpomish» dostoni syujetining tadrijiy rivoji «Oltoy versiyasi» («Алып-Manash») → «o‘g‘uz versiyasi» («Bomsi-Bayrak») → «qipchoq versiyasi» («Алпамыша va Барсын ныluu», «Alpamsha») → «qo‘ng‘irot versiyasi» (o‘zbek xalq qahramonlik eposi «Alpomish») tarzida kechganligini isbotlagan. Uning H.Zarifov bilan hamkorlikda yozgan «O‘zbek xalq qahramonlik eposi» monografiyasida «Alpomish» dostoni qo‘ng‘irot versiyasining asosiy xususiyatlari, doston syujetining shakllanish tarixi, uning o‘zbek baxshilari repertuarida tutgan o‘rni, yetakchi motivlar tizimi va obrazlar tarkibi tahlil etilgan. H.Zarifov «Alpomish» dostonining asosiy motivlari» nomli maqolasida doston syujetining genetik ildizlariga doir yangi qarashlar ilgari surilgan. Uning fikricha, «Alpomish» dostoni syujetining ilk namunasi X–XI asrlarda Sirdaryoning quyi oqimida istiqomat qiluvchi qo‘ng‘irotlar orasida shakllangan bo‘lib, o‘zbek urug‘larining migratsiyasi natijasida boshqa hududlarga tarqalgan. “Alpomish” dostonini o‘rgangan G‘.Yunusov, H.Zarifov, M.Afzalov, M.Murodov, T.Mirzaev, B.Sarimsoqov va boshqalar uning turli tillardagi

va o‘zbekcha versiyalari, doston syujetining genetik ildizlari, yetakchi motivlar tarkibining yuzaga kelish tarixi va manbalari, o‘zbek baxshilari repertuaridagi o‘ziga xos talqinlari bilan bog‘liq masalalarni tadqiq etganlar. Ular ko‘plab muhim asarlar yaratganlar, natijador tadqiqotlarni amalga oshirganlar va bu borada ularning xizmatlari katta bo‘lganini e’tirof etish ham qarz va ham farz albatta.

Afsuski,

ushbu tadqiqotchilarning birortasi doston syujetining nihoyatda qadimiy tarixiy asoslari borligi, ya’ni qo‘ng‘irotlarning bir qismi Amudaryoning boshlanish makonidan uning quyi qismiga bundan bir necha ming yillar ilgari ko‘chganligi tarixiy haqiqat ekanligi va asarning syujeti oddiygina adabiy to‘qima emas, balki aslida xalq tarixida ro‘y bergan ana shu tarixiy voqealar tadrijining o‘ziga xos adabiy ifodasi, doston esa ularning badiiy aksi bo‘lganiga e’tibor qaratmaganlar;

shu bilan birga, “Alpomish” yaratilgan davr deb o‘ylangan milodning 11 asrida arab xalifaligi asta-sekin parchalanib, nisbatan mustaqil davlatlar shakllana boshlagani va o‘sha davrga kelib islom tarqalganidan oldingi davr tarixiga qiziqish ortgani, ungacha bo‘lgan ko‘plab osori-atoiqalar, qadriyatlar, milliy-an’ana va urf-odatlar, xalq og‘zaki ijodining mumtoz namunalari qayta tiklana boshlagani bilan bog‘liq jarayon ham ularning diqqat markazida bo‘lmagan;

bu jihatdan, sobiq ittifoqdagi barcha xalqlar og‘zaki ijodining tarixi 9 - asrda paydo bo‘lgan “Igor jangnomasi”dan qadimiy bo‘lmasligi to‘g‘risidagi partiya topshirig‘iga mos keladigan “sotsialistik realizm”ga xos tamoyil “Alpomish” dostonining bor yo‘g‘i 1000 yillik tarixi borligi va uning X asr oxiri va XI asr boshida Sirdaryoning quyi qismida paydo bo‘lgani haqida o‘tgan asr o‘rtalarida paydo bo‘lgan ba’zi maqolalarga o‘z ta’sirini ko‘rsatgani shubhasiz;

yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarning barchasida sobiq ittifoqdagi ushbu an’ana chuqur o‘zlashtirilgan va ularning mualliflari tafakkuri uning ta’sirida shakllangani yaqqol sezilib turadi. Bu o‘z navbatida, “Alpomish”ning tarixiy yoshiga nisbatan muayyan sanani belgilashga o‘z ta’sirini o‘tkazgani shubhasiz.

Biz uchun esa, masalaning aynan ana shu jihatlari, xalqimiz tarixining bu boradagi “oq dog‘lari” barham toptirilishi zarurati bilan bog‘liq haqiqatlar nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Ushbu jihatlarning chuqur ilmiy tadqiqi va tahlili “Alpomish” dostonining haqiqiy yoshini aniqlashning asosiy kaliti hamda ilmiy imkoniyati bo‘lsa ajab emas.

Bu ayniqsa sobiq ittifoqdan xalos bo‘lingani va mustaqillikning 33 yiliga kelib, xalqimizning so‘nggi istilo etilishlardan oldingi qadimiy

va azaliy qadriyatlarga qaytilayotgan, ota-bobolarimizning urf-odatlari, osori-atiqalarini qayta tiklash, milliy identiklik va o‘zlikni anglash tamoyillariga ehtiyoj kuchaygan hozirgi davr uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etayotgani shubhasiz.

Yuqoridagilardan xulosa shuki,

“Alpomish”ning qiyosiy-tipologik tabiati, shakllanish tarixi va manbalarini o‘rganish asosida unga asos bo‘lgan g‘oyalar genezisini qadimgi xalqlarning “Avesto”, “Iliada” va “Odessey”, “Veda” va “Upanishad”, “O‘zgarishlar kitobi” kabi mumtoz asarlari dunyoga kelgan davrlardan boshlanganini taxmin qilish mumkin.

Xalqimizning u davrlarga oid nomoddiy madaniy meros namunalarining ko‘pchiligi avval Makedoniyalik Aleksandr, keyinroq esa, boshqa bosqinlar jarayonida yo‘qotilganini va ularning ayrimlarigina X-X1 asrlarga kelib, qisman tiklangani yoki ularning syujetlari asosida muayyan variantlari qayta yaratilganini e’tiborga olsak, bu taxminlarni o‘rganish vaqti yetganini anglaymiz.

“Alpomish” syujetiga ko‘ra, qo‘ng‘irotlarning Amuning boshlanishidan uning quyi hududlariga ko‘chishi va tarixda ikki yarim ming yil ilgari aynan shunday hol ro‘y bergani, haligacha ikkala hududda ham “qo‘ng‘irot” urug‘i va atamalari saqlanib qolgani, dostonda asosan yurtimizda matriarxat va ilk davlatchilik shakllangan davrlar (aynan 3000 – 2500 yil ilgari) uchun xos belgilarning ko‘p uchrashi, islom kirib kelganidan keyin yaratilgan asarlarda uning ta’siri kuchli bo‘lgani, “Alpomish”da esa buning uchramasligi kabilar dostonning ilk syujeti uchun asos bo‘lgan g‘oya va tushunchalar shakllangan davrlar genezisini yanada chuqurroq tarixiy tadqiq qilish ehtiyoji va istiqboli borligini anglatadi.

Muhtaram o‘quvchi!

Bugungi kunda mamlakatimizda Prezident Shavkat Mirziyoev boshchiligida Yangi O‘zbekiston barpo etilmoqda, yangi tafakkur, yangicha qarashlar shakllanmoqda. Aynan ana shu tufayli tariximizdagi bahsli holatlar, “oq dog‘lar”, jumladan “Alpomish” dostonining paydo bo‘lishi masalasida ham kechagi kun uchun mutlaqo kutilmagan, yangicha qarashlar va imkoniyatlar paydo bo‘layotgani ham hozirgi davrning ayni haqiqatidir.

Sanalar va bu boradagi o‘zgarishlarning xalqaro e’tirofi, xususan YuNESKOga kelsak, sobiq ittifoq davrida muayyan yoshda, deb kelingan Samarqand, Buxoro va Toshkent shaharlarining paydo bo‘lish sanasiga nisbatan mustaqillik yillaridagi o‘zgarishlar bu tahlit ishlarning amalga oshirilishiga to‘sqinlik qilinmasligining yaqqol misolidir.

Yangi O‘zbekiston tafakkuri shakllanishining bugungi kuni ehtiyojlari nuqtai nazaridan alohida ta’kidlash joizki, agar biz bu borada asosli dalillar, manbalarga tayangan ilmiy xulosalar tayyorlab, murajaat qilsak, “Alpomish” dostoni paydo bo‘lish sanasi yangilanishi haqidagi taklifning qo‘llab-quvvatlanishiga ishonchim komil.

Ammo, shuni taassuf bilan qayd qilish ham joizki, bu masalada ham kishini ikkilantiradigan va qiynaydigan yana bir necha afsuslanarli holatlar ro‘y berishi mumkinligini ham istisno qilib bo‘lmaydi:

Birinchisi, Napoleonga nisbat beriladigan quyidagi fikrda ifodalanganidek, “Hamma balo olimlarning o‘zlarida. Iqtidorlarni yoqtirmaydigan va ularni hech qachon akademiklikka ravo ko‘rmaydigan bu toifaga muhim ishlarni topshirib bo‘lmaydi. Chunki ular har qanday zo‘r g‘oyani ham, muhokama qilaverib rasvo qiladilar. Va pirovardida masala hal bo‘lmay qolaveradi”.

Ikkinchisi, ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar ko‘pchilikning ishtiroki va og‘zibirlikni talab qilishi shubhasiz. Ayni shu masalada bugungi kunning shioriga aylangan “Bir bo‘lsak – yagona xalqmiz, birlashsak - Vatanmiz” degan purma’no hikmatga amal qila olamizmi yoki istilochilar ekib ketgan urug‘lar genimizni o‘ziga burib turaveradimi?”, degan masala nihoyatda muhim ahamiyatga egaligi shubhasiz.

Uchinchisi, o‘zimga kelganda esa, turli holatlarga ko‘p bora duch kelgan kishi sifatida aytishim mumkinki, “Afsuski, bu safar ham xuddi shunday, ya’ni odatdagiday bo‘lmasmikin ?” degan o‘y va u bilan bog‘liq yurakni zirqiratib turadigan ezgin fikrlar ushbu maqola yozilishidan ancha oldin paydo bo‘lgan edi. Va ular haligacha meni tark etgani yo‘q...

Va nihoyat, to‘rtinchisi, garchand bugungi kunda ham “Alpomish” dostonining yaratilish sanasini aniqlashga doir muayyan qiyinchiliklar va e’tirozlar saqlanib qolayotgan bo‘lsa-da, uning 1000 yildan qadimiyligi isbotlangan va haqiqiy sana nishonlanadigan kunlar yaqinlashayotganiga ishongim keladi.

Yechimini topish qiyin bo‘lgan barcha murakkab masalalar kabi, bu jabhada ham “If qal’asining mahbusi” murodiga yetgan mashhur kitob nihoyasida yozilganidek “Kutmoq va umid qilmoq kerak !”

BOBIR KARIMOV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, sotsiologiya fanlari doktori

IJTIMOIY MUNOSABATLARNI KONSENSUS DARAJASIDA YUKSALTIRISH IMKONIYATLARI

Mehr insonlararo munosabatlarda namoyon bo‘ladigan ijtimoiy, ruhiy-ma’naviy jarayon bo‘lib, shaxsning boshqalarga nisbatan anglangan empatik munosabatini ifodalaydi. Mehr insonning borliqqa nisbatan eng yuksak samimiy munosabati. Mehr atamasi turli tillarda turlicha mazmunga ega bo‘lsa-da, mohiyatan bir-birini to‘ldiradi. Bugungi kunda o‘zbek tilida muamalada bo‘lgan “mehr” so‘zi fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, «xayrixohlik», «qayg‘urish», «rahm-shafqatlilik», «quyosh» ma’nolarini anglatadi. Mehr so‘zining quyoshga nisbat berilishi o‘zbek tilida qiyoslash asosida juda keng ma’no imkoniyatlarini vujudga keltirishi bilan bu tushunchani boy tasavvur qilishga ko‘maklashadi.

Insonning borliqqa, jumladan odamlarga nisbatan mehribonlarcha munosabati mehr hodisasini keltirib chiqaradi. Mehr hodisasi sinkretik tushuncha. Narsa, hodisalarning biror tarzda zohir bo‘lishi, tashqi mavjudlik shaklidir. Insonning bilish jarayoni dastlab hodisalar haqidagi ma’lumotlarni bilishdan boshlanadi, so‘ng uning mohiyatini tushunishga o‘tadi. Mehr hodisa sifatida uning belgi va xususiyatlari zamirida yotgan muayyan mohiyatni namoyon qiladi. Mehr tuyg‘usi dinamik xususiyatga ega bo‘lib, doimiy o‘zgarish va rivojlanish jarayonida uning mohiyati, shunga mos tarzda hodisalar ham o‘zgarib turadi. Mohiyatdagi har qanday juz’iy o‘zgarish muqarrar ravishda hodisada o‘z ifodasini topadi.

Mehr hodisasi ayni paytda mehr voqeyligini keltirib chiqaradi. Mehr voqeligi tabiat, jamiyat va shaxslararo munosabatlar bilan bog‘liq o‘zaro aloqadorlikni ifodalovchi tushuncha. U har qanday munosabatlarning tabiatidan kelib chiqadi va ularning ichki qonuniyatini aks ettiradi. Mehr muayyan sharoitda muqarrar voqe’ bo‘ladigan hodisadir. Mehr va mehrsizlik (bemehrlik) borliqdagi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan, biri ikkinchisiz mavjud bo‘la olmaydigan narsa va hodisalarning o‘zgarish va rivojlanishiga oid aloqadorlikning ikki tomonidir. Ular o‘zaro bog‘liq va, ayni paytda, o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan tubdan farq qiladi.

Ijtimoiy munosabatlarda mehribonlik bilan mehrsizlikni (bemehrlikni) to‘g‘ri anglash jamiyat hayotining ob’ektiv taraqqiyot qonunlarini bilib olish va amalda qo‘llashning asosiy shartidir.

Mehr madaniyati ijtimoiy hayotda kishilar o‘rtasidagi munosabatlarning mehr asosiga qo‘yilishi; jamiyat, inson ijodiy kuch va salohiyati taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko‘rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma’naviy boyliklarda ifodalanadi.

Mehr muhiti jamiyatda shaxsning g‘amxo‘rlik, yakdillik, xayrixoxlik, ezgulik kabi yuksak insoniy fazilatlar qurshovida bo‘lishi. Shuningdek, mehrlilik jamiyatda ezgulik, xayru saxovat, mehr-oqibat, muruvvat kabi olijanob xislatlar negizida insonparvarlik, bag‘rikenglik sharoitida namoyon bo‘ladi.

Mehrga asoslangan munosabatlar anglangan empatik munosabat sifatida o‘z mazmunida boshqalarning hayoti, muammolari, maqsad va intilishlariga kuyunchaklik, hamdardlik, hamjihatlikni mujassam etadi. Mehr insonlararo munosabat bosqichida shakllanib shaxsning jamoalarga, jamiyatga va davlatga bo‘lgan pozitiv shukrona munosabati tarzida transformatsiyalashadi.

Mehrga asoslangan munosabatlar insoniy munosabatlar tizimida muhim o‘rin tutib, avval oila, so‘ng ta’limning barcha bo‘g‘inlari hamda mustaqil hayot mobaynida inson ongiga uzluksiz singdirilgan tarbiya va ta’limiy mehnatning samarasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Jamiyat mohiyatiga ko‘ra insonlarni jipslashtirish zaruratidan yuzaga kelgan. Mazkur qonuniyat odamlararo yaqinlashishning eng yuqori shakli sifatida konsensusni yuzaga keltiradi. Konsensus odamlararo yaqinlikda ruhiy moslikni taqozo etadi. Aynan shu jihati bilan konsensus muhabbat, sevgidan farq qiladi. Muhabbat hodisasida hissiy moslik ustuvor bo‘lsa, konsensusda ruhiy, qalban yaqinlik markaziy ahamiyatga ega.

Konsensus mushtarak manfaatlar birligini ham ifodalaydi. Manfaatlar mushtarakligi esa korporativ yaqinlikni shakllantirish imkoniyatini kengaytiradi. Anglangan korporativ manfaatlar uyg‘unligini tarkib toptirish uchun esa, jamiyat ichidagi alohida shaxslarning uyushqoqlik bilan jipslashishiga ularning qaysi hududga yoki etnik guruhga mansubligi emas, balki umumdavlat darajasida korporativ manfaatlarning yaxshi anglashi asos bo‘lishi kerak.

Konsensus rozilik, yakdillik, kelishuvni anglatib, ikki yoki undan ko‘p odam o‘rtasida o‘xshash kognitiv va amaliy yo‘nalishlarni uyg‘un talqin ettiriladi. Ular har qanday jihatdan o‘zaro ta’sir va o‘zaro tushunishni o‘rnatishga imkon beradi. shu boisdan ham konsensus – bu boshqalarni rozi qilib, ichki qanoatga erishish mazmunini ham ifoda etadi.

Konsensus, barqarorlik va tartib bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Bir-biridan kelib chiqadi va biri birini toqozo etadi. Ularning munosabatlari

ushbu toifalar jamiyatning holatini tavsiflash uchun ishlatilganligi bilan bog‘liq.

Konsensusga erishish uzluksiz tarbiyani taqozo etadi. Bolaga yoshligidan boshlab berilgan mehr uning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tizim ichki va tashqi ta’sirlariga nisbatan barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Mehrdan qoniqmagan bolaga agressiv harakatlar xos bo‘lib, ijtimoiy konsensusga erishishni imkonsiz darajaga tushiradi. Boshqacha aytganda, biz bolani rivojlantirish zaruratini ta’kidlash orqali shaxs va jamiyat o‘rtasida barqaror kelishuvga, ya’ni konsensusga erishish haqida gaplashmoqdamiz. Shubhasiz, bu bir varakayga keng qamrovli ijtimoiy konsensusga erishish maqsadini ro‘yobga chiqarmaydi. Amalda, muayyan jamiyatda biror bir muhim masala yuzasidan aholining sakson foizini o‘z ichiga olgan ijtimoiy xulosa, ya’ni konsensus deyarli ideal variant hisoblanmaydi. Shuning uchun ham hech bo‘lmaganda uning maqsadlari va qadriyatlari ko‘pchilik aholisi tomonidan baham ko‘rilganda, rozilik haqida gapirish mumkin. Rizolik holati yoki uning miqdori faqat jamoatchilik fikri orqali aniqlanadi. Rozilikni aniqlash bo‘yicha jamoatchilik fikri muayyan fakt sodir bo‘lganidan keyingi oqibatlari asosida tasdiqlanadi.

Jamiyat uchun ijtimoiy uyg‘unlik muammosi bugungi kunda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etmoqda. Garchi innovatsion yondashuv va raqobatbardoshlikni ta’minlash davlat tomonidan sog‘liqni saqlash, ta’lim va fundamental fan sohalarida keng joriy etilayotgan bo‘lsa-da, ijtimoiy munosabatlarda konsensus orqali modernizatsiyalashuv holati ham qoniqarli emas. Ijobiy nazar shuki, o‘zbekiston ushbu toifadagi yetakchilar o‘nligidan ancha uzoq bo‘lsada, keyingi yillarda bu boradagi reytingi yuqorilab bormoqda. Jumladan, Inson taraqqiyoti indeksida ham yuqoriga faol ildamlashayotganligini kuzatish mumkin.

Mehrdan qoniqmaslik shaxsda ijtimoiy jarayonlarda inertsiya holatida bo‘lishi, o‘zgarishlardan qo‘rquv, har bir o‘zgarish, hatto uzoq bo‘lmagan kelajak haqida o‘ylashni istamaslik holatlarini shakllantiradi. Inertsiya insonda ichki bezovtalikni keltirib chiqaruvchi omil hisoblanadi va inson ichki olamini holatga olib keladi. Bu borada onaning farzandiga hali tug‘ilmasdanoq mehr berishi uni inertsiyadan saqlovchi muhim omil hisoblanadi va insonni borliqqa, shu jumladan ijtimoiy borliqqa ongli moslashishida muhim rol o‘ynaydi.

Mehr bu insonning odamlar va borliqqa nisbatan ongli, samimiy va barqaror munosabatining o‘ziga xos ko‘nikmaviy tarzda yondashuvi ifodasidir. Jamiyatda shaxsning boshqa sub’ektlar xususida individual tarzda qabul qilgan insoniy mulohazalari hamda xulosalarining

shaxslararo ijtimoiy munosabatlarda ifodalanishidir. Mehr insonga baxt hamda yashashga ishonch, ezgulikka umid, intilish hissi, optimistik kayfiyatni uyg‘otadi.

Mehribonlik hissi-shaxslararo munosabatlarda kelishmovchilik va nizoli jarayonlarni oldini olibgina qolmay, balki hamfikrlik va hamkorlikni rag‘batlantiradi. Ma’lumki onani bolaga bo‘lgan mehri mehribonlikning eng yuksak darajasi hisoblanadi. Darhaqiqat, odamzot mehr ko‘rsatish orqaligina nafaqat o‘z atrofidagi insonlarga balki barcha yaratilgan narsalarga nisbatan o‘zining samimiy munosabatini ifodalaydi. U o‘zining mehri tufayli atrof-muhitga, tabiatning betakror ne’matlariga, olam sinoatiga, barcha mavjudod shukronaligiga sabab bo‘ladi. Inson tug‘ilganidan boshlab, avval ota-onaning so‘ng esa atrofdagilarning mehridan bahramand bo‘la borishi tufayli har qanday qiyinchiliklarni yengib olib o‘tadigan kuchga aylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev «Yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz» , degan ezgu fikrlari bugungi kun uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodni har tomonlama sog‘lom va barkamol qilib voyaga yetkazish, ularga ilg‘or jahon andozalariga mos ta’lim va tarbiya berish, hozirgi kundagi vazifalardan biri sanaladi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish eng avvalo jamiyatdagi ijtimoiy ma’naviy muhitning sog‘lomligi bilan bevosita bog‘liq.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. “Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили” да амалга ошиладиган ишлар. Т.: “Маънавият” нашр. 2017 йил, 4 бет.

2. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. -508 б.

3. Мирзиёев Ш. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. -400 б.

4. Лабиринты одиночества. Сборник. \ Под ред. Паровского Н.Е. –М.: ЭКСМО – Пресс, 1989. – С. 549.

5. Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар, 1-том. Т., 1968 йил 404-бет.

6. Алишер Навоий. Маҳбуб-ул-Қулуб. – Т.: 1966. 13-жилд. –244-б.
7. Бекмуродов М.Б. Замонавий бошқарув социологияси. Т.: YOSHLAR NASHRIYOT UYI. 2020 й. 105-бет.
8. Бубер М. Проблема человека. Преспективы \\ Лабиринты одиночества. \ Под ред. Н.Е.Покровского. –М.: Прогресс, 1989.
9. Садлер У.А. Джонсон Т.Б. От одиночества к аноним \\ Лабиринты одиночества. Сборник. \ Под ред. Паровского Н.Е. –М.: ЭКСМО – Пресс, 1989. – С. 25-27.
10. Шелер М. Сущность и формы симпатии. // Horizon. Феноменологические исследования. 2017. № 2 (12). – С. 303-319.

OLIM SULTONMUROD,
Toshkent amaliy fanlar universiteti professori,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi,
filologiya fanlari doktori

YANGI O‘ZBEKISTON ISLOHOTLARINING ENG MUHIM KO‘RSATKICHLARI

Yangi davr mohiyati. 1991 yilning 31 avgustigacha Yer yuzidagi davlati yo‘q millatlarning biri edik. Davlatga ega bo‘ldik. Uni qurdik. Dunyoga o‘z so‘zimizni aytishga erishdik. Bizni olam tanidi, biz olamni tanidik. Haqiqatni aytganda, bu darajalarga erishish davlatga ham, xalqqa ham oson bo‘lmadi.

2016 yil sentabridan O‘zbekistonimizda yangi davr boshlandi. Uzoq yillar oliy ta’lim tizimida ishlagan, bir tuman va ikki viloyatni boshqargan, 13 yil O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri lavozimida ishlagan Shavkat Miromonovich Mirziyoev davlat rahbari bo‘ldi. U mamlakat hayotining katta-kichik barcha masalalaridan har taraflama boxabar edi. Muammolar esa tiqilib ketgan, ularni yechishning mexanizmlari eskirgan yoki tamoman ishlamay qolgan edi. Chigalliklar shunchalar ko‘p ediki, bir masalani yechishga ikkinchisi monelik qilar, aniqrog‘i, hamma masala bir kishi orqali bitishi, ammo unga yechimlar haqidagi takliflarni yetkazishning yo‘li murakkablashib qolgan bir zamon edi.

Lekin xalq ertaga yoki indinga emas, aynan bugun baxtli yashashni istar edi.

Xullas, hayot yangicha bir siyosatni talab qilar edi.

Islohot va yana islohot. *“Islohot” – “o‘zgarish”* degani. Shuning uchun u – to‘xtovsiz davom etadigan muttasil jarayon. Daryo suvi bir yerda to‘xtab tura olmagani singari, odam ham, kishilik jamiyati ham bir yerda turg‘un qolishga haqli emas. Hayot davom etar ekan, u har kuni, har hafta, har oy, har yil... oldimizga yangi-yangi vazifalarni ko‘ndalang qilib qo‘yaveradi. Ularni ado etish uchun hammamiz yangilanishga majburmiz.

Shu falsafiy mulohazalardan keyin mamlakatimizda 2016 yil sentabridan bu yog‘iga yuz bergan voqea-hodisalarga umumlashma ko‘zi bilan qaralsa, ko‘p narsa oydinlashadi. Lekin buning bitta sharti – bor: bu o‘zgarishlarga, avvalo, aynan fuqaro ko‘zi bilan boqish – zarur. Chunki, axir, mamlakatdagi o‘zgarishlar amalda fuqaro hayotini yaxshilashga xizmat qilishi – kerak-da.

Xo‘sh, shu murakkab vaziyatni chiqib ketishning qanday yo‘llari topildi?

Keling, mamlakatimizda shu davrda yuz bergan tub burilishlarni bir-bir eslaylik.

Davlat xalqqa xizmat qilishi – kerak. Davlat rahbari tarafidan, *O‘zbekistonimizning buyuk kelajagini xalqimiz bilan birgalikda quramiz,* degan shior o‘rtaga tashlandi. *Xalq davlatga emas, davlat xalqqa xizmat qilishi – kerak,* deyildi. Davlat xalqni eshita boshladi. Xalq qabulxonalari tashkil etildi.

Ammo bu gaplar so‘z bilan emas, amal bilan joriy etilsagina samara berar edi. Shunday qilindi ham.

Pul siyosati. Esingizda – bordir, oyliklarimiz plastik kartaga o‘tkazib berilardi-yu, hamma joyda ham terminal orqali savdo qilish imkoniyati yaratilmagan edi. Hatto, banklarda navbatda turib, maoshimizning muayyan qisminigina naqd qilib olar edik. Qaerda yetishmovchilik, taxchillik bo‘lsa, o‘sha yerda jinoyatchilik tomir ota boshlaydi. Plastik kartadagi haloldan-halol maoshingizni ustiga pora berib naqd qilib olishga to‘g‘ri keldi ham. O‘zbek so‘mini AQSh dollariga almashtirish-ku muammoning muammosi edi.

Hozir bankka boring, plastik kartangizdagi pulingizni, xohlang, naqd qilib beradi, xohlang, dollarga aylantirib.

Tashqi siyosat. Qizingizga sovchi kelmoqchi bo‘lsa, avval mahallaga “elchi” yuborib, qo‘ni-qo‘shnilardan surishtirishadi. Hammamiz ham hovli-hamsoyasi bilan chiqisholmaydigan oiladan qiz olishni o‘ylab ko‘ramiz. Diplomatiya sohasida bir muddat ishlagan mutaxassis sifatida shuni yaxshi bilamanki, dunyo mamlakatlari ham bir davlat bilan munosabatlarni kuchaytirishda xuddi shunday yo‘l tutadi. Qo‘shnilari bilan yaxshi munosabatlar o‘rnata olmagan davlat bilan hamkorlik qilishdan cho‘chishadi. Yillar shunday bo‘ldi ham.

Shuning uchun davlatimizning keyingi sakkiz yillik tashqi siyosatida, avvalo, yon qo‘shnilar bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatish birinchi darajali masala qilib qo‘yildi. Bugun buning samaralaridan biz ham, qo‘shnilarimiz ham birday bahramand bo‘lyapti. Shavkat Mirziyoevning o‘z so‘zlari bilan aytilsa: *“Yigirma yillik muzlar eritildi. Bu oson bo‘lmadi”.*

Shunga qarab, dunyoning uzoq-yaqin boshqa davlatlari bilan munosabatlarimiz darajasi ham ko‘tarildi, ko‘lami ham keskin kengaydi. Bugun Yangi O‘zbekiston hayotining hech bir qirrasini jahon aloqalaridan xoli holda tasavvur qilib bo‘lmaydi.

“Men O‘zbekiston fuqarosi bo‘ldim!..” Hayot – murakkab jarayon. Taqdiri azalning turli iplari orqali O‘zbekistonimizda yillar mobaynida yashab kelayotgan qanchadan-qancha chet el fuqarolari yoki fuqaroligi

yo‘q shaxslar bor edi. Birovi shu yerda o‘qib, ishlash uchun qolib ketgan, boshqasi turmushga chiqib kelgan va hokazo. Hammasi shu yurt, shu xalq bilan birga mehnat qilyapti. Ammo huquqlari keskin cheklangan. Shaxs sifatida g‘ururi toptalgan. Axir, saylovda qatnasholmasa, armiya xizmatiga bora olmasa, davlatning boshqaruv idoralariga ishga kira olmasa, ayrim boshqa huquqlardan mahrum bo‘lsa, u – har qanaqasiga o‘zini kamsitilgan hisoblashga majbur-da. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini berish amaliyoti yo‘q darajaga tushib qolgan edi. Shu kemtiklikka barham berildi: qanchadan-qancha insonlar faxr bilan, *O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi,* degan yuksak sharafga ega bo‘ldi. Safimiz shu hisobdan ham kengaydi. Nufusimiz oshdi.

Tenlevizorda siz ham ko‘rgandirsiz – ko‘zida sevinch yoshlari bilan: *“Men O‘zbekiston fuqarosi bo‘ldim!”* – degan shukrona sizni ham to‘lqinlantirgandir.

“Men xalqimni paxtaga qullikdan qutqaraman!..” Birinchi sinfda ikki soat o‘qib, maktab yaqinidagi paxta dalasiga chiqar, mashina terimi payti traktorlar aylanib oladigan chekka joylardagi o‘rib qo‘yilgan g‘o‘zalarning ochilgan paxtalarini terib berar edik. 5 – 10-sinfligimiz payti esa sentabrdan noyabrning oxirigacha uch oyga yaqin kattalar qatori ertalabdan kechga qadar paxta terishga majbur edik. Bu 2016 yilgacha ham qariyb aynan davom etdi. Oxiri demokratik dunyo qattiq bong urdi. Paxtamizni sotib olmay qo‘ydi. Aynan majburiy mehnat, bolalar, ya’ni ishlash yoshiga yetmaganlar mehnatidan foydalanilgani uchun.

Hozir-chi? Bir paytlar paxta yig‘im-terimi mavsumida har kecha shtabda maktab direktorini turg‘azib, uni nega falon o‘quvchi yoki o‘qituvchi dalaga chiqmagani uchun tergashar edi. Endi esa maktab direktorini biror-bir o‘quvchi yoki o‘qituvchining paxta terimi yoki boshqa qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilingani uchun tergaymiz.

Bu – katta siyosat, ma’nan keskin, inqilobiy o‘zgarish. Endi o‘quvchilarimiz, Yer yuzining boshqa davlatlaridagi kabi, maktabda to‘qqiz oy ta’lim oladi. Bu – mamlakatning kelajagiga, fuqarolarning sog‘lig‘i, bilimli bo‘lib yetishuviga qaratilgan siyosat. Hatto, 2023 yilning 30 aprelida umumxalq referendumi orqali qabul qilingan yangilangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘qituvchilar haqida yangi – 52-modda ham kiritildi. Unda shunday so‘zlar bitilgan:

“O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi.

Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish,

ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi”.

Muhtaram Prezidentimiz: *“Men xalqimni paxtaga qullikdan qutqaraman!..”* – degan va’dasida qat’iy turibdi.

U birgina shu xizmati bilan ham tarixda qoladi.

Avvalo, boshingda boshpanang bo‘lsin! Shavkat Mirziyoev xalqdan chiqqan, mintaqalarimizdan kelib, poytaxtda yashab qolgan barcha ziyolilar kabi, uysizlikning bor azob-uqubatlarini boshidan kechirgan. O‘zbekistonimizning eng katta, hatto, G‘arb davlatlari havas qilib yetolmaydigan bir yutug‘i – shundaki, istiqlolning 33 yili mobaynida 21 million kishi yashaydigan mamlakatdan 37 millionli xalqi bor mamlakatga aylandik. Ammo: *“Tuya – qancha, yag‘iri – o‘shancha”,* – degan maqolimiz bekorga to‘qilmagan. Ya’ni ko‘payib borayotgan bu aholi ehtiyojlari uchun tinmay yangi uy-joylar bunyod etib borishimiz – zarur. Sakkiz yil burun qurilayotgan uy-joylar miqdori aholi o‘sishi ko‘rsatkichlariga mutanosib emas edi. Bu yil sayin masalani og‘irlashtirib borayotgan edi.

O‘zbekistonning yangi rahbari mamlakatda uy-joy qurilishini son va sifat jihatidan tamoman yangi darajaga ko‘tarish masalasini davlat va jamiyat oldiga o‘ta muhim masala qilib qo‘ydi. Bunda aholining xarid imkoniyatlarini hisobga olish bosh maqsadga aylantirildi. Million-million kishilar bundan bahramand bo‘ldi. Statistik ma’lumotlarga tayanib o‘tirishning hech keragi – yo‘q: keyingi sakkiz yilda mamlakatimizda oldingi 25 yilda qurilganidan ancha ko‘p uy-joylar bunyod etildi.

Metroning Olmazor bekatidan Sergeli tomon yo‘nalgan yerusti metrosi bilan bir yurib ko‘ring. O‘zingizni tamoman boshqa bir shahardadek his qilasiz. Chunki metro bo‘ylab ikki tomonda qad rostlagan yangi ko‘pqavatli uylar ko‘zingizni quvnatadi. Keyingi yillarda Sergelida qad rostlagan yangi uylarga bir million aholi ko‘chib o‘tdi. Oxiri, bu tuman ikkiga ajratilib, Yangihayot tumani ham tashkil qilindi.

Talabalar mamlakati. Shunday davrlar bo‘ldiki, oliy ta’lim muassasasi professorining maoshi talabaning stependiyasidan bor-yo‘g‘i ikki karra ortiq edi, xolos. O‘qishga, o‘qitishga munosabat ham shunga loyiq tarzda bo‘ladi, albatta. Boshqacha holatni aslo ko‘z o‘ngingizga keltirmang. Chunki, xalq maqolida aytilganidek: *“Qimmat – bir xislatli, arzon – bir illatli”.* Hatto, Alisher Navoiy qurdirgan madrasada professor darajasidagi mudarrisning maoshi talabaning eng kam stipendiyasidan 8, o‘rtacha stipendiyadan 6 va yuqori stipendiyadan 4 karradan oshiqroq ko‘p bo‘lgan.

Prezident Shavkat Mirziyoev oliy ta’lim muasasasida eng kichik

vazifadan prorektorgacha bo‘lgan bosqichlarni bosib o‘tgan, bu sohaning barcha sir-sinoati, ikir-chikiridan boxabar kishi sifatida mamlakatda oliy ta’lim tizimini yuksak darajaga ko‘tarishning yo‘llarini izladi va topdi ham.

Birinchidan, oliy ta’lim muassasa yoki tashkilotlarining soni, ikkinchidan, mavjud davlat oliy ta’lim muassasalarining kvotasi ko‘paytirildi, uchinchidan, yangi-yangi davlat va nodavlat oliy ta’lim dargohlari, jahondagi nufuzli oliy ta’lim muassasalarining bizdagi filiallari tashkil etildi.

Bugun oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari yaratilgan shart-sharoitlarga yon atrofimizdagi davlatlar havas qilyapti. Natija ham shunga mos, albatta. Sakkiz yil burun bitiruvchilarning oliy ta’lim muassasasiga o‘qishga kirishi bitiruvchilar umumiy sonining 9 foizinigina tashkil etar edi. Bu har 11 bitiruvchining birigina o‘qishga kirganini bildirar edi. 2023/24 o‘quv yilida bu ko‘rsatkich 42 foizni tashkil etdi. Demak, bultur har 10 bitiruvchining 4 nafardan ortiqrog‘i oliy ta’lim muasasasi talabasi bo‘ldi. 2024/25 o‘quv yilida bu borada yana o‘sish kutilyapti. Hali oliy ta’lim muassasa va tashkilotlarining ayrimlarida o‘qishga qabul qilish jarayoni davom etayotgani uchun aniq statistik ma’lumotlar keltira olmaymiz. Lekin 2030 yilga borib bu ko‘rsatkichni 70 foizga yetkazish ko‘zda tutilgan. O‘shanda har 10 bitiruvchidan 7 nafari oliy ma’lumot olgan bo‘ladi.

2023/24 o‘quv yilida mamlakatimizda 1 million 300 mingdan oshiq talaba oliy ta’lim tizimida tahsil oldi. Bu aholining har 28-29 nafaridan biri oliy ma’lumot olayotganini anglatadi. Oliy ta’limdagi bu siljishlar ertaga yo indinga mamlakatda hayotning umumiy darajasi ko‘tarilishiga olib keladi, inshoolloh.

Fundamental fan ravnaqi. Fanlar akademiyasining ko‘p yillik tarixga ega ba’zi institutlari oliy ta’lim muassasalari huzuriga o‘tkazildi. Bu aslo o‘zini oqlamadi. Fundamental fan orqaga ketdi. Bu xato tuzatilib, o‘sha institutlar yana Fanlar akademiyasiga bag‘riga qaytdi.

Dunyo tajribasi fundamental fanlar bilan ilmiy tadqiqot institutlari shug‘ullanishini taqozo etadi.

O‘quv zallari to‘lgan kutubxonalar. Shavkat Mirziyoev mamlakatda kitobxonlikka alohida e’tibor berib, bir necha qonunosti hujjati qabul qildi. Kitobxonlar o‘rtasida tanlovlar tashkil etildi. Jamiyatni ilm-ma’rifatsiz olg‘a siljitib bo‘lmasligi odamlar ongiga quyildi.

Hozirgi kundagi bir quvonchli faktni keltiray: ertalab soat 10 dan kech qolsangiz, O‘zbekiston milliy kutubxonasi o‘quv zallarida o‘zingizga joy topishingiz – amri mahol. Xalq kitob o‘qishga kirishdi. Odamlar

tushundiki, dunyoning bu global raqobat maydonida o‘qimay turib g‘olib kelishning hech iloji – yo‘q.

Ma’naviyat – taraqqiyot garovi. 1994 yili tashkil etilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining tuman va shahar bo‘limlari jamoatchilik asosida ishlar, mabodo, hokimiyatlar mablag‘ topib bersa, xodim oylik ola bilar edi. Hozir bu Markazning barcha tuman va shahar bo‘limlari davlat budjetidan maosh bilan ta’minlanadi. Ayrimlari – hatto, xizmat avtomobiliga ham ega.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining markaziy ampparati tuzilmasi ham yangi-yangi shtatlar bilan boyitildi. Uning huzurida Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti ham faoliyat olib boryapti.

Xalqni tomorqa ham boqadi. Mustaqillikkacha biz, asosan, agrar respublika edik. Keyin sanoatlashgan agrar mamlakatga aylandik. Ammo ishlab chiqarishda sanoatning ulushi – hali biz kutgan darajalarga yetganicha yo‘q. Markaziy Osiyodagi sug‘oriladigan yerlari eng ko‘p mamlakat sifatida qishloq xo‘jaligini ham yuksak darajalarda rivojlantirmasak, dunyo ham ko‘nmaydi.

Bu borada so‘nggi sakkiz yilda o‘rtaga qo‘yilgan siyosat ham o‘zgardi. Alloh bu serhosil yerlarni bizga faqat paxta yetishtirish uchungina in’om etgani – yo‘q. Nima ekib, paxtadan ko‘ra ko‘proq daromad oladigan bo‘lsak, marhamat, shuni ekaylik.

Bu siyosatning tarkibiy qismi sifatida yana bir muhim pozitsiya shunday qattiq tutilyaptiki, uni alohida qayd etmasdan iloj – yo‘q. Tomorqa qishloq ahliga ishlab chiqarish maydoni, ya’ni daromad ko‘rish manbasi sifatida berilgan. Axir, bu yil bahorda Prezident Sirdaryo viloyatining Sayhunobod tumaniga borib, uyma-uy yurib, tomorqalarni ko‘zdan kechirdi. Ayrim oilalarda tomorqaga faqat makka bilan beda ekilgani qattiq qoralandi. Ilg‘or tajribalar e’tirof etildi. Shu tariqa *“Sayhunobod tajribasi”* mamlakat uzra yoyildi.

Tomorqachilik bugun bozor iqtisodiga moslasha boshladi. Ishonmasangiz, YouTube'ni kuzating, tomorqalarimizda iqtisodiy daromad keltiradigan ekinlar ekib, mo‘l hosil yetishtirish bo‘yicha qanday-qanday ajoyib tajribalar ommalashtirilyapti. Masalan, ko‘p viloyatlarimizda shu paytgacha yetishtirib kelingan kam daromadli uzum toklariga zamonaviy, ilmiy asosda yangi yaratilgan, xaridorgir navlarni yoppasiga payvandlash avjiga chiqqan. O‘z tomorqasidagi issiqxonalarda shunday qimmatbaho navlarning ko‘chatlarini tayyorlab, sotayotganlar paydo bo‘ldi. Uzumning “Avatar”, “Manikyur finger”, “Lombarjini”, “Amerikanka gigant”, “Xellouin”, “Mersedes” va boshqa eng bozorgir turlari yetishtirilyapti. Dehqon yo bog‘bonlarimiz ilmiy asosda meva,

sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirishga tushdi.

Hamma narsa – niyatga bog‘liq. Bugun O‘zbekistonimizda tomorqachilik misli ko‘rilmagan darajada rivojlanish bosqichiga kirdi. Shu tariqa fuqarolarimiz: *“Bizni davlat boqsin”* – degan mutlaqo xato va hech qachon amalga oshmaydigan utopik tasavvur, ya’ni xomxayoldan voz kecha boshladi. Bu – katta yutuq. Chunki ongdagi o‘zgarish amalda hamma narsani o‘zgartirib tashlashga qodir kuch hisoblanadi.

Investitsiya faqat *“pul”* degani emas. Odam rivojlanishi uchun ham, mamlakat ravnaq topishi uchun ham to‘rt narsa – kerak: birinchisi – aql, ikkinchisi – mablag‘, uchinchisi – mehnat, to‘rtinchisi – bozor. Xalqimizning: *“Pul pulni topar, bepul – dardi sar”,* – degan ajoyib maqoli bor. *“Dardi sar”* degani – *“bosh og‘rig‘i”,* ya’ni *“muammo”* degani. Aqlni o‘stirish uchun ham mablag‘ kerak, aql esa mablag‘ni ko‘paytirishga asos bo‘ladi.

Investitsiya mamlakatga ham mablag‘, ham aql olib kiradi. To‘g‘ri, mablag‘ Koreyaniki bo‘lishi mumkin, lekin texnologiya, ya’ni aqlni Yaponiyadan keltiradi. Bizda qurilgan har qanday katta korxonada, albattaki, xalqimiz vakillari mehnat qiladi. Shu tariqa biz ham kiritilgan ana shu mablag‘dan bahramand bo‘lamiz, ham shu tariqa yangicha ishlab chiqarish texnologiyalarini o‘zlashtiramiz. Investor esa, tabiiyki, bizda ishlab chiqarish tashkil etishdan oldin bozorni o‘rgangan, mahsulotini ham ichki, ham yaqin tashqi bozorda, ya’ni bizga qo‘shni mamlakatlarda sotishni hisobga olgan bo‘ladi. Shu tariqa biz eksport ham qilamiz. Axir, qaysi mamlakatda eksport hajmi import hajmidan ko‘p bo‘lsa, u yerda haqiqiy taraqqiyot yuz beradi-da.

Xalq, davlat va Prezident. Xalq, davlat va Prezidentni bir-biridan ajratib qarash mumkin emas. Chunki Prezident – davlatni xalq manfaati yo‘lida boshqarishga mas’ul shaxs. Uni xalq saylagan. Xalq davlati taqdirini unga ishonib topshirgan. Shuning uchun ham mamlakat taraqqiyoti – har taraflama davlat rahbarining sa’y-harakati, iqtidori, salohiyati va niyatiga bog‘liq.

Har bir davlat rahbari amalda o‘sha mamlakat xalqining sha’ni, sharafi, kerak bo‘lsa, tashrif qog‘ozi ham hisoblanadi. Uning jahon miqyosidagi shaxsiy obro‘y-e’tibori tabiiy ravishda mamlakat xalqining obro‘y-e’tiborini anglatadi. Shubhasiz, shu shaxsiy obro‘y-e’tibor mamlakat va uning xalqi uchun katta boylik sifatida asqotadi.

Shu ma’noda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevga bugungi O‘zbekistonimizda yuz berayotgan katta o‘zgarishlarning asosiy tashabbuskori sifatida qarashimiz – lozim.

Yangi O‘zbekistonimiz jahon nazdida. Keling, endi

O‘zbekistonimizdagi so‘nggi sakkiz yilda yuz bergan ko‘tarilish davriga dunyoning ko‘zi bilan boqaylik. Jahon bizga, *jozibador diyor,* sifatida qaray boshladi. Buni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterresh, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si szinpin, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an, Rossiya Federatsiyasi Poezidenti Vdadimir Vladimirovich Putin, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jo‘mart To‘qaev, Ozarboyjon Respublikasi Proezidenti Ilhom Aliev va boshqalarning xalqimiz, davlatimiz va Prezidentimizga samimiy, do‘stona va xayrixohona munosabati, bildirgan iliq fikr-mulohazalaridan ham bilib olsa, bo‘ladi.

Daxldorlik. Mamlakatimizda taraqqiyot eshiklari ochilgan bunday zamonda yashayotgan har bir fuqaro ana shu umummilliy harakatga shaxsiy hissa qo‘shishni o‘ylab yashashi – lozim. Shaxsiy hissa qo‘shish, avvalo, uning o‘zini boyitishi, baxtli qilishiga zamin bo‘ladi.

Bu umummilliy harakatdan uzilib qolishga hech kimning haqqi – yo‘q.

Chunki xalqning o‘z milliy davlati va uning rahbari bo‘lmish Prezident maqsad va g‘oyalari bilan birligi, yakdilligiga erishishi tarixan eng katta yutuq sanaladi.

Xullas, biz buyuk o‘zgarishlar davrida yashayapmiz. Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston mustaqilligining 33 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida alohida ta’kidlanganidek: *“Barcha islohotlarimizning ruhi va mazmuniga “Inson qadri uchun, el-yurt baxti uchun!” degan ezgu g‘oya chuqur kirib bormoqda”.*

Biz mamlakatimizda ro‘y berayotgan ulkan islohotlarning yuzdan birinigina eslab o‘tdik, xolos.

AZIZA MUXSIYEVA
Nizomiy nomidagi TDPU “Pedagogika” kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)

YANGI TARAQQIYOT DAVRIDA MA’NAVIY MUNOSABATLARNING YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGIGA TA’SIRI

Yurtimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar, tatbiq etilayotgan yangiliklar, ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, xalqimizning yashash va mehnat qilish sharoitining yaxshilanishi, umuman olganda erishilgan moddiy va ma’naviy salohiyat erkinligi mamlakat yangi taraqqiyot davrining tuhfasi bo‘lib, erkin mehnat qilish va yashash, mustaqil fikrlash, e’tiqod va so‘z erkinligi, ijtimoiy faolligi, diniy bag‘rikenglik, umuminsoniy qadriyatlar va milliy urf-odatlarning hurmat qilinishi va qadrlanishi, kuchli ijtimoiy himoya hamda bularni huquqiy asoslarining yaratilishi yoshlarni mustaqillik, uning mazmunmohiyati, ahamiyati va zaruriyatini ob’ektiv baholashga o‘rgatish yo‘nalishida o‘ziga xos vazifalar yuklaydi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev *“Haqiqatan ham, hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o‘z dolzarbligi va ahamiyatini yo‘qotmaydigan masala bo‘lib qolmoqda. Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xatarlarga duchor qilmoqda. G‘arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota-onasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo‘lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-kuy bu masalad hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim*” - deb ta’kidlab o‘tganlar[1].

Bunday dolzarb muammolarni yechish, avvalo milliy mustaqillik sharoitida ta’lim tizimi mazmunini yangilash va yangi ijtimoiy muhit sharoitida uni yanada rivojlantirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Uni rivojlantirish esa ikki tamoyilga tayanadi. Birinchisi, ijtimoiy-iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishda o‘tmishni teran his etib, xalqimizning ruhiyatini, uning tarixiy va milliy o‘ziga xos jihatlarini, an’ana va urf-odatlarini hisobga olib, tarixiy taraqqiyot davomida to‘plangan ma’naviy merosi va milliy qadriyatlardan foydalanish bo‘lsa, ikkinchi tomondan, tafakkuri va ijtimoiy amaliyotida to‘plagan boy tajribasidan samarali

foydalanishdir. Bu tamoyillar jamiyatimizning yangi rivojlanishi uchun ijtimoiy-ma'naviy asos bo'lishi tabiiy.

Shaxs faoliyati, uning ijtimoiy borliqqa nisbatan hayotiy yondashuvi, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtirok darajasi hamda sifati o'z navbatida ijtimoiy munosabatlar mazmuni qaror topishga, takomillashishiga muhim hissa bo'lib qo'shiladi. Shunday ekan, shaxs ijtimoiy muhitning ijtimoiy munosabatlarning sust mahsuli emas. Ijtimoiy mavjudot sifatida inson hech qachon, ijtimoiy borliq, ijtimoiy munosabatlardan chetda yashay olmaydi. Inson ega bo'lgan bilim, hayotiy tajriba, dunyoqarash-yashab turgan muhitning ta'siri hamda ijtimoiy munosabatlar samarasidir[2].

Hayotga kirib kelayotgan bola va o'smir, yigit va qiz ko'pgina muammolarga ro'baro keladi. Shular orasida istiqbolda na'munali jamiyatni rivojlantirishning yangi yo'llarini, hayot-tartib qoidalari tizimini va qadriyatlarini belgilash, ijtimoiy holatlarni mustahkamlash va kasb tanlash muammolar asosiy o'rin tutadi.

Ijtimoiy faollik – ijtimoiy sub'ektlar (jamiyat, tabaqa, guruh va shaxslar)ning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokining, mehnat hamda madaniy-ma'rifiy faoliyatining kuchayishi, qonunda belgilab qo'yilgan huquq va burchlarini to'liq amalga oshirishga intilishi[3].

Ijtimoiy faollik shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishi va xulq-atvorini ongli ravishda boshqarishining asosiy sharti hisoblanadi.

Ijtimoiy faollik insonni imkoniyat doirasini kengaytirib boradi. Chunki bu jarayonda yangi ehtiyojlar va imkoniyatlar paydo bo'ladi, ehtiyoj qondirish yo'lida faol harakat vujudga keladi.

Yoshlarni ijtimoiy faolligi ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokining mehnat hamda madaniy-ma'rifiy faoliyatini kuchayishi qonunda belgilab qo'yilgan huquq va burchlarni to'liq amalga oshirishga intilishi tushuniladi. Jamiyatda ijtimoiy faol shaxsning o'z-o'rnini topishi va xulq atvorini ongli ravishda boshqarishining asosiy sharti hisoblanadi. Ijtimoiy faollikning uch turi mavjud: ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va madaniyat, mexnat va turmush sohasidagi mehnat faolligi mehnat munosabatlari sohasida namoyon bo'ladi va sub'ektning kasbiy-ijtimoiy vazifani bajarishi bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

Ijtimoiy faollikning asosiy, belgilovchi turi sifatida e'tirof etiladi. Uning quyidagicha: tejamkorlik, saranjomlik uchun xarakat, ilmiy-texnikaviy ijodda ishtirok etish, ratsionalizatorlik, ixtirochilik kabi sifatlarini aytish mumkin. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar madaniyat hamda turmush sohasidagi faollik shaxsning ijtimoiy-siyosiy, madaniy - ma'rifiy jarayonlardagi, shaxsiy hayotdagi faoliyatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy faol talaba yoshlarni tarbiyalash jamiyatimizda milliy tarbiya va mentalitetimiz uyg'unligi asosida olib borilayotganligi bilan demokratik va milliy xususiyat kasb etadi. Bu borada ta'limni insonparvarlashtirish, ya'ni xukumronlikka, bo'ysunishga va itoatkoronalikka asoslangan pedagogika o'rnida ijodkorlik, ilmiylik-hamkorlik, ijtimoiy faollik va do'stona munosabatlarga qaratilgan demokratik xarakterdagi pedagogika tobora o'z o'rnini topmoqda.

Tadqiqotlar yoshlarning ijtimoiy faollik funksiyasi uni qay darajada bilim, ko'nikma va malakalarni egallaganligida ko'rinishini asoslamoqda[4]. Agar yoshlar ijtimoiy faol shaxs sifatida bo'lajak kasbini sevsa,uni ardoqlasa, kasb burchi va ma'suliyatini dildan his etib foliyat yurutsa, o'zining insonparvarligi, bilimdonligi, ma'naviy - axloqiy fazilatlari hamda yuksak madaniyati bilan ibrat- na'muna ko'rsata olsa, ijtimoiy faol shaxs sifatida o'zini namoyon eta oladi.

Shunga ko'ra, ijtimoiy faol talabalarga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqadigan bo'lsak ijtimoiy buyurtma bilan uning bugungi ijrosi o'rtasidagi, talabalarning ijtimoiy faolligiga qo'yiladigan talablar bilan uning bugungi ijrosi o'rtasida vujudga keladigan ob'ektiv ziddiyatlarni ilmiy hal etishga qaratilgan ijtimoyilashuv vazifalarini belgilaydi.

Pedagogika fanida shaxsni ijtimoiylashuvida taqlid tarbiyasining o'rni alohida ekanligi aniqlangan. Bu muammo J.G. Mid va Z.Freyd nazariyalarida ham alohida o'z ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkin. Midning ta'kidlashicha, bolalar, birinchi navbatta, atrofdagilarning harakatiga taqlid qilib ijtimoiy mavjudot sifatida rivojlanadilar. Taqlid shakllaridan biri o'yin hisoblanadi. O'yinlarda bolalar ko'pincha kattalarga taqlid qiladilar. Freyd va Mid bola oilaning bevosita oilaning kontekstidan chetda mustaqil harakat qila oladigan mavjudotga taxminan besh yoshlarda aylana boshlaydi deyishadi. Freyd nazarida bu – «Edip kompleksi»ning debochasi Mid nazarida esa rivojlangan o'zini anglash qobiliyatining namoyon bo'lishidir [5].

Yoshlardan ijtimoiy burchni his etish ko'nikmasining shakllanishi kelgusida ijtimoiy burchni sitqidildan ado etishga undaydi. Demak, ijtimoiy burchni his etish boshqa va uni ijro etish, amalda ko'rsatish boshqa ekanligi izlanishlar jarayonida ma'lum bo'ldi. Shundan kelib chiqib, ijtimoiy burch va ijtimoiy masuliyat masalasi shaxsning ijtimoiy faollik motivlari tarbiyasi ko'rinishida qaraladi.

Pedagogikada bir haqiqatni unutmaslik kerak. Bugun bola kattalar yordamida faol bajarayotgan amallarini ertaga o'zi mustaqil ravishda bajarishilozim shundagina ijtimoiy faol shaxs sifatida jamiyatda o'z mavqeiga ega bo'la oladi. Shuning uchun bolaga berayotgan tarbiyaning

asosini o‘z-o‘zini tarbiyalashga qaratmog‘i darkor. Aslida tabiiy ijtimoiy hodisa, ijtimoiy voqelik bo‘lib, shaxsni ma’naviy-axloqiy, mehnatsevarlik,vatanparvarlik ruhida o‘z-o‘zinitarbiyalashi negizida ijtimoiykasbiymunosabatlarga tayyorlab borish jarayoni hisoblanadi.

Talabalarning o‘quv faoliyati jarayonidagi ijtimoiy yetuklik qirralari ko‘zga tashlana boshlaydi. Ijtimoiy faollik shaxc sifati darajasiga ko‘tariladi hamda bugungi tezkor va globallashuv jarayonini yoshlar tarbiyasiga qanday ta’sir ko‘rsatayotganligiga alohida etiborni qaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy faollik murakkab va o‘z navbatida keng ma’noga ega bo‘lgan tushuncha bo‘lib, yoshlarni jamiyat taraqqiyotiga bo‘lgan kasbiy, ma’naviy, axloqiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlari hamda fuqarolik mas’uliyatini belgilovchi o‘lchov hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi, Xalq so‘zi gazetasi, 2016 yil 8 dekabr.

2. Quronboyev Q.Q. Talabalarning ma’naviy-ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari (yoshlar tashkilotlari misolida): Ped.fanl.nomz. ... diss. – T.: 2000. – 155 b.

3. Ma’naviyat asosiy tushunchalari izohli lug‘ati. –T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.

4. Giddens E. Sotsiolgiya: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. Tarjimonlar N.Mamatov va J.Boymatov .-Toshkent :Sharq , 2002 -848b

MUNIRA KAXAROVA,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
“Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy fanlar” kafedrasi
siyosiy fanlar doktori

YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY JARAYONLAR TENDENSIYALARI

Bugungi kunda davlatni rivojlantirish maqsadida har bir yo‘nalishda islohotlar jadal olib borilmoqda. Masalan, iqtisodiy yo‘nalishda ko‘plab mamlakatlar bilan hamkorlik masalalari bo‘yicha davlat rahbarini uchrashuvlari tashkil etildi. Taklif va tashabbuslar xalqaro minbarlarda qabul qilinmoqda. Jumladan, 7 yilda O‘zbekiston tashabbuslari asosida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 10 dan ziyod, joriy yilda 4 ta maxsus rezolyusiya qabul qilingan. Jahon banki bu yil mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 5,3 foizga o‘sishini prognoz qilgan. Ko‘plab davlatlar bilan solishtirganda bu ancha yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi. Xalqaro valyuta jamg‘armasi e’tirof etganidek, 2023-yilda yalpi ichki mahsulotimiz ilk bor 100 milliard dollardan oshgan[3]. Davlatni rivojlantirishga qaratilgan milliardlab investitsiya loyihalari hamkorlikda amalga oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilmoqda. Albatta bu loyihalar nafaqat davlatni rivojlantiradi, balki aholining turmush tarzini ham yaxshilaydi. Natijalar hayot sifatini farovonlashtirishga yo‘naltirilgan. Bu esa aholida siyosiy-huquqiy va ma’naviy saviyasini oshirishga ham xizmat qiladi.

Darvoqea, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma’naviy-madaniy rivojlantirishning uzviy va ajralmas qismi hisoblanadi. Unda belgilangan vazifalar “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” talablari asosida, mamlakatimizdagi tub demokratik o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda amalga oshiriladi. Iqtisodiy o‘zgarishlar bilan birga ma’naviy taraqqiyotni yuksaltirish masalasi hamoxang holda amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ma’naviyat yo‘nalishida yangi tizim yaratishga qaratilgan ishlar kuchaytirildi. Bu sohani takomillashtirish maqsadida so‘nggi olti yil ichida ma’naviyat va ma’rifat tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan 11 ta qonun hujjati, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1 ta Farmoni va 4 ta Qarori, 1 ta farmoyishi, Vazirlar Mahkamasining 2 ta qaror va 5 ta farmoyishlari qabul qilindi.

[3] Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг ўттиз уч йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 31.08.2024. https://president.uz/uz/lists/view/7519

Shuningdek, ma’naviy tarbiyani tizimlashtirishga qaratilgan konsepsiya ishlab chiqib, amaliyotga joriy etilishi belgilandi. Zero, hududlarni ijtimoiy-ma’naviy xaritasini yaratish masalasi tizim uchun yangilik bo‘ldi. Ma’naviyat yo‘nalishini mas’ullarni iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi, ishni olib borish uchun yaratilgan sharoitlarni mustaqillikka erishilgan davrdan tahlil qiladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 9-iyunida “Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”dagi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 9-sentyabrdagi “Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi faoliyati samaradorligini oshirish to‘g‘risidagi” Farmoni, bu borada olib borilayotgan islohotlarning davomiyligini ta’minlash va ularni yanada takomillashtirish maqsadida, 2006-yil 25-avgustdagi “Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi qarori, mamlakatimizda jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy rivojlantirilishi nechog‘li ahamiyatga ega ekanligidan dalolatdir.

Binobarin, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 25-avgust “Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi PQ-451-sonli qarorida milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazining asosiy vazifalaridan biri etib, fuqarolarimizning qalbida milliy tafakkur va sog‘lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash, ularning ongli yashashga o‘rgatish, o‘z fikriga ega bo‘lishga, turli ma’naviy tajovuzlarga qarshi tura olishga qodir bo‘lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashga yo‘naltirilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar tayyorlash vazifalari belgilangan bo‘lib, uni amaliyotga tadbiq etish zaruriyati o‘z davrida isbotini ko‘rsatdi.

2017-yil 28-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi qarori bilan Respublika Ma’naviyat targ‘ibot hamda Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazlari birlashtirilib, negizida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tashkil etildi. Bu tashkilotlar ilmiy-amaliy tadqiqotlar ishlab chiqqan bo‘lsa, ikkinchisi mazkur tadqiqotlarni targ‘ib etish bilan shug‘ullanib kelgan edi. Ularning maqsadi bir, ya’ni milliy g‘oya va mafkura masalasi bilan bog‘liq dolzarb masalalarni, bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash, ularning aholi turlari qatlamlariga ta’sirini o‘rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo‘lgan zararli g‘oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish hamda aholining keng qatlamlari, avvalambor, yoshlar

o‘rtasida Vatanga muhabbat va sadoqat, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlarning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini har tomonlama olib borishga yo‘naltirilgan suhbat va uchrashuvlar, ma’rifiy tadbirlar o‘tkazishdan iborat bo‘lgan. Mazkur qaror asosida Markaz rahbarining maqomi - vazir, rahbar o‘rinbosarlari maqomi esa vazir o‘rinbosarlariga tenglashtirilgani bu sohaga birinchi bor kiritilgan mavqeini oshirishga qaratilgan yangilik bo‘ldi. Tizimning hududiy bo‘lim va bo‘linmalarini byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish masalasi yillar davomida muammo bo‘lib, uni yechimini yo‘lga qo‘yilgani, Markaz va uning tasarrufidagi tashkilotlarni joylashtirish uchun alohida bino ajratilib, barchasini manzilli qilindi. Shuningdek, Markaz huzurida “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati tashkil etilib, jamiyatimizda aholi ongiga ta’sir ko‘rsata oladigan yetuk targ‘ibotchilar bir joyga jamlandi. Hozirda ushbu jamiyat juda katta targ‘ibot kampaniyasini yo‘lga qo‘ydi. Mazkur targ‘ibot kampaniyasi bugungi kunda barcha sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni targ‘ib etishda to‘htovsiz harakatlanib kelmoqda. Targ‘ibotchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlab va rag‘batlantirilayotgani natija uchun xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda Markaz O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligidagi Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining ijro organi hisoblanishi bilan birga, rahbarlarning ma’naviyat va ma’rifat yo‘nalishida boshchilik qilayotgani ham targ‘ibot ishlarini tashkil etilishiga katta burulish bo‘ldi. Ayniqsa, joylarda hudud rahbarlari sohani rivojlantirishga mas’ul etib belgilanishi muammolarga jiddiylik bilan yondoshishni ko‘rsatmoqda.

Bu ishlarning davomidan 2019-yil 3-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qaroriga ko‘ra “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” va jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitning holatini aniqlash va manzilli sog‘lomlashtirish metodikasi loyihasini ishlab chiqildi. Mazkur konsepsiya asosida oilada, shuningdek, ta’limning barcha bosqichlarida farzand tarbiyasining uzluksizligini ta’minlash tizimi ishlab chiqildi. Ya’ni, bola tug‘ilmasidan boshlab to 25 yoshgacha vaqt davomida uning ma’naviyatini, yoshiga mos ko‘nikma va malakalar, kompetensiyalarini kutilayotgan aniq darajasini kafolatli ta’minlashning ilmiy asoslangan dasturiy-metodik ta’minotini tashkil etishdan iborat. Ushbu vazifalarni amalga oshirishga bevosita mas’ul bo‘lgan vazirlik va idoralar vakillari ishtirokida esa Markaz huzurida “Ma’naviy tarbiya” jamoatchilik kengashi tashkil etildi. Joriy

etilgan tizimli yondoshuvda ijtimoiy malakalarni shakllantirish oldindan loyihalashtiriladi va loyihalashtirilgan tarbiyaviy natijalarga erishish kafolatlanadi. Shu bois uzluksiz ma'naviy ta'limda ijtimoiy malakalarni shakllanishida pedagogik texnologiyalarni qo'llash – innovatsion talablardan biriga aylandi.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi oila, maktabgacha, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida yoshlarni bosqichma-bosqich, uzluksiz ma'naviy tarbiyalash natijadorligini kafolatlashga qaratilgan pedagogik operatsiyalar, vositalar, metodlar zanjiridir. Ushbu tizimda vositalar emas, balki u yoki bu fazilat, ijtimoiy malakani shakllantirishda kafolatlangan natijaga erishishning pedagogik algoritmlari rejalashtirilishi nazarda tutilgan.

2021-yilning 19-yanvarida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi raisi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan o'tkazilgan yig'ilishdagi "Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir" ma'ruzasi Ma'naviyat va ma'rifat sohasi uchun yana bir katta ijobiy o'zgarishlarga turtki bo'ldi. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining muvofiqlashtiruvchi rolini kuchaytirish, sohada ilmiy yondoshuvni keng joriy etish, ilg'or tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilab berildi. Shu asosda barcha tizimlarda Ma'naviyat va ma'rifat kengashlari tashkil etildi. Vazirlik, idora va tashkilotlarning 2021-yil uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha "Yo'l xarita"lari ishlab chiqilib, amaliyotda ijro etildi. Masalan, birgina oliy ta'lim tizimida haqida tahlil etar ekanmiz, 2021-yil 1-apreldan boshlab talabalar soni va idoraviy bo'ysinuvidan qat'i nazar, barcha oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallarida yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha prorektor lavozimi joriy etildi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida turli tanlovlarni qayta ko'rib chiqilib, yangi-yangi loyihalar tayyorlanib, amalga oshirish choralari ko'rildi. Ko'rik-tanlovlari yo'nalishlar bo'yicha qayta tahlil qilindi. Avvallari faqat ma'naviyat, san'at va sport yo'nalishlari bo'yicha tanlovlar joriy etilgan bo'lsa, endilikda har bir ta'lim muassasasini ixtissoslashgan yo'nalishlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus tanlovlar o'tkazilishini yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik kabi holatlarga barham berish, yoshlar o'rtasida xuquqbuzarlikni barvaqt oldini olish maqsadida hududlardagi ta'lim muassasalaridan tarbiyasi og'ir bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash uchun oliy ta'lim muassasa rahbarlari mas'ul etib belgilangan. Yoshlarning xolidan habar olish, moddiy va ma'anviy ko'makka muhtojlariga imkoniyat darajasida yordam ko'rsatish ishlarini amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5040-son qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, 2021-yildan boshlab ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni namunali yo'lga qo'yish bo'yicha "Eng namunali tuman va shahar", "Eng namunali vazirlik va idora" tanlovlarini o'tkazilishi ishlari yo'lga qo'yildi. Bu tanlovlarda eng munosiblari ekspertlar tomonidan tanlab olinib, 3 ta birinchi o'ringa Prezidentimiz sovg'asi "Damas" rusumli avtomabili topshirilmoqda. Bunday e'tirof va e'tibordan ta'sirlangan boshqa soha vakillarini, keyingi yilga ma'naviy-ma'naviy ishlarini yanada jonlantirib, g'olib bo'lishdek, umidni qo'zg'otishga erishilmoqda.

Dunyoda yuz berayotgan geosiyosiy o'zgarishlar va mafkuraviy jarayonlar ma'naviy-ma'rifiy ishlar faqat targ'ibot-tashviqot bilan chegaralanib qolmasdan, bu sohaga ilmiy yondoshuv zarurligini ko'rsatmoqda. Shu asnoda, siyosiy arbob Maxatma Gandining: "Men uyimning eshik va derazalarini mahkam berkitib o'tira olmayman. Chunki unga toza havo kirib turishi kerak. Shu barobarida eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib, xonadonimni ag'dar-to'ntar qilib, o'zimni yiqitib tashlaydigan darajada ochib ham qo'ya olmayman" kabi so'zlarini eslash o'rinli. Shuni inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2021-yilda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markaz huzurida Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tashkil etildi. Ushbu institut oldiga "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" degan g'oya asosida mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi bosqichga ko'tarish, aholi, ayniqsa, yoshlarni Vatanga muhabbat, ma'naviy merosimiz, milliy adabiyotimizga hurmat ruhida tarbiyalash g'oyasini hayotga tatbiq etish ishlarini ilmiy-metodik va axborot-tahliliy jihatdan ta'minlash kabi vazifalar qo'yildi. To'g'ri bugungi tahlikali davrda targ'ibot-tashviqotning zamonaviy va innovatsion usullarini yaratish zaruriyati tug'ilmoqda. Eski usullarimiz bilan yot g'oyalarga qarshi kurashish samarasi sustligini ko'rsatmoqda. Shu sababli mazkur institut yangi-yangi usullar, mexanizmlar, loyihalar ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish ishlari kabi vazifalarni ijro etish belgilandi.

So'nggi yillarda Davlat ramzlari qabul qilingan sanalarni keng bayram sifatida nishonlash yo'lga qo'yildi. Ayniqsa, birinchi bor qo'limizdagi uyali aloqa vositalarimizga ushbu kunlarga bag'ishlangan tabrik habarlari kelishi joriy etildi. Shu bilan birga, barcha ta'lim muassasalarida insho va rasm tanlovlari, ma'rifiy-tarbiyaviy tadbirlar tashkil etilib, korxona va tashkilotlar, mehnat jamoalarida Davlat madhiyasini jonli ommaviy tarzda kuylanmoqda. Aholiga esa Davlat bayrog'i sharaf lentalarini

tarqatish, ko‘chalar, xiyobonlarni Davlat bayroqlari bilan bezatish, jamoat transportlariga o‘rnatish, ijtimoiy tarmoqlarda bayram sanalari, buyuk ajdodlarimiz tavallud kunlariga bag‘ishlab katta tantanalar tashkil etilayotganini alohida ta’kidlash lozim.

Prezident Shavkat Mirziyoevning 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining navbatdagi yig‘ilishida “Bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak”ligi ta’kidladi.Shuningdek, yig‘ilishda davlat rahbari: “**Hammamiz bir haqiqatni unutmasligimizni istardim. Hayot bor ekan – jaholat ham, ma’naviy tahdidlar ham bo‘lishi tabiiydir. Ammo eng xatarlisi – yurt kelajagiga loqaydlik, ezgu qadriyatlarga nisbatan beparvolikdir. Tinch va farovon hayot qurish uchun, avvalo, odamlar qalbida bir-biriga hurmat, xalqqa, Vatanga mehr va ishonch mustahkam bo‘lishi zarur. Mamlakatimiz yangi taraqqiyot davriga qadam qo‘ygan bugungi kunda xalqimiz, ayniqsa, farzandlarimiz ongida Vatanga muhabbat, yurtimiz kelajagiga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayotning qadriga yetish tuyg‘usini kuchaytirishda siz, madaniyat ahlining o‘rningiz va ta’siringiz beqiyosdir. Sizlar yuksak iste’dod va mahoratingiz, ijtimoiy hayotimizdagi faol ishtirokingiz bilan Yangi Uyg‘onish davrini barpo etishga albatta munosib hissa qo‘shasizlar, deb ishonaman”** – deya barcha mas’ullarga bir qator vazifalar yukladi. Shu bilan birga, yig‘ilishda ma’naviyat va madaniyat faollari, adabiyot va san’at namoyondalari, shuningdek, Oliy Majlis palatalari, Vazirlar Mahkamasi vakillari, vazirlar va hokimlar bilan birga oliy ta’lim muassasalarining rektorlari ishtirok etgani, mazkur yig‘ilishda respublikamizda ushbu Kengash raisi Prezident, hududlarda esa birinchi rahbarlar hisoblanishi, mazkur yo‘nalishning mas’uliyati qanchalik ahamiyatli ekaninidan dalolat berishi, ayniqsa, hozirda unga alohida e’tiborni kuchaytirish zarurligini ta’kidladi. Chunki ilm-fan, ta’lim va tarbiya, ma’naviyat ustuvor masala bo‘lib, buning uchun avvalo mustahkam iqtisodiy asoslar kerakligini, shu borada respublikada amalga oshirilayotgan ishlarni dolzarbligini qayd etib o‘tdi.

Xulosa qilib aytganda, bugun ma’naviyat sohasida keskin o‘zgarishlar va zamon talablariga xos ish uslubini yaratish zaruriyatini ko‘rsatmoqda. Bu yo‘lda barchaning mas’ulligini oshirishga qaratilgan say’i-harakatlarni kuchaytirilishi muhim hisoblanadi. Zero, moddiyat va ma’naviyatni teng ko‘rilishi nafaqat shiorimizda, balki ongimiz hamda qalbimizga mustahkam bo‘lishi Yangi O‘zbekistonning ma’naviy taraqqiyotini yuksalishiga xizmat qilishi kerak. Tahdid va illatlarga qarshi kurashish bo‘yicha yana ko‘plab mexanizmlar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

AKBAR TAGAYEV,
GULXAYO SAMANDAROVA

UZLUKSIZ MA’NAVIY TARBIYANI BOSQICHMA-BOSQICH AMALGA OSHIRISHDA OILADAGI MA’NAVIY MUHITNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Har qanday millat, har qanday mamlakat taraqqiyoti va farovonligi yosh avlodning ta’lim - tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Jamiyat ma’naviyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

Ma’naviyat – uzluksiz harakatdagi jarayon.

Ma’naviyati yuksak shaxslar yurtni tanitadi. Shaxsni esa uning ma’naviy qiyofasi tanitadi. Ma’naviyat tarbiyadan boshlanadi. Ta’lim-tarbiyasiz ma’naviyatning bo‘lmasligi barchaga a’yon haqiqatdir. Ta’lim-tarbiya haqida gap ketganda, mas’uliyat ta’lim muassasalariga qaratilishi odatiy holga aylangan. Aslida ham shundaymi? Ta’lim va tarbiya bir-biriga uzviy bog‘liq jarayondir. Maktabga bolaning tarbiyasi shakllangan holda qadam qo‘yadi. Maktab kadrlarni yetishtiruvchi yoki tarbiya maskani degan qarashlarni chetga surish kerak. Ta’lim muassasasi bolaga faqatgina ta’lim berish emas, balki boladagi shakllangan tarbiya negizini rivojlantiradi. Tartib-intizomga, mas’uliyatli bo‘lishga, tashabbuskorlik va jamoada o‘zini tutish madaniyati, liderlik xususiyati, qobiliyatini namoyon etishga, qiziqishlarini yo‘naltirishga, olgan bilim va ko‘nikmalarini hayotda qo‘llay olishida maktab katta ahamiyat kasb etadi. Bunda “Oila – ta’lim muassasasi – mahalla” uchligi asosiy vazifani bajaradi. Shu o‘rinda Tohir Malikning *“Maktablarda odob darslari bor…. Haftasiga bir soat…. Sahroda haftasiga bir tomchi suv bilan sug‘orib daraxt ko‘kartirish mumkinmi? Yana … maktabda “so‘kma” deb o‘rgatadilar, uyga borganida so‘kishdan boshqa narsani eshitmaydi…”* degan fikr-mulohazalarida ham oila muhiti farzand tarbiyasining asosi, poydevori ekanligini ko‘rsatadi. Biz odatda tarbiya, ma’naviyat so‘zlariga to‘xtalganda, aksar holda maktablar faoliyatiga yuzlanishga ko‘nikib qolganmiz. Ammo, “Oila-ta’lim-mahalla” uchligining mustahkamligida maktabgacha ta’limning o‘rnini unutib qo‘yamiz. Tarbiya oilada boshlanarkan, bog‘chalarda ko‘nikma shakllantiriladi, maktabda esa ma’naviy tarbiya rivojlantiriladi.

Demak ota-ona tarbiya jarayonida farzandlari qalbiga qanday urug‘ ekkan bo‘lsa, keyinchalik achchiq yoki chuchuk mevalarni o‘zlari tatishadi.

Oila jamiyatning ajralmas bo‘g‘ini hisoblansa, oila mustahkamligi oiladagi ma’naviy muhitga bog‘liqdir. Muhitni esa axloqiy tarbiya hamda aql-idrok va ilm yaratadi. Bu borada mutafakkirlarimizning o‘z qarashlari va ilmiy izlanishlari asrlar davomida bugungi kun davrida ham dasturamal bo‘lib kelmoqda.

Tarbiya ta’sir qiladigan kishilar uch toifaga bo‘linadilar:

Birinchisi – hanuz oq bilan qorani tanimagan bola. Uning tabiati hali yomonlik g‘ubori bilan bulg‘anmagan, yuragi esa botil ishlar zulmati bilan qoplanmagan bo‘ladi. Bunday bolaga nasihat tez ta’sir qiladi. Bunday bolani to‘g‘ri yo‘lga osonlik bilan o‘rgatish mumkin.

Ikkinchisi – oq bilan qorani ajratadigan bo‘lib qolgan bola. Ulardan ba’zilari o‘z nafsining g‘alabasi bilan yaxshilik tomonga burila olmay yurgan bo‘ladi. U qilayotgan ishining yomonligini biladi. Nuqsonlarini esa e’tirof etadi. Bunday odamni tarbiyalash birinchisiga nisbatan qiyinroq, ammo unga doimiy tarbiya berilib har xil nasihatlar va tanbehlar berib borilsa, albatta yaxshi yo‘lga kirib ketadi.

Uchinchisi – oilada botil xayol va fosid fikrlar bilan o‘sib ulg‘aygan kishi. U umr bo‘yi nohaq ishlarni haq deb bilib kelgan va shunga astoydil e’tiqod qo‘ygan bo‘ladi. Yomonlik qilsa ham uni o‘zicha yaxshilik deb o‘ylaydi. Bunday kishini tarbiya qilish juda og‘ir. Uning tarbiyasiga kirishish – tirnoq bilan quduq qazish yoki hali qizib cho‘qqa aylanmagan temirni bolg‘alash bilan barobar.

Donolar yaxshi yoki yomon xulqli bo‘lishni oilaga bog‘laydilar. Ularning aytishlaricha, axloqsiz xotindan tug‘ilgan va razil ota qo‘lida tarbiyalangan farzanddan yaxshilik kutish qiyin. Chiroyli xulq oftobga o‘xshaydi, oftob muzni eritgani yoki suv tuzni eritib yuborgani kabi chiroyli xulq ham barcha yomonliklarni eritib yuboradi. *(Abulbarakot Qodiriy)*

Kishida odob bo‘lsa, albatta ilm ham bo‘lishi lozim. Odob aqlga bo‘g‘liq bo‘ladi. Ya’ni, ulug‘lik aql-u odob bilan vujudga keladi. Aqlning qadri odob bilan, boylik qadri saxovat bilan, quvvat qadri bahodirlik bilan oshadi.

Ilm martabasi martabalarning zo‘ridir, degan gap shubhasiz to‘g‘ri. Qaysi yerda ilm-u ma’rifat kuchli bo‘lsa, o‘sha yer baxt maskani hisoblanadi. Qaysi yerda nodonlik mavjud bo‘lsa, u yer quruq yoki toshloq joy kabidir.

Go‘zal xulq bilan payvasta bo‘lgan ilm insonlarni baxtiyor qiladi, martabasini balandlatadi. Ilmdan maqsad – ko‘rkam va ezgu ishlarni amalga oshirishdir.

Shuningdek, bugungi kunda mamlakatimizda o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali shakllar hamda usullarni joriy etishga

qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotganida ham ko‘rish mumkin.

Bugun Yangi O‘zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi G‘arb ilm-fani yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlarni o‘zimiz tarix saboqlari, zamon talablari asosida tarbiyalashimiz zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiydir. Chunki ularning g‘oya va dasturlari Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir”.

Darhaqiqat, bugun zamon shiddat bilan o‘zgarmoqda. Qolaversa, bugungi dunyo butun jahon hamjamiyati qatori bizning mamlakatimiz oldiga ham mutlaqo yangi vazifalarni qo‘yayotgan bir vaqtda atrofimizni o‘rab turgan olamda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni tahlil qilish, to‘g‘ri xulosa chiqarishdan og‘ir masala yo‘q… Bu hol, ayniqsa, mustaqilligimizni asrash, tinch hayotimizni, xalqimizni, avvalo yosh avlodning qalbi va ongini, kelajagini asrash borasida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilib, ularning erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash borasida mustahkam poydevor yaratildi. Bu sohada ham milliy qonunchiligimiz xalqaro huquqning umume’tirof etgan tamoyillarini tan olgan holda 5 ta xalqaro konvensiyani ratifikatsiya qildi va o‘ndan ortiq qonunlarni amalga joriy etdi. 2008-yilda “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda bola huquqlari himoyasi davlat siyosati darajasida ekanligidan dalolat beradi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquq-buzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risi-da”gi qonunlar ham bolalar huquqlarini himoyalashda muhim huquqiy asosdir.

Mamlakatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar tub mazmun-mohiyatiga ko‘ra, yosh avlodni chuqur bilim va keng dunyoqarashga ega bo‘lishini ta’minlashdek ezgu maqsadga qaratilgan. Shuningdek, mazkur siyosatning tub mazmunida jahon andozalariga mos raqobatbardosh milliy kadrlarni tayyorlash, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslash, ta’lim oluvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash hamda ular o‘rtasida olib boriladigan

ma’rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish, shu bilan birga faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan shaxslarni tarbiyalashdek ulug‘vor maqsadlar yotadi.

Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sonli qarori asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar va tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Bulardan ko‘rinib turibdiki maktabgacha ta’lim tashkilotlarda olib boriladigan faoliyatning asosiy maqsadlaridan biri bu bolalarni ma’naviy fazilatlarini shakllantirish hamdir. Shu boisdan hamkorlikni mustahkamlash, salohiyatli kadrlarni tayyorlash va o‘z o‘rniga tayinlash juda katta ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya haqida Shayx Sa’diy o‘zining “Guliston” asarida shunday deb yozgan edi: “Kimda-kim yoshliqdan tarbiya olmasa, katta bo‘lgach, baxtli bo‘la olmaydi. Ho‘l novdani istagancha bukish mumkin. Quruq novdani esa faqat olovda toblab to‘g‘rilash mumkin”.

Tarbiya haqidagi bu g‘oya avlod-ajdodlarimizdan bizga yetib kelgan buyuk meros bo‘lib, u komil insonni voyaga yetkazishda muhimdir. Tarbiya tug‘ilgan kundan boshlanmog‘i lozim.

Xalqimizda “Ekkaningni o‘rasan” degan naql bor. Ota-ona tarbiya jarayonida farzandlari qalbiga qanday urug‘ ekkan bo‘lsa, keyinchalik achchiq yoki chuchuk mevalarni o‘zlari tatishadi.

Ilm-fan qanchalik taraqqiy etmasin, har bir davrning global muammosi – tarbiya masalasi hamisha qiynab kelgan. Azal-azaldan jamiyat taraqqiyotida ilm-fan va axloqiy tarbiya uzviy bog‘liq bo‘lib, bir-birini to‘ldirgan. Tarbiya jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha izohlangan. Sho‘ro zamonida hukmron kommunistik mafkura tarbiyaga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashishni talab etishi bilan birga, sinfiy jamiyatda tarbiya faqat sinfiy xususiyatga ega bo‘ladi va turli sinflarning tarbiyasi bir-biriga qarama-qarshi turadi degan qarash qaror topgan. Holbuki, dunyo ilmi, ayniqsa, Sharq tarbiyashunosligi va o‘zbek xalq pedagogik tajribasi tarbiyaning sinfiy ko‘rinishga ega emasligini isbot etadi. Sharqona ta’lim-tarbiya, oilaviy tarbiya hamda komil inson haqidagi qarashlar qanday zamonlarni bosib o‘tmasin, hozirgi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Oila jamiyatning ajralmas bo‘g‘inidir. Oila mustahkamligi oiladagi ma’naviy muhitga bog‘liqdir. Muhitni axloqiy tarbiya hamda aql-idrok

va ilm yaratadi. Bu borada mutafakkirlarimizning o‘z qarashlari va ilmiy izlanishlari asrlar davomida bugungi kun davrida ham dasturamal bo‘lib kelmoqda. Jumladan, buyuk alloma Abu Ali ibn Sino (980-1037)ning axloq haqidagi risolasida: “ijtimoiy adolat inson xatti-harakatlarining eng muhim bezagidir. Adolat – ruhiy lazzatning bosh o‘lchovi. Adolat odamga xos sabr, jasurlik, donolik kabi xislatlar orqali namoyon bo‘ladi. Bu fazilatlarga ega inson, vijdon amri bilan o‘zini yomon xulq-odob, munosabatlardan saqlaydi. Ezgulik, ruhiy poklik, yaxshilikni o‘zida mujassam etishga harakat qiladi” deyilgan. Bunday ilmiy-falsafiy fikrlarga tayanadigan bo‘lsak, inson tug‘ilishi bilanoq uni o‘rab turgan olam, jamiyat, muhit barchasi uning kamol topishida o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bolaga salomlashishdan tortib to‘g‘ri ovqatlanish, kattalar va tengdoshlar bilan o‘zaro muloqot, jamoatchilik ichida o‘zini tutish, yurish-turish odobi bilan bog‘liq ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlar singdiriladi. Qadriyat oilada shakllanadi. Oila esa shaxs tarbiyasidagi asosiy poydevor vazifasini o‘taydi. Ya’ni urf-odat va an’ana, mehnatsevarlik, hayot tarziga yoshlikdan ota-onaga ko‘mak berish, sadoqat, oila uchun qayg‘urish hissi, samimiyat, ishonch, vatanni sevmoqlik, adolat, poklik, to‘g‘rilik singari fazilatlar shaxsiy namuna sifatida oilaning katta yoshli vakillari ishtirokida farzandga bevosita singdiriladi.

Milliy qadriyatlar mahalliy va diniy qadriyatlarga, umuminsoniy qadriyatlarga tayanib shakllanarkan, asrlar osha takomillashib boraveradi. Bugungi tezkor globallashuv sharoitda esa bir qancha tashqi omillarning bevosita ijtimoiy hayotga kirishuvi bois tez-tez ko‘zga tashlanayotgan ziddiyatlar, nohush holatlar kuchayib boradi.

Ota-ona, farzandlar o‘rtasidagi ishonch, hurmatga asoslangan munosabatlar – oila mustahkamligining yana bir ko‘rinishidir. Oilada ma’naviy tarbiyani kuchaytirishda otaning o‘rni beqiyosdir. O‘zbek oilalarida otaga bo‘lgan hurmat ko‘r-ko‘rona sig‘inish emas, balki uning obro‘-e’tiborini qadrlash, unga ishonish va suyanishdir. Donishmand otalargina farzandlarini bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantira oladi va hayotdagi barcha og‘irliklarni aql-idrok, sabr-chidam, g‘ayorat va matonat bilan yengib o‘tishga chiniqtiradi. Qobil farzandlar ota izidan boradi. Otaning do‘stlarini, qadrdonlarini hurmat qiladi, ukalarini tarbiyalaydi, qarindosh-urug‘lariga mehrli, oqibatli bo‘ladi. Albatta, bularning hammasi ko‘pni ko‘rgan, aqlli otalarning mehr va muhabbat bilan farzand qalbiga joylangan ma’naviyat nuridan darak beradi. [3;22-24 b]

Sharqona tarbiya an’analari farzand tarbiyasi va ayniqsa, o‘g‘il bola tarbiyasida asosiy tarbiyachi sifatida otani ko‘radi, chunki mehribon va

hokisor bo‘lgan onalar ko‘ngilchanlik qilib bolalarni erkalatib yuborishlari mumkin. O‘zbek xalq tarbiyasi an’analari esa bolalarni erkatoy qilib tarbiyalashni qoralaydi.[4] Oilaning bosh yetakchisi ota-ona hisoblanadi. Sharq tarbiya metodikasida otalar qattiqqo‘llik, to‘g‘risizlik, halollik, mardlik, botirlik kabi fazilatlarni farzandlar qalbida shakllantirishgan. Masalan, ota uyining to‘rida qalin ko‘rpachada o‘tirgan, farzandlar biror uzoq safarga ketishmoqchi yoki biror ishni qilishmoqchi bo‘lsa, avvalo otaning maslahati va rizoligini olishgan. Ota o‘tirgan uyning tomiga chiqishmagan, ota o‘tirgan uyga ruxsatsiz kirishmagan, otadan oldin gapirishni, otaning oldida yonboshlab yotishni odobsizlik deb bilishgan, hattoki otadan oldin ovqatga qo‘l uzatishmagan. Ota oilaning har bir ijtimoiy jabhasida hal qiluvchi rolni o‘ynagan.

Qadimdan ota va farzandlar o‘rtasidagi munosabat sharq an’anasiga ko‘ra, qiz va o‘g‘il bolaga bo‘lgan munosabatda juda katta farq sezilgan. Otalar tomonidan o‘g‘il bolaning o‘smir yoshida qattiqqo‘l, talabchan, zarur vaqtda jismoniy jazo ham berilgan bo‘lsa, qiz bola bilan bo‘lgan munosabatda ota faqat nasihat bilan cheklangan. Umuman olganda, o‘zbek milliy tarbiya an’analari va Islom etiketiga ko‘ra, ota va qiz o‘rtasidagi munosabatlar oralig‘i ancha katta va qiz bola balog‘atga yetgan sari bu masofa yana ham uzoqlashib boradi. Shu qatorda ona qiz bola uchun, ota esa o‘g‘il bola uchun namuna bo‘lgan. Ota-onaning axloqiy olami, dunyoqarashining o‘rni bolaning xulq-atvori, jamiyatdagi o‘z o‘rnini topish ko‘nikmalarini shakllanishida ahamiyati beqiyosdir.

Sharqda ayollar va erkaklarga xos bo‘lgan xatti-harakatlarning aksariyati qadriyat sifatida qaralib, bugungi kunda o‘zbek xalqining turmush tarzi, urf-odatlariga singib ketgan. Bu esa ayollar va erkaklarning kundalik ehtiyojlari, hayotiy faoliyatlari va ijtimoiy turmush tarziga ko‘ra erkaklar va ayollarga xos rollarning o‘zaro o‘rin alishishi, gender rollar va gender qiyofalarning almashinayotganligida namoyon bo‘lmoqda. Natijada jamiyatning ajralmas qismiga aylangan oila qo‘rg‘onida eng ko‘zga tashlanayotgan tafovutning buzilishi o‘z-o‘zidan o‘smir yoshlarning ma’naviy olamiga, ongiga ta’sir ko‘rsatayotgani o‘z aksini topmoqda. Bu bilan qadim tarbiya yondashuvini qoralash emas, balki bugungi axborot-texnologiya asiriga aylanib borayotgan avlod tarbiyasidagi bo‘shliqlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘layotgan bir qancha urfga aylanib ulgurgan omillarga e’tibor qaratish asosiy maqsaddir.

Yuzaga keladigan juda katta salbiy oqibatlarning oldini olish, ya’ni bolalarga g‘amxo‘rlik qilish, ta’lim-tarbiya berish, ularning oila bilan

[4] Izmailov A.E. Narodnaya pedagogika: pedagogicheskiye vozzreniya narodov Sredney Azii i Kazaxstana. M., 1991. 39-bet.

bog‘liq huquq va majburiyatlarining ta’minlanganlik darajasini oshirish eng muhim vazifalardan biri sifatida qator muhim ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Shu bilan birga, xalq orasida “o‘qigan qiz” bilan turmush qurish tushunchasi paydo bo‘ldi. Bu bilan xotin-qizlarning ilm-fan bilan shug‘ullanishga bo‘lgan talabi ortadi desak, masalaning yana bir nozik tomoniga e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Ya’ni erkak va ayolning oila hamda jamiyatdagi funksional vazifalarining buzilishi yuzaga keladi.

Ayni paytda ko‘pgina davlatlarda hali hamon saqlanib kelinayotgan erkak va ayol munosabati o‘rtasidagi tafovut, ya’ni gender tengsizligi asosiy muammolardan biri hisobladi. Bu esa odamlar salohiyatidan foydalanishni cheklaydi. Jumladan, xalq oraidagi “er-xotin qo‘sh ho‘kiz” singari qarashlar tor ma’noda talqin etilib kelinadi. Turmush qurilganidan so‘ng, erkak va ayol avvaliga o‘z ehtiyojlari, so‘ngra farzandlar tug‘ilib, ulg‘aygach oilaning moddiy ta’minotini yaxshilash uchun harakat qiladi. Misol tariqasida ikki oila a’zosining qaysi sohada bo‘lmasin, ish beruvchi korxona yoki tashkilot tomonidan qo‘yiladigan vazifa va talablarini erkak yoki ayolga qarab ajratmagan holda bir xilda bajarilish talab etiladi. Shu bilan birga erkak uyga dam olish, yaqin insonlar davrasida bo‘lish uchun talpinsa, ayol uy bekasi hamda ona, kelin sifatida vazifalarini davom ettiradi. Yillar davomida odatiy hayotga aylangan bunday turmush tarzida nosog‘lom muhit paydo bo‘ladi. Jismoniy va ruhiy charchoq, kuchli stressning yuzaga kelishi oqibatida erkak va ayol munosabatida ziddiyatlar; tinimsiz janjal, zo‘ravonlik, ichkilikbozlik, tazyiqqa duch kelinadi, eng asosiysi farzandlar bilan muloqot, qadriyatlar yo‘qolib boradi. Shubhasiz, oilada ota-onaning xulq-atvori, to‘g‘ri va noto‘g‘ri xatti-harakatlari namuna sifatida bolalarning kamol topishida katta ta’sir ko‘rsatadi. Oiladagi zo‘ravonlikka guvoh bo‘lgan yoki nazoratsiz, qarovsiz qoldirilgan bolalarda ruhiy tushkunlik, o‘zlashtirish darajasining pastligi, qo‘rquv, qo‘rqinchli tushlar, ishtahaning yo‘qligi, kichik yoshdagi bolalarda duduqlanish, gapirmaslik kabi hissiy va xulq-atvor muammolarining paydo bo‘lish xavfi yuqori bo‘ladi. Bunday bolalar bolalik va o‘smirlik davrida tajovuzkorlikka, jinoyatchilik xatti-harakatlariga moyil bo‘lishi yoki uni qurshab turgan olamga befarq bo‘lishi, shuningdek, tengdoshlari bilan va kelajakda mustahkam oila munosabatlarini qurishda muammolarga duch kelishi mumkin.

Jamiyatda yuksak ma’naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yosh avlodni boy tarixiy va madaniy merosimiz, milliy an’analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga

muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida keng fikrli, sog‘lom, jismoniy, aqliy va ma’naviy jihatdan barkamol, iqtisodiy islohotlarning mohiyatini tushunadigan hamda ularning yangi ijtimoiy munosabatlar orqali hayotga tatbiq eta oladigan, milliy g‘oya va istiqlol mafkurasi mustahkam bo‘lgan shaxslarni shakllantirish soha vakillari faoliyati maqsadining asosini tashkil etadi.

Tarbiyaviy jarayon ongli, mas’uliyatli faoliyat bo‘lib, unda tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni komil inson qilib tarbiyalashga har tomonlama ta’sir ko‘rsatadi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi yosh avlodni ma’naviy jihatdan yuksak fazilatlar egasi qilib voyaga yetkazish san’atining qirralari, shakllari hamda bilim, malaka hosil qilish haqida bahs yuritadi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi milliy ong va istiqlol mafkurasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ma’naviy-ma’rifiy tarbiya ishlari rahbarlari, tarbiyachilar tarbiyaviy tadbirlarning mazmundorligini ta’minlashda boy milliy va umuminsoniy qadriyatlardan keng foydalanishi, tarbiyaviy ta’sirga ega bo‘lgan manbalarni ajrata bilishi kerak:

guruh tarbiyalanuvchilarining tarbiyalanganlik darajasini o‘rganib, unga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish mahoratiga ega bo‘lishi;

tarbiyaviy tadbirlar uchun metodlarni tanlab, ko‘zlangan maqsadga erishish chora-tadbirlarini ko‘ra bilishi;

ilg‘or tajribalarni kuzatib, tahlil qilib, undan ijodiy foydalanishi;

yangi ilg‘or pedagogik texnologiyani joriy etishi;

tarbiyaviy tadbirlarni o‘quvchilar ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta’sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirishi, takomillashtirishi;



tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirishda o‘z bilimini tarkibiy ravishda boyitib borishi lozim.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasining asosiy manbalari

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning sharqona o‘ziga xos xususiyatlari va pedagogik ta’sir ko‘rsatish usullari mavjud. Tarbiyachilik kasbiga yo‘naltirilgan hozirgi zamon texnikasi bilan tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish – milliy istiqdol talabiga javob beradigan barkamol insonni tarbiyalashga qaratilgandir.

Ijodkor rahbar hamda ilg‘or o‘qituvchi-tarbiyachilar o‘z faoliyatlari jarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda quyidagi mahorat tamoyillarini asos qilib oladilar:

tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazishdan maqsad: ma’naviyatni yosh avlod ongiga singdirish va e’tiqodiga aylantirishdan iborat ekanligi;

tarbiya jarayonini milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lab, bola qalbiga va ongiga ta’sir ko‘rsatish;

tarbiyaviy ishlarni bilalar jamoasini jipslashtiruvchi omillar bilan boyitib, tarbiyaning ta’lim bilan uzviyligini ta’minlash;

tarbiyaviy jarayonda bolalarni tarbiyalanish darajasini aniqlash va ijobiy tomonlarini o‘stirish;

bola shaxsiga hurmat va talabchanlik;

bolalarning yosh va ruhiy holatini hisobga olish.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish tamoyillari barkamol insonni tarbiyalashda keng imkonga ega bo‘lib, uni qay darajada olib borish tarbiyachining pedagogik mahoratiga bog‘liqdir.

Ma’naviy barkamol insonning yana bir fazilati **kattaga hurmat, kichikka shafqatli** bo‘lishdir. Bu masalada, xususan, ota va onaga bo‘lgan izzat alohida o‘rin tutadi. Bu haqida Alisher Navoiy ta’lim berib yozgan edi:

Boshni fido ayla ato qoshiga,
Jismni qil sadqa ano boshiga.

Ikki jahoningga tilarsan fazo,
Hosil et ushbu ikkisidan rizo.

Tun kuningga aylagani nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh!

Aytish joizki, dunyodagi keskin mafkuraviy o‘zgarishlar, radikal, agressiv oqimlarning kuchayib borishi, yon-atrofimizda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarda o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Shu bilan birga yurt kelajagiga loqaydlik, ezgu qadriyatlarga nisbatan beparvolik ham ortib

borayotgani sir emas. Tinchlik va farovonlikka erishish uchun insonlar qalbida bir-biriga hurmat, Vatanga mehr, sadoqat va ishonch mustahkam bo‘lishi lozim. Mamlakatimiz yangi taraqqiyot davriga qadam qo‘ygan bugungi kunda xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ongida Vatanga muhabbat, yurtimiz kelajagiga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayotning qadriga yetish tuyg‘usini kuchaytirish, yangi Uyg‘onish davrini barpo etishda barchamiz birdek mas’ulmiz. Buning uchun esa mustaqil davlatda tarbiyaning asosiy tizimi quyidagilar bo‘lishi lozim:

tarbiyada ulg‘ayayotgan inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir o‘g‘il-qizning betakror va o‘ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligi e’tiborda tutilishi;

milliylikning o‘ziga xos an’analariga tayanish. Lekin tarbiyaning milliy “bunyodkorligi” yosh avlodning ko‘pmillatli va jahon madaniyati boyliklariga qiziqishlarini, intilishlarini inkor qilmaslik;

bolalar hayotida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilish. Bola, o‘smir, yigit va qizlar ta’lim dargohida tahsil olayotgan chog‘ida nafaqat bo‘lg‘usi katta hayotga tayyorgarlik ko‘radilar, balki ana shu haqiqiy hayot bilan yashaydilar. Bolalarning yoshlariga mos zarur, qiziqarli, to‘laqonli hayot iqlimini yaratish, mehnat, xayriya, ijtimoiy-foydali, ijtimoiy-ko‘ngilochar va shunga o‘xshash tadbirlar tashkil etilishi lozimki, natijada bolalar muvaffaqiyat hissini tuyib, o‘zlariga ishonchlari ortsin, axloqlari barqaror bo‘lsin.

Xulosa. Hozirgi kunda ijtimoiy muhit, oilaviy nizolar bola ulg‘ayishida o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi, har qanday holatda tarbiyaga tashqaridan bo‘ladigan salbiy ta’sirni eng katta xatar deb bilish zarur. Chunki farzandga oilada bu boradagi erkinlikka yo‘l qo‘yilmagach, u o‘z qiziqish va rag‘batlarini qondiradigan sabablarni chetdan izlay boshlaydi. Muammo izlash emas, unga yechim topish eng to‘g‘ri yondashuvdir. Demak, ota-ona farzandining tashqi hayotiga ham katta e’tibor qaratib, ular bilan vaqt o‘tkazishi, fikrlashi, qiziqishlari, intilishlarini kuzatishlari lozim. Qolaversa, mustahkam ma’naviy immunitetli, o‘zining fikrlarini teran ifodalay oladigan, yuqori marralarga erishuvchan irodali yoshlarni tarbiyalashda ota-ona, oila muhiti, ta’lim muassasalari va mahalla hamkorligi juda katta ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning – ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. O‘zbekiston-2019y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli qarori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son Qarori.

BMTning 1989-yil 20-noyab “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyasi. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/childcon.

5. Saliyeva Z.T. O‘quvchi-yoshlarda ma’naviy madaniyatni shakllantirishning ayrim metodologik masalalari. // «Sovremennoe obrazovanie» (Uzbekistan) jurnali, 2016.

6. Samandarova G.A. – Tarbiyaviy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish strategiyasi. Metodik qo‘llanma. – T.: “ILM-MA’RIFAT” nashriyoti, 2024-y.

7. Izmailov A.E. Narodnaya pedagogika: pedagogicheskiye vozzreniya narodov Sredney Azii i Kazaxstana. M., 1991. 39-bet.

8. Nurillayeva U.N. Xotin-qizlarga nisbatan oiladagi tazyiq va zo‘ravonlik holatlari: sabab va oqibatlar, yechim yo‘llari// “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali, 2/2022.

9. Samandarova G.A. – Uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirishda oilada-ta’lim muasssasasi hamkorligi. PEDAGOGY OF COOPERATION IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND MODERN APPROACHES International scientific-practical conference, November 13, 2023 (https://doi.org/10.5281/zenodo.10115310)

OZODA XUDAYBERDIYEVA
Namangan viloyati Pedagogik mahorat markazi
Uzluksiz kasbiy ta'limni tashkil etish bo'limi boshlig'i

YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING ROLI

Hozirda rivojlanish jadallashayotgan bir zamonda axloqiy tarbiya insoniyat taraqqiyotining butun yo'li davomida qo'yilgan muammolardan biridir. Har qanday davrning o'ziga xos vazifalari bo'lganidek, XXI asr ham bir qancha vazifalar qatoriga axloqiy tarbiya va xulq-atvor madaniyatini shakllantirish zarurligini dolzarb masalalardan biri sifatida namoyon qildi.

O'zbekiston deb atalmish nurli bo'stonimiz yangilanish, yuksalish fasliga qadam qo'ydi. Yangi O'zbekiston bo'ldi. Bag'ri yangi orzular, ezgu maqsadlarga to'ldi. Unga odamiylik, ezgulik g'oyalari kuch bermoqda, yashnash saodatini baxsh etmoqda. Yangi davr, yangi milliy taraqqiyot, har birimizning qalbimizga uyg'onish nafasini solmoqda. Yangi tafakkur, yangi avlod, milliy yuksalishga eltadigan yangi milliy strategiya, unga munosib qadamlar shuning nishonalari.

2021 yil 19 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida jahon tarixida har bir xalqning avvalo ma'naviy birlashuvi, milliy g'oyasi bilan yuksalganini ko'rish mumkinligi e'tirof aytib o'tildi. Davlat rahbari bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surayotgani, manfaatlar to'qnashuvi kuchayib borayotganini tilga oldi.

Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarayotgani, milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortayotgani ta'kidlandi. Xudbinlik, mehnatga munosabat, oilaga engil qarash, iqtisodiyotda iste'molchilik kayfiyatining turli yo'llar bilan odamlar va yoshlar ongiga singdirilayotganligini qayd etib o'tdi. Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib borayotgani, ba'zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, norozilik kayfiyati avj oldirilayotganiga e'tiborni qaratdi. Prezident bunday holat sodir etilmasligi uchun esa, ma'naviyat masalasini yuqoriga ko'tarib, - Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir deya mamlakatimizda

amalga oshirilayotgan ishlarda Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari ta'lim va tarbiya, ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyalari hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamma vaqt ustun bo'lishi kerakligini e'tirof etib o'tdi.

Bu borada bog'cha, maktab, oliy ta'lim, mahalla hamkorligida olib borilayotgan ishlarga e'tibor qaratish muhimligini aytib o'tdi. Xulosa sifatida shuni aytishimiz o'rinliki, ta'lim va tarbiyaning asosida ma'naviyat va ma'rifat, ilmu hikmat hamda tarbiya komil inson va zamonaviy kadrlarni etishtirib chiqarishda indikator sifatida muhim ro'l o'ynaydi hamda jamiyatda doimo ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi [1].

Ma'lumkin, tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va afakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi. Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo'lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Ayrim o'quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlari yetarli rivojlanmaganligi ta'lim sifatiga ham zarar ko'rsatmoqda. Ma'naviyatning asosida avvalo tarbiya yotadi. "Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi", deydi donishmandlar. Tarbiya mukammallik kasb etishi uchun esa, bu masalada bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda kitobxonlik saviyasini oshirish,

mutolaa madaniyatini yuksaltirishga katta ahamiyat berilayotgani hammamizga ma‘lum. Ko‘plab bolalarimiz kitob, internet orqali zamonaviy bilimlarni egallamoqda, shu bilan birga qanchadan-qancha yoshlar kitobdan uzoqlashib, qimmatli vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazmoqda. Biz yillar davomida qayta-qayta inson qalbi va ruhini izdan chiqarishga qaratilgan mafkuraviy tahdidlar, axborot xurujlari avj olgan tahlikali bir davrda yashayapmiz, degan fikrni aytib keldik. Ammo bugun dunyoda sodir bo‘layotgan mafkuraviy jarayonlar har qachongidan ham ko‘ra tahlikaliroq tus olmoqda. Bu esa o‘z navbatida pedagoglarning jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga, ta’lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o‘qitish metodlari, ta’lim standartlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yangilash zarurligi, bilim berishda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy an’ana va qadriyatlarga suyanish muhimligini yana bir bor ko‘rsatmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim va tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlar va yangilanishlar mazkur tizimni tubdan isloh qilib, dunyoning rivojlangan mamlakatlarining ta‘lim tizimi darajasiga olib chiqishga qaratilgan. Shuningdek, ta‘lim bilan birga tarbiyaning olib borilayotganligi zamirida zamonaviy bilimga ega bo‘lgan komil shaxslarni tarbiyalash nazarda tutilgan.

Hozirgi globallashuv, axborot-texnologiyalar, rivojlangan davrda zamonaviy pedagogikamizda ta‘lim – tarbiya berish jarayoniga bevosita internet, media dasturlar, axborot kommunikatsiya vositalari, interfaol metodlar, interaktiv o‘yin usullari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi ta‘lim-tarbiya jarayoning yuksak saviyada rivojlanishi va o‘quvchilarning zamon talablariga javob bera oladigan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan shakllanishiga ulkan ko‘mak beradi.

Ma’naviy, insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va bolalarga bo‘lgan munosabat muhim rol o‘ynaydi. Ota-onalarimiz va atrofdagilarning bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini ko‘rgan bolashunga qarab shakllana boradi. Ular avval kattalarga taqlid qiladilar. So‘ng asta-sekin qilayotgan ishlarining mohiyatini anglaydilar. Bolalarni to‘g‘ri tarbiyalashda ota-onaning ongi, ma’naviyati, bilimi tarbiyalanganligi ham muhim ahamiyatga ega. Aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi o‘qituvchining qanday usuldan foydalanishiga bog‘liq.

Usul yunoncha atama bo‘lib, aynan qandaydir yo‘l orqali maqsadga erishishni bildiradi. Usul axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga

qarab quyidagi usullarga bo‘linadi:

1) so‘z orqali ifodalash usuli;

2) ko‘rgazmalilik usuli;

3) amaliy namuna usuli;

4) rag‘batlantirish va jazo usuli.

Yuqoridagi usullar, o‘z navbatida, quyidagi guruhchalarga bo‘linadi:

a) so‘z orqali uzatish, maslahat berish, ma’lumotlarni eshitish orqali qabul qilish, hikoya, ma’ruza, suhbat va hokazolar;

b) kinofilmlar, tasviriy san’at, badiiy san’at va boshqalarni ko‘rish orqali tarbiyalash;

d) tarbiya ma’lumotlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish, o‘rnak ko‘rsatish, boshqalarning amaliy mehnatini misol qilib ko‘rsatish;

e) o‘quvchilarning yaxshi bajargan ishlarini o‘rtoqlari oldida yoki ota-onalar majlisida ma’qullash, minnatdorchilik bildirish, iqtisodiy yordam, maqtov yorliqlari topshirish, suratlarini hurmat taxtasiga osish va boshqa og‘zaki “rahmat”, “barakalla” kabi rag‘batlantirish usullarini kiritish mumkin [2].

O‘qituvchi pedagogik jarayonda asosiy figura, yetakchi kishidir. Unga yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. Shuning uchun ham o‘qituvchiga, uning axloqiy sifatlariga, xulqiga o‘quvchilar bilan muomalasiga nisbatan alohida, yuksak talablar qo‘yiladi. Muallim hayotga endigina kirib kelayotgan, barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan yoshlarga ta’lim-tarbiya berib, ularni umuminsoniy va milliy axloq mezonlarini o‘zlashtirishini ta’minlaydi. Shu boisdan ham o‘qituvchi bola uchun ibrat va namuna bo‘lib qolishi kerak [3].

Zero, prezidentimiz SH. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: ―Bugungi yosh avlod ertaga xalqqa aylanadi. Demak, u xalqqa aylanar ekan o‘zbek xalqi yana yashashda davom etadi. O‘zbekistonning taqdiri esa mana shunday xalqqa aylangan yosh avlodlarning qo‘lida.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. 2021 yil 19 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan o‘tkazilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi// https://president.uz/uz/lists/view/4089

2. Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashning dolzarb masalalari Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2021 yil 24 sentyabr Buxoro.

3. Milliy g‘oya – o‘quvchi ma’naviyatining asosi. – T.: O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.

BEXRUZ TURDIYEV
Buxoro davlat universiteti Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi dotsenti

YANGI O‘ZBEKISTON IDEOSFERASIDA MA’NAVIY YANGILANISHLAR ZARURATI

Tarixiy-falsafiy taraqqiyot jarayoni ma’naviy yangilanishlarning jamiyat ideosferasida ta’sir doirasining cheksizligidan dalolat beradi. Bu cheksizlik avvalo, insonning tabiati, u yashayotgan jamiyatning imkoniyatlari bilan ifodalanadi. Jamiyat o‘z rivojlanish taraqqiyot yo‘lida takomillashib, kengayib va chuqurlashib borayotgan axloqiy, huquqiy burch, mas’uliyat bilan bog‘langan manfaatlar ma’naviy yangilanishning yangi yo‘nalishlarini vujudga keltiradi. Muayyan bir islohotlar davridan yangi islohotlarga evolyutsion yo‘l bilan o‘tishda ma’naviy yangilanishlar jamiyat taraqqiyoti ideosferasini hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Ijtimoiy falsafa qonuniyatlari shuni ko‘rsatadiki, jamiyat ideosferasidagi o‘zgarish va yangilanishlar jarayoni oson kechadigan jarayon emas. Chunki eski tuzumning sarqitlari ideosferada muayyan davrgacha saqlanib qoladi va kishilarning xulq-atvori, turmushiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymaydi. Bunday holat fanda ambivalentlik, deb ataladi. Bu tushuncha jamiyat ideosferasida bir paytning o‘zida bir-biriga mos kelmaydigan, o‘zaro zid tushuncha va tasavvurlarning ma’lum bir vaqt mobaynida yonma-yon mavjud bo‘lishini anglatadi. Jamiyatda farovonlik va osoyishta taraqqiyot davrini boshdan kechirayotgan pallada ambivalentlik deyarli bo‘lmaydi yoki juda past darajada bo‘ladi. Taraqqiyotdagi burilish pallalarida ambivalentlik ko‘proq namoyon bo‘ladi. Bu holat avvalambor, insonning ma’naviyati va xulq-atvorida yangiliklarga daxldorlik, uni xabardorlik va hozirjavoblik ruhida tarbiyalash asosida bartaraf etish mumkin.

Jahon tarixi xalqlarining yuksalishi hamisha ularning ma’naviy, g‘oyaviy birlashuvidan boshlangan. Ular milliy g‘oya asosida murakkab sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tgan. Milliy g‘oya ularning Vatanga bo‘lgan sadoqati, ma’naviyati va madaniyati yuksaltirib, buyuk maqsadlar sari safarbar etgan [1].

Masalaning muhim tomoni shundaki, ma’naviy yangilanishlar xalqning o‘tmishi, madaniy-ma’naviy merosi, milliy-umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyatini obyektiv baholay olish, uni anglash hamda ulardan oqilona foydalanish va rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan tarixiy-falsafiy jarayondir. Bu jarayonda xalq o‘z tarixi, milliy madaniyati,

qadriyatlari, ma’naviy merosidan bexabar qolsa, o‘tmish haqidagi aniq tasavvuri ham, kelajakka qaratilgan strategik maqsadi ham, bu yo‘lda birlashish yo‘li bilan ezgu maqsadga safarbar etish xohishi ham bo‘lmaydi.

Ma’naviy tanazzulga tushib qolgan xalq undan chiqmas ekan, tez orada boshqa xalqlarning madaniyati ta’siriga tushishi, o‘z milliy mentaliteti, o‘zligini yo‘qotishi, qadr-qiymatini unutishi mumkin. Bunday holatda xalqlar milliy mentaliteti, ma’naviyati zaif bo‘lgan etnik guruh sifatida tarix sahifasida o‘z o‘rnini egallay olmay, yo‘qolib borishi mumkin. Taraqqiyotga erishish uchun ikki narsa – mablag‘ va uni oqilona sarflay oladigan aql kerak. Agar shu aqlni keng ma’noda “ma’naviyat” deb atasak, milliy yuksalishimiz darajasi bevosita ham, bilvosita ham milliy ma’naviyatimizga bog‘liqligi ayonlashadi [2]. Faylasuf A.Erkayevning ta’kidlashicha, yangi shakllanayotgan ijobiy ehtiyojlar jamiyat rivojlanishining yo‘nalishini belgilaydi. Agar ular ijobiy mazmundagi yuksakroq ehtiyojlar bo‘lsa, jamiyatda ijobiy mazmundagi moddiy va ma’naviy o‘zgarishlar yuz beradi, agar ular salbiy mazmundagi ehtiyojlar bo‘lsa, jamiyat salbiy tomonga o‘zgaradi [3].

Jamiyat ideosferasidagi yangilanishlar jarayonida biror bir jamiyat yo‘qki, u insonlar qalbi va ongida ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, milliy an’ana, diniy va falsafiy yutuqlarni mustahkamlamay turib, ma’naviy taraqqiyot sari yuksalib borsin. Zero, xalqning ideosferasi, madaniy yutuqlari va diniy qadriyatlari ming yillar davomida Sharq falsafasi va ma’naviyatining fundamental asosi sifatida xizmat qilgan. Xalqimiz chorizm va mustamlakachilik davrida asoratga tushishiga qaramasdan, o‘zining tarixiy-falsafiy, ma’naviy-madaniy merosi va milliy-diniy qadriyatlarini saqlab qoldi. Mamlakatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgach, yosh davlatning oldida davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayotning barcha sohalari bo‘yicha keng islohotlar o‘tkazish, jamiyatni hamda tafakkur tarzini tubdan isloh qilish vazifasi turar edi. Zero, 70 yil davomida hukm surgan mustabid tuzum hech bir sohada o‘zini oqlamaganligi ayon bo‘lib qoldi [4].

O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardanoq, jamiyatni ma’naviy yangilash, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma’naviy-falsafiy merosni qayta tiklash davlatimiz siyosatining strategik maqsadi etib belgilandi. Jamiyat ideosferasining yangilanishi, xalqimiz ma’naviy-falsafiy merosining tiklanishi fuqarolarimizning o‘zligini anglashi, ularda g‘urur- iftixor tuyg‘ularining yuksalishiga olib keladigan jarayonni yuzaga keltirdi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev e’tirof etganidek: “Biz bugun xalqimizning xohish-irodasi bilan tanlab olgan, istiqlol yillarida bosib o‘tgan og‘ir va mashaqqatli, shu bilan birga, g‘oyat sharafli yo‘limizni sarhisob qilar ekanmiz, tarixan qisqa bir davrda

o‘z taqdirimizni o‘zimiz hal etish, jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallash, milliy davlatchiligimizni, azaliy qadriyat va urf-odatlarimizni, muqaddas dinimizni tiklash, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash borasida ulkan yutuq va marralarni qo‘lga kiritganimizni faxr bilan tilga olamiz” [5].

Darhaqiqat, bir necha yillar davomida soxtalashtirilgan tariximiz tiklanib, ma’naviy merosimizni tiklash o‘z qo‘limizga o‘tdi. Xalqimiz, o‘z navbatida, shunday murakkab tarixiy-falsafiy jarayonda ma’naviy va diniy qadriyatlarimizni tiklash, ularni boyitib borish yo‘lini tanladi. Deyarli 130 yil davom etgan mustabid tuzumdan so‘ng bu tarixiy-falsafiy jarayon o‘z-o‘zini inkor etish tamoyili asosida yuz berdi. Biroq biz bu eski mustabid tuzumdan qolgan tarixiy xotirani to‘g‘ridan-to‘g‘ri rad eta olmas edik. A.No‘monova ta’kidlaganidek, biz buning ortida qanday katta siyosiy bo‘hronlar doirasiga tushib qolishimiz ehtimoli mavjudligini oldindan anglab yetgan edik. Shu bilan bir qatorda, o‘tmish qadriyatlari va urf-odatlarini tiklashga yopishib olish konservatizmga, ya’ni hozirgi rivojlangan demokratik davlatlar umume’tirof etgan prinsiplariga to‘liq mos tushmas va jamiyatning ma’naviy yangilanishiga g‘ov bo‘lishi mumkin edi. Shuning uchun ham bugungi kunda hayotini to‘g‘ri maqsadlarga yo‘naltira oladigan, bilimli, tarbiyali, insoniyat ma’naviy-madaniy taraqqiyotiga o‘z ulushini qo‘shadigan, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni hurmat qiladigan yoshlarni kamol toptirishga jiddiy e’tibor qaratildi [6].

Xalqimiz milliy mentalitetini tiklash va haqqoniy tariximizni yaratish, o‘zbek xalqining o‘zligini anglashi, ular qalbida ona Vatan va ajdodlar ma’naviy-falsafiy merosidan faxr-iftixor tuyg‘ularini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etdi. O‘zbek xalqining shonli o‘tmishi millatimizning haqqoniy tarbiya va ibrat maktabiga aylanib, xalqimiz tarixiy xotira va ongining rivojlanishiga xizmat qildi.

Ta’kidlash joizki, mustaqillik davrida ma’naviy hayot ham yangi bosqichga ko‘tarildi, nodir iste’dod sohiblari tarbiyalandi. Ularning yuksak badiiy, teran falsafiy asarlari xalqimiz ko‘nglidan chuqur joy oldi, intellektual mulk rivojiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shildi [7]. Yurtimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Abu Iso Termiziy, Mahmud Zamaxshariy, Hakim Termiziy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Abu Mansur Moturidiy, Abul-Muin Nasafiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abdulholiq G‘ijduvoniy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Usmon Nosir kabilar Markaziy Osiyo xalqlarining ma’naviyati,

jahon ilm-fani, madaniyati, tarixiy taraqqiyoti rivojiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar.

Tarixiy vorisiylik qonuniyati asosida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy-falsafiy merosning keyingi avlodga o‘tishi, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirishga, demokratik jamiyat taraqqiyoti va ma’naviy yangilanishlarga xizmat qilishi lozim. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytib o‘tganidek: “...qadimiy madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasi bo‘lgan yurtimiz zaminidan o‘rta asrlarda minglab olimu ulamolar, buyuk mutafakkir va shoirlar, aziz-avliyolar yetishib chiqqan. Ularning aniq fanlar va diniy ilmlar sohasida qoldirgan bebaho merosi, butun insoniyatning ma’naviy mulki hisoblanadi” [8]. Qadimdan ko‘hna Buxoro, Samarqand va Xiva shaharlari nafaqat ilm-ma’rifat ahli markazi sifatida, balki Sharq xalqlari falsafasi, ma’naviyati va umuminsoniy qadriyatlarni mujaasam etgan muqaddas qadamjolar sifatida ulug‘langan.

Bugun yurtimizdan chiqqan buyuk allomalarining hayot yo‘li va ilmiy merosini chuqur o‘rganish, ularning bebaho asarlarini o‘zbek tilida tarjima qilib, nashrdan chiqarish davlatimizning ma’naviy-ma’rifiy sohasidagi dolzarb vazifalardandir. Binobarin, ilm-fan, madaniyat, san’at sohasining qaysi bir jabhasini olib qarasak, ularning barchasi rivoji yo‘lida ajdodlarimizning xizmatlari beqiyos. Mirziyoyev tomonlaridan davom ettirilayotgan izchil va xalqchil siyosatda mamlakatimizning demokratik taraqqiyoti va uning negizidagi ma’naviy yangilanishlar sohasidagi islohotlarga ahamiyat berilmoqda.

Faylasuf N.Jo‘rayev ma’naviy yangilanishlarning demokratik jarayonlar bilan bog‘liqligini “...islohotlar samarasi xalq dunyoqarashi, madaniy va ma’naviy qadriyatlariga ongli munosabati bilan bevosita bog‘liq hodisadir. Agar yangilanishlar odamlar ongi va dunyoqarashi, qalbi va ruhiyati orqali o‘zini namoyon etsa, u yashovchan va samarali bo‘ladi. Shuning uchun ham O‘zbekistonda davlatning yangilanishlar strategiyasi sifat jihatidan o‘zgarayotgan jamiyat, yangicha tafakkur asosida vujudga kelayotgan ijtimoiy guruhlarning qadriyat mo‘ljallari bilan uyg‘unlashib ketgan” [9] - deb alohida qayd etgan edi.

Mamlakatimiz demokratik jamiyat qurish yo‘lidan borar ekan, bunday jamiyatning ustuvor voqeliklaridan biri ijtimoiy raqobotga alohida e’tibor qaratdi. Ijtimoiy raqobatni ta’minlashda avvalo, xalqimizning ma’naviy yangilanish asoslari milliy qadriyatlarimizning uyg‘unligi asosida amalga oshirildi. Bunga, faqatgina ma’naviy, madaniy va innovasion jihatdan yondashib, moddiy hayot bilan birga, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-falsafiy mexanizmlarning mushtarakligida erishish mumkin edi. Bu mexanizmlar

kuchli demokratik fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning milliy-ma’naviy negizlarning tiklanishi orqali bugungi davr sivilizatsiyasi taqozo etayotgan yashash normalarining yig‘indisidan iborat edi. BMT hujjatlarida, demokratiya “umumbashariy qadriyat” ekanligi va u “oxir-oqibat xalqaro tinchlik va xavfsizlikka, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyotga, inson huquqlarini hurmat qilish vositasi” bo‘lgani e’tirof etiladi [10].

Demokratik qadriyatlarni anglashda jamiyatimizdagi fuqarolarning ma’naviyati, ma’rifati, siyosiy ongi va madaniyati dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib, davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisdagi Murojaatnomasida quyidagilarga alohida diqqat qaratadi: “Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir”! Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda” [11].

Darhaqiqat, to demokratik taraqqiyotga erishmaguncha, to chora-tadbirlarimiz va strategik islohotlarimiz manfaat doirasi bilan bog‘lanmaguncha ma’naviy yuksalishlarning mazmuni ham, ko‘lami ham yuksak darajaga erishmaydi. Bu fuqarolar ongi va tafakurini tubdan o‘zgartirish, mustabid tuzum davridan qolgan befarqlik kayfiyatlarini yo‘qotish, shu asosda milliy strategik islohotlarimiz zamiridagi milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari bir maqsadda birlashish va ushbu jarayonlarda faol ishtirok etish bilan bog‘liq. Faqatgina yuksak ma’naviyatli, intellektual boy bo‘lgan jamiyatgina demokratik qadriyatlarni haqqoniy qadrlashi, aksincha, bilimsiz va jaholatli odamlar esa totalitar rejimni, konservatizm mafkurasini yoqlab, demokratik taraqqiyot yo‘lidan borishga to‘siq bo‘lishlarini hayotning o‘zi isbotlamoqda. Shu maqsadda, hozirgi globallashuv jarayonida jamiyat a’zolarining barcha qatlamlariga milliy va jahon madaniyatining eng sara namunalarini uyg‘unlashtirgan holda ularning bu qadriyatlardan bahramand bo‘lishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish, ularni keyingi avlodga yetkazish strategiyasini ishlab chiqish lozim. Bu borada mamlakatimizdagi musiqa, teatr, kino, haykaltaroshlik, rassomchilik va ko‘plab boshqa san’at sohalarigi yangilanishlarni qo‘llab-quvvatlash, mazkur milliy san’at turlarini jahonga tanishtirish davlatimiz siyosatining

ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Xulosa qilib aytganda, bugun Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etishda jamiyat ideosferasini yangilash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunda sobiq sovet tuzumi bilan bog‘liq jamiyat rivojlanishi to‘g‘risidagi g‘oyaviy-mafkuraviy maqsadlar va prinsiplardan voz kechilib, jamiyat rivojlanishida milliy g‘oya negizlariga tayangan holda jamiyatda yangicha g‘oyaviy-mafkuraviy asos yaratilmoqda. Natijada, demokratik jamiyat rivojlanishi ma’naviy yangilanishlar orqali amalga oshirilib, jamiyat ideosferasi yangilanishga yuz tutmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг йигирма олти йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. //“Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил 1 сентябрь, №174 (6868).

2. Минҳожиддин Мирзо. Ватаннинг ободлиги кўнгил ободлигидан бошланади. // Маънавий ҳаёт, №1, 2020. –Б.5.

3. Султонмурод Олим. Юксалиш юки. //Тафаккур, №3, 2019. -Б.15.

4. Эркаев А. Маънавият ва тараққиёт. –Т.: “Маънавият”, 2009. –Б.189.

5. Ҳожиев Т. Ҳаракатлар стратегияси: янги модернизация босқичи. // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари, 2018. №1. –Б.14.

6. Нўмонова А. Ўзбекистоннинг замонавий маънавий-маданий тараққиётида аёллар масъулиятини ошириш. //Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари, 2018. №4. –Б.38.

7. Бобоқулова Х. Фалсафий фанларнинг миллий тизими: мерос ва замонавийликнинг уйғунлиги. //Фуқаролик жамияти, 2019. №2 (58). –Б.44-45.

8. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. –Т.: “Ўзбекистон”, 2018. –Б.14.

9. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. –Т.: “Маънавият”, 2008. –Б.324.

10. Timothy Sisk. Democracy and Development: The Role of the United Nations. Discussion paper, New York, International institute for democratic and electoral assistance, University of Denver. 2013. –P.16.

11. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. //“Халқ сўзи” газетаси, 2020 йил 25 январь, №19 (7521).

LAZIZJON XOLIQOV,
Buxoro davlat universiteti dotsenti
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori

IJTIMOIY DAVLAT RIVOJIDA MA’NAVIY JARAYONLARNING O‘RNI

O‘zbekistonda ijtimoiy davlat rivojida ma’naviy jarayonlarning o‘rni ham salmoqli, ham ko‘p qirralidir. O‘zbekistonda ma’naviyat mamlakatning madaniy merosi, an’analari va hukmron islom dini bilan chuqur bog‘langan. Bu ma’naviy jarayonlar jamiyatning axloqiy asoslariga ta’sir qilib, qadriyatlarni, ijtimoiy me’yorlarni, milliy taraqqiyotning umumiy yo‘nalishini shakllantiradi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganlaridek, “ma’naviyat - jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir” [1]. Ma’naviyat siyosiy yetakchilarning boshqaruvga qanday yondashishiga ta’sir qiladi, asosiy e’tiborni xalq farovonligi va hokimiyatning axloqiy boshqaruviga qaratadi. U ijtimoiy adolat, tenglik va milliy birlikni targ‘ib qiluvchi siyosatni shakllantirishda yetakchi kuch bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’naviy qadriyatlar jamoaviy mas’uliyat hissi, boshqalarni hurmat qilish va umumiy manfaatlarga sadoqatni shakllantirishga yordam beradi. Kundalik hayotda ma’naviy poydevor shaxslararo munosabatlarda halollik, hurmat va hamdardlik kabi qadriyatlarni targ‘ib qiladi. Bu ijtimoiy o‘zaro munosabatlar sifatini oshiradi, yanada uyg‘un va barqaror jamiyatga hissa qo‘shadi. Ma’naviyat milliy birlik uchun muhim bo‘lgan o‘zlikni anglashni kuchaytiradi. Bu fuqarolarni bir-biri bilan ijobiy munosabatda bo‘lishga, jamiyat farovonligi yo‘lida birgalikda harakat qilishga va milliy qadriyatlarni asrab-avaylashga undaydi. Qashshoqlik, tengsizlik kabi ijtimoiy muammolarni hal qiluvchi siyosatlar ko‘pincha ma’naviy kontekstda tuziladi va ular nafaqat moddiy ehtiyojlarni qondirish, balki qadr-qimmat va axloqiy farovonlikni oshirishni ham ta’minlaydi.

O‘zbekiston hukumati an’anaviy qadriyatlar, milliy g‘urur va jamoaviy mas’uliyat hissini yuksaltirishga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Milliy o‘zlik va birlikni mustahkamlashga qaratilgan ma’naviy jarayonlar, jumladan, diniy urf-odatlar, madaniy marosimlar, ma’rifiy dasturlar rag‘batlantirilmoqda. Faylasuf A. Erkayev ta’kidlaganidek, “Ijtimoiy ongda, odamlarning xatti-harakatlarida burilish yuz bermog‘i, yangi ideallar va qadriyatlar qaror topmog‘i darkor” [2]. Ijtimoiy ongning o‘zgarishi jamiyat muammolari va imkoniyatlaridan kengroq xabardor

bo‘lishni nazarda tutadi. Bu odamlarni jamiyatdagi o‘rni, harakatlarining ta’siri va jamiyat qaysi yo‘nalishda ketayotgani haqida tanqidiy fikrlashga chaqiradi. Ijtimoiy ongni o‘zgartirish jamoaviy fikrlashni o‘zgartirishni ham o‘z ichiga oladi. Bunga ko‘proq mas’uliyat tuyg‘usini tarbiyalash, jamiyatda faollik va umumiy manfaatlarga sadoqatni oshirish kiradi. Yangi ideallar zamonaviy jamiyat ehtiyojlarini aks ettiruvchi tenglik, adolat, innovatsiya va inklyuzivlikka kuchliroq e’tiborni o‘z ichiga olishi mumkin. Jamiyat taraqqiyoti sari uning qadriyatlari ham shunday bo‘lishi kerak. Bu an’anaviy qadriyatlar bilan aloqani saqlab qolgan holda, global tendensiyalar, texnologik taraqqiyot va yosh avlodning intilishlariga ko‘proq mos keladigan ideallarni qabul qilishni o‘z ichiga oladi. Ta’lim ijtimoiy ongdagi bu o‘zgarishlarni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘quv dasturiga yangi ideallar va qadriyatlarni kiritish orqali maktablar kelajak avlodlarning qarashlari va xulq-atvorini shakllantirishga yordam beradi. Ushbu yangi qadriyatlarni aks ettiruvchi madaniy tadbirlarni rag‘batlantirish ham jamiyat normalari va xatti-harakatlarini bosqichma-bosqich o‘zgartirishga yordam beradi. Bu ommaviy axborot vositalari va san’atdan tortib, ushbu ideallarni o‘zida mujassam etgan jamoat loyihalarigacha bo‘lgan hamma narsani o‘z ichiga olishi mumkin. Ushbu o‘zgarish samarali bo‘lishi uchun u yangi xatti-harakatlar va ideallarni rag‘batlantiradigan va mukofotlaydigan tegishli ijtimoiy va iqtisodiy siyosatlar bilan qo‘llab-quvvatlanishi kerak. Rahbarlar ushbu yangi g‘oyalar va qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirib, targ‘ib qilishlari, namuna bo‘lib xizmat qilishi va bu o‘zgarishlar orqali millatga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi kerak. Ularning kelajakka nisbatan aniq tasavvurlarini ifodalash qobiliyati jamoatchilikni qo‘llab-quvvatlash va o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun zarurdir.

O‘zbekiston turli etnik guruhlar vatani bo‘lib, ma’naviy jarayonlar ko‘pincha turli jamoalar o‘rtasida o‘zaro tushunish, bag‘rikenglik va hamkorlikni rivojlantirish uchun ko‘prik vazifasini o‘taydi. Ma’naviy qadriyatlarga e’tibor berish ijtimoiy totuvlik va barqarorlikni saqlashga yordam beradi. Ingliz faylasufi Tomas Gobbs ta’kidlaganidek, “bag‘rikenglik fuqarolar uchun xavfsizlik va tinchlikni ta’minlash va boshqa millat vakillarining qadriyatlarini yuksak baholashdir” [3]. Bag‘rikenglikni targ‘ib qilish orqali jamiyat ichki nizolar va zo‘ravonlik xavfini minimallashtirishi mumkin, bu esa barcha fuqarolarning xavfsizligini oshirishga olib keladi. Gobbsning ta’kidlashicha, bag‘rikenglik kelishmovchilik ehtimolini kamaytiradi va shu bilan davlat ichida tinch-totuv yashashga hissa qo‘shadi. Boshqa xalqlar vakillarining qadriyatlarini yuksak qadrlash madaniy xilma-xillikni tan olish va hurmat

qilishni anglatadi. Gobbs tushundiki, xilma-xil jamiyatda odamlar nafaqat toqat qilsalar, balki boshqalarning hissalari va istiqbollarini ham qadrlasalar, tinchlik eng yaxshi saqlanadi.

Turli qadriyatlar va madaniyatlarni qadrlash orqali jamiyat o‘zaro hurmat va tushunish tuyg‘usini rivojlantiradi, bu esa ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi va jamoaviy xavfsizlikni ta’minlaydi. Gobbs uchun davlat ijtimoiy shartnomani bajarishda va bag‘rikenglik amal qilinishini ta’minlashda markaziy rol o‘ynaydi. Bu ozchiliklar huquqlarini himoya qiluvchi, tenglikni targ‘ib qiluvchi va turli madaniy yoki diniy guruhlar o‘rtasidagi muloqotni rag‘batlantiradigan qonunlar va siyosatlarni amalga oshirishni o‘z ichiga olishi mumkin. Tolerantlikni ta’minlash uchun davlat shaxslarni irqi, dini, etnik kelib chiqishi yoki millatiga ko‘ra kamsitishdan himoya qiluvchi qonunlarni amalga oshirishi kerak. Bu qonunlar turli qadriyatlar hurmat qilinadigan va qadrlanadigan muhitni yaratishga yordam beradi. Gobbsning boshqa xalqlarning qadriyatlarini qadrlashga urg‘u berishi xalqaro munosabatlarga ham ta’sir qiladi. Bu kontekstda bag‘rikenglik boshqa davlatlarning suvereniteti va madaniy merosini tan olish va hurmat qilishni anglatadi, bu esa tinch global munosabatlarni saqlashning kalitidir. Bag‘rikenglik nafaqat axloqiy tamoyil, balki jamiyatda tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashning amaliy zaruratidir. Turli qadriyatlar va madaniyatlarni qadrlashni rag‘batlantirish orqali bag‘rikenglik barcha fuqarolar farovonligi uchun zarur bo‘lgan barqaror va uyg‘un ijtimoiy tartibni yaratishga yordam beradi.

O‘zbekiston hukumati adolat, ijtimoiy farovonlik va barcha fuqarolar farovonligini ta’minlovchi ijtimoiy siyosatiga ma’naviy tamoyillarni kiritadi. O‘zbekistonda “ijtimoiy davlat” tushunchasi jamiyatning ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini aks ettirishini ta’minlash bilan chambarchas bog‘liq. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “samarali va aniq manzilli ijtimoiy siyosatni joriy etishda aholini arzon uy-joylar bilan ta’minlash, uzluksiz ta’lim va tarbiya sohasida yangi tizim yaratish, ilm-fanni zamon talablari asosida rivojlantirish, aholining barcha qatlamlariga, xususan, nuroniylar, xotin-qizlar, yoshlar va imkoniyati cheklangan, yordamga muhtoj shaxslarga zarur ko‘mak berish borasida amalga oshirgan ishlarimiz el-yurtimizga yaxshi ma’lum” [4]. Arzon uy-joy bilan ta’minlash ijtimoiy barqarorlik va hayot sifati uchun juda muhimdir. Hukumat bunga e’tibor qaratib, ijtimoiy farovonlikning asosiy yo‘nalishi bo‘lgan xavfsiz yashash sharoitlaridan ko‘proq fuqarolarning foydalanishini ta’minlamoqda. Arzon uy-joy tashabbuslari, ehtimol, shahar va qishloq o‘rtasidagi rivojlanishni muvozanatlash, tengsizlikni kamaytirish va mintaqaviy

o‘sishning muvozanatli bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli sa’y-harakatlarning bir qismidir. Uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish jahon iqtisodiyotidagi tez o‘zgarishlarga moslashish uchun juda muhimdir. Bu barcha yoshdagi fuqarolarning o‘z malaka va bilimlarini oshirish, mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Aholining barcha qatlamlari uchun ta’lim olish imkoniyati mavjudligini ta’minlash ijtimoiy-iqtisodiy holat, geografik joylashuv yoki boshqa to’siqlar tufayli hech kim ortda qolmasligini anglatadi. Zamon talablari asosida ilm-fanni rivojlantirish zamonaviy talablarga javob beradigan zamonaviy, ilg‘or tadqiqotlarga e’tibor qaratishni talab qiladi. Bu innovatsiyalarni rivojlantirish, iqtisodiy o‘sish va iqlim o‘zgarishi va aholi salomatligi kabi muammolarni hal qilish uchun zarur. Ilm-fanga ustuvor ahamiyat berib, hukumat mamlakat kelajagiga sarmoya kiritmoqda. Bu O‘zbekistonning jahon miqyosida raqobatlasha olishini va global bilimlarga hissa qo‘shishini ta’minlamoqda.

Ziyolilarni qo‘llab-quvvatlash innovatsiyalar va tanqidiy fikrlash madaniyatini rivojlantiradi. Ayollar va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish esa kengroq ijtimoiy va iqtisodiy ishtirokni ta’minlaydi. Nogiron yoki muhtoj kishilarning qo‘llab-quvvatlanishini ta’minlash adolatli jamiyat qurish uchun juda muhimdir. Ushbu yondashuv inson huquqlari va ijtimoiy adolatning kengroq maqsadlariga mos keladi. Ziyolilar, ayollar, yoshlar va imkoniyati cheklangan insonlarga qaratilgan maxsus dasturlar stipendiyalar, grantlar, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy ta’minot tashabbuslarini o‘z ichiga oladi. Ushbu sa’y-harakatlar tengsizlikni kamaytirish va yanada inklyuziv jamiyatni rivojlantirishga yordam beradi.

Ilm-fanni rivojlantirish tadqiqot institutlariga katta sarmoya kiritish, xalqaro universitetlar bilan hamkorlik va milliy va global muammolarni hal qiluvchi innovatsion loyihalarni moliyalashtirishni o‘z ichiga oladi. Uzluksiz ta’lim va ilmiy rivojlanishga e’tibor qaratib, hukumat uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan inson kapitaliga sarmoya kiritmoqda.

Ma’naviyat yetakchilari va institutlari ko‘pincha jamiyat hayotida muhim rol o‘ynaydi, axloqiy masalalar bo‘yicha maslahat beradi va ijtimoiy masalalar bo‘yicha jamoatchilik fikrini shakllantirishga yordam beradi. Ularning jamiyat taraqqiyoti va xayriya faoliyatidagi ishtiroki ijtimoiy davlatni mustahkamlaydi.

Muxtasar qilib aytganda, O‘zbekiston jamiyatni modernizatsiyalash sari olg‘a borar ekan, ma’naviy va an’anaviy qadriyatlarni globallashgan

va texnologik jihatdan rivojlangan jamiyat talablari bilan muvozanatlash masalasi o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi. Bu muvozanat barqaror ijtimoiy rivojlanish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘zbekistondagi ma’naviy jarayonlar ijtimoiy davlat rivojining ajralmas qismi bo‘lib, milliy o‘zlikni anglash va ta’limdan tortib, boshqaruv va jamiyat uyg‘unligiga ham ta’sir qiladi. Bu jarayonlar axloqiy qadriyatlar asosida barqaror va adolatli jamiyatni yaratishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. -B.267.

2. Эркаев А. Янги Ўзбекистон: Мўлжал-Учинчи Ренессанс. – Тошкент: Маънавият, 2021. -Б. 20.

3. Doug Magendanz. Heretics, Atheists and Infidels: Religious Tolerance and Intolerance in Grotius, Hobbes and Kant. 2019. -P. 23.

4. Mirziyoyevv. THEORETICAL FOUNDATIONS OF NATIONS AND INTERNATIONAL RELATIONS // Science and innovation in the education system. 2023/7/10.

DILSHOD ISMAILOV,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchi

DAVLAT XIZMATCHISINING SHAXSIY MA’NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARI YUKSALTIRISH MEZONLARI

O‘zbekiston xalqining milliy yuksalishi amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mohiyatan ijtimoiy davlatni barpo etish va ma’rifiy jamiyat poydevorini yaratishga qaratilganligi bilan bog‘langandir. Bu islohotlar eng avvalo, davlat hayotini, uning institutlari faoliyatini yangilashga qaratilgandir. “Inson qadri” “xalqparvar davlat” “adolatli ijtimoiy siyosat” yuritish, inson kapitalini rivojlantirish ana shu islohotlarda ko‘zda tutilgan maqsadlardir. Bugun ushbu maqsadga yetishning strategik yo‘llari Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilab olingan.

Shu ma’noda, Yangi O‘zbekistonni barpo qilishda yangi tipdagi rahbar kadrlar, davlat xizmatchilarini tayyorlash, respublikada kadrlar siyosatini ilmiy asosda qurish strategik shartlardan biridir. Shuningdek, loqaydlik, mahalliychilik, korrupsiya kabi illatlar havfsizligimizga tahdid ekanligi, shu tufayli davlat xizmatchilarini tayyorlash - davlatimiz uchun strategik ahamiyatga ega ekanligi ilmiy-nazariy asoslarga ega. Bularning barchasi mamlakatimiz rahbarining turli yig‘ilish, majlislar, uchrashuvlar minbaridan turib, so‘zlagan tanqidiy fikrlariga asos bo‘lmoqda. Bu esa mamlakatimizda rahbar kadrlarni tanlash, tarbiyalash, joy-joyiga qo‘yish, malakasini oshirish kabi muhim bo‘g‘inlarda sifat jihatdan islohotni talab qiladi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek; “Asosiy vazifa – bu yuqori kasb mahorati va zamonaviy tafakkurga ega, puxta o‘ylangan, har tomonlama to‘g‘ri qarorlar qabul qila oladigan, belgilangan maqsadlarga erishadigan rahbarlar va mansabdor shaxslarning yangi tarkibini shakllantirishdan iborat”dir[1].

“Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans sari” g‘oyasi asosida amalga oshirilayotgan islohotlarning har bir yili, har bir bosqichida ijro organlarida faoliyat ko‘rsatayotgan davlat xizmatchilari oldiga qo‘yilgan vazifalar o‘zgarib, yangilanib boradi. Ya’ni, islohotlar muammolari kompleksining bir qismi hal qilingach, yangi vazifalar belgilanadi. Yangi kelgan rahbarlar, davlat xizmatchilari yangi muammolarni yechishga kirishadilar. Shu bois islohotlarni amalga oshirish jarayonida davlat xizmatchilari zimmasiga yuklatiladigan vazifalar vaqt kesimida

bir-biridan farq qiladi. “Davlat xizmatida 30 yildan beri o‘z yechimini topmagan tizimli muammolarni hal qilishga qaratilgan “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonun normalarining samarali ijrosini ta’minlash orqali davlat fuqarolik xizmatini tartibga solish sohasida ilg‘or xalqaro standartlarga javob beruvchi yagona tartibot shakllantiriladi hamda davlat fuqarolik xizmatiga malakali kadrlarni faol jalb qilish, ularni salohiyatini oshirish, fidoiy, xalqparvar va raqobatbardosh kadrlar sifatida tarbiyalash uchun zarur huquqiy shartsharoitlar yaratiladi. Zero, Yangi O‘zbekistonning kadrlar siyosati – mustahkam huquqiy poydevor asosiga qurilishi lozimdir!” [2;1105].

Tabiiyki, mazkur yangiliklar davlat xizmatchilaridan yangi vazifalarni hal qilish uchun yangi kompetensiya va fazilatlarga ega bo‘lishni talab etadi. Shu bois siyosiy ta’lim va tarbiya davlat xizmatchilarini ana shu yangiliklar bilan tanishtirish, ularning yangi bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish takomillashgan texnologik vazifa sifatida amalga oshiriladi.

Shu bilan birga har qanday strategik hujjatning ro‘yobi ham, avvalo, davlat fuqarolik xizmatchilarining ishga munosabatiga, mehnat unumdorligining samarasiga bog‘liq bo‘ladi. Ayni shu jarayonda, **O‘zbekiston Respublikasining** “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi **Qonuni** qabul qilindi [3]. Bu qonunning tashkil etilishini maqsadi ham davlat boshqaruvini samarali, adolatli va intizomli mas’uliyat tizimini ta’minlash, davlat fuqarolik xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha malakali kadrlarni tayyorlash va qo‘llab-quvvatlash, davlat fuqarolik xizmatchisining qonuniy vakolatlarini belgilash va huquqiy maqomini mustahkamlashni o‘z ichiga olgan..

Qonunda davlat xizmatchisi kasbiy ma’naviyati **“Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalari** – davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan rioya etilishi shart bo‘lgan odob-axloq normalari majmui doir talablar”i [3] belgilab qo‘yilgan.

2017 yilda oliy ta’lim muassasalari uchun tayyorlangan “Davlat xizmatchisi etikasi va imiji” o‘quv qo‘llanmasida davlat xizmatchisiga shunday ta’rif beriladi: “Davlat xizmatchisi deganda, davlat organlarining huquqlarini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha tashkiliy-boshqaruv funksiyalarini bajaruvchi, fuqarolar uchun huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan harakatlarni amalga oshiruvchi shaxs nazarda tutiladi. Mansabdor shaxslarda siyosiy xislatlar bilan bir qatorda axloqiy fazilatlarni shakllantirish zaruriy holdir. Axloqiy barkamollik davlat xizmatidagi xodimlarning ishbilarmonlik sifatlaridan biri hisoblanadi”[4;4].

Ko‘rinib turganidek, shaxsiy ma’naviy-axloqiy fazilatlar davlat xizmatida muhim rol o‘ynaydi, chunki, ular davlat xizmatchilarining samaradorligi va professionalligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Davlat xizmatida muvaffaqiyatli martaba uchun muhim bo‘lgan ba’zi asosiy shaxsiy fazilatlar:

1. **Halollik**: Davlat xizmatchilari halol, halol va ishonchli bo‘lishi kerak. Ularning harakatlari va qarorlari axloq normalari va qonun hujjatlariga muvofiq bo‘lishi kerak.

2. **Kasbiy javobgarlik:** Davlat xizmatchilari o‘z vazifalarini yuqori darajada mas’uliyat bilan bajarishlari, yeng yaxshi natijalarga intilishlari va kasbiy standartlarga rioya qilishlari kerak.

3. **Tahliliy ko‘nikmalar:** tahlil qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyati faktlar va ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish uchun muhimdir.

4. **Muloqot qobiliyatlari:** Davlat xizmatchilari turli manfaatdor tomonlar, shu jumladan fuqarolar, hamkasblar va rahbarlar bilan samarali muloqot qilishlari kerak.

5. **Yetakchilik:** menejerlar yoki menejerlar rolida davlat xizmatchilari jamoani boshqarish va ilhomlantirish qobiliyatiga yega bo‘lishi kerak.

6. **Moslashuvchanlik:** Davlat xizmatlari ko‘pincha o‘zgaruvchan sharoitlarga va yangi muammolarga duch keladi. O‘zgarishlarga moslashish va ularga tezda munosabat bildirish qobiliyati muhim sifatdir.

7. **Maxfiylik:** Davlat xizmatchilari ko‘pincha maxfiy ma’lumotlarga yega va maxfiylikni saqlash qobiliyati juda muhimdir.

8. **Etika:** davlat xizmatchilari uchun yuqori axloqiy me’yorlarga rioya qilish va manfaatlar to‘qnashuvidan qochish muhimdir.

9. **Hamkorlik qilish qobiliyati:** Davlat xizmatchilari umumiy maqsadlarga yerishish uchun jamoada ishlashga va boshqa organlar bilan hamkorlik qilishga tayyor bo‘lishi kerak.

10. **Stressga chidamlilik:** Davlat xizmatchilari yuqori darajadagi stress va bosimga duch kelishi mumkin, shuning uchun stressni boshqarish va xotirjamlikni saqlash qobiliyati muhimdir.

Ushbu fazilatlar davlat xizmatchilariga o‘z vazifalarini yanada samarali bajarishga yordam beradi, davlat xizmatlarini sifatli ko‘rsatishni ta’minlaydi va davlat muassasalariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi. Tadqiqotchi Maxbuba Xoliyarova ta’kidlaganidek; “Davlat xizmatchisi – davlat va millatning yuzi hisoblanadi. Davlatning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim rol o‘ynaydi. Inson ma‘naviy-axloqiy meyorlar bilan yoshligidan uzviy bog‘langan bo‘ladi. Bola yoshligidan ta‘lim-tarbiya jarayonida sayqallana borishi natijasida jamiyatning bir a‘zosi shaxs

sifatida shakllanadi. Bu shakllanish natijasida u jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etuvchi jamiyatning bir bo‘lagiga aylanib ulguradi. Ana shunday shaxs maqomiga ega kishilar davlat xizmatida faoliyat olib borishlarida belgilangandan tashqari ularning alohida xususiyatlari mavjud bo‘lishini unutmaslik lozim” [5;201].

Xulosa qilib aytganda, islohotlarning hozirgi bosqichida shaxs ijtimoiy voqelikni o‘zgartiruvchi hodisa sifatida namoyon bo‘ladi, ijtimoiy taraqqiyot mezoni hisoblanadi. Barqaror taraqqiyot esa mehnat unumdorligining o‘sishiga, xalq farovonligining sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilishiga bog‘liq.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Mamlakatni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, eng avvalo, shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatidan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog‘liq”[6;168]. “Inson omili” yoki “ma’naviy va intellektual salohiyat”ni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar jarayonining harakatlantiruvchi kuchini, ijtimoiy-siyosiy faoliyatda amalga oshiriladigan shaxsning g‘oyaviy, axloqiy, ishbilarmonlik va irodaviy fazilatlari yig‘indisini shu jumladan motivatsion tuyg‘ulari shaxs intelektual salohiyati tuzilishini tashkil etadi.

Inson faoliyati davomida o‘zini o‘zi anglashi uchun, qobiliyatlarini to‘liqroq ochib berishi uchun barcha sharoitlarni yaratish kerak. Shaxsning “ijtimoiy sifatlari”ni shakllantirishdan iborat bo‘lgan bu jarayon salbiy hodisalar – loqaydlik, beparvolik, kam mehnat qilib ko‘proq daromad olishga intilish, korrupsiya, poraxo‘rlik, mahalliychilik jamiyat me’yorlarning buzilishi va shu kabi boshqa holatlarga qarshi keskin kurash olib borishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz // Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi // https://president.uz/oz/lists/view/111

2. Zaynobiddinova F. B. Yangi O‘zbekistonda kadrlar siyosatining huquqiy jihatlari //O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 14. – C.1094-1105.

3. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. 1 tom. –B.168.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-788-son Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.08.2022-y., 03/22/788/0723-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son // https://lex.uz/ru/docs/-6145972

5. Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imdji. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent.: Universitet, 2017. – B.4.

6. Xoliyarova M. Davlat xizmatchilarining ma’naviy qiyofasi (Prokuratura organlari xodimlari misolida) // O‘zMU xabarlari. – 2024. – №. 1.1. – C. 200-203.

MOXINUR OLIMOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti
tayanch doktoranti

YANGI O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR FAOLLIGINI OSHIRISH TENDENSIYALARI

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan siyosiy o‘zgarishlar xotin-qizlarning huquqlarini buzilishiga qarshi kurashish imkoniyatini yanada oshirmoqda. Xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilinishi ortida inson huquqlarini himoya qilish tizimida ham ma’suliyatning ortishiga olib keladi.

O‘zbekistonda xotin-qizlarning siyosiy ishtirokni ta’minlashda avvalo hukumatning roli katta ahamiyat kasb etadi. Gender tenglik bo‘yicha ajiratilgan kvotalar, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash markazlari, tashkilotlari, saylov tizimining roli xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirishda muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda ko‘plab mamlakatlarda ayollarning siyosiy faoliyatlarini rag‘batlantirishda kvota tizimiga ko‘proq foydalanishmoqda. Kvota tizimining ham ikki turi mavjud. Birinchisi konstitusiya va qonunchilik bilan belgilangan kvotalar. Ikkinchisi siyosiy partiyalarning ixtiyoriy kvotalaridir. Konstitusiyaviy va qonunchilik bilan belgilangan kvotlar huquqiy normalar bilan nazoratga olinadi. Bu borada ayollarning siyosiy faolligini to‘laqonli qonuniy tashkil etilishini ta’minlaydi. Siyosiy partiyalar tomonidan ixtiyoriy ravishda ajiratilgan kvotalar ayollarning ma’lum soni yoki foizini ko‘rsatishni kafolatlash uchun qo‘llaniladi. Kvotalarning turlari va samaradorligini amalga oshirilgan saylov tizimida ko‘rish mumkin bo‘ladi. Ayollarning saylovlarda qo‘llab-quvvatlanishi ularning o‘rinlarini qonun bilan himoya qilinishi teng vakillik qilinishi, va kvota tizimining mavjudligi ushbu jarayonda xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirishni ta’minlab beradi. Kvota tizimi xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish va siyosiy hayotda ishtirokini oshirishda asosiy rol o‘ynaydi. Gender tenglikni ta’minlash borasidagi olib borilgan ishlar demokrtik islohotlarning asosiy ko‘rinishi sifatida e’tirof etiladi. Saylovlar siyosiy tizimda ayollarga bo‘lgan munosabatlarni o‘zgarishiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Mamlakatda xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirida ayollar kengashlarini tashkil etish bunda xotin-qizlarning muammolarini o‘rganish hamda siyosiy faolligini ko‘rsatishda duch kelayotgan to‘siqlarni o‘rganish hamda amaliy yechimlar topishga imkoniyat berishni

maqsad qilgan kengashlarning tashkil etilishi jamiyat siyosiy tizimida xotin-qizlarning rolini oshishiga olib kelinishi pragnoz qilinmoqda.

Gender tenglikni ta’minlash partiyalar rahbarlari va deputat ayollarning sonini ortishi jamiyat siyosiy tizimida ayollarning rolini ortishi taraqqiyotning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishini xotin-qizlar orasida keng targ‘ib etish. Targ‘ibot ishlarini amalga oshirishda xotin-qizlar orasida ayniqsa uyushmagan xotin-qizlar orasida bu targ‘ibot ishlarini olib borish jamiyatda ularning roli muhim ekanligiga ishontirish gender tenglikni ta’minlanishi muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olgan holda treninglar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi vaqtda xorijiy mamlakatlarda xotin-qizlarning siyosiy tizimda ishtirokni oshirish natijasida jamiyat tarqqiyotiga olib kelganiga guvoh bo‘lamiz. Hattoki, ayrim mamlakatlarda ayollar partiyalarning tashkil etilishi, jamiyatda ayollarning siyosiy tizimga kirib kelishi demokratiyaning asosi ekanligini ko‘rsatib beradi. Jamiyatda gender tenglikni ta’minlab berilishi va xotin-qizlarning o‘z fikrlarini omma oldida mustaqil bildira olishi, ayol siyosatchilarga imkoniyatlarni yaratib berish xotin-qizlarning siyosiy ishtirokini ta’minlab berishga xizmat qiladi.

Gender tenglikni ta’minlashda milliy mexanizmlarni yaratish, ayollarning imkoniyatlarini kengaytrishiga sharoitlarni yaratib berish orqali ularning siyosiy faolligini oshirish mumkin.

Ayollarning oilaviy munosabatlar tizimida roli katta ekanligi va oilaviy munosabatlarda ko‘proq yukning ayollar zimmasiga tushishi, ya’ni farzand tarbiyasi, oilaviy yumushlar, stresslar va siyosiy jarayonlarda oraliq muddatda uzoqlashishiga (bu borada yuqorida keltirilgan yumushlar bilan band bo‘lishi) olib keladi. Ayniqsa, o‘zbek millatida ayollarning oilaviy munosabatlarda ko‘proq band bo‘lishi sharqona va milliylikni ko‘rsatib beradi. Gender tenglikni ta’minlashda ma’na sha jihatlarni ham inobatga olish zaruriyati tug‘uladi. Mamlakatda sog‘lom siyosatni amalga oshirishda oilaviy munosabatlarda ham ta’lim tizimida ham xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligini ta’minlovchi qonunlarning qabul qilinganligi siyosiy faollikni oshirida imkoniyatini yanada oshirib bermoqda.

Jamiyatda ayollarning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish hamda ularning siyosiy hayotdagi ishtirokni oshirishda jamoatchilik xabardorligini oshirish shu bilan birgalikda demokratik jamiyat qurishda kompaniyalar va tashkilotlarda gender tenglikni ta’minlash xotin-qizlar uchun moslashuvchan ish haftaligini joriy qilinishi borasida shunday kompaniya va tashkiotlarga moliyaviy imtiyozlar ajiratish ularni qo‘llab-

quvvatlash orqali demokratik boshqaruvni yanada takomillashtirish lozim.

Mamlakatimizning asosiy qismida xotin-qizlar ijtimoiy ishchilar, tarbiyachilar va sog‘liqni saqlash tizimida ishtiroki ko‘proq kuzatiladi. Xotin-qizlar orasida ta’lim tizimida faoliyatning yuqori ekanligi bu sohada ularning roli va ahamiyati katta ekanligini ko‘rsatib beradi. Bugungi kunda xotin-qizlarning faolligini oshirish borasida ko‘plab ishlarni amalga oshirilayotgani jamiyatda gender tenglikni ta’minlash borasida ko‘plab islohotlar adolatli tenglikka erishishga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent:, “O‘zbekiston” 2021-y. 250-b.

2. Sh.Mirziyoyev. o‘qituvchi va murabbiylar – Yangi O‘zbekiston barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. “o‘qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan nutq. – T., 2020-yil, 1-oktyabr.

3. Norboyeva T. Xotin-qizlarning huquq va manfaatlari – davlat e’tiborida. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2020 yil 13 oktyabr.

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. 2023-yil 30-aprelda umumxalq ovoz berish yo‘li referendum orqali qabul qilingan. www.lex.uz

ALISHER QURAMBOYEV
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti

KAM TA’MINLANGAN OILALARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISHDA AXLOQIY TAMOYILLAR INTERPRETATSIYASI

Axloqiy tamoyillar inson faoliyatining umumiy yo‘nalishini belgilaydi va xulq-atvorning yanada aniq normalari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishda bu tamoyillar insonning qadr-qimmatini ulug‘lash, tenglikni targ‘ib qilish va xavfsizlikni ta’minlash maqsadida ishlatiladi. Ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi, birinchi navbatda, axloqiy tamoyillarni qanday tatbiq etilishiga bog‘liq. Misol uchun, inson qadrini ulug‘lash, ijtimoiy tenglikni ta’minlash va adolatni mustahkamlash kabi qadriyatlar, ijtimoiy himoya dasturlarining asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi. **Axloqiy tamoyil** - axloqiy ongning elementi, axloqiy talablarni eng umumiy ifodalaydigan tushuncha sanaladi. Odamlarning individual harakatlarini tartibga soluvchi axloqiy me’yorlardan farqli o‘laroq, axloqiy tamoyillar insonning (yoki jamiyatning, odamlar guruhining) butun faoliyatini tartibga solishga qaratilgan (“xulq-atvor chiziqlari”). Normalar taktika, tamoyillar esa inson xulq-atvorining strategiyasidir. Axloqiy tamoyillar inson faoliyatining umumiy yo‘nalishini belgilaydi va xulq-atvorning yanada aniq normalari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi[1].

Demak, axloqiy tamoyillar - bu odamlarga qaror qabul qilishda, o‘zlarining va boshqalarning harakatlarini baholashda rahbarlik qiladigan asosiy e’tiqod va qadriyatlardir. Ular insonning axloqiy qoidalarining asosini tashkil qiladi va hayotning turli sohalarida nima to‘g‘ri va noto‘g‘ri, yaxshi va yomon deb hisoblanishini belgilaydi. Axloqiy tamoyillar ijtimoiy himoyada muhim o‘rin tutadi. Ular ijtimoiy himoyaga jalb qilingan odamlar va tashkilotlarning xatti-harakatlari va qarorlarini boshqaradigan standartlar va qadriyatlarni belgilaydi. Kam ta’minlangan oilalarni jtimoiy himoya qilish katta axloqiy ahamiyatga ega bo‘lgan murakkab masaladir.

Ijtimoiy himoya dasturlari kambag‘allikni va uning oqibatlarini yengillashtirishga qaratilgan, ammo ushbu dasturlarning axloqiy asoslari ularning samaradorligi va ijtimoiy ta’siri uchun juda muhimdir. Kambag‘allarni ijtimoiy himoya qilishga asos bo‘lgan asosiy axloqiy tamoyillarni o‘rganish juda dolzarb masaladir. Maqsad inson qadr-qimmatini ulug‘laydigan, tenglikni targ‘ib qiluvchi va kam ta’minlangan

oilalar uchun xavfsizlikni ta’minlaydigan ijtimoiy himoya tizimini yaratishdir.

Insonparvarlik tamoyili kam ta’minlangan oilalarni himoya qilishning eng qadimiy axloqiy asoslaridan biridir. Bu tamoyil insonning yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan e’tiqodlar majmuasiga asoslanadi. Insonning qadr-qimmati va huquqlarini hurmat qilish, ijtimoiy himoyaning asosiy maqsadidir. Insonparvarlik faqat moddiy yordam bilan cheklanmay, balki odamlarning ehtiyojlariga mos munosabat va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishni ham o‘z ichiga oladi.U insonning yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan va barqaror etadigan g‘oyalar, qarashlar va e’tiqodlar majmui, shaxs erki, qadr-qimmati, uning baxtli bo‘lish huquqini talab etish imkonining mavjudligiga yengilmas ishonch. Insonparvarlik tamoyilini dastlab Ovro‘pa Uyg‘onish mutafakkirlari ilgari surganlar, degan fikr mavjud.

Aslida, insonparvarlik dastaval Sharqda o‘rtaga tashlangan, insoniylik, insonparvarlik degan ma’noni bildiruvchi «namlulu» so‘zi bundan 3-4 ming yillar avallgi Qadimgi Somir giltaxtalarida uchraydi [2]. Insonparvarlik va qadr-qimmat tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. **Qadr-qimmat**-insonning o‘zi, o‘zgalar va jamiyat tominidan oliy qadriyat sifatida e’tirof etilishi, uning ma’naviy huquqlarining tan olinishidir [3].

Davlatimiz rahbari esa inson qadri tushunchasiga quyidagicha keng ma’noda tavsif berib o‘tdilar: “**Inson qadri** deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz” [4].

Ijtimoiy adolat tamoyili esa, jamiyatning barcha a’zolarining asosiy huquq va erkinliklari, shuningdek, asosiy turmush darajasiga erishishini ta’minlashga qaratilgan. Bu tamoyil har bir insonning teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini, ya’ni ta’lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy va boshqa zarur resurslardan teng foydalanish imkoniyatini ta’minlaydi. Ijtimoiy adolat, shu bilan birga, kambag‘allikni kamaytirish va jamiyatda farovonlikni ta’minlash maqsadida samarali siyosatni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tenglik tamoyili kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tenglik – jamiyatning barcha a’zolari uchun huquq va imkoniyatlarning bir xil bo‘lishini ta’minlaydi. Tenglik – kishilarning jamiyatda tutgan o‘rni va hayot sharoitlaridan qat’iy nazar, ma’naviy-axloqiy talablar hammaga bir xil bo’lishiga asoslanadigan ma’naviy-axloqiy tamoyilni ifodalovchi tushuncha [5]. Bu

tamoyil asosida har bir inson, ijtimoiy-iqtisodiy mavqeidan qat’i nazar, jamiyatning barcha ne’matlaridan teng foydalanish huquqiga ega. Tenglik jamiyatda adolatni mustahkamlashga xizmat qiladi va odamlar o‘rtasida samimiy do‘stlik va hamjihatlikni shakllantirishga yordam beradi.

Adolat esa, har bir insonning huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish, ularning ehtiyojlarini qondirish va ularning rivojlanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni yaratishni o‘z ichiga oladi. Adolat tamoyili, ayniqsa, ijtimoiy himoya tizimlarida muhim o‘rin tutadi, chunki u kambag‘allikni kamaytirish, imkoniyatlarni kengaytirish va har bir insonning munosib turmush darajasiga erishishini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytish mumkinki, kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishda axloqiy tamoyillar muhim rol o‘ynaydi. Bu tamoyillar inson qadr-qimmati, tenglik, adolat va insonparvarlik kabi qadriyatlarni himoya qilishga qaratilgan. Ijtimoiy himoya tizimlarini samarali tashkil etish uchun, ushbu tamoyillarga asoslanish, jamiyatda kambag‘allikni kamaytirish, farovonlikni ta’minlash va har bir insonning munosib turmush darajasiga erishishini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Diniy va falsafiy ta’limotlar, shuningdek, ijtimoiy adolat va insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Shu sababli, axloqiy tamoyillarni ijtimoiy himoya tizimlariga kengroq joriy qilish, jamiyatning barqaror rivojlanishi va har bir insonning hayot sifatini oshirish uchun zarurdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Лихачева Л.С. Этика: теория и практика: учеб. Пособие. - Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2019. – С.135.

2. Abdulla Sher. “Axloqshunoslik” darslik.O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.Toshkent.2010. B. 328.

3. Abdulla Sher. “Axloqshunoslik” darslik.O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.Toshkent.2010.B.257.

4. Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokrtatik islohotlar yo’lini qat’iy davom ettiramiz //https://president.uz/lists/view/4743

5. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob/muallif-tuzuvchi Q.Nazarov. - T.: “O’zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2023.B.310.

AZAMAT KAMALOV,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
RMMM huzuridagi Ijtimoiy ma’naviy tadqiqotlar
instituti maqsadli amaliy loyiha ijrochisi

YANGI O‘ZBEKISTONNING MA’NAVIY JARAYONLARIDA O‘QITUVCHI MAQOMINING O‘ZIGA XOSLIGI

Bugungi kunda jahon hamjamiyati zamonaviy taraqqiyotni ta’minlash jarayonida ko‘pdan-ko‘p ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan bir qatorda insonni inson sifatida ulug‘lab turadigan, jamiyatda ezgu qadriyatlar, axloqiy fazilatlar ustuvorligini ta’minlaydigan, odamlarni mudom eng xayrli gumanistik g‘oyalar asosida ruhiy kamolot sari yetaklaydigan beqiyos kuch – ma’naviyatga nisbatan tobora ko‘proq ehtiyoj sezmoqda.

Inson hayoti davomida ma’naviyat asosiy yo‘lchi yulduz vazifasini bajaradi. Ma’naviyat – bu insonning ichki dunyosi, ruhiyati, axloqiy qadriyatlari va dunyoqarashining shakllanishiga asos bo‘lib, uning shaxs sifatida to‘laqonli rivojlanishiga xizmat qiladi. Insonni jamiyatda yetuk va hurmatli shaxs sifatida tarbiyalashda ma’naviyat hal qiluvchi omildir, chunki u insonning axloqiy tamoyillarini belgilab beradi, hayotiy qarashlarini shakllantiradi va harakatlarini boshqaradi. Har bir inson o‘zining ma’naviy kamoloti orqali ichki ruhiyatini boyitib, hayotdagi muammolarga bardosh berish, to‘g‘ri yo‘l tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ma’naviy jihatdan boy shaxs o‘zining hayotiy maqsadlarini aniq belgilab, ularni amalga oshirishda qat’iyat ko‘rsatadi. Bu jarayonda insonning axloqiy qadriyatlari hal qiluvchi o‘rin tutadi: halollik, mehr-oqibat, adolat, hamdardlik kabi fazilatlar ma’naviyat asosida shakllanadi. Shu jihatdan, ma’naviy boylik shaxsning hayotiy muvaffaqiyatlarida va jamiyatdagi o‘rnini topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, ma’naviyat jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ham katta o‘rin tutadi. Odamlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, hamkorlik, bir-birini tushunish va yordam berishga intilish kabi jihatlar ma’naviy qadriyatlar asosida rivojlanadi. Jamiyatda yuksak ma’naviyatli shaxslar ko‘proq bo‘lgani sari, tinch-totuv, madaniyatli muhit shakllanadi.

Ma’naviyatning jamiyatdagi bu kabi o‘rni insonlarning bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo‘lishini ta’minlaydi va ularni ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli fuqarolar sifatida shakllantiradi. Ma’naviyatning yana bir muhim jihati shundaki, u insonning madaniy merosini saqlash

va avlodlarga yetkazishda hal qiluvchi omildir. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, tarixiy va madaniy yodgorliklar, urf-odatlar va an’analar ma’naviyat orqali o‘rganilib, avlodlarga yetkaziladi. Yoshlarni o‘z milliy merosini qadrlashga va uni hurmat qilishga o‘rgatish ma’naviy tarbiya vositasida amalga oshiriladi. Bu orqali millat o‘z tarixiy ildizlariga ega bo‘lib, o‘zligini yo‘qotmasdan rivojlanishda davom etadi. Inson hayotidagi ma’naviyatning o‘rni uning hayot yo‘lini tanlashida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Yuksak ma’naviy qadriyatlarga ega bo‘lgan shaxs har qanday vaziyatda to‘g‘ri yo‘lni tanlashga harakat qiladi, o‘z maqsadlariga erishishda halollik va adolatni ustun qo‘yadi. Bu esa insonni baxtli hayotga eltuvchi eng to‘g‘ri yo‘ldir. Ma’naviyat inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, u shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy munosabatlar va madaniy merosni saqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ma’naviyat orqali inson o‘zining shaxsiy va jamiyatdagi o‘rnini topadi, yuksak axloqiy me’yorlarga amal qilib, baxtli va mazmunli hayot kechiradi. Shu sababli, har bir insonning hayotida ma’naviy boylikka erishish, o‘zining ichki dunyosini boyitish muhim vazifa bo‘lib qoladi**.**

Ma’naviy tarbiya insonning ichki dunyosini boyitish, axloqiy me’yorlarni shakllantirish va jamiyatda madaniy hayot tarzini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. U insonni yuksak axloqiy qadriyatlarni qadrlashga, to‘g‘ri yo‘l tutishga va har qanday vaziyatda halollik, mehr-oqibat, vatanparvarlik kabi fazilatlarni namoyon etishga o‘rgatadi. Ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyani rivojlantirish zaruriyati insonning har tomonlama yetuk, madaniyatli va axloqli shaxs sifatida shakllanishini ta’minlash uchun juda muhimdir. Zamonaviy jamiyatda texnologiya va ilmiy yutuqlar taraqqiy etib borayotgan bir paytda, ma’naviy qadriyatlar va axloqiy tamoyillarni rivojlantirish har qachongidan ham dolzarb. Ushbu maqsadlarga erishilishida esa ta’lim muassasalarining va ularda tolmay mehnat qilayotgan fidoyi kasb egalari bo‘lmish o‘qituvchilarning o‘rni beqiyosdir.

Zero, o‘qituvchi jamiyatning yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtmasining asosiy ishtirokchisidir. O‘qituvchi misli yonib turgan shamga o‘xshaydi. O‘zi yonib atrofga nur-ziyo taratadi. Ma’lumki, hamma kasblarni ham, avvalo, ustoz-o‘qituvchi o‘rgatadi. O‘qituvchi – ilm o‘rgatuvchi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, tarbiyalovchi murabbiydir. Dastlabki saboqni ham o‘qituvchi beradi. Dastlabki ona-Vatan so‘zlarining ma’nosini, mohiyatini ham o‘qituvchi o‘rgatadi. Shuning uchun ham barcha kasblar ichida o‘qituvchilik-muallimlik kasbi o‘ta sharafli va mas’uliyatli hisoblanadi. Zero, Prezidentimizning: “O‘zbekistonda bugundan boshlab, eng hurmatli, eng e’zozli inson –

bu muallim!” yoki “O‘qituvchini hurmat qilmaganni men ham hurmat qilmayman!”, deb ta‘kidlab aytganlari o‘qituvchilik kasbining nechog‘lik sharafli kasb ekanligidan dalolat beradi. Ayni shuning uchun ham bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda o‘qituvchi obro‘sini oshirish yuzasidan juda ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning: “Har bir islohotda, qaror qabul qilishda o‘qituvchilar ko‘z oldimda bo‘ladi”[1], deb aytgan so‘zlari yuqoridagi fikrimizning yaqqol isbotidir.

Keyingi yillarda “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi”, degan ezgu g‘oya asosida bu sohada katta ishlar amalga oshirildi. O‘tgan qisqa davrda yuzlab zamonaviy maktablar barpo etildi. Ilgari tajribada bo‘lmagan Prezident maktablari, ijod maktablari hayotimizga kirib keldi, ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘i kengaytirildi. Yangi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari yaratildi. “Eng muhimi, maktablarimizda yangicha ruh, mazmun va muhit paydo bo‘ldi. Bunda, hech shubhasiz, bolalar qalbining me’mori, muhandisi bo‘lgan hurmatli o‘qituvchi va murabbiylar uchun erkin ishlash imkoniyatini yaratib berganimiz muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Chunki o‘qituvchiga e’tibor – bu avvalo farzandlarimizga, ularning ta’lim-tarbiyasiga e’tibor, degani. O‘qituvchining obro‘si oshsa, maktabning obro‘si oshadi, ilmning, ta’lim-tarbiyaning qadri ko‘tariladi” [2].

Bilamizki, o‘qituvchilar ilm-ma’rifatga yo‘llovchi, ziyo tarqatuvchi buyuk shaxslar, zukko va bilimdon insonlardir. Shu boisdan ular cheksiz hurmat va e’tiborga, tahsinga sazovordirlar. Yurtimizda bugungi kunda pedagoglarga barcha imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratilgan. Shu jumladan, pedagog kadrlarning huquq va majburiyatlarini belgilash, yurtimizda bu kasbning maqomini oshirish maqsadida 2023-yil 1-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”[3]gi qonunini misol qilishimiz mumkin. Ushbu qonun 21 ta moddadan iborat bo‘lib 2023-yil 29-sentyabrda Senat tomonidan ma’qullangan. 2024-yil 1-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolandi va hujjat matni Qonunchilik ma’lumotlari ba’zasiga joylandi. Qonun pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari va ular faoliyatining asosiy kafolatlarini belgilab beradi. Qonun hujjatida pedagogning huquqlari, sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘si davlat himoyasi ostida ekanligi qat’iy belgilandi. Ushbu qonun loyihasiga ko‘ra, pedagoglar mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari ustidan sudga murojaat qilganida davlat bojini to‘lashdan ozod etiladi. Ularni lavozim majburiyati va kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlarga, yig‘ilishlar va boshqa tadbirlarga jalb qilish taqiqlanadi. Buning

natijasida mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga alohida e’tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb hunarlarni egallashi, jismonan va ma’nan yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi, ularning qobiliyat va iste’dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, milliy istiqlol g‘oyalariga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘qituvchilik – inson jamiyati tarixi boshlangandan e’tiboran davom etib, shu bilan birga hamma vaqt jamiyat va jamoatchilik tomonidan e’tiborga loyiq e’zozlab kelingan kasbdir. O‘tkir Hoshimov o‘zining “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asarida o‘qituvchining jamiyatdagi o‘rniga baho berib, quyidagi fikrlarni alohida ta’kidlab o‘tadi: Dehqon nopob urug‘ sepsa, achchiq “hosili”ni bir o‘zi “o‘rib oladi”. O‘sha yili o‘qituvchi bolaning qalbiga nobop urug‘ sepsa, achchiq “hosili”ni butun jamiyat o‘rib oladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa qilishimiz mumkinki, jamiyatimizda o‘qituvchi kasbining mavqeini yanada oshirish, ustozlik kasbiga nisbatan ijobiy qarashni shakllantirish kerak. Ta’lim-tarbiya ishlarini zamon talablari asosida tashkil etish, unga ilg‘or innovatsion g‘oyalarni olib kirish, yoshlarning iste’dodlarini namoyon etishlari uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratib berish bilan birga soha rivojiga salbiy ta’sir etishi mumkin bo‘lgan va zamonaviy ta’limning oyog‘iga tushov bo‘lib turgan illatlar: poraxo‘rlik, tamagirlikning oldini olish, har ishda halol va vijdonan yo‘l tutish, ta’lim muassasalarini haqiqiy ma’nodagi ma’rifat va halollik maskaniga aylantirishdir. Masalan, endi rahbar va pedagog xodimlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda ilg‘or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizm tatbiq etiladi. Ta’lim muassasalarida ota-onalar bilan shaffof muloqot muhiti yaratish, o‘qituvchi imijini yuksaltirish, tizimdagi markazlashgan boshqaruv usulidan voz kechish, adolatli va sifatli ish mexanizmini yo‘lga qo‘yish lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.: Har bir islohotda o‘qituvchilar ko‘z oldimda bo‘ladi (president.uz) https://president.uz/oz/lists/view/5951

2. “O‘qituvchining obro‘si oshsa, maktabning obro‘si oshadi, ilmning, ta’lim-tarbiyaning qadri ko‘tariladi” — Shavkat Mirziyoyev — Uzbekistan News | DARYO.UZ.

3. “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonuni // Xalq ta’limi. – T., 2024. – 2 fevral. – B. 1-2.

DILFUZA MAHKAMOVA,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi mutaxassisi,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

EHTIYOJMAND TOIFALARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH – IJTIMOIY DAVLATNING MUHIM VAZIFASI SIFATIDA

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-iyunda konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda Konstitutsiyamizda “O‘zbekiston – ijtimoiy davlat” degan tamoyilni mustahkamlash g‘oyasini ilgari surgan edi. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida bu g‘oya yanada mustahkamlanib, ijtimoiy davlatni barpo etishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi. Davlatimiz rahbari bu xususda to‘xtalib, “Biz Yangi O‘zbekistonni “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida qurishni maqsad qilyapmiz. Buni Konstitutsiyada mustahkamlashimiz kerak”, deya ta'kidladi.

Ijtimoiy davlat mohiyati qanday? Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “ijtimoiy davlat” tushunchasi ilk bor 1850-yilda Lorens fon Shteyn tomonidan qo‘llanilgan. U davlatning vazifasi ijtimoiy tenglik va shaxsiy erkinlikni o‘rnatish, quyi va kam ta'minlangan tabaqalarni boylar va qudratlilar darajasiga ko‘tarishdan iborat, deb hisoblagan.

Milliy davlatchiligimiz tarixini o‘rganganimizda ham “ijtimoiy davlat” tushunchasi shunga o‘xshash nomlarda ko‘plab uchrashiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, IX-X asrlarda yashab ijod qilgan Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida fozil shahar haqida bildirilgan fikrlar aynan “ijtimoiy davlat” tamoyilining mazmun-mohiyati hisoblanadi. Shunga o‘xshash fikrlarni Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Ahmad Donish kabi buyuk ajdodlarimiz asarlarida ham uchratish mumkin.

Prezidentimiz ushbu tushunchani izohlar ekan, “Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, demakdir”, deya ta'rif bergan edi. Nazarimizda, buyuk bobolarimiz orzu qilgan va o‘z asarlarida keltirgan “fozil shahar” ham aynan shu “ijtimoiy davlat”dir. [1]

Mamlakatimizda keyingi yillarda aholi turmush darajasini yuksaltirish, bandlikni ta'minlash, kafolatlangan sifatli ta'lim, malakali tibbiy yordam, barcha uchun teng imkoniyatlar yaratish, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida ham ana

shunday ezgu maqsad mujassam.

“Ijtimoiy davlat” tushunchasi “Inson qadri” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ushbu g‘oyaning tub negizida, avvalo, inson qadrini ulug‘lash, aholiga xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassam. Ijtimoiy davlat har bir inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitini yaratib beradi. U ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish bo‘yicha samarali siyosat olib boradigan davlat modelidir.

Shuningdek, ijtimoiy davlat muhtojlarga uy-joy, yashash uchun zarur bo‘lgan iste'mol tovarlarining eng kam miqdori belgilab qo‘yilishini nazarda tutadi. Shaxs va uning oilasi munosib hayot kechirishi uchun yetadigan ish haqi, bandlikni ta'minlash, xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, kambag‘allikni qisqartirishni talab qiladi.

O‘zbekiston xalqi ming yilliklar davomida ijtimoiy soha borasida ma'lum tajriba to‘plagan. Ammo bu tarixiy tajribaning ko‘p jihatlari yetarli darajada o‘rganilmagan. Xatto bu borada ilmiy adabiyotlarda ham manbalar kam uchraydi. Ushbu buyuk merosni izchil o‘rganib borib, barcha xalqlarda umuminsoniy qadriyatlar mavjudligini, shu jumladan ijtimoiy munosabatlarning hozirgi zamon iqtisodiyot fanida aholini ijtimoiy himoya qilish nomini olgan jabhasida ham mavjud bo‘lgan muayyan ma'lumotlarni yaqqolroq tasavvur etish mumkin. [2]

Ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand aholini va nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ular uchun to‘siqsiz muhit yaratish va jamiyatga integratsiyasini ta'minlash ijtimoiy davlatning muhim vazifasi hisoblanadi.

Konstitutsiyamizning 57-moddasida:

“Mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidadir.

Davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining turmush sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida to‘laqonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratishga hamda ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarni ko‘radi.

Davlat nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar ob'yektlari va xizmatlaridan to‘laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi, ularning ishga joylashishiga, ta'lim olishiga ko‘maklashadi, ularga zarur bo‘lgan axborotni to‘sqinliksiz olish imkoniyatini ta'minlaydi”, deb belgilangan.

Aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalariga yolg‘iz

keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan fuqarolar, ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklarga chalingan shaxslar hamda yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar kiradi.

Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj hamda ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash va ularga davlat tomonidan kafolatlar tizimi orqali yordam ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgan. Odamlarning farovon va hayotdan rozi bo‘lib turmush kechirishi uchun munosib sharoit yaratish, bandlikni ta’minlash va daromadini oshirish, ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish, turmush sharoiti va sifati jihatidan tabaqalanishga yo‘l qo‘ymaslik kabi masalalarga davlat siyosati darajasida alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ishsizlikdan himoyalanish, kafolatlangan sifatli ta’lim berish, malakali tibbiy yordam ko‘rsatish, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bo‘lgan shaxslarni, migrantlar va ularning oila a’zolarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash davlatimizning doimiy diqqat markazida. Davlat byudjetining asosiy qismi aynan shu kabi masalalarga yo‘naltirilayotgani ham fikrimizning amaliy tasdig‘idir. Alohida ta’kidlash joizki, ijtimoiy yordamga muhtoj bo‘lgan oilalar, ayollar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash uchun respublika miqyosida joriy etilgan “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”, “Mehr daftari” va “mahallabay” ishlash tizimi ham ijtimoiy davlatning mohiyatini va hayotiy ko‘rinishini namoyon etmoqda.

Shuningdek, aholining ehtiyojmand qatlamlarini uy-joy bilan ta’minlash ijtimoiy davlatning muhim vazifalaridan biridir. Ta’kidlash o‘rinliki, so‘nggi olti yilda mamlakatimizda 500 mingga yaqin yangi uy-joy qurilib, foydalanishga topshirildi. Uy-joyga bo‘lgan ehtiyojni qondirish bo‘yicha birinchi marta ayollar va yoshlarga, ehtiyojmand oilalarga subsidiyalar ajratish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Mazkur tizim qonuniy, adolatli va shaffof ishlashi uchun onlayn platformalar ishga tushdi[3].

Nogironligi bor shaxslar uchun qanday imtiyozlar bor? I va II guruh nogironlariga oliy ta’lim muassasalariga abituriyentlarni qabul qilishning umumiy sonidan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qo‘shimcha ravishda ikki foizli kvota ajratilgan.

Xodimlarining soni yigirma kishidan ortiq bo‘lgan korxonalarda, muassasalar va tashkilotlarda mahalliy davlat hokimiyati organlari nogironlarni ishga joylashtirish uchun xodimlar sonining kamida uch foizi miqdorida ish joylarining eng kam sonini belgilaydi va zaxirada saqlaydi.

Ish beruvchi belgilangan minimal ish joylari hisobidan ish joylariga ishga joylashtirish tartibida mahalliy mehnat organi tomonidan yo‘llangan nogironlarni ishga qabul qilishi shart.

I va II guruh nogironlariga mehnatga haq to‘lash kamaytirilmagan

holda ish vaqtining haftasiga o‘ttiz olti soatdan oshmaydigan qisqartirilgan muddati belgilanadi. Shuningdek, o‘ttiz kalendar kundan kam bo‘lmagan muddat bilan yillik uzaytirilgan asosiy ta’til beriladi.

Nogironlarni tungi vaqtdagi ishlarga, shuningdek ish vaqtidan tashqari ishlarga va dam olish kunlaridagi ishlarga jalb qilishga ularning roziligi bilangina, basharti ular uchun bunday ishlar tibbiy tavsiyalarda taqiqlanmagan bo‘lsa, yo‘l qo‘yiladi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar protez-ortopediya buyumlari, reabilitatsiya texnik vositalari va kreslo-aravachalar bilan bepul ta’minlanish huquqiga ega bo‘lgan imtiyozli shaxslar ro‘yxatiga kiritilgan.

Muhtoj nogironlar reabilitatsiya texnik vositalarini o‘z mablag‘lari hisobiga sotib olgan taqdirda, ularga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kompensatsiya to‘lanadi.

I va II guruh nogironlari uy-joy olinishida imtiyozlarga ega.

2024 yil 1 maydan boshlab reyestrga kiritilgan yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga har oylik uy-joy kommunal xizmatlar haqini to‘lash bo‘yicha kompensatsiya hamda oziq-ovqat mahsulotlari va shaxsiy gigiyena tovarlari uchun har oyda qo‘shimcha pul to‘lovlari o‘rniga yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun har oyda minimal iste’mol xarajatlari miqdorida moddiy yordam to‘lanadi.

Shu yil 1 apreldan reyestrga kiritilgan yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga va ularga bevosita hamrohlik qiluvchi 1 nafar shaxsga bir yilda bir marta temir yo‘l yoki shaharlararo avtobus uchun bepul chiptalar (borish va qaytish uchun) ajratilmoqda. 1 maydan reyestrga kiritilgan yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga har oylik uy-joy kommunal xizmatlar haqini to‘lash bo‘yicha kompensatsiya hamda oziq-ovqat mahsulotlariva shaxsiy gigiyena tovarlari uchun har oyda qo‘shimcha pul to‘lovlari o‘rniga yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun har oyda minimal iste’mol xarajatlari miqdorida moddiy yordam joriy etildi.

O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish, mustaqil harakatlanish va mo‘ljal olish imkoniyati cheklangan yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga ijtimoiy xodimlar assistentlarining “soatbay” asosda haftaning barcha kunlari xizmat ko‘rsatishi uchun moslashuvchan ish tartibi joriy etildi.

Isitish mavsumida (noyabr — fevral oylarida) ehtiyojmand oilalarga quyidagi kompensatsiya turlari taqdim etiladi:

a) Ijtimoiy himoya milliy agentligi AT “Xalq banki” bilan birgalikda noyabr oyida 270 ming so‘m miqdorida bir martalik moddiy yordam o‘tkazib beradi;

b) elektr energiyasi va tabiiy gaz bo‘yicha quyidagi miqdorlardagi iste’mol uchun bazaviy me’yor doirasidagi hamda bazaviy me’yordan

oshgan narxlar o‘rtasidagi farq kompensatsiya qilib beriladi:

tabiiy gaz uchun – oyiga bazaviy me’yordan ortiq foydalanilgan 250 kub metrgacha;

elektr energiyasi uchun — oyiga bazaviy me’yordan ortiq foydalanilgan 150 kVt soatgacha. [4]

YUNISEF ma’lumotiga ko‘ra, bugungi kunda jahonda 140 milliondan ortiq yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar mavjud [5].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 avgustdagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorida yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni uy-joy bilan ta’minlash tartibi belgilangan.

Yetim bola – otasi ham, onasi ham vafot etgan yoki ular sud qaroriga asosan vafot etgan deb e’lon qilingan bola.

Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bola — har qanday sababga ko‘ra ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bola, yetim bola bundan mustasno.

Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uy-joyga muhtoj yetim bolalar ro‘yxatida turganida yoki biriktirilgan uy-joyga ega bo‘lganida, yetim bolaning **yoshi 23 yoshdan katta bo‘lmagan** davrda, ta’lim muassasalarida, ijtimoiy uylarida, farzandlikka olgan oilalarda, vasiy (homiy) qaramog‘ida bo‘lgan to‘liq davrda, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi **Qurolli Kuchlarida xizmatni o‘tash** davrida yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish muassasalarida bo‘lgan davrida meros bo‘yicha hamda davlat tomonidan beriladigan uy-joy olishga va uni saqlab qolishga bo‘lgan **huquqini saqlab qoladi.**

O‘zlariga biriktirilgan turar joyga ega bo‘lmagan va turar joyga muhtojlar sifatida hisobda turgan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga ular **18 yoshga to‘lgan yilda** ko‘p kvartirali uy-joylardan umumiy maydoni 25 kvadrat metrdan kam bo‘lmagan **1 xonali**, voyaga yetgan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar o‘rtasida nikoh tuzilgan hollarda, **50 kvadrat metrdan kam bo‘lmagan** 2 xonali kvartiralar ajratiladi.

Uy-joy bilan ta’minlash jarayonida quyidagilar taqiqlanadi:

bitta ko‘p kvartirali uy-joyning har bir kirish yo‘lagidagi kvartiralarda bir nafardan ortiq yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish;

2 va undan ortiq yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun ko‘p kvartirali uy-joydan bitta kvartira ajratish

(ular o‘rtasida nikoh tuzilgan hollar mustasno);

yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun alohida ko‘p qavatli uy-joylar qurish va bu yerda ularning **barchasini joylashtirish;**

yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun yotoqxonalardan uy-joylar ajratish (xarid qilish).

Ta’kidlash joiz, yurtimizda so‘nggi uch yilda yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida o‘ndan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Bu ezgu sa’y-harakatlar ushbu soha davlatimiz tomonidan doimiy e’tiborda ekanligidan dalolat beradi. Mazkur hujjatlar va ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida tarbiya muassasalari va ularda tarbiyalanayotgan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar soni sezilarli darajada kamayishiga erishilmoqda. Eng muhimi, mamlakatimizda ushbu yo‘nalishda yangi tizim joriy qilindiki, bu mehribonlik uylaridagi bolalarni oilaga yaqin muhitda tarbiyalash, bilim va ma’naviyatli, vatanparvar insonlar etib voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi

Umuman olganda, mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar “Inson qadri uchun” tamoyili asosida aholi turmush darajasini yaxshilash, ularning farovon hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan barcha shart-sharoit hamda qulayliklarni yaratishga qaratilgan. Ijtimoiy ehtiyojmand aholi va nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishlariga yordam berish, hayotidan roziligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Baratov R.O‘., Ramatov J.S. “Ijtimoiy davlatning konseptual asoslari” “Yangi O‘zbekiston huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy davlat sifatida rivojlanishining ijtimoiy, falsafiy, iqtisodiy va siyosiy masalalari”. 4. (21) May 2024.

2. Xoshimov P.Z., Abdullayeva Sh.Ye. “Aholini ijtimoiy himoya qilishning nazariy asoslari” Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansы № 9, 2012.

3. *Joldasova Sh. “*O‘zbekiston – ijtimoiy davlat.” https://www.uzbekistan.org.ua/uz

4. https://lex.uz/docs/6884060

5. https://www.unicef.org/media/media_45279.html

NIGORA XUSANOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti.
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi
huzuridagi IMTI ilmiy xodimi

https://orcid.org/0009-0007-0313-1355

RAQAMLASHGAN DUNYODA FARZAND TARBIYASI

Farzandlarimizning qalbi va ongini yovuz xavf-xatarlardan himoya qilish eng dolzarb vazifamizdir... Agar biz ta’lim-tarbiya, madaniyat va ma’naviyat sohasidagi ishlarimizni aniq tizim asosida tashkil etib, ularning samaradorligini oshirmasak, ertangi kunimizni qurolmaymiz, o‘z maqsadlarga yetolmaymiz... Biz yoshlarimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etishimiz zarur.

Sh.M.Mirziyoyev

Inson aql idroki rivojlanishi va ilm fandagi ulkan yutuqlar jamiyat rivoji bilan birgalikda uning tabiiy va biologik xususiyatiga sezilarli ta’sir etayotgani bugungi odamlarning yuz tuzilishidan tortib, dunyo qarashlarida ham sezilarli darajada o‘zgarganini ko‘rishimiz mumkin. XXI asr bolalari bundan 10-15 yillar avval “kompyuter texnologiyalari” asri bolalari, so‘ngra “raqamli texnologiyalar” va “nano texnologiyalari” asri bolalari degan so‘zlar bilan almashib ulgurmasdan “sun’iy intellekt” bolalari atamasi kirib kelib ulgurishi katta avlod va yetishib kelayotgan avlod vakillari o‘rtasida farqni keskin oshirib yubormoqda.

Go‘dakligidan internet va portativ raqamli texnologiyalar og‘ushida voyaga yetayotgan bolalar hech qanday raqamli savodxonlikka oid bilimga ega bo‘lmasdan turib, gadjet va smartfonlarlarning barcha funksiyalaridan mustaqil foydalanish qobiliyatiga ega. “Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati” kitobida avlod tushunchasiga quyidagicha ta’rif beriladi: “avlod – tor ma’noda alohida bir shaxs, oila yoki sulolaning davomchisi bo‘lgan farzandlar va ularning zurriyotlari, keng ma’noda esa millat, xalq, sivilizatsiya rivojining muayyan bosqichida yagona g‘oya maqsad va vazifalar bilan maydonga chiqadigan, taraqqiyot jarayonida uzviylik va davomiylikni ta’minlab, o‘z davri qiyofasini belgilab beradigan, ijtimoiy hodisa darajasigacha ko‘tariladigan kishilar”.

Davlatimiz rahbari “avlod” xususida so‘z yuritganda: “Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq” – degan fikrlarni ilgari suradi. Haqiqatdan ham insoniyat tarixida ilk bor mutaxassislarning ma’lumotlariga yer yuzida istiqomat qiluvchi kishilarning katta qismini tashkil qiluvchi yosh avloddan tashkil topgan davrda hayot kechirmoqdamiz. Shunday ekan, inson qalbi va ongi uchun kurash jarayonida yot kuchlarning quroliga aylanishi mumkin bo‘lgan yoshlar bilan muosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish uchun har bir avlod xususiyatini alohida o‘rganish talab etiladi.

“Avlodlar” xususida so‘z borar ekan, bu tushunchaning birinchi ma’nosi – umumiy ajdodlaridan qarindoshlik, munosabatlari bilan bir xilda uzoqlashgan kishilar guruhi bo‘lsa, ikkinchi ma’nosi esa – ma’lum davr kishilari, ya’ni ma’lum bir tarixiy davrda tug‘ilgan bir guruh odamlar majmuasi sifatida izohlaymiz.

Bugungi raqamlashgan dunyoda yashovchi avlodlar “Z-zed” va “Alfa” avlod bolalari deb atalishi postmodernizm va globallashuv davrida tug‘ilgan odamlar toifasidir. Aytishimiz mumkinki, ular qo‘llarida smartfon yoki planshet bilan tug‘ilgan bolalardir. Shubhasiz, siz o‘zingiz farzandlaringiz yoki do‘stlaringiz bilan bir necha bor payqagansiz, bola hali o‘qish yoki gapirishni bilmaydi, lekin u planshet yoki kompyuterni qanday yoqishni biladi. Boshqacha qilib aytganda, zoomerlarni tarbiyalashda nafaqat ota-onalar, balki YouTube, Tiktok, Instagram va zamonaviy texnologlar bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa ko‘plab bloggerlar ham ishtirok etadilar. Ularning hovlida do‘stlar bilan bolalik xotiralari yo‘q. Shuning uchun ular jamoada ishlash tajribasiga ega emaslar.

Bugun ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk har tomonlama sog‘lom shaxsni shakllantirish, jahon standartlariga javob bera oladigan raqobatdosh milliy kadrlar korpusini yetishtirib berish ota-onalar hamda ustoz murabbiylar oldida turgan eng muhim vazifa hisoblanadi. Albatta bu ta’lim va tarbiyasiz amalga oshmaydi. Qadimdan o‘zbek xalqi bolani tarbiyalashda uning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga alohida yondashgani qaysiki adabiyot yoki asarni qo‘lga olishimizdan qat’iy nazar insonning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga doir fikr mulohazalarga alohida to‘xtalib o‘tishgan.

Tarbiya har qanday jamiyat yoki mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning umuman, jamiyat a’zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug‘ullanmagan mamlakat turg‘unlik va inqirozga yuz tutadi. Negaki, o‘sishi va rivojlanishi uchun har qanday

jamiyatda ham moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish to‘xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma’naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma’naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko‘rsatadigan tarbiyaviy intizomlar tizimiga ega bo‘lishi lozim.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, tarbiya deganda biz aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayonga aytiladi.

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon bo‘lib, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar yig‘indisi. Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki, odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o‘tadi. Shu bois bolaga yoshligidan tarbiya berish uchun tarbiyaning turlarini bilib olish lozim.

Tarbiya turlariga quyidagi turlarga ajratib o‘rganish mumkin:

Jismoniy tarbiya,
Axloqiy tarbiya,
Aqliy tarbiya,
Mehnat tarbiyasi,
Huquqiy tarbiya,
Estetik tarbiya,
Ekologik tarbiya,
Diniy tarbiya
Media tarbiya kabi turlarga bo‘lib o‘rganamiz.

Jismoniy tarbiya – bolalarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat va Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanib, ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Bu tarbiya turi xususida yoshlarni sog‘lom bo‘lib voyaga yetishlarini ta’minlash masalasi o‘zbek xalq ma’naviy merosi, og‘zaki ijodi hamda mutafakkirlar asarlarining bosh g‘oyalaridan biri bo‘lib kelgan.

Jismoniy tarbiya o‘quvchilarda quyidagilarni shakllantirishga yordam

beradi:

inson a’zolarining funksional kamoloti ya’ni ichki a’zolar, asab va harakat, suyak-muskul tizimi, tana uyg‘unligi va ularning funksional faoliyatini boshqarish layoqatiga egaligini ta’minlash;

bolani sog‘ligini mustahkamlash;

ularni gigiena qoidalariga amal qilishga ko‘niktirish;

bolani epchil va mohirligini har tomonlama o‘stirish;

o‘quvchilarning jinsiy jihatdan to‘g‘ri kamolga yetishlari uchun sharoit yaratish;

o‘quvchilarda mustahkam iroda, qat’iy xarakter, intizomga so‘zsiz amal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish kabi masalalarni hal etadi.

Axloqiy tarbiya – muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini bolalar ongiga singdirish, ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko‘nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan tarbiyaviy jarayon bo‘lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi.

Bolada axloqiy tarbiyani shakllantirib borish quyidagi vazifalardan iborat:

1. Bolani odob-axloq qoidalari va ijtimoiy axloq me’yorlari bilan tanishtirish;

2. Bolada ma’naviy-axloqiy ongni shakllantirish;

3. O‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy his-tuyg‘ularini tarbiyalash va rivojlantirish;

4. Bolalarda ma’naviy-axloqiy sifat (ota-onani, kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzat ko‘rsatish, mehnatsevarlik, bilim olishga intilish, kamtarlik, halollik, rostgo‘ylik, oliyjanoblik, muruvvatlilik, rahmdillik, moddiy va ma’naviy ne’matlarni asrash, kelajakka ishonch bilan qarash va h.k.)larni tarbiyalash;

5. Bolada ma’naviy-axloqiy xulq-atvor ko‘nikma va odatlarini tarkib toptirish kabi qator vazifalarni amalga oshirishda yordam beradi.

Aqliy tarbiya – shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risidagi bilimlarnii berish, uning aqliy bilish qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat bo‘lib, uni samarali yo‘lga qo‘yish asosida dunyoqarash shakllantirishga xizmat qiladi.

Aqliy tarbiya jarayonida quyidgi **vazifalar** hal etiladi:

tarbiyalanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish;

ularda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish;

mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish;

bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg‘usini shakllantirish;

atrofdagi voqea hodislarga shaxsiy munosabatini shakllantirish;

tanqidiy mushohada yuritishni o‘rgatish;

bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur yuritish, o‘z fikrini asoslash, mavjud ma’lumotlarni umumlashtirish kabi vazifalarni hal etishga yordam beradi.

Huquqiy tarbiya – shaxs tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, unda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Huquqiy tarbiyani tashkil etish davrida bolalar faoliyati mazmunini tahlil etish, ularda o‘z faoliyatlariga nisbatan tanqidiy yondoshuvni qaror toptirish, shuningdek, o‘z faoliyatlarini real baholashga o‘rgatib borish talab etiladi.

Bu tarbiya jarayoni quyidagi vazifaarni amalga oshirishda ko‘mak beradi:

bolaga huquqiy me’yorlar, qonunlar, ijtimoiy-huquqiy munosabatlar, ularning ijtimoiy ahamiyati to‘g‘risida ma’lumotlar berish;

bolada huquqiy bilimlarni egallashga bo‘lgan ehtiyoj va huquqiy ongni qaror toptirishga erishish;

bolalarda huquqiy faoliyat ko‘nikma va malakalarni hosil qilish;

huquqiy madaniyat ko‘rinishlari (huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy tafakkur, huquqiy savodxonlik, huquqiy mas’ullik, huquqiy faollik, huquqiy e’tiqod va huquqiy salohiyat) va huquqiy madaniyat elementlari (huquqiy me’yor, qonunlarning ijtimoiy ahamiyatini to‘g‘ri baholash ijtimoiy harakat va harakatsizlikning qonuniy bo‘lishiga erishish;

davlat Konstitutsiyasi va ramzlarini, fuqarolik huquq va burchlarini hurmat qilish, yuridik xizmatlardan foydalanish kabi ishlarni qanday amalga oshirish to‘g‘risida bilim beradi.

Ekologik tarbiya – (grekcha “oikos” – turar joy, makon, “logos” – fan) o‘quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon. **Ekologik tarbiya bolalar dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi bo‘lib, “Ekologiya”** tushunchasi ilk bor nemis olimi E.Gekkel tomonidan qo‘llanilgan. Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning

muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ekologik ta’lim esa bolaga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo‘naltirilgan. Bunda bolalar:

Ekologik ong tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongdagi ifodasi bo‘lib, u murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida namoyon bo‘lishini;

Ekologik madaniyat bolani ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilishga o‘rgatish;

Ekologik faoliyat ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar davrida faolligini oshirishga asosiy e’tibor qaratiladi.

Ekologik tarbiya o‘z oldiga quyidagi vazifalarni hal etadi:

ona tabiatga bo‘lgan muxabbatni uyg‘otish;

bolalarni tabiat va atrof-muhit ekologiyasi to‘g‘risidagi tasavvurini boyitish;

ekologiya borasida bilimlar qamrovini oshirish;

bolalarda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash ijtimoiy zaruriyat ekanligi to‘g‘risidagi e’tiqodni shakllantirish;

insoniyat oldida turgan ekologik muammolar kelib chiqishi va bartaraf etish choralarini izlab topish;

yurtimizda suv bilan bog‘liq muammolar xususida yetarlicha bilimlar berib borish;

bolalarda ekologik faoliyat ko‘nikma va malakalarni tarbiyalash hamda ularning tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash jarayonida faol ishtirok etishlariga erishish kabi ustuvor vazifalarni belgilab oladi.

Mehnat tarbiyasi – bolalarda mehnat qilishga bo‘lgan ongli munosabatni shakllantirishga qaratiladi. Mazkur maqsadga erishish yo‘lida quyidagi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq:

- yosh avlodda mehnat qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash;

- bolalarda umumjamiyat manfaati yo‘lida mehnat qilish ehtiyojini hosil qilish;

- bolada mexnat qilish orqali aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;

- mavjud bilimlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;

- bolada mehnat ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish;

- bolalar faoliyatida yuqori madaniyat, maqsadga intilish, tash-kilotchilik, mehnat intizomi, tadbirkorlik, tejamkorlik, ishni sifatli

bajarish, moddiy boyliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, hayotiy faoliyat yo‘nalishini belgilash malakalarini shakllantirish;

- kasb-hunar egallashga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish va yo‘naltirish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Estetik tarbiya (lotincha “estezio” “go‘zallikni his qilaman”) o‘quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go‘zalliklarini anglash, idrok etish va to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, go‘zallikka muhabbat uyg‘otish, ularning badiiy didini o‘stirish, go‘zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga qaratilgan tarbiyaviy jarayon hisoblanadi. Estetik tarbiyaviy bilimlarni shakllantirish quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi.

bolaga estetik bilimlarni berish;

bolada estetik tushunchalar to‘g‘risida tasavvurlarni hosil qilish;

bolalarda estetik his-tuyg‘u, estetik ong, estetik did va estetik madaniyatni shakllantirish kabi vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Diniy tarbiya – bu ma’lum bir diniy an’anaga muvofiq bolalar va o‘smirlarda diniy e’tiqodlar, qadriyatlar va xulq-atvor normalarini shakllantirish qaratilgan tarbiyaviy jarayon. Diniy tarbiya jarayonida bolalarda diniy bag‘rikenglik kompanentlarini shakllantirish asosiy o‘rinda turadi.

Diniy bilimlarning berib borilishi quyidagi jihatlari muhim hisoblanadi:

bolalarga diniy tarbiya berish jarayonida diniy bag‘rikenglik kompakentini shakllantirish;

bolalarga dunyoviy ilmlarning ahamiyati va zarurligini quroni karim va hadislar yordamida ochib berish va targ‘ib qilish;

diniy tarbiya berish jarayonida islom dinini ilmiy nuqtai nazardan o‘rgatish.

Bolalikdan farzandga diniy ta’limotni singdirish og‘irligini inobatga olib xadislar yordamida odob va muomalaga oid qarashlarni shakllantirish maqsadga muvofiq:

salomlashishni har xil jargonlardan holi ravishda butun mamlakat bo‘yicha bir xil *“Assalomu alaykum”* deyishga odatlantirish;

tartib va intizomni shakllantirish;

ismini to‘liq aytishni odatlantirish;

poklikka o‘rgatish;

o‘zini va yaqinlarini himoya qilishni o‘rgatish;

birovning buyumlarini olish yoki ishlatish uchun ruxsat so‘rashga o‘rgatish;

tengdoshlariga nisbatan insoniylik va hurmat hissini tarbiyalash;

kattalarga (tavoze) hurmat bildirishni o‘rgatish;

ota onani e’zolash;

hadislarda onani e’zozlash borasidagi talqinlarni bolalarga xos tarzda singdirish kabi tarbiyaviy bilimlarni berib borish lozim.

Media tarbiya – Axborot oqimlari ko‘payib borayotgan va texnologiya kundalik hayotda asosiy rol o‘ynaydigan zamonaviy dunyoda media-tarbiya tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Media tarbiya - bu bolalar, o‘smirlar va kattalarda ommaviy axborot vositalarini (masalan, televidenie, Internet, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar) tanqidiy idrok etish, tahlil qilish va ulardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishni oid jarayon hisoblanadi. Media tarbiya axborot makoni imkoniyatlari cheksizligi hamda undan to‘g‘ri foydalanishni bolaga yoshligidan ehtiyoji kun sayin ortib bormoqda.

Media tarbiya maqsadi odamlarni axborot iste’moliga ongli yondashish, faktlarni fikrlardan farqlash, media xabarlarni tanqidiy baholash, raqamli texnologiyalardan xavfsiz va samarali foydalanishga o‘rgatishdan iborat.

Bugun media tarbiyani rivojlantirish bolada quyidagi shakllantirishda yordam beradi:

OAV xabarlarini tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Bu bolaga nisbatan sodir etilishi mumkin bo‘lgan manipulyatsiya va noto‘g‘ri ma’lumotlardan qochishga yordam beradi;

ommaviy axborot vositalaridan foydalanish madaniyatini rivojlantirish;

bolalar tomonidan yosh toifasidan kelib chiqqan holda kontent yaratish borasidagi bilimlar;

ijtimoiy tarmoqlar orqali olinadigan xabar yoki axborotdan foydalanish, tarqatish, saqlash kabi jarayonlar bilan bog‘liq axloqiy-huquqiy jihatlari to‘g‘risida me’yorlar va qoidalarni tushunish;

axborotni topish, qayta ishlash va yaratish uchun turli raqamli vositalar va resurslardan foydalanishni o‘rganish bo‘yicha ko‘nikmaga ega bo‘lish;

internet va ijtimoiy tarmoqdagi xatti-harakatlarining oqibatlari, shu jumladan maxfiylik va ma’lumotlar xavfsizligi masalalari haqida tushunchani rivojlantirish.

Media kontentini yaratish va undan foydalanishda ijodkorlikni rag‘batlantirish kabi vazifalarni hal etishga qaratilgan.

Ayni vaqtda, hayotimizni axborot texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Chunki, har bir kunimiz axborot texnologiyalari bilan uzviy holda kechadi. Dunyoda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar,

yangiliklarni albatta biz internet tarmog‘i yoki OAV orqali olamiz. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, internet va axborot texnologiyalari bugungi kunning muhim omillaridan biriga aylandi. Avvalgi bolalar ko‘chaga chiqib o‘ynab yomon kishilarga ta’siriga duchor bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi bolalarning salbiy ta’sirga tushushi uchun ko‘chaga chiqishi shart emas. Unga qo‘lidagi gadjet va smartfonlarning o‘zi yetarli. Endi bolalar tarbiyasi qo‘lidagi kichik buyum orqali o‘zlashtirgan xabar yoki ma’lumotiga bog‘liq bo‘lib qoldi.

Jahonda “axborot urushi” ketayotganini hatto oddiy odamlar ham payqashi qiyin emas. Masalan, biron bir xorijiy mamlakatning turmush tarzi, qadriyatlar tizimini ulug‘lovchi risolalar, kinofilmlar tarqatilmoqda deylik. Tabiiyki, bunday axborotlar bolada ma’lum ijtimoiy fikr shakllanishiga ta’sir etmasdan qo‘ymaydi. Balki, axborotlashuv va globallashuv jarayonlari orqali, faqat moddiy manfaat va ehtiyojlarini qondirishga intiladigan, milliy qiyofasini qariyib yo‘qotgan, o‘z maqsadi yo‘lida har qanday g‘oyani qo‘llashga tayyor “Manqurt” kishilarni ham vujudga keltiradi. Bunday salbiy holat mamlakatimiz aholisi, ayniqsa, yoshlarimizga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, bola tarbiyasiga ta’sir etuvchi omillarni ikki turga ajratishimiz mumkin. Bular tashqi va ichki omillarga bo‘linadi. Tashqi omil deb bola xavfsizligi uchun unga nisbatan tashqaridan vujudga keladigan xavfga aytiladi. Tashqi xavflar o‘zini quyidagilarda namoyon qiladi: jismoniy holatiga ta’sir, ma’naviy dunyoqarashiga ta’sir, ruhiy-psixologik holatiga ta’sir, bola hayoti va sog‘ligiga ta’sir, axloqiy tarbiyasiga ta’siri kabilar.

Bola tarbiyasiga tashqi ta’sir etuvchi omil sifatida:

OAV vositalari;

ijtimoiy tarmoqlar;

internet tarmoqlar;

o‘yinchoq va qo‘g‘irchoqlar (*bolalarga turli g‘oya va mafkuralarni singdirish uchun ishlab chiqarilgan qo‘g‘irchoq va o‘yinchoqlar.*);

gadjetlar va smartfonlar ortidan bola salomatligiga ta’sir etuvchi zararlar;

notanish kishilar tomonidan bola sog‘ligi va hayotiga yetkazilishi mumkin bo‘lgan xavflarga aytiladi.

Bola tarbiyasiga ta’sir etuvchi ichki omillarga farzand dunyoga kelgan va voyaga yetishida makon sifatida xizmat qiluvchi oiladagi muhitning nosog‘lomligi ta’sirlarga aytiladi. Bola tarbiyasiga asosan quyidagi ichki omillar ta’sir etadi:

oiladagi muhitning nosog‘lomligi;

to‘liqsiz oila – bola tarbiyasida ota yoki onaning vazifasini bajaruvchi

shaxsning yo‘qligi kabi omillar.

Borgan sari bolalarning raqamli texnologiyalarga ruju qo‘yib borishi ularning real hayotdan uzilishi odatiy bolalar kabi ko‘chada to‘p surib, quvlashmachoq o‘ynovchi bolalarni ham shovqin suroni quloqqa kam chalinmoqda. Ularning asosiy vaqtini sarflovchi gadjetlar ular uchun oilada, jamiyat a’zolari o‘rtasida o‘zini qanday tutish, muloqotga kirishini ko‘rsatuvchi o‘rnak makoniga aylanib bormoqda. Bola o‘zini kundalik hayotda, tengdoshlari davrasida, oilaviy munosabatlarda, ota-ona farzand munosabatlarini qanday tashkil etishdagi ma’lumot va axborotlarni o‘zida o‘rnak sifatida o‘zlashtirib oluvchi makon hisoblanadi.

Shunday ekan bolani tarbiyasida muhim ro‘l o‘ynovchi har qanday salbiy ta’sir etuvchi omillarni bartaraf etishda uni paydo qiluvchi ildizlarini aniqlash va oldini olish choralarini ko‘rish jamiyatning ertangi egalari bo‘lmish avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023.

2. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Учинчи нашр. – Тошкент: Ўзбекистон, 2022. – 464 б.

3. Назаров Қ. ва б. Маънавият асосий тушунчалар луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти” нашриёти, 2021. – 816 б.

4. Қодиров А., Куронов М. Фазилатли авлод. Узлуксиз маънавий тарбия трилогияси. III қисм. – Тошкент: Муҳаррир, 2019. – 256 б.

5. Ijtimoiy tarmoqlarning 6 ta ilmiy asoslantirilgan xavfli jihati. https://daryo.uz/2017/07/06/ijtimoiy-tarmoqlarning-6-ta-ilmiy-asoslantirilgan-xavfli-jihati

6. Ijtimoiy tarmoqlarning foydalari. https://sinaps.uz/maqola/7705/

7. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya. – Toshkent: “Movaraunnahr”, 2016.

MAFTUNA RAJABOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
tayanch doktoranti

O‘ZBEKISTON IJTIMOIY-SIYOSIY TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIKNI TA’MINLASH MASALALARI

Tarixda qayd etilishicha, xalqaro munosabatlar qadim tarixdan insoniyat ijtimoiy, madaniy va ma’naviy rivojining muhim omili sifatida shakllanib kelgan. Haqiqatdan ham, har bir mamlakat taraqqiyoti unda barqaror, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik va yaxshi qo‘shnichilik muhitining saqlanishiga uzviy bog‘liq. Shu bois, O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni mustahkamlash, barcha fuqarolarga millati va dinidan qat’iy nazar, teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida diqqat markazida bo‘lib kelmoqda.

Bugungi shiddat bilan o‘zgarib, yangilanib borayotgan dunyoda o‘zaro mehr-oqibat, ishonch va hamdardlikka asoslangan bag‘rikenglik omilining o‘rni va roli nihoyatda kattadir. Tolerantlik jamiyat va davlat hayotining ajralmas bir qismi bo‘lib, inson va uning taraqqiyoti tarixida muhim rol o‘ynaydi.

Bag‘rikenglik – bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o‘zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to‘g‘ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hur fikr, vijdon va e’tiqod vujudga keltiradi[1].

Tolerantlik – turli-tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma’naviy burchgina emas, balki, siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Bag‘rikenglik – tinchlikka erishishni musharraf qilguvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga elituvchidir. Tolerantlik – yon berish, andisha yoki xushomad emas. Tolerantlik – eng avvalo insonning universal huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabatdir. Har qanday vaziyatda ham tolerantlik ana shu asosiy qadriyatlarga

tajovuzlarning bahonasi bo‘lib xizmat qilmaydi. Bag‘rikenglikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim[1].

So‘z mulkining sultoni, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o‘zining asarlarida bag‘rikenglik va tinchlik g‘oyalarini ilgari surgan. Insonlararo munosabatlarda shunday narsalar borki, Navoiy fikricha ularning ta’siri jamiyat rivojiga, insoniy qadr, ezgulik va mehr-shafqat jamiyat ma’naviy hayotining asosini tashkil etishiga jiddiy to‘sqinlik qilib keladi. Navoiy bag‘rikenglik xususida quyidagi mashhur fikrni bildirib o‘tadi: “Jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish darkor”. Bu yerda ma’rifat sifatida tolerantlik, ya’ni bag‘rikenglik har qanday jaholatga ma’rifat, tinchlik yo‘li bilan qarshilik ko‘rsatish, bu esa qurol kuchidan ancha xavfsiz va samarali yo‘l ekanligi nazarda tutilgan[3].

Davlat yo‘naltiruvchi, boshqaruvchi, aholini umumiy maqsadlar atrofida birlashtiruvchi va taraqqiyotga safarbar etuvchi qudratli mexanizm. Ayni paytda davlat uning yetakchisi timsolida o‘zining fenomenal jihatlarini, siyosiy maqsad va konsepsiyalarini namoyon etadi. Boshqacha qilib aytganda, davlat rahbarining inson, shaxs va siyosiy yetakchi sifatidagi fe’l-atvori, qarashlari, ish uslubi, boshqaruvchilik salohiyati davlatning butun mohiyatini belgilaydi.

Yangi O‘zbekiston davlati – bu hozirgi zamon sivilizatsiyasining o‘ziga xos hodisasi. Jahon davlatchiligi ilg‘or tajribalari bilan bir necha ming yillik milliy davlatchiligimiz an’analari sintezlashgan, butunlay yangi tipdagi davlat. Davlat, ayni uning yetakchisi orqali mavhum tushunchadan real voqelikka, jonli organizmga aylandi, oliy maqsadlar va ezgu intilishlar oqimida o‘z qiyofasini namoyon etadi. Ana shunda uning ham qalbi, sevinch va iztiroblari mavjudligini ko‘rishingiz mumkin. Demak, davlat va uning rahbari yagona organizm[4].

Yangi O‘zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan obyektiv zaruratdir.

Yangi O‘zbekiston orzusi, bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirgi davrning taqozosi, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g‘oyaviy-ma’naviy asos, xalqimizga xos buyuk bunyodkorlik hissi bilan yashash va keng ko‘lamli islohotlarimizning yaqqol ifodasidir[8].

O‘zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil amalga oshirilayotgan

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur davlat dasturida O‘zbekistonni har tomonlama taraqqiy ettirish, dunyoning ilg‘or demokratik davlatlari qatoridan joy olishi va jahon maydonida munosib o‘rin egallashi asosiy maqsad etib belgilandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekistonni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan Harakatlar strategiyasini amalga oshirish va mamlakatimizda yangi islohotlarni boshlab berish borasida: “Bizning vazifamiz – to‘plangan tajriba va ilg‘or xalqaro amaliyotga suyangan holda, o‘zimizning taraqqiyot va yangilanish modelini qat’iy amalga oshirishdan iborat”[9], deya ta’kidlagan edi.

Harakatlar strategiyasining beshinchi yo‘nalishi “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar” deb nomlangan bo‘lib, mazkur yo‘nalish 2 ta bandni o‘z ichiga oladi[2].

Mazkur ustuvor yo‘nalish asosida diniy ekstrimizm va missionerlik faoliyatiga qarshi kurashish, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Shuningdek, 2017-yil 19-maydagi PF-5046-son “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 2017-yil 15-noyabrdagi PF-5876-son “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni, 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2018-yil 16-apreldagi PQ-3668-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2018-yil 4-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi din va e’tiqod erkinligini ta’minlash bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” va 2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-son “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari qabul qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 16-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita huzuridagi Konfessiya ishlari bo‘yicha kengashning yangi tarkibi tasdiqlandi. Kengash tarkibi 9 nafardan 17 nafar a’zoga – O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan diniy

konfessiyalar vakillari hisobiga kengaydi[7].

Muhim jihati shundaki, kengash a’zoligiga a’zolari oz sonli diniy tashkilotlarning rahbarlari ham kiritildi. Jamoatchilik maslahatlashuv organi hisoblangan mazkur kengashning asosiy maqsadi O‘zbekistondagi mavjud diniy-ijtimoiy jarayonlarni muhokama qilish va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mamlakatimiz hududida yashayotgan millatlar urf-odati hamda islom dinining madaniy va sivilizatsion merosi, ma’naviy-falsafiy ahamiyatini chuqur o‘rganish bo‘yicha ishlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad – fundamental ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida diniy bag‘rikenglik, millatlararo munosabatlarning tarixiy ildizlarini chuqur o‘rganish hamda uni bugungi kun sharoitida rivojlantirishdan iborat. Bu borada Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy nomidagi xalqaro tadqiqot markazlari tashkil etildi. Shu bilan birga, tegishli oliy ta’lim muassasalarida sifatli diniy ta’lim olish imkoniyati kengaymoqda. O‘rta, oliy diniy ta’lim, magistratura, boshlang‘ich doktorantura va doktoranturani o‘z ichiga olgan diniy ta’limning besh bosqichli tizimi shakllantirildi. Islomiy ta’lim muassasalariga talabalarni qabul qilish kvotasi ikki baravar oshirildi. Shuningdek, Toshkent pravoslav seminariyasi va Toshkent xristian seminariyasi o‘quv dargohlari ham o‘z faoliyatini davom ettirmoqda.

Millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni ta’minlash O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida muhim o‘rin egallay boshladi. Hukumat xalqaro tashkilotlar hamda ushbu sohadagi mutaxassislar bilan konstruktiv muloqot va hamkorlik o‘rnatishga alohida e’tibor qaratmoqda. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari Zeyd Raad Al-Huseyn hamda Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Milliy ozchiliklar bo‘yicha Oliy komissari Lamberto Zaniyerning mamlakatimizga tashrifi chog‘ida mazkur sohada olib borilayotgan islohotlar muhokama qilindi va xalqaro mutaxassislar tomonidan bu boradagi o‘zgarishlarga yuqori baho berildi. E’tiborli jihati, 2017-yilda mustaqil O‘zbekiston tarixida ilk bora mamlakatimizga BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining din va e’tiqod erkinligi bo‘yicha maxsus ma’ruzachisi Ahmad Shahid tashrif buyurdi. Uning tavsiyalari asosida 2018-yil 4-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi din va e’tiqod erkinligini ta’minlash bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.

Umuman olganda, O‘zbekistonning millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash borasidagi faoliyati xalqaro hamjamiyat

tomonidan yuqori baholanmoqda hamda mamlakat tajribasiga katta qiziqish bildirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta’minlash, e’tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikka ko‘maklashishga qaratilgan “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklif etilishi va mazkur hujjatning 2018-yil 12-dekabrda qabul qilinishi buning yorqin misoli bo‘la oladi.

Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik to‘g‘risidagi rezolyutsiyaning BMTga a’zo davlatlar tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi shuni anglatadiki, 51 ta davlat O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan konstruktiv taklif, ya’ni dunyodagi mavjud barcha dinlarga nisbatan ma’naviy bag‘rikenglik madaniyatini kuchaytirishga doir g‘oyani qo‘llab-quvvatladilar. Chunki ushbu rezolyutsiya bag‘rikenglik bilan birga madaniy va diniy bilimlarni kuchaytirish tamoyilini ham olg‘a surgan holda, global tinchlik va farovonlik uchun muhim ustuvor yo‘nalish sifatida xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Mazkur rezolyutsiya nafaqat BMTga a’zo davlatlar tomonidan bir ovozdan qo‘llab-quvvatlangani, balki Shimoliy Amerika va Lotin Amerikasi, Osiyo, Afrika va boshqa qit’alarning 50 dan ziyod mamlakatlari bilan hammualliflikda qabul qilingani e’tiborga molik. Bu xalqaro hamjamiyat tomonidan O‘zbekiston Prezidenti tashabbusining dolzarbligi va o‘z vaqtida ilgari surilgan taklif ekanining yuksak e’tirofidan dalolatdir.

O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglikni ta’minlash bo‘yicha olib borilgan islohotlar doirasida erishilgan muhim natijalardan yana biri sifatida 2018-yilda Amerika Qo‘shma Shtatlari Davlat departamenti O‘zbekistonni diniy erkinlik borasida “alohida tashvish uyg‘otuvchi mamlakatlar” ro‘yxatidan chiqarganini ko‘rsatish mumkin. E’tiborli jihati shundaki, 2020-yil 13-oktabr kuni BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida bo‘lib o‘tgan saylovlarda O‘zbekiston milliy davlatchiligi tarixida birinchi marotaba BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi a’zoligiga uch yil muddatga (2021-2023-yillarga) saylandi.

O‘zbekiston uchun BMTga a’zo 193 ta davlatdan 169 tasi ovoz berdi. Ushbu saylovda eng ko‘p ovoz to‘plagan davlat O‘zbekiston bo‘ldi. Bu ham mamlakatda millati va dinidan qat’iy nazar, inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan, shu jumladan, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik sohasida olib borilayotgan siyosatning e’tirofi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bundan tashqari, xalqaro me’yorlar

asosida qayta ishlangan va 2021-yil 5-iyulda qabul qilingan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi[5] O‘zbekiston Respublikasi qonuni muhim ahamiyatga egadir. Bularning barchasi O‘zbekistonning xalqaro munosabatlarda ishonchli va mas’uliyatli sub’ekt sifatidagi roli mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023-yil birinchi maydan e’tiboran kuchga kirdi. Bunga 2023-yil 30-aprelda bo‘lib o‘tgan referendum natijasiga ko‘ra, 11 ta moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo‘ldi. Bu qonunning birinchi moddasiga Konstitutsiyaning yangi tahriri ilova qilingan. Konstitutsiyaning 1-moddasidagi: O‘zbekiston suveren demokratik Respublika jumlasi quyidagicha o‘zgartirildi: O‘zbekiston boshqaruvning Respublika shakliga ega bo‘lgan suveren demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat [6].

Boshqaruvning respublika shakli davlat hokimiyatining oliy organlari xalq tomonidan muayyan muddatga saylanishini anglatadi. Suveren davlat o‘z hududida to‘la-to‘kis mustaqil hukumronlik va mutlaq yurisdiksiyaga ega bo‘lish demakdir. Demokratiya esa xalq hokimiyatini ifoda etib, davlat boshqaruvida saylanish va o‘z vakillarini saylash orqali teng huquqli ishtiroki yoki ta’minlanishini ko‘zda tutadi. Huquqiy davlatda barcha jarayonlar qonuniy asoslar ustiga quriladi, davlat xizmatchilaridan huquq doirasida fikrlash, barcha masalalarga huquqiy ko‘z bilan qarash talab etiladi. Qolaversa, huquqiy davlatda barcha fuqarolar qonun oldida teng bo‘ladi, davlat hokimiyatining oliy organlari ham qonunlarga bo‘ysunadi va qonunlarning muqarrar ijrosini ta’minlaydi.

O‘zbekiston o‘zini “ijtimoiy davlat” deb e’lon qilishi bilan har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratib berish majburiyatini oldi. Bu mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqalanish avj olishiga yo‘l qo‘ymaslik, eng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta’lim va tibbiyot kafolotlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari ishlashi, imkoniyati cheklangan va yordamga muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligi va jozibador pensiya tizimi kabilarni anglatadi. Dunyoviy davlatda davlat va din bir-biridan ajratilgan bo‘ladi. Davlat diniy e’tiqodidan qati nazar barchaga bir xil munosabatda bo‘ladi. Dinga oid masalalarda neytral pozitsiyani egallaydi.

O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash sohasida ijobiy va o‘zaro hurmatga asoslangan muhitni mustahkamlash borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida millatlararo va dinlararo

munosabatlarning yangi modeli yaratildi. Yangi modelni o‘ziga xosligi shundaki, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikka tahdid soluvchi turli xavflarga, jumladan, axborot ko‘rinishdagi kiberxavflarga qarshi kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Shuningdek, mazkur model turli millat va din vakillari o‘rtasidagi millatlararo va dinlararo muloqot, konstruktiv yondashuv va barcha fuqarolarning qonun oldida tengligiga asoslanadi. Bundan tashqari, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va diniy bag‘rikenglik sohasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar mamlakatda ushbu sohalarda yangicha yondashuv va strategik maqsadni birlashtirgan tizim shakllanishiga xizmat qildi.

Rejalashtirilgan strategik maqsad va vazifalar mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalari bilan ham uyg‘undir. Uning mohiyati shundaki, o‘tgan davrda davlat rahbarining rahnamoligi va tashabbusi bilan jamiyat hayotining turli sohalarida samarali islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar mamlakat iqtisodiy qudratining oshishiga, ijtimoiy barqarorligining mustahkamlanishiga, siyosiy nufuzining oshishiga, ma’naviy makonining yangilanishiga olib keldi. Taraqqiyot strategiyasining xalq turmushi farovonligini oshirish bilan bog‘liq maqsadi ana shu imkoniyatlardan kelib chiqib belgilanmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Declaration of Principles on Tolerance. [Elektron manba]: https://www.oas.org/dil/1995%20Declaration%20of%20Principles%20on%20Tolerance%20UNESCO.pdf.

2. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2017-y. –B. 10-12.

3. I.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: Ma’naviyat, 2008-y. – B. 9-11.

4. N.Jo‘rayev. Yangi O‘zbekiston – umumiy qadriyat // Jamiyat va boshqaruv. –Toshkent: 2023-y. № 3 (101). –B. 10.

5. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuni. [Elektron manba:] https://lex.uz/docs/-5491534.

6. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Elektron manba]: https://constitution.uz/uploads/constitution_oz.pdf.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori. [Elektron manba:] https://lex.uz/ru/docs/-3685963.

8. Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022-y. –B, 3-12.

9. Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi.[Elektron manba:] https://uzbekistan.org.ua/uz/157-siyosat/4194-shavkat-mirziyoyevning-o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-lavozimiga-kirishish-tantanali-marosimiga-bag-ishlangan-oliy-majlis-palatalarining-qo-shma-majlisidagi-nutqi.html.

BERDIMUROD XOLBEKOV,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti ma’sul xodimi

YANGI O‘ZBEKISTON – INSONPARVAR IJTIMOIY DAVLAT

Bugungi kunda mamlakatimizda inson huquqlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar jadal ravishda amalga oshirilib kelinmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilangan O‘zbekiston - ijtimoiy davlat degan qoidaning amaliy hayotimizdagi tasdig‘ini topib bormoqda. Shu o‘rinda, ijtimoiy davlat deganda mamlakat aholisiga turli qulayliklar yaratish, xususan, sifatli ta’lim, malakali tibbiy yordam, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarni uy-joy bilan ta’minlash, xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan dolzarb vazifalar davlatimiz tomotnidan hal etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat sifatida belgilandi. Yangi O‘zbekiston – mustahkam qonunchilik, ijro va sud hokimiyati, fuqarolik jamiyati institutlari samarali faoliyat ko‘rsatadigan “Xalq manfaati hamma narsadan ulug‘” degan ezgu g‘oya amaliy ishlar bilan o‘z tasdig‘ini topayotgan huquqiy, ijtimoiy va adolatli dunyoviy demokratik davlatdir.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohatlar zamirida Konstitutsiya va qonunlarimiz talablarini so‘zsiz bajarish, har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish, inson va uning baxt-saodatiga xizmat qilish, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini ta’minlash hamda xalq manfaatlari haqida g‘amxo‘rlik qilish insonparvarlikning asosiy mezoniga aylanib bormoqda. Shu o‘rinda, “Yangi O‘zbekiston - ijtimoiy davlat” tamoyili konstitutsiyaviy norma sifatida mustahkamlanmoqda. Bu borada mamlakatimizda bolalar mehnatiga yo‘l qo‘ymaslik, nogironligi bor shaxslar va keksa avlod vakillari huquqlarining ishonchli muhofazasini ta’minlash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarini uy-joy bilan ta’minlash, mehnatga

haq to‘lashning eng kam miqdorini belgilash, fuqarolarga tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini davlat hisobidan olishg kabi bir qator masalalari bugungi kunda o‘z yechimini topib bormoqda.

Bugungi kunda zamon shiddat bilan o‘zgarayotgan, odamlarda yangidan-yangi hayotiy ehtiyojlar kuchayib borayotgan bir sharoitda yashayapmiz. Bu o‘z-o‘zidan fuqarolar ongida, tafakkurida, axloqiy qarashlarida o‘ziga xos o‘zgarishlarni olib kelmoqda. Bugun odam va olam, inson, uning mohiyati, qadriyatiy jihatlari haqida gapirishga ehtiyoj tobora oshib bormoqda. Nazarimizda nafaqat bizda, balki butun dunyoda odamlarning qadriyatlardan uzoqlashishi, axloqiy og‘ish, ma’naviy chekinish holatlari yaqqol sezilmoqda. Bunday sharoitda Vatan va millat taqdiri bilan taqdirdoshlik, o‘z istiqbolini Vatan va millat istiqboli bilan bog‘liq holda his qilish muammolari ustida ko‘proq o‘ylashimizni kelishimizni hayotning o‘zi taqozo etmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda xalq bilan bevosita muloqot qilish, uning dardu tashvishlari, muammolarini ijobiy hal etish bo‘yicha, mutlaqo yangi tizim yaratildi. Davlat tashkilotlari ish faoliyatida “mahallaga tushish”, “xalq ichiga kirish, uning “dardiga quloq solish”, “tashvishiga sherik bo‘lish” va “muammolarni joyida hal etish” tamoyillari asosiy mezonga aylandi. Ayniqsa, mamlakatimizda davlat va jamiyat boshqaruvida ochiqlik va adolatga asoslangan, insonlar manfaatiga xizmat qiladigan, xalqparvar qarorlar qabul qilish tizimi shakllantirildi. Eng muhimi, yurtimizda ko‘p yillar davomida amal qilib kelingan “davlat – jamiyat – inson” tamoyili o‘zgartirilib, mamlakatimizda avvalo inson, keyin esa, jamiyat va davlat manfaati barcha harakatlarning negiziga asoslandi. Hayotimizda “Davlat – insonlar uchun” degan xalqchil g‘oya, izchillik bilan qaror topib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda inson, uning haq-huquqlari, qadr-qimmati va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish tamoyili, islohotlarimiz mohiyatini tashkil etmoqda. Shu o‘rinda, Yangi O‘zbekistonning hozirgi rivojlanish bosqichida xalqimizning huquqiy va ma’naviy-mafkuraviy savodxonligini oshirish dolzarb vazifa sifatida alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, bugungi tahlikali zamonda dunyo sahnida yuz berayotgan mafkuraviy jarayonlar bizdan ogoh bo‘lishni, fuqarolarimizning ongi va qalbini zabt etishi mumkin bo‘lgan turli tahdidlardan himoya qilish zaruratini ko‘rsatmoqda. Ma’lumki, har bir xalqning taraqqiyotga erishuvida, avvalo, qonun ustuvorligini ta’minlash va ma’naviy birlashuvi muhim ahamiyat kasb etgan. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining 2023 yil 22 dekabrda

kengaytirilgan majlisida “Bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi kerak, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi shart!”[1] deya ta’kidlagani bejiz emas. Zero, bugungi zamon talabi yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarishni taqoza etmoqda.

Bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo‘lidan borayotgan mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yanada yuksak o‘ringa ko‘tarish dolzarb vazifa sifatida alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki yon-atrofimizda yuz berayotgan hodisalar ma’naviy-mafkuraviy ishlarning ta’sirchanligini oshirish, ma’naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Bugun yurtimizda olib borilayotgan jadal islohotlar ko‘lami, shiddati hamda keng qamrovi bilan dunyo nigohini mamlakatimizga qaratmoqda. Ayniqsa, mamlakatimizda inson qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquqliligini ta’minlash, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun kerakli shart-sharoitlar yaratilgan. Bu esa “Davlat – inson uchun” tamoyilining amaldagi ifodasidir. Zero, inson va uning baxt-saodatiga, xalq manfaatlariga xizmat qilish insonparvarlikning asosiy mezoni sanaladi.

Mamlakatimizda “Inson qadri uchun” degan ezgu tamoyilni to‘la ro‘yobga chiqarish, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini ta’minlash amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyatini tashkil etadi va davlatimiz siyosatida muhim ahamiyatga ega.

Mazkur bosqichda davlatimiz o‘z faoliyatini “inson – jamiyat – davlat” degan ustuvor tamoyil asosida tashkil etadi. Bu esa inson manfaati, uning qadr-qimmati mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi ekanidan dalolat beradi. Aytish o‘rinliki, keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘yicha maqsadli va tizimli islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, ijtimoiy himoya va doimiy yordamga muhtoj shaxslar bilan ishlashning “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”, “mahallabay” va “xonadonbay” kabi yangicha mexanizmlari joriy etildi.

O‘zbekistonning inson huquqlari va diniy erkinlik sohasidagi islohotlari dunyo miqyosida yuksak e’tirofga sazovor bo‘lmoqda. Ayniqsa, mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan Prezident farmonlari asosida 6 mingdan ziyod shaxs jazoni o‘tash joylaridan ozod etildi. Shu bilan birga, jinoiy qilmishidan pushaymon bo‘lib, tuzalish

yo‘liga o‘tgan mahkumlarni afv etish va ularni erkin hayotga qaytarish borasida ham ulkan ishlar bajarilmoqda. Xususan, jinoyat yo‘liga adashib kirib, qilmishiga chin dildan pushaymon bo‘lgan fuqarolarni Yoshlar ittifoqi, mahallalar va xotin-qizlar qo‘mitalarining kafilligi bilan jazodan ozod etish tartibi yo‘lga qo‘yildi.

Xorijdagi mojaroli hududlardan, urush o‘choqlaridan mamlakatimiz fuqarolarini yurtimizga qaytarib olib kelish bo‘yicha “Mehr” operatsiyalari o‘tkazilganini ham ta’kidlash joiz. “Mehr” insonparvarlik tadbirlari doirasida jami 531 nafar fuqarolarimiz Vatanimizga qaytarib olib kelinib, ularga zarur bo‘lgan tibbiy va moddiy yordam ko‘rsatildi. Xulosa qilib aytganda, davlatimizning insonparvar siyosati mohiyatida avvalo xalqni, odamlarni rozi qilish maqsadi mujassam. O‘zbekiston Yangi Konstitutsiyasida O‘zbekiston xalqi, inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat sifatida insonparvar demokratik davlat, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish asosiy vazifa etib belgilagan. Xulosa qilib aytganda Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev: “Hech kim hech qachon unutmasligi kerak: qanchalik qiyin bo‘lmasin, qancha mablag‘ va imkoniyat talab etilmasin, O‘zbekistonning bironta fuqarosi o‘z holiga tashlab qo‘yilmaydi”, degan qat’iy irodasi va prinsipi bugungi kunda o‘zining amaliy ifodasini topmoqda. Zero, Yangi O‘zbekistonning har bir fuqarosi bugungi turmushidan mamnun ekanligi va mamlakatimizni taraqqiy etishida yurtimizda amalga oshirilayotgan insonparvar islohotlarning davomiyligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ma’naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. Yangi O‘zbekiston gazetasi. 2023 yil 23 dekabr, 267-son.

SHIRINBOY O‘SAROV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Maktab menejmenti” kafedrasi erkin tadqiqotchi

YANGI O‘ZBEKISTONDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING MA’NAVIY BARKAMOLLIGIGA QO‘YILADIGAN TALABLARNING AHAMIYATI (KREATIV PEDAGOGIKA SIFATIDA)

Zamonaviy jamiyatda ta’lim va tarbiya sohasidagi islohotlar jadal rivojlanayotgan bir paytda, pedagog kadrlarning ma’naviy barkamolligi va ularga qo‘yiladigan talablar o‘ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va ma’naviy yuksalishi jarayonida pedagoglarning shaxsiy va professional sifatlari ta’limning sifatiga, jamiyatning ma’naviy qiyofasiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Yangi O‘zbekistonning ta’lim tizimida pedagoglar tayyorlashda ma’naviy barkamollikni ta’minlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Ma’naviy barkamollik nafaqat bilim berish, balki shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarda ham o‘z aksini topadi. Ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashish, yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini to‘g‘ri shakllantirish va pedagog kadrlarning bu jarayondagi roli ayni paytdagi eng muhim masalalardan biridir.

Yangi O‘zbekistonda kreativ fikrlaydigan pedagoglarning o‘rni toboro oshib bormoqda. Sababi ular ta’lim berishni yangi bosqichga olib chiqishi mumkin bo‘lgan katta kuchdir. Kreativ pedagog o‘zi qanday bo‘lishi kerak? Kreativ pedagog – bu zamonaviy ta’limdagi innovatsiya va ijodkorlikni o‘zida mujassam etgan o‘qituvchi. Kreativ pedagogning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

kreativ pedagog standart ta’lim usullari bilan cheklanmaydi, balki yangi va samarali usullarni qo‘llashga intiluvchi shaxsdir. U har bir darsni qiziqarli va interaktiv tarzda o‘tkazishga harakat qiladi, o‘quvchilarda yangi g‘oyalarni uyg‘otadi;

kreativ pedagog har qanday muammoga innovatsion yondashuv bilan qaraydi. U o‘quv jarayonida paydo bo‘ladigan qiyinchiliklarga ijobiy va samarali yechimlar topa oladi;

bunday o‘qituvchilar nafaqat o‘zlari tanqidiy fikrlaydilar, balki

o‘quvchilarni ham mustaqil fikrlashga o‘rgatadilar. Ular savol berishga, tanqidiy tahlil qilishga va masalalarga chuqur yondashishga undaydilar;

kreativ pedagog axborot texnologiyalaridan foydalanishda yetakchi hisoblanadi. U zamonaviy vositalarni qo‘llab darslarni yanada qiziqarli va samarali o‘tishiga yordam beradi;

kreativ pedagog o‘quvchilar bilan empatiya asosida muloqot o‘rnata oladi. U bolalarni ruhlantirish, ularga yordam berish va ijobiy muhit yaratishda ilg‘or bo‘ladi;

ularning o‘qitish uslubi turli fanlar va mavzularni uyg‘unlashtirishga qaratilgan bo‘ladi. Bu o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga va fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni yaxshiroq tushunishiga yordam beradi;

kreativ pedagog doimiy ravishda o‘z ustida ishlaydi, yangi bilimlar oladi va o‘z malakasini oshirishga harakat qiladi. U zamonaviy trendlardan xabardor va ularni o‘qitish jarayoniga tatbiq etadi va boshqalar.

Kreativ pedagog yoshlarga nafaqat bilim berish, balki ularning shaxsiy rivojlanishi va ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirish uchun katta ahamiyat kasb etadi [1].

O‘qituvchilarning ma’naviy barkamolligi juda ko‘p o‘lchovli tushuncha bo‘lib, u nafaqat bilim, kompetensiya va kasbiy mahoratini, balki shaxsiy etika, madaniyat va jamiyatdagi faol ishtiroki orqali shakllanadi. Bu ma’naviy barkamollik nafaqat yoshlarga bilim berish jarayonida muhim, balki ularning shaxsiy tarbiyasiga va kelajakda barkamol avlodni tarbiyalashga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, Yangi O‘zbekiston sharoitida bo‘lajak pedagoglar oldiga qo‘yilayotgan talablar faqatgina bilim berishni o‘rgatish bilan cheklanib qolmaydi, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyati, ma’naviy etikasi ham talab qilinadi.

Bugungi kunda fuqarolarimiz ongi va tafakkurida “ma’naviyat”, “ma’naviy tahdid”, “ma’naviy tahdidning oldini olish mexanizmlari”, “ma’naviy yuksalish” tushunchalari, uning ma’no-mazmuni, zaruriyati to‘g‘risida aniq asoslangan tasavvurlar, ilmiy qarashlar shakllanmoqda. Bu masalalar inson va uning kelgusi taraqqiyotini qamrab oladi. Ma’naviyatni tushunish uchun avvalo, insonni tushunish talab etiladi. Insonni ma’naviy yuksalishi taraqqiyotning muhim shartidir. Inson o‘zgarsa, jamiyat o‘zgaradi [2].

Hozirgi globallashuv jarayoni va axborot texnologiyalarining tez sur’atlarda rivojlanishi hamda turli madaniy va ma’naviy tahdidlar shart-sharoitlarida pedagog kadrlar ma’naviy barkamolligiga qo‘yiladigan talablar yanada murakkablashmoqda. Mazkur talablar jahonning rivojlangan mamlakatlari ta’lim tizimlari bilan integratsiyalanish jarayonida o‘ziga xos milliy xususiyatlarni saqlab qolgan holda

shakllantirilishi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bu talablar pedagoglarning milliy qadriyatlarga sodiqligi va jahon miqyosidagi o‘zgarishlarga moslashish qobiliyatini ham qamrab oladi.

Ma’naviy tahdid tushunchasi insonning ruhiy dunyosiga, ongiga va qadriyatlariga ta’sir qiluvchi xavf-xatarlarni anglatadi. Bu tahdidlar insonning ma’naviy yo‘nalishini buzishga qaratilgan bo‘lib, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga qarshi turli tashqi va ichki omillar ta’sir qiladi. Ma’naviy tahdidlar turli ko‘rinishda bo‘lishi mumkin: internet orqali tarqatiladigan buzg‘unchi g‘oyalar, globallashuvning salbiy ta’sirlari, ekstremizm va mafkuraviy buzg‘unchilik kabi xavflar.

Ma’naviy tahdidlarga qarshi samarali kurashish uchun har bir inson, ayniqsa, pedagoglar bu tahdidlarni anglab yetishi va ularga qarshi ma’naviy immunitet shakllantirishi zarur. Ma’naviy barkamollik jamiyatda ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Ma’naviy tahdidlarni oldini olishda davlatning, ta’lim tizimining va oilalarning hamkorligi muhim ahamiyatga egadir. Ma’naviy tahdidlarga qarshi himoyalanishning asosiy yo‘nalishlaridan biri — bu mafkuraviy immunitetni shakllantirishdir. Bu jarayonda yoshlarga milliy qadriyatlar, tarixiy meros va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta’lim berish katta ahamiyat kasb etadi. Yoshlar orasida jamiyatga sodiqlik, milliy birdamlik va ijtimoiy ongni rivojlantirish orqali ma’naviy tahdidlardan himoyalanish mumkin. Ma’naviy tahdidlarning ko‘rinishlari sifatida e’tiqodni buzish, mutaassiblik, hurfikrlilikni bo‘g‘ish, inkvizitsiya, xalqlarni kamsitish, muayyan madaniyat shaklini mutlaq deb bilish, erkin fikrni cheklash, repressiya [3] kabilarni kiritishimiz mumkin.

Bunda birinchi navbatda ta’lim muassasalarida ma’naviy-axloqiy tarbiyani mustahkamlash muhimdir. Maktab va oliy o‘quv yurtlarida o‘qituvchilar nafaqat fanni o‘rgatuvchi, balki yoshlarning ma’naviy tarbiyasida ham katta ta’sirga ega shaxslardir. Pedagoglar o‘quvchilarga ma’naviy qo‘llab-quvvatlash va ularni har tomonlama tarbiyalash vazifasini bajarishi zarur. Bo‘lajak pedagoglarga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri — ularning ma’naviy yuksaklikka ega bo‘lishi va yoshlar ongiga ijobiy ta’sir ko‘rsata olishi kerakligidir. Pedagoglar o‘zlarining kasbiy bilimlari bilan birga shaxsiy fazilatlarini ham rivojlantirishi, milliy qadriyatlarga sadoqatli va zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishi lozim.

Shuningdek, pedagoglar zamonaviy axborot texnologiyalaridan xabardor bo‘lib, ularni ta’lim jarayonida to‘g‘ri va samarali qo‘llay olishi kerak. Globallashuv davrida turli tashqi ta’sirlardan himoyalanish uchun pedagoglarning dunyoqarashi keng va ma’naviy barkamol bo‘lishi talab qilinadi.

Yangi O‘zbekistonda ma’naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirishga qaratilgan dasturlar va islohotlar asosida bo‘lajak pedagoglar oldiga qo‘yilayotgan talablar faqatgina bilim berishni o‘rgatish bilan cheklanmaydi, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatini ham qamrab oladi. Bunda pedagoglar o‘z faoliyatlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib ishlashlari, yoshlarni sog‘lom ijtimoiy ongga ega shaxslar sifatida tarbiyalashlari zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, Yangi O‘zbekistonda bo‘lajak pedagoglar ma’naviy barkamollikka e’tibor qaratishlari lozim. Ma’naviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish va yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini to‘g‘ri tarbiyalash jarayonida pedagoglar hal qiluvchi o‘rin tutadi. Pedagoglar nafaqat bilim berishga, balki yoshlar ongiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga ham mas’uldirlar. Bu esa ularning shaxsiy ma’naviy barkamolligiga qo‘yiladigan talablarni yanada oshiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Эрназарова Г.О., Якубова М.Ю. Талабаларда креатив тафаккурни шакллантиришнинг педагогик асослари// Педагогические и лингвопсихологические особенности развития, формирования и становления личности врача, сборник тезисов Международной конференции, Самарканд, 2021 г.

2. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 3 tom. – T.: O‘zbekiston, 2019.

3. Тўраев Ш. Маънавий таҳдид (ёндашувлар ва таҳлиллар) // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Тошкент, 2010.– № 2.

II SHO‘BA.

KUCHLI MA’NAVIYAT VA UNING NAMOYON BO‘LISHI

MUHAMMADJON QURONOV,
pedagogika fanlari doktori, professor,

S.AZIMOVA,
tayanch doktorant.

OTA-ONALARNING PEDAGOGIK MADANIYATINI OSHIRISH: METODIK TA’MINOT DISKURSI

Mustaqillikning 33 yilligiga bag‘ishlangan tantanali tadbirda Prezidentimiz hozirgi kunda Yangi O‘zbekistonni barpo etishda asosiy e’tiborni beshta ustuvor yo‘nalishga qaratmoqdamiz. Bular, avvalo, sifatli ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish, biznesni rivojlantirish, korrupsiyadan xoli, adolatli sud tizimini yaratish, sog‘liqni saqlash sohasini tubdan yaxshilash, ekologik barqarorlikni ta’minlashdan iborat ekanligini belgilab berdilar.

Sifatli ta’lim, tarbiyaning birinchi masala sifatida qo‘yilishida juda katta ma’no bor. Chunki biznesni rivojlantirish, korrupsiyadan xoli, adolatli sud tizimini yaratish, sog‘liqni saqlash sohasini tubdan yaxshilash, ekologik barqarorlikni ta’minlash Inson omiliga bog‘liq. Ikkinchidan, yuqoridagi besh yo‘nalishni amalga oshirish yoshlar tarbiyasidagi dasturlarimizga, ayniqsa, oila tarbiyasiga yangi vazifalar kiritishni taqozo qiladi.

“Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” Davlat dasturida **“ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, farzand tarbiyasi borasidagi burch va mas’uliyatini oshirish”** masalasi alohida band etib belgilangan edi. Xalqimiz bu masala nechog‘lik muhimligini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Konstitutsiya kuni so‘zlagan ma’ruzasidan angladi. Prezidentimiz milliy tarbiyamiz darg‘alaridan biri Abdurauf Fitratning bir fikriga e’tibor qaratdilar: **“Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tibordan qolib, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi ularning o‘z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog‘liq”.** Prezidentimiz bu pedagogik fikrni oltinga teng baholadilar. Bu fikr orqali millatni ikki taqdirga eltuvchi ikki yo‘l ko‘rsatib berildi. Birinchi yo‘l – baxt, ikkinchisi – baxtsizlik yo‘li. Gap 20-30 yildan keyin hayot maydoniga kiradigan, bizning bolalarimiz haqida. Xalqimizning 20-30 yildan keyingi ahvoli haqida ketmoqda. Ota-onalar o‘z jigarbandlarini

tarbiyalash bilan o‘zlarining davlat oldidagi strategik vazifalarini bajaradilar. Natijada yaxshi tar- biyalangan avlod harakat qilib, o‘zining aniq maqsadiga yetadi. Badavlat, baxtli, izzat-hurmatli, jahongir, ya’ni jahonga mashhur bo‘ladi. “Meni ishim bolani boqish. Katta bo‘lsa, odam bo‘lar”, deydigan ota-onalar esa xalqimizning zaif, xor, zor, baxtsiz, e’tiborsiz, birovlarga tobe, qul bo‘lishiga yo‘l qo‘yib berishadi. Afsuski, biz ikkinchi yo‘l - mustamlakalik azoblarini totib ko‘rgan xalqmiz.

Ko‘pchilik ota-onalar bola tarbiyasini bilamiz, deb o‘ylashadi. Bu fikrning to‘g‘riligini aniqlash uchun o‘zimizga “Men tarbiyaning qaysi usullarini qo‘llayapman?”, degan savolni berib ko‘raylik. Bir qo‘limizning barmoqlaricha bormikin? Vaholanki, tovuq boqish, gazdan, kreditdan foydalanish usullarini mutaxassisdan borib so‘raymiz. Ularning maslahatlarini olamiz. Biroq, bolamiz o‘g‘ri yoki yolg‘onchi bo‘l- sa, betimizga tik qarab o‘shqirganida ham nega bunday bo‘ldi, nima qilay, deb pedagog-psixologlardan so‘ramaymiz. Demak, mohir pedagog va psixologlar – mutaxassislarni do‘st tutib, oilamizdagi tarbiya muhitini tahlil qildirib, maslahatlarini olib, ularga amal qilsak, nafaqat bolalarimizning, balki Vatanimiz kelajagidan xotirjam bo‘larkanmiz. Mehmondorchiliklarda, suhbatlarda, choyxonalarda bola tarbiyasi to‘g‘risida ham gap ochib, tajriba almashib, maktab, kollej, mahalla bilan hamfikr yashashimiz kerak ekan.

Ta’lim-tarbiya usullarini qayta ko‘rib chiqishi- miz zarur. Bolalarimizni murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri yechim, qarorlar qabul qila olish ko‘nikmalarini shakllantirishimiz kerak. “**Biz yoshlarimizga “Sen tariximiz haqida 20 ta narsani karra-karradek bilishing kerak, deya olishimiz kerak. Bu ishlarni hozir qilishimiz kerak...”.** Prezidentimizning bu fikrlari har bir o‘qituvchi, murabbiy, ota-onadan o‘z ishimizni tanqidiy ko‘rib chiqishimizni talab qiladi. Nima uchun? Faraz qiling: 8-sinfga kirib, “Siz Vatan oldidagi qanday burchlaringizni bilasiz?”. “Siz ota-onangiz oldidagi qaysi burchlaringizni bilasiz?”, deb so‘rasangiz, turli javoblarni olasiz. Lekin 8 ga 8 ni qo‘shsak, necha bo‘ladi, desangiz, o‘quvchilar xor bo‘lib, yakdil qoniqish bilan “O‘n olti!”, deb javob berishadi. Nega shunday? Chunki 8+8=16 da aniqlik ta’minlangan. “O‘zbekiston yoshlarining Vatan oldida qanday burchlari bor?”, degan savolga javobda esa shu aniqlik yo‘q. Nega? Chunki shu paytgacha tarbiyaviy ishlar tizimi oldiga aniqlik, kafolatni ta’minlash talabi qo‘yilmagan. Demak, biz zudlik bilan tarbiyaviy ishlarimizni mavhumlikdan tozalab, aniqlik sari intilishimiz kerak. Toki farzandlarimiz o‘zlarining Vatan, ota-ona oldidagi burchlarining dastlab loaqal uchtasini, keyingi yil beshtasini aniq, yakdillik bilan mag‘rur

“karra-kar-radek” bilsinlar. Ana shunda bu aniq bilimlar ertaga ularning hayotda turli vaziyatlarda ikkilanmasdan, to‘g‘ri qaror qabul qilishlarida madad bo‘ladi.

Har bir ishlab-chiqarish sohasining o‘z mahsulotiga qo‘yadigan standart talablari bor. Ta’limda ham. Lekin tarbiyada-chi? (Pedagogika va psixologiyadan uzoqroq kishilar “Ha endi o‘ziga insof bermasa, tarbiyalash qiyin”, deyishadi. Bu – 100-200 yil oldingi fikr. Bu – pedagogik nochorlik. Hozir – XXI asr. Astoydil kirishilsa, u yoki bu fazilatni 21 kunda odatga aylantirish, 40 kunda bola xulqiga bir umrga muhrlab qo‘yish texnologiyalari ishlab chiqilgan). To‘g‘ri, insonga xos minglab fazilatlar bor. Lekin shulardan 5-10tasini kafolatli, maqsadli, ishonchli, Prezidentimiz xalqona qilib tushuntirganlaridek, karra-karradek bilishlarini kafolatlashimiz shart.

Mutaxassisga berilgan diplom – uning davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni kafolatlaydi. Ammo ta’lim-tarbiya bilan uyg‘un olib borilmasa, mutaxassis “bilimli noinsof”ga aylanishi mumkin. Ayni vaqtda ota-onalarga metodik bilimlar o‘ta zarur. Shu tufayli quyida ulardan namunalar keltiramiz:

Ota-onalarga pedagogik maslahatlar

1. Tarbiyaviy ishni yomon kayfiyatda boshlamang.

2. Gaplashishdan oldin bolangizdan nima istayotganingizni aniqlab, uning bu haqda qanday fikrda ekanligini aniqlab oling.

3. Bolangizga mustaqillik bering, tarbiyalang, ammo uning har qadamini nazorat qilib, qorovullik qilib yurmang.

4. Bolangiz biror muammo oldida turganida unga tayyor yechimni ko‘rsatib, shunday qil, demang. O‘zi yechim topishiga imkoniyat yarating. Topolmasa, bunday qilsang, mana bunday bo‘lishi mumkin, deb to‘g‘ri va noto‘g‘ri yechimlarni ko‘rsating.

5. Bolangiz erishgan har bir kichik yutuqni maqtang, qo‘llab-quvvatlang.

6. Biror xato qilsa, buning sabab va oqibatlarini unga yotig‘i bilan ayting. Mana bunda xato qilding, na- tijada mana shunday bo‘ldi, deb, jim turing. U sizdan eshitgan tahlil va xatosini, sabab va oqibatlarini anglab olsin. O‘z xulosasini gapirib bersin.

7. Bolangizga emas, uning yaxshi yoki yomon qilmishiga, xulqiga baho bering. Bola va uning qilmishi bir narsa emas.

8. Bolangizni akasi, opasi yoki qo‘shni, sinfdoshlari bilan solishtirmang. Bolangiz hasadga o‘rganadi. Uning o‘zini o‘zi bilan solishtirib gapiring.

9. Bolangizning “Ota-onam menga ishonishadi”, degan xulosaga

kelishiga erishing. Uni quchoqlab turing, ba’zi kichik xatolari haqida kulib gapiring. Kichik xatolar uchun xo‘mrayib, hurpayib yurmang.

10. Tarbiya bu – maqsadga asta-sekin erishish degani. Uning yosh, jismoniy imkoniyatlariga qarab talabni oshira boring.

11. Tarbiyachida qat’iyat bilan muloyimlik uyg‘un bo‘lishi kerak. Hamma narsa o‘z vaqtida, me’yorida bo‘lgani ma’qul.

Tarbiyaning oltin qoidalari

Bolangizni seving. Bunga u ishonsin, shubha qilmasin.

• Bolangizni qanday bo‘lsa, shunday – barcha yutuq va kamchiliklari bilan qabul qiling.

• Bolangizdagi yaxshi fazilatlarga tayaning.

• Bolangizni tushunishga harakat qiling. Uning o‘y-xayollarini, sizga ko‘nglini ochib aytgan har bir fikrini hurmat qiling.

• Bolangizga shunday sharoit yaratib beringki, u o‘zini to‘kis, kuchli, mohir, uddaburon, omadliman, deb his qilsin.

• O‘zingiz erisholmagan maqsadlarga erishishga uni majbur qilmang.

• Unutmang, so‘zlar emas,shaxsiy namuna kuchli tarbiyalaydi.

• Har bir bola – betakror xilqat. Unga boshqalarni namuna qilib ko‘rsatavermang. Sizning bolangizda ham boshqalar o‘rganadigan xislatlar bor.

• “Bolam men aytganimdek odam bo‘lib yetishadi”, deb o‘ylamang. U baribir boshqacharoq bo‘lib yetishadi.

• Unutmang, bolangiz tarbiyasi uchun yagona javob- gar – Sizsiz.

Bolani qo‘llab-quvvatlash yo‘llari

• Bolaning kuchli qirralariga tayaning.

• Bolaning xato, kamchiliklarini hadeb yuziga solavermang.

• Bolani sevishni bildirib, g‘amxo‘rlik ko‘rsatib, uning yaxshi ishlaridan xursandligingizni bildirib turing.

• O‘zini va boshqalarni yaxshi ko‘rishga o‘rgating.

• Bolangiz bilan hazillashib turing.

• Bolangiz o‘ziga tegishli ishlarda mustaqil qarorlar qabul qilishiga qo‘yib bering.

• Vaziyatni jazolashgacha olib bormang.

• Bolangiz o‘ziga xos, betakror. Shuni yaxshi biling.

• Bolangizni yaxshi ko‘rishingizni bildirib turing. Bolaligida ham, ulg‘ayganida ham.

• Bolangizga uning oilada o‘z o‘rni borligini bildirib turing.

• Erishgan muvaffaqiyati sururini his qilishiga sharoit yaratib bering.

• Uning kattalar, tanish-notanishlar, tengdoshlari bilan muomala qilishini kuzatib, maslahat berib boring.

• Katta muammoni kichik bo‘laklarga bo‘lib hal qilishga o‘rgating.

• Bolangizga o‘zini o‘zi tushunishiga yordam bering.

• Bolangizga g‘ururli bo‘lishda, o‘z qadrini bilishida yordam bering.

• Uning har bir ishni o‘zi hal qilishga intilishini qo‘llab-quvvatlang.

• Bolangizning yaxshi sifatlarini ko‘ring, unga aytib turing va ularga tayaning.

• Tushkunlikka tushganida qo‘llab-quvvatlang.

Metodik xatolar

• Norozilikni g‘azabli tonda bildirish.

• Bola qilgan xatoni ko‘pirtirib, oshirib, alam qildirib gapirish.

• Kamchiliklarini tinimsiz betiga solaverish.

• Bola qilgan xatosini so‘rab-surishtirmasdan, biryoqlama, bepisand baholash.

• Adolatsiz jazolash.

• Oshirib maqtayverish.

• Bolani boshqalardan bo‘lib, ajratib qo‘yish.

• Qo‘pol buyruqlar berish, qo‘rqitish.

• Bolaning xatosini boshqalarga aytib yurish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abduraxmonova Z.E., Ergashev P.S. Farzandni to‘g‘ri tarbiyalashning psixologik asoslari. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2022. – 56 b;

2. Alimjanova D., Maxmudova D. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari uchun yo‘riqnoma. Yo‘riqnoma. – Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2022. – 48 b;

3. Quronov M. Milliy tarbiya. –Toshkent, “Ma’naviyat”, 2007. 257 b.

4. Quronov M. Otalar kitobi. – Toshkent, “G‘.G‘ulom nomidagi san’at va adabiyot nashriyoti”, 2014. 86 b.

5. http://www.reproductiv-salomatlik.uz/uz/soglom-farzand-tugilishida-hamda-rivozhlanishida-khomilador-va-emizuvchi-ayolning-tugri

6. Uzbaby.Uzhttp://www.farzand.uz/ozbek-ismlari-bolaga-ism-tanlash-k/.

BAXTIYOR OMONOV,
O‘zbekiston milliy universiteti professori,
siyosiy fanlar doktori

MA’RIFATLI JAMIYAT SARI QADAMLAR

“Ma’naviy hayotimizda bo‘shliq sezilmoqda. Ma’naviy immuniteti zaif bo‘lgan ba’zi yoshlar yurish-turishda ham, muomala-munosabatda ham begonalarga ko‘r-ko‘rona ergashmoqda. Milliy o‘zligimizni, buyuk ajdodlarimizni tanimaslik, ilm va irodaning yetarli emasligi bunga sabab bo‘lmoqda, desak, to‘g‘ri bo‘ladi”,–degan edi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2021-yilda chop etilgan “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli kitobida. – Shu munosabat bilan “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi va uni amalga oshirish milliy dasturi ishlab chiqiladi” [1].

Bu fikrlarda chin haqiqat, ob’ektiv bahoni ko‘ramiz. Yoshlar tarbiyasida jamoatchilik roli pasayib ketganligi bois, globallashuv oqimi va uning ta’sir doirasi ancha kengayib bormoqda. Bugungi kunda butun jamiyat, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan oziqlantirish – O‘zbekistonning oliy maqsadidir. Buning uchun jamiyat a’zolarining siyosiy ongi va madaniyati, ichki ruhiyati va ma’naviy olamini zamonga mos holda kengaytirish lozim, deb hisoblaymiz.

Bu sohaga doir bir qator hujjatlar qabul qilinganiga qaramasdan yoshlar muammolarini hal qilishda sezilarli o‘zgarishlar yuz bermayapti. “Jahonda g‘oyaviy-mafkuraviy kurashlar keskin davom etayotgan, ma’naviy tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda yoshlar o‘rtasida milliy qadriyatlarga bepisandlik, zararli yot g‘oyalar ta’siriga berilish, jinoyatchilik va ekstremizm harakatlariga adashib qo‘shilib qolish holatlari hamon uchramoqda” [2]. Kuzatishlarimizga qaraganda, jamiyat turli qatlamlarida, ayniqsa yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, sabrlilik, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlari yetarli rivojlanmaganligi ta’lim va tarbiya sifatiga jiddiy zarar yetkazmoqda. Misol uchun, barcha o‘quv dargohlarida dars berish metodologiyalarida shaxsning erkin fikrlash ko‘nikmasiga imkon berilmaganligi, sobiq ittifoq metodologiyalari to‘liq yangilanmaganligi ta’lim tizimidagi kamchiliklar sirasiga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining intellektual salohiyatini saqlash va mustahkamlash, ma’rifatli jamiyat qurishga erishish mamlakatni yanada

taraqqiy ettirishning asosi va zaruriy sharti hisoblanadi. O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyat tizimi yaratilishi mamlakatning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini qo‘lga kiritish bilan chambarchas bog‘liq hodisa.

Hozirgi axborot, intellektual mulk asrida millatning ma’naviy va iqtisodiy yuksalishi, chuqur bilimga asoslangan innovatsiyalarga suyanishi muhim omil hisoblanib, o‘z navbatida, ular ta’lim va tarbiya, xususan, ma’rifatli jamiyat tizimining mamlakat miqyosida ustuvorlik rolini yanada oshiradi.

Ma’rifatli jamiyat tizimi quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

– ma’naviy-ma’rifiy ishlar va ta’lim-tarbiya tizimi sohasidagi Qonunchilikni takomillashtirish;

– vakolatli organlar bilan yaqindan ishlash;

– ma’naviy va tarbiyaviy soha egalari (xodimlari) huquqlarini himoya qilish organlarini kuchaytirish;

– jamiyat hayotida ma’naviy va tarbiyaviy soha egalari (xodimlari) ijtimoiy-iqtisodiy maqomini ko‘tarish va hokazo

Ma’rifatli jamiyat tizimi sohasida vakolatli organ Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi (*keyingi o‘rinlarda – Markaz)* hisoblanadi. Markazning asosiy vazifalari:

ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarashga erishishni umummilliy harakatga aylantirish;

respublikada ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tanqidiy o‘rganib, uni tizimli, samarali tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijadorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash;

aholi o‘rtasida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish;

mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka samarali yetkazishdir.

Bizning nazarimizda, Ma’rifatli jamiyat Konsepsiyasi *(keyingi o‘rinlarda Konsepsiya)* ning maqsadi — aholining yoshlar qatlami o‘rtasida huquqiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy savodxonligini oshirish mexanizmlarini tashkil qilish va Yangi O‘zbekiston ustuvor maqsad-vazifalarini keng jamoatchilik, yoshlar qatlamiga ommabop tilda yetkazish

orqali ma’rifatli jamiyat tizimini shakllantirish bo‘lmog‘i lozim.

Ushbu ezgu maqsadlarga erishish, uni amalda ro‘yobga chiqarish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:

milliy ta’lim-tarbiya tizimi zaruriy tarkibiy qismlari, jumladan, fanlarni o‘qitish metodologiyalarini o‘quvchi-talabalarni erkin fikrlash, kreativ-innovatsion yondashish usullariga moslashtirish masalasini tubdan qayta ko‘rib chiqish;

ma’naviy-ma’rifiy ishlarning bugungi holatini sobiq ittifoq davri boshqarish uslubi nuqtai nazaridan tanqidiy baholash, xulosalar berish;

o‘quvchilar va talabalarning fikrlash tarzi hamda jamiyatda o‘zini tutishi holatidan kelib chiqib, Milliy etik qoidalarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

birinchi navbatda yoshlarning ong-u tafakkurini Yangi O‘zbekiston strategiyasi talablari asosida shakllantirish mukammal mexanizmini ishlab chiqish va tasdiqlash.

Konsepsiyaning asosiy vazifalari:

– 2024-2032 yillarda O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyat tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

– ma’rifatli jamiyat tizimining ustuvor yo‘nalishlari, usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

– ta’lim va tarbiya tizimi sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish;

– ta’lim va tarbiya sohasidagi infratuzilmani mustahkamlash;

– ma’rifatli jamiyat sohasida malaka oshirish tizimini tashkil etish;

– ta’lim va tarbiya tizimi xodimlari huquqlari va vakolatlarini, iqtisodiy ahvolini ko‘tarish.

Belgilangan vazifalarni to‘laqonli va bekamu ko‘st amalga oshirish uchun manfaatdor respublika davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, ilmiy va ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kompleks ishlaydigan ierarxik tizimni barpo qilish zarur, deb hisoblaymiz.

Konsepsiya maqsadlariga erishish mexanizmlari:

1.Ma’rifatli jamiyat sohasidagi Qonunchilik:

Qonunchilikni yanada takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida “Yangi O‘zbekiston jamiyatining ma’naviyat kodeksi”ni ishlab chiqish;

“Yangi O‘zbekiston Uchinchi Renessans bunyodkori” konsepsiyasini ishlab chiqish.

2.Ma’rifatli jamiyat” ilmiy-amaliy analitik markazini tashkil etish:

Markaz xodimlari uchun chet elga stajirovkalarni muntazam amalga oshirish;

Rivojlangan davlatlarning ma’rifatli jamiyat qurishga doir uzoq asrlik tajribasini qiyosiy tahliliy o‘rganish.

Ma’rifatli jamiyat sohasidagi faoliyatni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar:

“Yangi O‘zbekiston – ma’rifatparvar davlat” g‘oyasi deganda jamiyatimizni yangi bosqichga ko‘tarish, yuksak marralarni egallash, Uchinchi Renessansning poydevorini qurish tushuniladi.

Jamiyatda jinoyatchilik, ekstremizm, terrorizm, korrupsiya, firibgarlik, ko‘zbo‘yamachilik, yolg‘onchilik, egotsentrizm, axloqiy buzuqlik, oilaviy ajrimlar, mehr-oqibatning kamayishi, “ommaviy madaniyat”ga ko‘r-ko‘rona taqlid, loqaydlik, begonalashuv, o‘zibo‘larchilik, farzand tarbiyasida mas’uliyatsizlik, oilaviy qadriyatlar inqirozi, el-yurt taqdiriga befarqlik kabi zararli illatlarga qarshi kurash Milliy dasturi ishlab chiqilishi kerak.

Fikrimizcha, Ma’rifatli jamiyat konsepsiyasi Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi [3] ning mantiqiy davomidir. Zero, XX asrda o‘lmas g‘oyalarni ilgari surgan buyuk jadidlarimiz tarbiya va ta’lim orqali jamiyatni taraqqiy qildirishi mumkinligini isbotlashgan edi. “Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Haq olinur, berilmas”, “Zamona ilmu fanidan bebahra millat o‘zgalarga poymol bo‘lur”, Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, Munavvarqori Abdurashidxonovning “Bu jaholat xohishidurki, millat foydasi uchun jonin qurbon qilmoqqa loyiq arslon kabi yigitlarimiz bugun millatni yodlaridin chiqorib, iste’dod va g‘ayratlarini choyxona va pivaxonalarg‘a sarf etmakdadurlar”, degan so‘zlari bugun ham millatni uyg‘otuvchi, uni befarqlik va ortiqcha maishatlardan asrovchi da’vatdek jaranglab turibdi” [4]. Yuqoridagi g‘oyalarni ro‘yobga chiqarish bugungi o‘zbek jamiyati elita qismining orzusi bo‘lmog‘ini xohlardik. Shu o‘rinda, “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” shiori ostidagi “Ma’naviyat festivali” doirasida 18 ta ijtimoiy loyiha amalga oshirilgani, “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyatining ilm-fan, madaniyat, san’at, adabiyot va badiiy ijod kabi soha vakillaridan iborat 500 dan ortiq a’zosi jalb etilib, tadbirlarga aholi va yoshlar qamrab olingani hamda bu targ‘ibot ishlarining natijadorlikka olib kelayotganligini ta’kidlagimiz keladi. Bu borada oila – mahalla – maktab – universitet tizimlarining kompleks ravishda samaradorlikka erishish ustuvor vazifamizga aylanishi kerak.

Yurtboshimiz tomonidan ta’lim-tarbiya, ma’naviyat va ma’rifat tizimlariga ko‘proq e’tibor berilishi sababi shuki, ushbu ustuvor sohalar milliy rivojlanishning asosi, bosh poydevori bo‘lib, yosh avlod u bilan

qurollangan taqdirdagina ma’naviy va mafkuraviy tahdidlar ortga chekinadi. Shu maqsadda 2021 yilning bahor oylarida maxsus qaror ijro uchun qabul qilinganidan xabarimiz bor. Prezident qarorida qayd etilganidek [5], ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohadagi yangilanishlar jarayonida ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, O‘zbekiston, 2021. – B. 269, 275.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda 1059-son qarori bilan tasdiqlangan Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi.

4. Mirzo M. Yangi ma’naviy makon, ma’rifatli jamiyat qurish sari. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. 2022 yil 27 dekabr.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5040-son qarori.

MANSUR BEKMURODOV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi kafedra mudiri, sotsiologiya fanlari doktori, professor

O‘YLAY OLISH SALOHIYATI

O‘ylay olish salohiyati. O‘ylash, jiddiy tafakkur yuritish, u yoki bu holat yuzasidan fikrlash bir qarashda o‘ta jo‘n, oddiy, hech qiyinchiligi yo‘q bo‘lgan ishday ko‘rinadi. Aslidachi? Aslida esa, fikrlay olish, biror bir voqea, muammo yuzasidan to‘g‘ri va aqlli qarorlarga kelish o‘ta murakkab jarayon bo‘lib, insondan keng va teran bilimlar, tajriba, mustahkam iroda, qunt, katta mas’uliyat talab etadi. Shu boisdan ham, o‘ylay olish, fikrlash, jiddiy tafakkur yuritish, voqea va holatni to‘laqonli idrok etish, biror bir narsani avvaldan rejalashtirish uchun bosh qotirish, chuqur mulohaza qilishdan iborat salohiyat insonni boshqa tirik mavjudotlardan farqlab turuvchi, aslida, uning insoniyligini ifodalovchi bosh unsurdir. O‘ylay olish salohiyatiga egalik esa, insoniyat ongli tarixining barcha davrlarida eng dolzarb masala bo‘lib kelgan.

O‘ylashning tarixiy zarurat bo‘lganligi. Buyuk yunon mutafakkiri Aristotel fikrlashni inson, jamiyat va davlat taraqqiyotining boshlang‘ich nuqtasi deb bilgan va “Haqiqatni izlash va topish jarayoni eng oliy darajadagi fikrlashdir”,deb ta’kidlagan. Ulug‘ Xitoy donishmandi Konfutsiy ham “Doimo o‘ylab, tahlil qilib, yangi bilimlar olishingiz mumkin, chunki o‘qishsiz, o‘ylovsiz va tahlilsiz bilim olish imkonsizdir”, deb qayd etgan.

Muqaddas Kitobimiz Qur’oni Karimda ham mumin-musulmonlar bu dunyo va u dunyolarini obod qilishlari ularning o‘z qo‘llarida ekanligini anglash uchun eng avvalo, tafakkur qilish, o‘ylash, aqlni ishlatish zarurligi ta’kidlanadi. Xususan, Qur’oni karimda insoniyatni aql va tafakkurlarini ishlatishlariga da’vat etuvchi oyatlar mohiyatini anglash maqsadida olib borilgan zamonaviy tadqiqot natijalariga ko‘ra aytish mumkinki: mo‘minlar “afala ya’qiluuna” (aqllarini ishlatmaydilarmi!?), “afala yatafakkaruuna” (tafakkur yuritmaydilarmi!?), “la’allakum tatafakkaruun” (shoyadki tafakkur yuritsalar!), “la’allakum ta’qiluuna” (shoyadki aql yuritsalar!) kabi iboralar 49 marta, shuninigdek, “fikr” so‘zi esa, 18 marta vorid bo‘lgan. Jami bo‘lib, mazkur da’vatlarning 67 marta zikr etilganligi insonning o‘ylash, fikr yuritib ish tutish mas’uliyati nechog‘li muhim ekanligiga dalolatdir[5].

[5] https://www.Kau.edu.sa.

Buyuk sohibqiron, jahonga Ikkinchi Renessans eshiklarini ochib bergan Amir Temur ham o‘zining “Malfuzoti Temur” asarida “Bir tadbirli ming tadbirsizdan afzal” degan iborani muomalaga kiritganlar. Ma’lumki, “tadbir” so‘zi arabchadan olingan bo‘lib, “ta”+”dabara” tarkibiy elementlaridan iborat. ”Ta”- qo‘shimcha (affiks)si muayyan so‘z yasashda qo‘llaniladi va ish yoki harakat nomini ifodalaydi, “dabara” so‘zi esa, arabchada “fikrlamoq”, “mulohaza qila olmoq”, ”o‘ylab ish tutmoq” degan ma’nolarni beradi. Demak, buyuk Amir Temur hazratlari bitta ishbilarmon, badavlat odam mingta boshqa odamdan afzal, degan ma’noda emas. balki, bitta fikrlaydigan, o‘ylay oladigan odam mingta o‘ylay olmaydigan odamdan afzaldir, degan xulosaga kelganlar.

O‘ylashning o‘zgarish maqsadlaridan boshlanishi. O‘ylash, tafakkur yuritish jarayoni inson, jamiyat va davlatning o‘zini o‘zi o‘zgartirishga nechog‘li darajada shayligidan kuch oladi. O‘zgarish maqsadi esa, inson yoki xalqning yangilanishi, o‘zini tanqidiy tahlil etishi, yangi imij yaratish maqsadini ham ifoda etadi. Shu boisdan ha o‘zgarishga bo‘lgan intilish mohiyatan chuqur tafakkurning mahsuli hamdir.

Muhtaram Prezidentimiz ham Yangi O‘zbekistonni barpo etish, o‘zgarishlarni ro‘yobga chiqarish dastavval insonning o‘ziga bog‘liq va undan boshlanishini ta’kidlab shunday dedilar: “Tarix sinovlaridan o‘tgan haqiqat shuki, o‘zini o‘zgartirishga qodir bo‘lgan vaqtni imkoniyatga, imkoniyatni yutuqqa, yutuqni taraqqiyot poydevoriga aylantira olgan xalq – buyuk xalqdir. Bunday xalq hech shubhasiz hayotni ham, ijtimoiy muhitni ham o‘zgartira oladi, ko‘zlagan murod-maqsadlariga albatta erishadi” (Shavkat Mirziyoev, “Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston” asaridan 2024 yil 22-iyul)

Har bir insonning o‘zida yaxshilanish rag‘bati va o‘zgarishlarga tayyorlikning o‘rni muqaddas dinimizda ham muhrlangan. Qur’oni Karimning “Ra’d” surasida “**Albatta, Alloh biror bir qavm o‘zlaridagi narsani o‘zgartirmagunlaricha, ulardagi narsani o‘zgartirmas”,** deb bejiz aytilmagan. Shunday ekan, odamdagi yaxshilanish, tarbiyaviy ishlar ta’siri ko‘p hollarda insonning o‘ziga bog‘liqdir. Buyuk mutafakkir Jaloliddin Rumiy ta’kidlaganidek, **“**insonga xos bo‘lgan muhim jihat – bu boshqalarni bilish yo‘lidagi tafakkurdir. Hamma narsadan yaqin bo‘lgan borliq bu – odamlarning menligidir, zamonamiz olimlari ham qilni qirq yoradilar, o‘zlariga bog‘liq bo‘lmagan narsalarni juda yaxshi biladilar, ammo o‘ta muhim, o‘zlari uchun qolgan barcha narsalardan yanada yaqin bo‘lganini, ya’ni, o‘zlarini bilmaydilar. (Qarang: Jaloliddin Rumiy, “Ichingdagi ichingdadir”, T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2014 – yil. 38-bet)

O‘ylay olish yoki fikrlash mexanizmi. Insonni o‘ylashga o‘rgatish avvalo oila muhitida shakllanishi lozim. Oilada esa, bolani fikrlash, har bir ish yoki amalning oxirini o‘ylab ish tutish, biror bir harakat orqali boshqalarni xafa qilib qo‘yishning zarari singari narsalarga yetarli darajada e’tibor qaratilmaydi. Aksincha, ko‘proq oila davrasida bolaning so‘zi ustuvor bo‘lishi, uni erkalab zavqlanish, kichik ayblarini hisobga olmaslik, oldini deyarli qaytarmaslik odatiy hol sanalishi ham sir emas.

Bolani o‘ylashga o‘rgatishning oiladan keyingi bosqichi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshirilishi zarur Bu yerda bola eng avvalo, tartib-intizom talabi, boshqalar bilan teng imkoniyatlar vaziyatini his etish va shu muhitda yashash, ota-onadan boshqa insonlarga bo‘ysunish, odatdagidek, yig‘i va qaysarlik vositasida ish bitkazib bo‘lmasligini his etish, oila va bog‘chada vaqt o‘tkazishning farqi, o‘zining yoshi darajasida bog‘cha bolasi degan yangi maqomini anglash kerakligi holatlariga ro‘para keladi. Bog‘chada bola ilk daf’a dunyo faqat meniki emas, balki dunyo boshqa bolalarga ham tegishli ekan, degan fikr-xulosaga erishadi.

Fikrlashga o‘rgatishning navbatdagi bosqichi maktabda amalga oshirilishi lozim. Bola maktabda va o‘z sinfi jamoasida barqarorlashish, o‘zining referent-guruhini shakllantirishi (bolalarning o‘zaro maqbullik asosidagi kichik-kichik guruhchalarga uyushishi), ta’limni o‘zlashtirish talablarini bajarish va bilimlilik musobaqasida ishtirok etish, o‘qituvchiga hurmatli munosabatni yo‘lga qo‘yish, o‘zini sinfdoshlari, ayniqsa qizlar orasida munosib tutish, muayyan darajadagi liderlikka erishish masalalarida doimiy o‘ylash muhitida bo‘ladi. Bolaning ana shu yo‘sindagi o‘ylash jarayonlarida maktab pedagoglari, oila va mahalla birgalikda ish tutishi lozim. Bola maktab yoshida fikrlashga o‘rganishning dastlabki bosqichida bir fikrning ikkinchi variantini o‘ylashga o‘rgatilishi lozim. Oddiygina qilib aytganda, oyisiga ko‘maklashib maqtov eshitgan bola “oyijon men bo‘lmaganimda Siz qila olardingiz”, desa Siz unga “Qani bolam, shu gapingizning teskarisini aytingchi, deyishingiz lozim. Shunda bola o‘ylab turib, “Siz bo‘lmaganingizda men nima qilar edim” degan fikrni aytsa, bilingki, u endi boshqa holatda turib, fikrlab javob qilgan va o‘ylashni boshlagan bo‘ladi. Endi shu sxema boshqa sohalarda qo‘llanilsa, xususan, matematikada masala yechishda tamoman boshqacha yondashish muhokama etilsa, ximiyada moddalarning reaksiyasida moddalarni aralashtirishda noodatiy ish tutilsa, adabiyotda “O‘tgan kunlar” romanida Kumush nima uchun baxtsiz bo‘lgan, agar u boshqa yigitga turmushga chiqsa taqdiri o‘zgararmidi, degan savollar berib, narsalarning boshqa tomondan qanday o‘zgarishini tahlil etishga o‘quvchilar yo‘naltirilsa, jamoada o‘ziga xos o‘ylash muhiti

O‘ylashning ijtimoiy zaruratga aylanganligi. Mamlakatimizda yangi davrning boshlanishi eng avvalo insonni kuchaytirish, uning aqli, tafakkurini boyitish, teran va innovatsion o‘ylab ish tutish masalasini ijtimoiy zarurat darajasiga chiqardi. O‘ylash omilining ijtimoiylashuvi esa inson resurslarini inson kapitaliga transformatsiyalashuviga yo‘l ochadi. Zero, inson kapitalini milliy yuksalishning bosh omili sifatida qabul qilinishi Yangi O‘zbekistonimiz uchun metodologik xususiyatga egadir. Chunki “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasidagi 100 maqsadning 44 tasi bevosita o‘ylash, fikrlash hosilasi bo‘lgan inson salohiyatini yuksaltirishga qaratilgandir. Zero, odamni intelektual va ijtimoiy rivojlantirish insonning real qobiliyatini ro‘yobga chiqarish orqali amalga oshishi algoritmik qoida va inson resurslarini boshqarishning yangi strategiyasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Muhtaram Prezidentimiz ham Yangi O‘zbekistonni barpo etish, o‘zgarishlarni ro‘yobga chiqarish dastavval insonning o‘ziga bog‘liq va undan boshlanadi, deb qayta-qayta ta’kidlashlari negizida juda chuqur ma’no mujassamdir. XX asr oxirida ilm va amaliyotga kirib kelgan mazkur atamadan avval boshda faqat nogironlar va imkoniyati cheklangan odamlarni jamiyatga qo‘shish, integratsiyalashni ifoda etuvchi tushuncha sifatida foydalanib kelingan bo‘lsa, XXI asrga kelib, mazkur ma’naviy-intellektua ehtiyoj, ya’ni, o‘ylash, tafakkur qilishning ijtimoiy qo‘llanish geografiyasi keskin kengaydi. O‘ylash hodisasiga ta’lim jarayonlarini faollashtirish, qishloq xo‘jaligi, sanoatda o‘zaro hamkorlik, kooperatsiyalashuv tarzidagi faoliyatni yo‘lga qo‘yishda hamjihatlikka erishish, har bir sub’ektning jarayonga to‘liq ishtirokchi sifatida namoyon bo‘lishi, ularning kuchli tomonlarini ro‘yobga chiqarish omili sifatida yondashila boshlandi.

Ma’lumki, tafakkur qila olish salohiyati insonni kuchli va qudratli qiladi. Har ishni puxta o‘ylab, ishning pirovard natijasini aniq tasavvur qilish, muayyan faoliyatni boshidan to so‘nggi bosqichigacha to‘liq ifodalovchi “yo‘l xarita”lari asosida ish tutish mamlakatimizning yangi davrdagi imijini ham belgilamoqda. Inson, jamiyat va davlatni kuchli qiladigan bu yangi milliy imij turli darajadagi hamkorlik ufqlarini xam kengaytirmoqda. Zero, kuch va quvvat omili hamisha hamjihatlik va hamkorlikni taqoza etadi.

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning Shanxay Hamkorlik tashkilotining Samarqand sammitiga bag‘ishlab chop etilgan “Shanxay Hamkorlik tashkilotining Samarqand sammiti: o‘zaro bog‘liqlikdagi dunyoda muloqot va hamkorlik” deb nomlangan maqolasidagi “**Har birimiz kuchli bo‘lsakkina, Shanxay Hamkorlik tashkiloti ham kuchli bo‘ladi”** degan g‘oyasi bugungi kunda mohiyat e’tiboriga ko‘ra, har

jabhada o‘ylash, tafakkur qilish negizida manfaatlarni muvofiqlashtirish, o‘zaro uyg‘unlasha olish imkoniyatining butun insoniyat taqdirini insoniylashtirish yo‘lidagi yagona hamda eng to‘g‘ri yo‘l ekanligi va ijtimoiy zarurat darajasiga yetganligini yaqqol ifoda etadi.

Mehnatning tafakkur qilishga ta’siri. Mehnat qilish, kasb-hunar sohibiga aylanish, muayyan mutaxassislik yo‘nalishida kasbi komillik darajasiga ko‘tarilish shak-shubhasiz muntazam o‘ylash, tafakkur qilish mahsuli hisoblanadi. Qadimgi e’tiqodiy yo‘nalishlardan bo‘lgan Buddizm, Jaynizm, Braxmanizm diniy ta’limotlaridagi eng muqaddas so‘z bo‘lgan “karma” so‘zi lug‘aviy ma’nosi ham “mehnat qilish” degan ma’noni anglatadi, ya’ni, hayotda amalga oshiriladigan barcha ishlar ham, Tangriga ibodat ham, yaxshi amallar ham, “karma”, ya’ni mehnat orqali namoyon bo‘ladi.

Mehnat zavqiga erishish, ishlab toliqish emas, balki ishlab ruhlanish teran tafakkur mahsuli bo‘lib, katarsisga yo‘l ochadi, ya’ni, mehnat orqali olam va odamni yangidan kashf etish, extiroslar, hissiyotlar, ruxiy zo‘riqishlardan tozalanish, muammolardan xalos bo‘lib, poklanish imkoniyati kengayadi, deb qayd etiladi.

Mehnatdan zavqlanish, uni doimo o‘ylab yurishning tarbiyalovchi mohiyati haqida ulug‘ mutafakkir Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, va “Hindiston” kitoblarida alohida to‘xtalgan. Ayniqsa u mehnatda natijadorlik, ijodiy yondashish, faoliyatni doimiy va uzluksiz takomillashtirib borishlik xususiyatiga alohida e’tibor qaratib, bu borada ustozlar, o‘qituvchilarning shogirdlarga o‘ylashni o‘rgatish xususiyatiga bevosita bog‘liq ekanligiga ahamiyat bergan. O‘qituvchi mehnati tolib ongiga uzluksiz ta’sir ko‘rsatishi, kasbini sevish, uni o‘ylashga muntazam da’vat etishi esa faqat takrorlanuvchi mehnat orqaligina amalga oshishini qayd etadi. (Qarang. Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari, T.1. 1968, 102-bet).

Bilimning hunarga, hunarning ijodkorlik va yangi izlanishlarga tayangan holda takomillashtirilishi uning barqaror samaradorligini ta’minlaydi. Ulug xazrat Bahovuddin Naqshband joriy etgan tamoyilga ko‘ra maktabni tugatgan insonning biror bir ilm, kasb yo‘nalishi bo‘yicha ustun tomoni, chuqur bilimi bo‘lmasa, oliy ta’lim muassasasi bo‘lgan madrasada o‘qishni davom ettirishga izn berilmagan. Madrasa ta’limi uchun faqat biror bir kasbni puxta egallab olgan yoshlargina qabul kilinganlar. Bahovuddin Naqishband hunarga aylanmagan bilimlar samarasiz, odamlarga va chin e’tiqodga hizmat qilmaydi, deb, hisoblagan. Bunday yondashuv mohiyatini shunday tushuntirganlar: “Agar kishi hunarli bo‘lsa, u o‘z bilimini haqiqatga bag‘ishlaydi, o‘z mehnati bilan

kun kechiradi. Bordiyu kasbi bo‘lmasa bilimini tirikchilikka sarf etadi, halol mehnatni unutadi, ollohni ham odamlarni xam dildan seva olmaydi.” Qarang: Q.Abdurahmonov Mehnat iqtisodiyoti T: mehnat nashri 2004 yil 34-bet)

Darhaqiqat, o‘ylash, teran tafakkur yuritishning taraqqiyot sur’atlarini oshirishiga xizmat qilishi uchun uch omil ustuvorligi, ya’ni, yoshlarning erkin va kreativ fikrlashi, jamoada ishlay olishi hamda muloqot ko‘nikmalariga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, bugungi yoshlar uchun **“bilim, mehnat va aql”** birligi va uyg‘unligiga erishish ham aynan o‘ylash salohiyatining barqarorligiga bog‘liqdir. Buning uchun esa, har bir sohani o‘rganayotgan yoshlar hayotda eng avvalo o‘zining mustahkam o‘rnini yaratish ustida bosh qotirishlari, yuksak ma’naviyatli, odob-axloqli bo‘lishlari, o‘zlari egallashga kirishgan kasb, hunar va mutaxassislikni eng yuqori darajada o‘zlashtirib olishlari, teran anglagan narsalarini boshqalarga ham o‘rgata olish darajasiga chiqishlari ularning asosiy hayotiy mezonlariga aylanishi talab etiladi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Prezidentimiz tomonidan aytilgan muhim fikr, ya’ni, yoshlarimizning kasb va hunarlarni egallashlari uchun zarur bo‘lgan uch talabning ikkitasi, ya’ni, chuqur bilim va aql asosida ish tutish mehnatni sevish. maqsadli bo‘lish, shu yo‘lda mustahkam iroda kuchiga tayanish va eng muhimi teran tafakkur yuritish negizidagina amalga oshirilishini aslo unutmaslik lozim.

Dizayn fikrlash innovatsion taraqqiyot negizi. XX asrning 80—yillaridan boshlab rivojlangan mamlakatlarda tafakkur yuritishning yangi ko‘rinishi, ya’ni, dizayn fikrlash shakli keng yoyildi. Dizayn fikrlash – bu yangi mahsulotlar va yechimlarni yaratish, narsa, voqea, ijtimoiy, siyosiy yoki texnologik jarayonning hozirgi holatini modifikatsiya (qisman isloh etish) emas, balki, reformatsiya (tubdan isloh qilish) qilish asosida o‘zgartirish yo‘lidagi innovatsion hamda o‘ziga xos yondashuvdir. Dizayn fikrlash doirasida ayni vaqtdagi talab va ehtiyojlardan ham ko‘ra, ertangi kunni loyihalash, 30-40 yildan keyingi avlod, ya’ni, kelajakdagi iste’molchi va foydalanuvchilarning talab va ehtiyojlariga katta e’tibor qaratiladi. Dizayn fikrlashning asosiy tamoyillari quyidagilar:

- an’anaviy fikrlashning antipodini topish;
- zamonaviy bilim va texnologiyalarni joriy etish;
- turli sohalar, ayniqsa, bir-biriga tamoman zid ilmiy yo‘nalishlar, kasblarni integratsiyalash borasidagi tajribalarni o‘tkazish;
- odamlar tajribasini batafsil o‘rganish va tanqidiy tahlil qilish;
- fakt va holatlarni tahlil qilishdan ko‘ra ularning mantiqiy sinteziga ko‘proq e’tibor qaratish;

- muammoga bir tomonlama qarashdan tashqariga chiqish istagi;
- har xil xatti-harakatlar va yangi mahsulot bilan o‘zaro ta’sir qilish ssenariylarini hisobga olish.

Dizayn fikrlash texnologiyasining prototipi 1950-1960-yillarda ishlab chiqilgan ijodiy usullar edi. Dizayn fikrlashning kelajakning ko‘zgusi va ustuvor ilmiy va texnologik yo‘nalish bo‘lishi haqidagi gipoteza birinchi marta ingliz olimi Gerbert Saymon tomonidan 1969-yilda “Sun’iy fanlar” deb nomlangan asarida bayon etilgan. Dizayn fikrlash usuli nihoyat o‘tgan asrning 80- yillaridan boshlab, ilmiy muomalaga keng tadbiq etila boshlandi. Keyinchalik IDEO asoschisi Devid Kelli dizayn fikrlash usulini biznes ehtiyojlariga moslashtira boshladi. U, shuningdek, Stenford universitetida dizayn tafakkur yuritish borasidagi ilmiy izlanishlar va maxsus ta’lim yo‘nalishiga asos solgan va bu borada yaratilgan innovatsiyalar hamda texnologiyalar negizida innovatsion rivojlantirish markazi faoliyatini yo‘lga qo‘ygan.

Dizayn fikrlash bo‘yicha mutaxassislar bugungi kunda bu ko‘p qirrali ekanligini aytishadi. U hamma joyda qo‘llanilishi mumkin - mobil ilovalarni yaratishdan tortib, jamoat joylarini rejalashtirishgacha. Bugungi kunda millionlab odamlarni jiddiy o‘ylantirayotgan hodisa, ya’ni, sun’iy intellekt yaratilishi ham aynan dizayn fikrlash mahsuli ekanligini qayd etish lozimdir.

Tafakkur va farosotlilik nisbati. Farosotlilik tafakkur yurita olish salohiyatining oliy darajasidir. Farosotli shaxs vaziyatni to‘g‘ri tahlil etish bilan birga shu holatning yaqin va o‘rta kelajakda qanday o‘zgarishi mumkinligini ham o‘ylab ish tuta oladi. Farosotni insonga Alloh tomonidan berilgan ilohiy ne’mat deyilishining boisi ham tez o‘zgarayotgan makon va zamon mantig‘ini nozik ilg‘ash, unga muvofiq harakatlana olish, yaxshi va yomon, katta va kichik, to‘g‘ri va noto‘g‘ri tushunchalari farqlarida yanglishmaslik, qarab ko‘ra olish, tinglab eshita bilish, hidning rangini, rangning hidini anglash, so‘zlab fikrga ko‘ndirish, eshitib rozi qilishda namoyon bo‘ladi. Farosotlilik va tafakkur qilishda masala mohiyatini anglash muhim ahamiyatga egadir. Aynan masala mohiyatini to‘g‘ri anglash nuqtai nazaridan farosotlilik bilimlilikdan farqlanadi. Shuningdek, insonni bilimlarga ega qilish orqali uni aqlli farosotli qilish imkonsizdir.Bu borada bir misol keltiramiz:

“Rivoyat qiladilarki, bir podshoh tug‘ma aqliy nuqsonli o‘g‘lini hunarmandlar to‘piga qo‘shib qo‘yibdi. Ular bolaga turli bilimlardan, jumladan, ilmu nujumdan dars berishibdi. Shoh o‘g‘li garchi ahmoq bo‘lsada, o‘ziga o‘rgatilgan narsalarni puxta egallab olibdi. Kunlardan bir kuni podshoh uni imtihon qilmoq uchun hovuchiga uzugini berkitib,

o‘g‘liga “bunda ne bor?” debdi. Bola: “Qo‘lingdagi dumaloq, sariq, ichi bo‘sh narsadir” degach, hukmdor hayratda qolib, “Alomatlarini to‘g‘ri aytding, endi uning ismini ayt” deb buyuribdi. O‘g‘il: “G‘alvir bo‘lsa kerak”, deb javob beribdi.

Podshoh “Olgan tahsiling sharofati bilan meni hayron etib, alomat – belgilarni aniq aytingu, ammo g‘alvirning hovuchga sig‘masligiga qanday qilib farosating yetmadi?” debdi afsus chekib.

Mavlono Rumiy tafakkur va farosotlik negizida insonni, avvalo, ko‘zini ochishga va ochilgan ko‘zlar bilan o‘z mohiyatiga nazar tashlashga undaydiki, bu bilan ul valiy zot insonning o‘zi bir butun olamning kichik ko‘zgusi ekanligini, bunga esa farosot orqali erishish mumkinligini o‘qtiradi.

Induktiv, deduktiv va abduktiv tafakkur nisbati. Tafakkur olamida o‘ylash shakllari bo‘yicha juda ko‘p tadqiqotlar mavjud. Agar oddiyroq qilib izohlansa aksariyat insonlar hayotiy jarayonlarda induktiv uslubda fikrlaydilar, ya’ni, inson yoxud biror holat, narsa to‘g‘risida tasavvur olmoqchi bo‘lsalar shu yo‘nalishda olingan bir yoki ikkita faktni xulosa chiqarish uchun yetarli deb hisoblaydilar.

Deduktiv tafakkur yurituvchilar esa, inson yoxud biror bir holat xususida muayyan xulosaviy fikrga ega bo‘lmoqchi bo‘lsalar, avval masalani turli tomonlardan tahlil etadilar , tahlildan keyin esa olingan xulosalarni saralab, sintez qilish negizida yakuniy xulosaga keladilar. Bunday toifadagi odamlar insoniyatning nisbatan kamroq qismini tashkil etadi. XX asr oxiridan boshlab abduktiv tafakkur usuli yuzasidan tadqiqotlar ko‘payib bormoqda.

Shu boisdan ham, o‘zgarayotgan zamon mantig‘i borasida tafakkur yuritish, yuz berishi mumkin bo‘lgan holatlarni idrok etib, o‘ylash abduktiv fikrlash mahsulidir.

Abduktiv fikrda nima qilsa, nima bo‘lishi mumkin, shunday hol yuz berganligining tashqi va ichki, ko‘rinmas va ko‘rinadigan sabablarining nisbatini tahlil etish muhim o‘rin tutadi.

Agar induktiv tafakkurda biror bir hodisa yuz berdi, demak, shuning uchun ikkinchi hodisa yuzaga keladi, degan nuqtai nazarga tayanilsa, abduktiv tafakkur esa agar mana bunday, yoki ana shunday qilinganida edi, mana bunday manzara yuzaga kelar edi, degan loyihaviy xulosalar asoslantiriladi. Singapur davlati rahbari Li Kuan Yu yaqin va o‘rta kelajakda yashash uchun qanday abduktiv tafakkur yuritish va yangi boshqaruv tuzilmalarini loyihalash bo‘yicha taniqlidir.

Abduktiv tafakkur yuritishda o‘zgarishlarni mantiqli boshqarish, umrini tugatgan ijtimoiy va ma’muriy tuzilmalar o‘rniga yaxshiroq

natija beradigan mohiyatan yangi boshqaruv tuzilmalarni joriy etish ham abduktiv tafakkur mahsulidir. Mamlakatimizda o‘tkazilgan davlat tuzilmalari tarkibidagi katta islohotlar, xususan, o‘z vaqtida kerak bo‘lgan, bugungi kunda esa, kam samara bilan ishlayotgan qator vazirlik va agentliklar o‘rniga yangi boshqaruv tuzilmalarining joriy etilganligi

Qo‘rquvning fikrlashga ta’siri. Davlat va jamiyat boshqaruvidagi ijtimoiy qo‘rquv, vahima ostidagi holat delikvent xulq o‘zgarishlarini yuzaga keltiradi va insonlarni maqsadli, mantiqli emas, balki, xaotik harakatlanishga chorlaydi. Ommaviy tartibsizliklar psixologiyasi haqida bir qator olimlar o‘z qarashlarini bayon etgan. Masalan, fransuz psixologi Le Bon Gyustavning fikriga ko‘ra, **“Insonning ma’lum bir guruh yoki jamoa orasida bo‘lganida o‘ziga bo‘lgan ishonchi, irodaviy kuchining ortishini va intellektual ongining susayishini kuzatamiz. Aksariyat hollarda olomondagi odamda o‘z xatti-harakatiga nisbatan nazoratning yo‘qolganligini ko‘rish mumkin”[6].**

Shu nuqtai nazardan “insonning jamoadan tashqari xatti-harakati” tushunchasi ijtimoiy psixologiya muhim ahamiyatga ega bo‘lib, inson xulq-atvorining ma’lum ma’noda huquqiy normadan chiqishi, unda inpulsiv (shartsiz refleks) harakatning namoyon bo‘lishi bilan izohlanadi.

Xaotik holatda inson ruhiyatida kuchli qo‘zg‘alishni, hissiy muvozanatsizlikning ortishi va idrok etish ko‘lamining torayishini sezish mumkin.

Xaotik holat o‘z mohiyatiga ko‘ra, psixologik jihatdan kelib chiqishiga ko‘ra, maxsus yoki ba’zan hech qanday maqsad va mulohazalarga ega bo‘lmagan insonlar tomonidan uyushtiriladigan xatti harakatlar yig‘indisidir. Fransuz psixolog olimi Le Bon Gyustavning fikricha, “olomon yig‘ilganda millati, kasbi, tilidan qat’i nazar, ularda maqsad bitta, ya’ni, vayronkorlik, tartibni buzib, hayvoniy lzzatlanish tuyg‘usi bo‘ladi, ularning ongida fikrlash to‘liq yo‘qoladi, hatto o‘lim ham ularga qo‘rqinchli emasdek ko‘rinadi”[7].

Shu boisdan ham, o‘ylay olmaslik ijtimoiy jihatdan o‘ta xavfli ruhiy holat bo‘lib, misli ko‘rilmagan fojeali oqibatlarga olib keladi.

Xulosa o‘rnida Yangi O‘zbekistonda inson qadrining yuksalishi hada inson tomonidan erkin tafakkur yuritish muhitining yaratilishi quyidagi ijtimoiy o‘zgarish jarayonlariga turtki berdi:

Insonning o‘z taqdiri, hayot tarzi va davlat siyosatidan roziligi va o‘zining jamiyat tomonidan doimiy e’tiborda ekanligini anglashidan mamnunlik, shukronalik hissining kuchayishi;

[6] Ле Бон Гюстав. Психология масс и народов. – М., 2000. – С 56.

[7] Ле Бон Гюстав. Психология народов и масс. – М., 2000. – С. 62.

Har bir insonning jamoada barqaror o‘rni shakllanganligi uning o‘z qadrini yuksalishtirishga bo‘lgan rag‘batini kuchaytirayotganligi va shu asnoda o‘z qobiliyatlari va salohiyatlarining ro‘yobga chiqarishga bo‘lgan intilishining ortib borishi;

Har bir inson ilgarigi davrlarda keng yoyilgan yondashuv, ya’ni, voqea va hodisalarning kuzatuvchisi emas, balki, o‘zini jamoaning ijtimoiy-siyosiy va bunyodkorlik faoliyatida inklyuziv tarzda namoyon etishi, ya’ni, bevosita real ishtirokchisiga aylanishi;

Har bir inson, jamoaning kuchli tomonlarini yuzaga chiqarish ustida o‘ylashining davlat va jamiyatning ustuvor siyosatiga aylanishi;

Jamoalashishda ilgarigidek, o‘zlikni kollektiv manfaatlariga to‘la bag‘ishlab, individ va shaxs sifatida kollektiv tarkibida yo‘qolib ketishi emas, balki, Yangi O‘zbekistonda odamning jamoalashishi har xillilik va individuallikni inkor etmasligi, faqat jamoada insonning insonligi to‘la ro‘yobga chiqarilishi muhitining yuzaga keltirilganligi;

Har bir inson uchun kasbiy, intellektual va badiiy taraqqiyotda eng yuqori maqom, ya’ni, “kasbi komillik” darajasiga erishish imkoniyatining yaratilishi.

Xullas, Yangi O‘zbekiston jamiyati har bir ishni chuqur o‘ylaydigan, puxta rejalashtiradigan, tafakkur dunyosi keng bo‘lgan yangi insonni tarkib toptirmoqda. Millatimiz o‘ylamaydigan, o‘ylatmaydigan makon va zamondan chiqdi va o‘ylaydigan, fikrlab xulosa qiladigan, yomondan yaxshini farqlaydigangina emas, balki, yaxshidan ham yanada yaxshirog‘ini tanlashga qobil bo‘lgan mukammal insonlarni tarbiyalab yetishtiradigan ozod, erkin makon va zamonga kirdi. O‘ylaydigan, tafakkur qiladigan Yangi O‘zbekiston makoni va yangi zamon hammamizga muborak bo‘lsin.

MUNISA MAVRULOVA,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Madaniyat va san’at mendjmenti” kafedrasi v.v.b. dotsenti,
San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

GLOBALLASHUV JARAYONLARIDA SHAXS MA’NAVIY – MADANIY EHTIYOJLARINI YUKSALTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Bugun shaxs tarbiyasi, inson kamoloti, darajasi bashariyat kelajagini belgilab beruvchi asosiy omilga aylanganligi hech kimga sir emas. Moddiyotning inson ruhiy holatidan ustun qo‘yilishi, ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat ma’naviy ustunlariga qarshi harakatlari, turli ma’naviy, mafkuraviy, g‘oyaviy tahdidlarning tobora ortib borishi, axloqsizliknng ommaviy tarzda kuchayib borishi-bularning bari insoniyati jar yoqasiga keltirib qo‘ymoqda.

Afsuski, bunday noxush holatlar mamlakatimizda ham tez-tez uchrab turibdi. Shu ma’noda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlariga quloq tutishni maqsadga muvofiq deb bildik.

“Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va havflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, aholi barcha qatlamlarining axloqiy tarbiyasiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Negaki, mamlakatimizdagi mavjud uzluksiz ta’lim tizimi aholining beshdan bir qismini qamrab olgan. Ushbu tizim qamrab olgan bolalar va o‘smirlardan tashqari, aholining katta qismi orasida ma’naviy-ma’rifiy tarbiya ishlarining tizimli yo‘lga qo‘yilishi va bu borada yuksa samaradorlikka erishish o‘tkir zaruratga aylanmoqda. Ha, haqiqattan ham, bugun ta’lim, tarbiya, aholi orasida olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar, ta’bir joiz bo‘lsa, aytish kerakki, millat va davlat taqdirini hal qiladigan muhim omilga allaqachon aylanib bo‘ldi. Qayerda mazkur masalaga davlat ahamiyatiga ega zarurat sifatida e’tibor berilayotgan bo‘lsa, o‘sha joyda tinchlik, barqarorlik, bardavom rivojlanish bor. Ushbu masalaga qayerda beye’tibor munosabatda bo‘linsa, o‘sha joy, shubhasiz, tartibsizliklar, tahdidlar, inqirozlar, maskaniga aylanib qolmoqda. Bunga misollar juda ko‘p.

Bugun O‘zbekiston hukumati aholini, ayniqsa, yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor bermoqda, jamiyat taraqqiyotini kishilar axloqiy madaniyati bilan uyg‘unlikda ko‘rmoqda. Ammo, afsuski, dunyoning

qator hududlarida yuz berayotgan ommaviy axloqsizliklar, ta’lim-tarbiyani tashkil etishdagi xatolar mamlakatimizga ham ta’sir etmasdan qolmayapti.

Shuning uchun ham biz Yangi O‘zbekistonni barpo etish barorbarida erishishimiz bo‘lgan barcha yutuqlarimizni tarbiya, olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligi bilan bejizga bog‘lamayapmiz. Tarbiya ishidagi samaradorlik, bizning fikrimizcha, eng avvalo, tarbiyalanuvchining ehtiyoji bilan bog‘liq. Shu ma’noda inson va jamiyat taraqqiyoti asosi, uni rivojlantirishga yo‘naltirilgan kuch va omil ehtiyoj ekanligini aslo unitish mumkin emas.

Ehtiyoj muayoyan tizimining shunday ichki qonuniy hosilasi hisoblanadi. U ehtiyojning sohibi, egasi bilan muhit o‘rtasidagi aloqadan kelib chiqadi va oqibatda o‘zining real mavjudlik holati, faoliyati uchun, zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy quvvat, energiya, axborot komponentlarini oladi. Biologik va ijtimoiy tizimlar o‘zini o‘rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhit bilan bo‘ladigan o‘zaro aloqa va munosabatlarida o‘zlariga xos faolliklari tufayli turli nomutanosiblik va ziddiyatlarni bartaraf etib boradi. Shuning uchun ham ijtimoiy ehtiyoj mavjud tizimining ichki ziddiyatlarini hal qilishga qaratilgan faoliyatga, harakatlarga qodirligi bilan chambarchas bog‘liq.

Ehtiyoj tushunchasi muayyan ijtimoiy tizim qonunlari asosida kelib chiqadigan zaruriyatining ko‘rinishi, namoyon bo‘lishini, organizm, inson shaxsi, ijtimoiy gurux, millat, xalq, jamiyatning mavjudligi va rivoji uchun obyektiv ravishda zarur bo‘lgan faolitni yuzaga chiqaruvchi ichki sababiyatni belgilaydi.

Ijtimoiy hayotda ehtiyoj suyektining obyektiv xossasi bo‘lib, uning zaruriy parametrlari, real, haqiqiy ahvoli bilan ob’ktiv xossasi bo‘lmish ehtiyoj o‘rtasida bo‘lgan ziddiyat shaklida, ya’ni shu ijtimoiy hodisa mavjudligining subyektiv shart-sharoiti sifatida namoyon bo‘ladi. Kishilarning yashashlari va inson sifatida kamol topishlari uchun zarur bo‘lgan barcha narsalar ularning hayotiy ehtiyojlarini tashkil etadi

Yuqorida bildirilgan fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, ehtiyoj har bir ongli insonning rivojlanish, kamolga yetishi uchun imkon beradigan imtiyoz.

Odatda ehtiyojlar tabiiy va madaniy turlarga bo‘linadi. Tabiiy extiyojlar bizning tana a’zolarimizning rohatlanishi, ovqatlanish, dam olish uxlash kabi, holatlarga bog‘liq bo‘lsa, madaniy-ma’naviy ehtiyojimiz chegarasi juda keng, tuganmas hisoblanadi. YA’ni, tabiiy ehtiyojlarimizni qondirishda ma’lum chegaralar mavjud bo‘lsa, madaniy ehtiyojlarimiz darajasi o‘ta rang-barang.

Ma’naviy-madaniy ehtiyojlar odatda shaxs va jamiyat, shaxslararo munosabatlar, madaniy-ma’rifiy aloqalar o‘rnatish usullari bilan bevosita bog‘liqdir. Shuningdek, o‘qish, bilim olish, tajriba orttirish, o‘zini-o‘zi rivojlantirishga intilish ham inson madaniy-ma’naviy ehtiyojining muhim jihatlari hisoblanadi.

Shu narsani ta’kidlash lozimki, insonning tabiiy ehtiyojlari, ularning qondirilishi masalasi madaniy ehtiyojlarga qaraganda aniqroq. Madaniy ehtiyoj va uning qondirilishi jarayoni ko‘pchilik uchun mavhumroq narsaga o‘xshaydi. Aslida-chi? Aslida, kishi madaniy ehtiyoji aniq bo‘lgani kabi, uning qondirilish jarayoni ham mavhum emas, u aniq-ravshan holat hisoblanadi.

Madaniy ehtiyojning mavjudligi va uning qondirilishga bo‘lgan intilishga bo‘lgan intilish, har qanday harakat pirovardnatijada insonning ma’naviy qiyofasi shakllanishiga olib keladi. Shaxs ma’naviy qiyofasining o‘zagini uning ma’naviyati tashkil etishi hammaga ma’lum.

Biroq, bugungi kunda ma’naviyat, ma’naviy-ma’rifiy ishlar haqida so‘z ketganda mazkur atamalarga chap ko‘z bilan qarovni, ularning imkoniyatlariga shubha qiluvchilar ham topilayotganligi, aslida, xavotirli holat. M’naviyat, ma’rifatning inson mavjudligini eng muhim ko‘rinishi ekanligini e’tiborga oladigan bo‘lsak hech shubhasiz, ularga shubha bilan qarovchilar aslida kaltabin, millat va mamlakat taqdiriga befarq odamlar ekanligini sezish qiyin emas.

To‘g‘ri, ma’naviyat, inson ma’rifati o‘zgarmaydigan narsa emas. Ayniqsa, bugun Yangi O‘zbekistonni barpo etish asnosida tarbiya, ma’naviyat masalalariga qo‘yiladigan talablar ham o‘zgarib bormoqda. Yangi sharoit, shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamon kishilar ma’naviy-madaniy ehtiyojlarga ham o‘zining ta’sirini o‘tkazmasdan qolmayapti. Bularning bari ma’naviyat kabi o‘ta muhim fenomen hodisaning mazmun-mohiyatini real zamon va makonda aniqlab olishni talab etmoqda.

Bu haqida muhtaram Prezidentimiz quyidagilarni yozadi: “Afsuski, hali oramizda milliy g‘oya va ma’naviyatning mohiyatini to‘liq aniq yetmagan, “ma’naviyat o‘zi kerakmi-yo‘qmi?”, deb yurganlar ham bor. Milliy g‘oya deganda, eski sovet mafkurasining hayoliga keltirib, “labiga uchuq toshadiganlar” ham yo‘q emas.

Ma’naviyatimiz biz uchun hayot-mamot masalasi ekanligini mutlaqo unutmaslik lozim. Axir, bugungi dunyoda axloqsizlik ma’naviy ommaviy tus olayotgan, yoshlarimiz tafakkur tarzida asosan moddiy masalasiga urg‘u berilib, ming yillar davomida shakllangan, davrlar sabog‘idan o‘tgan milliy qadriyatlarimizga nisbatan bepisandlik munosabatlari kundan-kun kuchaygan hozirgi davrda ma’naviyatni inkor etish mumkinmi?

Shuning uchun ham mamlakat rahbari kuyunchaklik bilan “Hech qachon unutmasligimiz kerak: ma’naviyat – bu, avvalo, insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat va e’tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo‘lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlardir. Bir so‘z bilan aytganda, ma’naviyat - jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qanchalik mustahkam bo‘lsa, xalq ham davlat ham shuncha kuchli bo‘ladi”, deb ta’kidlagan edi.

Haqiqatdan ham yuqorida qayd etilgani ma’naviyat – fazilat. U barcha yutuqlarimiz, jamiyatni ijtimoiy-madaniy barqarorligini ta’minlashning poydevori hisoblanadi. Ta’kidlash lozimki, bunday natijaga erishish o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Buning uchun uzoq, mashaqqatlimehnat qilish talab qilinadi.

Millatimiz o‘tmish tarixiga e’tibor qiladigan bo‘lsak, asrlar davomida shaxs kamoloti, jamiyat ma’naviy hayotini barqarorlashtirib eng dolzarb muammo bo‘lib kelgan. Shu ma’noda yurtimizda yashab, ijod qilgan yuzlab mutafakkir-allomalarimizning tarbiyadan ko‘zlagan asosiy maqsadi, oddiyroq, jo‘nroq qilib aytganda, yomon odamni yaxshi odamga, yaxshi odamni go‘zal sifatli insonga aylantirishdan iborat bo‘lgan, desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Yoshlarimiz ma’naviy-madaniy extiyojlarini shakllantirish o‘ta qiyin jarayon hisoblanadi. Ayniqsa, bugun mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni qurish, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishga kirishar ekanmiz, bu jarayonlarni jamiyat a’zolari, ayniqsa, yoshlar ma’naviyatini madaniyat darajasini oshirmasdan amalga oshirish aslo mumkin emas.

Shu ma’noda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019 yilda ilgari surilgan g‘oya – “Besh muhim tashabbus”ni alohida takidlash kerak, deb o‘ylaymiz. Ushbu tashabbus bugun butun diyorimizda keng yoyildi, yoshlar orasidakatta nufuzga ega ijtimoiy-ma’naviy harakatga aylandi. Minglab yigit-qizlarimiz mazkur tashabbus asosida madaniyat, sa’noatning turli jabhalarida o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini sinab ko‘rmoqdalar.

Ayniqsa, jamiyatda kitobxonlik madaniyatini oshirish borasidagi ishlar o‘zining real natijalarini bermoqda. Bu borada ko‘plab ko‘rik tanlovlar o‘tkazilmoqda, badiiy asarlarni muhokama etish hollari esa an’naga aylanib bormoqda.

Aslida, “Besh muhim tashabbus” yoshlarimizning ma’naviy-madaniy ehtiyojlarini shakllantirish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri, deyish mumkin. Joylardagi “Besh muhim tashabbus” markazlarining tashkil

etilishi esa mazkur jarayonining yanada jonlanishiga, ommaviy tus olishiga sabab bo‘lmoqda.

Ma’naviy-madaniy ehtiyojlar tabiiy ehtiyojlardan farqli o‘laroq insonning ilmiy-ijodiy, amaliy faoliyati natijasida sekin-astalikbilan shakllanib boradigan hodisa hisoblanadi. Bu jarayonda san’atkorning ma’suliyati alohida ahamiyat kasb etadi. San’atkor ma’suliyati, eng avvalo, xalqqa xizmat qilishda, uning ma’naviy ehtiyojini qondirishda, kayfiyatni ko‘tarishda bilinadi. Shu ma’noda qayd etish lozimki, o‘zini san’atkor deb bilgan shaxs, deylik, qo‘shiqchi o‘z ashulasida biror-bir g‘oyani ifoda eta olmasa, uni tom ma’nodagi san’atkor, deyish qiyin.

Biz yuqorida ma’naviy-madaniy ehtiyoj o‘z-o‘zidan shakllanadigan jarayon emasligini bot-bot aytgan edik. Haqiqatdan ham shunday. Madaniy ehtiyoj obyektini o‘rganish, tahlil qilish, to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish, regulyatsiya qilish asosida shakllanishi mumkin. Aks holda bir tomondan yoshlarimizning sof milliy madaniyatdan yiroqlashishiga, boshqa tarafdan, milliy mazmunga yot soxta asarlarning ko‘payib ketishiga imkon berishimiz mumkin.

Bugungi kunda ma’naviyat, Ma’naviy-ma’rifiy ishlar haqida so‘z ketganda mazkur atamalar chap ko‘z bilan qarovchi, ularning imkoniyatlariga shubha qiluvchilar ham topilayotganligi, aslida, xavotili holat. Ma’naviyat Ma’rifatning inson mavjudligining eng muhim ko‘rinishi ekanligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, hech shubhasiz, ularga shubha bilan qarovchilar aslida kaltabin, millat va mamlakat taqdiriga befarq odamlar ekanligini sezish qiyin emas.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. –Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2022. -255-бет.

2. Республика Маънавият ва маърифат марказининг жорий архиви. Ижтимоий-маънавий муҳитни баҳолаш технологияси. - 27 бет.

3. Художественная культура и развитие личности: проблемы долгосрочного планирования. – М,. 1987. -27-39-бетлар.

4. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. –Тошкент, “Маънавият”, 2022. -252-бет.

5. Ўзбекистон ёшлари: ҳолати ва истиқболлари. 2018-2022 йиллар. Миллий ҳисобот. –Тошкент, 2023. -60-бет.

6. Қиём Назаров. Жаҳон фалсафаси қомуси. – Тошкент, “Маънавият”, 2023. – 750 бет.

FOZIL SULTONOV,
Turon FA akademigi, jamoatchilik arbobi

FARHOD HOJIYEV,
“O‘zbekiston 24” telekanali bosh muharriri

MILLIY TA’LIMOTNI YARATISH ZARURATI VA UNING AHAMIYATI

Ma’lumki, har bir mamlakatning rivojida xalqini yagona maqsad va intilishlarga birlashtiruvchi, safarbar etuvchi “milliy g‘oya”ga ehtiyoj bor. Milliy g‘oyaning asosida esa millatning g‘ururini aks ettiradigan “milliy ta’limot” yotadi. Masalan, bir necha ming yillik tarixiga ega, yalpi ichki mahsulot hajmi bo‘yicha dunyoda etakchi davlat - Xitoy milliy g‘oyasining asosida “Konfutsiylik” va “Daosizm” ta’limotlari, shuningdek jahonning to‘rtinchi iqtisodiyoti darajasiga ko‘tarilgan, innovatsiya, IT sohasida eng rivojlangan Yaponiya davlatida esa “Samuraylik ruhi” ta’limoti mavjud va hokazo.

Bugun mana shunday o‘zbekni, O‘zbekistonni birlashtiradigan, xalqimiz milliy g‘ururini uyg‘otadigan, jo‘shtiradigan, milliy tiklanishdan milliy yuksalishga safarbar etadigan, Uchinchi Renessansga poydevor bo‘ladigan kuchli va xalqchil milliy g‘oyaga, milliy ta’limotga ehtiyojimiz bor. Xo‘sh, milliy g‘oya, milliy ta’limotni qanday va nimaga asoslanib yaratish mumkin? Mazkur savolga javobni biroz ortga surib, buyuk davlatchiligimiz tarixi, ulug‘ va mutafakkir bobolarimizning hayoti va faoliyati, insoniyat tamadduniga qo‘shgan hissasiga e’tiboringizni qaratamiz.

G‘arb adabiyotlarida Yevropa mamlakatlarining keskin madaniy yuksalishga olib kelgan XV-XVII asrlarni Renessans – Uyg‘onish davri deb tilga olinadi. Holbuki, IX-XII asrlardayoq Markaziy Osiyoda Yevropadan bir necha asr ilgari madaniy yuksalish – Renessans voqeligi yuz berganligini hech kim inkor eta olmaydi. Aynan mana shu madaniy yuksalishYevropa Renessansining vujudga kelishiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Markaziy Osiyo madaniyati taraqqiyotida Temur va Temuriylar hukmronlik davrining (XIV asr ikkinchi yarmi - XVI asr boshlari) katta o‘rni va roli bor. Ushbu tarixiy davrda ilm-fan, san’at, madaniyat, me’morchilik rivojlanishning eng yuqori cho‘qqisiga ko‘tarildi. Mo‘g‘ullar mustamlakachiligidan xolos bo‘lgan ushbu mintaqa ikkinchi bor Uyg‘onish (Ikkinchi Renensans) davrini boshidan o‘tkazgandi.

Tibbiyot, riyoziyot, handasa, geografiya, falakiyot, tarix, mantiq, adabiyot, falsafa, axloqshunoslik va boshqa fanlar taraqqiy etdi.

Birgina Mirzo Ulug‘bek asos solgan falakiyot maktabida Mansur Koshiy, G‘iyosiddin Jamshid, Ali Qushchi, Miram Chalabiy va boshqa o‘nlab zabardast olimlar yetishib chiqdi.

XV asrda buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning tarixiy xizmati tufayli turkiy til va adabiyoti qaytadan tug‘ildi. Uning timsolida o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga ko‘tarildi. Navoiy o‘zbek tilining keng imkoniyatlarini boqiy, betakror, umumbashariy asarlari misolida asoslab berdi.

Bundan ko‘ramizki, XIV-XV asr yuksalishini Markaziy Osiyo zaminida IX-XII asrda ro‘y bergan va uzilib qolgan madaniy-ma’naviy yuksalish - Uyg‘onish davrining tiklanishi va oliy darajasi deb atash mumkin.

Uyg‘onish davrida madaniy-ma’naviy hayotda yuksak insoniy qadriyatlar - ilmga intilish, aqlni ulug‘lash, insoniylik, ruhiy poklanish, axloqiy kamolotga erishish, adolat, ijtimoiy yuksalish, barcha uchun baxt-saodat, do‘stlik-birodarlik, komil insonni yaratish kabi ezgu g‘oyalar olg‘a surildi. Buni o‘sha davrda yashab o‘tkan olimlar, ulamolarining ilmiy, badiiy asarlari tasdiqlaydi:

Islom madaniyatini ravnaq toptirishda betakror hissa qo‘shgan “Muhaddislar sultoni” Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Mansur al-Moturidiy, “Burhonuddin val-milla”, ya’ni “Din va millatning hujjati” deya e’tirof etilgan Burhonuddin al-Marg‘inoniy, Abduxoliq g‘ijduvoniy, “Diling Allohda, qo‘ling mehnatda bo‘lsin”, degan buyuk hikmat qoldirgan Bahouddin Naqshband kabi benazir allomalar shular jumlasidandir.

Masalan, Al-Moturidiy o‘z davrining eng yetuk diniy ilm sohibi hisoblanib, musulmon dunyosida “Musulmonlarning e’tiqodini tuzatuvchi” degan yuksak sharafga sazovor bo‘lgan. Bilish nazariyasi kalom ilmi bilan shug‘ullangan olimlarning har doim diqqat-e’tiborida bo‘lgan. Lekin shuni alohida ta’kidlash joizki, ushbu masala bilan ilmiy asosda jiddiy shug‘ullangan kamdan-kam olimlardan biri Abu Mansur al-Moturidiy edi. Uning qalamiga mansub ikkala yirik asar (“Kitob at-tavhid” va “Ta’vilot ahdi as-sunna”) ham bilish nazariyasiga bag‘ishlangan. Ayniqsa, buyuk allomaning “Kitob at-tavhid” asari kalom ilmidagi bilish nazariyasiga bag‘ishlangan eng dastlabki manba bo‘lib, olim ushbu masalani g‘oyatda nafis uslubda ifoda etadi. Imom al-Moturidiy ta’limotiga ko‘ra, bilishning uchta asosiy manbai bor: hissiy(sezgi) a’zolar vositasida, naql-rivoyatlar vositasida va aql-idrok vositasida. Imom al-

Moturidiyning bilish nazariyasida aql-idrokga alohida e’tibor qaratilgan.

Mashhur faylasuf, qomusiy olim Al-Forobiy yunon falsafasini sharhlab, dunyoga keng tanitganligi tufayli Sharq mamlakatlarida uning nomi ulug‘lanib, “Al-Muallim as-soniy” “Ikkinchi muallim” (Aristoteldan keyin), “Sharq Arastusi” deb yuritilganligini alohida e’tirof etish kerak.

Forobiy 70 dan ortiq tillarni bilgan. Taxminan 941-yildan boshlab Damashqda yashagan. Shahar chekkasidagi bog‘da qorovul bo‘lib, kamtarona kun kechirgan, ilm bilan shug‘ullangan. Forobiy o‘rta asr davri tabiiy fanlari va ijtimoiy bilimlarining qariyb barcha sohalarida 160 dan ortiq asar yaratgan.[1]

Forobiy asarlari XII-XIII asrlardayoq lotin, qadimiy yahudiy, fors tillariga, keyinchalik boshqa tillarga tarjima qilinib, dunyoga keng tarqalgan. Forobiy “Musiqa haqida katta kitob” degan ko‘p jildli asari bilan o‘rta asrning yirik musiqashunosi sifatida ham mashhur bo‘lgan.

Buyuk xizmatlari uchun “Shayxur-rais” unvoni, Yevropada Avitsenna nomi bilan mashhur bo‘lgan Abu Ali Ibn Sino xotirasi kuchli, zehni o‘tkir bo‘lib, u 10 yoshidayoq Qur’oni Karimni boshdan-oyoq yod o‘qigan, 13 yoshidan boshlab matematika, mantiq, fiqh, falsafa ilmlari bilan shug‘ullangan. Ibn Sino asarlarining umumiy soni 450 dan oshadi, lekin bizgacha faqat 160 ga yakin asari etib kelgan, xolos. Uning bizga ma’lum bo‘lgan katta asari “Kitob ush-shifo” (“Shifo kitobi”) 22 jilddan iborat bo‘lib, 4 ta katta bo‘limini mantiq, fizika, matematika, metafizikaga doir masalalar egallagan. Kitob juda ko‘plab Yevropa va Sharq tillariga tarjima qilingan. Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi asarlaridan “Kitob al-qonun fit-tibb” – “Tib qonunlari” kitobi necha asrlar davomida Yevropaning eng nufuzli oliy o‘quv yurtlarida asosiy tibbiyot darsliklaridan biri sifatida o‘qitib kelingan, dunyo miqyosida “Meditsina”, “Sog‘lom turmush tarsi” degan tushunchalarning fundamental asosi bo‘lib xizmat qilgan.

Ibn Sino asarlari Yevropada XII asrdan boshlab tarjima qilina boshlandi. “Tib qonunlari” asarining o‘zi lotinchada 30 martadan ortiq nashr qilingan. Ibn Sino zamonasining yetuk shoiri ham bo‘lgan. Uning Aristotel (Arastu) ta’limoti xususida Abu Rayhon Beruniy bilan yozishmalari fan olamida mashhur.

Ikkinchi Renessansga asos solgan buyuk bobokalonimiz Amir Temur o‘z davrida bir-biriga qarama-qarshi sivilizatsiyalarning o‘zaro yaqinlashuvi, integratsiyalashuvining tashabbuskori, uzoqni ko‘ra biluvchi davlat arbobi sifatida ham Sharq, ham G‘arbga tanildi. U turli din va boshqa toifalardagi kishilar o‘rtasidagi manfaatlarni uyg‘unlashtiruvchi siyosiy arbob sifatida faoliyat yuritdi va jahon xalqlari tarixida o‘chmas iz qoldirdi. Amir Temur Osiyo va Yevropa xalqlarining har sohada o‘zaro

hamkorligi uchun qulay imkoniyat va shart-sharoitlar yaratdi. Shu sababli, uning umumbashariy sivilizatsiya taraqqiyotidagi o‘rni beqiyosdir. Amir Temur davrida Markaziy Osiyoda “Ikkinchi Uyg‘onish” yuz berdi, fan, san’at hamda madaniyat gullab yashnadi va Yevropa Uyg‘onishida katta rol o‘ynadi. Amir Temur diplomatik munosabatlarda ham tashabbusni o‘z qo‘liga olib, xalqaro aloqalarni har tomonlama rivojlantirishga intildi.

XIX asr fransuz mutafakkiri, davlat arbobi, tarixchi va shoir Alfons de Lamartin Amir Temur saltanatidan hayratlanib: “Yevropa na Iskandarda, na Attilada va na Moskoviya zafarini quchgan yangi Fotih (Napoleon) da adolatli qonunlar asosiga qurilgan bunday boshqaruvni bunyod etgan emas” degan bo‘lsa, boshqa bir XX asr fransuz sharqshunos olimi Jan Pol Ru o‘zining “Tamerlan” asarida: “Temurning nomi Aleksandr, Doro, Sezar, Chingizxon, Bonapartlar bilan yonma-yon turadi, Temur insoniyat tarixining buyuk siymolaridandir” deb yozgan edi. Fransiyalik olim, temurshunoslikka katta hissa qo‘shgan Lyusen Keren esa bunday degan edi: “Temur beqiyos harbiy sarkarda bo‘lgan, u Aleksandr Makedonskiy va Napoleonlar bilan tenglasha oladi”.[2]

Buyuk o‘zbek davlatchiligi tarixida ikkita Renessans voqeligini o‘tkazgan xalqimizning o‘tmishini, o‘sha davrda yashab, o‘z davri, bashariyat uchun ulkan ilmiy-ma’naviy meros qoldirgan mutafakkir, allomalar hayoti va ijodi, ular ilgari surgan g‘oya va ta’limotlarni chuqur tadqiq etish juda ham muhim. Biz so‘z avvalida “milliy g‘oya”, “milliy ta’limotimiz”ni yaratish masalasini tilga olgan edik. o‘zimizga, xalqimizga xos va mos bo‘lgan bunday ulug‘vor g‘oya va ta’limotlar asosini, nazarimizda uzoqdan qidirishga hojat yo‘q. Uni buyuk davlatchiligimiz, uni shakllanishi va dunyoda e’tirof qilinishida katta xizmat qilgan donishmand, qomusiy mutafakkirlarimizning bizga meros qilib qoldirgan noyob, taraqqiyot, komillikga da’vat qiluvchi, milliy o‘zlikni yuksaklarga ko‘taruvchi o‘zbekka xos g‘oyalarni tarannum etkan ma’naviy-ilmiy merosidan axtarishimiz kerak.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezident Sh.Mirziyoyev qarori bilan (PQ № 5040, 26 mart, 2021-y.) Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi qoshida Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tashkil etilgandi. Zero, mazkur aql markazi faoliyatining asosiy ustivor vazifalaridan biri “Milliy ta’limotimiz”ni yaratishdan iborat ekan, quyidagi yo‘nalishlarda tadqiqotlarni amalga oshirishni taklif va tavsiya qilamiz:

1. Qomusiy olimlarimiz – Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek va boshqa allomalarimizning ma’naviyat, falsafaga oid asarlarini alohida chuqur tadqiq etish va ularda singdirilgan milliy g‘oya, milliy ta’limotni ajratib o‘rganish;

2. Donishmand Kaykovusning “Qobusnoma”, Amir Temurning “Temur tuzuklari”, jadidchilarimiz Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon, Botuxon, Avloniy va h.k.lar ta’limotlariga alohida e’tibor qaratish;

3. Buyuk diniy ulamolarimiz - Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Mansur al-Moturidiy, Bahovuddin Naqshbandiy va h.k.lar ta’limotlari;

4. Uchinchi renessans asosiga mustahkam poydevor bo‘ladigan “Milliy ta’limotimiz”ni yaratishda zamonimizning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, tarixiy, ma’naviy-ma’rifiy sohasida tanilgan eng zukko, ziyoli olimlaridan iborat ishchi guruhini tashkil etish va ular faoliyatini jadallashtirish milliy ma’naviyatimizni rivojlantirishiga hissa qo‘shishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sharq tafakkur nurini dunyoga tanitgan yurtimizning buyuk allomalari (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). Sultonov F.X., Sultonova E.S. Toshkent, “ART VERNISSAGE” nashriyoti, 2023-yil, 136 b.

2. L.Keren, A.Saidov. Amir Temur va Frantsiya., T., 2016 - y.523b.

AKBAR ALIMOV,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

HUSAYN VOIZ KOSHIFIY FUTUVVAT AHLINING HISLATLARINI BAYONI XUSUSIDA

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda Markaziy Osiyo hududida vujudga kelgan falsafa va kalom, fiqh va tasavvuf ilmining ma’naviy-axloqiy tafakkurga ta’sirini o‘rganish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. “Vatanimiz o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘yayotgan bugungi kunda biz uchun qadimiy tariximiz va madaniyatimizga oid yangi ilmiy tadqiqotlar har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega”[1;32]. Shu ma’noda, mutafakkirlarimiz, xususan, Husayn Voiz Koshifiy ijodida ilgari surilgan ratsionallikka asoslangan axloqiy-falsafiy merosini hozirgi murakkab globallashuv sharoitida yoshlarimizni turli ma’naviy tahdidlardan himoya etish tanlangan mavzuimizning ilmiy nuqtayi nazardan dolzarbligini ko‘rsatadi.

Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati” asari tasavvuf ta’limotida rioya etilishi lozim bo‘lgan axloq-odob qoidalari batafsil bayon etilgan nazariy manbadir. Risolasining boshida tadqiqot mavzusi va maqsadini aniq bayon etar ekan shunday deydi: “Bilgilkim, har ilmning o‘z mavzui bor va unda o‘sha ilmning mohiyati, hodisa va qoidalari xususida bahs boradi.... Bas, ... futuvvat ilmining o‘z mavzui bor, bu mavzu – inson ruhi hisoblanadi. Zero, insonning ruhini tarbiyalash, parvarish etish orqali uni go‘zal va hamida xulq-atvorli, fazilatli qilib etishtirish mumkin” [4;18].

Koshifiy har bir ilmni obyekti, xususan, futuvvat ilmining ham tadqiqot obyekti mavjudligini ta’kidlar ekan, uning obyektini ratsional tarzda tushuntiradi. Inson kamolotga faqat e’tiqod orqali emas, balki, xulq-atvorini takomillashtirib, ruhini tarbiyalab yetishadi deyishi, allomaning muammoga ratsional yondashuvi edi. Futuvvat iborasini dastlab lug‘aviy ma’nosini, so‘ng mazmuni va mohiyatini ham shu tarzda bayon etar ekan, shunday deydi: “majoziy ma’noda insoniy fazilatlar nuqtai nazaridan kamolot chegarasini zabt etgan odamga nisbatan qo‘llaydilar. Va majoz deyilishiga sabab shuki, modomiki soliq (hali) nafs havasi tuzog‘ida tabiiy ehtiyojlar bandida ekan, u go‘yo go‘dakka o‘xshaydi, nafs martabasidan taraqqiy etib, dil maqomiga yetishsa, balog‘at ostonasidagi yosh o‘spirin

qabilida bo‘ladi. Yosh yigitda esa qon qaynoq, badan quvvati (jismoniy quvvat) etarli bo‘lganidek, javonmardlarda ham insoniy kamolot (bilan birga) ma’naviy quvvatlar mavjuddir va ushbu martabadagiga “fatiy” deydilar... Javonmardlikning nihoyati yaxshilik yo‘lida jondan kechishga tayyor turish, fidoyi qalb egasi bo‘lishdir” [4;18]. Koshifiy javonmardlik tushunchasini izohlar ekan, shunday deydi: “agar haq gapni aytadigan bo‘lsak, javonmardlikning butun mohiyati quyidagi ikki sifatda mujassamdir: biri – do‘stlarga naf etkazish, ya’ni saxovat, ikkinchisi – do‘stlarni dushman zararidan himoya qilish, ya’ni shijoat...” [4;19].

Husayn Voiz Koshifiy bayon etgan “saxovat” hamda “do‘stlarni dushman zararidan himoya qilish, ya’ni shijoat” kabi fazilatlar tafakkur faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, inson o‘zida bu fazilatlarni doimo takomillashtirib borishi lozimligini ta’kidlaydi. Futuvvatning zohiriy va botiniy ruknlarini tushuntirar ekan, ularga mantiqiy tafakkur va farosat orqali erishish mumkinligini uqtiradi. Masalan, futuvvatning zohiriy ruknlari quyidagilar: birinchisi – g‘iybat, yolg‘on va bo‘hton hamda behuda so‘zlardan tilni tiyish. Zerokim, tilidan xalqqa ozor yetmaydigan odamgina futuvvatga da’vo qila oladi. Insonni o‘zini – g‘iybatdan tiyishi, bo‘hton va yolg‘on so‘zlarni bir-biridan farqini ajratish va behuda, keraksiz so‘zlardan o‘zini saqlashi – bu jarayonlarning barchasi mantiqiy tafakkur, fahm-farosat va teran idrok orqali, ya’ni ratsional bilish, anglash orqali amalga oshadi.

Fikrlarini davom ettirar ekan, Husayn Voiz Koshifiy shunday deydi: “Ikkinchi – nojo‘ya, nomaqbul so‘zlar, bo‘hton, g‘iybatdan quloqni berkitish. Uchinchisi – ko‘rish nojoiz hisoblangan narsalardan ko‘zni yumish. To‘rtinchi – harom narsalardan, xalq ozoridan qo‘lni tortish. Beshinchisi – borish man qilingan joylardan oyoqni tortish. Haqorat va gunohga sabab bo‘ladigan, g‘ammozlik, gap tashish va ziyon-zahmat, ozorga yetaklaydigan ishlarga qadam qo‘ymaslik. Oltinchisi – harom ovqatlardan og‘izni, zinodan a’zoni berkitish. Zino – futuvvat ahdini buzish, haromxo‘rlik esa – futuvvat rishtasini uzishdir” [4;19]. Insonni salbiy illat va nuqsonlardan yiroq bo‘lishi lozimli hamda ijobiy axloqiy xislatlarga o‘z-o‘zini tarbiyalab erishish mumkinligi alloma tomonidan ilgari suriladi.

Futuvvatning zohiriy ustunlarini bayon etar ekan, mazkur jihatlarning bajarilishi muridning aqliy faoliyati va fahm-farosatiga bog‘liqligini alohida ta’kidlaydi.

Husayn Voiz Koshifiy futuvvatning botiniy jihatlarini bayon etar ekan, unga ham ratsional faoliyat, mantiqiy tafakkur yuritish va farosat orqali erishish mumkinligini quyidagicha tushuntiradi: “....Beshinchisi –

havobalandlik va g‘ururni tark etish. Ya’ni, qanchalik ma’qul va maqbul ishlarni amalga oshirsa ham mag‘rur bo‘lmaslik, zero iblis kibru havo tufayli jannatdan badarg‘a bo‘ldi” [4;20].

Kibr, manmanlik va mag‘rurlik tariqat vakillariga yot jihat ekanligi va murid tafakkur orqali bu illatlardan parhezda bo‘lishligini ta’kidlaydi. Futuvvatning botiniy jihatlarini yoritar ekan yana shunday deydi: “oltinchisi – qurb (ilohiyotga yaqinlashish) va vaslat maqomiga butun vujudi, dilu joni bilan intilish. Ya’ni ko‘ngil uyini riyozat supurgisi bilan changu g‘ubor, chiqindilardan tozalab turish, toki ko‘ngil ishq sultoni o‘tiradigan taxtga aylansin... zero, modomiki ko‘ngil dunyo taalluqoti – tashvishlari g‘alvasidan qutulmas ekan, u do‘st muhabbatining makoniga aylanmaydi” [4;20].

Tasavvufda futuvvatning ruknlarini tushuntirib bergandan so‘ng uning shartlarini ham izohlab berar ekan, shunday deydi: “agar futuvvatning shartlari nechta, deb so‘rasalar, etmish bitta deb ayt: buning qirq sakkiztasi vujudiy, yigirma uchtasi azaliy (parhez qilinadigan) shartlardir. Vujudiylar (quyidagilardir): birinchisi – Islom, ikkinchisi – imon, uchinchi – aql, to‘rtinchi – ilm” [4;20]. Futuvvatning shartlarini bayon etar ekan, Islom va iymondan keyin aql va ilmni ta’kidlashi har qanday e’tiqod aqlga tayanishi kerakligini uqtiradi. Islomning aqidalari va arkonlarini faqat mantiqiy tafakkur, aql va ilm orqali o‘zlashtirish mumkinligiga urg‘u bermoqda. Futuvvatning boshqa shartlari ham aqlga tayanishi kerakligini quyidagicha izohlaydi: “o‘ttiz birinchi – tilga faqat savobga qaratilgan kalomni keltirish, o‘ttiz ikkinchi – ko‘p bilib, oz gapirish, ya’ni bilim mo‘lligidan sukut saqlash” [4;20].

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, mazkur xislatlar faqat ratsional faoliyat orqali shakllanadi.

“O‘ttiz uchinchi – hamma joyda halolni talab qilish, o‘ttiz to‘rtinchi – salom odobini bajo keltirish, o‘ttiz beshinchi – yaxshilar va poklar bilan suhbatlashish, o‘ttiz oltinchi – oqillar bilan suhbatlashish” [4;20]. Bu xislatlar diniy hamda axloqiy etiketning asosiy shartlaridan bo‘lib, mantiqiy tafakkur va oqilona mushohada asosida vujudga keladi.

Yuqoridagi mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, Husayn Voiz Koshifiy futuvvatning zohiriy va botiniy ruknlarini mantiqiy izchillik asosida tushuntiradi. Futuvvatning shartlarini bayon etar ekan, birinchisini - Islom, ikkinchisini - imon, uchinchisini – aql, to‘rtinchisini ilm deb va hokazo barcha shartlarini ratsionallik tamoyili asosida bayon etadi. Har bir mavzuga oid kategorial tushunchalarni dastlab lug‘aviy ma’nosini, so‘ng mazmuni va mohiyatini ochib berishga harakat qiladi. Xususan tariqat, tasavvuf, so‘fiylik kabi tushunchalarga shunday yondashadi. Tasavvuf va

sufiylik tushunchalarining bir necha xil ma’no kasb etishini batafsil izohlab beradi.

Hozirgi murakkab globallashuv sharoitida yoshlarimizni turli ma’naviy tahdidlardan himoya etish va ularda milliy o‘zligini anglash tuyg‘usini shakllantirishda hamda yuksak ma’naviyatli barkamol avlod etib tarbiyalashda Husayn Voiz Koshifiyning ratsionallikka asoslangan ilmiy merosi muhim nazariy manbalardin biri bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2021. - B.32.

2. Turayev U. R., Qahramonov H. N. ZAMONAVIY DUNYONING AXLOQIY MUAMMOLARI-ZO ‘RAVONLIK FALSAFASI //Ustozlar uchun. – 2024. – T. 57. – №. 4. – S. 422-425.

3. Xaqqulov N. Q. Perfect generation-personality of private education and humanity facilities //Mirovaya nauka. – 2019. – №. 2 (23). – S. 62-63.

4. Koshifiy Husayn Voiz. Futuvatnomai sultoniy; Axloqi muhsiniy. Nashrga tayyorlovchilar M.Aminov, F.Xasanov. – Toshkent.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2011. – 376 B.

SHAHLO AHRAROVA,
Respublika MMM huzuridagi Ijtimoiy ma’naviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori

MA’NAVIYAT VA MA’NAVIY QADRIYATLAR – IJTIMOIY HODISA SIFATIDA

Ma’naviyat masalasi bugungi kunda butun dunyoda birlamchi masalalalar qatoriga ko‘tarilgani bejiz emas. Negaki, mafkuralar xuruji, g‘oyalar kurashi, turli axborot tahdidlari, jamiyatlarda nosog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni yuzaga keltirish orqali milliy-ma’naviy me’yorlarni buzishga bo‘lgan harakatlar urushning yangi ko‘rinishi sifatida avj olgan bir davrda yashamoqdamiz. Bu urushda faqat insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy-ma’naviy qadriyatlarga sodiqlik kabi fazilatlar bilan yo‘g‘rilgan yetuk ma’naviyatgina qalqon vazifasini bajarish mumkin. Bu yerda gap ijtimoiy-ma’naviy muhitni yuzaga keltiruvchi milliy ijtimoiy ma’naviyat haqida ketmoqda. Har bir shaxs bor-kim, o‘ziga xos bo‘lgan shaxsiy ma’naviy qadriyatlarga ega bo‘ladi. Shaxs jamiyatda amal qilar ekan, uning mazkur qadriyatlari ijtimoiylashadi va ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlarni yuzaga keltiradi. Yakka shaxsga xos bo‘lgan ma’naviy-axloqiy qiyofa milliy axloq me’yorlari va qadriyatlaridan oziqlanishi bilan birga, ulrga ham o‘z aks-ta’sirini ko‘rsatadi. Demak, shaxsiy, milliy va ijtimoiy ma’naviy qadriyatlar, insonlarning ma’naviy qiyofalari uyg‘unlikda takomillashadi va rivojlanadi. Insonlardagi ma’naviy qiyofaning shakllanishiga bepisandlik bilan qarab bo‘lmaydi, zero, shaxsiy ma’naviy, milliy, axloqiy qadriyatlar umumlashmasidan shakllangan bu qiyofa jamiyatdan tashqarida amal qilmaydi va ijtimoiylashadi. Shu tariqa ijtimoiy ma’naviy muhitda o‘z aksini topadi. Kishilarning ma’naviy qiyofalari ularning hatti-harakatlari, shaxsga va jamiyatga munosabatlari, bir so‘z bilan aytganda ijtimoiy munosabatlarida zohir bo‘ladi. Demak, kishilarning ma’naviy qiyofasi ularning ijtimoiy munosabatlarida ma’naviy asos vazifasini o‘taydi. Ma’naviyatning o‘zi nima, degan savolga javob beramiz.

“Mening nazarimda, - degan edi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev, - insoniyat dunyosining buyuk bir yoritqichi – ma’naviyat chirog‘i bor. Bu chiroqning boshqalardan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi, vijdonini uyg‘otadi, odamiylik hissini kuchaytiradi”. [1,267]

Ma’naviyat haqida ta’riflar ko‘p. Professor Q.Nazarov ta’kidlashicha,

“ma’naviyat insonning ichki va tashqi xatti-harakati, go‘zalligi, his-tuyg‘ulari, kechinmalarini aks ettiradi”.[3,91] Ma’naviyat insonlardagi yuksak darajada takomillashgan insoniylik fazilatlarining yig‘indisidir. “Ma’naviyat keng qirrali sermazmun va insondagi nozik tomonlarni qamrab olgan falsafiy tushunchadir”. [3,92] Demak insonning kamoloti uning gafaqat jismonan sog‘lom kamol topishi, balki unda sog‘lom ruhiyati bilan sog‘lom tafakkurining uyg‘unlashuviga erishuvi hamdir. Komillikka erishgan shaxs, el ta’biri bilan so‘zlaganda, o‘z “bama’niligi” bilan xushfazilatlarini namoyon qilishi, dil va til birligiga erishuvi, nojo‘ya harakat va nojo‘ya munosabatlardan, yoki ma’naviy qusurlardan o‘zini tiya olishi bilan ko‘rinadi. Prezidentimiz aytganidek, “ma’naviyat – insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat va e’tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo‘lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Boshqacha aytganda, ma’naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir”.[1,268] Xuddi shu poydevor ustida ma’naviy makon va ma’rifatli jamiyat bunyod bo‘ladi. Bu ma’naviy makonda esa jamiyatning barcha a’zolari uchun xos bo‘lgan milliy hamda ma’naviy birlik ro‘yobga chiqadi.

Masalan, xuddi mana shu kabi birlikni 2011 yilda Yaponiya davlatida sodir bo‘lgan sunami hamda yuqori balli zilzila paytida yaponlarning matonatli harakati misolida ko‘rsak bo‘ladi. Albatta, Yaponiya davlatidagi favqulodda vaziyatlarda tezkor choralar ko‘rishning mukammal tizimi ham muhim o‘rin tutgan, biroq yapon xalqiga mansub o‘ziga xos milliy xususiyatlar, ularning ma’naviy olamida asosiy o‘rin tutadigan vatanparvarlik xususiyatlari, o‘z manfaatlari va yurt manfaatlarini uyg‘unlashtira olish fazilatlari o‘sha sunami voqeasi bilan bog‘liq bo‘lgan og‘ir oqibatlarni yengishda asosiy o‘zak bo‘lib xizmat qilgani shak-shubhasiz. Boshqa so‘z bilan aytsak, Yaponiyadagi ushbu voqelik ma’naviy komillik har qanday ofatdan ustun kela olishini isbotlab berdi. Talofat vaqtida yaponlar bir-biriga ko‘mak berish uchun shoshildi, ayrim joylarda, masalan Turkiyada sodir bo‘lgan zilzila vaqtidagi singari, ola-tasirdan foydalanib, o‘zgalarning mulkiga ko‘z olaytirish yoki o‘sha vaqt uchun lozim buyum va oziq-ovqat narxlarini oshirib yuborish holatlari ro‘y bermadi, hech kim o‘zgalarning falokatidan o‘z manfaati yo‘lida foydalanmadi. Bu holatlarda yapon millatiga xos ma’naviy birlik namoyon bo‘ldi, deyish mumkin.

Demak, har bir insonning ruhiyatida ma’naviy borliq bo‘y ko‘rsatadi. Avvalambor ma’naviyat, alohida namoyon bo‘ladigan shaxsga oid tushuncha. Lekin bu shaxsni jamiyatdan ajratib bo‘lmaydi, u barcha

yaxshiyu-yomon amallarini jamiyat ichida sodir etadi, jamiyatdan tashqarida uning har qanday komilligi o‘z mohiyatini yo‘qotadi, bu xuddi inson bo‘lmasa, barcha qadriyatlar o‘z mohiyatidan mosuvo bo‘lganiga o‘xshashdir. Demak ma’naviy qiyofa shaxsning o‘zgalarga, jamiyatga, yurtga, umuman borliqqa daxldorligi bilan aks etadi. Bu jihat esa ma’naviyatni ijtimoiylashtiradi, jamiyatning ma’naviy muhitiga dahl qiladi. Demak, inson ijtimoiylagib, shaxsga aylansa, uning ma’naviy qiyofasi ijtimoiylashib, jamiyat muhiti bilan tutashadi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, birinchidan, ma’naviyat – insonning ma’no-mag‘zi, siyrati. Shu ma’noda ma’naviyat insonning mohiyati va hayoti mazmunini belgilaydi. Ikkinchidan, ma’naviyat – har bir insonning o‘z haqiqati. Inson hayotiy voqeliklar ichida ishtirok etish mobaynida uni anglaydi, o‘z tafakkuri tarozisida tahlil etadi, bu voqeliklarga nisbatan o‘z tuyg‘ularini namoyon qiladi. Mana shu jarayonda o‘zi to‘g‘ri, deb topgan xulosalardan o‘zining haqiqatini yaratadi. Inson yaratgan haqiqatiga asoslanadi, shu asosda hayotiy mo‘ljal oladi, o‘z yo‘lini belgilaydi hamda shu mo‘ljal atrofida o‘z his-tuyg‘ularini gavdalantiradi. Agar u yaratgan shaxsiy haqiqat ijtimoiy haqiqat bilan muvofiq kelsa, u jamiyat ichida komillik topadi. Va uchinchidan, ma’naviyat – inson nomoddiy qadriyatlarining tizimli majmui. Inson voqeliklar ichida ishtirokini namoyon qilarkan, bu voqeliklarga munosabati va qarashlari asnosida uning qadr darajasini o‘lchaydi va belgilaydi. Uning bu o‘lchovi asosida qaysidir voqeliklar, obyektlar, fazilatlar, gohida esa ayrim illatlar ham qadr topadi. Biroq u bunday illatlarni illat sifatida ko‘rmaydi, buni g‘oya va qarashlari, maqsadlari bilan asoslantiradi va o‘zi uchun qadriyatga aylantiradi. Uning ichki olamidagi bu qadriyatlar tizimi uning ma’naviy qiyofasini bunyod etadi. “Qadriyat esa haqiqat kabi xossa emas, balki fikr va voqelik o‘rtasidagi munosabatdir.”[5,599] Demak, inson ma’naviy qiyofasida faqat fazilatlargina emas, balki illatlar ham ishtirok etadi. Bunday illatlar inson ma’naviy qiyofasini tubanlashtirishga olib kelishi mumkin.

Ma’naviy qadriyatlar insonning turli ma’rifiy-madaniy, ijtimoiy voqeliklarga nisbatan baholovchi sifatida yondashishi, unga baho berishi va o‘zi uchun o‘lchov tarozisiga solib, ideal tarzida ko‘radigan qarashlar, g‘oyalar, obrazlar, nazariyalarni qamrab oladi. Ma’naviy qadriyatlar o‘ziga xos tarkibga ega bo‘lib, bu tarkibga axloqiy, badiiy, ijodiy, diniy, milliy qadriyatlarni kiradi. Milliy yoki diniy kabi qadriyatlar ham ijtimoiy mazmun kasb etgani bois, ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlar tasnifini ham olishi mumkin.

Prezidentimiz “Bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam

oldinda yurishi, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak,” - deb ta’kidladi respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining 2023-yil 23-dekabrda bo‘lib o‘tgan kengaytirilgan yig‘ilishida.[4]

Demak, muayyan obyektda ma’naviy birlik asosini yaratish, shu orqali bu yerda tinchlik-xotirjamlik, xayru-barakani ta’minlash, o‘zaro munosabatlarning milliy va ma’naviy asoslarini mustahkamlash, obyekt manfaatlari va undagi jamiki ijtimoiy munosabatlar uyg‘unligini ta’minlash, bu yerdagi voqeot, qarashlar, maqsadlar va ne’matlarning ma’naviy qadriyatlashuvi orqali mazkur obyekt manfaatlari bilan mutanosiblikni ta’minlash, ma’naviy qadriyatlarning salmog‘ini oshirish... kabi chora va harakatlar orqali ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash mumkin bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent. O‘zbekiston. 2021 y. -B. 267.

2. Sh.Ahrorova. Ma’naviyat eng ta’sirchan va qudratli qurolimizdir. “Ma’naviyat” nashr. T.-2022y.

3. Q.Nazarov. Aksiologiya (Qadriyatlar falsafasi). –T.: Akademiya, 2011. –B.91-226.

4. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. 2023 yil, 23-dekabr, 267-son.

5. N.Shermuhamedova, Falsafa. T., “Noshir” 2012 y.

INOYATXON ARZIMATOVA,
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti,
falsafa fanlari nomzodi

YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA RAHBAR MA’NAVIYATINING ZARURIYATI

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy rivojlantirishni tezlashtirish vazifasi hal qilinayotgan hozirgi bosqichda kadrlar siyosati yangi va chinakam chuqur mazmun kasb etadi. “Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari” tamoyilimiz qanchalik ko‘lamdor bo‘lsa, uni amalga oshirishda rahbar xodimlarning roli shu qadar yuqori bo‘ladi. Hozirgi davr – fuqarolik jamiyatini sifat jihatidan tubdan o‘zgartirish davrida har bir tashkilotdan, uning har bir a’zosidan qat’iy kuch-g‘ayratni, o‘z faoliyatiga baho berishda aniqlikni, ishchanlikni va fidokorlikni talab qiladi. Rahbar xodimlar zimmasiga alohida mas’uliyat yuklanadi. O‘z faoliyatlarini, amalga oshiradigan barcha ishlarda ular so‘z bilan ish birligini namoyon etishlari, o‘z-o‘zini tanqid, jamiki ilg‘or insoniy, axloqiy normalarga amal qilishda ibrat bo‘lishlari kerak. Barcha sohalarda rahbarlik faoliyati, uslubi va vositalarini takomillashtirish zarurdir. “Bugun hayotning o‘zi bizdan davlat xizmati tizimini yanada samarali tashkil etish, ushbu yo‘nalishda ham professional, tezkor tuzilmalarni shakllantirishni talab qilmoqda. Shu jihatdan qaraganda, islohotlarimizdan ko‘zlangan maqsad-muddaolarni yaxshi anglaydigan, xalqimizning Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishiga chin dildan yordam beradigan, halol-pok kadrlarni tarbiyalash vazifasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda” [1].

Keng miqyosli o‘zgarishlarni amalga oshirishda, islohotlarni chuqurlashtirishda rahbar kadrlarning dunyoqarashi, ma’naviyati, iqtidori, salohiyati hal qiluvchi o‘rinlardan birini egallaydi. Kadrlar faoliyatining prinsiplari, maqsadlari, usullari to‘g‘ri olib borilishi boshqaruvning, davlat va jamiyat qurilishining muvaffaqiyatini ma’lum bir ma’noda oldindan belgilab beradi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning “Ma’naviyatsizlik va g‘oyasizlik har qanday jamiyatni tanazzul sari yetaklashi, davlat siyosati va boshqaruvini kuchsizlantirish, korrupsiya, jinoyatchilik va axloqsizlik kabi illatlarning ildiz otishiga sabab bo‘lishi bilan bog‘liq misollarni insoniyat tarixidan ko‘plab keltirish mumkin. Shu munosabat bilan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ma’naviy-ma’rifiy islohotlarga alohida e’tibor qaratiladi”, [2] – degan fikrlari masalaga boshqa rakursdan qarashga undaydi.

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo

etish, jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarini yanada erkinlashtirish rahbar kadrlarning kasbiy mahorati, ma'naviy qiyofasidagi axloqiy jihatlari masalalarining mavqeini oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov kadrlar tarbiyasiga, ma'naviyatiga, salohiyatiga muhim ahamiyat berganligi, rahbar kadrlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga da'vat etganligi boisida ham ana shu ehtiyoj yotadi. Rahbar kadrlar jamiyatni harakatga keltiradi, xalq ichida mavjud bo'lgan ijodiy kuchlarni uyg'otadi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotni jonlantiradi. Albatta, buning uchun jamoatchilik ongida rahbar namunaga aylanishi, odamlarni o'z so'ziga ishontira olishi, xalqni ortidan ergashtira olishi zarur. ...bugungi kunda rahbar nafaqat aniq bir kasb-hunarning egasi, avvalo, o'zining faoliyati va insoniyligi bilan xalqning ishonchiga munosib bo'lishi, yuksak intellektual tafakkur sohibi, uzoqni ko'ra oladigan, doimo yangilikka intilib, zamon bilan hamqadam bo'lib yashaydigan, qat'iyatli shaxs bo'lishi lozim [3]. Mamlakatning barcha joylarida va sohalarida davlat siyosatini yurgizib, inson manfaatlari yo'lida rahbarlik ishlarini amalga oshira oladigan rahbar kadrlarning faoliyatini yanada takomillashtirish shu ma'noda doimo davlatimiz e'tiborida turibdi. "Amir Temurdek buyuk va betakror siymoni har tomonlama tushunish, u barpo etgan qudratli saltanatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy asoslarini, Sohibqironning davlat boshqaruvi borasidagi ulkan salohiyati, mahorati, bilim va tajribalarini o'rganishda, umuman aytganda, hayot sirlarini anglab yetishda "Temur tuzuklari" bebaho qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Ayniqsa, bugungi murakkab va tahlikali davrda bu kitobni qayta-qayta mutolaa qilish, uning mag'zini chaqish birinchi galda rahbar, yetakchi bo'lishdek mas'uliyatli vazifani o'z zimmasiga olgan odamlar uchun, qolaversa, har qaysi ziyoli inson uchun bag'oyat foydali ekani haqida ortiqcha gapirib o'tirishga hojat yo'q, deb o'ylayman" [4].

Rahbar xodim qiyofasini belgilashda muhim mezonlardan bo'lgan yuksak ma'naviyat, mas'uliyat va madaniyatlilik darajasi muhim o'rin tutadi. Bu nafaqat o'tish davrining taqozosi, balki O'zbekistonning buyuk kelajagini ta'minlay oladigan, unga xizmat qilishga qodir bo'lgan rahbar xodim tushunchasining mazmunini yangilovchi omil hamdir. Rahbar shaxsining ma'naviy fazilatlari deganda, uning tilida aytilib, dilida va barcha xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan jamiki ijobiy tomonlari tushuniladi. Rahbar shaxs ma'naviy fazilatlari unda mavjud bo'ladigan iste'dod, izlanish, zamonaviy bilimlilik, vatanparvarlik, imon, diyonat, adolat, mehr-shafqat, e'tiqod, poklik, halollik, vafodorlik kabilarni o'z ichiga oladi.

Axloqan barkamol, bilimli va tajribali, ilm asoslarini chuqur egallagan, adolatparvarlik, insonparvarlik e'tiqodi kuchli rahbar shaxslar yuksak ma'naviy fazilatlarning sohibi bo'la oladilar. Bu fazilatlar birlashib, jamiyatning dunyoqarashi, e'tiqodi, xalqning milliy ongi shakllanishiga, mustahkamlanib, rivojlanishiga olib keladi. Ma'naviy kamolot uning barcha qirralari o'zaro bog'liqligi, bir-biriga bevosita yoki bilvosita ta'sir etib turishi asosida davom etadi. Inson, jumladan, rahbar shaxs kamolotini ma'naviyatning yuqoridagi tomonlaridan birortasisiz to'liq tasavvur etish mumkin emas. Uning mohiyati ham shu sifatlarning mushtarak birligi asosida shakllanadi va kamol topib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov o'z faoliyatida amaldagi rahbar xodimlarning dunyoqarashini tubdan o'zgartirish, yangilash kabi masalalar bilan tinimsiz shug'ullanib, ularga katta e'tiborni qaratgani ushbu fikrlaridan ham ma'lum: "Xalqning dardiga befarq qaraydigan, o'z manfaatidan boshqa narsani o'ylamaydigan, xudbin va ta'magir rahbarlar mamlakatimiz ravnaqiga, xalqimiz farovonligiga to'siq bo'lmoqda. Endi ular bilan murosa qilib bo'lmaydi". Mamlakatimiz xalqining asriy orzulari – mustaqillikka erishganimiz bilan sobiq byurokratik tuzum tarbiyasini olgan ko'pgina rahbar xodimlarda quyidagi salbiy xususiyatlar saqlanib qolayotgani sir emas:

- xalq dardiga befarqlik;
- o'z manfaatini ustun qo'yish;
- xudbinlik va ta'magirlik;
- umuman, mamlakat ravnaqi va xalq farovonligiga to'siq bo'lish.

Aslini olganda, bu sobiq tuzumdagi rahbar xodimlarning "xudbinlik va ta'magirlik" ruhini o'zlashtirgan kimsalardir.

"Rahbar ma'naviy shakllangani boshqaruvning adolatli, xolis, ochiq, mas'uliyatli, ishbilarmonlik, to'g'ri va tezkor qarorlar qabul qilishga, insonlarni maqsad sari birlashtirish va harakatlantirish mahoratiga, bugungi davr siyosiy islohotlarini amalga oshirishga har tomonlama tayyorligi, tajriba va liderlik ko'nikmalariga egaligi bilan baholanadi" [5].

Jamiyat, millatning kamchiliklardan holi bo'lishi, avvalo, rahbar xodimlarning zamon talabiga mos bo'la olishi, o'zidagi ma'naviy qusur-kamchiliklardan forig' bo'lishidan boshlanadi. Zamonaviy rahbar xodim barcha fazilatlari bilan o'z jamoalariga yetakchi, fidoiy, namuna va o'rnak bo'la olishi kerak.

Yangilanayotgan O'zbekistonning ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotida murakkab davrning yuzaga kelishi, iqtisodiy va tadbirkorlik muhitining nisbatan murakkab kechayotganligi, yuqori intellektual salohiyatli kadrlarga bo'lgan ehtiyoj, ularning oldiga qo'yilayotgan yuksak

talablar, islohotlar va modernizasiya jarayonlariga bog‘liq holda yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar rahbar kadrlardan uning kasbiy faoliyatiga tegishli bo‘lgan ko‘nikmalarnigina emas, yuksak madaniy-ma’naviy, axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan shaxs sifatida o‘zini namoyon etishini talab etmoqda.

Jamiyat sohalarining barcha yo‘nalishlarida tobora raqobat kuchayib borayotgan hozirgi kunda zamonaviy rahbarning oldida o‘ziga xos shaxsiy sifatlarga ega bo‘lish, o‘z jamoasining taraqqiyotini hamda raqobatbardoshligini ta’minlash, jamoaning strategik taraqqiy etish yo‘nalishini to‘g‘ri belgilash vazifasini bajarish turibdi. Bu ishlarni amalga oshirish jarayonida rahbar tomonidan jamoaning har bir a’zosining maqsadi va manfaatlarini, shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, ularning salohiyatini yuzaga chiqarish va realizasiya qila olish uchun imkoniyatlar yaratishdek vazifalarni bajarish turibdi. Buning uchun rahbar o‘z tanlagan yo‘li, jamoa oldiga qo‘ygan vazifalar hamda strategiyasini talablarga javob bera olishi hamda to‘g‘ri tanlanganligini jamoaning onggiga singdira olishi va ularni ishontira olishi talab etiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi. Toshkent.: O‘zbekiston, 2022. – B. 3.

2. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi - Toshkent: O‘zbekiston, 2022. - B. 263.

3. Karimov I.A. Bizning yo‘limiz - demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizasiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo‘lidir. 20-jild. - T.: O‘zbekiston, 2012. 207-b.

4. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19-jild. - T.: O‘zbekiston, 2011. –B. 287-28.

5. “Yangi O‘zbekistonda demokratik jamiyat va rahbar mas’uliyati”. Yangi O‘zbekiston gazetasi. 2023 yil 22 fevral, 36-son.

NARGIZA NURMATOVA,
Profi University kafedra v.b. dotsenti.
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

VITAGEN TA’LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O‘QUVCHI-QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH

Yangi taraqqiyot davrida ijtimoiy hayotning tobora globallashib borishi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining murakkablashishi yosh avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlash masalasi, ijtimoiy faollikni tarbiyalab borishni taqozo etmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli kitobida gender tenglik masalalariga alohida to‘xtalib, qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish va ularni har tomonlama e’zozlash hamda o‘z iqtidorlarini namoyon qilishlari uchun shart-sharoit yaratib berish kerakligi alohida ta’kidlab o‘tiladi [1; 248-b.].

O‘quvchi-qizlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishda Vitagen ta’lim texnologiyasidan foydalanish eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Vitagen ta’lim texnologiyasi haqida so‘z yuritishdan oldin ushbu tushunchaning o‘ziga ta’rif berib o‘tadigan bo‘lsak, “Vita” lotinchadan “hayot” degan ma’noni anglatadi, ya’ni Vitagen hayotiy ahamiyatga ega, muhim degan ma’nolarni anglatadi. Ushbu texnologiyaning asoschisi A.S.Belkin hisoblanadi [3;129-b.].

Ushb texnologiya XX asrning 90-yillarida shakllana boshlagan. Ushbu texnologiya o‘quvchi-qizlarning har tomonlama rivojlanishiga imkon beruvchi texnologiya hisoblanadi. Vitagen texnologiyasi, eng avvalo, hayotiy tajribaga asoslangan holda ta’lim va tarbiya jarayonida qizlarning rivojlanishini kafolatlovchi o‘zaro natijaviy muloqotni tashkil etishga yordam beradi.

Vitagen texnologiyada boshqa texnologiyalardan farqli ravishda qizlarning hayotiy tajribasini ularning rivojlanishi va ijtimoiylashuvida asosiy vosita sifatida qaraladi. O‘quvchi-qizlar bilan ishlash jarayonida hayotiy tajribalarga e’tibor qaratish orqali ularning faoliyatini faollashtirish, aniq maqsadga yo‘naltirish, hayotiy voqea-hodisalarga e’tiborli bo‘lishning rivojlanishiga asos bo‘ladi.

Ushbu texnologiya yettita bosqichdan iborat bo‘lib, uning bosqichlari va o‘tkazilish tartibi 1-rasmda keltirib o‘tilgan.



1-rasm. Vitagen texnologiyani tashkil etish algoritmi

Vitagen texnologiyaning birinchi tayyorgarlik bosqichi pedagoglardan katta tayyorgarlikni talab qiladi. Bu texnologiyani o‘tkazish jarayonida ishtirok etayotgan pedagog yuqori darajada pedagogik mahoratga ega bo‘lishi lozim. Pedagog tomonidan qizlarning hayotiy tajribasiga tayangan holda o‘rganilishi ko‘zlangan kurs bo‘limi yoki mavzu tanlab olinadi.

Qizlar ushbu jarayonda o‘z hayotiy tajribalarini namoyon qila olishlari uchun Vitagen tajribani rivojlantirish metodlari va usulllari tanlab olinadi.

Ikkinchi bosqichda esa ushbu jarayonning maqsad va vazifalari aniqlanib, qizlarga ma’lumotlar beriladi.

Vitagen texnologiyaning uchinchi bosqichi – boshlang‘ich diagnostika bosqichi ushbu texnologiyaning eng asosiy bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu bosqichda texnologiyani o‘tkazayotgan inson, eng avvalo, qizlarning hayotiy tajribalarini ochib beradi va shundan keyin ushbu ma’lumotlarni tahlil qiladi, qizlar hayotiy tajribalarining sifati, anglanganligi, miqdori, mazmuni, chuqur o‘zlashtirilishi, darajasi, ilmiyligi va ishonchliligi keyingi o‘rganilishi kerak bo‘lgan ma’lumotlar harakatlarini belgilab beradi. Shuningdek, ushbu bosqichda qizlarning hayotiy tajribalari bilan nazariy ma’lumotlar o‘rtasida nomuvofiqliklar bo‘lsa, aniqlanadi, ushbu aniqlangan nomuvofiqlikni keltirib chiqaruvchi sabablar, dalillar to‘planadi. Bu bosqichda texnologiyani tashkil qiluvchi insonning eng asosiy vazifasi o‘quvchi-qizlar hayotiy tajribalari va ilmiy bilimlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik qay darajada ekanligini aniqlash va ilmiy asoslarga tayangan holda qizlar Vitagen tajribalarining tarbiyaviy jihatlarini yaqqol ochib berishni nazarda tutadi.

Har bir bosqich o‘zaro bog‘langan bo‘lib, biri ikkinchisining davomi hisoblanadi. To‘rtinchi bosqichda qizlarning hayotiy bilimlari ilmiy bilimlar bilan to‘ldiriladi, ba’zi hollarda hayotiy tajribalar inkor etilgan holda ilmiy jihatdan isbotlangan yangi bilimlar bilan to‘ldiriladi.

Vitagenik tajribalarni korreksiyalash bosqichida esa qizlardagi ijtimoiy faollikka oid noto‘g‘ri go‘yalarni, tajribalarni to‘g‘rilashni nazarda tutadi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli kechishi pedagogning mahoratliligiga va qizlardagi hayotiy tajribalarni chuqur o‘rganganligiga bog‘liq bo‘ladi.

Yakunlovchi diagnostik bosqichda esa qizlarning ijtimoiy faollikka oid bilim, ko‘nikma va malakalari har doimgidek nazorat qilinadi. Lekin bu jarayonda Vitagenik tayyorgarlik metod va usullaridan foydalanilgan holda tashkil qilinadi va albatta, qizlarning ijtimoiy faollikka oid hayotiy tajribalarini o‘rganish eng asosiy o‘rinni egallaydi.

Texnologiyaning rejalashtirilgan-bashoratlovchi bosqichida o‘quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligiga Vitagen tajribaning qanday ta’sir qilishi oldindan bashorat qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, ta’limiy va tarbiyaviy ishlar davomida o‘quvchi-qizlarni faollashtiruvchi zamonaviy va moslashuvchan tarbiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchi-qizlarning yurtimiz ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy yangilanishlarda faol iqatnashishini ta’minlashda ulkan imkoniyatlar yaratishga zamin hozirlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент. “Ўзбекистон” нашриёти, 2021. – Б. 248-252.
2. Кривенко В. А. Содержание и технология витагенного обучения учащихся //Наука и школа. – 2009. – №. 3. – С. 8-12
3. Мухсиева А.Ш. Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларида ижтимоий компетенцияларни ривожлантириш: Монография. –Т.: “Ilm Ziyo Zakovat”, 2022. – 129 б.
4. Норбоев Т. Ёшлик – фаоллик. – Тошкент. “Ёш гвардия” нашриёти, 1977.
5. Туленова.Г.А. Ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишда маънавий омилнинг роли (Ижтимоий-фалсафий таҳлил): фалсафа. фан. док. дисс. – Т., 2006.

ALISHER MADRAXIMOV,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi, Institutit mustaqil tadqiqotchisi.

ORCID: https://orcid.org/0009-0000-6185-3283

IJTIMOIY TARMOQ TARBIYASIDAGI AVLOD

Axborot asrida zamonaviy texnologiyalar hayotimizga tobora ko‘proq kirib bormoqda. Bugun hatto bog‘cha tarbiyalanuvchisi ham mobil telefondan, undagi ilovalar va internetdan foydalanishni o‘rganib olmoqda. Katta-yu kichik orasida internetdan foydalanuvchilar, vaqtini ko‘proq u bilan o‘tkazuvchilar ortmoqda. Kelajak hayotni internet va hali kashf etilmagan yuqori texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. To‘g‘ri, ular ijobiy va salbiy xususiyatlarga ega. Mazkur fikrlar ijtimoiy tarmoqlarga ham tegishlidir. Internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda ham oltin qoidaga ya’ni me’yorni unutmaslik shartiga amal qilish zarur.

Kompyuter va internetning yaratilishi hamda unda turli dasturlarni ishga tushurilishi ijtimoiy tarmoqlarning yangi davrini boshlab berdi. Umumiy Web 2.0 g‘oyasidan iborat internet va ijtimoiy xizmatlarning jadal rivojlanishi va kengayishi tadqiqot qiziqishlarining yangi sohasini, ya’ni virtual yoki onlayn jamoalar deb ataladigan internetdagi ijtimoiy tarmoqlarni yaratishga sabab bo‘ladi. Bu virtual ijtimoiy tarmoqlar davridir.

Uning natijasida bugun dunyo bo‘ylab 5 milliarddan ortiq odam ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib kelmoqda va uning ta’sirida globallashuv jarayoni yanada jadallashmoqda. Globallashuv (lot. globus – shar, Yer sayyorasi) – XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartibotlar, davlatlar va kishilar o‘rtasida o‘zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integratsiyalashuv, atrof-muhitga texnogen ta’sirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalarining keng tarqalishi, axborot-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishini ifoda etuvchi tushuncha.

Zamonaviy ommaviy kommunikatsiya vositalari jadal ommalashuvi natijasida ular jahon media maydoni sahnasida katta mavqega ega bo‘lib bormoqda. Shunday ommaviy muloqot vositalaridan biri – ijtimoiy

tarmoqlardir. Ijtimoiy tarmoq nima ekanligini anglash uchun u haqida berilgan ta'riflarga nazar solish lozimdir. Ijtimoiy tarmoq – bu qiziqishlari o'xshash yoki oflayn aloqaga ega bo'lgan odamlar o'rtasida muloqot qilish, tanishish, ijtimoiy munosabatlar yaratish uchun, shuningdek, ko'ngilochar (musiqa va filmlar) va ish maqsadlarida ishlatiladigan onlayn platforma.

Bu atama 1954-yilda sotsiolog Jeyms Barns ilk bor muomalaga kiritgan bo'lib, o'sha paytlarda uning internetga aloqasi bo'lmagan va unga shunday ta'rif berilgan: "Ijtimoiy tarmoq – ijtimoiy obyektlar hisoblanadigan (odamlar va tashkilotlar) tugunlar guruhi va ular orasidagi aloqalar (ijtimoiy munosabatlar)dan tarkib topgan ijtimoiy tuzilmadir".

Oddiyroq qilib aytganda, ijtimoiy tarmoq – ma'lumotlar, bir taraflama yoki ikki taraflama aloqalarga ega bo'lgan odamlar guruhidir. Ma'lum maqsad va faoliyatga qaratilgan bu ijtimoiy tarmoqlar o'z davrida ziyonidan ko'ra foydasi ko'p edi. Ijtimoiy tarmoq – bu virtual tarmoqlar va jamiyatlar orqali g'oyalar va ma'lumotlar, jumladan matn va vizual tasvirlarni almashish imkonini beruvchi raqamli texnologiya.

Ijtimoiy tarmoq odatda foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontent (audio, video, ovozli xabar, rasm, infografika va boshqalar)ga ega bo'lgan, keng auditoriyani yoqtirishlar, ulashishlar, sharhlar va muhokamalar orqali jalb qilish imkonini beradi.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra dunyo bo'ylab eng yirik va ko'pchilik foydalanadigan ijtimoiy tarmoq platformalari – Facebook, YouTube, WhatsApp, Instagram va WeChat hisoblanadi. Olib borilgan axborot-tahliliy natijalar va statistik ma'lumotlarga ko'ra, Facebook hozirgi vaqtda dunyoda eng mashhur ijtimoiy tarmoq sifatida yetakchi o'rinda bormoqda. Bugungi kunga kelib, Facebook tarmog'ida ro'yxatdan o'tganlar soni bir necha milliard kishidan ortganligi ma'lum qilingan. Undan keyingi o'rinlarni esa Twitter, Instagram, LinkedIn, Google+, Pinterest, Snapchat, YouTube, Reddit, WhatsApp, Flickr, Weibo egallab kelmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar jamiyatimizning bir-biri bilan bog'lanish, biznes yuritish va ijtimoiylashuv usullarini sezilarli darajada o'zgartirdi. Bugungi bolalar va yoshlar ijtimoiy tarmoqlarsiz dunyoni bu qadar angalamagan bo'lar edi. Ijtimoiy tarmoqlarning afzalliklari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Ijtimoiy ko'nikmalar. Ijtimoiy tarmoq hozirgi odamlarga yangi do'stlar orttirish va tanishish imkonini beradi. Ijtimoiy tarmoqlar to'g'ri qo'llanilganda, o'z-o'zini hurmat qilishni oshiradi va kimgadir o'zini kamroq izolyatsiya qilishiga yordam beradi.

Mustaqillik va o'zini namoyon qilish. O'zingizning "shaxsiy sahifangizni" yaratish orqali odamlarga o'z fikrlaringizni bildirish va qiziqishlaringizni muhokama qilish imkonini beradi. Eng muhimi hayotdagi o'z pozitsiyangizni namoyish qilish imkonini beradi.

Raqamli kompetentsiya. Texnologiya har qachongidan ham tezroq rivojlanmoqda. O'smirlar va yoshlar yangi texnologiyalarga (yoki mavjud texnologiyalarning yangi ilovalariga) moslashishni o'rganganlarida, ular kelajakdagi texnologiyaga moslashish uchun yaxshi tajribaga ega bo'ladilar ya'ni bunda raqamli kompetentlik ortadi.

Ta'limni rivojlantirish. Maktab, oliy ta'lim va oliy ta'limdan keying bosqichdagi o'quvchilar ta'lim bilan bog'liq bilmlarni mukammal egallash, topshiriqlarni bajarish va bu bo'yicha munozaralarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi va boshqa imkoniyatlarga taqdim etadi.

Ayni paytda dunyoda 1 mlrd.lik auditoriyaga ega Instagram O'zbekistonda 2 mln.ga yaqin foydalanuvchiga ega. Ikki yarim mlrd. lik Facebook esa mamlakatimizda 686 400 kishini birlashtirgan. 200 mln.lik Telegram messenjeri O'zbekistonda 18 mln. kishiga xizmat ko'rsatmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra dunyo yoshlarining 96 foizi ijtimoiy tarmoqlar vositasida o'zaro muloqotga kirishmoqda.

Darhaqiqat, bugungi kunda hamma YouTube, Facebook, Instagram, Twitter kabi ijtimoiy tarmoq va Telegram messenjerlarni biladi, hech bo'lmaganda bittasidan foydalanadi. Ayniqsa, yoshlar bu masalada faoldir va aynan shuning o'zi muammodir. Nima uchun? Sababi bitta: ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlar har doim ham to'g'ri va obyektiv emas. Tabiiyki, uning ma'naviyatiga, ruhiyatiga, axloqiga tahdid solmaydi degan kafolat yo'q. Shuni tan olish kerak, ijobiy tomonlari bilan bir qatorda uning salbiy tomonlari ham mavjud.

Chunki ommaviy aloqa vositalari orqali ongni va aqlini egallash tahdidi mavjuddir va jiddiy qo'rquv uchun asoslar mavjud. Muammoni, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda salbiy ma'lumotlar oqimining ko'payishi kuchaytirmoqda. Sababi, yoshlar o'zlarining tajribasizliklari, psixologik va fiziologik yetilmaganliklari sababli tarmoqlardan kelgan ma'lumotlarni tahlil qilish va sintez qilishga qodir emaslar. Ehtimol, yolg'on va xolis ma'lumotlar uni osonlikcha yo'ldan ozdirishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar turlari o'rtasidagi farqlarni va foydalanuvchilarning ular bilan qanday munosabatda bo'lishini bilish samaraliroq muloqot qilishda yordam beradi. Odatda ijtimoiy tarmoqlarni bir necha turlarga bo'lish mumkin.

Umumiy turdagi ijtimoiy tarmoqlar – Facebook, X, Instagram, LinkedIn, TikTok.

Munozara va muhokama qilish tarmoqlar – Reddit, Digg, Quora, Clubhouse.

Tasvir almashish tarmoqlar – Instagram, Flickr, Photobucket.

Belgi qo‘yish tarmoqlar – Feedly, Flipboard, Pocket, StumbleUpon, Pinterest.

Bloglar va nashriyot tarmoqlar – Medium, WordPress, Facebook, Tumblr.

Iste’molchilarning fikrlarini ko‘rib chiqish tarmoqlar – TripAdvisor, Yelp, OpenTable, Google My Business.

Qiziqishlarga asoslangan tarmoqlar – Strava, Peanut, Goodreads.

Iqtisodiyot tarmoqlarini almashish – Lending Club, Couchsurfing, Eatwith.

Ijtimoiy xarid qilish tarmoqlari – Instagram, Poshmark, Etsy, Facebook.

Video xosting platformalar – YouTube, TikTok, Snapchat, Vimeo, Instagram va boshqalarga ajratiladi.

Bugun ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgi paytda asosiy axborot manbalari televidenie va veb-saytlardir. Raqamlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, O‘zbekiston aholisining deyarli 60 %i televidenieni va 40 % veb-saytlarni afzal ko‘radi. Televizorni asosan 46 yoshdan oshgan shaxslar ko‘radi, 10-29 yoshdagi yoshlar Internetdan foydalanadi.

Insonlarning Internetga bo‘lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda va televidenieng axborot iste’molidagi roli asta-sekin pasaymoqda. O‘zbekiston aholisi ijtimoiy tarmoqlarda 33,9 % qarindoshlar, do‘stlar va hamkasblar bilan muloqotda 15,8 % foiz ma’lumot almashadi. O‘zbekistonda internet foydalanuvchilari orasida erkaklar 55 % ni, ayollar 45 % ni tashkil etadi.

O‘tkazilgan so‘rovnomalarga ko‘ra, O‘zbekistonda eng ommalashgan ijtimoiy tarmoqlar **– “Telegram” 73,4 %, “YouTube” 42,7 % va “Instagram” 27,4%** ni tashkil etgan.

O‘zbekistonda eng ommabop ijtimoiy tarmoqlardan **“Instagram” 8 mln., “Facebook” 2,2 mln., “VKontakte” va “Odnoklassniki”ning umumiy auditoriyasi — 2 mln.** foydalanuvchilarni tashkil etgan.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda asosan messenjer hisoblangan “Telegram”ni afzal ko‘radi. 200 mln.dan ziyod foydalanuvchilari bo‘lgan “Telegram” – O‘zbekistonda 18 mln.dan ortiq kishiga xizmat ko‘rsatmoqda”. Ijtimoiy tarmoqlardagi foydalanuvchilar matnli postlardagi ma’lumotlarni kamroq qabul qiladi, ko‘proq videokontentga qiziqadi. Mamlakatimizda internet va unga aloqador texnologiyalarning rivojlanishi uning yetakchi ommaviy axborot vositalariga, zamonaviy jamiyatning barcha tuzilmalari faoliyatini ta’minlaydigan eng muhim

axborot resursiga, shuningdek, tashkiliy va texnologik asosga aylanishiga olib keldi. O‘zbekistonga internetning kirib kelishi va mamlakat aholisining undan samarali foydalanishi natijasida yangi axborot manbalariga ega bo‘lmoqdalar. Natijada insonlar olayotgan axborotlarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini asoslash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Globallashuv jarayonida bugungi yoshlarimizning ma’naviy tarbiyasiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyuladigan xabarlar ham tuzatib bo‘lmas darajada ziyon keltirishi mumkin. O‘zbekistonda internet global axborot kompyuter tarmog‘ining imkoniyatlari va rolini tahlil qilish shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishda quyidagi ijobiy natijalarni ko‘rsatadi: Internetdan o‘ziga xos “ommaviy aloqa vositasi”, ulkan axborot bazasi sifatida foydalanish, monitoring, ilmiy ish, ijodkorlikni tashkil etishning kuchli vositasi. Internet yordamida jahon elektron bozori, elektron biznes shakllanmoqda. Siyosiy sohada internet insonni shaxs sifatida bir yo‘nalishli mafkura ta’siridan himoya qiladi. Internetning eng yorqin xususiyatlari uning o‘ziga xosligi, millatlararoligi, ochiqligi, chiziqli bo‘lmaganligi, murakkabligi, integratsiyasi va universalligida namoyon bo‘ladi.

Global axborot tarmog‘ining rivojlanishida yuzaga keladigan asosiy muammolarni quyidagicha tavsiflash mumkin: Tarmoqlarda joylashtirilgan ma’lumotlar hajmini nazorat qilishning imkoni yo‘q. Turli xil ma’lumotlar paydo bo‘ladi, ular orasida axloqiy jihatdan salbiylari ko‘p uchraydi. Internet insonning aqliy va jismoniy qobiliyatiga alohida talablar qo‘yadi, chunki bu tizimga berilib ketish, ya’ni virtual olamga kirib kelish, real hayotdan uzoqlashishga olib keladi.

Internet jahon axborot tarmog‘ida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan targ‘ibot materiallarini berib borish, yoshlarni internetdagi turli axborot xurujlaridan himoyalashga qaratilgan elektron shaklda resurslarni yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, mafkuraviy tahdidlar orqali yoshlarning qarashlarini o‘zlariga ma’qul bo‘lgan yo‘nalishda o‘zgartirishga, axloqsizlik kabi buzg‘unchi g‘oyalarni singdirishga urinishlar bo‘lmoqda.

Birgina 2021-yilning dekabr holatiga ko‘ra milliy domen hududidagi 289 ta veb-saytda (1 734 ta qonun buzilish) pornografiya, 91 ta veb-saytda esa (363 ta qonun buzilish) behayolik va ma’naviy buzuqlikni targ‘ib qiluvchi holatlar aniqlangan bo‘lib, 2 097 ta qonun buzilish holati qayd etilgan. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning o‘zbek segmentida ma’naviy buzuqlikni targ‘ib qiluvchi 130 ga

yaqin guruh, sahifa va kanallar mavjudligi aniqlangan bo‘lib, ularda 2 646 ta material (foto, video, matnli va boshqalar) tarqatilgan. Ushbu materiallarning aksariyati “Odnoklassniki” (55 ta guruhning 1 962 ta materiali) va “Instagram” (60 ta guruhning 684 ta materiali) ijtimoiy tarmoqlarning hissasiga to‘g‘ri keladi. 2021-yilda axloqsizlik, behayolikni targ‘ib qiluvchi 1 650 ta vebsaytdan mamlakat hududida foydalanish belgilangan tartibda cheklangan.

Eng ommabop bo‘lgan “Telegram” messenjeridagi 35 ta faol kanalda odob-axloq talablariga mos kelmaydigan o‘zbek auditoriyasiga qaratilgan 7 738 ta material mavjudligi aniqlangan. Birgina “Telegram” messenjeri va “TikTok” videoplatformasining O‘zbekiston auditoriyasi uchun yo‘naltirilgan resurslarida faxsh yoki pornografik kontent orqali auditoriya to‘plash va reklama hisobidan daromad topishga qaratilgan 7 ta kanal aniqlangan (umumiy obunachilari soni – 120 721 nafar).

“Telegram” messenjerida umumiy obunachilari soni 44 479 nafar bo‘lgan aqidaparastlik yoki ekstremistik mazmundagi virtual 43 ta resurs mavjudligi, xuddi shu mazmundagi materiallarning tarqatilishi va targ‘iboti bilan “TikTok” videoplatformasida 20 ta profil faoliyat ko‘rsatayotgani, uning umumiy obunachilari soni 25 458 nafarni tashkil etgan.

“Instagram” tarmog‘ida qurol-yarog‘lar targ‘iboti bilan shug‘ullanuvchi 2 ta sahifa mavjud bo‘lib, kanalning umumiy a’zolari soni 17 924 nafarni tashkil etadi.

Yuqoridagilarga ko‘ra, o‘quvchi yoshlarning ongiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan axloqsizlikni targ‘ib qiluvchi kontentlarga qarshi kurashish, diniy adovatni qo‘zg‘atuvchi, tavakkalchilikka asoslangan onlayn o‘yinlar, totalizatorlar, oilaviy qadriyatlarni inkor etadigan hamda jamiyatda buzg‘unchilik g‘oyalarini targ‘ib etadigan veb-resurslarni doimiy ravishda cheklab borish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Butun dunyoda bugun ko‘plab insonlar ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanib kelmoqda. Bu insoniyat uchun juda ko‘p sohalarda keng imkoniyat va qulayliklar ochib berdi. Ijtimoiy tarmoqlarsiz hayotimizni tasavvur qilish qiyin. Har kuni ertalab o‘rnimizdan turganimizda ko‘p hollarda albatta telefonimizni qo‘limizga olamiz va Telegram, Instagram yoki Facebook kabi tarmoqlarga kiramiz. Bulardan foydalanishning ko‘pgina avfzalliklari bor.

Biz bu ijtimoiy tarmoqlar orqali ko‘pgina kerakli ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz, yangi do‘stlar orttirishimiz, yangiliklardan xabardor bo‘lishimiz, yangi narsalar o‘rganishimiz, do‘stlarimiz bilan suxbatlashishimiz mumkin. Hattoki hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar

orqali insonlar o‘z bizneslarini rivojlantirish imkoniyatiga ega. Ular o‘z maxsulotlarini ijtimoiy tarmoqlar orqali reklama qilib brendlarini tanitish, o‘zlari uchun xaridorlar avditoriyasini yig‘ish va yangi maxsulotlarini xaridorlarga e’lon qilishlari mumkin. Bu albatta ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning biz uchun avfzalliklari. Lekin afsuski har doim ham ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish biz uchun foydali bo‘lmaydi.

Keling ijtimoiy tarmoqlarning zararli taraflari mavjud:

Vaqtni behuda sarflash.

Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik.

Insonlarda stress va tashvishli holatlarni keltirib chiqarish.

Ijtimoiy izolyatsiya.

Axloqsizlik.

Firibgarlik.

Jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanish kabi salbiy jihatlar aksariyat yoshlar hayoti va ruhiyatiga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazmoqda.

Jahonda “axborot urushi” ketayotganini hatto oddiy odamlar ham payqashi qiyin emas. Masalan, biron bir xorijiy mamlakatning turmush tarzi, qadriyatlar tizimini ulug‘lovchi risolalar, kinofilmlar tarqatilmoqda deylik. Tabiiyki, bunday axborotlar bolada ma’lum ijtimoiy fikr shakllanishiga ta’sir etmasdan qo‘ymaydi. Balki, axborotlashuv va globallashuv jarayonlari orqali, faqat moddiy manfaat va ehtiyojlarini qondirishga intiladigan, milliy qiyofasini qariyib yo‘qotgan, o‘z maqsadi yo‘lida har qanday g‘oyani qo‘llashga tayyor “Manqurt” kishilarni ham vujudga keltiradi. Bunday salbiy holat mamlakatimiz aholisi, ayniqsa, yoshlarimizga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, bola tarbiyasiga ta’sir etuvchi omillarni ikki turga ajratishimiz mumkin. Bular tashqi va ichki omillarga bo‘linadi.

Tashqi omil deb bola xavfsizligi uchun unga nisbatan tashqaridan vujudga keladigan xavfga aytiladi. Tashqi xavflar o‘zini quyidagilarda namoyon qiladi:

Jismoniy holatiga ta’sir;

ma’naviy dunyoqarashiga ta’sir;

ruhiy-psixologik holatiga ta’sir;

bola hayoti va sog‘ligiga ta’sir;

ahloqiy tarbiyasiga ta’siri kabilar.

Bola tarbiyasiga tashqi ta’sir etuvchi omil sifatida:

OAV vositalari;

ijtimoiy tarmoqlar;

internet tarmoqlar;

o‘yinchoq va qo‘g‘irchoqlar (*bolalarga turli g‘oya va mafkuralarni*

singdirish uchun ishlab chiqarilgan qo‘g‘irchoq va o‘yinchoqlar.);

gadjetlar va smartfonlar ortidan bola salomatligiga ta’sir etuvchi zararlar;

notanish kishilar tomonidan bola sog‘ligi va hayotiga yetkazilishi mumkin bo‘lgan xavflarga aytiladi.

Bola tarbiyasiga ta’sir etuvchi ichki omillarga farzand dunyoga kelgan va voyaga yetishida makon sifatida xizmat qiluvchi oiladagi muhitning nosog‘lomligi ta’sirlarga aytiladi.

Bola tarbiyasiga asosan quyidagi ichki omillar ta’sir etadi:

oiladagi muhitning nosog‘lomligi;

to‘liqsiz oila – bola tarbiyasida ota yoki onaning vazifasini bajaruvchi shaxsning yo‘qligi kabi omillar.

Borgan sari bolalarning raqamli texnologiyalarga ruju qo‘yib borishi ularning real hayotdan uzilishi odatiy bolalar kabi ko‘chada to‘p surib, quvlashmachoq o‘ynovchi bolalarni ham shovqin suroni quloqqa kam chalinmoqda. Ularning asosiy vaqtini sarflovchi gadjetlar ular uchun oilada, jamiyat a’zolari o‘rtasida o‘zini qanday tutish, muloqotga kirishini ko‘rsatuvchi o‘rnak makoniga aylanib bormoqda. Bola o‘zini kundalik hayotda, tengdoshlari davrasida, oilaviy munosabatlarda, ota-ona farzand munosabatlarini qanday tashkil etishdagi ma’lumot va axborotlarni o‘zida o‘rnak sifatida o‘zlashtirib oluvchi makon hisoblanadi.

Shunday ekan bolani tarbiyasida muhim ro‘l o‘ynovchi har qanday salbiy ta’sir etuvchi omillarni bartaraf etishda uni paydo qiluvchi ildizlarini aniqlash va oldini olish choralarini ko‘rish jamiyatning ertangi egalari bo‘lmish avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Платонов К.К. Иллюзии. // Педагогическая энциклопедия – М.: Советская энциклопедия, 1965. – С.353.

2. Шаев Ю.М. Виртуальная реальность: Пролегомены к онтологии. – М.: Изд.2 ЛЕНАНД, 2019. – С.12.

3. Маматова Я., Сулаймонова С. Ўзбекистон медиатаълим тараққиёти йўлида. Ўқув қўлланма. – Тошкент: “Extremum-press”, 2015. – Б.25.

4. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрь “Таълим тўғрисида”ги қонуни. https://lex.uz/docs/5013007

5. McCue, T.J. (2018) E-learning climbing to $325 Billion by 2025 UF Canvas Absorb Schoology Moodle, Forbes. 31 July 2018.

6. Schank R.C., “Active Learning throughMultimedia”, IEEE Multimedia, pp. 69-78, Spring 1994.

7. Alimov M. Mediata’lim sohasida interaktiv multimedia xizmatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish. Educational Research in Universal Sciences. ISSN: 2181-3515. VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 12 | 2023.

8. Санақулов А.Н. Ҳозирги давр фани ва фалсафасида виртуал реаллик муаммоси // АДУ Илмий ахборотнома. № 5(57)/2021.

9. Shukurov A. Ta’lim tizimining virtuallashuvi – ilmiy samaradorlikni oshirish omili sifatida. “Yangi O‘zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman. Academic Research in Educational Sciences - Google Scholar

10. Regina MISEVICIENE and e.t.c. Educational Infrastructure Using Virtualization Technologies: Experience at Kaunas University of Technology. February 2012. – P. 227-239.

SOBIRJON YAKUBOV,
RMMM huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

XORIJDAGI VATANDOSHLAR: O‘ZLIKNI ASRASH MAS’ULIYATI VA MASHAQQATI

Globallashuv jarayoni O‘zbekistonning dunyo davlatlari bilan robitalarini yangi bosqichga olib chiqdi. Bugun ko‘p sonli o‘zbekistonliklar ilm olish, mehnat qilish, sayohat yoki doimiy yashab qolish maqsadida xorijiy mamlakatlarga safar qilmoqda. Bu esa xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni zamon talablari asosida, tizimli ravishda yo‘lga qo‘yishni taqozo etadi. Qolaversa, bu Asosiy qonun talabi hamdir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23-moddasiga ko‘ra, “Davlat xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish hamda rivojlantirish to‘g‘risida xalqaro huquq normalariga muvofiq g‘amxo‘rlik qiladi” [1].

Avvalo, “vatandoshlar” istilohiga aniqlik kiritib o‘tsak. Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasiga ko‘ra, O‘zbekiston hududidan tashqarida doimiy istiqomat qiladigan yoki ta’lim olish, mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish, oilaviy sabablar va boshqa sharoitlardan kelib chiqib vaqtinchalik chet elda yurgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari; xorijga chiqqan va chet el fuqaroligini olgan, Vataniga ma’naviy va madaniy nuqtayi nazardan mansublikni his qilgan hamda O‘zbekiston bilan madaniy-gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa aloqalarni rivojlantirishga harakat qilayotgan shaxslar va ularning avlodlari; etnik, til va madaniy-tarixiy nuqtayi nazardan o‘zini o‘zbeklar yoki qoraqalpoqlar sifatida identifikatsiya qilgan hamda O‘zbekiston bilan har tomonlama aloqada bo‘lish xohishida bo‘lgan xorijda istiqomat qilayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar xorijdagi vatandoshlar hisoblanadi [2].

Rasmiy statistikaga ko‘ra, dunyoning 100 ga yaqin mamlakatida 10 milliondan ziyod etnik o‘zbeklar istiqomat qiladi [3].

“Bugungi kunda O‘zbekiston fuqarolari va o‘zbek diasporasi Afg‘oniston (1,5 mln), Rossiya (2,3 mln), Tojikiston (1,2 mln), Qirg‘iziston (964 ming), Qozog‘iston (638 ming), Turkmaniston (500 ming), AQSH (100 ming), Turkiya (75 ming), Pokiston (70 ming) va boshqa mamlakatlarda istiqomat qiladi. Chet ellarda 500 dan ortiq o‘zbek milliy-madaniy markazlari faoliyat yuritmoqda. Bu xorijdagi vatandoshlarimizning nihoyatda katta kuch ekanini ko‘rsatadi”, deb yozadi tarixchi olim va jamoat arbobi Bahrom Abduhalimov [4].

Insoniyatga ulkan imkoniyatlar tuhfa etgan globallashuv jarayoni turli millatlarning tili, madaniyati va qadriyatlariga tahdid tug‘dirayotgani ham sir emas. Binobarin, kurrai arz bo‘ylab tarqalgan vatandoshlarimizga tili, madaniyati, qadriyatlari, bir so‘z bilan aytganda, o‘zligini asrab-avaylashi uchun ko‘mak ko‘rsatish, ularning Vatan bilan uzviyligini ta’minlash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“Vatandoshlar bilan aloqalarni rivojlantirishning ahamiyati va dolzarbligi oshayotgan bir paytda xorijdagi vatandoshlarimiz orasida o‘zbekona milliy-madaniy qadriyatlarga, ma’naviy-ma’rifiy hamda diniy ehtiyojlarga zarurat sezilmoqda. Jumladan, vatandoshlar va ularning farzandlari orasida tariximiz, milliy urf-odat va an’analarimiz, tilimiz, dinimizni yo‘qolib va unutilib borayotgani, turli begona madaniyatlar va buzg‘unchi diniy g‘oyalarga ergashib ketish va o‘zligini yo‘qotish, yosh vatandoshlarda o‘zbekona tarbiyani bilmaslik hollari uchrab turishi chuqur tashvishli vaziyatni keltirib chiqarmoqda”, deb yozadi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi mas’ul xodimi Zokir Abidov [5].

Xorijda uzoq muddat yashagan muhojirlar avvalo ona tilidan ayro tushadi. Ehtimol, birinchi avlod o‘z tilini unutmasligi mumkin, ammo ikkinchi avlod ota-onasi mansub millat tilini bilmasligi ko‘p kuzatiladi. Bunday dilemma o‘zbek vatandoshlarga ham begona emas. “Uzoq vaqt begona yurtda yurganda o‘zbek bo‘lib qolish, o‘zlikni, milliylikni saqlash qiyin ekan. Lekin bu narsa juda ham muhim. Ayrimlar xorijda yevropalashib yoki xitoylashib ketadi”, deb yozadi Xitoy Markaziy millatlar universiteti o‘zbek tili o‘qituvchisi Dilsora Mirzaahmadova [6].

Germaniyaning Myunxen shahridagi o‘zbeklarni birlashtirgan “70 o‘zbek-olmon” jamiyati rahbari Shuhrat Mirzahmedov ham G‘arb jamiyatlarida yashayotgan o‘zbek oilalari, xususan yoshlar orasida milliy qadriyatlarni saqlab qolish o‘ta muhim vazifa ekanini ta’kidlaydi [7].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-avgustdagi qarori bilan “Vatandoshlar” jamoat fondining tashkil etilishi ham ayni shu taqdirulamal ehtiyoj bilan izohlanadi. Fond zimmasiga xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni tarixiy Vatani atrofida yanada jipslashtirish, ularning qalbi va ongida yurt bilan faxrlanish tuyg‘usini yuksaltirish, milliy o‘zlikni saqlab qolish, vatandoshlar va ular tomonidan tuzilgan jamoat birlashmalarini qo‘llab-quvvatlash, turli sohalarda faoliyat yuritayotgan vatandoshlarimizning salohiyatini mamlakatimiz taraqqiyotiga samarali yo‘naltirish vazifasi yuklangan [8].

Mazkur fond o‘tgan uch yil davomida dunyo davlatlaridagi vatandoshlar hamda ularning jamoat birlashmalari, tashkilotlari bilan

muloqot va hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi. Fond tomonidan 200 ga yaqin vatandoshlar jamoat birlashmalari ro‘yxati shakllantirilib, ularning 60 tasi bilan hamkorlik memorandumi imzolandi. Jumladan, Rossiyadagi 59 ta, Qozog‘istondagi 47 ta, AQSHdagi 15 ta, Germaniyadagi 13 ta o‘zbek milliy markazlari, etnomadaniy birlashmalarining boshi qovushtirildi [9].

2024-yil mart oyida esa O‘zbek tili onlayn platformasi ishga tushirildi. Yangi loyiha dunyoning turli davlatlarida yashayotgan vatandoshlar va ularning farzandlari o‘zbek tilini o‘rganishi, qadriyatlar, urf-odatlar bilan tanishishiga imkon beradi.

“Vatandoshlar” jamoat fondi tomonidan amalga oshirilgan yana boshqa loyihalar haqida ham iliq fikrlar aytish mumkin. Ammo bugungi shiddatkor davrda vatandoshlar bilan ishlash, xususan, ularga ma’naviy, ma’rifiy jabhada ko‘mak ko‘rsatish borasidagi faoliyatni tanqidiy baholagan ma’qul. Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasida belgilanganidek, bugun xorijda o‘zbek tili, madaniyati va an’analarini saqlash, rivojlantirish va yosh avlodga yetkazishga qaratilgan faoliyatni yanada kuchaytirish lozim. Bu borada quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish tavsiya etiladi.

Birinchidan, 2018-yilda tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorligini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi”da o‘zbek tili, madaniyati va an’analarini dunyoga targ‘ib etish va ommalashtirish uchun Alisher Navoiy nomidagi Madaniyat markazini tashkil etish vazifasi belgilangan edi. Hozirga qadar bu borada amaliy qadamlar tashlanmadi. Konfutsiy instituti (Xitoy), Gyote instituti (Germaniya), Servantes instituti (Ispaniya), Yunus Emro instituti (Turkiya), Fransuz alyansi (Fransiya) kabi xorijiy muassasalar tajribasini o‘rgangan holda Navoiy nomidagi Madaniyat markazini tashkil etish vaqti keldi.

Ikkinchidan, ayrim mamlakatlarda millatdoshlarimizning ta’lim, til bilan bog‘liq haq-huquqlari buzilishi kuzatilmoqda. Xususan, Toshkentdagi Vebster universiteti professor yordamchisi Niginaxon O‘rolova o‘z tadqiqotida Markaziy Osiyoning ba’zi mamlakatlarida etnik ozchilik sifatida yashayotgan o‘zbeklarning ona tilida ta’lim olishi bilan bog‘liq muammolar kuzatilayotganiga e’tibor qaratgan [10]. Bu kabi masalalarni do‘stona muhokamalar, diplomatik muzokaralar bilan hal etish imkoni mavjud, albatta.

Uchinchidan, xorijiy davlatlarda tug‘ilgan va bir necha avlodi bilan chel ellarda yashab kelayotgan millatdoshlarimiz ham oz emas. Xelsinki (Finlandiya) universiteti tadqiqotchisi Sherzod Eraliyev ta’kidicha,

“Xorijdagi diplomatik vakolatxonalarimiz nafaqat mamlakatimiz fuqarolari, balki fuqarolikni yo‘qotgan vatandoshlar, shuningdek, ajdodlari O‘zbekiston hududida yashagan yoki o‘zini etnik-madaniy jihatdan shu hududga mansub deb bilgan chet elliklar bilan ham yaqindan aloqa o‘rnatmog‘i lozim” [11].

To‘rtinchidan, vatandoshlar bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish borasida xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish kerak. Jumladan, til, madaniyat va e’tiqod jihatdan O‘zbekistonga yaqin bo‘lgan Turkiya bu borada katta tajribaga ega. Turkiya hukumati huzuridagi Xorijdagi vatandoshlar va diasporalar bilan ishlash boshqarmasi chet eldagi turklarni tarixiy vatanidan uzilmagan holda mezbon davlatga integratsiyalashuvi bo‘yicha katta loyihalarni amalga oshirib kelmoqda [12]. Boshqarma turk muhojirlarining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jabhadagi talab-ehtiyojlarini o‘rganish uchun muntazam ijtimoiy so‘rov va tadqiqotlar o‘tkazadi. Xorijdagi o‘zbeklarning talab-istaklarini o‘rganish, ularning yuragiga quloq tutish uchun ham ijtimoiy so‘rovlar, ilmiy tadqiqotlarni yo‘lga qo‘yish lozim.

Beshinchidan, keyingi yillarda xorijdagi vatandoshlarimizning ekstremistik guruhlar, terrorchi tashkilotlar tuzog‘iga tushishi holatlari ko‘paymoqda. O‘zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan chet eldagi vatandoshlar bilan ma’rifiy suhbatlar tashkil etilmoqda. Masalan, 2024-yilning 20̣ – 25-avgust kunlari O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy Nuriddin Xoliqnazarov Finlandiya va Latviya davlatlarida tahsil va mehnat faoliyati bilan shug‘ullanayotgan vatandoshlar bilan suhbat, savol-javoblar o‘tkazdi [13]. Xorijdagi vatandoshlar buzg‘unchi g‘oyalar ta’siriga tushmasligi uchun sof islom ma’rifati targ‘ibotiga qaratilgan bu kabi tadbirlarni ko‘paytirish maqsadga muvofiqdir.

O‘tgan asrning 60 – 70-yillaridan e’tiboran G‘arb davlatlarida multikulturalizm siyosati amalga tatbiq etila boshladi. Bag‘rikenglik, tolerantlik g‘oyalariga asoslangan multikulturalizm jamiyatdagi etnik ozchilik guruhlar ham o‘z tili, qadriyatlarini saqlab qolishga haqli degan nuqtayi nazarni ilgari surgan edi. Ushbu siyosatga muvofiq, deylik, Germaniyada yashovchi o‘zbek milliy ildizlaridan uzilmagan holda jamiyatning teng huquqli a’zosi o‘laroq faoliyat yuritishi mumkin. Ya’ni undan olmon jamiyatiga assimilyatsiya bo‘lish talab etilmaydi. Ammo keyingi o‘n yilliklarda G‘arb jamiyatlarida multikulturalizm siyosati titul millat o‘zligiga tahdid degan qarash keng tarqalmoqda. Rivojlanayotgan dunyodan kelgan muhojirlarga mezbon davlat tili, madaniyati va qadriyatlariga itoat va muhabbat talabi qo‘yilmoqda [14].

Muhojirlarga nisbatan toqatsizlik, ksenofobiya, etnik ayirmachilik kabi illatlar dunyo bo‘ylab tariqdek sochilgan o‘zbeklar hayotiga ham

ta’sir o‘tkazmay qolmaydi. Davr sinovlari, zamon dolg‘alari xorijdagi vatandoshlar milliy o‘zlikni asrab-avaylashi, qadriyatlar vorisiyligini muhofaza etishi uchun yanada ta’sirchan chora-tadbirlar, ilg‘or usullar qo‘llashni talab etayotir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://constitution.uz/uz/clause/index
2. Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi. https://lex.uz/docs/4022649
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi rasmiy kanali. https://t.me/aoka_uz/4870
4. Abduhalimov B. Xorijlik yurtdoshlarimiz Vatan himoyasida. // “Adolat” gazetasi, 2023-yil 28-aprel.
5. Abidov Z. “Xorijdagi vatandoshlar orasida o‘zbek milliy qadriyatlariga, ma’naviy va diniy ehtiyojlariga zarurat sezilmoqda”. 27.04.2021. https://bugun.uz/horizhdagi-vatandoshlar-orasida-ozbek-millij-qadriyatlariga-manavij-va-dinij-ehtiyozhlariga-zarurat-sezilmoqda
6. O‘zga yurtda o‘zlikni asrab. // “Ma’naviy hayot” jurnali, 2024-yil 2-son, 24-bet.
7. “Vatandoshlar” jamoat fondi delegatsiyasi Germaniyadagi o‘zbekistonliklar bilan uchrashdi. 30.04.2024. https://kun.uz/kr/96493266#!
8. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2021-yil 13-avgust.
9. https://vatandoshlarfondi.uz/compatriots/public-associations
10. Uralova N. Uzbeks Behind Borders: Improving Connections? 26.05.2021. https://cabar.asia/en/uzbeks-behind-borders-improving-connections
11. Eraliyev Sh. Aqllar hijrati. // “Tafakkur” jurnali, 2020-yil 1-son. 14 – 19-betlar.
12. Yurtdışı Türkler ve Akraba Topluluklar Başkanlığı. https://ytb.gov.tr/daireler/yurtdisi-vatandaslar
13. https://www.muslim.uz/oz/e/post/39759-vatandoshlar-bilan-muloqot-ikki-tomonlama-uchrashuv-va-xelsinkida-juma-namozi-finlandiya-safari
14. Kevin Johnson, Bill Ong Hing. National Identity in a Multicultural Nation: The Challenge of Immigration Law and Immigrants. Michigan Law Review. Vol. 103. Issue 6. 2005. P. 1347.

SHOHZOD RAXMONOV,
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy
faolligini oshirish markazi bo‘lim boshlig‘i

TALABA-YOSHLARNING MA’NAVIY BARKAMOL BO‘LISHIDA MADANIY-MARIFIY TADBIRLARNING TUTGAN O‘RNI

Mamlakatimizda ilm-fan, ta’lim va tarbiya, ma’naviyat ustuvor masala bo‘lib, davlatimiz rahbari bu sohani rivojlantirish uchun avvalo mustahkam iqtisodiy asoslar kerakligini ta’kidlab, shu borada amalga oshirilayotgan ishlarni qayd etib o‘tdi. Ushbu iqtisodiy asos natijasida bu yil ijtimoiy sohaga eng ko‘p – 134 trillion so‘m mablag‘ ajratildi. Bu – 2016 yilga solishtirganda 5,6 barobar ziyod demakdir [1].

Yoshlarning jamiyatning munosib a’zosi sifatida shakllanishida ta’lim sohasi alohida o‘ringa ega bo‘lib, har qanday mamlakatda ta’lim masalalari eng muhim va ustuvor yo‘nalishlardan biridir. O‘zbekiston xalqi ma’naviy-axloqiy tarbiyani azaldan yuksak qadrlab kelgan. O‘zlariga ishonib topshirilgan talabalarni tarbiyalash jarayonida o‘qituvchilar shaxsning axloqiy idealiga e’tibor qaratishlari kerak.

O‘zbekiston oliy talim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bu sodir bo‘layotgan voqealarni mustaqil fikrlash va baholashga qodir bo‘lgan, o‘z hayoti va faoliyatini o‘zining atrofidagi odamlar va butun jamiyat manfaatlariga muvofiq, shuningdek, ta’lim muassasalarining manfaatlari va talablarini hisobga olgan holda qurishga qodir bo‘lgan mas’uliyatli fuqaroni tayyorlashdir. Bu muammoni hal etish shaxsning barqaror ma’naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Shaxsning ma’naviy mavjudot sifatida shakllanishi jarayonini faqat o‘z “men”idan tashqariga chiqish va o‘z mavjudligining boshqa, oliy maqsadiga tayyorgarlik ko‘rish asosida o‘zining ruhiy mohiyatini yaxshilash qobiliyatiga qisqartirish mumkin emas. Yoshlarning ma’naviy o‘zligini anglash bo‘yicha izlanishlari uni ham ma’rifatga, ham uning insoniy tabiatini yaxshilashga, yoki aksincha noto‘g‘ri qadam bosishi natijasida halokatga, aqidaparastlikka, insoniy hamma narsani rad etishga, yaqinlari va boshqa odamlar bilan axloqiy aloqalarni buzishga olib kelishi mumkin.

Bunda yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy, madaniy tadbirlarni to‘g‘ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori joylarda ommaviy-madaniy tadbirlarning o‘tkazish ishlarini jadallashtirib yubordi [2].

Madaniy tadbirlarning asosiy vazifasi shaxsning insonparvarlik va ma’naviy fazilatlarini shakllantirish, avlodlar o‘rtasidagi davomiylik va aloqadorlikni, madaniyatlararo muloqotni ta’minlashdan iborat. Talabalar bilan madaniy tadbirlarda ishlashda mas’ul rahbar konsert mavzularini to‘g‘ri tanlashi, nutq texnikasi va notiqlik bo‘yicha taqdimotchilar bilan ishlashi, talabalarni o‘z g‘oyalarini taklif qilishga undashi, talabalarning darsdan tashqari vaqtini to‘g‘ri tashkil etishi, talabalar o‘rtasida bag‘rikenglikni rivojlantirishi kerak. Ommaviy-madaniy faoliyatning mohiyatida pedagogik rivojlantiruvchi va tarbiyaviy funktsiyalar mavjudligidir.

Xalqimizda ommaviy tabirlar, jumladan bayramlar, sayllar va xalq tomoshalarini o‘tkazish qadim zamonlardan beri urf bo‘lib kelgan: Qadimgi Navro‘z sayli, Hosil bayramlari, xalq yig‘inlari, xalq tomoshalari - bularning barchasi katta tajriba bo‘lib, hozirda zamonaviy ommaviy tadbirlarda turli shakllarda qo‘llaniladi. Madaniy hodisalar muayyan muhit yoki jamiyatdagi kayfiyat va muhitning ko‘zgusi bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi.

Bugungi kunda yoshlar tarbiyasidagi asosiy vazifalardan biri ommaviy-madaniy tadbirlar orqali milliy qadriyatlarimizni tiklash, o‘zligimizni anglash, muqaddas dinimizning ma’naviy hayotimizdagi o‘rnini va hurmatini tiklash kabi ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko‘tarishdir.

O‘tkazilayotgan ommaviy-madaniy tadbirlarning mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish va ularning tasnifiga ba’zi qo‘shimchalar kiritishga imkon beradi. Mavjud adabiyotlarda ommaviy-madaniy tadbirlar quyidagi: turli xil kechalar, badiiy kompozitsiyalar, badiiy chiqishlar va diskoklub dasturlari, teatrlashtirilgan konsert va tomoshalar, xalq marosimlari va sayillari, ommaviy bayramlar, ko‘rik tanlovlar kabi ko‘plab shakllarga bo‘linadi. Bundan tashqari qamroviga ko‘ra tadbirlarni Uyushgan jamoalarda, shu jumladan, o‘quv yurtlarida o‘tkaziladigan; Aholi turar joylarida o‘tkaziladigan va uyushmagan aholi o‘rtasida o‘tkaziladigan turlarga ajratish mumkin.

Uyushgan jamoalarda o‘tkaziladigan tadbirlar ishtirokchi-tomoshabinlarning bir-birlarini bilishi, umumiy maqsadga intilishi bilan xarakterlanadi. Bunday jamoa a’zolari o‘rtasida muayyan ruhiy yaqinlik mavjud bo‘lib, bu holat ommaviy-madaniy tadbir jarayonida yaqqol ko‘zga

tashlanadi. Bunday jamoalarda ommaviy-madaniytadbirlar jarayonidagi ma’naviy-ruhiy uyg‘unlik qisqa muddatda va yuqori darajada yuz beradi. Ommaviy-madaniy tadbirlarning o‘quv muassasalaridan o‘tkaziladigan shakllaridan biri ijodiy uchrashuvlar, desak xato bo‘lmaydi. Ma’lumki, “ijodiy uchrashuv” so‘zlari ancha keng ma’no ifodalaydi. Shoir, yozuvchi, san’atkor, rassom (musavvir), aktyor, xalq amaliy san’ati ustasi, boringki, o‘z ishining ustasi bo‘lgan har qanday soha vakili bilan o‘tkaziladigan diltortar suhbatlar ijodiy uchrashuvning ko‘rinishlaridir. Odatda bunday suhbatlar tabiiyligi, savol-javoblarga boyligi, samimiyligi, kutilmagan savol va javoblarni keltirib chiqarishi kabi xususiyalari bilan ajralib turadi. Jumladan, yozuvchi va shoirlar, aktyorlar bilan uchrashuvlar yuzlab yoshlarning qalbida badiiy ijodga, san’atga, ilm-ma’rifatga ishtiyoq sehrli olamiga mehr-muhabbat uyg‘otadi, o‘quvchi yoshlar ma’naviy dunyoqarashini kengaytiradi, ularni yaxshilikka undaydi, ezgulik bilan hamnafas yashashga da’vat etadi.

Oliy ta’lim muassasalarida madaniy tadbirlar kechalar, tomosha va teatrlashtirilgan konsertlar, ko‘rik-tanlovlar, ko‘rgazma, badiiy kompozitsiya, quvnoqlar va zukkolar tanlovlari kabi shakllarda o‘tkaziladi. Ularning har biri o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, shunga monand ravishda, ularni o‘tkazish uslubiyati ham bir-biridan farq qiladi.

Jumladan, talabalarning bo‘sh vaqtlarida o‘tkaziladigan ommaviy tadbirlarga mavzuli kechalar, o‘tkir zexnlilar baxslashuvlari, ijodiy uchrashuvlar, ilmiy baxslar, dam olish kechalari, munozara, ilmiy va ijodiy konferensiya, teatrlashgan konsert, ommaviy tomosha, sayil, bayram, karnaval, ko‘rik-tanlovlar, sayoxat, ekskursiyalar, olimpiada, ko‘rgazmalar, qiziqarli o‘yinlar, badiiy-sport tadbirlari, badiiy havaskorlik to‘garaklari va boshqalar kirishi mumkin. Ommaviy madaniy-ma’rifiy tadbirlarning bu ikki turi bir-biridan faqat o‘tkaziladigan vaqti bilan farqlanmaydi. Ularning maqsadlari ham bir. Mashg‘ulotlar jarayonida o‘tkaziladigan tadbirlarning maqsadi shu mashg‘ulotda o‘rganilayotgan mavzuni chuqurroq anglash, yaxshiroq eslab qolishga xizmat qilishdir.

Oliy talim mumssasalarida madaniy tadbirlar talabaning yangi ijtimoiy muhitga to‘g‘ri va sog‘lom kirib borishi uchun asosdir. Ommaviy madaniy tadbirlar: konsertlar, milliy raqs va qo‘shiq tanlovlari, ijodiy tanlovlar (rasm, surat, she’r, nasr), davra suhbatlari, volonterlar faoliyati, ijodiy faollikni rivojlantiruvchi ma’rifiy tadbirlar va boshqalar orqali amalga oshiriladi. Talaba turli tadbirlarda qatnashib, o‘z iste’dodini ochib berish, o‘quv faoliyatida tanaffus qilish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘z o‘rnini topish imkoniyatiga ega. Keling, madaniy faoliyatning asosiy vazifalari

va ijobiy tomonlarini batafsilroq talabalar manfaatlari asosida ko‘rib chiqaylik:

1. Talabaning ijodiy salohiyatini rivojlantirish.

2. Talabalar o‘rtasida vatanparvarlik tuyg‘ulari va tuyg‘ularini tarbiyalash va qo‘llab-quvvatlash (Mustaqillik bayrami, Vatan himoyachilari kuni)

3. Ijod bilan shug‘ullanishni davom ettirish imkoniyati.

4. Talabalar o‘rtasida bag‘rikenglikni rivojlantirish (“Yoshlar kuni”, “Xalqaro talabalar kuni”).

5. Tashkiliy qobiliyatlarni namoyon etish imkoniyati.

6. O‘z she’rlari, hikoyalari va ssenariylari orqali o‘zingizni ifoda etish imkoniyati.

7. Madaniy tadbirlarda qatnashayotgan va ma’lum bir sohada (qo‘shiq, raqs, teatr, fotografiya, rassomlik va h.k.) mukofotlarga ega bo‘lgan talabalar uchun rag‘batlantiruvchi mukofotlar, oshirilgan stipendiyalar ko‘rinishidagi bonuslar olish imkoniyati.

8. Boshqa talabalar, shuningdek, boshqa universitetlar orasida mashhur va hurmatga sazovor bo‘lish, ba’zi maqom va istiqbollarga ega bo‘lish imkoniyati (respublika musobaqalari, keyinchalik chet elda ishtirok etadigan tanlovlar, pullik sovrinli musobaqalar va boshqalar).

9. Darsdan tashqari vaqtdan to‘g‘ri, foydali va qiziqarli foydalanish .

10. Intellektual, madaniy va axloqiy rivojlanish ehtiyojlarini qondirish.

Talabalarning erkin va fidokorona ishtirokini o‘z ichiga olgan tadbirlar yoshlarda burch va vijdon tuyg‘ularini rivojlantiradi. Tadbirlarda ixtiyoriy ravishda ishtirok etish orqali talabalar, qoida tariqasida, keyinchalik boshqalarning muammolariga ko‘proq ochiq bo‘lishga va o‘z harakatlarini tashkil etishga harakat qilishadi.

Oliy ta’lim muassasalarida madaniy-ma’rifiy tadbirlarni o‘tkazish talabaning uyg‘un ijtimoiylashuvi uchun haqli ravishda muhim va zarur deb hisoblanishi uchun yetarlicha ijobiy tomonlarga ega. Biroq, universitetda talabalarning muayyan tadbirlarda ishtirok etishi bilan bog‘liq bir qator muammolar vujudga kelishi kuzatiladi. Eng ko‘p uchraydigan muammo - madaniy tadbirlarning rolini ta’lim faoliyati bilan solishtirganda bo‘rttirish. Talaba ilmiy va amaliy konferensiyada ishtirok etishdan ko‘ra ma’lum bir konsertda ishtirok etishni muhimroq deb bilishi mumkin, ammo oliy ta’lim muassasasida har qanday talaba diqqatini jalb qilishi kerak bo‘lgan asosiy vazifalardan biri maanaviy-ma’rifiy tarbiya bilan birga yoshlarning tadqiqot faoliyati orqali bilim olishdir. Xuddi shunday dolzarb muammo - bu maanviy-maifiy tadbirlarda ishtirok etish va ta’lim faoliyati uchun vaqt ajratish muammosidir. Tadbirga

tayyorgarlik ko‘rishda ishtirok etish ko‘p kuch va vaqtni talab qiladi va shuning uchun talaba oldida doimo tanlov turadi: uy vazifasi. Mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish yoki tadbirga tayyorgarlik mashqlariga borish. Ko‘pincha yoshlar ikkinchisini tanlaydi. Bundan tashqari, asosiy muammolar orasida moddiy qiymat muammosini ajratib ko‘rsatish mumkin, ya’ni har qanday madaniy tadbir u yoki bu tarzda moddiy xarajatlarni talab qiladi - xoh u sahnada e’tiborli ko‘rinish uchun kostyum bo‘ladimi, milliy kiyim va anjomlarga buyurtma berish yoki maxsus tikilgan kiyim bo‘lsin. Talabalar tadbirni o‘tkazishi uchun universitet iloji boricha tejab mablag‘ sarflaydi, Universitet har doim mumkin bo‘lgan va yetarli darajada moliyaviy yordam beradi, ammo talabalarning tashabbusi ba’zan berilgan moddiy kompensatsiyadan oshib ketadi. Madaniy tadbirlarning o‘tkazilish vaqti va talabalarning tadbirlarda ishtirok etishiga o‘qituvchilar va kafedra mudirlarining munosabati har doim ham ijobiy bo‘lmaydi

Xulosa qilib aytganda, madaniy tadbirlar talabalarga faqat sohaga mas’ul shaxs, bizning holda ma’naviyat, ta’lim tarbiya va talabalarning ahloqiy tarbiyasiga mas’ul xodimlar tadbirni barcha jihatlarni hisobga olgan holda malakali tashkil etgan taqdirdagina ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Ma’naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak. Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 22 dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqi. - https://president.uz/uz/lists/view/6941

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019 yil 3 maydagi PQ - 4307-sonli Qarori.

MAVLUDA ALMAMATOVA,
Guliston davlat pedagogika instituti,
“Sayhun ilmiy axborotnomasi” tahririyat muharriri.

KUCHLI MA’NAVIYAT VA UNING NAMOYON BO‘LISHI

Kirish. Bugungi kunga kelib ma’naviyat butun insoniyat uchun dolzarb ma’naviy ozuqaga aylanib ketdiki, natijada usiz har qanday qudratli jamiyat yoki davlat tanazzulga yo‘l tutishi aniq bo‘lib qoldi. Jamiyat rivojlanib borgan sari insonlar, xalqlar, millatlar o‘ziga xos ma’naviy munosabat, aloqalar rivojlanib boradi. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev alohida ta’kidlaganidek, XXI kelib xalqimiz va yurtimizning istiqbolini belgilashda, “...insoniyat dunyosining buyuk bir yoritgichi – ma’naviyat chirog‘i bor. Bu chiroqning boshqalardan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi, vijdonini uyg‘otadi, odamiylik hissini kuchaytiradi. O‘zbekistonning yangi uyg‘onish davrini yaratishga kirishar ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ana shunday ma’naviyat shu’lasi porlashi va u bizni ezgu ishlarga undab, yuksak mas’uliyat tuyg‘usi bilan yashashga da’vat etishi zarur” [1].

Ilm-fan, ta’lim va tarbiya ma’naviyat biz uchun ustuvor masalalardan sanaladi. Zero, agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Ma’naviyat kishini fidokorlikka yetaklaydigan, insonni kamolotga yetkazuvchi, yuksaltiruvchi ulug‘ qudrat hamdir. Shunday ekan, har bir inson hamda kamol topib kelayotgan yosh avlod uchun ma’naviyat suv bilan havodek naqadar zarurligini unutmasligimiz darkor. Ma’lumki, masala va muammoning mohiyatini anglab yetish chog‘ida uning mazmunini ochib berish maqsadida ishlatiladigan tushuncha va kategoriyalarning mazmun-mohiyatiga e’tibor qaratish juda muhim sanaladi. Shu ma’noda ma’naviyat yoshlarning ma’naviy kamolotida katta ahamiyat kasb etadi. Mustaqil O‘zbekiston eng ilg‘or, rivojlangan mamlakatlar safidan joy olish harakatida ekan, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan, erkin fikrlovchi, ayni vaqtda fuqarolik mas’uliyatini chuqur his etadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni puxta o‘zlashtirgan shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazish jamiyatimiz oldida turgan bosh vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ma’naviyat tushunchasining ma’no-mazmuni haqida fikr yuritganda uning jamiyatda tutgan rolini teran anglamasdan turib so‘z yuritib bo‘lmaydi. Chunki ma’naviyatning real hodisa sifatida yuzaga chiqishi, uning voqeiy bo‘lish jarayonining yuzaga

kelishidan iborat. Nazariy ongning bir qismi bo‘lgan ma’naviyatning shakllari amaliyot bilan bog‘liq. Voqelikka nisbatan yoshlar ongida ham ma’naviyning elementlari shakllanib, milliylik bilan umuminsoniylik bilan bog‘liq ravishda ijtimoiy ong rivojlanadi. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘atida “ma’naviyat – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha” [2] sifatida keltirilgan bo‘lsa, O‘zbekiston milliy entsiklopediyasida esa, “ma’naviyat – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, ahloqiy, diniy tasavvurlarini o‘z ichiga oladi” [3], deyilgan. Har bir ta’rifning funksionallik va individuallik jihatlari mavjud bo‘lib, inson vujudining ma’nosi, manfaatlar to‘qnashuviga moyilligi, uning benazir va mukammal mavjudotligini ifodalaydi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov esa “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ushbu tushunchaga bergan o‘zining quyidagicha mashhur ta’rifida: “Ma’naviyat – insonni ruhiy poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlari mezonidir” [4], deb ta’kidlaydi. Mazkur ta’rifning o‘ziga xos tomoni shundaki, unda ma’naviyat insonning diniy va dunyoviy hayot bilan bog‘liq ko‘rinishlarning ifodasi sifatida falsafiy tarzdagi mohiyatini ilmiy muomalaga kiritishga yo‘naltirilgan.

Mustaqillligimiz kun sayin mustahkamlanib borayotgan bugungi sharoitda o‘sib kelayotgan har bir yosh avlodni yuksak ma’naviyatli, aqlan barkamol va ma’nan yetuk shaxs etib tarbiyalashda moddiy va ma’naviy yodgorliklar, ajdodlardan qolgan ilmiy meroslar muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ma’naviyat va madaniyatni tahlil etish chog‘ida ular o‘rtasidagi dialektik aloqadorlik, sinergetik tamoyillar mavjudligini ko‘ra bilish juda muhim. Ma’lumki, ma’naviyat ham, madaniyat ham hech kimda tug‘ma bo‘lmaydi, instinktlar orqali tabiatan berilmaydi. U shaxsning jamiyatda ijtimoiylashuvi negizida ahloq, did, idrok, his-tuyg‘ularning ta’siri ostida shakllanadi va, shunday deyish joiz bo‘lsa, ongsizlikdan onglilik, anglanganlik tomon ulg‘ayishida vujudga keladi. Har bir voyaga yetib kelayotgan yigit-qiz shaxsiy hayotiy tajribasi asosida, mustaqil ravishda bevosita tevarak-atrofdagi kishilarning, jamiyatning va o‘tgan ajdodlarning to‘plagan tajribalarini o‘zlashtiradi. Yoshlar ham ijtimoiy amaliyot mahsuli bo‘lgan madaniyatni o‘zlashtirish bilan birga, unga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Yoshlar ijtimoiy ongining shakllanishi jarayonida moddiy va ma’naviy madaniyatni boyita boradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning uslubiy asosini ilmiy bilishning ob’ektivlik (xolislik), tarixiylik, sistemalilik, retrospektiv va qiyosiy tahlil usullari tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. Jamiyat ma’naviyatini shakllantiruvchi mezon va tamoyillarni qomusiy olimlarimiz yaratgan ma’naviy me’ros namunalari orqali anglaymiz, ular tomonidan yaratilgan axloqiy fazilatlarni o‘z hayotimizga singdirib boramiz. Misol uchun, buyuk geograf Abu Rayhon Beruniy, matematika fanining asoschisi Al-Xorazmiy, tibbiyot olami sultoni Ibn Sino, buyuk astronom Mirzo Ulug‘bek, islom dini olimlari Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, g‘azal mulkining sultoni Alisher Navoiy, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ulug‘ allomalar ma’naviyati keng bilim darajasi yuksak insonlar bo‘lishgan. Bizlar shu shaxslarning milliy ma’naviy va madaniy merosini o‘rganishimiz va asrab avaylashimiz shart. “Ma’naviyat inson qalbida aks etgan ilohiy nur. Oliy haqiqat nuridir. Shu sababli inson ko‘nglini “haqiqat asrorining ganjinasi” deydilar. Faqat inson qalbi insonni hayvondan farqlab turadigan oliy qadriyatdir” deb bejizga aytishmagan.[5]

Ko‘rib turganimizdek, ma’naviyatga berilgan ta’riflar turlicha shaklda bo‘lsa ham ularning barchasi inson faoliyatiga borib taqaladi. Ma’naviy madaniyat, aslida, kishilik jamiyati tarixida asrlar davomida shakllangan inson tafakkurining mahsuli bo‘lib, unda insonning voqelikka stixiyali tarzda yondashuvi asosida ma’naviy dunyoqarash vujudga kelgan. Asta-sekinlik bilan tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarga aqliy munosabatning rivojlanishi negizida ma’naviy madaniyat unsurlari ijobiy va foydali ahamiyat kasb etgan va shuning uchun avloddan-avlodga meros sifatida qoldirish uchun zarur deb topilgan. Bu esa, o‘z navbatida insonning aql-zakovatida yangicha tafakkur tarzi shakllanishi bilan birga, borliqning narsa va predmetlari, hayvonot olami, koinot, megaolam va umuman dunyo to‘g‘risidagi qarashlarining kengayishiga olib kelgan.

Ma’naviy ishlab chiqarish jarayonida siyosiy va huquqiy mafkura, falsafa, axloq, san’at sohasidagi erishilgan yutuqlar saralanib boradi. Ular ma’naviy boyliklarni yaratuvchi shaxslar tomonidan qayta ishlanib, sayqallanadi va odamlarning ehtiyojlarini qondirish tomonga yo‘naltiriladi. Shu boisdan “ma’naviyat – insonning ma’naviy xususiyati va xislatlari, jamiyatning xarakter va xillatlarini aks ettiruvchi tushuncha” [6] sifatida olib qaraladi. Unda insonning oddiy yashashi bilan bog‘liq kundalik turmushning muhim ehtiyojlari tizimi jamiyat bilan bog‘liq holda ifodalaydi.

“Ma’naviyat – odamning ruhiy va aqliy olamining majmuidir”, “Inson barcha tirik mavjudotning gultoji, hayot guli deyilganda uning yuksak ma’naviyat egasi ekanligi nazarda tutiladi. Ma’naviyat insoniylikka olib boradigan, insonni inson, millatni millat qiladigan ajoyib xislat va fazilatlar yig‘indisidir”. “Ma’naviyat insonning bilimi,

tajribasi va mehnat malakasi, odob axloqi, iymon va e’tiqodi, mafkuraviy qarashlarining yaxlit tizimidir”. “Ma’naviy yetuklik shunday bir xazinaki, uni egallagan odam insoniy qadr qimmatini hamma narsadan ustun qo‘ya oladi, o‘z manfaatini o‘zgalar manfaati bilan qo‘sha oladi, hayot mamot masalalari hal bo‘layotgan damlarda aql-idrok doirasidan chiqmaydi”. [7] Bizningcha, ma’naviyat insonda yuqori darajada takomil topgan insonparvarlik xislatlarining yig‘indisidir. Ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, ma’naviyat benihoya ko‘p qirrali, chuqur mazmun va mohiyatga eag bo‘lgan falsafiy tushunchadir. Ma’naviyat keng qamrovli bo‘lganligi tufayli tor va keng ma’noda qo‘llanadi. Tor ma’noda ma’naviyat insonning ichki ruhiy olamini ifodalovchi tushuncha sifatida ishlatilsa, keng ma’noda esa inson unga amal qilish jarayonlari tushuniladi.

S.Otamurodov fikriga ko‘ra esa, “Ma’naviyat voqelikni badiiy aks ettirish va o‘zlashtirish vositasidir” [8]. Bunda voqelikda inson mehnati natijasida yaratiladigan moddiy va ma’naviy boyliklar, shaxs ma’naviy qiyofasining yuksalishiga xizmat qiladigan ahloq qoidalariga rioya etish masalalari aks etgan. Biroq, ushbu o‘rinda ta’kidlash lozimki, bizningcha, S. Otamurodovning bu fikri muhokama etilayotgan masala yuzasidan mutlaq haqiqat darajasi uchun da’vogarlik qila olmaydi. Chunki ma’naviy madaniyat voqelikni badiiy aks ettirish tushunchasidan ancha kengroq tushuncha. Binobarin, olimning badiiy aks ettirish jihatini mutlaqlashtiradigan bo‘lsak, siyosiy, ilmiy, huquqiy aks ettirish kabi jihatlari ushbu yondashuv doirasiga sig‘may qolishi tabiiydir. Shunday ekan, ma’naviy madaniyatni voqelikni badiiy aks ettirishga tenglashtirish asossiz, balki voqelikni badiiy aks ettirishni ma’naviy madaniyatni shakllantirish vositalaridan biri deyish to‘g‘riroq bo‘ladi.

Haqiqatdan ham ma’naviyat shunday bir ulug‘ so‘zki uning zamirida chuqur ma’no bor. Buyuk ajdodlarimiz ma’naviy-ruhiy kamolotga erishishni, doimo ogoh va xushyor yashashni, Vatan el-yurt sha’ni tinchligi uchun xatto jon fido etishni hayotining mazmuni deb bilgan. Avlodlarni ham anashu ezgu amallar ruhida tarbiyalashga intilgan. Bu an’analar dunyo manzaralari kun sayin o’zgarib, tinchlik totuvlikka taxdidlar tobora kuchayayotgan bugungi davrda yanada dolzarblik kasb etnoqda. Ma’naviy barkamol shaxslarni voyaga yetgazishning muhim tomonlaridan bir shundaki, ma’naviy olami yetuk shaxs hech qachon yot va g‘oyalarga ergashmaydigan, har qanaqa vaziyatni to‘g‘ri tahlil qila olish va ularga nisbatan ongli ravishda to‘g‘ri fikr yuritish qobiliyatiga ega bo‘lgan, o‘zi uchun oqilona qarorlar qabul qila oladigan va eng asosiysi har qanday holatda ham vatan ravnaqi, yurt kelajagi va obodligi yo‘lida kerak bo‘lsa jonini fido qila oladigan darajada komil insonlar

yetishtirib chiqarishdir. Ilohiyot nazariyasi nuqtai nazaridan yondashuvda insonning ma’naviy borlig‘i uchun najot bilan muloqot orqali sodir bo‘ladigan ilohiy inoyat, insonning ichki o‘zgarishi va iymon orqali uning qadriyatlari va ma’naviy (ilohiy) ga bo‘lgan munosabatining o‘zgarishlari tushuniladi. Taniqli rus faylasufi I. Ilin bu to‘g‘rida shunday deb yozadi: “barcha ma’naviy madaniyatning asosiy manbai - bu bizga berilgan Ilohiylik. Xudo tomonidan beriladigan yaxshi va jonli narsalarda sevgi va iymon mavjud va uni e’zozlaymiz”. Bu fikrlardan har bir dinda xudoga sig‘inish ilohiylik kasb etishini ko‘rishimiz mumkin va o‘zimizning unga e’tiqodimiz orqali o‘zligimiz, ichki hissiyotlarimizni bag‘ishlaymiz.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, ma’naviyat millatning, xalqning ma’naviy qiyofasidir. Ma’naviy qiyofasiz inson o‘zligini yo‘qotadi. Uning uchun na vatan, na ona yurt, na mahalla ko‘y, na oila mavjud bo‘ladi. Biz ma’naviyatimizni va o‘zligimizni anglashimiz uchun doimo ma’naviy va madaniy ongimiz va saviyamizni boyitib borishimiz zarur. Ma’naviyatli insonnining qalbi va hayoti go‘zal va sermazmun bo‘ladi. O‘zi yaxshilikka intilib yashaydi va boshqalarni ham yaxshilikka chorlab yashaydi. Qalbida vatanparvarlik, insonparvarlik, iymon va e’tiqod kabi ilohiy kuchlar jo‘sh uradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 260.
2. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot, 2013. – B. 172.
3. O‘zbekiston milliy ensklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensklopediyasi, 2003. – B. 334.
4. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 19.
5. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari . – Toshkent: Universitet. 1998. – B. 60.
6. Falsafa qomusiy lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti, 2004. – B. 230.
7. Erkayev A . “Ma’naviyatshunoslik”. – Toshkent: “Ma’naviyat “, 2018. – B. 84.
8. Otamurodov S. Yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish omillari. – Toshkent: O’zbekiston, 2015. – B. 23.

ILHOM RIZAYEV,
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

RUSHANA RAXMANOVA,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali magistranti

MAFKURA VA MA’NAVIYAT: IJTIMOIY ONG KONTEKSTIDA ILLUZIYA VA REALLIK

O‘tmishimizga nazar soladigan bo‘lsak, 1980-yillarning oxirlarida “mafkura” tushunchasi chetga surildi. Bundan tashqari, mafkura nafaqat odamlarni manipulyatsiya qilish vositasi, balki keng ma’noda inson ma’naviyatini bostirish vositasi sifatida ham ko‘rilgan. Keyinchalik deideologizatsiya ma’naviy madaniyatni tiklashning asosiy sharti bo‘lib tuyuldi. Ammo ijtimoiy ong holati “axloqiy inqiroz”, “qadriyat yo‘nalishlarining yo‘qotilishi”, “ma’naviyat didsizlikning kuchayishi” va boshqalar bilan tavsiflanadi. Demak, gap mafkuraning mavjudligida emas, balki uning ma’naviyat bilan tasavvur qilingandan ham murakkabroq bog‘lanishida, bu bog‘liqlikning nochiziqliligidadir [6].

Inson ikki dunyoda yashaydi. Biri moddiy olam, narsalar olami, ikkinchisi ong bilan yaratilgan ma’naviy, ideal, virtual olam. U real dunyo materiallaridan tuzilgan bo‘lsada, lekin inson tasavvurining asosiga ko‘ra qurilgan. Ma’naviy faoliyat virtual olamni, insonning umid va umidsizliklarini, orzu va intilishlarini aks ettiruvchi g‘oyalar olamini yaratishdir.

Ma’naviyatning sharti hamfaollik, muloqot qilish imkoniyati va virtual obrazlar almashinuvidir. Bu umumiy til va belgilar tizimini talab qiladi. Bunday belgilar tizimi umumiy ma’noga ega bo‘lishi kerak, aks holda u tushuntirilmaydi va tushunilmaydi. Bunda bizga virtual reallik va ma’naviyatni tushunarli, dekodlanadigan belgilarga - hamfaollikda ijod qilishning barcha ishtirokchilari tomonidan umumiy qabul qilinadigan, tanib olinadigan va baham ko‘riladigan belgilar asosiga to‘plash metodologiyasi lozim bo‘ladi.

Muammo shundaki, jamiyatga biriktirilgan har bir shaxs o‘ziga xos ma’naviy individuallikka ega [4]. Shuning uchun, prinsipial jihatdan, jamiyatdagi barcha odamlar uchun bir xil bo‘lgan umumiy qadriyatlar

tizimini yaratish mumkin emas. Inson subyektivligi hatto eng mukammal umumiy ma’naviy qadriyatlar tizimiga ham to‘g‘ri kelmaydi. Bu shuni anglatadiki, faqatgina nisbatan umumiy dunyoqarash tizimi bo‘lishi mumkin xolos. Jamiyat a’zolari an’ana tarzida ushbu tizimni konvensional tizim sifatida qabul qilishga rozi bo‘lishadi, garchi ma’naviy reallikda bu xayoliy, soxta umumiy tizimdir. Shunday qilib mafkuraviy konvensiya, ijtimoiy mifologiya vujudga keladi.

Shu ma’noda mafkura har doim yolg‘on, illyuziya, xayoliy elementni o‘zida mujassam etgan. Ammo aynan shu narsa mafkurani inson ruhi faoliyatining muqarrar hamrohiga aylantiradi. Mafkuraviy qadriyatlarning xayoliy, illyuzor tabiati ularning kuchida, imkoniyatlarida yotadi. Faqat shu tufayli odamlarni birlashtirish va tarixiy muammolarni hal qilish uchun birlashtirish mumkin. Har qanday ijtimoiy harakat, chuqur ijtimoiy o‘zgarishlar va hatto inqiloblar ham, faqat mafkuraviy va shuning uchun qisman xayoliy shiorlar ostida sodir bo‘ladi. Masalan, XVIII asrdagi Yevropa inqiloblari o‘zlarining manifestlarida “Ozodlik! Tenglik! Birodarlik!” kabi shiorlarga e’tibor qaratdilar. Va’da qilingan “aql saltanati” amalga oshmadi, ammo bu shiorlar asosida monarxiya tuzumni supurib tashlandi. Oqibatda yangi burjua jamiyati vujudga keldi. Keyinchalik Gegel bu hodisani “olamiy ongining hiylasi” [2] deb ataydi. Chetdan qaraganda odamlar bir maqsad sari intiladilar, ammo ijtimoiy fluktuatsiyalar butunlay boshqa bifurkatsion holatlarga yo‘l ochdi [1]. Xuddi shunday adolatli jamiyat qurish shiorlari ostida dunyoda boshqa inqiloblar ham amalga oshirildi. Albatta, bu maqsadni amalga oshirishning imkoni bo‘lmadi, lekin o‘sha davr xalqlari uchun yana bir tarixiy muhim bosqich – mamlakatni modernizatsiya qilish va rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish hal qilindi.

Mafkura ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun emas, balki shaxsiy manfaatlar uchun qo‘llanila boshlaganda xavf tug‘iladi. Keyin, umume’tirof yetilgan me’yorlar tizimidan, ma’naviy almashinuv tilidan, hukmronlikni qo‘lga kiritib, diktatorga aylanadi. Bu holatni biz Sovet davriga xos bo‘lgan ruhsiz mafkura tarzida boshimizdan kechirgan edik.

Natijada mafkuraviy shakldan mahrum bo‘lgan ma’naviyatning yemirilishi, ma’naviy hayotning parchalanishi sodir bo‘ldi. Bu holat 1990-yillardagi postsovet davriga xos bo‘ldi. Mazkur vaziyat mamlakat iqtisodiy va siyosiy tizimni kompleks o‘zgartirish jarayonidan o‘tishi kerak bo‘lgan bir paytda kechdi. Buni konsolidatsiyasiz amalga oshirish mumkin yemasligi, ya’ni mafkuradan tashqarida imkonsiz yekanligi tezda ma’lum bo‘ldi. Shu sababli, yangi mafkurani yaratish zarurati paydo bo‘ldi.

Yangi mafkura yaratishga birinchi urinish 90-yillarning boshlariga to‘g‘ri keladi. Bu o‘z mafkurasini inson huquqlarini himoya qilishga asoslangan G‘arbga yo‘naltirilgan liberal ziyolilar tomonidan amalga oshirildi. O‘z-o‘zidan bu g‘oya jamiyat tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilindi. Biroq, tez orada G‘arb va bizning inson huquqlari haqidagi tushunchalarimiz o‘rtasida nomuvofiqlik mavjudligi namoyon bo‘ldi. G‘arb talqini inson huquqlarini siyosiy huquqlarni ta’minlashning tor yuridik darajada, bizning mentalitetimizda esa huquqlar birinchi navbatda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ta’minlanganlik bilan izohlanadi. Liberallarning jamiyat uchun tushunarli bo‘lgan qadriyatlar tizimini taklif qila olmasligi, liberal siyosiy harakatning bosqichma-bosqich siyosiy sahnadan chetga chiqish sabablaridan biri bo‘ldi.

Mafkurani yaratishga ikkinchi urinish 1990-yillarning ikkinchi yarmida sodir bo‘ldi. Bu safar uni ziyolilarning qat’iyatli qismi o‘z zimmasiga oldi, ular ilmiy jurnallarda davlat, milliy g‘oyani izlash zarurligi haqida bahs- munozaralarni boshlab yubordilar. Bunday g‘oyani izlash keyinchalik I.Karimov rahbarligida olib borildi.

Monarxiyadan tortib sotsializmgacha bo‘lgan ijtiomiy ongda muomalada bo‘lgan barcha mafkuralarning butun arsenali inventarizatsiya qilindi. Ammo ularning hech biri milliy mafkuraga, milliy ongning bir qismiga aylanmagan edi. Biroq, jamiyat uchun mafkuraga bo‘lgan yehtiyoj kun tartibiga qo‘yildi.

Bu yillardagi birinchi jiddiy taklif diniy mafkura edi. Biroq diniy mafkuradan milliy, davlat mafkurasi sifatida foydalanishga urinishlar yengib bo‘lmaydigan qiyinchiliklarga duch keldi. Birinchidan, inson oxiratini qutqarish asosida davlat mafkurasining roliga da’vo qilish dinning o‘ziga zarar yetkazadi. Ikkinchidan, polikonfessional mamlakatda bir dinga ustunlik berish birlashish emas, balki aksincha bo‘linish manbaiga aylanashi aniq edi.

Shu nuqtayi nazardan aytishimiz mumkinki, yillar davomida jamiyatimizda sotsialistik va liberaldan tortib diniygacha bo’lgan turli mafkuraviy tizimlar o‘zaro raqobatlashib kelmaoqda. Natijada, birinchidan, muayyan bir bir davlat yoki milllat mafkurasi emas, balki yaxlit qadriyatlar tizim bo‘lgan mafkura haqida gapirish kerakligi ma’lum bo‘ldi. Ikkinchidan, bu mafkurani siyosiylashtirmaslik, ya’ni alohida manfaatlarni ko‘zlamaslik kerak. Uchinchidan, mafkura ziyolilar kabi guruhlar tomonidan o‘zboshimchalik bilan yaratilib, keyin jamiyatga tadbiq qilinmaydi. U ijtimoiy ongining umidlarini aks ettirishi, jamiyat talablariga javob berishi kerak. Shundagina butun jamiyat bu mafkurani o‘ziniki sifatida qabul qiladi va tashqi ta’sirlarga nisbatan sezuvchanlik

hosil qiladi.

Bugungi kunda biz ko‘z o‘ngimizda ana shunday mafkura jarayonlar kechayotganligi haqida mubolag‘asiz aytishimiz mumkin. Bu vatanparvarlik mafkurasi. O‘z yurti bilan g‘ururlanish istagi bugungi kunda keng tarqalgan bo‘lib, u xalqning mutlaq ko‘pchiligi birlashtiradi. Bu yerda asosiy narsa vatanparvarlikdan tor siyosiy maqsadlarda foydalanish vasvasasidan qochishdir. Aynan shu narsa Sovet hokimiyati yillarida “Vatan”, “vatanparvarlik”, “xalq” tushunchalari rahbarlar va partiya siyosiy obrazlarining imijini shakllantirishda qo‘llaniligan.

Biroq vatanparvarlik ongini va unga asoslangan milliy mafkurani shakllantirish sodda darajadagi oddiy jarayon emas. Asosiy tahdid yuqori darajadagi ijtimoiy tabaqalanishni saqlab qolishdir. Odamlar o‘rtasidagi mulk va ijtimoiy farq qanchalik katta bo‘lsa, umumiy manfaatlar maydoni shunchalik kichik bo‘ladi. Ikki qatlam – boylar va kambag‘allarga bo‘lingan mamlakatda umumiy Vatan g‘oyasini shakllantirish qiyin.

Tajribadan ma’lumki, jamiyatda tabaqalanish darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy qarama-qarshiliklar darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, mafkuraga ko‘proq ye’tibor qaratiladi. Buni antik tarix va mifologiyani o‘rganishdan boshlab har qanday davrda kuzatish mumkin. Real ijtimoiy-iqtisodiy qarama-qarshiliklarni kamaytirmasdan mafkuraviy va tarbiyaviy ishlarni ko‘paytirish samara bermasligini ko‘rib bo‘lganmiz. Bu holda mafkura ongni manipulyatsiya qilish vositasiga, vatanparvarlik esa mayyan kuchlar uchun himoya quroliga aylanadi.

Lekin nafaqat ijtimoiy tafovutlar darajasini pasaytirish vazifasini qo‘yish, balki bu vazifani qanday vositalar bilan hal qilishni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Eng oddiysi bu real daromadlarni va ijtimoiy himoyani oshirish. Bu qashshoqlikni kamaytirish yoki yo‘q qilishning muhim usulidir. Ammo buning salbiy tomoni ham bor. Davlat paternalizmi aholi orasida infantilistik (boqimandalik) kayfiyatlarning oshishiga olib keladi [3]. Bugungi kunda bu (bersang yeyman, bermasang o‘laman) ayniqsa bizning holatimizda katta xavf tug‘diradi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi o‘z kuchiga e’tibor qaratadigan o‘zini-o‘zi ta’minlaydigan aholining shakllanishiga to‘sqinlik qilmasligi kerak. Farovonlikni yaxshilash va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish resurslarni ijtimoiy tarqatish hisobiga emas, balki odamlarning o‘zi mehnati asosida bo‘lishi kerak. Shunda ularning vatanparvarligi chinakam bo‘ladi, bu lyumpen me’yorlari bilan o‘lchanmaydi: men o‘z vatanimni menga ne’matlar berayotgani darajasida sevaman.

Ammo iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish qanchalik muhim bo‘lmasin, milliy ma’naviy-axloqiy ko‘rsatmalarning yagona tizimini

shakllantirish uchun o‘zak xalqning tarixiy ongi, davlat va jamiyat tarixini umumiy qadriyat sifatida qabul qilishdir. Shudan kelib chiqib, tarixining umumiyligi g‘oyasi fuqarolar orasida milliy tarixdan faxrlanish hissi bilan qo‘llab-quvvatlanishi kerak. Bu tarix buyuk va qahramonlik sifatida qabul qilinishi lozim. Ammo bu erda muammo paydo bo‘ladi. Tariximizning barcha bosqichlari ham mukammal va farovon bo‘lmaganligini bilamiz. Buni har qanday mamlakat tarixida uchratishimiz tayin. Biz tariximizdagi yoqimsiz sahifalar mavjudligini tan olib, sharmandali yoki qora tusda yemas, balki obyektiv, tarixiylik va mantiqiylik prinsiplari asosida ko‘rib chiqishimiz lozim. Zero, “Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan” [5].

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, qandaydir “tarixiy haqiqat” ni izlash va o‘z tarixini cheksiz ulug‘lash yo‘li to‘liq mafkuraviy mag‘lubiyatga olib keladi. Ulug‘lanadigan “haqiqat” ni izlab o‘zimizga qarshi illyuziyalarni yaratmasligimiz kerak.

Xulosa qilib aytganda, xalq o‘z tarixini buyuk va qahramonona shaklda ko‘rishni istaydi. Agar bu tushunilmasa va tarixga yondashuv konsepsiyasi o‘zgartirilmasa, hozirgi avlod yoshlarining ishonchini yo‘qotish xavfi mavjud. Jamiyatning ma’naviy-axloqiy ko‘rsatmalari va vatanparvarlik qadriyatlari, eng avvalo, an’anaviy tarzda ishlab chiqilishi kerak bo‘lgan milliy tarixning yangi ijobiy konsepsiyasiga asoslanishi kerak.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alikulov S. A., Rizaev I. I. Methodological problems of research of social systems //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 2. – C. 717-720.

2. Hegel G. W. F. Philosophy of mind. – Clarendon Press, 2007.

3. Muminova Z. O. Objective and subjective factors that forms human being’s moral being //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 72-74.

4. Salievich K. S. The paradigm challenge to reflixive sociology // Thematics Journal of Social Sciences. – 2022. – T. 8. – №. 2.

5. Мирзиёев Ш. Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир. https://president.uz/uz/lists/view/4089

6. Тўраев Б. О. ва бошқ. Синергетика: моҳияти, қонуниятлари ва амалиётда намоён бўлиши //Т.: Наврўз нашриёти. – 2017. – С. 12-13.

ELYOR MEYLIMUXAMETOV,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi.

FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHDA YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISH OMILLARI

Ma'naviyat jamiyat hayoti va inson faoliyatining barcha sohalarida namoyon bo'ladi. Ma'naviy qadriyatlar inson talab va ehtiyojlari asosida aql-zakovat bilan yaratiladi, ularning tasavvuri, tafakkuri, kelajak orzu-istagi, e'tiqodi, axloq qoidalarini o'zida mujassam etadi, hayotda sayqal topgan moddiy va axloqiy-estetik qadriyatlar, jamiyat a'zolarining barkamol madaniyatini shakllantirishning tayanch vositasi bo'ladi.

Ma'naviy kamolot nima? Ma'naviy kamolot insonning borliq va kishilik tarixi haqidagi bilimlarni o'zlashtirishi, bunda axloqiy-estetik qadriyatlarning tutgan o'rnini anglashi, odamiylik mezonlari, axloq-odob meyorlari haqida izchil va nekbin nuqtai nazarga ega bo'lishi, odamiylik va savob ishlar qilishni hayot matlabi deb bilishi va ularni o'z shaxsiga singdirishidir.

Ma'naviy poklik, insonparvarlik va vatanparvarlik hamma davrda, har qanday jamiyatda insonning eng go'zal fazilati sifatida e'zozlangan, ma'naviy poklikni tarbiyalash orqali insonni insonparvar qilib tarbiyalash g'oyasi olg'a surilgan. Zotan, ma'naviyat – tarbiyaning asosi, o'q ildizidir.

Ma'naviy tarbiya so'zining qanchalik ko'p qirrali va purma'no ekanligi to'g'risida Sh.Mirziyoyev shunday fikr bildiradi: «Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda [1]».

Shaxs ma'naviyatining eng muhim botiniy belgilari bu iymon, diyonat, fidoyilik, vijdonlilik, mehr-shafqat, poklik, halollik singari fazilatlardir. Ajdodlarimiz qadimdan insonning botiniy va zohiriy olamini poklashga, ma'naviy dunyosini boyitishga katta e'tibor berganlar.

Shaxs ma'naviyatining zohiriy (tashqi) alomatlariga quyidagilarni kiritish mumkin. Bular orasta va pokiza kiyinish, o'zini o'zgalardan ustun qo'yishga, manmanlikka bormaslik, kamtarlik, ota-ona, aka-uka, ustoz, qariyalar, qarindosh-urug', do'stu birodarlarga hurmat bajo keltirish, ig'vo va fitnalardan uzoq yurish, o'zaro muomalada oddiylik va soddalikdir.

Quyida ma'naviyatining zohiriy (tashqi) alomatlaridan ba'zilariga

qisqacha to'xtalib o'tamiz:

Orasta va pokiza kiyinish. Inson uchun yuzi uning axloqi va qalbidagi niyatini aks ettiruvchi ko'zgudir. Unda har xil buyukliklar bilan birga, tubanliklar ham ko'rinishi mumkin. Beruniyning ta'kidicha: «Ko'rinishda go'zallik va xush-bichimlik ham insonlar nazdida mahbub sanaladi. Insonlar o'zlari uchrashadigan shaxslarda shunday holat – xushro'ylik va xushbichimlikni ko'rishni istaydi. Hatto boshqa mamlakatlarga elchi sifatida odam yuborilmoqchi bo'lsa, xushro'y va xushbichimlarni va ismlari yaxshi bo'lgan kishilarni yuborish talab qilingan». Bu dono so'zlar bugungi kunda ham davlatimiz tashqi siyosatida muhim ahamiyatga ega.

Kamtarlik – o'zini o'zgalardan kam ko'rmaslik hamda boshqalarni izzatu hurmat qilmoqlikdir. Bu xislatning davlatmand va mansabdor kishilarda bo'lmog'i go'zal fazilatdir. O'zbek xalqi milliy qadriyatlarida, urf-odatlarida kamtarlik ulug'lanib, takabburlik, manmanlik, firibgarlik, maqtanchoqlik keskin qoralanadi. «Kamtar bo'lding -gavhar bo'lding», «Kamtar bo'lsang, osh ko'p, manman bo'lsang, tosh ko'p», «Kamtarlikning kamoli bor», «Kamtarga kamol, manmanga zavol» degan o'gitu maqollarda kamtarlikning fazilatlari aytib o'tilgan. Albatta, bu fazilatlarni inson dastlab oilasida o'rganadi, so'ngra esa maktabdan. Shu sababli Fitrat: «Hayot yo'lidagi birinchi masala maktab masalasidir», – deb bejiz ta'kidlamagan.

O'zaro muomalada oddiylik. Oddiylik — axloqiy barkamollikning bosh sharti. Oddiylik eng olijanob fazilat hamdir.

Tabiatni sevish. Tabiatdan to'g'ri foydalana bilishni tarbiyalash ekologik tarbiya va madaniyatning asosi bo'lib, kishilarda tabiat oldida mas'uliyatni anglash malakasini hosil qiladi.

Ekologik tarbiya yoshlarga maxsus ekologik bilim va tarbiya berib, ularda bu sohada muayyan malaka hosil qilish; ekologik o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilishni tarbiyalash; ekologik madaniyatni singdirish va tarbiyalash; kishilarni tabiat «in'omlari»dan to'g'ri foydalanish rahida tarbiyalash kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

Aqli teranlik - aql mohiyati jihatidan yagona bo'lsada, odamlarning aqliy darajalari har xil. Barcha insonlar aqlga egaliklari bilan bir xildirlar, lekin aqliy darajalari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Yer yuzida qancha odam bo'lsa, hammasi aqllilik darajalari jihatidan, millionlarning biricha bo'lsada, farqlanadi.

Shaxs ma'naviyatining botiniy alomatlari qalb tozaligi, halollik, samimiylik, mehr-shafqat, oqko'ngillik, adolatparvarlik, or-nomus kabi axloqiy tushunchalarni qamrab oladi. Quyida ularning ba'zilariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Qalb tozaligi. Qalb yurak, dil ma’nolarini bildiradi. Kishining ruhiy yoki ma’naviy dunyosi, ichki his-tuyg‘ulari markazi ramzidir.

Halollik. Vijdon bilan insof yuzasidan ish tutish, to‘g‘rilik, soflik, vafodorlik. Halollik har qanday martabani bezaydi. Halollik, to‘g‘rilik – katta baxt. O‘z halolligini namoyish etish ko‘proq xushxulq odamga yarashadi. Muqaddas kitoblarimiz va qadriyatlarimiz, buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi bizni doimo halol mehnat bilan yashashga, mardlik, saxovat, kamtarlikka chaqiradi.

Samimiylik. Sidqidillik, chin qalbdan, yurakdan, dildan chiqarib aytilgan so‘z yoki bajarilgan ish. Samimiylik-og‘ir va juda nozik masala, u aql va chuqur ma’naviy odobni talab etadi Samimiylik sofdillikdir. Bu fazilat kamdan-kam odamda bo‘ladi.

Mehr-shafqat. Mehr insonning o‘z tug‘ishganlariga, yaqin kishilarga va umuman odamlarga bo‘lgan samimiy muhabbati, shafqati, rahmdilligi; shafqat – biror kimsaga achinish, ayash, rahmdillik, mehribonlik kabi ma’nolarni bildiradi. Mehr-muruvvatli, shafqatli ma’nolaridan tashqari, ba’zan egizak, qo‘shaloq holda ishlatilib, yetim-yesirlarga, nogironlar, qarovsiz qolgan qariyalar, g‘ariblarga, muhtojlarga nisbatan moddiy va ma’naviy yordam berishdir.

Mardlik. Mardlik jamoa, el orasida o‘zining odamgarchiligi bilan tanilgan kishilarga nisbatan aytiladi. Muruvvatli, mard kishi o‘ziniki ekanligiga hech kim shubha qilmaydigan narsadan boshqasiga egalik qilmaydi. Barcha ishni o‘z manfaati nuqtai nazaridan emas, balki adolat yuzasidan hal qiladi.

Oqko‘ngillik - oqko‘ngil odam ko‘ngli toza, aldamchilik, mug‘ombirlikni bilmaydigan insondir. Inson chehrasi hamisha uning ichki olamini aks ettiradi, shu sababli fikr yuzda aks etmaydi, deb o‘ylash xatodir.

Adolatparvarlik - adolat (arabcha – odillik, to‘g‘rilik) - ma’naviy barkamollikka erishishning asosiy fazilatlaridan biri bo‘lib, axloq va huquqning meyoriy kategoriyasidir. Bu kategoriyada mavjud muayyan voqelik inson mohiyati va huquqiga mos yoki mos emas (adolatsizlik), deb talqin qilinadi.

Rahm-shafqatlilik - biror kishiga yoki jonivorga ko‘rsatilgan mehribonchilik va marhamatdir. Kimki boshqalarga rahm-shafqat qilmasa, uning o‘ziga ham hech kim rahmu shafqat qila olmaydi.

Or-nomus - iymonli bo‘lishning belgilaridan biri sanaladi. Or qilish o‘ziga nomunosib yoki ep ko‘rilmagan ishdan, narsadan xijolat tortish, uyalish tuyg‘usi, uyat, nomus, obro‘, faxr ma’nolarini bildiradi. Or yana biror narsadan hazar qilishni ham bildiradi. Oriyat esa, or-nomusdan tashqari, izzat-nafs, qadr tuyg‘usidir. Odatda, oriyatli odamlar o‘zlari va

oilalarining, tug‘ishganlarining izzat-nafsi, qadri, hurmatini yuksak tutib, boshqalar tomonidan toptalishi, haqorat qilinishi, hurmatsizlanishiga befarq qarab turmaydi.

Nomus - kishining o‘z obro‘sini ulug‘lash va ardoqlash his-tuyg‘usi, oriyat, diyonat, vijdon; xijolat tortish his-tuyg‘usi, uyat-andisha, sharm, hayo, or, kabi ma’nolarda ishlatiladi. Nomus — bu iffat, bokiralik ma’nolaridan tashqari, kishining oila va ajdodlari sha’niga dog‘ tushurmaslik ma’nolarini ham ifoda etadi. Tariximizga bir nazar solsak, ota-bobolarimiz, xalqimiz qadimdan or-nomusli, oriyatli bo‘lib kelgan. Shu boisdan ham o‘z yurti, tuprog‘i, onalari, farzandlarining bosqinchilar tomonidan toptalishiga yo‘l qo‘ymagan, buni o‘zlariga or deb bilgan. Or-nomuslilik mohiyatida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg‘ularini sezish mumkin.

Mamlakatimizda insonparvarlik umuminsoniy qadriyatlardan biri, vatanparvarlik esa Yangi O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizlaridan biri sanaladi.

Xalqning ongi tubida milliy g‘ururi, milliy qadr-qimmati bilan bog‘liq Vatan tuyg‘usi doimo yashirin, mudroq holatda bo‘ladi va tashqi xavf tug‘ilganda yuzaga chiqib, xalqni Vatan himoyasiga safarbar etadi. Ushbu xislatlarning barchasi, ta’kidlab o‘tganimizdek, botiniy alomatlardandir. Shundan kelib chiqib, har bir fuqaro:

Inson ongiga salbiy ta’sir etuvchi ma’naviy tahdidlarni tushunib yetish.

Milliy g‘oya haqida mustaqil fikrga ega bo‘lish va uni bayon qila olish, ulardan o‘z faoliyatida foydalanish.

Mamlakatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni chuqur idrok qilish, ularda faol qatnashishga erishishlari zarur.

Bularning barchasi shaxs ma’naviyatining ichki va tashqi alomatlarini shakllantiradi. Inson hayoti va faoliyatida, dunyoqarashida muayyan o‘zgarishlar yasaydi. Umuman, ma’naviyat yuqoridagi insoniy fazilatlarning shaxs kamolotidagi o‘rnidir. Ma’naviyatning ichki va tashqi alomatlarini shakllantirish turli omillarga: ta’lim-tarbiya jarayoni, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy muhit va diniy e’tiqod kabilarga bog‘liq. Bu esa ma’naviy barkamol insonni tarbiyalash uzoq muddatli jarayon ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, shaxs ma’naviyatining tashqi va ichki alomatlari, ularning qay darajada mukammalligi jamiyatga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Uni doimo boyitib, yaxshi tomonga yo‘llab borish har bir fuqaroning burchidir. Ma’naviyat tarbiyasida chinakam ustoz bu tarbiyaning tarkibi milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar, marosimlar,

umumbashariy qadriyatlar, ezgulik, tinchlik istagi, milliy-tarixiy turmush va tafakkkur tarzi, oila tuyg‘usi – ota-onani e’zozlash, oila va bo‘lajak nasl to‘g‘risida qayg‘urish (biz avlodlarga nimalarni meros qilib qoldiryapmiz?), saxovat va ochiq ko‘ngillik, ustozlarga hurmat-ehtirom, ezgulik, ahil qo‘shnichilik, irodalilik, diyonat, diniy ma’rifatga e’tiqod, kechirimlilik ekanligiga o‘quvchilar e’tiborini tortgan holda, ularning ushbu qadriyatlarni anglab olishlariga, bu qadriyatlar yoshlarning vijdon va iymoniga singishiga alohida ahamiyat beradi va hayotlarida ularning namoyon bo‘lishini kuzatib borishi zarur.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev o‘zining “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” asarida ma’naviyat, tarixiy xotira, ta’lim va ma’rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo‘l ekanini uqtirib: “Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir” [2] deya ta’kidlaydi.

Yangi O‘zbekistonning ertangi buyukligini ta’minlovchi yoshlarimizda ma’naviyatni yuksaltirish orqali ularni turli xil mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon–atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch va osoyishta hayotimizga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-том. - Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2018 й., 501 б . -162-б.

2. Шавкат Мирзиёев, “Янги Ўзбекистон стратегияси”, Тошкент, “O‘zbekiston” нашриёти,2021 йил, 14- б.

3. Х.Ж.Худойқулов. Ўзбек ғурури – унинг одобида. – Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси, “Фан” нашриёти. – Тошкент, 2008. – 215 б. – 16-б.

4. Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар.- Т.: Шарқ, 2003. – Б.14

5. Юсупов Э, Юсупов У. Маънавий камолот ва жамият тараққиёти.-Т.: 1996. – С.29

6. Каримов И. Маънавият, фалсафа ва хаёт.-Т.: Фан, 2001.- Б.69,71

MUNIRA RAMAZONOVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining tarixi muzeyi mutaxassisi

MA’NAVIYATNI KUCHAYTIRISHDA TASVIRIY SA’NATNING ROLI

Bugungi kunda madaniy-ma’rifiy muassasalar yoshlarni tarbiyalashning muhim omiliga aylanishi hayotiy zaruriyatdir. Madaniyat va san’at muassasalarining faoliyatiga yoshlarni san’at orqali tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. Yangi O‘zbekiston yoshlari uchun kutubxonalar, axborot-resurs markazlari, teatrlar, klublar, madaniyat uylari va saroylari, istirohat bog‘lari, muzeylar va boshqa muassasalar tashkil qilingan. Faqat ulardan oqilona foydalanish kerak bo‘ladi albatta. Buning uchun pedagoglarimiz ta’lim muassasalarida ma’naviyatli inson qanday bo‘lishi kerak? degan savolga to‘g‘ri, mukammal tushuncha bersa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Har bir yosh avlodni qalbida san’atga bo‘lgan ishtiyoqi baland bo‘ladi. Shunday ekan yoshlarni iqtidorini yuzaga chiqarishda pedagoglarning hissasi katta. Insonni ma’naviyatini yuksaltiragan kuch bu – san’at. Bolalarning tug‘ilishidan boshlab san’at bilan tanishtirish kerak. Maktabgacha va maktab yoshida ular san’at turlarini ko‘proq qabul qiladilar. Bolaning har bir ko‘rgan narsasi unga foydali ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ishlangan tasviriy san’at asari juda tanlangan bo‘lishi kerak.

O‘rni kelganda “Ma’naviyat” so‘ziga izoh bersak: Ma`naviyat (arabcha “ma’no”, “ma`nolar majmuasi”) – moddiy hayot bilan doimo yonma-yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lgan ijtimoiy hodisa hisoblanadi[1].

E’tibor bersak, har bir tashkilotda Ma’naviy va ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha alohida bo‘limlar mavjud. Xatto maktabda, universitetda, oliygohlarda ma’naviy va ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor ishlaydi. Demak ma’naviyat hayotimizda suvdek zarur. Biz ma’naviyatni hayotiy tajribalar davomida shakllantiramiz. Inson ma’naviyatini o‘zini shaxs sifatida anglabdiki, umrining oxirigacha ma’naviyatni rivojlantirib boradi. “Ma’naviyat asoslari” kitobida ma’naviyat inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha, deb belgilangan. Yana u kishilarning falsafiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o‘z ichiga oladi. Insonning ehtiyoji esa cheksizdir.

Ayonki, ma’naviy ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023 yil 23 dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda Prezidentimiz "Bugun ma'naviyat boshqa sohalardan o'n qadam oldinda yurishi, ma'naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak", – dedi. So'nggi yillarda ma'naviyatni kuchaytirishda qator qarorlar qabul qilindi. Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashi raisi Prezident ekani belgilab qo'yildi. Kengashning hududiy bo'limlariga mas'ullik hokimlar zimmasiga yuklatildi. Bu o'zgarish ma'naviy-ma'rifiy ishlarni davlat siyosatida yanada yuksak o'ringa ko'tardi. «Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan», – dedi Shavkat Mirziyoyev[2].

"Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir – dedi Shavkat Mirziyoyev yig'ilishda. – Biz Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekamiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi- bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli"[3]. Darhaqiqat ma'naviyatga, ma'rifatga e`tibor berilishi bu bizning o'zbek milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, urf-odatlarimizga tayanib ish ko'rish, milliy g'ururimiz, san'atimiz, madaniyatimiz orqali dunyoga chiqishimizga turtki bo'ladi. Prezidentimizning nutqlarini tinglab, meni ruhlantirgan narsa shuki, ma'naviyatni kuchaytirishda tasviriy san'atning roli va amaliy san'at sohasini rivojlantirish bo'yicha dastur qabul qilindi, jumladan, Markaziy ko'rgazmalar zali rekonstruktsiya qilinib, jihozlandi, badiiy fond hududida zamonaviy galereya binosi qurilishi hamda 40 ta ijodiy ustaxonadan iborat Yosh rassomlar markazi tashkil etildi, bu rassomlarimizga, ustalarimizga berilgan katta imkoniyat va e'tibor, albatta. Biz o'zbek xalqi avvalo, o'zimizning taniqli rassomlarimizning milliy ruhda, vatanparvarlik ruhda ishlagan asarlari bilan faxrlanishimiz kerak. Rassomlarimiz, san'atkorlarimiz, yosh avlodga qoldirgan xattotlik va miniatyura san'ati ta'limini amaliyot bilan bog'lash maqsadida milliy usulda qog'oz tayyorlash ustaxonalarini ko'paytirishning tashkil etilishi bizning g'ururimiz deb bilaman. Har bir o'zbek xalqining qalbida mangu yashaydigan ulug' zotlarimiz bo'lgan. Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur kabi ajdodlarimizning qilgan mehnatlarini, jasoratlarini biz yosh avlodga rassomlarimiz yaratgan san'at asarlari orqali ko'rsatamiz. Men fikrimni

nemis shoiri Fridrix Shillerning ma'naviyat haqida aytgan so'zlarini eslatish bilan davom ettiraman. "Insonni his eta oladigan, fikrlaydigan qilib tarbiyalash uchun, eng avvalo, uni ma'naviy yuksaltirish kerak"[4]. Shaxsni maqsadli shakllantirish uchun estetik va ma'naviy tarbiya zarur.

So'nggi paytlarda haqiqiy ijtimoiy falokat yuz bermoqda, aholining tanazzulga uchrashi va vaziyat kundan-kunga yomonlashmoqda. Nima sabab deb o'ylaysiz? Albatta, ijtimoiy tarmoq, telefon, zamonaviy musiqa, fil`mlar va mul`tfilmlar deb ayblash mumkin. Ko'pincha bolalarga shafqatsizlik, nafratni targ'ib qiladi. Yoshligidanoq ular qotillik jinoyatlari bilan to'ldirilgan fil`mlar ko'rishadi. Shuning uchun ham yosh avlod tarbiyasini, xulqini o'zbek millatiga xos qilib tarbiyalashda san'atdan foydalanish zarur. San'at inson kamolotida katta rol o'ynaydi. U shaxs kamolotida juda katta ta'sir ko'rsatadi. San'at- insonning his tuyg'ularini, fikrlarini, dunyoqarashini, axloqiy va hayotiy tamoyillarini shakllantiradi. Hayotimizdagi yaxshi fikrlarga va atrofimizdagi dunyoga muhabbat juda muhimdir. Bu vazifani ado etishda ham tasviriy san'at muhim rol o'ynaydi. Chunki, tasviriy san'atning o'ziga xos xususiyatlari oz emas, – tasviriy san'at inson badiiy ijodining turlaridan biri bo'lib, u 20 ming yil avval paleolit davrida vujudga kelgan. Qadimgi yunon rassomlari tasviriy san'atni o'qitishga yosh rassomlarni ko'proq tabiatni o'rganishga va uning ajralmas bo'laklardan biri bo'lgan inson go'zalligini yuksak darajada tasvirlashga qaratganlar. Yevropada har bir shaxsning grafik bilimga ega bo'lishi uning o'ziga ham, jamiyatga ham havodek zarur deb hisoblangan. Tasviriy san'atning shaxs kamolotiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. U dunyoni estetik idrok etishni rivojlantirishda, badiiy didni tarbiyalashda, hayotda va san'atda go'zallik bilan muloqot qilishda alohida ahamiyatga ega. San'at badiiy ijodiy faoliyat turlarini ongli ravishda tanlashda, bunda o'smir sizning individualligingizni namoyon qilishi va ijodiy qobiliyatingizni ro'yobga chiqarishi mumkin. San'at maktablari o'quvchilarga insonning dunyo bilan aloqa qilishning hissiy va ma'naviy tajribasi, fikrlash, voqelikni tushinish va ijodiy faoliyat usullaridan biri sifatida namoyon bo'ladi[5]. Bola tasviriy san'at orqali o'z hayotiga poydevor qo'yadi. Ular quyidagicha: intellektual soha, badiiy madaniyatni shakllantirish, ijodkorlik, estetik tuyg'ular, ma'naviy fazilatlar, ma'naviy rivojlanish, ma'naviy muvozonat va uyg'unlikni topish imkoniyatiga ega bo'ladi. Qadim zamonlarda san'at hatto aqliy terapiya sifatida ham ishlatilgan, uning ta'siri ostida insonning xarakteri va his-tuyg'ulari shakllangan va psixologik muammolar davolangan. Tasviriy san'at shaxsni asarlarning detallari, shakllari, ranglari, kompozitsiyasi va tuzilishiga e'tibor berishga o'rgatadi. Biz ularni tahlil

qilamiz va sharhlaymiz va shu tariqa tanqidiy fikrlashni rivojlantiramiz, bu bizga dunyoni turli nuqtai nazardan ko‘rish imkonini beradi.

G‘arb faylasufi Albert Shveytser: “Voqelikni shakllantiradigan kuchlar ichida birinchisi - ma’naviyat va axloq. Qolgan barchasi ozmi-ko‘pmi ikkinchi darajali”[6], – degan edi. Insoniyat tarixiga, xususan, bugungi kunda jahonda sodir bo‘layotgan voqealarga diqqat bilan nazar tashlansa, bu fikrga qo‘shilmaslikning iloji yuq. Ayni vaqtda ma’naviyat va axloqning rivojlanishida har bir shaxsning tasviriy san’atni tushunishi, grafik bilim va malakalarga ega bo‘lishining ahamiyati bugungi globallashuv sharoitda o‘ta zarur.

Har bir yosh avlodni ongini ma’naviyatli qilib shakllantirishda zamonaviy o‘zbek rangtasvir san’ati yorqin dalil bo‘la oladi. O‘rol Tansiqboyev, Abdulhaq Abdullayev, Chingiz Ahmarov, Rahim Ahmedov, Iskandar Ikromov, Ne’mat Qo‘ziboyev, Ro‘zi Choriyev, Akmal Nur, Alisher Aliqulov, Alisher Mirzo, Ma’sud Xolov kabi ijodkorlarimizning asarlarini o‘rganish va tahlil qilishda ularning tarixga, o‘z vataniga bo‘lgan muhabbati, yurtga bo‘lgan sadoqati, milliylik ruhda ishlangani yaqqol ko‘rinib turibdi. O‘zbekiston xalq rassomi Abdulhaq Abdullayevning asarlariga nazar soladigan bo‘lsak, Alisher Navoiy, Oybek, Abdulla Qahhor, Tamaraxonim, Lutfixonim Sarimsoqova, Muxtor Ashrafiy kabi atoqli shaxslarning qiyofalarini ranglarda muhrlagan.

Taniqli rassom Alisher Aliqulov ko‘pgina tarixiy asarlar yaratgan. Kartinalarini kuzatar ekansiz, haqiqiy tarixiy jarayon sahnalarini ko‘rish mumkin. Rassom asarlarining aksariyat qismi ulug‘ bobokalonimiz, buyuk sarkarda va tengsiz hukmdor Amir Temurning jang manzaralari, saroy muhiti, undagi turfa xil odamlar va taqdirlar tasviriga bag‘ishlangan.

Musavvirning 1996 yilda Temuriylar tarixi davlat muzeyi zali uchun ishlangan “Elchilarni qabul qilish” asari mahobatli asar bo‘lib moy bo‘yoqda ishlagan. Hajmi 123x180. Amir Temurning xuzurida Ispan qirolining elchisi tashrif buyuradi. Klavixoning tarixiy manbalariga asosan rassom kirish qismini o‘zining ilmiy g‘oyalari asosida tasvirlaydi. O‘sha paytdagi saroy ko‘rinishi, saroy vazirlari va Amir Temurning markazda taxtda o‘tirib qabul qilish holati ishlangan. Amir Temurning kiyimi minatyura asarlardan olingan. Markazda Amir Temur bobomiz, kirish qismida elchining xatni ochib o‘qiyotgan jarayoni tasvirlangan. Sarkardaning atrofida vazirlar, ulamolar, ishchilar o‘z xizmatlarini bajarmoqda. Saroy hashamatli och ranglardan foydalangan. Taxt oltin rangda tovlanadi.

Alisher Aliqulov. “Elchilarni qabul qilish”. 1996.

Har bir tasviriy san’at asari uning g‘oyasi, tarixiy mazmuniga qarab o‘smirlarda ijobiy yoki salbiy kechinmalarni paydo qiladi. Ularda muhabbat yoki nafrat ham aks ettirilishi mumkin. Masalan, Ikkinchi jahon urushi mavzusida yaratilgan tasviriy san’at asarlariga e’tibor bersak, nemis fashistlarga nafrat tasviriy san’at asarlarida kuchli tasvirlanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Barcha millatning nufuzi, tarixdagi o‘rni uning sivilizatsiyaga, ilm-fanga qo‘shgan hissasi, ma’naviyati, madaniyati, san’atida namoyon bo‘ladi. Bunda ma’naviyat insonga uning o‘zligini anglatuvchi betakror mo‘‘jizaviy kuch-qudrat vazifasini bajaradi. Kuchli ma’naviyat millatimiz, xalqimizni Yangi O‘zbekiston poydevorini barpo qilish yo‘lida birlashtiruvchi, safarbar qiluvchi drayverdir. Ma’naviy zaiflik va mafkuraviy beqarorlik esa millatning birdamligi, davlatning qudratiga putur yetkazadi, uning taraqqiyotini orqaga surib yuboradi.

Sharqning buyuk mutafakkirlari, qomusiy olimlari san’atni inson ma’naviyatiga ta’sir etuvchi samarali vositalardan biri sifatida qaradilar va san’at, xususan, tasviriy san’atning komil inson ma’naviyatini shakllantirishdagi imkoniyatlarini ochishga katta hissa qo‘shdilar. Ularning taraqqiyparvar qarashlari hozirgi kunda ham o‘z kuchini yo‘qotmagan va yangicha talqin qilinmoqda. Zero, ular o‘sib kelayotgan yosh avlodni badiiy-estetik tarbiyalash nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqishda tarixiy asos bo‘lib xizmat qila oladi.

Bu yil o’zbek sporti tarixida yangi sahifa ochildi, deya baralla ayta olamiz. Parij-2024 XXXIII yozgi Olimpiya o’yinlari o’z nihoyasiga yetgan foto jarayonlardan o’nlab misollar keltirish mumkin. Jumladan, boks bo’yicha ikki karra Olimpiya o‘yinlari chempioni haqida ijtimoiy tarmoqlarda, “XXI asr”, “Yangi O’zbekiston”, “Hurriyat”, “Xalq so’zi” kabi barcha gazetalarda fotosuratlar bilan namoyish qilindi. Bunday foto san’atini ko’rgan har qanday yosh avlodning qalbida ham sportga, ham vatanparvarlikka, ham kelajakka o’ziga bo’lgan ishonchga undaydi. Yangi O’zbekiston gazetasining 2024 yil 14 avgust sonida nashr qilingan gazetaga nazar solsangiz, fotolar bilan insonni o’ziga jalb qiladi. Bayrog‘imiz jahon sahnalarida hilpiraganida qalbimiz sururga, g‘ururga, faxrga to‘ladi. Bu faxr, g‘urur qalbimizni yuksaklarga olib chiqadi. Shu yurt farzandi ekanligimiz bilan faxrlanish hissini yuksaltiradi.Bu faxr o‘z navbatida ertangi kunga bo‘lgan ishonchni, umidni ulg‘aytiradi. Maqsad sari intilishimiz uchun yanada kuch, quvvat bag‘ishlaydi. Qaysi sohada bo‘lishimizdan qat’iy nazar barchamizni bir bo‘lib yurt istiqboli, vatan taraqqiyoti uchun sa’yi harakatlar qilishimizga undaydi.

Sportchilarimizning erishgan yutuqlari e’tirof etilganida bayrog‘imiz tantanali ravishda yuksakka balandlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://www.google.com/search?
2.https://www.gazeta.uz/uz/2021/01/19/selector/
3. https://www.gazeta.uz/uz/2021/01/19/selector/
4. https://infourok.ru/
5. https://infourok.ru/
6. A. Raimov, N. Raimova Hikmatlar shodasi T.: “Ozbekiston”, 2015 25-6.

GULZODA RAXMONOVA,
QarDU tayanch doktaranti

KUCHLI MA’NAVIYATNING INSON AXLOQIY QARASHLARIDA NAMOYON BO‘LISHI

Ma’naviyat – jamiyat hayotida alohida shaxsning ham, ijtimoiy guruhlar, tabaqalar, sinflar, butun jamiyatning ham o‘zligini, o‘z manfaatlarini anglash, hayotga munosabati, o‘z – o‘zini idora qilish shakllari va me’yori, o‘zaro muloqot va munosabatlarni tartibga solish, boshqarish hamda ularga xos bo‘lgan ehtiyojlarning namoyon bo‘lishidir. Ma’naviyat bus-butunlik o‘laroq murakkab tarkibdan tashkil topgan ijtimoiy hodisadir. U quyidagi strukturaga ega:

Ma’naviy ong;

Ma’naviy madaniyat;

Iroda;

Ma’naviy muhit.

Insonning ong faoliyati insoniy his-tuyg‘ulardan boshlanadi. Inson ma’naviy ongi quyidagicha tuzilmaga ega:

Birinchi daraja - insoniy his-tuyg‘ular (uyat, ibo, hayo, tortinchoqlik, xursandchilik, minnatdorchilik, xasislik, jahl chiqishi va hokozo…)

Insoniy his-tuyg‘ular o‘z navbatida insoniy zavq – shavq, vijdon azobi va shu kabi kechinmalarni yuzaga keltiradi. Ular ma’naviyatning hissiy-psixologik asosini tashkil qiladi. Binobarin, inson his-tuyg‘ularining rivojlanishi, insonparvarlashuvi, noziklashuvi va shu kabi ijobiy o‘zgarishlari ma’naviy ong va butun ma’naviyat tizimi rivojlanishiga, takomillashuviga xizmat qiladi.

Ikkinchi daraja - ma’naviy tushunchalar (ezgulik va yovuzlik , yaxshilik va yomonlik, sadoqat, mardlik va halollik, vijdon, baxt, vatanparvarlik, insonparvarlik va h.zo…) dan boshlanadi.

Ma’naviy tushunchalar takomillashib borib, ma’naviy g‘oyalar, ma’naviy baholar, ma’naviy me’yorlarga, qoida va qonunlarga, ma’naviy qarashlarga, ma’naviy qarashlar esa ma’naviy nazariyalar, ta’limotlar va ma’naviy ideallarga aylanib boradi. Ular ma’naviyatning g‘oyaviy-mafkuraviy asosini tashkil qiladi.

Ma’naviy ong tuzilmasida insoniy his-tuyg‘ular va kechinmalar insonning hissiy dunyosiga taalluqli, ya’ni ma’naviy his – tuyg‘uga bog‘liqdir. Ma’naviy tushunchalar esa insonning aql dunyosiga ya’ni ma’naviy tafakkuriga taalluqli hisoblanadi.

Inson ongi dastlab hissiy darajada tizimlashadi. Inson ongini hissiy

faoliyatini biz uyat, zavq - shavq, xursandchilik, baxtlilik, xafagarchilik, qo‘rquv, johillik kabi his - tuyg‘ularda ko‘rishimiz mumkin. O‘z navbatida ongning hissiy faoliyati inson aql va tafakkuri yordamida boshqariladi va bir - biridan farqlanadi.

Ma’naviyat tizimida ma’naviy ong va ma’naviy madaniyat yetakchilik qiladi. Urug‘-jamoa shakllanishi jarayonida dastlab inson ongida axloqiy tartib - qoidalar, axloqiy me’yorlar vujudga kela boshladi. Masalan, odamlarda ayrim istak-xohishlarni cheklash, bolalarga, kuchsizlarga nisbatan zo‘ravonlikni qo‘llamaslik, aksincha himoya qilish, uyat hissi, o‘zaro qavm - qarindoshlar o‘rtasida nikohning tartibga solinishi, o‘zaro mehribonchilik, sahiylik va b. shakllangan. Shu sababdan, axloq ma’naviyatning birlamchi asosi sifatida yuzaga kela boshladi.

Ma’naviyat chuqur ichki madaniyatni, inson botiniy olamining boyligini zohiriy ifodasidir. Chunki insonning ma’naviy dunyosi uning tashqi ko‘rinishida, xatti – harakatlari va yurish - turishlarida, kishilar bilan muomalasida aks etadi. Bu holatni mazmun va shakl, mohiyat va hodisa dialektikasi sifatida tasavvur qilish mumkin. Jamiyatdagi mavjud ma’naviy talablar kishilarning barcha xulq – atvorlari, xatti - harakatlarini har qanday sharoitda ham ma’lum tartib qoidalarga bo‘ysundiradigan tayyor andoza bo‘la olmaydi. Balki ular aniq sharoitda yorqin tarzda namoyon bo‘ladi. Xo‘sh, ma’naviy talablar o‘zi qayerdan kelib chiqadi?

Ular xalq zakovatining mahsuli bo‘lib, xalq tomonidan tarixiy zaruratni, shunday tartib-qoidalar, me’yorlar qabul qilmasa, jamoadagi munosabatlar yaxshi tomonga o‘zgarishini, hamma bundan foyda ko‘rishini anglash jarayonida yaratiladi. Ma’naviy me’yorlar va talablar xalqning zukko va zakiy farzandlari tomonidan tizimga tushiriladi. Ular hech qachon tasodifiy holda yaratilmaydi. Balki kishilarning moddiy va ma’naviy talabi, zamonaning zaruriy ehtiyoji oqibatida paydo bo‘ladi. Barcha jamiyatlarda odat tusiga aylangan odob qoidalari borki, bu qoidalarni xalq asrlar davomida o‘zining amaliy faoliyatida saralab qo‘llab kelgan va ular kishilar o‘rtasidagi munosabatlarning qulay shaklini tashkil etadi. Bu qoidalarning barchasi odam bolasiga bo‘lgan hurmat va himmatga, uni e’zozlashga, inson shaxsini man-manlik, ochko‘zlik va boshqa salbiy ta’sirlardan muhofaza qilishga asoslangandir. Xuddi shular xalqimiz ma’naviy madaniyatining asosini tashkil etadi. Odob–axloq qoidalarini o‘zlashtirishda tarbiya, qayta tarbiyalash va o‘z–o‘zini tarbiyalashning ahamiyati juda kattadir. Lekin odob qoidalariga bo‘ysunishda ijtimoiylik bilan individuallikning dialektik birligini ta’minlamoq lozim. Shundagina shaxs va jamoa manfaatlarini uyg‘unlashtirish mumkin bo‘ladi. Inson o‘zini muayyan hollarda qanday tutishi kerakligini ma’lum darajada o‘zi

hal qiladi. O‘z xatti – harakatiga baho beradi.

Axloqiy tushunchalar, me’yorlar, qoidalar, ta’limotlar, maishiy urf-odatlar, marosimlar, mehnat va ishlab chiqarish jarayoni, iste’mol va o‘zaro mahsulot almashish bilan bog‘liq munosabatlar, odamlarning, urug‘-jamoalarning, keyinchalik qabilalar va elatlarning bir-biriga ishonishi yoki bir-biridan shubhalanishi, o‘zaro do‘stlik, hamkorlik yoki o‘zaro dushmanlik va kurash nafaqat ma’naviyat, balki butun jamiyat rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Birinchi holda u ijobiy, ikkinchi holda salbiy mazmun kasb etgan. Axloqiy ong va axloqiy madaniyat uzoq tarixiy davr mobaynida odamlar munosabatlarini tartibga soluvchi va boshqaruvchi asosiy institut bo‘lib kelgan. Maishiy turmushda Sharq mamlakatlarida hozir ham bu borada huquqdan kam rol o‘ynamaydi.

Kishilarning xulq – atvori, xatti – harakati, umuman amaliy faoliyati uning ma’naviy, g‘oyaviy va axloqiy e’tiqodiga muvofiq keladimi ? Agar muvofiq kelmasa, ular o‘rtasida farq mavjud bo‘lsa, hali tarbiyaviy jarayon tugallanmagan bo‘ladi.Insonning ma’naviy takomillashuvi uzluksiz jarayondir. Uning ongi, aql – idrokida yuz beradigan o‘zgarishlar, uning xatti – harakati va amaliy faoliyatida to‘g‘ri aks etmog‘i lozim. Olijanob axloq – odob qoidalari, ma’naviy talablar kishilar tomonidan anglab yetilgandagina ular ijtimoiy kuchga aylanadi. Axloq va butun ma’naviyat jamiyatning taraqqiyot darajasiga, unda hukm suradigan mulkchilik munosabatlariga, ularning qay darajada adolatli, teng huquqli rivojlanishiga bog‘liq. Mulkiy notenglik, ya’ni ijtimoiy-mulkiy tabaqalashuv kuchli, jamiyat a’zolari katta qismining mulkdan mahrumligi, begonalashgani hamda mayda mulklarning yirik mulk bilan yuridik jihatdan notengligi sharoitida jamiyatda zulm va ekspluatatsiya qaror topadi.

Zulm va istibdodga asoslangan jamiyatlarning hammasida hukmron kuchlarning “odob saqlash” ko‘nikmalari kishilar o‘rtasidagi adovatni, xudbinlik va toshbag‘irlikni niqoblab ko‘rsatadi. Bunday jamiyatlarda kishilar o‘rtasidagi munosabatlar “yo sen birovni talaysan, yoki seni birov talaydi, yoki sen birovga ishlaysan, yo birov senga ishlaydi” degan tamoyilga asoslanadi.

Inson hayotida kundalik ma’naviy-axloqiy tushunchalar tamoyillarga nisbatan ancha sodda, umumlashmagan, tor qamrovli. Ularni kundalik hayotimizda ma’lum axloqiy tamoyillarning amalga oshish murvatlari ham deyish mumkin, ular ma’naviy-axloqiy talablarning eng oddiy shakli sifatida ro‘yobga chiqadi. Halollik va rostgo‘ylik, ayniqsa diqqatga sazovor ma’naviy me’yorlardandir.

Avvalo, shuni aytish kerakki, halollikni uni dastlabki tor diniy

mazmunida - qaysi taom haromu qaysinisi halol, degan ma’noda tushunmaslik lozim. U allaqachon umuminsoniy - dunyoviy ma’no kasb etgan me’yorga aylangan va butun ma’naviyat tizimiga ta’sir ko‘rsatuvchi omilga aylangan. Halollik, rostgo‘ylik - vijdon tushunchasi bilan bog‘liq, insonning o‘zgaga munosabati o‘ziga munosabatidek sof bo‘lishini talab etuvchi me’yorlardir. O‘nlab me’yorlar orasida bu ikkisiga birinchi bo‘lib tuxtalishimizning sababi shundaki, mustamlakachilik davrida, ayniqsa, sho‘rolar hukmronlik qilgan chorakkam bir asr vaqt mobaynida yolg‘on, aldov, nopoklik, haromxo‘rlik , munofiqlik singari illatlar xalqimizga shu qadar ustalik bilan singdirildiki, hozirgi paytda ko‘pchilik odamlar halollik va rostgo‘ylik ustidan hatto kuladigan bo‘lib qolganlar. So‘z bilan ish birligi yo‘qolgan. Qog‘ozdagi chiroyli gaplar hayotga to‘g‘ri kelmaydi. Lekin bularning hammasi, afsuski, odatiy holdek qabul qilinadi. Ko‘rinib turibdiki, axloqiy me’yorlar rivojlanishi yoki zavol tutishi nafaqat axloqning o‘ziga, shuningdek butun ma’naviyat tizimiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq bu illatlarga qarshi kurashish boshlandi. Hozirgi kunda davlatimiz milliy - ma’naviy qadriyatlarni tiklashni, odamlarni halol, insofli, adolatli bo‘lishga chaqirishni ta’lim-tarbiya va madaniy siyosatining muhim qismi deb bilgan holda ish tutmoqda.

Barcha axloq qoidalari, fe’l – atvor, yurish – turish , xatti – harakat boylik orttirishga qaratilgan jamiyatdagi insonning butun ruhiyatida boyish mayli shakllana boshlaydi. Odoblilik, xushmuomalalilik uning ma’naviy qiyofasini berkituvchi hayotga munofiqlarcha intilishning haqiqiy mohiyatini yashiruvchi niqob sifatida ishga solinadi. Yolg‘onchilik, firib ishlatish zo‘r xislat deb, vijdon esa ochiqdan – ochiq shafqatsizlik uchun niqob, razillik esa epchillik, muttahamlik esa ustamonlik deb ataladi. Bunday shaxslar odob saqlash va o‘zini tuta bilishni, kishilar bilan muomala qila bilishni xuddi shakar yoki choy bilan savdo qilishdek, deb tushunadilar. Chunki ularning iymon – e’tiqodi ham pul. Shu o‘rinda Abdulla Avloniyning quyidagi fikrlari o‘rinlidir: “Xulq – inson ikki narsadan tarkibdur. Biri jasad va ikkinchisi nafsdur. Jasad ko‘z ila bor narsalarni ko‘rur, ammo nafs idrok ila yaxshini yomondan, oqni qoradan ayirur. Jasadning ham, nafsning ham biror surati bordurki, yo yaxshi va yo yomon bo‘ladur. Jasadning surati hammaga ma’lum bir narsadurki, har vaqt ko‘zga ko‘rinib turadur. Ammo nafsning surati ko‘zga korinmaydurgan, aql ila o‘lchanadurgan bir narsadirki, buni xulq deb atalur. Agar bir kishi yoshligida nafsi buzilib, tarbiyasiz, axloqsiz bo‘lib o‘sdimi , allohu akbar , bunday kishilardan yaxshilik kutmak yerdan turib yulduzlarga qo‘l uzatmak kabidur” [1].

Axloqiy ongda axloqiy talab nisbatan umumiy tarzda ko‘zga tashlanadi. Ular jamiyat tomonidan shaxsga qo‘yiladigan talab tarzida namoyon bo‘lib, insonning axloqiy mohiyatini, uning hayotiy mazmunini, odamlar bilan o‘zaro aloqadorligidagi asosiy jihatlarini belgilab beradi. Shunday qilib, axloqning - ma’naviyat qismining rivojlanishi bus-butunlikni, ya’ni butun ma’naviyatni rivojlantirgan. Haqiqatan jamiyat taraqqiyotini ma’naviyat rivojlanishisiz tasavvur etish qiyin. Chunki odamlar ongi, ijtimoiy muhit, uning yangiliklarga ochiqligi, tashabbuslarni qo‘llab – quvvatlashi, yangi texnologiyalarga xayrixohligi, har qanday turg‘unlikni va dogmatizmni inkor qiladigan, doimiy ravishda barcha sohalarga takomillashishga intiluvchan bo‘lishi ulkan ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda adolat, o‘zaro ishonch va bir-birini qo‘llab-quvvatlash, xayrixohlik, mehr-oqibat, go‘zallikka, halollikka intilish qaror topsa, iqtisodiy munosabatlar ham takomillashadi, ishlab chiqarish vositalari va texnologiyalari ham yangilanib, rivojlanib boradi. Va aksincha. Ma’naviy muhit qanchalik yomon bo‘lsa, odamlar o‘rtasida ishonch bo‘lmasa, bir-biriga nisbatan nosog‘lom, raqiblarcha munosabatda bo‘lsa, ijtimoiy munosabatlarga ham, iqtisodiyotga ham darz ketadi. Yulg‘ichlik, bir-birini aldash yildan-yil kuchayib boraveradi. Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinmi, ma’naviyat ijtimoiy muhit, shaxslararo munosabatlar mazmuni ijobiy yoki salbiyligi odamlarning ongiga, e’tiqodiga, qaysi qadriyatlarga tayanishiga, ya’ni kuchli ma’naviyatiga borib taqalar ekan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud Axloq” Toshkent. 1995 yil. 15-bet

2. Abdurahim Erkayev. “Ma’naviyatshunoslik”. 1-kitob. Toshkent. “Ma’naviyat”. 2018 yil

3. Abdurahim Erkayev. “Ma’naviyatshunoslik”. 2-kitob. Toshkent. “Ma’naviyat”. 2018 yil

4. Abdulla Sher. “Axloqshunoslik” Toshkent. “Yangi asr avlodi”. 2003 yil

MAVJUDA BURXANOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Pedagogika fakulteti o‘qituvchisi

ZAMONAVIY OILALARDA YOSHLARNING IJTIMOIY TARBIYALASH MASALALARI

Yangi O’zbekiston taraqqiyotining strategik rejalari, yangilanish va o‘zgarishlarning yangi bosqichida ko‘zlangan maqsad va vazifalarimizni amalga oshirishda so‘zsiz, ajdodlarimiz merosida chuqur iz qoldirgan qadriyatlarimiz qatorida yoshlarga bo‘lgan ishonch va e’tibor an’analariga sodiq qolgan holda biz ham kelajak istiqbolimizni, Vatan ozodligi va obodligini dunyoda hech kimdan kam bo‘lmagan, bilimli, har tomonlama yetuk farzandlarimiz, barkamol avlod bilan bog‘lamoqdamiz.

Haqiqatan ham, agar bugungi kunda mamlakatimizda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga, bunyodkorlik ishlariga, har bir yigit qiz, farzandlarimiz o‘zlarini shu yurtda erkin sezmog‘i, bilim olmog‘i, o‘z imkoniyatlarii namoyon qila olmog‘i uchun yaratilgan shart sharoitlarga aql ko‘zi balan nazar solar ekanmiz, shunchalik ishonch e’tibor, g‘amxo‘rlik, mehnat va mashaqqat “Nima uchun va Kim uchun?” degan savolga oqilona javob topa olamiz.

2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ-406-son Qonunida davlatimizning yoshlarga oid siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berildi. Qonunda ta’kidlab o‘tilganidek, yoshlarimizning butun qobiliyati iqtidorli va tafakkur salohiyatini yuzaga chiqarish uchun barcha shart – sharoitlarni yaratish barobarida jamiyat hayotida ularning ijtimoiy faolligini oshirish, mamlakatimizda kechayotgan tub o‘zgarishlarda ularning ishtiroki va mavqeini mustahkamlash muhim vazifadir [1].

Har bir farzand ertangi kunimizning davomchilari. Ularning kelajagi esa biz, kattalarga bog‘liq. Shunday ekan, ularga Mustaqil O‘zbekiston tanlagan eng to‘g‘ri va eng adolatli yo‘ldan adashmaslikni qancha erta o‘rgatsak, shuncha yaxshi natijaga erishamiz. Chunki, oilada shakllangan ma’naviy muhit avvalo o‘spirin yoshning ijtimoiylashuviga ta’sir ko‘rsatadi.

Ma’limki, oila – bu bolani shaxs sifatida ijtimoiylashuvishining muhim institutlaridan biri sifatida, birlamchi ijtimoilashuv maskani hisoblanadi. Aynan oilada yoshlar ijtimoiylashuv munosabatlarning birinchi tajribasini oladi. Ma’lum bir vaqt davomida oila odatda bolada bunday tajribani olishning yagona maskani hisoblanadi. Oila, shaxsni ijtimoiylashuvining

asosiy instituti sifatida tug‘ilish paytidan boshlab shaxsga aylanishigacha hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi.

Mutafakkir Abdurauf Fitrat kelajak avlodlarimizning ongsiz, irodasiz, tarbiyasiz, nodon va johil bo‘lmasliklari uchun xotin-qizlar o‘qimishli, sog‘liqni saqlash va bolalar tarbiyasidan xabardor bo‘lishlari kerakligini zarur deb biladi. U tarbiyani juda muhim ijtimoiy hodisa, jarayon sifatida va unda “oiladagi mushkul vazifa go‘dak tavalludidan so‘nggi er-xotin bo‘yniga tushadigan farzand tarbiyasidir”, – deb ta’kidlaydi [2;B.5].

Yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvini tarbiyalashning ta’minlashning turlicha xususiyatlari, ya’ni, azaldan o‘zbeklarning milliy qadriyatlari tizimida mavjud bo‘lgan va ularga amal qilib kelingan [5]. Ammo, mazkur qadriyatlar aynan yoshlarning ijtimoiylashuvini ta’minlash g‘oyalari tarkibida emas, balki umumiy axloqiy-ma’naviy normalar sifatida tarbiya tizimiga joriy etilgan. Shu bois, yoshlarning ijtimoiylashuvini ta’minlash masalasida, mazkur tarixiy hamda globallashuv sharoitida shakllanib borayotgan tizim bugungi davrning barcha talablariga to‘la javob bera oladi deb bo‘lmaydi.

Oila muhiti inson shaxsini tarbiyalab, voyaga yetkazish bilan bir qatorda, shu tarbiya vositasida uning vujudiga ruhiy, aqliy va ahloqiy kuch-qudrat rishtalarini ulaydi, milliy ruh va diniy e’tiqod tuyg‘ularini shakllantiradi. Oilaviy tarbiyada milliy an’analar uyg‘unligi yaqqol seziladi. Zotan, ularning har ikkalasida ezgulik va bag‘rikenglik, totuvlik va hamkorlik, odamgarchilik, andisha va odob, xushmuomalalik, saxiylik va mehmondo‘stlik, insof va diyonat, halollik va sabr-qanoat singari fazilatlar ustuvorlik qiladi.

Biror bir xalq yoki millat buyukligi, ma’naviyati yuksakligini belgilovchi omil bu uning insonparvarlik va vatanparvarlik tarbiyasining yuksakligidir. Yoshlarimiz ongida yurt taqdiri va vatan ravnaqi uchun javobgarlik hissini tarbiyalash, har birimiz shu yurtning egasi sifatida uning ozodligi va obodligi yo‘lida hech bir ikkilanishsiz butun kuch va imkoniyatlarimizni safarbar qila olmog‘imiz fuqarolik vazifamiz, farzandlik burchimiz ekanligini ularning vujudiga olib kirmog‘imiz yuksak ma’naviyat tarbiyasining mas’uliyatidir. Zero, Vatan mehridan bahramand bo‘lib, unga munosib javob berish, uni sajdagoh kabi muqaddas deb bilib, qadrlay olmoq haqiqatda ma’naviy yetuklik belgisidir.

Professor N.N.Azizxodjayevaning fikriga qo‘shilgan holda, yoshlarning bilish faolligi va shu asosda ulardagi ijodiy intilishni qo‘llab-quvvatlash vositalari quyidagi maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerakligini ta’kidlamoqchimiz:

a) barcha ta’lim oluvchilarni umumiy pedagogik qo‘llab-quvvatlash (yoshlarga diqqat bilan, yaxshi munosabatda bo‘lish, ularni o‘quv bilish jarayonini rejalashtirishga jalb qilish, o‘zaro o‘qitish muhitini yaratish, ta’limning faoliyatli mazmuni, o‘rgatuvchi o‘yinlar, rang-barang ijodiy ishlar, ularning yutuqlarini ijobiy “muvaffaqiyat zinapoyasi”da baholash, dialogik muloqotdan foydalanish);

b) individual-shaxsiy qo‘llab-quvvatlash (yoshlarning shaxsiy muammolarini aniqlash; rivojlanish, tarbiyalanganlik, o‘qishni fakt bilan tashxislash; har bir talabaning rivojlanish jarayonini kuzatib borish; pedagogik yordam va qo‘llab-quvvatlash zaruratini yoshlarning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta’minlash va b.) [3] .

Mazkur yondashuvlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak yosh mutaxassining kasbiy faoliyotining ijodkorlikka yo‘naltirilganligini to‘la qonli tarzda o‘rganish uchun munosabat nazariyasi nuqtai nazaridan yondashish kerak. Chunki, munosabat shaxsning mayllarini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu asnoda shaxsning kasbiy yo‘nalganligini aniqlash imkoniyati vujudga keladi. Mazkur masalaga E.G‘oziev etnopsixologik jihatdan yondashib, “O‘zbek oilasida tarbiya mohiyati, mazmuni, tarbiyaning kundalik va istiqbol rejalari: bolalarga ta’sir o‘tkazish vositalarini tanlash va undan unumli foydalanish o‘ziga xos xususiyatlarga ega, chunki uning asosida xalq an’analari yotadi”[4] - deb yozadi.

Demak, oiladagi tarbiya jarayonida xalq an’analarining ta’siri masalasi birlamchi ahamiyat kasb etishini e’tirof etish lozim.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy oilalarda yoshlarning ijtimoiy tarbiyalashni ta’minlashning pedagogik mazmuni borasida quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etishini aniqladik, ya’ni: ijtimoiylashuv jarayoni – kasb egallash va kasbiy yo‘naltirish asosidagi barcha mavjud aqidalarni va zamonaviy qarashlarni anglash, ularni qabul qilish, ularga tayanib yashash, ularni o‘z hayotida qayta shakllantirish va jonlantirib yashash jarayonlaridan iboratdir. Kasbiy ijtimoiylashuvda individ o‘z kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarini shaxsiy va umumjamiyat taraqqiyoti uchun real amaliyotga tatbiq etadi [5].

Chunki, bugungi davr yoshlarning ijtimoiy tarbiyalashni ta’minlashni stixiyali tarzda emas, balki maqsadli va dasturiy tarzda olib borishni taqozo etadi. Muhim bo‘lgan masalalardan biri – o‘zbek oilalarida yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvini ta’minlash jarayonining pedagogik mazmuni nima ekanligini, mazkur pedagogik mazmun qanday kategoriya, jarayonlar va vazifalar ko‘lami bilan belgilanishini aniqlashdan iborat bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ-406-son Qonuni // “Xalq so‘zi” gazetasi 2016-yil 15-sentabrda 182 (6617)-soni.

2. Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. - Т.: Маънавият. 2000. – Б.5.

3. Muxtarovna B.D. Oilada yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvini ta’minlashda o‘zbek xalq ijodiyoti //integration of science, education and practice. scientific-methodical journal. – 2021. – т. 2. – №. 5. – с. 25-33.

4. G‘oziev E.G‘. O‘zbek xalqining etnopsixologiyasi va bolalar tarbiyasi // O‘zbek oilasining etnopsixologik muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani qisqa ma’ruzalar matni. - T. 1993. B.- 8-9.

5. Bekbutaevna B.M. Improvement of innovative mechanisms of the organization of social education in families //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 7. – C. 36-39.

6. Ғайбуллаев О. Ёшларда диний бағрикенгликни шакллантиришнинг фалсафий моҳияти //Научно-просветительский журнал «Наставник». – 2021. – №. 2.

7. Каршибаева У., Махмудова М. Катта умидлар ва шум бола асарларида макон ва инсон //Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2019. – №. 4 (73). – С. 24-27.

SAMARBEK ERONOV,
ToshDTU Olmaliq filiali kafedra katta o‘qituvchisi

YOSHLARNING MUSTAQIL FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ISHONCH, IYMON VA E’TIKOD TUSHUNCHALARINING URNI VA ROLI

Jamiyatning paydo bulishi insoniyatning qator tushunchalar va kategoriyalarini shakllantirdi. Bunday kategoriyalarga ishonch, e’tiqod, iymon tushunchalari ham kiradi. Bu tushunchalar diniy va falsafiy tushunchalar bulib jamiyatning shakllanganligi, uning taraqqiyligini belgilab beruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Ma‘naviy taraqqiyotning turli boskichlarida bu tushunchalar turlicha talqin qilingan. Respublikamizda Prezidentimizning 2017 yil 7 fevraldagi PF-49-47-son farmoniga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasida “jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat‘iy hayotiy nuqtai nazarga ega eshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jaraenida ularning ijtimoiy faolligini oshirish”[1] vazifasi belgilab berilgan. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Hozirgi g‘oyat murakkab va tahlikali zamonda eshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni turli zararli ta‘sirlardan asrash yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.”[2] Bu vazifalarni samarali amalga oshirishda ishonch-e’tiqodni shakllantirish usullarini o‘rganish bugungi kunda ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarbligi shubhasizdir.

Falsafiy nuqtai nazardan **ishonch, iymon, e’tiqod** tushunchalari quyidagicha tariflanadi.

E’tiqod bu shaxsning asosiy bahsini etarli darajada isbotlashi yoki isbotlashga urinishidan qat‘i nazar, taklif yoki taxminning to‘g‘riligiga yoki asosliligiga ishongan ruhiy holat.

Ishonch shaxsning taklif yoki asosning asosliligiga, rostligiga yoki daliliga ishongan ruhiy holati. Ishonish hech qanday dalil yoki dalilsiz mumkin bo‘lsa -da, aniqlik haqiqiy dalil yoki dalilga ega bo‘lishni anglatadi.

Iymon – bu (arabcha.- ishonch, e’tiqod) – islomning 5 rukni asosidan biri, allohga, uning farishtalariga, kitoblariga, payg‘ambarlariga, qiyomat kuniga, taqdirga va o‘lgandan keyin tirilishiga ishonish. Bu «iymoni mufassal», ya‘ni iymonning mufassal ta‘biri deb ham ataladi.

Moturidiylik ta‘limotiga kura, narsaning butunligi – e’tiqod (dinga ichdan chuqur ishonish), iqror (buni so‘zda tan olish)dan iborat deb xisoblanadi. Islomda talablari «arkon aliymon» («e’tiqod asoslari») sanaladi.

Ishonch-e’tiqodni shakllantirish jaraeni jamiyatdagi munosabatlarni optimallashtiradi, shaxslararo nizolarni bartaraf qilishga imkoniyat yaratadi. SHuningdek, talaba-eshlar o‘rtasida olib boriladigan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarning samaradorligini oshirishga, eshlarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Garchi iymon ko‘pincha majburiyatni o‘z ichiga oladi va u diniy kontekstlarda ishlatilsa, e’tiqod umumiy tushunchadir. Odamlar deyarli har doim o‘z e’tiqodlariga ega bo‘lishadi yoki sezmaydilar, bu dunyoning doimiy va izchil mavjudligi va mavjud bo‘lish tamoyillari, atrofdagi odamlarning o‘ziga xosligi, ijtimoiy amaliyotlarning ishonchliligi va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Edmund Gusserlning ta‘kidlashicha, e’tiqod (Gusserl asosiy e’tiqodni «ur-doksa» deb atagan) odamning tafakkur doirasi asosida yotadi va u nima ekanligini anglamasdan ongning chuqur darajasida mavjud. Ba’zi faylasuflar falsafada xavfsiz chiqish nuqtasini topish uchun ongli ravishda hamma narsaga shubha bilan qaraydilar. Yaxshi ma‘lum bo‘lgan misol - Dekartning metodik shubhasi.

Inson nimaga ishonishini ma‘lum darajada anglash bor. Ba’zi e’tiqodlar fikrning birinchi pog‘onasiga chiqadi va odam ma‘lum masalalarga ishonish haqiqatini to‘liq biladi. Biroq, ba‘zi e’tiqodlar fikrning foniga o‘tadi va fikrlash doirasini tashkil qiladi. Odamlar bu e’tiqodga ega ekanliklarini sezmasdan ularga ishonishadi.

Falsafa, ma’lum ma’noda, avvalgilarining nima ekanligini anglamay turib, asoslanmagan yoki asossiz e’tiqodlarni oshkor qilishga urinishlardir. Falsafaning yangi yondashuvi amalga oshmagan taxminlar birinchi o‘ringa qo‘yilganda va paradigma deb ataladigan narsa o‘zgarganda paydo bo‘ladi. Paradigmaning tubdan o‘zgarishi, odatda, o‘tmishdoshlar buni oddiy deb bilgan narsalarini o‘rganishni va amalga oshirishni o‘z ichiga oladi.

Afsuski, «e’tiqod» tushunchasi etarlicha rivojlanmagan, ayniqsa amaliy ma‘noda, chunki psixologiyaning faqat ba‘zi psixoterapevtik yo‘nalishlari e’tiqod bilan ishlaydi.

Kognitiv terapiyada e’tiqod chuqur va oraliq ikki turga bo‘linadi:

Chuqur, e’tiqod - bu munosabatlar shunchalik chuqur va tubdanki, odamlar ularni aniq ifoda eta olmaydilar va hatto oddiygina anglay olmaydilar.

Eng chuqur e’tiqodlarga asoslanib, **oraliq e’tiqodlar** bu munosabatlar, qoidalar va taxminlarni o‘z ichiga oladi.

E’tiqodlarning ko‘p qatlamlari borligi bilan bahslashish qiyin. Bu holda chuqurlik mezonlari soni: e’tiqodni mustahkamlash; ongsiz munosabatlar; e’tiqodni tasdiqlovchi faktlar; ushbu turdagi shaxsning ushbu e’tiqodga moyilligi. Biroq, ta‘rifning o‘zi, birinchi navbatda, juda keng, ikkinchidan, «e’tiqod» tushunchasi bilan «munosabat» va «taxmin» tushunchalari o‘rtasidagi farqni yo‘q qiladi.

“E’tiqod” tushunchasini konkretlashtirish uchun e’tiqodning shakllanish jarayonini kuzatish kerak. Biz e’tiqodni shakllantirishning ikkita asosiy usulini ajrata olamiz: o‘z tajribamiz va boshqa odamlarning tajribasi (odam o‘z e’tiqodini tasdiqlash tajribasiga ega bo‘lmagan holda).

Shaxsiy tajribadan e’tiqodning shakllanishi ancha murakkab jarayon bo‘lib, u quyidagi bosqichlardan iborat:

- muayyan vaziyat yuzaga keladi;
- shaxs berilgan vaziyatni tushunadi va izohlaydi;
- vaziyatni talqin qilishning umumlashtirilishi mavjud;
- ishonch paydo bo‘ladi.

Ishonchga qarshi. ishonchsizlikdir Erik Eriksonning psixososyal rivojlanish nazariyasining birinchi bosqichi[3]. Bu bosqich tug‘ilishdan boshlanadi va bir yilgacha davom etadi. Chaqaloqlar o‘rganishadi ishonch ularning g‘amxo‘rlari bo‘ladi ularning asosiy ehtiyojlarini qondirish. Agar bular kerak bo‘lsa bor doimiy ravishda uchrashmagan, ishonchsizlik, shubha, va tashvish rivojlanishi mumkin.

Keyinchalik savol tug‘iladi, nima uchun ishonch va ishonchsizlik muhim? O‘rganish ishonch Atrofimizdagi dunyo Eriksonning fikriga ko‘ra ishonchga qarshi ishonchsizlik bosqichi eng ko‘p muhim inson hayotidagi davr, chunki u bizning dunyoga bo‘lgan qarashimizni, shuningdek shaxsiyatimizni shakllantiradi.

Xulosa qilib ishonch e’tiqod va iymon tushunchalari jamiyat a’zolarida va insoniyatning ma‘naviy rivojlanishida eng muxim tushunchalar va kategoriyalar xisoblanadi. Inson bu tushunchalar asosidagina shaxslararo munosabatlarni shakllantiradi va jamiyat tarakkiyotiga uz xissasini qo‘shadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. PF – 49-47-son 07.02.2017.
2. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Xotira va qadrlash kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2019 yil, 9 may. pv.uz
3. E.Erikson. Epigeneticheskaya psixologiya. Moskva. Izd. Aspekt Press. 1998 g. 372 str.

III SHO‘BA.

MAFKURAVIY TAHDIDLARNING ZAMONAVIY KO‘RINISHLARI, TARKIBI VA TA’SIRI

SHUHRAT G‘OYIBNAZAROV,
G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali direktori o‘rinbosari, siyosiy fanlar doktori, professor

YANGI GEOSIYOSIY VAZIYAT VA YANGI MARKAZIY OSIYO

Hozirgi jahon tartiboti XIX asr boshida boshlangan to‘rtinchi sanoat inqilobi yutuqlari asosida shakllangan postindustrial model rivojlanishi natijasida XXI asrga kelib global modelga o‘tishi dunyodagi mavjud geosiyosiy vaziyatni o‘zgartirib yubordi.

Bugun jahon arxitekturasi insoniyatni birlashtirishga qaratilgan yagona geosiyosiy modelini xavf ostida qoldirdi. Turli qarama-qarshi kuchlar va markazlar o‘z manfaatlari yo‘lida xalqaro huquq normalariga ochiqdan ochiq zid ravishda harakat qilishlari eski va yangi ixtiloflar, mojarolarni qo‘zg‘ab yubordilar.

Natijada hozir dunyoning 22 mamlakatida notinchlik hukm surmoqda, urushlar, mojarolar alanga olganligini kuzatish mumkin.

Fikrimizcha, bu ayanchli holatlardan **to‘rtta mega** trendlar jahon geosiyosati yo‘nalishlarini belgilamoqda:

Birinchisi- harbiy qudrat va salohiyatga ega bo‘lgan davlatlar o‘z hudud va tasir doiralarini kengaytirish maqsadlaridan voz kechmasdan qurollanish poygasiga zo‘r bermoqdalar. Natijada 2022 yildan etiboran Ukrainada, Isroil-Falastin, Armaniston-Ozarbayjon, Pokiston-Hindiston, Janubiy va Shimoliy Koreyalar, Serbiya-Kosovo, Turkiya-Gresiya. Isroil-Eron kabi mamlakatlarda azaldan mavjud bo‘lgan mojarolar yangi tus olib ketdi.**Ikkinchidan**,-2024 yilda dunyoning 70 ta mamlakatida prezidentlik yoki parlament saylovlari bo‘lib o‘tadi va ularda jahon aholisining yarmidan ko‘pi ishtirok etib o‘z etakchilarini saylab olmoqdalar. Ushbu elektoral **saylovlar** natijalari nafaqat ushbu davlatlarda, balki jahon siyosati va xavfsizligiga ham muayyan tasir o‘tkazishi va yangi o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin.**Uchinchidan**,-ayniqsa Amerika-Xitoy munosabatlarining rivojlanishi dinamikasi xususiyatlari xalqaro xavfsizlik tizimi kelajagini belgilashi mumkin.zero, Pekin va Vashington munosabatlarida hali keskinlik va ziddiyatlar mavjud.**To‘rtinchisi**,-Mintaqalashuv tendensiyasi tobora kuchayib va kengayib bormoqda. Natijada BRIKS (Braziliya,Rossiya,Hindiston,Xitoy va Janubiy Afrika 2009yilda, 2023 yilda Eron,Saudiya Arabistoni,Misr,Efiopiya va BAA) qo‘shildi.

ShHT-Shanxay hamkorlik tashkiloti (Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston (2001), Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) 2021yildan etiboran va boshqa mintaqaviy tashkilotlar “Katta ettilik” mamlakatlariga muqobil bo‘la oladigan, o‘zining global boshqaruv tizimiga ega bo‘lgan,iqtisodi barqaror o‘sishni uzluksiz taminlayotgan va barqaror rivojlanayotgan davlatlardir.

Ularning soni muttasil o‘sib borayotganligi,hamkorlikda turli sohalarda erishayotgan yutuq va muvaffaqiyatlari ko‘plab davlatlarda qiziqish uyg‘otmoqda,ular safiga kirish hohish istaklarini bildirmoqda.Biz ushbu holatdan kelib chiqib ushbu mintaqaviy tashkilot va birlashmalar faoliyatiga etibor qaratishni lozim topdik.

Masalan,BRIKS mintaqaviy iqtisodiy birlashma 2009 yilda Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy va 2011 yilda Janubiy Afrika Respublikasi qo‘shilgan. 2023 yilda BRIKSning Yoxanesburg shahrida bo‘lib o‘tgan sammitida yangi 5 ta davlat Eron, Saudiya Arabistoni, Misr, Efiopiya, va BAA qo‘shildi. Birlashmaga azo bo‘lish uchun 23 ta davlat ariza topshirgan.BRIKS nafaqat iqtisodiy birlashma balki u o‘ziga xos siyosiy brend ham bo‘lib tanildi.

Masalan, uning taraqqiyot banki tomonidan azo mamlakatlar uchun o‘z raqamli valyutasiga o‘tishga hozirlik elon qilinishi xalqaro maydonda AQShning asosiy moliyaviy-iqtisodiy manbai bo‘lgan dollarning milliy iqtisodlardan mosuvo qilishi mumkinligi haqida bashorat qilinmoqda, birlashmaning bunday qadamlari jahon geosiyosati va iqtisodiy munosabatlariga o‘z tasirini o‘tkazishi mumkin. Jahon siyosati va iqtisodiyotida tobora nufuzi ortib borayotgan ShHT -2001 yilda tuzilgan mintaqaviy xalqaro tashkiloti bo‘lib Xitoy,Rossiya Qozog‘iston,O‘zbekiston va Tojikiston tashkilot asoschilari hisob-lanadilar.Bugungi kunda tashkilotga 10 ta davlat azo, uchta davlat kuzatuvchi maqomiga,14 ta davlat tashkilot bilan muloqot qilish bo‘yicha hamkor maqomiga ega. Bu esa ShHTning xalqaro siyosatdagi o‘rni va nufuzining ortib borayotganligi hamda hozirgi murakkab geosiyosiy vaziyatda mintaqa mamlakatlari birlashuvi mustahkamlanayotganligidan dalolatdir.

ShHT va BRIKS kabi mintaqaviy tashkilotlarning o‘ziga xos tajribasi dunyoning yangi tartibotini hamda yangi adolatli xalkaro tizimni shakllantirishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Ayniqsa «Covid-19» pandemiyasidan keyin siyosiy, iqtisodiy iqlim o‘zgarishlaridagi hodisalar globallashuv inqirozga yuz tutganligini bildirdi. Ma’lumki, to‘rtinchi sanoat inqilobi natijasida shakllangan sanoat jamiyatining tez iqtisodiy va demografik o‘sinishning oqibatlari salbiy, hozirgi inqiroz esa o‘sha

davr va uning o‘sish tugashini, tarixiy taraqqiyotdagi global turg‘unlining mutlaqo yangi davri boshlanganligini anglata. Geosiyosiy jarayonlarning yaqinlashib kelayotgan o‘zgarishida uzoq muddatli xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash uchun ijtimoiy va tabiiy omillar hisobga olinishi kerak. Faqatgina jamoaviy tushunish va kelajak avlodlar oldidagi ma’suliyat orqali barqaror va xavsiz dunyoni qurish mumkin.

ShHT ning yaqinda Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan “ShHT+”formatidagi uchrashuvda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev so‘zlagan nutqida “Global siyosiy va iqtisodiy “parchalanishlar”, urushlar va mojarolar xalqaro munosabatlar tizimi asosi va hal qiluvchi tamoyillarining emirilishiga olib kelmoqda”deb takidladi.

Zamonaviy sivilizasiya tobora urush tomon harakat qilmoqda. Hatto etakchi mamlakatlarning iqtisodi va moliyaviy ahvoli boshi berk ko‘chaga kirib ziddiyatlarni murakkablashtirib yubordi. Xalqaro hamjamiyatlar etakchilari harakatlari ham, moliyaviy institutlarning “ixtirolari” ham global inqiroz tasirini to‘xtata olmayotir. Shunday xatarli davrda hozircha ommaviy qirg‘in quroli bo‘lmish yadroviy qurollar ko‘p qutbli dunyoning xavfsizligi kafolati bo‘lib turibdi.Ushbu holat haqida shu kunlarda Vashingtonda NATOning 75- yubiley sammiti qabul qilgan Deklarasiyasida o‘z ifodasini topdi.

Unda takidlanishicha, NATO 360 daraja yondashuv asosida barcha tahdidlarga qarshi va barcha yo‘nalishlardan jamoaviy mudofaani ta’minlashda davom ettirishini,, bunda NATOning uchta asosiy vazifasini -to‘xtatish va mudofaa, inqirozning oldini olish va boshqarish hamda hamkorlik xavfsizligini bajarishga harakat qilishini elon qildi.

Shuningdek, Yangi jahon tartiboti shakllanayotgan hozirgi davrda Turkiy davlatlar xavfsizligi butun mintaqamiz xavfsizligi garovi bo‘lishi lozimligi haqida fikrlar bildirildi,ushbu tashkilot azo davlatlarning iqtisodiy va inson resurslari tashkilotning global tinchlik va xavfsizlik masalalarida jahonning asosiy geosiyosiy kuchlaridan biriga aylanishiga imkoniyat yaratadi. Siyosiy o‘zgarishlarning yangi bosqichida uzoq muddatli xavfsizlik va barqarorlikni taminlash uchun ijtimoiy va tabiiy omillarni inobatga olish zarurligi,hamkorlar bilan raqobat emas faqat birgalikda harakat qilish va kelajak avlod oldidagi masuliyatni his etgan holda barqaror tinchlik va xavfsizlikka erishish muikinligi isbotlanmoqda.

Jahonda kechayotgan murakkab va xavfli tahdid va tajovuzlar jarayonida faqatgina ezgulik va tinchlik ,barqarorlik, hamkorlik va do‘stlik yo‘lini tanlagan mamlakatlargina birgalikda ushbu muammolarni hal etishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning bu

boradagi tashabbus va takliflari jahon hamjamiyati, BMT va boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar hamda davlatlar rahbarlari, siyosatchilar tomondan iliq kutib olinmoqda, maqullanmoqda, bu esa ko‘p vektorlik Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatning yangi Markaziy Osiyo tashqi siyosatini belgilashga olib kelganligi bilan ham izohlanadi.

Ta’kidlash joizki, 2016 yil, Shavkat Mirziyoev siyosiy hokimiyatga kelishga qadar qo‘shni mamlakatlar bilan o‘zaro munosabatlarda anchagina muammolar to‘planib qolgandi. O‘zbekiston rahbari Oliy Majlisga yo‘llagan birinchi Murojaatnomasida ustuvor yo‘nalish Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan munosabatlarni mustahkamlash tashqi siyosatimizning etakchi yo‘nalishi bo‘lishi va qo‘shni mamlakatlar bilan ochiq, do‘stona va pragramatik siyosat olib borshiga sodiq qolamiz degan edi.

Keyinroq ushbu g‘oya O‘zbekiston rahbarining yangi yaxlit Tashqi siyosat doktrinasida, Shavkat Mirziyovning 2017 yil sentyabr oyida BMT Bosh Assamleyasining 72-sessiyasida Markaziy Osiyo rahbarlarning muntazam uchrashuvdalarini o‘tkazishida mamlakat tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi «Tinch-osoyishta, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan «Markaziy Osiyo» ekanini, o‘sha yili noyabr oyida Samarqand bo‘lib o‘tgan «Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik» mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasida qabul qilingan «Samarqand konsesusi»da o‘z ifodasini topdi.

Ushbu ilmiy anjumanda ishtirok etgan mintaqaning besh davlati tashqi vazirlari O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning tashabbusini – oliy daragiadagi davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarini ta’sis etish to‘g‘risidagi taklifini qo‘llab-quvvatladilar. 2018 yil iyun oyida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi «Markaziy Osiyo mintakasida tinchlik barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta’minlash bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlik mustahkamlash» rezolyusiyasini[1] 22 iyun kuni qabul qilganligi va ushbu hujjatni yuksak baholaganida o‘z isbotini topdi. Natijada mintaqa ichidagi davlatlar munosabatlar tubdan o‘zgardi, mamlakatlar o‘rtasida turli darajada ikki tomolama va ko‘p tomonlama konstruktiv muloqotlar yo‘lga qo‘yildi, o‘zaro manfaatli hamkorlik rivojlanishida ilgari ushbu mamlakatlar bir-birlariga raqobotchi sifatida qarashgan bo‘lsalar, endi turli muammo va masalalarni hamkorlikda hol etmoqdalar.

Markaziy Osiyo mintaqasida boshlangan va tobora rivojlanib borayotgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy integrasiya va kooperasiya jarayonlari asosida tinchlik, borqarorlik va xavfsizlik, do‘stlik va

yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro ishonch va hamkorlik asosida qurilgandir, 7 yil muqaddam ushbu muntazada ahvol aksinga edi, ishonchsizlik, hadejsirash raqobat, mensimaslik, er, hudud, suv, chegara masalalarida nizolar, tortishuvlar xavfli tus olayotgan edi. Bunday munosabatlar asrlar davomi bir din, e’tiqod qilib kelayotgan, urf-odat an’analari deyarli bir xil bo‘lgan xalqlarni qadriyatlari va madaniyatlariga mutlaqo zid edi.

Bugungi Yangi Markaziy Osiyo jahonning etakchi mamlakatlari, nufuzli, yirik tashkilotlari va ularning rahbarlari e’tiborini o‘ziga tortmoqda.

Hozir Markaziy Osiyo o‘ndan ziyod «Markaziy Osiyo +» formatlarida 40ga yaqin davlatlar va 2-ta mintaqaviy tashkilotlar bilan o‘zaro manfaatli faol hamkorlik qilmoqda. Masalan, keyingi 2 yilda «MO-RF» (Ostona), «MO-XXR»(Sian), «MO-AQSh»(Nyu-York), «MO-GFF»(Berlin), «MO-EU»(Cho‘lpon-ota), «MO-Saudiya» (Djidda), «MO-Hindiston»(onlayn) kabi sammitlardir. Ushbu formatdagi uchrashuv va muloqotlarga boshqa mamlakatlar va xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlarda ham qiziqish bildirmoqdalar.

Shunday qilib jahon maydonida mintaqaning sub’ekti sifatidagi o‘rni mustaqkamlanishga muhim qadam tashlandi.

Zero, Markaziy Shu bilan birga, mintaqaning muhim va eng qimmatli resursi – Ma’lumki bo‘lgan yoshlardir.

Markaziy Osiyo-dunyoning eng «yosh» mintaqalaridan biri bo‘lib, aholisining o‘rtaga yoshi 28,7 ni tashkil etadi.

BMT hisobiga ko‘ra, 2040 yilga qadar mintaqa aholisining o‘rtaga yoshi 28,3 yoshga kamayadi, ko‘rsatgich o‘sha vaqtda Shimoliy Amerikada (41,5), Evropada (46,8), Xitoyda (48)ni tashkil etadi.

Bunda noyob raqobatli ustunlik barcha beshta mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantinishi uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Yoshlar iqtisodiy, texnologik va madaniy sohalarda yangilashish jarayonlarini harakatlantiruvchi kuchiga aylanish mumkin.

ABDURAHIM ERKAYEV,
QarDU professori

NEOIMPERIALIZM, NEOLIBERALIZM VA MUSTAQILLIGIMIZGA YANGI TAHDIDLAR

Jahonda geosiyosiy vaziyat o‘ta keskinlashdi. Rossiyaning Ukrainaga qarshi o‘tkazayotgan Maxsus Harbiy Operatsiyasi, Yaqin Sharqdagi tez-tez alangalanib turadigan urush o‘chog‘i, turli tuman regional ziddiyatlar, to‘qnashuvlar, AQSH boshchiligida NATO davlatlarining Rossiya – Ukraina mojorosiga tobora faol aralashayotgani, Rossiyaga nisbatan misli ko‘rilmagan sanksiyalar e’lon qilinishi jahon hamjamiyatini global to‘qnashuvga yaqinlashtirmoqda.

Xalqaro munosabalarda neokolonializm tendensiyalari kuchaymoqda. Endi rivojlanmagan mamlakatlar harbiy-siyosiy jihatdan bo‘ysundirilmaydi, kolonial adminstratsiya yordamida boshqarilmaydi. Endi ular to‘liq iqtisodiy va texnologik qaram qilinadi, “yumshoq kuch” yordamida o‘ziga bo‘ysundiriladi. Hodisani neoimperializm deyish mumkin.

Neoimperializm mafkuraviy aslahalari orasida har xil nazariyalar, konsepsiyalar, g‘oyalar mavjud. Zururatga qarab qaysi mintaqada qaysi damda ularning keraklisidan foydalanadi. Ba’zi nazariyalar, konsepsiyalar bevosita targ‘ibot-tashviqotga mo‘ljallanmagan, ilmiylikka da’vo qiladi. Biroq ularni neoimperializm o‘z maqsadlariga moslab talqin qiladi. Masalan, S.Xattingtonning 1994 yilda nashr etilgan “Tamaddunlar to‘qnashuvi” shunday asarlar sirasiga kiradi. Muallif fikricha, endi urushlardan maqsad iqtisodiy-siyosiy va harbiy hukmronlikka erishish emas, balki madaniy-g‘oyaviy ustunlikka erishishdir. Bu bilan Xattington, istaydimi-yo‘qmi neoimperializmning asl maqsadini niqoblaydi. S.Xattington “Biz kimmiz?” Amerika milliy identligiga tahdidlar” asarida ochiqchasiga bugun ingliz-protestant madaniyatiga ispanlashuv va multikultiralizm tahdid solayotir, deb yozadi.

F.Fukiyama, AQSHlik siyosatshunos, “Tarix intihosi” maqolasida totalitar tuzumlar va mafkuralar barham topib oxir-oqibat liberal demokratiya, ya’ni g‘arb qadriyatlari ta’siri ortib boraveradi deydi. Shunday ekan milliy madaniy meros, qoloq milliy va diniy urf-odatlardan, milliy identlikdan voz kechib, dunyo fuqarosiga aylanish lozim degan g‘oyani ilgari suradi. Yana ikki muallifning nomini keltirish lozim. Biri “yumshoq kuch” konsepsiyasi muallifi Jozef Nay, ikkinchisi Jin Sharp.

Neoliberalizm biror mamlakat aholisiga rivojlanish maqsadini aniq belgilab berolmadi. Bu nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish maqsadiga, shuningdek inson omili rivojlanishiga, yashashdan maqsad g‘oyasiga, hayot idealiga ham taalluqli. Shu sabab neoliberalizm mafkurasi tarqalgan joyda butun jamiyat va alohida inson hayotida kelajak ideali yo‘q. Ko‘pchilik hayoti maqsadsiz, ma’nisiz kechmoqda va absurdga aylandi. Bu ko‘pchilik odamlarda mamlakat ichida va xalqaro maydonda yuz berayotgan voqealarga befarqlikni keltirib chiqaradi. Natijada siyosiy, axloqiy va umuman g‘oyaviy infantillik vujudga keladi.

An’anaviy liberalizmda demokratiya ko‘pchilikning ozchilik ustidan hukmronligi sifatida tushuniladi. Ammo ozchilik manfaatlari to‘liq inkor qilinmaydi, qonun doirasida hisobga olinadi. Neoliberalizm esa ozchilikning ko‘pchilikni o‘z irodasiga buysundirishini yoqlaydi. Ozchilikka jamiyatda ustuvor imkoniyatlar yaratilishi haqiqiy adolat ekanligi to‘g‘risidagi g‘oyalar, siyosat va huquqda ikki xil standartlar qo‘llanilishi, shaxs jinsiy identligi masalasidagi “neytrallik” va h.k. neoliberalizm qanday mafkuraligini, kimlarning manfaatlarini ifodalashini ko‘rsatadi. Aslini olganda, bu almisoqdan qolgan elitar nazariyaning zamonaviy sharoitda neoliberalizmga moslashgan patologik, nosog‘lom shaklidir.

Neoliberlizm mafkurasi inson huquqlari va erkinliklari masalasida an’anaviy axloqiy qadriyatlarni tan olmaydi. Ustuvorlik formal huquqqa beriladi. Endi LGBT harakati, “gender betaraflik”, shahvoniy ozchiliklar huquqlari tajovuzkor targ‘ib etilmoqda. Bir jinsli nikohlarga ruxsat berilishi erkinlik va demokratiya darajasini belgilovchi mezonga aylantirilmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar aholisida “yumshoq kuch” yordamida milliy identligi va milliy qadriyatlariga nisbatan nigilistik munosabat zimdan shakllantirilmoqda. G‘arb ommaviy madaniyati va axborot ekspansiyasi neoimperializmning yana bir kuchli mafkuraviy vositasidir.

Neoimperializm “boshqariladigan xaos” nazariyasini yaratib, o‘ziga kerakli mintaqalarda vaziyatni izdan chiqarmoqda. Turli qo‘shni mamlakatlarni, yoki bir mamlakat ichida turli etnoslarni bir biriga gij-gijlamoqda. Jahonda sodir bo‘layotgan to‘qnashuvlarning, g‘alayonlarning, rangli inqiloblarning aksariyati “boshqariladigan xaos” nazariyasining amalga oshirilishiga misoldir.

Ikkiqutbli dunyo uchun mos BMT va uning ba’zi tashkilotlari bir qutbli dunyoda samaradorligini yo‘qota boshladi. Uni isloh qilish zarurligi tobora oydinlashmoqda. Balkim, “ko‘pqutbli dunyo” qaror topgach,

BMTni qanday va qaysi yo‘nalishlarda isloh qilish aniqroq bo‘lar. Bu davrga kelib, yana jahondagi siyosiy, harbiy va iqtisodiy kuchlar o‘rtasida qandaydir muvozanat, tiyib turish mexanizmi yuzaga kelar va h.k. Hozircha biror narsa deyish qiyin. Bir qutbli dunyodan ko‘pqutbli dunyoga o‘tish o‘ta ziddiyatli kechmoqda va uchinchi jahon urushi sodir bo‘lishiga real xavf tug‘ilmoqda.

Rossiya sobiq SSSRning vorisi sifatida unga tegishli eski qutbni saqlab qolishga harakat qilmoqda. Biroq Rossiya g‘arb neoliberalizmiga muqobil (alternativ) samarali model taklif eta olmadi. Aksincha, “rus dunyosi”, “provaslav sivilizatsiyasi” degan mavhum, eklektik, gegemonlikka da’vo maqsad sezilib turadigan g‘oyalar nafaqat sobiq sosialistik mamlakatlarni, shuningdek rivojlangan g‘arb davlatlarini ham tahlikaga tushirdi. Qattiq cho‘chigan sharqiy Yevropaning sobiq sosialistik davlatlari va sobiq SSSRning ayrim respublikalari NATOga qo‘shilish yo‘lini tanladi.

Rossiya ijtimoiy ongida sobiq sovet respublikalariga nisbatan bosim o‘tkazishni oqlash kuchaymoqda. Bunday chaqiriqlar oqibatida sobiq SSSR respublikalari qatorida mehnat migrantlariga nisbatan ham munosabat salbiy tomonga o‘zgarmoqda. Aniqrog‘i Rossiyaning tub aholisi migrantlarga qarshi ochiqchasiga gij-gijlanmoqda. Aksariyat hollarda o‘zini himoya qilishga uringan migrantlarning qonunbuzarliklari ko‘pirtirilib, jamoatchilikni jazavaga tushirishga intilishlar kuchayib ketdi. Rossiya va g‘arb o‘rtasidagi ziddiyatlar esa o‘ta xavfli tus olmoqda.

Zaxar Prilepin singari ayrim qalamkashlarning “Kiyevda g‘alaba paradini o‘tkazganimizdan keyin, uni Toshkentda ham o‘tkazishga bizga nima xalaqit bera oladi” qabilidagi tahdidga to‘la so‘zlari, yoki boshqa siyosatshunoslarning ozarbayjonlar va “o‘rta osiyolik millatlar, ayniqsa o‘zbeklar hech qachon bo‘lmagan, uni bolsheviklar, Lenin sun’iy yaratgan” degan ig‘vogarona fikrlarini tarqatish uchun Rossiyaning davlat telekanallaridan efir vaqti ajratilishi, yoki ayrim kimsalarning “Nima uchun Toshkent Qozog‘istonga emas, O‘zbekistonga berildi?”, marhum Jirinovskiy kabilarning “Tojiklar, nega sizlar jim turibsizlar?” – mazmunidagi ig‘vogorona xitoblari aslida qardosh xalqlar o‘rtasida o‘zaro ishonchsizlikni, bir biriga har xil talablar bilan da’vo qilishni, iloji topilsa, dushmanlikni keltirib chiqarishga qaratilgan. Agar shunday noxushliklar ro‘y berib qolsa, Rossiya o‘rtaga tomonlarni ajratuvchi kuch bo‘lib kirmoqchi.

Rossiya hukumati, xususan TIV vakillari “bu gapirayotgan kishining shaxsiy fikri, Rossiya hukumatining pozisiyasi mutlaqo boshqa”, deb

masalani xaspo‘shlamoqda. Amalda esa turli OAV, ayniqsa elektron vositalar orqali norasmiy, yarimrasmiy, hatto ba’zi bir rasmiy kimsalar (Davlat Dumasi a’zosi ayni rasmiy shaxsdir) Rossiya aholisini, jamoatchiligini keyingi harbiy-siyosiy bosqinchilikka tayyorlamayapti, deb kim kafolat beradi?

Ma’lumki, qadimgi Rim imperiyasida-yoq divide et impera – “bo‘lib tashla va hukmronlik qil” tamoyili o‘zga xalqlarni boshqarishning asosiy usuliga aylangan edi. Sovet hokimiyati mazkur tamoyilni ustalik bilan hayotga tadbiq etdi. Rossiyada neoimperialistik doiralar yana xalqlarni bir biriga nosog‘lom raqobatchiga aylantirmoqchi.

SSSR parchalangandan keyin O‘zbekiston o‘zining qardoshlik va tinchliksevar siyosatini amalga oshirib qo‘shni respublikalar bilan chegaralarni demilitatsiya qilib oldi, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy aloqalarini mustahkamlamoqda. Ammo ba’zi neoimperialistlarga bunday yaxshi qo‘shnichilik, albatta, yoqmaydi. Ular uchun “boshqariladigan xaos” kerak.

Globallashuv davrida an’anaviy urush mazmuni va shakli tubdan o‘zgarib, gibrid urushga aylandi. Endi qurolli to‘qnashuvlar, harbiy operatsiyalar “axborot urushi”, turli uydirmalarni tarqatish, kiber xujumlar, iqtisodiy sanksiyalarni qo‘llash kabi yangi vositalar, usullar bilan to‘ldirilgan. Bundan neoimperialistik guruhlar faol foydalanmoqda. Gibrid urush tahdidlari orasida milliy qadriyatlarni, odob-axloq, hatto kiyinish va tashqi ko‘rinishni, hatto jinsini o‘zgartirishga qaratilgan g‘oyalar, ko‘ngilochar o‘yinlar, mediamahsulotlar, ommaviy madaniyatning kitch mahsulotlari orqali o‘z milliy qadriyatlariga, milliy hayotiga, yashayotgan jamiyatiga nisbatan bepisandlikni, inkor qilish tuyg‘usini shakllantirish kabilar bor.

Ta’kidlash zarurki, neoimperializm o‘z maqsadlariga “yumshoq kuch” yordamida erisha olmasa, “maxsus harbiy operatsiya” deb atalmish bombardirovka va hatto qurolli kuchlarni kiritishdan toymaydi. Buni Liviya, Iroq, Tunis, Suriyaga qarshi AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya hamda ayrim NATO a’zolarining o‘tkazgan va Suriyada hamda Rossiyaning Ukrainaga qarshi hamon davom etayotgan harbiy operatsiyalarini misol qilib keltirish mumkin.

Neoimperializm uchun barcha xalqlar milliy identligidan, milliy g‘oyasi va maqsadlaridan voz kechishi, turmush tarzi va mentaliteti g‘arb andozalariga muvofiq “standartlashishi” kerak. Sun’iy intellekt keng qo‘llaniladigan to‘rtinchi sanoat inqilobi yuz berishi sharoitida mazkur tendensiyalar yanada ziddiyatli tus olishi aniq.

Bugun jahon jamoatchiligini ko‘pqutbli dunyo konsepsiyasi o‘ziga jalb

qilayotir. Geosiyosiy maydonga juda qudratli yangi da’vogar – XXR kirib keldi. Yana bir davlat - Hindistonning ham yaqin o‘rtada yirik mustaqil geosiyosiy o‘yinchi bo‘lishi kutilmoqda. Ko‘pqutbli dunyoga aylanish jarayoni mazmunan va shaklan yangi ziddiyatlarni tug‘dirmoqda, o‘zaro kurash va raqobatning yangi usullarini, shakllarini vujudga keltirmoqda.

Bunday murakkab geosiyosiy sharoitda O‘zbekiston juda oqilona, ehtiyotkor, ammo aniq va qat’iy siyosat yuritishi lozim. Zero, nyeoimperializmning iqtisodiy, moliyaviy, xalqaro to‘lovlar, kreditlar, investisiyalar hamda IT va kognitiv texnologiyalar bilan bog‘liq ko‘zga tashlanmas vositalari, dastaklari ko‘p.

BEKDAVLAT ALIEV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori,
falsafa fanlari doktori

YOSHLARDA TAHDIDBARDOSHLIKNI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Globallashuv jarayonlari tobora kengayib va chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017-yil 19-sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasiining 72-sessiyasidagi nutqida butun jahondagi 2 milliarddan ortiq yosh avlod vakillarining insoniyat taraqqiyotida muhim o‘ringa ega bo‘layotgani va yoshlar omilining alohida e’tiborni talab qilayotgani haqidagi fikri nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Yurtboshimizning ushbu anjumandagi “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir” degan xulosasi esa BMTga a’zo barcha mamlakatlar vakillarining diqqatini o‘ziga qaratgani bejiz emas[1]. Prezidentimizning Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar rahbarlari kengashining 2018 yil 10 iyundagi majlisida ilgari surilgan “BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasi”ni ishlab chiqish va qabul qilish to‘g‘risidagi taklifi ham ayni shu nuqtai nazardan nihoyatda dolzarb vazifalar mavjudligini anglatadi[2].

Bugungi insoniyat hayoti va jahon taraqqiyotining demografik holatiga ko‘ra, O‘zbekiston dunyo mamlakatlari orasida aholisi tez suratlar bilan o‘sib borayotgan davlatlar qatoriga kirishi ma’lum. Yurtimiz aholi orasida yoshlar sonining ko‘pligi bo‘yicha nafaqat Osiyo davlatlari, balki butun dunyo mamlakatlari o‘rtasida yetakchi o‘rinlardan birini egallab turibdi. Bu borada mamlakatimiz yoshlariga xos xususiyatlar nuqtai nazaridan, alohida ta’kidlash joizki, dunyodagi har bir davlat va jamiyat kabi, bizning mamlakatimizda ham, ushbu omilga alohida ahamiyat qaratilishi bejiz emas. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq 1991 yilning 20 noyabrida, Sobiq Ittifoq respublikalari orasida birinchilardan bo‘lib, “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinganligi buning yaqqol dalilidir.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda yoshlarning jamiyatdagi o‘rni va ular faoliyatining amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonidagi

ahamiyatini oshirish, bu jarayonda zamonaviy fikrlaydigan, tahdidbardosh yosh avlodni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Shu nuqtai nazardan, 1992 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bu borada muhim qadam bo‘lganini ham alohida ta'kidlash lozim. Asosiy qonunimizning 41-moddasida: "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir"; 45-moddasida: "Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg‘iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir"; 64-moddasida: "Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar"; 117-moddada: "O‘zbekiston Respublikasining o‘n sakkiz yoshga to‘lgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar" kabi qoida va me'yorlar aks etgan[3]. Konstitutsiyada respublikamizning barcha fuqarolariga taalluqli qoidalar bilan birga, yoshlarning huquqlari va faoliyat kafolatlari, ularga tegishli bo‘lgan ushbu va boshqa me'yorlar ham belgilab qo‘yilgani, o‘z navbatida, mustaqil mamlakatimizda istiqlolning ilk yillaridayoq ushbu sohaga oid davlat siyosati shakllanishi va uni amalga oshirish uchun mustahkam asos yaratilganini yana bir bor isbotlaydi.

Shu bilan birga, mamlakatimiz istiqlolga erishgan dastlabki yillarda qabul qilingan ushbu tarixiy hujjatlar, jamiyatimiz hayotining barcha sohalari kabi, bu borada bosh islohotchi bo‘lgan davlatimizning yoshlar masalasiga doir siyosatning strategik yo‘nalishlarini mustaqil taraqqiyotimizning boshidanoq to‘g‘ri belgilab olganligidan dalolat beradi. O‘z navbatida bu - o‘sha davrdayoq davlatimiz siyosatida yoshlar qatlamining jamiyatimizdagi o‘rni va mavqei tobora ortib borishi xalqimiz taraqqiyotiga xos asosiy xususiyatlardan biri ekanligi chuqur anglab olinganini ham isbotlaydi. Shu nuqtai nazardan, o‘tgan yillarda bu sohada tadrijiy va tizimli tarzda amalga oshirilgan tub islohotlarning bugungi kunga kelib yangicha dunyoqarash va demokratik tafakkurga ega bo‘lgan yoshlarning yangi avlodi shakllanishi uchun mustahkam tayanchga aylanishi jarayonini har tomonlama chuqur o‘rganish, qo‘lga kiritilgan natijalarni sarhisob qilish va bu boradagi tajribalarni umumlashtirish dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Bugungi kunda ushbu sohadagi davlat siyosatini takomillashtirish borasida tub burilish yuz berdi. Bu borada keyingi yillarda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida", "Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida" va "O‘zbekiston Respublikasi yoshlari kunini belgilash to‘g‘risida"gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

"O‘rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida", "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida", "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida", "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida"gi Qarorlari hamda "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida", "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida", "Istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarning malakasini oshirish "Iste'dod" jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida", Matbuot va axborot sohasida boshqaruvni yanada takomillashtirish to‘g‘risida"gi Farmonlari biz tanlagan mavzuning nazariy-metodologik asoslarini belgilaydi.

Bizning maqolamiz esa, muayyan darajada ushbu qonunlar, qarorlar va farmonlar hamda mavzuga oid boshqa hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi:

jahonning turli mamlakatlarida notinchliklar va ijtimoiy larzalar keskin tarzda ro‘y berayotgan bugungi globallashuv sharoitida O‘zbekiston yoshlarida tahdidbardoshlik tuyg‘usini shakllantirishning g‘oyaviy tamoyillarini ijtimoiy-falsafiy nuqtai – nazardan o‘rganish, bu bilan bog‘liq tushunchalarning mazmun-mohiyatini va zamonaviy ahamiyatini ochib berish;

hozirgi davrda jamiyatimiz hayotida shakllangan g‘oyaviy omillar va mafkuraviy tamoyillarning bugungi yoshlarda tahdidbardoshlik tuyg‘usini shakllantirish jarayoniga ta'sirini o‘rganish va shu asosda bu sohaning umumiy qonuniyatlari hamda mamlakatimizda tahdidbardosh avlodni shakllantirish jarayonining o‘ziga xos jihatlari va namoyon bo‘lish hususiyatlarini ko‘rsatish;

O‘zbekistonda yoshlarni tahdidbardosh avlod sifatida tarbiyalashning g‘oyaviy omillari ta'sirini yanada oshirish tizimining huquqiy asoslarini, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy omillarini tahlil qilish va ularning samaradorligini ta'minlash imkoniyatlarini ochib berish;

yoshlarni xatarli g‘oyalardan himoyalash jarayonida ularda tahdidbardoshlik tuyg‘usini shakllantrish va yanada takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash va bu boradagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar, g‘oyaviy tarbiya va yoshlarda turli buzg‘unchi g‘oyalar xurujiga qarshi mafkuraviy profilaktikani amalga oshirishning samarali yo‘llari va usullarini ko‘rsatish;

hozirgi davrda mamlakatimiz yoshlarida g‘oyaviy xurujlardan himoyalanish madaniyatini shakllantirish va ularda bu yo‘nalishdagi mustahkam tahdidbardoshlik immunitetini shakllantirishga xizmat qiladigan nazariy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqish.

“Avesto” zamonlaridan boshlab Sharq va G‘arb ijtimoiy-falsafiy tafakkurida aks etgan purma’no fikrlar, mutaffakkirlarning asarlari Sokrat va Platon, Aristotel va Konfutsiy, Al Buxoriy va At Termiziy, Al Xorazmiy va Forobiy, Beruniy va Ibn-Sino, Abu Homid G‘azzoliy va Aziziddin Nasafiy, Jaloliddin Rumiy va Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband va Nizomulmulk, Amir Temur va Alisher Navoiy kabi atoqli allomalarning g‘oyalari va ta’limotlarining bugungi tadqiqotlarimizga o‘ziga xos ta’siri borligi shubhasiz, albatta[4]. Bugungi kunda ana shunday mutafakkirlarning g‘oya va qarashlarini chuqur o‘rganish va ularning asarlaridagi fikr va qarashlarini keng targ‘ib etish imkonini beruvchi izlanishlar va tadqiqotilarga ehtiyoj ortib borayotgani aslo bejiz emas.

Shu bilan birga, jamiyatimizning rivojlanganlik darajasini, hozirgi globallashuv davrida ushbu yo‘nalishdagi turli g‘oyaviy tahdidlar va mafkuraviy xurujlarni ilmiy tahlil qilishda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning asarlari, ko‘plab ma’ruza va chiqishlaridagi mamlakatimizning yangi qiyofasini yaratish, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda ma’naviy omillarga alohida ahamiyat qaratish, ular asosida tarbiyalangan ma’naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularda xalqimizning ezgu intilishlariga sodiqlikni shakllantirish haqidagi fikr-mulohazalari nazariy-metodologik asos bo‘lganini alohida qayd etishimiz lozim. Ayni vaqtda, Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni va uning asosida qabul qilingan Harakatlar strategiyasi hamda 2017 yil 30 iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soha rivojini yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi qarori eng muhim va tayanch metodologik hujjatlardir. Ayni paytda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” (T.: “O‘zbekiston”, 2016.), “Tanqidiy tahlil, kat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” (T.: O‘zbekiston, 2017) kabi asarlari, jamiyatimiz taraqqiyotining ma’naviy-ma’rifiy sohalariga oid boshqa Qarorlari va Farmonlari ham tadqiqotimizning metodologik asosi bo‘lib hisoblanadi.

Bugungi globallashuv sharoitida mamlakatimiz yoshlarida

tahdidbardoshlik tuyg‘usini shakllantirishning g‘oyaviy tamoyillari ijtimoiy-falsafiy nuqtai – nazardan o‘rganiladi, va shu asosda ushbu muammo ilmiy-falsafiy tadqiqot ob’ekti sifatida tadqiq etiladi hamda uning nazariy va amaliy jihatlari ko‘rsatib beriladi;

Jamiyatimiz hayotida shakllangan g‘oyaviy omillar va mafkuraviy tamoyillarning bugungi yoshlarning ma’naviy qiyofasidan mustahkam o‘rin egallaydigan tahdidbardoshlik tuyg‘usini shakllantirish uchun ahamiyatini o‘rganish orqali bu jarayonning umumiy qonuniyatlari va o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga harakat qilinadi;

Hozirgi davrda yoshlarni tahdidbardosh avlod sifatida tarbiyalashning g‘oyaviy omillari ta’sirini yanada oshirishning samarali tizimini yaratishning huquqiy asoslari, ijtimoiy va ma’naviy omillarining ahamiyati ochib berish hamda ularning samaradorligini ta’minlash imkoniyatlari va istiqbollarini ko‘rsatiladi;

Bugungi yoshlarni turli tahdidlardan himoyalash jarayonining ustuvor yo‘nalishlari aniqlanadi, bu jihatdan yurtimizda amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ahamiyati, yosh avlod orasida olib boriladigan mafkuraviy profilaktikaning samarali yo‘llari va usullari ko‘rsatib beriladi;

Yoshlarda tahdidbardoshlikni mustahkamlash va mustahkam immunitetni shakllantirishga xizmat qiladigan nazariy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqiladi hamda ularni hayotga tatbiq etish imkoniyatlari ochib beriladi.

Xullas, yoshlar qatlami, uning jamiyatdagi o‘rni, hayoti va faoliyati bilan bog‘liq turli masalalar qo‘plab olimlar va mutaxassislar tomonidan o‘rganilmoqda, ularning xilma-xil jihatlari tadqiq qilinmoqda. Lekin mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida yoshlarda zamonaviy tahdidbardoshlik tuyg‘usini shakllantirish bilan bog‘liq ijtimoiy-falsafiy masalalar maxsus tadqiqot ob’ekti bo‘lmagan. Bu esa, o‘z navbatida mazkur yo‘nalishda maxsus tadqiqot olib borish hamda tegishli nazariy xulosalar chiqarish va amaliy takliflar tayyorlash zarurligidan dalolat beradi.

Maqolaning amaliy takliflari shundan iboratki, uning natijasida qo‘lga kiritiladigan natijalardan, matnida bayon etiladigan fikr-mulohaza va xulosalardan maktablarda “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Shaxs va jamiyat” fanlarini o‘qitishda, oliy o‘quv yurtlarida bakalavr, magistratura bosqichida “Falsafa asoslari”, «Axborot xavfsizligi», «Fanlarning falsafiy masalalari» kabi o‘quv kurslarning tegishli ma’ruzalarini o‘qitishda, akademik litsey, kollejlarda tahdidbardoshlik texnologiyalari asoslarini o‘rganishda foydalanish mumkin bo‘ladi.

Xususan, milliy o‘zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz lozim.

Eng muhimi esa, oldimizga qo‘ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo‘ladigan milliy g‘oyani yoshlarimizning ongiga va tafakkuriga singdirilib boriladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respubligasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi // http://uz24.uz/uz/politics/shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasining-72-sessiyasida-nutqi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar rahbarlari kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi // Xalq so‘zi, 2018. – 12 iyun, № 119 (7077).

3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2010.

4. Qarang: Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. – Toshkent: Sharq, 2001. – 358 b.; Platon. Davlat. – T.: Yangi asr avlodi, 2009; Aristotel. Politika Soch. 4. -M., 1984; Konfutsiy. “Lun Yuy” (“Besedы i sujdeniya”) –M., 1992.,

5. Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” T.: “O‘zbekiston”, 2016.

6. Mirziyoev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, kat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” T.: O‘zbekiston, 2017.

ILYOS ISLOMOV,
tarix fanlari doktori, professor

MA’NAVIY XAVFSIZLIK TUSHUNCHASIGA YONDASHUVLAR

Bugungi kunga kelib, milliy xavfsizlikka qaratilgan tahdidlar, jumladan, inson ruhiyatiga ta’sir o‘tkazish orqali diniy va milliy qadriyatlarga putur yetkazib, millat turmush tarzini izdan chiqaruvchi, umuman, jamiyat hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ma’naviy tahdidlar kuchayib bormoqda.

Ma’naviy tahdidlarning keng miqyosda tarqalishi xavfsizlik nazariyasida «ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash» tushunchasini keltirib chiqardi. Xavfsizlik muammolariga oid tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgi vaqtda ma’naviy xavfsizlik milliy xavfsizlikning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida yuzaga chiqdi va uning ajralmas qismiga aylandi.

Keyingi yillarda ilmiy muomalaga «ma’naviy xavfsizlik» va u bilan bog‘liq bir qancha tushunchalar kirib keldi. Ular borasida munozaralar ilmiy doiralarda davom etmoqda. Respublikamiz va xorijlik olimlarning ma’naviy xavfsizlik tushunchasiga bo‘lgan qarashlarini quyida tahlil qildik.

Ma’naviy xavfsizlik kategoriyasiga oid respublikamizdagi tadqiqotlar tahlili. Ma’naviy sohaga qaratilgan tahdidlarning kuchayib borishi mamlakatimizda ham ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash borasidagi tadqiqotlarning rivojlanishiga turtki berdi. Bir guruh faylasuf va siyosatshunos olimlarimiz tomonidan ma’naviy xavfsizlikning bir qancha qirralari tadqiq qilingan.

Xususan, falsafa fanlari doktori, professor S. Otamuratov milliy ma’naviyat milliy xavfsizlik tizimida alohida o‘rin tutishi va o‘zining tarkibiy qismlariga ega ekanligini qayd etib, milliy-ma’naviy xavfsizlik tushunchasiga:

• milliy ma’naviyatning barqaror taraqqiy qilishi uchun shart-sharoit, vaziyat, imkoniyatlarning mavjudligi;

• milliy ma’naviyatning o‘ziga xosligiga zid bo‘lgan turli ma’naviy, ruhiy, axloqiy va estetik tahdidlardan himoyalanganligi;

• milliy ma’naviyatning, umummilliy taraqqiyotning tabiiy ehtiyoji va amaliyotiga aylanganlik salohiyati [13] sifatida qarash mumkin, deydi.

Olim bugungi kunda milliy ma’naviyatimizga nisbatan tahdidlar, xattiharakatlarning makon va zamon nuqtai nazaridan shiddat bilan

kuchayib borayotganligini ta’kidlaydi.

Falsafa fanlari doktori, professor G.J. Tulenova O‘zbekistonda ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash zaruriyatining sabablari sifatida bir nechta omillarni keltiradi:

• birinchidan, tashkil topgan yosh suveren davlatlarni yana eski usuldagi «yaxlit mamlakat» tarkibiga qaytarishga bo‘lgan harakatlar;

• ikkinchidan, xalqlarning milliy ongi va milliy o‘z-o‘zini anglashlari shakllanishiga tajovuz qilishlar;

• uchinchidan, mavjud qiyinchiliklardan foydalanib, davlat barqarorligini beqarorlashtirish, xalqimiz imon va e’tiqodini oyoqosti qilib, yagona Islom davlatini qurish maqsadida harakat qilayotgan turli siyosiy, diniy, ekstremistik kuchlar mavjud»ligi [18].

Mazkur yondashuvda tadqiqotchi mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillarida yuz bergan bir qator qo‘poruvchilik harakatlari va voqealardan kelib chiqqan holda, ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashning zaruriyati sabablarini belgilagan. Hozirgi davrda globallashuv jarayonlari va axborot texnologiyalari yanada rivojlanib bormoqda. Bu esa yuqorida keltirilgan omillar va mafkuraviy qo‘poruvchilik harakatlarining kuchayishi, ularni amalga oshiruvchi tashqi kuchlarning faollashayotganligi ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash zaruriyatini yanada oshirmoqda.

Ma’naviy xavfsizlikka bo‘lgan yondashuvlarda millatning milliy tili, urf-odat va qadriyatlari mavjudligiga e’tibor qaratiladi. Jumladan:

Ma’naviy xavfsizlikka bo‘lgan yondashuvlarda millatning milliy tili, urf-odat va qadriyatlari mavjudligiga e’tibor qaratiladi. Jumladan:

• ma’naviy xavfsizlik mamlakatda yashayotgan xalqlarning milliy tili, urfodati va qadriyatlariga ega bo‘lishi [10];

• jamiyatda ma’naviy xavfsizlik – bu millat ruhiyati, or-nomusi, e’tiqodi, ma’rifiy salohiyatini ifoda etuvchi madaniyati, tarixi, milliy davlatchiligi asoslari to‘g‘risidagi qadriyatlari va qarashlari tizimi [19].

Haqiqatan ham, millatning urf-odatlari, qadriyatlari, madaniyati va tarixi kabi omillar ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Shuni ta’kidlash o‘rinliki, millatning milliy tili, urf-odatlari va qadriyatlariga ega bo‘lishining o‘zi bu ma’naviy xavfsizlik ta’minlanganligini to‘liq ifodalamaydi.

Bu borada K. Buzning xavfsizlikka bergan ta’rifini keltirish o‘rinlidir. Uning fikricha, xavfsizlik bu tanlash imkoniyatining mavjudligidir. Ushbu ma’noda xavfsizlik «mavjudlik va plyus» (plyus bu tahdidlardan xoli bo‘lish va shu boisdan muayyan tanlash imkoniyatiga ega bo‘lish) hisoblanadi [22]. (the plus being some freedom from life-

determining threats, and therefore space to make choices). Bundan kelib chiqadiki, faqat xavfsizlik obyektining mavjudligi uning xavfsizligini kafolatlamaydi [2]. Ma’naviy xavfsizlikda mavjud qadriyatlardan foydalanish imkoniyatlarining bo‘lishi va ularni boyitib borishni yo‘lga qo‘yish hamda turli tahdidlardan himoyalanganlik holatiga ham e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotchi N. Ochilova ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash uchun, avvalo, aholi turmush darajasini oshirish lozimligiga, ya’ni fuqarolarning moddiy va ma’naviy ne’matlar bilan ta’minlanganlik, ehtiyojlarining qondirilganlik holatiga e’tibor qaratgan. Shuningdek, shaxsning ma’naviy xavfsizligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar yaratish maqsadida to‘rt asosiy yo‘nalishdagi strategik faoliyat samarasini oshirish zarurligini ko‘rsatgan. Bular:

• aholi sog‘lig‘ini saqlash va sanitariya-gigiena xizmatini yangi bosqichga ko‘tarish;

• aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘liq ta’minlash;

• aholining maishiy muammolarini hal qilish mexanizmini shakllantirish;

• ijtimoiy-madaniy vaziyatni modernizatsiyalash [14].

Tadqiqotchining qarashlarini tasdiqlagan holda, shuni e’tirof etish lozimki, shaxsning maishiy turmush sharoitlarini yaxshilash uning ma’naviy xavfsizligini ta’minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Lekin asosiy e’tiborni shaxs ma’naviyatini rivojlantirish, uning mafkuraviy immunitetini shakllantirish va ma’naviy tahdidlarga qarshi kurash ishlariga qaratish ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashda ko‘proq samara beradi.

Tadqiqotchi A.T. Eshmuradovning ta’kidlashicha, ma’naviy xavfsizlik – milliy xavfsizlik tizimining negizi va uning tarkibiy qismi sifatida jamiyat, shaxs, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, harbiy, mafkuraviy, axborot, ilmiy, diniy va madaniy xavfsizlikni ta’minlashni o‘z ichiga olgan ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish tizimlari majmuidir [21].

Bizningcha mazkur yondashuvda keltirilgan milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, harbiy xavfsizlik sohalarini ma’naviy xavfsizlikka kiritish mumkin emas. Chunki, milliy xavfsizlikning har bir sohasi o‘zining maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti bilan bir-biridan farq qiladi.

Bundan tashqari, xavfsizlik nazariyasida shaxs, jamiyat va davlat birgalikda ko‘riladi. Yuqoridagi ta’rifda davlatning ma’naviy sohadagi manfaatlari chetda qolgan.

O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyatining bir guruh ijodiy jamoasi

tomonidan tayyorlangan «Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati»da ma’naviy xavfsizlik tushunchasiga quyidagi ta’riflar berilgan:

• ma’naviy xavfsizlik – inson, xalq va jamiyat a’zolarining ma’naviy xurujlar, g‘oyaviy tahdidlardan himoyalanish tizimi;

• ma’naviy xavfsizlik milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida ummumilliy manfaatlarning himoya qilinishga yo‘naltirilgan faoliyatdir;

• ma’naviy xavfsizlik deganda milliy manfaatlarni ta’minlash ehtiyoji bois vujudga keladigan va jamiyat a’zolari ma’naviy, g‘oyaviy-ruhiy hayotning barqarorligi va xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan faoliyat va uzluksiz jarayon tushuniladi [11].

Ushbu ta’riflarning yuqorida keltirilgan ta’riflardan farqli jihati shuki, ma’naviy xavfsizlikning tahdidlardan himoyalanish tizimi hamda ma’naviy hayotning barqarorligi va xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan faoliyat sifatida yondashilgan.

Ma’naviy xavfsizlikning mazmuni va mohiyatini yanada aniqlashtirish maqsadida xorijlik olimlarning mazkur tushunchaga bergan ta’riflarini ham quyida tahlil qilamiz.

Xorijlik olimlarning ma’naviy xavfsizlik tushunchasiga yondashuvlari

Ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashning yanada dolzarblashib borayotganligini hisobga olib keyingi yillarda xorijlik olimlar tomonidan ushbu yo‘nalishda ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqotlarni tizimli ravishda tahlil qilgan holda ma’naviy xavfsizlikka bo‘lgan yondashuvlarni besh guruhga ajratib tasniflash mumkin:

Birinchi guruh ta’riflarida N.A. Fedoryak, N.P. Zolotova va N.A. Rusakovalar ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash masalasini bu madaniy xavfsizlikni ta’minlash bilan bevosita bog‘liqligini ta’kidlashadi. Jumladan, rossiyalik sotsiolog olim N.A. Fedoryak ma’naviy xavfsizlikni jamiyat hayoti va taraqqiyotining yaxlit bir tizimi sifatida qayta tiklanishi, rivojlanishi va barqarorligiga madaniy salohiyat asosida imkon beruvchi ijtimoiy shartsharoitlarning yig‘indisi, deb hisoblaydi [20].

Muallif ma’naviy xavfsizlikning tarkibiy qismlari sifatida madaniy mustaqillik, siyosiy tizimning barqaror faoliyat ko‘rsatishi, o‘z-o‘zini rivojlantirib boruvchi sog‘liqni saqlash, madaniyat va milliy ta’lim tizimini ko‘rsatadi. N.A. Fedoryak ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashning madaniy jihatlar bilan bog‘liqligiga asosiy e’tiborini qaratadi.

Faylasuf olima N.P. Zolotovaning ta’riflashicha, ma’naviy xavfsizlik – jamiyat hayotining ma’naviy-mafkuraviy, axloqiy, madaniy asoslarining himoyalanganlik holatidir [6].

Siyosatshunos N.A. Rusakova: «Ma’naviy xavfsizlik – milliy xavfsizlikning bir sohasi bo‘lib, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy,

diniy-milliy asoslarni, jamiyat hayotining ko‘p qirrali bo‘lgan ma’naviy sohasini, madaniy qadriyatlarni, milliy madaniyatning o‘ziga xosligi va uning tarixiy ildizlarini yemirishga qaratilgan tashqi va ichki «xavf» hamda «tahdid»lardan himoyalanganligidir», deb ta’riflagan [16].

Har ikkala tadqiqotchining qarashlarida ma’naviy xavfsizlikni tashkil qilgan ma’naviy, mafkuraviy, madaniy va axloqiy asoslarning himoyalanganligiga e’tibor qaratilganini ko‘rish mumkin.

Ikkinchi guruh yondashuvlariga A.V. Vinogradov, N.N. Ponarina, Yu.V. Mikryukovlarning tadqiqotlarini kiritish mumkin, ularda ma’naviy xavfsizlik tushunchasi ma’naviy-axloqiy xavfsizlik sifatida talqin qilingan. Jumladan, A.V. Vinogradov ma’naviy-axloqiy xavfsizlikka ijtimoiy ong va millatning axloqiy sog‘lomligi, uning an’analari, ma’naviy qadriyatlari hamda turmush tarzining tashqi salbiy ta’sirlardan himoyalanganlik holati, deb ta’rif bergan [4]. Haqiqatan ham, keyingi yillarda ijtimoiy ongni izdan chiqarish, milliy an’analar va ma’naviy qadriyatlarni qadrsizlantirishga qaratilgan tahdidlarning kuchayib borayotganligi hisobga olinib, ulardan himoyalanganlik holati mazkur ta’rifda ma’naviy-axloqiy xavfsizlik sifatida qaralgan.

N.N. Ponarina ma’naviy-axloqiy xavfsizlik milliy manfaatlardan kelib chiqib o‘z ichiga ma’naviy, axloqiy fundamental qadriyatlar va an’analarni asrashni hamda har qanday tashqi tahdidlarga qarshi tura oladigan shaxs qobiliyatlarini tarbiyalashni nazarda tutadi [15].

Yu.V. Mikryukovning fikricha, ma’naviy-axloqiy xavfsizlikni ta’minlash uchun madaniy boyliklarni saqlash bilan bir qatorda, xalqni ma’naviy birlashtirib turgan milliy tilning o‘rnini saqlab qolish lozim [12]. Chunki, ma’naviy soha xavfsizligini ta’minlashda milliy til masalasi asosiy omillardan biri hisoblanib, milliy qadriyatlar va ma’naviy merosni kelajak avlodga yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

Shu o‘rinda ta’kidlash o‘rinliki, milliy qadriyatlarimizning asosiy ustunlaridan biri bo‘lgan ona tilimizga ana shunday yuksak e’tibor tufayli 1989–yilning 21-oktabr kuni qizg‘in bahs va tortishuvlardan so‘ng siyosiy-ma’naviy hayotimizdagi unutilmas hodisa amalga oshirilgani – o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgani istiqlol tarixining yana bir yorqin sahifasini tashkil etadi [8]. Bu esa, o‘z navbatida, ma’naviy xavfsizligimizni ta’minlashga qaratilgan muhim qadamlardan biri bo‘lgan edi.

Millatimizning ma’naviy merosi hamda axloqiy va madaniy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan o‘zbek tili nufuzini bugungi globallashuv sharoitida saqlab qolish, amaliyot ko‘lamini kengaytirish ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashning asosiy omillaridan biriga aylandi.

Uchinchi guruhda ma’naviy xavfsizlik kategoriyasining vatanparvarlik va axloq bilan bog‘liq jihatlari tahlil qilingan.

«Ma’naviy xavfsizlik – bu axloq va vatanparvarlik bilan bog‘liq bo‘lib, xalqning hokimiyatga bo‘lgan ishonchi hamda hukumatning ichki va tashqi siyosatini qo‘llab-quvvatlashi orqali davlat xavfsizligini ta’minlashi mumkin» [17].

Mazkur ta’rifga qo‘shilgan holda, shuni ta’kidlash o‘rinliki, davlat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolarning siyosiy xayrixohligi va hukumatga bo‘lgan ishonch darajasi muhim rol o‘ynaydi. Fuqarolarning hukumatga nisbatan xayrixohligi konstitutsion tuzumning mustahkamligi va uning izchil rivojlanishi uchun sharoit hozirlaydi hamda davlat barqarorligining eng muhim omili hisoblanadi. Shuningdek, fuqarolarning axloqi va vatanparvarligi ham davlat xavfsizligini ta’minlashda birlamchidir.

«Ma’naviy xavfsizlik» deganda jamiyatning axloqiy qadriyatlari, insonparvarlik va vatanparvarlik an’analari, mamlakatning madaniy va ilmiy salohiyati saqlab qolinishi va mustahkamlanishini ta’minlaydigan shart-sharoitlar tushuniladi. Shu bilan birga, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi bilan bog‘liq birinchi navbatdagi vazifalarni hal eta olish imkoniyatlari ham ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash sifatida qayd qilinadi [1].

Yuqoridagi ta’riflarda ma’naviy xavfsizlikning mazmuniga keng qamrovli yondashilgan bo‘lib, ma’naviy sohani rivojlantirishga yaratilgan shart-sharoitlar va imkoniyatlar ham ma’naviy xavfsizlik sanaladi.

To‘rtinchi guruhda ma’naviy xavfsizlikka sotsiologik masala sifatida yondashilgan va ijtimoiy sharoitlar yaratilganligiga e’tibor beriladi. Uning elementlari quyidagilar:

1. Subyektlar (individ, jamiyat, millat)ning madaniy-axloqiy qadriyatlarini saqlash va qayta ishlash qobiliyati.

2. Milliy madaniyat an’analarini himoya qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan mavjud institutsionallashgan tizim.

3. Ma’naviy-axloqiy rivojlanish uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratishga qodir mavjud ijobiy ijtimoiy madaniy muhit [3].

A.V. Korshunovning fikricha, ma’naviy xavfsizlik – jamiyatning bir tizim sifatida barqaror faoliyat ko‘rsatishi uchun ijtimoiy-madaniy salohiyat asosida innovatsion rivojlantirishga xizmat qilish maqsadida yaratilgan ijtimoiy shartsharoitlar hamdir [9].

Beshinchi guruh yondashuvlari sifatida tadqiqotchilar A.A. Vozmitel va A.I. Xvilya-Olinter ma’naviy xavfsizlikka siyosiy nuqtai nazardan qarab, unga quyidagi ta’riflarni berishgan:

• shaxs, jamiyat va davlatning ma’naviyatni ijobiy jihatdan yaratish,

rivojlantirish va asrash qobiliyati;

• shaxs, jamiyat va davlatning ma’naviy sohadagi hayotiy muhim manfaatlari va ehtiyojlarining himoyalanganlik holati;

• jamiyat hayotida subyektlar o‘rtasidagi munosabatlar tizimi, ya’ni ma’naviy hayot va ma’naviy rivojlanishga qulay sharoitlarning yaratilishi hozirgi Rossiyada asosiy o‘rinni egallashi lozimligi ta’kidlangan [5].

Mazkur ta’riflarda ma’naviy xavfsizlikni siyosiy omillar asosida sharhlashga harakat qilingan bo‘lsa-da, shaxs, jamiyat va davlatning nimadan himoyalanganligi ko‘rsatilmagan. Shu bois, bizningcha, xavfsizlikka oid konsepsiya va doktrinalarda keltirilgan an’anaviy yondashuvlarga tayangan holda, quyidagi ta’rifni berish maqsadga muvofiq: ma’naviy xavfsizlik shaxs, jamiyat va davlatning ma’naviy sohadagi manfaatlarining ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganlik holatidir.

Tahlil natijalaridan ko‘rinadiki, respublikamiz va xorijlik olimlarning ma’naviy xavfsizlik tushunchasiga yondashuvlarida ma’naviy xavfsizlikning u yoki bu jihatlari qamrab olingan.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, bugungi kunda milliy xavfsizlikni ta’minlashda ma’naviy omilning o‘rni yuksak ekanligi, ma’naviy tahdidlarga qarshi kurash dolzarb vazifalardan biriga aylanganligi sababli, xavfsizlik nazariyasida ma’naviy xavfsizlikni alohida soha sifatida tadqiq etishga ehtiyoj ortib bormoqda.

Ma’naviy xavfsizlik sohasi millatning ma’naviy yuksalishi, milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy-madaniy qadriyatlarni saqlab qolish, ularni tahdidlardan himoya qilish bilan bog‘liq jihatlarni o‘ziga qamrab oladi. Agar biror ilmiy muammoga nisbatan tegishli bilimlar to‘planishi, ishlanishi, tahlil va muhokama etilishini nazarda tutsak, O‘zbekistonda ma’naviy xavfsizlik sohasi hozirgi kunda tahliliy bosqichda deb aytish mumkin.

Mamlakatimizda ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashni samarali tashkil qilish, jumladan, mazkur sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish uchun asos bo‘ladigan O‘zbekiston Respublikasining Ma’naviy xavfsizlik konsepsiyasini ishlab chiqish va qabul qilish zarurati mavjud [7].

Ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan qonunchilikda va shu sohaga oid me’yoriy hujjatlar hamda davlat dasturlarini ishlab chiqishda ularning mazmunidan kelib chiqib, «ma’naviy xavfsizlik», «ma’naviy sohadagi manfaatlar» va «ma’naviy tahdid» atamalarini ishlatish lozim. Negaki, ilmiy manbalardan farqli o‘laroq, mazkur tushunchalar hozirgacha rasmiy manbalarda alohida ko‘rib chiqilmagan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Безопасность Евразии. Энциклопедический словарь-ежегодник. – М.: Книга и бизнес, 2003. – С. 76.

2. Бобокулов И.И. Миллий хавфсизликни таъминлашнинг назария ва амалиёти. Ўқув қўлланма – Т.: СТИБОМ, 2019. – Б. 30.

3. Викторов А.Ш. К проблеме духовности и духовной безопасности (социологическая рефлексия) Гуманитарное знание и духовная безопасность: сборник материалов III Международной научно-практической конференции (Грозный, 1-3 декабря, 2016 г.). Махачкала: ЧГПУ, АЛЕФ, 2016. – 408 с.

4. Виноградов А.В. Проблемы национальной безопасности // Право и безопасность. – М., 2003. – № 3(8). – С. 33.

5. Духовная безопасность России (актуальные теоретико-методологические и практические проблемы духовной безопасности): Научно методическое пособие / Иоанн (Попов), Возьмитель А.А., Хвыля-Олинтер А.И. – М., 2005. – С.23.

6. Золотова Н.П. Театр как социокультурный фактор духовной безопасности страны. Театр в современной России (состояние и перспективы) // Аналитический вестник Совета Федерации ФС РФ. – Москва, 1998. – № 4 (71). – С. 45–48.

7. Islomov I.N. Ma’naviy xavfsizlik. Monografiya. – T.: Complex Print, 2023. – 188 b.

8. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: «Ўзбекистон», 2011. – Б. 33.

9. Коршунов А.В. Проблемы изучения духовной безопасности российского общества в свременной научной литературе // Историческая и социально - образовательная мысль 2013, №2 (18) . – С. 124.

10. Мамадалиев Ш.О., Тожибоев М.Т. Ўзбекистон Республикасининг хавфсизлигини таъминлашнинг ғоявий асослари // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг ахборотномаси. – Тошкент, 2011. – № 2. – Б. 25.

11. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати / Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти; таҳрир ҳайъати: Х.Султонов ва бошқалар. Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ. Назаров. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – Б. 166.

12. Микрюков Ю. В. Обеспечение духовно-нравственной безопасности российских учащихся в современных условиях http://www. courier.com.ru/top/content/mkr/vpv-mkr-4.htm

13. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. – Т.: Ўзбекистон, 2013. – Б. 188.

14. Очилова Н. Шахснинг маънавий хавфсизлиги // Жамият ва бошқарув. – Т., 2009. – № 1. – Б. 35–37.

15. Понарина Н.Н. Глобализация и проблемы нравственной безопасности России // В сборнике: Направления модернизации современного инновационного общества: экономика, социология, философия, политика, право материалы Международной научно-практической конференции: в 3 частях. 2015. С. 165-167.

16. Русакова Н.А. Защита духовной сферы как фактор национальной безопасности России. http://www.transpress.ru/articles/0607/02_16.shtml

17. Словарь «Война и мир в терминах и определениях» http://www.voina–i–mir.ru

18. Туленова Г. Ёшларнинг ижтимоий фаоллигини оширишда маънавий омилнинг роли (ижтимоий-фалсафий таҳлил): Фалсафа фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2006. – Б.198.

19. Утамуродов А. Маънавий таҳдидлар ва уларни бартараф этишнинг методологик асослари // Маънавий таҳдидларга қарши курашиш механизмларини такомиллаштириш хавфсизликни таъминлаш омили сифатида: Республика илмий-амалий конференция материаллари (2019 йил 20 ноябрь). – Тошкент, 2019. – Б. 39-42.

20. Федоряк Н.А. Молодежь в системе обеспечения духовной безопасности Российского общества: основные угрозы и стратегии их преодоления: Автореф. дис. ... канд.. социологических наук. – Ростов-на-Дону, 2009 – С.13.

21. Эшмурадов А.Т. Жамиятда маънавий хавфсизликни таъминлашни такомиллаштириш технологиялари: Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2020. – Б. 14.

22. Ken Booth. Theory of World Security. – Cambridge: Cambridge University Press, 2007. – P. 102-106.

SANJAR SAIDOV,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Siyosiy fanlar doktori (DSc)

“XAVFSIZLIK” OMILINING KONSEPTUAL TAHLILI

Xavfsizlik muammosini uning turli jihatlarida tadqiq etar ekanmiz, bu borada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida sezilarli rivojlanishga erishgan “Hayot falsafasi” yondashuvlari muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlash lozim. Yondashuvlardan birining mohiyati shundaki, inson xavf ostidadir, chunki hayot barcha ko‘rinishlarida xavflidir. Xavf nafaqat muqarrar, balki barcha tirik mavjudotlar evolyusiyasi, ijtimoiy hayot taraqqiyotining zaruriy omili hamdir.

Inson, ijtimoiy guruhlar, jamiyat, davlat taraqqiyotining har bir bosqichida xavfsizlikni ta’minlash eng ustuvor vazifalardan bo’lib kelgan. Uni hal qilish tahdidlarning soni va mohiyatini, mavjud va istiqbolli vositalarni, ularni zararsizlantirish mexanizmlarini, shuningdek, xavfsizlik siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha maqsadli faoliyatni amalga oshiruvchi subyektlarni tizimli tushunish bilan bog‘liq bo‘lishi zarur.

Bu jararayonda esa “xavfsizlik” fenomeni ajralmas tushuncha hisoblanib, xavfsizlik siyosatini amalga oshirishning turli yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi. Jamiyat xavfsizligini mazmunli va har tomonlama o‘rganishga ajratilishi so‘nggi yillardagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi turli destruktiv ko‘rinishlar bilan bog‘liqdir.

1991-yillarda O‘zbekiston Respublikasining jamoat xavfsizligining yagona huquqiy asosini yaratish, bu sohadagi ijro etuvchi hokimiyat organlarining funksiyalarini chegaralashning konseptual asosi sifatida ishlab chiqishga harakat qilinganiga qaramay, jarayon ma’lum to‘siqlar sabab to‘xtab qolgan edi. Natijada faqat 2021-yilda O‘zbekiston Respublikasining jamoat xavfsizligi konsepsiyasi tasdiqlandi.

O‘rnatilgan huquqiy-siyosiy adabiyotlarda milliy xavfsizlik va jamoat xavfsizligi tushunchalarini aniqlashga yondashuvlar turlicha shaklda namoyon bo‘ladi. Bu atama ommaviy axborot vositalarida ham, kundalik tilimizda ham, ixtisoslashgan adabiyotlar va meyoriy hujjatlarda ham tez-tez qo‘llaniladi.

Turli ensiklopedik lug‘atlarda “xavfsizlik” tushunchasi hech kimga yoki hech narsaga xavf tug‘dirmaydigan vaziyat sifatida talqin qilinadi; xavfdan himoyalanish holati; xavfdan himoya qilish; xavfning yo‘qligi;

xavfsizlik, ishonchlilik va h.k. shaklida namoyon bo‘ladi. Siyosiy ensiklopediyada xavfsizlik – bu *“shaxs, jamiyat va davlat, shuningdek, jahon hamjamiyatining hayotiy manfaatlari va mavjudligining fundamental asoslarini ichki va tashqi tahdidlardan ishonchli himoya qilish holatidir”*[1], deya e’tirof qilingan. Metodologik adabiyotlarda “xavfsizlik” toifasining mohiyati va mazmunini ochib berishning juda ko‘p uslubiy yondashuvlari mavjud, ammo biz siyosatshunoslik doirasida aniqlangan yondashuvlarga asosiy e’tiborimizni qaratamiz.

Demak, siyosiy fanlarda xavfsizlik ma’lum bir tizimga taalluqli, bir qator tizimlar va shaxs, jamiyat va davlat organlari faoliyatining natijasi, shuningdek, xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan faoliyat jarayonining o‘zi sifatida talqin etiladi. Agar biz aniq mualliflarga murojaat qilsak, xavfsizlik tushunchasiga turli xil yondashuvlarni topishimiz mumkin. Bu yerda u tahdidlarning yo‘qligi, sotsiumning holati, milliy manfaatlarni himoya qilish, qadriyatlarni saqlash, ma’naviy-axloqiy ko‘rsatmalar sifatida namoyon bo‘ladi[2].

Xavfsizlik natijalarini tushunish va ilmiy tahlil qilish doirasida uning mohiyatini sinchiklab o‘rganish talab etiladi, chunki boshqa omillar qatori, bu xavfsizlik nimani anglatishiga bog‘liq. Falsafiy va siyosiy adabiyotlarda uchraydigan *milliy, harbiy, siyosiy, davlat* va *jamoat xavfsizligi* tushunchalarining mohiyati va mazmunini talqin qilish yagona talqin va ma’nodan uzoqligicha qolmoqda. Ularni batafsil ochib berilishi bizningcha ushbu kategoriyani talqin qilishning uchta yondashuvi asosida amalga oshirish mumkin bo’ladi. Bular sirasiga: **mafkuraviy (g‘oyaviy)**, **tizimli-falsafiy** va **aksiologik** yondashuvlar shakllarida tasniflash lozim.

Mafkuraviy yondashuv kontekstida xavfsizlik milliy manfaatlarni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish sifatida e’tirof qilinadi. Xavfsizlik konsepsiyasiga bunday yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, milliy manfaatlar xavfsizlik tizimida himoya qilinadigan mafkuraviy-g‘oyaviy sifat, deya qaraladi hamda unga nisbatan konseptual yondashuvni talab etadi.

Xavfsizlikni belgilashda *tizimli-falsafiy* yondashuv tarafdorlari tizimning (mamlakat, davlat, jamiyat ijtimoiy tizim sifatida) yaxlitligi, barqarorligi va normal ishlashini unga destruktiv ta’sirlar ostida ta’minlashga alohida e’tibor berishadi. Shu nuqtai nazardan, tanqid predmeti xavfsizlik tizimining yuqori dinamikasini tan olish, doimiy ravishda yangi tahdidlarni shakllantirish hisoblanadi[3]. Shu munosabat bilan tinchlik va barqarorlik holati xavfsizlikni ta’minlash uchun mutlaqo imkonsiz bo‘lib qoladi.

Aksiologik yondashuv nuqtai nazaridan xavfsizlik deganda

mamlakatning (xalqning, millatning) milliy merosini, moddiy va ma’naviy qadriyatlarini jiddiy zararlardan himoya qilish tushuniladi. Ushbu yondashuvlarni qiyosiy jihatdan o‘rganish asosida bizda faqat aksiologik yondashuv xavfsizlik konsepsiyasining turli jihatlarini eng to‘liq ochib berishga, yuzaga keladigan tahdidlar darajasini baholash va xavfsizlik samaradorligini asoslash mezonlarini yanada aniqlashga imkon beradi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bu, birinchi navbatda, xavfsizlikni aksiologik tushunish haqiqatda boshqa talqinlarni o‘z ichiga olganligi va ularning o‘ziga xos kamchiliklari va qarama-qarshiliklarini olib tashlash imkonini berishi bilan bog‘liqdir.

Bu borada Sharqda, jumladan bizning yurtimizda qadimgi davlatchilik an’analaridan kelib chiqib, ko‘plab tajribalar to‘plangan. Jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash milliy davlatchilik tariximizda ham alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Xususan, Amir Temur va temuriylar, xonliklar va undan keyingi davrlarda bunga ustuvor masalalardan biri sifatida qaralgan. Sohibqiron Amir Temurning “Temur tuzuklari”da quyidagi so‘zlar bor: *“... Har bir shahar va qishloqqa kutvol tayinlasinlarki, sipohu raiyat xavfsizligini ta’min qilsin va kimning biron narsasi o‘g‘irlansa, buning mas’uliyati uning zimmasida bo‘lsin. Va yana buyurdimki, yo‘l ustida kuzatuvchilar, zobitlar tayinlasinlarki, yo‘llarni qo‘riqlab, yo‘lovchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarini manzildan-manzilga yetkazib qo‘ysinlar”*. Zahiriddin Muhammad Bobur davrida xavfsizlikni mustahkamlash borasidagi barcha chora-tadbirlar, birinchi navbatda, tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash, jamoat tartibini saqlash, aholining o‘zaro totuv yashashiga imkon yaratishga qaratilgan.

Davlatda inson xavfsizligi va erkinligini ta’minlash dilemmasi dastavval Tomos Gobbs tomonidan ishlab chiqilgan edi. Ushbu siyosiy mutafakkirning falsafiy tadqiqotlari XVII asrga to‘g‘ri kelishiga qaramay, u tomonidan shakllantirilgan nazariy muammo, ham falsafiy, ham siyosiy-ma’muriy masala XXI asrda ham dolzarbligicha qolmoqda. Jamiyatni boshqarishning davlat mexanizmlari, inson hayoti va sog‘lig‘i xavfsizligi hamda uning davlatdagi erkinligining oqilona chegaralari o‘rtasidagi doimiy mutanosiblik bugungi kunda davlat boshqaruvini global demokratlashtirish fonida yangicha ohang kasb etmoqda.

Shaxs (inson), jamiyat va davlat manfaatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning optimal shakllarini hamda manfaatlar uyg‘unligini izlash tarixi bir nechta asrdan buyon dolzarb ahamiyat kasb etadi. Uzoq vaqt davomida olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar natijasida bunday o‘zaro bog‘liqlikning nisbatan muvozanatli g‘oyasi shakllandi: ijtimoiy

taraqqiyot ustuvorliklarini hisobga olgan holda jamiyat xavfsizligini ta’minlash siyosatini ishlab chiqishda shaxs manfaatlari birinchi navbatda e’tirof etilsa, jamiyat rivoji bilan bog‘liq tendensiyalar esa davlat boshqaruvini amalga oshirishning asosi bo‘lishi lozim.

Biroq, amalda jamiyat xavfsizligini ta’minlash maqsadida mazkur uch subyekt manfaatlarining optimal muvozanatining bunday nazariy konstruksiyasini amalga oshirish shaxs erkinligiga davlatning aralashuvini oqlaydi. Manfaatlar o‘zaro bog‘liqligini amalga oshirishning ushbu amaliyotiga tez-tez murojaat qilish umuminsoniy qadriyatlar va ommaviy (jamoat) manfaatlari prizmasidan ko‘rib chiqiladigan shaxs huquq va erkinliklarini cheklashda qo‘llab kelinadi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin inson huquqlari muammosi milliy masaladan xalqaro muammoga o‘sib chiqdi. Mavjud muammoni bartaraf etish variantlarini ishlab chiqish bo‘yicha maqsadli huquqiy chora-tadbirlar 1948 yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining[4] ishlab chiqilishi va qabul qilinishiga, shuningdek, BMT Nizomida[5] inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilish tamoyilining mustahkamlanishiga olib keldi.

O‘zbekistonning demokratik taraqqiyot yo‘li, erkin fuqarolik jamiyati va zamonaviy siyosiy boshqaruv modellarini joriy etish, avvalo, jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va xavfsizlik muhiti bilan chambarchas bog‘liq. Konstitusiyaviy islohotlar sharoitida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli ta’minlash, el-yurt tinchligi va osoyishtaligini hamda jamoat xavfsizligini mustahkamlash ustuvor yo‘nalishlar hisoblanadi. Birobarin davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “bugungi globallashuv davrida yangidan-yangi tahdid va xavf-xatarlar paydo bo‘lmoqda, jinoyatlarni sodir etish usul va vositalari, maqsadlari o‘zgarib bormoqda. Shularni hisobga olgan holda, mamlakatimizda tizimli va maqsadli chora-tadbirlarni ishlab chiqishni davrning o‘zi talab qilmoqda”[6].

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, mashhur siyosatshunoslarning uchinchi jahon urushi ehtimoli haqidagi: “Urush bo‘lmaydi, lekin tinchlik uchun shunday kurash bo‘ladiki, hech qanday tosh ustida tosh qolmaydi” deya ta’kidlashlari bugungi zamonaviy sharoitda juda dolzarbdir. Davlatning jamiyat hayotining turli sohalarini mavjud ichki va tashqi tahdidlardan oddiy himoya qilish vazifasi bosqichma-bosqich ravishda takomillashtirishni, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi mavjud xavf-xatar va tahdidlarning kengayishiga yo‘l qo‘ymaslikning siyosiy mexanizmlarini doimiy izlash, shuningdek, bunday rivojlanishga keng ilmiy jamoatchilikni jalb etishni taqozo etmoqda.

Dunyoda barqaror rivojlanishga erishishning muhim va birlamchi omili bu tinchlikdir. Bugungi kunda isbot talab etmaydigan bir haqiqat bor. Bu ham bo‘lsa, umumiy xavfsizlik tizimini bir davlat miqyosida yoki alohida tasavvur etib bo‘lmaydi. Birgalikdagi, global va mintaqaviy say-harakatlar natijasida umumiy bo‘lgan tahdid va xavflarga qarshi kurashish mumkin. Zero: “xavfsizlik – bo‘linmas, ishonch esa uning fundamental asosidir”.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Политическая энциклопедия: В 2 т. –Т.1. / Национальный общественно-научный фонд; Рук. проекта Г.Ю.Семигин; Науч.-ред. совет: пред. совета Г.Ю. Семигин. М., 1999.

2. Бондаренко М.В. Безопасность как социальная категория: формирование категориально-понятийного аппарата. Наука и практика., 2010.

3. Clifton Smith, Security Science: The Theory and Practice of Security. 2012, -P. 11.

4. Universal Declaration of Human Rights // https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights

5. United Nations Charter // https://www.un.org/en/about-us/un-charter

6. Мирзиёев Ш.М. Қонун устувор, адолат барқарор бўлса, жиноятчиликка ўрин қолмайди. 10.01.2019. // https://president.uz/uz/2237

ILHOM SUVANOV,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti Ilmiy kotibi, falsafa fanlari doktori (DSc)

“MAFKURAVIY TAHDID” TUSHUNCHASI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Jahonda vujudga kelgan murakkab vaziyat tufayli hozirgi davrning mafkuraviy tahdidlari tuzilishi yanada kengayib ketdi. Zamonaviy mafkuraviy tahdid omili siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma’naviy sohalarni, ya’ni, insoniyat jamiyati hamda hayotining barcha sohalarini qamrab olgan. Biz istaymizmi-yo‘qmi, bugun dunyo taraqqiyoti shu darajaga yetdiki, endi mafkuraviy kurash, ma’naviy salohiyat yetakchi o‘ringa chiqdi. Endi qurol-yaroqlar emas, mafkurasi, milliy g‘oyasi kuchli bo‘lgan yengib chiqadi. Mafkuraviy kurash bir jamiyat, mamlakat ichida ham, xalqaro va davlatlararo miqyosda ham davom etmoqda. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev - “dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, aholi barcha qatlamlarining axloqiy tarbiyasiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda”[8] – deya bejiz ta’kidlamagan. Ayni paytda, mafkuraviy tahdid orqali ko‘zlangan maqsadlarga erishishda ma’naviyat omilidan asosiy mexanizm sifatida foydalanilmoqda.

Mazkur holat axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning samaradorligini oshirish uchun ko‘plab nazariy muammolarni hal qilishni ham nihoyatda dolzarb vazifa qilib qo‘ymoqda. Xususan, “mafkuraviy tahdid” tushunchasini hozirgi davr talablaridan kelib chiqib, ilmiy jihatdan yanada chuqurroq anglash zarurligi muhim bo‘lib turibdi. Chunki, “Milliy ma’naviyatimizga mutlaqo begona bo‘lgan zararli g‘oyalar, tushuncha va qarashlar chegarani buzmasdan, bildirmasdan, ta’bir joiz bo‘lsa “chaqirilmagan mehmon” bo‘lib xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni, murg‘ak bolalarimizning pokiza qalbi va ongiga kirib kelayotganidan ko‘z yuma olmaymiz”[9].

“Tahdid” arabcha “do‘q qilish”, “qo‘rqitish”, degan so‘zdan olingan bo‘lib, kundalik hayotda “birovni qo‘rqitish, unga do‘q, po‘pisa qilish hamda biror falokatning, qo‘rqinchli voqeaning sodir bo‘lish xavfi”, degan

[8] Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2021. – Б. 285.

[9] Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2021. – Б. 268.

ma’nolarni anglatish uchun ishlatiladi”[10]. Falsafiy ma’noda “Tahdid – inson, jamiyat va davlat hayoti hamda faoliyatiga nisbatan muayyan davr mobaynida aniq maqsadga yo‘naltirilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va umumsayyoraviy salbiy omillarning tajovuzi tufayli aniq makon va zamonda vujudga keladigan xavf-xatar shakli, muayyan barqaror siyosiy-ijtimoiy va tarixiy vaziyatni ifodalovchi tushuncha”[11] bo‘lsa, jamiyatning rivojlanishiga ta’siri, ya’ni tor ma’noda esa, tahdid deb, makon va zamonda mavjud bo‘lgan real jamiyatning ijtimoiy tuzilmalarini zaiflashtirishga, qolaversa, yemirishga qaratilgan shaxsiy, mahalliy, hududiy, mintaqaviy omillarning qo‘rqitish, do‘q, po‘pisa qilishdan iborat bo‘lgan xatti-harakatlariga aytiladi.

“Tahdid” deganda, inson hayotiy faoliyati, umuman, yashashini chigallashtiruvchi hamda aniq tarixiy davr davomida aniq maqsad uchun yo‘naltirilgan ijtimoiy strukturani, to‘g‘rirog‘i, davlatning siyosiy asosini zaiflashtiruvchi, qolaversa, yemirishga qaratilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va nihoyat, umumsayyoraviy salbiy omillarning “kirib kelishi” tufayli yuz beruvchi makon va zamonda muayyan salbiy siyosiy ijtimoiy va tarixiy vaziyatni tushunish lozim”[12].

“Tahdid” fenomeni, uning siyosiy jihatlari sayyoramizning turli mamlakatlarida ijod qilayotgan zamondosh tahlilchilar hamda siyosiy va jamoat arboblarining e’tiborini ham o‘ziga tortib kelmoqda. Shu jumladan, Reyshauer, Nibur, Xantington, Kissinjer (AQSh), Toynbi (Angliya), Turen (Fransiya), Moiseev (Rossiya), qolaversa “Rim klubi” va Raguosh tinchlik harakati kabi ilmiy-amaliy muassasalar rahbarlari va fidoiylari faoliyatini misol tariqasida keltirish mumkin”[13].

Bugungi globallashuv jarayonlari shiddat bilan kechayotgan bir davrda ma’naviyatga qarshi qaratilgan bunday mudhish xavf – xatarlar azaliy umuminsoniy g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan islom dini bilan bevosita bog‘liq milliy qadriyatlarimizning ildiziga ham bolta urishga xizmat qilmoqda. “Binobarin, ma’naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o‘z - o‘zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog‘lom avlod kelajagini ta’minlash yo‘lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi

[10] Яхшиликов Ж.Я., Муҳаммадиев Н.Э. Миллий ғоя – тараққиёт стратегияси. – Тошкент: Фан, 2017. – Б. 315.

[11] Маънавият: асосий тушунчалар ва изоҳли луғат. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2009. – Б. 546-547.

[12] Пахрутдинов.Ш.”Таҳдид” тушунчаси: назария ва амалиёт. – Тошкент: Абу Али ибн Сино, 1998. – Б. 6-8. (https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/10418-2021-04-16-04-29-20).

[13] Пахрутдинов.Ш.”Таҳдид” тушунчаси: назария ва амалиёт. – Тошкент: Абу Али ибн Сино, 1998. – Б. 6-8.

va oxir oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin”[14].

“Tahdidlar turli-tuman: ichki va tashqi, katta va kichik, makon nuqtai nazaridan esa uzoq va yaqin bo‘lishi mumkin. Qanday bo‘lishidan qat’iy nazar ularga nisbatan bamaylixotirlikka yo‘l qo‘yish yoki ularni “saralash” bilan ovora bo‘lib vaqtni boy berish hollari uchrab turadi. XX asr voqealari shundan guvohlik berib turibdiki, tahdidlarni toifalashda ularni shartli ravishda iqtisodiy, sotsial, siyosiy, ekologik, demografik, mafkuraviy, harbiy, tabiiy – iqlimiy va ma’naviy tahdidlarga ajratib ko‘rish va tahlil etish mumkin”[15].

Bugungi kunda o‘zbek xalqining tinch-osuda yashashiga, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma’naviy-madaniy tuzilmalariga nisbatan bo‘layotgan tahdidlarni quyidagi tur va shakllarga ajratish mumkin.

Siyosiy tahdidlar: tashqaridan reaksion ekstremistik partiya va boshqa uyushmalarning kirib kelishi va buzg‘unchi g‘oyalarni tarqatishi; har xil “rangli inqilob”lar bahonasida mamlakatning ichki ishlariga aralashish; diniy ekstremizm va separatizm; xalqaro terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, qurol-yarog‘ savdosi, narkotik moddalarni tarqatish; hokimiyatning yuqori bo‘g‘inlarida korrupsiya va poraxo‘rlikning avj olishi va boshqalar.

Iqtisodiy tahdidlar: “xufyona” iqtisodiyotni avjga chiqishi; iqtisodiy dezintegratsiya; banklarning to‘lov qobiliyatini yo‘qotishi; tashqi kuchlarning jahon iqtisodiyotiga yo‘l qo‘ymaslikka urinishi; raqobatga bardosh berolmaslik va ishsizlikning yuqori darajada mavjudligi va boshqalar.

Bularni shartli ravishda ichki va tashqi tahdidlarga ajratish mumkin.

1. Tashqi tahdidlar deb buzg‘unchi kuchlarning mamlakatga tashqaridan kirib kelgan holda uning ijtimoiy tuzilmalarini yo‘q qilishga, xalqni ma’naviy-mafkuraviy jihatdan parokandalikka uchratib, o‘zlariga tobe qilishga qaratilgan xurujlarga aytiladi.

2. Ichki tahdidlar deb “o‘z vataniga, vatandoshiga zarar yetkazishga qaratilgan g‘oya, hatti-harakatlarga aytiladi, odatda, nosog‘lom mahalliychilik; yonidagilarni mensimaslik; vatandoshlarning haqiga xiyonat qilish; “ma’naviy emigratsiya” (baxtini o‘z vatanidan emas, o‘zga joylardan qidirish); odamlarni boy kambag‘alga bo‘lib muomala qilish; poraxo‘rlik va korrupsiya; qo‘pollik; ashaddiy millatchilik; merkantilizm - ortiqcha mol-dunyoga hirs qo‘yish; befarqlik va loqaydlik; o‘zligini

[14] Раматов Ж.С., Рахимова М.И., Ҳасанов М.Н. Мафкуравий таҳдидларни олдини олишда исломий қадриятларнинг ўрни. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 6 | 2022. – Б. 1033. https://t.me/ares_uz.

[15] https://soglom.uz/archives/ Ашурова Г. Мафкуравий таҳдид: энди ҳимоялан-маймиз, балки қарши курашамиз.

anglamaslik va boshqa shu kabi illatlar shaklida bo‘ladi”[16].

Xo‘sh, “tahdid” kuchmi yoki xodisa, omil yoxud jarayon; ularning negizida nimalar turadi; u xavf-xatardan nimalari bilan farq qiladi, degan bir qator savollarga javob qaytarish kerak bo‘ladi.

Avvalo, shuni ta’kiddash lozimki, bu tushunchaning maqomiga aniq javob qaytarish murakkab masala. Chunki, uning real holatda faqat qurol vositasidagi ko‘rinishini aniq tasavvur yetish mumkin. Boshqa barcha holatlarda ko‘zga ko‘rinmas, mavhum, zimdan amal qiladi. Uning ana shu ta’siri moddiy borliq sifatida namoyon bo‘lgandagina uni sezish, anglab yetish va kurish mumkin bo‘ladi. Bu uzoq davom etadigan jarayondir.

Ma’naviyatga qarshi qaratilgan tahdidlarning mohiyati va ta’sirini tez anglab yetishning murakkab jihati, uning ong va dunyoqarash bilan bog‘liqligidir. Inson botiniga joylashib olgan har qanday salbiy ta’sirlardan ozod bo‘lishi juda murakkab masala hisoblanadi.

Ana shu fikrimizga asoslanib aytish mumkinki, tahdidga moddiy kuch, omil va nazariy jarayon sifatida qarash mumkin. Qachonki, u moddiylik asosida (qurol, vosita ko‘rinishida) yuzaga keladigan bo‘lsa, kuch darajasida namoyon bo‘ladi. Ma’naviyat, g‘oya va mafkuralar ko‘rinishida yuzaga kelgan tahdidlarning barchasi ong va dunyoqarashga joylashadigan bo‘lsa, u asta-sekin moddiylikka aylanadi. Bu tahdidning nazariy jarayon sifatidagi jihati hisoblanadi. Ularning barcha ko‘rinishi taraqqiyot uchun nihoyatda xatarlidir”[17]. Bunday ko‘z ilg‘amas tahdidlar qancha keng tarqalsa, o‘zbeklarning g‘oyaviy birligiga shuncha ko‘p zarar yetkazadi, parokanda qiladi, hamjihatlik bo‘lmaydi. G‘oyaviy birligi mo‘rt millatning davlat xavfsizligi ham mo‘rt bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Маънавият: асосий тушунчалар ва изоҳли луғат. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2009.
2. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2021.
3. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфеизлик. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – Б. 259.
4. Пахрутдинов.Ш.”Таҳдид” тушунчаси: назария ва амалиёт. – Тошкент: Абу Али ибн Сино, 1998.
5. Раматов Ж.С., Рахимова М.И., Ҳасанов М.Н. Мафкуравий таҳдидларни олдини олишда исломий қадриятларнинг ўрни. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 6 | 2022. – Б. 1033. https://t.me/ares_uz.
6. Яхшиликов Ж.Я., Муҳаммадиев Н.Э. Миллий ғоя – тараққиёт стратегияси. – Тошкент: Фан, 2017.
7. https://soglom.uz/archives/ Ашурова Г. Мафкуравий таҳдид: энди ҳимояланмаймиз, балки қарши курашамиз.

[16] Яхшиликов Ж.Я., Муҳаммадиев Н.Э. Миллий ғоя – тараққиёт стратегияси. – Тошкент: Фан, 2017. – Б. 316.

[17] Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфеизлик. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – Б. 259.

AZIZBEK EGAMBERDIEV,
Andijon davlat pedagogika instituti professori,
falsafa fanlari doktori

OLIY TA’LIM TRASFORMATSIYASINING MAFKURAVIY O‘ZANI

Oliy ta’limning taraqqiyoti haqida Frensis Bekon aytadi: «Bilim – kuchdir». Buni zamonaviy tilga o‘giradigan bo‘lsak, ijtimoiy hayotimizda «Bilim bu – o‘zgarishlardir va bilimlarning o‘zlashtirilishi texnologiyalarning buyuk dvigatelini to‘yintirib, ushbu o‘zgarishlarni tezlashtirib yuboradi»[1]. G‘arbdagi ta’lim paradigmasining yashovchanligi va muvaffaqiyatining eng muhim jihati ham oliy ta’limda yuz berayotgan o‘zgarishlar manbalaridan biri sifatida qaraladi. So‘nggi yillarda oliy ta’limning inson kapitalini rivojlantirishdagi determinantligini shubha ostiga qo‘yish, ta’limning boshqa shakllari ham ijtimoiy taraqqiyotga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi haqidagi konsepsiyalar paydo bo‘ldi. Zamonaviy faylasuf olim Yu.Hararining fikricha: «U yer-bu yerda odamlar yangi texnologiyalarni ishlab chiqishdi, lekin ularni odatda ilmiy tadqiqotlar olib boradigan olimlar emas, balki sinov va xatolarga asoslangan holda ma’lumotsiz hunarmandlar yaratdilar»[2]. Olim liberalizmning oliy ta’limdagi mafkura darajasiga ko‘tarilishini tanqid qilib, quyidagilarni yozadi: «Liberal maktab va universitetlarda talabalar o‘zlari mustaqil fikrga ega bo‘lishga o‘rgatiladi. Tijoratchilar «faqatgina tatib ko‘r» degan shior bilan harakatlanishadi. Jangari kinolar, sahna dramalari, seriallar, romanlar va jozibador pop qo‘shiqlar doim bizga quyidagilarni ta’kidlab keladi: «o‘zligingcha qol», «o‘zingni eshit», «yuragingga quloq sol» kabi»[3]. Oliy ta’limga liberal yondashuv, ayniqsa, asosiy maqsad ta’limning moddiy boylik yaratishga qaratilishi, jamoadagi kuchli raqobat ham lokal xohish-istaklarning ustuvor bo‘lishi qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu, ayniqsa, yirik iqtisodiy qudratga ega bo‘lmagan jamiyatlarni faqat arzon ishchi kuchi yoki malakali mutaxassis tayyorlovchi bazaga aylantirib qo‘yilishiga olib kelishi mumkin.

S.Xantingtonning ziddiyatlarga to‘la izlanishlarida oliy ta’lim transformatsiyasiga o‘zgacha yondashuv kuzatiladi. «G‘arbiy mustamlakalarda ham, Xitoy va Yaponiya kabi mustaqil mamlakatlarda ham «birinchi modernizatsiya» yoki «postmustaqillik» avlodi ko‘pincha xorijiy (g‘arbiy) universitetlarda g‘arbiy kosmopolit tilidan dars olishgan. Qisman ular birinchi tajribaga ega o‘spirin sifatida chet elga chiqishganligi sababli, ularning G‘arb qadriyatlari va turmush tarzini o‘zlashtirishi juda foydali

bo‘lishi mumkin. Ikkinchi katta avlodning aksariyati, aksincha, birinchi avlod tomonidan yaratilgan universitetlarda tahsil oladi va ta’lim berish uchun mustamlaka tilidan ko‘ra mahalliy tildan ko‘proq foydalanadilar»[4]. Sivilizatsion to‘qnashuv nuqtai nazaridan hozirgi vesternizatsiya ma’lum bir davrgacha davom etadi, xolos. Ya’ni keyinchalik G‘arb madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lgan chet el universitetlarining o‘qitish modeli inkor etilishi, milliy shakldagi oliygohlar tizimi vujudga kelishi ham mumkin. Ayniqsa, dunyodagi totalitar yoki avtoritar rahbarlar o‘zlarining farzandlarini G‘arbdagi eng yaxshi universitetlarda o‘qitishi, keyinchalik hokimiyatni qo‘lga kiritgan vorislar mamlakatni an’anaviy tarzda emas, zo‘ravonlikka asoslangan holda boshqarishida bu yaqqol namoyon bo‘ladi. Misol uchun, dunyodagi eng qattol diktator Kim Chen I Shvesariyada, Bashar Asad esa Buyuk Britaniyadagi xususiy ta’lim muassasalarida o‘qiganligi ma’lum. Ko‘rinib turibdiki, mamlakat boshqaruvini tanho ravishda o‘z qo‘lida to‘plagan, liberal qadriyatlar muhitida ta’lim olgan liderlar ham olgan bilimlarini amalda har doim qo‘llayvermaydilar. Umumiy ma’noda elitaning bilimdonligi butun jamiyat farovonligiga xizmat qilavermaydi. Bu esa qadimdan Sharqda uqtirib kelingan dono podshoh konsepsiyasiga anchayin zid keladi.

«Biz oliy ta’limning ma’rifiy maqsadlariga e’tibor qaratishimiz kerak. Bu oliy ta’limning transformatsion tabiatini aniqroq tushunib olishga yordam beradi»[5], deb yozadi Global oliy ta’lim markazi (*Centre for Global Higher Education*) tadqiqotchisi P.Elvin. Universitetlar faoliyatiga transformatsion yondashuvda asosiy e’tiborni ta’lim xizmatlari marketingiga qaratish oliy ta’limning muhim yo‘nalishi – ma’rifat tarqatishga xalaqit berayotgani sezilib qolmoqda. Forbes jurnalining ma’lum qilishicha, Amerika Qo‘shma Shtatlarida to‘rt yillik bakalavriatda o‘qish 1986 yilda 26 902 dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2016 yilga kelib 104 480 dollarni tashkil etdi. Bu esa mos ravishda shartnoma narxi har yili 2,6 foizga o‘sganini ko‘rsatadi. Ana shu muddatda professor-o‘qituvchilarning o‘rtacha ish haqi 0,3 foizga o‘sgan, xolos[6]. Shu bilan birga, 2019 yil boshiga kelib talabalarning o‘qish uchun olgan kreditlaridan o‘tib ketgan qarzdorligi 1,4 trln. dollarga yetgan[7]. Haddan ortiq monetizatsiya oliy ta’lim muqobil variantlarining keng ommalashuviga sabab bo‘lmoqda. Jumladan, internet tarmog‘ida hozirgi kunda minglab bepul ta’lim platformalari mavjud bo‘lib, ularda moddiy sarf-xarajatlarsiz sifatli bilim olish mumkin.

Bu esa O‘zbekistondagi oliy ta’lim transformatsiyasi g‘arb ta’lim modellarini milliy darajada amaliyotga tatbiq etish bilan bog‘liq kechmoqda, deyishga asos bo‘ladi. Hozirgi kunda ommalashgan G‘arbda

ta’lim olgan yuqori malakali mutaxassislarni boshqaruv organlariga qo‘yish ijobiy natija bermasligi mumkin. Chunki o‘zgarishlarni amalga oshiradigan asosiy kontingentning bilim darajasiga ko‘p narsa bog‘liqdir.

O‘zbekistonda oliy ta’lim transformatsiyasi jarayonida neoliberalizm elementlari paydo bo‘lmoqda. Zero, neoliberalizm nafaqat iqtisodiy, balki ta’lim sohasiga ham bozor iqtisodiyoti qonunlarini amaliyotga tatbiq etishni taqozo etadi[8]. **Ya’ni, oliy ta’limni biznes faoliyatining bir turiga aylantirish butun dunyo bo‘ylab kuzatilmoqda va buning oqibatida esa oliy ta’limni qadriyat deb biladigan ijtimoiy qatlam soni kamayib boradi.** Chunki oliy ta’lim muassasasiga kirish uchun sarflangan resurslar (vaqt, moddiy xarajatlar va h.k.) miqdori pastlab bormoqda va oliy ma’lumotli jamiyat a’zolari soni bilan ularga taklif etilayotgan ish o‘rinlari soni o‘rtasidagi proporsiya ham teskari tomonga o‘zgarmoqda.

Oliy ta’lim transformatsiya jarayonining boshlanishi natijasida ushbu jarayonni ijtimoiy va ilmiy muammo sifatida o‘rganish, rivojlanish istiqbollarining asosiy yo‘nalishlarini aniqlash hamda mavjud muammolarni jahonning eng rivojlangan davlatlari tajribasidan kelib chiqib hal qilish zarurati mavjud.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Toffler E. Shok budущego: per. s angl. – Moskva: Izdatelstvo ACT, 2002. – S. 45.
2. Harari Yu. Insoniyatning qisqacha tarixi: https://t.me/nurbekalimov/719
3. Xantington S. Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi: https://t.me/c/1463444525/39
4. Paul Ashwin. Higher education is about transformation. // URL: https://www.universityworldnews.com/post.php?story=20190408084550435 (Murojaat etilgan sana: 28.05.2020 y.).
5. Camilo Maldonado. Price Of College Increasing Almost 8 Times Faster Than Wages. // URL: https://www.forbes.com/sites/camilomaldonado/2018/07/24/price-of-college-increasing-almost-8-times-faster-than-wages/#3b428af666c1 (Murojaat etilgan sana: 28.05.2020 y.).
6. Ivan Gridin. Amerikansы nakopili bespretsedentnыe dolgi po kreditam. Po ipoteke pobit rekord 2008 goda. // URL: https://newdaynews.ru/inworld/669403.html (Murojaat etilgan sana: 28.05.2020 y.).
7. Timoti Shenk, Vendi Braun. Chto je takoe neoliberalizm? Demokratiya po rынochnoy stoimosti. Postanovka problemы. // URL: http://gefter.ru/archive/15006 (Murojaat etilgan sana: 29.05.2020 y.).

DAVRON MUITOV,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, siyosiy fanlar nomzodi

AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING SHIDDAT BILAN RIVOJLANISHI: AXBORIY-MAFKURAVIY USTUNLIKKA ASOSLANGAN TENDENSIYALARNI TAHLIL ETISH ZARURATI

So‘nggi yillarda zamonaviy dunyoning geosiyosiy xaritasidagi o‘zgarishlar ham yuz berayotgani ko‘pchilikka yangilik emas. Ustiga-ustak jahon siyosati ham ko‘z o‘ngimizda o‘ziga xos shiddat va vajohat ila o‘zgarib bormoqda. Zero axborot inqilobi davri geosiyosatning noan’anaviy subyektlariga yangi o‘yin sahnalarini yaratib berdi. Ya’ni, makon-zamonning mutlaqo yangi bir o‘lchovi - virtual shakli bo‘lmish geosiyosat subyekti kashf qilindi. U amaliyotga shiddat bilan joriy qilindi, axborot to‘lqini shu tariqa geosiyosat olamidagi o‘yinchilarning kuch-qudratini o‘ziga xos sinovlardan o‘tkaza boshladi.

Qolaversa, hayot bizning xalqaro siyosat xaqidagi tasavvurlarimizni aynan jurnalistika orqali ma’naviy-ruhiy, sivilizasion va madaniy omillar tufayli o‘zgartirib yubormoqda. Tadqiqotchilar endilikda geosiyosatning axborot resurslari, axborot raqobatining muammo va ziddiyatlari, axborot urushlarining zamonaviy falsafasiga murojaat qila boshladilar. Jumladan, jurnalistikaning o‘zi ham yangi geosiyosiy tusdagi “*rangli inqilob*”, “*arab bahori*” kabi fenomenlarga xalqaro siyosatda hokimiyatni taqsimlovchi kuchli geosiyosiy instrument sifatida e’tibor bera boshladi.

Shu tariqa axborot inqilobi zamonaviy geosiyosatning yangi makonlarini zabt etish uchun kurashda virtual texnologiyalar hukmronligi davrini boshlab berdi. Bu o‘ziga xos “geosiyosiy boshboshdoqliq, mavhumlik, tushunmovchiliklar” haqida gap-so‘zlarni ko‘paytirdi. Eski geosiyosiy paradigmalar bamisoli qumga tushgan suvday sarobga aylanib ketdi. Shiddat bilan axborot asri jurnalistikasi geosiyosatga yangi makon “*virtual*” o‘lchovining siyosiy jihatdan o‘zgartirilgan shakllarini olib kirdi. Natijada, ijtimoiy-siyosiy tafakkur geosiyosiy kurashlarning yangi me’yor va qoidalarini yangitdan, qayta anglashga o‘tdi. Axborot qurolining raqibni mag‘lub etishdagi roli benihoya kuchaydi.

Axboriy jamiyatda makonni nazorat qilishning asosiy vositasi shaxs ustidan ma’naviy-mafkuraviy nazorat qilish isbotlangan haqiqatga

aylandi. Ya’ni asosiy maqsad – bir qator muayyaan millat va xalqlarning dunyoqarashini boshqarish bo‘lib qoldi. Ayniqsa xalqaro jurnalistik tahlillardagi makon uchun kurashning axborot maydonida yaqqol namoyon bo‘la boshlashi - postklassik geosiyosat to‘g‘risida ilmiy qarashlarga o‘zgarishlar kiritishi joiz edi. Axborot inqilobi davrida xuddi shu madaniy-ma’naviy, milliy-ruhiy omillarga e’tibor berish zo‘raydi.

Zotan, hozirgi kunda makon uchun olib borilayotgan axborot urushlarining asosiy g‘oyasi – geosiyosiy raqiblarga oldindan rejalashtirilgan va dasturlashtirilgan dunyoning axboriy qiyofasini majburan singdirish, shu tufayli uning boshqaruv tizimini butunlay boshqarishga harakatlar – geosiyosat va jurnalistika yo‘nalishidagi tadqiqotlarni tubdan yangilab borishni talab etmoqda.

Qolaversa, jahon siyosatida sovuq urush davridan beri yangi geosiyosiy e’tiqod “*Raqibning dunyoqarashini anglash va bilish obyektiv reallikdan muhimroqdir*” degan g‘oya tinimsiz oldinga surilib kelindi. Har holda yaqin o‘tmishda geosiyosat uchun yer makoni (borliqning) kartografiyasi muhim omil bo‘lgan bo‘lsa, endi geosiyosatning asosiy diqqat markazini inson qalbi muammosi egallay boshladi.

Qizig‘i va muhimi, axborot inqilobi globallashuv jarayonlari taraqqiyoti barobarida yuz bermoqda. Bu, albatta, turli mintaqa va mamlakatlar o‘rtasidagi an’anaviy to‘siqlarning muayyan darajada sidirilib, yuvilib ketishiga sabab bo‘layotir. Har holda uchinchi ming yillikda xalqaro xavfsizlikning barcha asosiy parametrlari o‘zgarmoqda. Agar xavfsizlik ilgari harbiy kuchlar muvozanati, konfliktlar darajasi va jahon urushi tahdidiga, jumladan, qurollanish poygasini to‘xtatish kabi omillarga bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, endilikda “noan’anaviy” tahdidlar bilan kurashish birinchi o‘ringa chiqdi. Agar o‘tmishda strategik jihatdan joylarda razvedka va kontrrazvedka ustuvorlik qilgan bo‘lsa, endilikda ularning o‘rnini axborot oqimlarini tahlil qilish omili egalladi. Ular orasidan agressiv - buzg‘unchi axborot yo‘nalishlarini belgilab olib olish, o‘z vaqtida fosh qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Jurnalistika olamidagi yangi voqeliklar geosiyosatchilar oldida yangi noan’anaviy muammoni ko‘ndalang qo‘ya boshladi: bu axboriy xurujning geosiyosiy darajadagi masalalarni hal qilishdagi rolini tahlil qilish muammosidir. Binobarin bugungi kunga kelib ayni axboriy ta’sir va tazyiq o‘tkazish davlatning eng asosiy geosiyosiy potensiali – milliy mentalitet, milliy madaniyat, odamlarning ahloqiy-ma’naviy qiyofasini o‘zgartirib tashlash qudratiga ega bo‘lmoqda.

Ikkinchidan, milliy psixologiya va tafakkur qiyofasining o‘zga kuchlar tomonidan o‘zgartirilishi global tahdid darajasiga yetdi. Shunday qilib,

axborot makonidagi ma’naviy-madaniy muammolar abstrakt nazariy emas, balki geosiyosiy mohiyat kasb etmoqda. Tajovuzkor g‘oyalarning hududiy chegaradan chetlab o‘tib, ommani boshqara oladigan axborot texnologiyalarining vujudga kelishi harbiy harakatlar teatrini turli tamaddunlarning milliy-tarixiy, ruhiy-madaniy olamiga tahdid qilishi bilan ko‘zga tashlanmoqda.

Inson-sivilizasiya-madaniyat tushunchalari doirasidagi o‘zlikdan voz kechish istagi yetakchi davlatlar murakkab axborot tizimlarining majburiy elementi sifatida kiritilmoqda. Maqsadli axborot ta’siri orqali milliy o‘zlikdan voz kechtirish mexanizmini ishga tushirish yo‘liga o‘tildi, bunda maxfiy dasturlarning singdirilishidan ustalik bilan foydalanilmoqda.

Bugun internet, ommaviy axborot kommunikasiyalari, reklamadan iborat bo‘lgan zamonaviy axborot makoni – bu axborot orqali boshqariladigan yaxlit bir dunyoga aylandi.

XXI asrda “*ko‘zga ko‘rinmas*” axboriy ta’sir qilish geosiyosiy qarashlarni qay darajada o‘zgartirishi mumkin?

Hozirgi paytda boshqa davlat va kuchlarga ta’sir o‘tkazishning barcha instrumentlaridan foydalanish asosiy maqsad sifatida yetakchi davlatlar tomonidan oldinga surilmoqda. Global liderlikka intilish yoki ular tomonidan belgilanayotgan qadriyatlarni qabul qilish, “*demokratiya eksporti*” – g‘arbona demokratik ideal va qadriyatlarni singdira borish, liberal demokratiyani tarqatish tufayli g‘arbona qadriyatlar quvvatining oshirilishi kabi tushunchalar jurnalistik tahlillarning diqqat markazidan o‘rin egalladi. Ya’ni, dunyo jurnalistikasi geosiyosiy kurashning virtual maydoniga aylanib ulgurdi. U bir ko‘rinishda beozordek tuyulsada, aslida shafqatsiz va ayovsiz fenomen tusini oldi. Bugun ommaviy axborot vositalarida “*yovuzlik o‘qi*” deb singdirilgan qator-qator davlatlar beqarorlik, yovuzlik, kambag‘allik, nochorlik o‘chog‘iga aylanayotganligi – taassufki, yaqin o‘tmishimizdagi “*antiterror*” operatsiyalarning natijalaridan ravshanlashib qolgandi.

Uchinchidan, axborot makonidagi geosiyosiy g‘oya va qarashlarning tahlili odatdagi siyosiy tahlillarga nisbatan o‘ziga xos dinamik yondashuvlarni talab etishi sezilmoqda. Bunda axborot makonida haqiqatni yolg‘ondan farqlay olish uchun geosiyosiy g‘oyalarning to‘qnashuvi bo‘ladigan “kuch maydonlari”ni doimiy ravishda kuzatish talab qilinadi. Ularning kutilmagan vaziyatlarda bir-biriga qarshi bosimini anglash ko‘p jihatdan geosiyosiy bashoratlarimizda asqotadi. Jumladan, bu yerda jahon axborot makonida kuchlar nisbatini bilib borish muhim ahamiyatga ega. Virtual kurash natijalari ko‘pincha shu nisbatga bog‘liq bo‘lib qolayotir.

Ayni shu ma’noda geosiyosiy strategiyani ishlab chiqish axboriy-mafkuraviy ustunlikka asoslangan operativ konsepsiyani yaratish bilan namoyon bo‘ladi.

Shu tariqa xalqaro siyosatda mustaqil davlatlarning kuch-qudratini axborot texnologiyalari yordamida o‘stirish, bu borada barcha imkoniyatlardan samarali foydalanish amaliyoti haqida bahs-munozaralar ko‘paydi. Albatta bu holat kurashning real makondan virtual makonga o‘tishini qizg‘in bosqichga olib kelmoqda. Aslida bu XXI asr siyosat olamidagi o‘ziga xos geosiyosiy inqilob edi. Bugun esa uni geosiyosat va jurnalistika fanlari uyg‘unligida anglash va bilish, tafakkur qilish vaqti yetib keldi. Jahon geosiyosiy sahnalaridagi raqobat shuni talab etadi. Birinchi navbatda tabiiy energiya resurslari uchun bo‘layotgan kurash uning axboriy ta’minotida yangidan-yangi ssenariylarni oldinga surishi aniqlandi: gohida zimdan, gohida oshkora ochiq oydin oldinga surilayotgan geosiyosiy maqsadlarning mag‘zi buni tasdiqlab turibdi. Demak dunyoga kim ustunlik qiladi, - degan masala ayni yetakchi davlatlar axborot siyosatining ustuvor vazifasiga aylanib ulgurdi. Dunyoga hukmronlik qilishning eng samarali va arzon vositasi yana bir bor axborot institutlariga borib taqalishi isbot talab qilmaydigan siyosiy aksiomaga aylandi.

Mutaxassislar fikricha, insoniyat bugungi kunda yangi axborot inqilobini boshdan kechirmoqda va u kishilik jamiyati tarixidagi birinchi inqilob emas. Nutqning shakllanishi axborot uzatish ikoniyatlarini kengaytirgan bo‘lsa, yozuvning paydo bo‘lishi uni uzoq vaqt davomida saqlash va axborotni uning yaratuvchisidan ajratgan holda ulkan masofalarga yetkazish, hatto zamonlararo olib o‘tishga yo‘l ochdi. Gazeta va jurnallarni nashr etishning yo‘lga qo‘yilishi yozma axborotni uzatishdagi tezkorlik va qamrovlilikni yanada kengaytirdi. Radio va televidenie esa axborotni ovoz va tasvir orqali uzatishni ta’minlab, uni yanada yangi sifatiy bosqichga ko‘tardi.

OAV bu so‘z, obrazlar, musiqa va shu kabi shakllarda axborotlarning tezlikda uzatilishi va ommaviy tarqatilishini ta’minlashga xizmat qiladi. Bunday vositalarga ommaviylik, davriylik, tinglovchi yoki o‘quvchilar auditoriyasining kengligi kabi xususiyatlar xosdir. Tahlillarda shu nuqtai nazardan OAV imkoniyati va qamrovining keskin darajada o‘sganligiga e’tibor qaratilmoqda.

OAVning qamrov darajasi, boshqacha aytganda, mahalliy, umummilliy, mintaqaviy yoki xalqaro (global) miqyosda faoliyat ko‘rsatishi ham uning ta’sir doirasini ko‘rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi.

1980 yilda tuzilgan CNN (The Cable News Network) kompaniyasi bugungi kunda 24 soat davomida axborot uzatish bilan shug‘ullanadi.

Hozirda CNN tarkibida yangilik tarqatish bilan shug‘ullanadigan 14 kabel va sputnik kanallari, 2 ta radiostansiya, 6 ta internet sayti va xorijiy mamlakatlardagi 37 ta byuro faoliyat ko‘rsatmoqda. CNN yangiliklari 38 ta kosmik yo‘ldosh signallari yordamida uzatiladi, uni 212 mamlakat va hududdagi 1,5 milliard odam bir vaqtning o‘zida ko‘rish imkoniga ega. 1991 yilning yanvarda aynan CNN yordamida Fors ko‘rfazida olib borilgan harbiy harakatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri teleefirga olib berildi. 2001 yilning 11 sentyabrdagi terrorchilik amaliyoti haqidagi telesyujetlar ham shu kompaniya harakati tufayli butun dunyoga voqea sodir etilgan joydan to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzatib turildi.

BBC eshittirishlar korporatsiyasiga (British Broadcasting Corporation, BBC) esa 20 dan ortiq telekanal va 14 ta radiokanal, bir qator saytlar va 40 yaqin jurnallar tegishlidir. BBC 40 dan ortiq tillarda eshittirishlar olib boradi.

Reyter axborot agentligida dunyoning 91 mamlakatida 14000 xodim, shu jumladan, 2300 jurnalist, fotomuxbir va videooperatorlar ishlaydi. Reyter agentligi dunyoning turli mamlakatlarida 197 ta byurosiga ega. Agentlikning xabarlaridan har kuni 1 milliard odam tanishadi.[1]

Hozirgi davrda sun’iy yo‘ldosh axborot uzatishning eng qulay va samarali vositasi bo‘lib qoldi. Ammo u qulay bo‘lsa-da, “cho‘ntakbop” emas: juda katta mablag‘ talab etadigan sun’iy yo‘ldoshga hamma davlat ham egalik qilolmaydi. Shu bois fazodagi sun’iy yo‘ldoshlar bir nechagina davlatga qarashli: AQSh (30 ta), Yaponiya (21 ta), Rossiya (12 ta), Xitoy (9 ta), Hindiston (9 ta). Lekin axborot uzatishning asosiy vositasi sanoqli davlatlar qo‘lida to‘plangani boshqalarning ham ular aytayotgan “qo‘shiq”ga jo‘r bo‘lishini taqozo etadi.[2]

Ushbu misollar bugungi kunda OAV qamrov doirasining naqadar kengligini tasavvur qilish imkonini beradi. Axborot inqilobining hosilasi juda katta axborotni qayta ishlash, xohlagan mamlakat kutubxonasida saqlanayotgan kitoblardan foydalanish imkoniyatining mavjudligida ham ko‘rish mumkin. Radio, televidenie, internet eng so‘nggi ilmiy yangiliklarni qisqa vaqtda butun dunyoga ma’lum qilish, ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san’at yutuqlaridan har bir odam foydalana olishiga zamin yaratmoqda.

Yuqoridagi mulohazalar bugungi kunda turli shakl va mazmundagi axborotlar inson va jamiyat hayoti, taraqqiyoti va kamolotining zaruriy shartiga, OAV esa uni tarqatishning muhim bo‘g‘iniga aylanganini ko‘rsatadi. Xususan, OAV orqali amalga oshiriladigan va katta mablag’ talab qilmaydigan g’oyaviy ta’sir va tazyiqning o‘ziga xosligi shundaki u o‘quvchi, tinglovchi yoki tomoshabinga sezdirilmasdan amalga oshiriladi va bevosita qurbonlarni keltirib chiqarmaydi. Axborot dushmanni yo‘q

qilmagan, katta harajatni talab qilmagan holda yuqori samara beradi. Bunda g‘oyaviy ta’sir yo‘naltirilgan mamlakatlar aholisining xohish-istaklari, mentaliteti, mavjud muammolari jiddiy o‘rganilgan holda asosiy diqqatni kishilar ongi va dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatishga, shakllangan qadriyatlarni o‘zgartirishga, ularning regulyatrlik rolini kamaytirishga yoki butunlay yo‘qqa chiqarishga qaratiladi. Bunday ta’sir o‘tkazishda davriy nashrlar tadrijiylik, radio va televidenie fragmentli uzatish usullaridan ustalik bilan foydalanishmoqda.

Internet bugungi axborot makonining muhim bo‘g‘iniga aylandi. Hozirda internetdan nafaqat kompyuter tarmog‘i, balki kosmik aloqa yo‘ldoshlari, radiosignal, kabel televideniesi, telefon, uyali aloqa orqali ham foydalanish mumkin. Internet kishilar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.[3]

Geosiyosiy konfliktlar tarixi esa geosiyosiy manfaatlar to‘qnashuvida jurnalistika instituti hech qachon to‘liq mustaqil bo‘la olmasligini tasdiqladi. Ularning qaramlik darajasi esa nazorat qiluvchi muayyan xalqaro korporatsiya, sanoat va moliya guruhlari, jumladan, turli davlatlar, siyosiy partiyalar va diniy tashkilotlarning siyosiy jihatdan nazoratiga bog‘liq holda o‘z yechimini topmoqda. Yana bir tomoni, bunday paytda OAVdan ko‘proq foyda olish ayni yetakchi davlatlardagi matbuot erkinligining darajasiga ham bog‘liq bo‘lib qolayotir. Kundan-kunga zamonaviy kommunikasiya vositalarining rivojlanishi bilan ularning faoliyatini nazorat qilish qiyinlashib boraveradi. Shuningdek, bugun rivojlangan davlatlarning har qanday fuqarosi tele-radio kanallar, internet tarmog‘i va boshqa axborot manbalaridan turli xil axborotni olish huquqi va imkoniyatiga ega. Hozir OAVning geosiyosiy manfaatlarni oldinga surilishdagi rolini oydinlashtirish masalasi jiddiy tus olgan davr. U mazkur masalada ham geosiyosiy tahlillarning zaruriyatini tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Очилдиев А. Глобаллашув ва мафкуравий жараёнлар. “Муҳаррир”, Тошкент: 2009, 77-79-бетлар.

Ёқубов С. Ахборот жамияти: ҳаёлот эмас, ҳақиқат. // “Тафаккур” журнали, 4-сон, 2007 йил, 15-бет.

Очилдиев А. Глобаллашув ва мафкуравий жараёнлар. “Муҳаррир”, Тошкент: 2009, 79-бет.

А.И.Демидов, А.А.Федосеев. Основы политологии. Москва, «Высшая школа», 1995, 229-бет.

А.И.Демидов, А.А.Федосеев. Основы политологии. Москва, «Высшая школа», 1995, 149-бет.

ZOIRXO‘JA O‘LMASXO‘JAYEV,
Toshkent xalqaro universiteti (TIU) dotsenti, PhD

JAMIYAT XAVFSIZLIGIGA G‘OYAVIY-MAFKURAVIY TAHDIDLAR

Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqning mustahkam rivojlanishiga rahna solayotgan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga etishiga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir.

Shavkat Mirziyoyev

Bugungi kunda jahonda globallashuv jarayonlarining tezlashishi, integratsion aloqalarning chuqurlashuvi “milliy chegaralarni” yuvilishiga olib kelmoqda. Natijada davlatlarning ichki barqarorligi, milliy birligi va g‘oyaviy birdamligi tahdid ostida qolmoqda. Bunday vaziyatda har bir davlat o‘zining ulug‘vor maqsadlaridan kelib chiqqan holda jamiyatni birlashtirishi, xalqni yagona g‘oyaga ishontirishi va bu g‘oya orqali barqaror ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlash mumkinligini singdirib borishi talab etilmoqda.

Endi mamlakat o‘zining yangi taraqqiyot bosqichida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, jamiyatda milliy birlashuvni shakllantirish, milliy birdamlik asosida faoliyat yuritishni ta’minlashga doir vazifalar dolzarblik kasb etmoqda. Zero, “ijtimoiy hamkorlik jamiyatda tinchlik va barqarorlik, yuksak taraqqiyotni ta’minlashning muhim omili hisoblanadi.

Ijtimoiy hamkorlik bo‘lmagan jamiyatda boshboshdoqlik, turli millat va elat vakillari o‘rtasida ishonchsizlik ortib, qarama-qarshilik va ziddiyatlar kuchayishi, bu esa, oxir-oqibatda, uning inqirozga olib kelishi mumkin”[1]. Shu ma’noda jamiyatimizning yangi taraqqiyot bosqichida millat birlashuvi g‘oyasi asosida harakatlanishga tobora ehtiyoj ortib bormoqda.

Bugun jamiyat milliy birlashuvi zaruratining ijtimoiy-siyosiy jihatlarini o‘rganish uchun, avvalo, g‘oyaviy birlashuv va millat birdamligi tushunchalarining mazmun-mohiyatini chuqur anglamoq zarur.

Davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan Yangi O‘zbekiston strategiyasi o‘zida – fuqarolarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtirokini kengaytirish, ularning orzu-intilishlarini ro‘yobga chiqarish, ilg‘or tashabbuslarini amalga oshirish, hayotiy muammolarini hal

etish, turmush darajasini yuksaltirish, mustaqil ravishda o‘z moddiy farovonligini oshirishi uchun yetarli va zarur sharoitlarni yaratish [2] nazarda tutadi.

Mamlakat taraqqiyotning yangi bosqichida siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, unda milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan siyosiy madaniyatni shakllantirish bilan milliy g‘oyaning siyosiy sohadagi xususiyatlari mohiyatini namoyon etadi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari [3] sifatida belgilanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizga ma’lumki, insonning va jamiyatning intellektual salohiyati yuksalishida g‘oya va mafkuralar asosiy manba hisoblanadi. Boisi, insoniyat va jamiyat ehtiyojlarning uzluksiz o‘sib kelishi g‘oyalar asosida rivojlanib boradi. Bu jarayon o‘z navbatida ehtiyojlarni qondirish borasida yuzaga keladigan muammolar va vazifalarni hal qilishga qaratilgan g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi. Shu ma’noda ham g‘oyani o‘sib kelayotgan ehtiyojlarning in’ikosi va uni qondirish borasidagi muammolar va vazifalar tizimini o‘zida ifoda ettiradi, deyish mumkin. U bu yo‘nalishda istiqbolga xizmat qiluvchi qarashlar, maqsadlar va xulosalar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu borada Sh.Mirziyoyev 2021-yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida “jahon tarixiga nazar solsak, har bir xalq avvalo ma’naviy birlashuvi, milliy g‘oyasi bilan yuksalganini, bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo‘lidan borayotgan mamlakatimizda ham milliy g‘oya masalasi juda muhim ahamiyatga ega”[4] ekanligini alohida ta’kidlab o‘tadi. Shuningdek, u yana quyidagi fikrlarni ham qo‘shimcha qiladi: “Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan”. Shunday ekan, yangi O‘zbekiston taraqqiyot yo‘li g‘oyaviy birlashuv asosida, milliy birdamlik

tamoyillari orqali qurilishi zarurligi kelib chiqadi.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichda ijtimoiy munosabatlar demokratik, huquqiy davlat hamda umuman ijtimoiy hayotning yuksak aql mezonlari asosida tashkil etilishini talab etadi. Bularning barchasi yagona ideologiya “milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan g‘oya asosida amalga oshirilmoqda. Maqsadga erishishning turli yo‘llari, turlicha vositalari mavjud.

Shu o‘rinda maqsadlar – yo‘nalishni belgilaydi, yo‘nalish esa oqilona reja tuzishni talab etadi. Maqsadga erishish obyektiv va subyektiv omillarning to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liq.[5] Aniqlangan yo‘nalish muayyan shart-sharoitlarda amalga oshirilishi mumkin, shuning uchun bu shart-sharoitlarni yaratish zarur. Shart-sharoitlar – yo‘nalishning imkoniyati emas, balki amalga oshishidir. Jamiyatda kishilarning maqsadlari mushtarakligi ijtimoiy hamkorlikni yuzga kelishiga sabab bo‘ladi. Ijtimoiy hamkorlik jamiyat barqarorligining asosi hisoblanadi.

Globallashuvning shiddatlashuvi “Ijtimoiy hamkorlik g‘oyasini amalga oshirish yo‘lida g‘ov bo‘ladigan eng xatarli to‘siqlar aqidaparastlik, terrorizm, ekstremizm, ayirmachilik, mahalliychilik, tajovuzkor millatchilik va shovinizm [6] kabi g‘ya va mafkuralar milliy xavfsizlikka yangidan-yangi xatarlarni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Bunga uzoq va yaqin tarixdan ko‘plab misollar keltirish mumkin. Mafkuraviy kurashlar kuchayib borayotgan bugungi kunda fuqarolarimiz o‘rtasida ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi”[7]. Shu bois, jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida insonlarni ijtimoiy hamkorlikka undovchi birlashtiruvchi g‘oyaga, hamjihatlikka undovchi mafkuraviy kuchga ehtiyoj ortib bormoqda.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida oliy maqsadga erishish uchun g‘oyaviy birlashish va milliy birdamlik g‘oyasini kamol toptirish zarur. Maqsad harakatga muvofiq bo‘lishi uchun shart-sharoitlar qanday bo‘lishi kerak? Bunday shart-sharoit – maqsadga maksimal darajada erishish va g‘oyaning amalga oshirilishidir.

Mamlakat yangi rivojlanish bosqichida g‘oyaviy birlashuv o‘ziga xos milliy mafkuradir, u muayyan mulohaza, qoida, fikrlarda ifodalanadi. Unga erishish ilmiy, texnologik, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy determinantlar majmui sifatidagi obyektiv shart-sharoitlarga hamda subyektiv omillar, jamiyatda ijtimoiy adolatning ta’minlanishi, ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolarning ijtimoiy faolligi va ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi axloqiy tamoyil va huquqiy normalarga bog‘liqdir. Maqsadga turli vosita, usullar yordamida erishiladi.

Maqsadga erishish vositalari ham moddiy, ham ma’naviy bo‘lishi

mumkin. Maqsad aloqalari tizimi harakatlar dasturida aks etadi. Maqsad va unga erishish vositasining o‘zaro ta’siri ularning umumiy tomonlari mavjudligi bilan bog‘liq. O‘zaro ta’sir umumiy tomonlar orqali amalga oshiriladi, buning natijasida o‘zaro ta’sir etuvchi tizimlar o‘zgaradi.

Fikr so‘ngida, O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida jamiyatning g‘oyaviy birlashuvi zaruratini bugungi kundagi global o‘zgarishlar sharoiti bilan, shuningdek madaniyatlararo munosabatlarning chuqurlashuvi, tamaddunlar to‘qnashuvining tezlashib borishi, axborotlashuv jarayonining kengayib borishi asosida sodir bo‘layotgan g‘oyaviy ta’sirlar, mafkuraviy tajovuzlar, beqarorlikni keltirib chiqaruvchi axborot-psixologik tahdidlar zaruratga aylantirmoqda. Bunday tajovuzlarga qarshi yagona chora jamiyatning g‘oyaviy birlashuvi, hamjihatligi, ijtimoiy birdamlik hissi bilan bog‘liq. Shunday ekan jamiyatimizning rivojlanish uchun umumxalq birlashuvi lozim. B esa uni yangi taraqqiyot yo‘liga safarbar etish va ijtimoiy birdamlikni yaratish uchun g‘oyaviy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони// https://lex.uz/docs/5841063

2. Отамуратов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти. – Тошкент.: Ўзбекистон. 2022. –Б. 100.

3. Қуронов М. Бизни бирлаштирган ғоя. –Тошкент.: Ғофур Ғулом НМИУ. 2016. –Б. 21.

4. Юсупов Э., Туленов Ж., Ғофуров З. Миллий масала бўйича фалсафий суҳбатлар.-Тошкент.:Фан, 1990. –Б. 69

5. Отамуродов С. Глобаллашув ва миллат.- Тошкент.: Янги аср авлоди, 2008;

6. Баҳодир Зокир. Глобаллашув зиддиятлари. — Тошкент.:Тафаккур, №1, 2004;

7. Назаров А. Глобаллашув шароитида барқарор сиёсий тараққиёт хавфсизлигини таъминлаш муаммолари. — Тошкент.:ЎзМу хабарлари, № 1/1, 2016.

8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72 сессиясида сўзлаган нутқи. Интернет манба: https://www.president.uz

SANJAR HAMROYEV,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti katta o‘qituvchisi,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY DAVLAT SUVERENITETIGA TAHDIDLARNING NAMOYON BO‘LISHI

Suverenitet o‘zini mustaqil davlat deb hisoblovchi har bir subyekt uchun eng muhim hayot-mamot masalasidir va uni asrab avaylash ham shu darajada katta ahamiyatga egaki, bugungi globallashuv davrida buni amalga oshirish tobora qiyinlashib bormoqda. Suverenitetni asrash milliy davlatchilikni, qadriyatlarni, millatni, tilni, ma’naviyatni, avvalo milliy o‘zlikni asrash deganidir. Chunki endi rivojlanish yo‘liga kirgan davlatlar bugungi keskin raqobat sharoitida o‘z milliy qadriyatlarini iqtisodiyotga qurbon qilmaslik choralarini ham ko‘rishlari talab etilmoqda. Aks holda, ularning rivojlangan davlatlar sivilizatsiyasiga singib ketishi hech gap emas. Globallashuv shiddati jahon mamlakatlari tamadduniga beqiyos ta’sir o‘tkaza olish xususiyatini namoyon etmoqda. Ushbu tamaddunning markazida esa fan, texnika va texnologiya jihatidan yuksak taraqqiy etgan, iqtisodiyoti kuchli davlatlar turibdi. Albatta, ushbu davlatlarning bunday yuksaklikka erishishida bir qator obyektiv va subyektiv omillar bor. Lekin, ularning qo‘lga kiritgan yutuqlarini boy bermaslik uchun qilayotgan harakatlari natijasida endi rivojlanayotgan mamlakatlar va millatlar suvereniteti masalasi so‘roq ostida qolmoqda.

To‘g‘ri, har bir davlat va millat uchun o‘zining manfaatlari har doim birinchi o‘rinda turadi, bu inkor etib bo‘lmas haqiqatdir. Shuning uchun ham globallashuv va manfaatlar to‘qnashuvi sharoitida endi rivojlanish yo‘liga kirgan milliy davlatlar suverenitetini saqlab qolish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev hozirgi davrda xalqaro maydonda turli manfaatlar to‘qnashuvi kuchayib, dunyoning umumiy manzarasini o‘zgartirish tarafdorlari tobora ko‘payib borayotganligi sharoitida tahdidlar ham ortayotganini qayd etib: «bugungi kunda davlatlar va bevosita insonlarga ta’sir ko‘rsatayotgan tahdidlarning eng keng tarqalgan turi – davlatlararo va davlatlarning ichki hayotidagi ziddiyatlar natijasida yuzaga kelgan tahdidlar bo‘lib qolmoqda. Ular qayerda sodir bo‘lmasin, qo‘shni hududlar uchun ham xavf tug‘dirishi mumkin. Ular beqarorlik va tahdidlarning yaqqol ko‘rinishi bo‘lmish ekstremizm, terrorizm, ommaviy qirg‘in qurollarining tarqalishi, keragidan ortiqcha qurol-yarog‘larning yig‘ilishi va ularning nazoratsiz

tarqalishi, inson huquqlari buzilishi, aholining ommaviy quvg‘in qilinishi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va noqonuniy migratsiyaning o‘sishiga olib kelmoqda»[1,381], deya qayd etadi.

Yer yuzining turli mintaqalarida sodir bo‘layotgan, butun insoniyatga xavf solib turgan turli noxush hodisalarni tahlil qilgan sari ularning barchasida inson omili bosh sababchi ekaniga amin bo‘lamiz. XXI asr boshidagi tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, muayyan davlat va millatning xavfsizligi, barqarorligi, taraqqiyoti hamda istiqboli ko‘p jihatdan mazkur millatga xavf solayotgan xavf-xatar va tahdidlarni anglab yetish salohiyati va qobiliyati darajasiga bog‘liqdir. Tahdidga nisbatan befarqlik, loqaydlik yoki uni butunlay sezmaslik oqibatida tanazzulga yuz tutgan davlatlar ham bo‘lgan. Misol uchun, Xorazmshohlar davlatining, o‘z vaqtida, Chingizxon boshliq Mo‘g‘ul davlatiga yetarli darajada ahamiyat bermaganligi, kerakli xavfsizlik choralarini ko‘rmaganligi uning ayanchli halokatiga sabab bo‘lgan edi. Yoki XIX asr o‘rtalarida Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklarining umumiy tahdid (Chor imperiyasi bosqini) fonida birlashib harakat qila olmaganligi ushbu davlatlarning mustaqilligini yo‘qotishiga olib kelgan edi. XX asrning ikkinchi yarmida esa Buyuk Britaniya, Fransiya kabi ilg‘or davlatlarning Gitler Germaniyasini «tinchlantirish» siyosati, ya’ni uning ba’zi xatti-harakatlari, tajovuzlariga «ko‘z yumishi» oxir-oqibatda keng ko‘lamdagi jahon urushiga zamin hozirlaganini unutmaslik lozim. Ammo, bugungi zamonaviy dunyoda tahdidlarning ko‘lami va ko‘rinishlari tobora yangilanib, o‘zgarib bormoqda.

O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov o‘zining «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida xavfsizlikka tahdid: barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida yangi asr boshida O‘zbekiston xavfsizligiga tahdid solayotgan quyidagi muammolarni sanab o‘tgan edi: «mintaqaviy mojarolar, diniy ekstremizm va fundamentalizm, buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik, etnik va millatlararo ziddiyatlar, korrupsiya va jinoyatchilik, mahalliychilik va urug‘-aymoqchilik munosabatlari, ekologik muammolar»[2,326]. Garchand o‘tgan asrda dolzarb bo‘lgan ushbu muammolar yangi asrning birinchi choragi arafasida ham hamon o‘z dolzarbligini yo‘qotganicha yo‘q. Aksincha ushbu tahdidlar qatoriga yangidan yangi muammolar kelib qo‘shilayotgani xavfsizlik masalasining makon va zamonda hadsiz, hududsiz, muayyan chegarani bilmasligi bilan xarakterlanadi. Avvalo, globallashuv jarayonining milliy davlatchilik uchun qator ijobiy imkoniyatlar yaratishi qatori, muammo va tahdidlar yuzaga kelishida ham sharoit tug‘dirayotgani hech kimga sir emas.

Globallashuv insoniyat, davlatchilik taraqqiyotiga keng imkoniyatlar ochib berishi barobarida tahdid sifatda ham namoyon bo‘lmoqda. Chunki globallashuv nafaqat mamlakatlar taraqqiyotiga, balki milliy davlatlar suverenitetiga, xavfsizligiga, millatlar mavjudligiga ham dahl qilmoqda. Bunday xulosaga kelishimizga sabab: **birinchidan**, bugungi unda jahonning taraqqiy qilgan davlatlari o‘z manfaatlari yo‘lida globallashuv imkoniyatlaridan samarali foydalanishmoqda; **ikkinchidan**, globallashuv kam taraqqiy qilgan milliy davlatlarning, avvalo, iqtisodi, so‘ng bu orqali siyosati, madaniyati hamda ma’naviyatiga ta’sir qilmoqda; **uchinchidan**, globallashuv davlat hokimiyati «vakolatlari»ni turli transmilliy korporatsiyalar, ulkan moliyaviy tashkilotlar, nodavlat notijorat tuzilmalar ixtiyoriga «taqdim qilmoqda»ki, natijada insoniyat hamjamiyatida siyosiy tashkilot sifatida davlatchilikning «obro‘si»ga putur yetib, uning asoslarini zaiflashishiga xizmat qilmoqda; **to‘rtinchidan**, globallashuv manfaatlarning «milliylashuv»iga, muammolarning esa «umumiylashuv»iga olib kelmoqda. Bu esa shundoq ham muammolari yetarlicha bo‘lgan milliy davlatlar rivojiga salbiy ta’sir etmoqda. Shunday ekan, globallashuvning milliy davlatlar suverenitetiga tahdid sifatida namoyon bo‘lish xususiyatlarini tahlil qilish, ularni aniqlash va bartaraf etish choralarini ko‘rish davlat qatori, millatning ham mavjudligi kafolati bo‘lib qolmoqda.

Shunday ekan biz bu muammolar qatoriga globallashuv omilidan kelib chiqib milliy davlat suverenitetiga tahdid solayotgan boshqa masalalarni ham kiritishlikka qaror qildik. Ularni shartli ravishda ichki va tashqi tahdidlarga bo‘lish maqsadga muvofiq.

Milliy davlat suverenitetiga ichki tahdidlar deganda, avvalo, muayyan milliy davlat hududida shakllanib, shu davlatning suverenitetiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan va turli salbiy oqibatlarga olib keladigan beqaror ijtimoiy-siyosiy vaziyat tushuniladi. Milliy davlat suverenitetiga ichki tahdidlar sifatida: loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, agressiv millatchilik, irqchilik (Rasizm), korrupsiya, egoizm va individualizm, huquqiy nigilizm, anarxizm, ijtimoiy-moddiy tabaqalanishning kuchayishi, separatizm kabilarni kiritish mumkin.

Milliy davlat suverenitetiga tashqi tahdidlar deganda, muayyan milliy davlat hududidan tashqarida shakllanib, biroq shu davlatning suverenitetiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan va turli salbiy oqibatlarga olib keladigan beqaror ijtimoiy-siyosiy vaziyat tushuniladi. Milliy davlat suverenitetiga tashqi tahdidlar: terrorizm, buyuk davlatchilik g‘oyasi, yohud imperialistik ambitsiya, «ommaviy madaniyat», kosmopolitizm, kiberjinoyatchilik, missionerlik va prozelitizm, noan’anaviy diniy

oqimlarning kuchayishi, mintaqaviy beqarorlik, yadro urushlar xavfining mavjudligi, ekstremizm kabilarni kiritamiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi globallashuv sharoitida suverenitetni saqlab qolish har bir davlatning, xoh u yuksak taraqqiy etgan, xoh rivojlanmagan, qashshoq bo‘lsin, eng asosiy burchi bo‘lib qolmoqda. Buning uchun esa milliy davlat suverenitetiga tahdidlarni anglash va ularning ta’sir o‘tkazish vositalarini aniqlab olish zarurdir. Ushbu paragrafda ayni zamonda suverenitetga yaqqol xavf sifatida ko‘ringan ma’lum tahdidlargina tahlil qilindi. Albatta, ushbu tahdidlar ro‘yhatini davom ettirish va mavzuni to‘ldirish keyingi tadqiqotlarda bayon etiladi. Yuqoridagi ichki va tashqi tahdidlarning hozirgi zamon uchun asosiy yechimlaridan biri bu **milliy davlatlarning milliy g‘oya asosidagi ta’lim-tarbiya tizimi**dir. Chunki aynan ta’lim-tarbiya millatni yuksaltiradi, mamlakat intellektual salohiyatini rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Shu yo‘l orqali milliy davlat suvereniteti xavfsizligi ta’minlanadi. Hozirgi kunda yuksak taraqqiy etgan davlatlar rivojining asosida ham aynan o‘z vaqtida e’tibor qaratilgan ta’lim-tarbiya tizimi sabab bo‘lganligini, AQSh, Xitoy, Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya va ko‘pgina Yevropa davlatlari misolida ko‘rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. – B.381.

2.Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston, 1997. – B.326.

DILAFRUZ KARIMOVA,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti, yuridik fanlar doktori

JAMIYATNI MAFKURAVIY TAHDIDLARDAN HIMOYALASHNING HUQUQIY ASOSLARI

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bizning kundalik hayotimizning barcha jabhalariga sezilarli o‘zgarishlarni olib kirmoqda. Hozirda “axborot tushunchasi” sotib olish, sotish, biror boshqa tovarga almashtirish mumkin bo‘lgan maxsus tovar belgisi sifatida tez-tez ishlatilmoqda. Shu bilan birga axborotning bahosi ko‘p hollarda uning o‘zi joylashgan kompyuter tizimining bahosida bir necha yuz va ming barobarga oshib ketmoqda. Shuning uchun tamomila tabiiy holda axborotni unga ruxsat etilmagan holda kirishdan, qasddan o‘zgartirishdan, uni o‘g‘irlashdan, yo‘qotishdan, qalbakilashtirishdan va boshqa tahdidlardan himoya qilishga kuchli zarurat tug‘iladi. Ammo, jamiyatda axborot xavfsizligining yuqori darajasiga intilishi ushbu sohadagi mutaxassis kadrlarning saviyasiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Mazkur sohada mamlakatimizda yuqori malakali kadrlarga ortib borayotgan ehtiyoj ta’lim sifatini va uni oshirishning asosiy omili bo‘lgan pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini doimiy takomillashtirib borish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bunga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” va 2020yil 6 noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabdagi PQ-4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari misol bo‘la oladi. Xususan, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida, jumladan «...axborot xavfsizligini ta’minlash va axborotni himoyalash tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga qarshi o‘z vaqtida va munosib qarshilik ko‘rsatish, ... iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish» vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish, jumladan tashkilotlarning axborot xavfsizligini baholashda

ko‘rsatkich va mezonlar tizimini takomillashtirish modellari, usullari va algoritmlarini yaratish, sohaga doir mutaxassislarning huquqiy savodxonligini oshirish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Ma’lumki, har qanday davlatning axborot resurslari uning iqtisodiy va harbiy salohiyatini belgilovchi omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu resursdan samarali foydalanish mamlakat xavfsizligini va demokratik axborotlashgan jamiyatni muvaffaqiyatli shakllantirilishini ta’minlaydi. Bunday jamiyatda, axborot almashinuv tezligi yuksaladi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish bo‘yicha ilg‘or axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarini qo‘llash keng ko‘lamda amalga oshiriladi.

Axborotlashgan jamiyat tezlik bilan shakllanib bormoqda. Axborot dunyosida davlat chegaralari degan tushuncha yo‘qolib bormoqda. Jahon kompyuter tarmog‘i davlat boshqaruvini tubdan o‘zgartirmoqda.

Hududiy joylashishidan qat’i nazar, kundalik hayotimizga turli xildagi axborotlar Internet xalqaro kompyuter tarmog‘i orqali kirib keldi. Shuning uchun ham mavjud axborotlarga noqonuniy kirish, ulardan foydalanish va o‘zgartirish, yo‘qotish kabi muammolardan himoya qilish dolzarb masala bo‘lib qoldi.

Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan.

«Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida»gi [1] qonunning qabul qilinishi har kimning axborotni erkin va moneliksiz olish hamda foydalanish huquqlarini amalga oshirishda, shuningdek, axborotning muhofaza qilinishi, shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Darhaqiqat, 2002 yil 12 dekabrda qabul qilingan bu qonunda [2] axborot xavfsizligini ta’minlash sohasidagi davlat siyosati axborot sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo‘ladi hamda shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining asosiy vazifalari hamda faoliyat yo‘nalishlarini belgilaydi deb belgilangan.

Kompyuter tizimlari va tarmoqlarida axborotni muhofaza qilishi deganda, uzatilayotgan, saqlanayotgan va qayta ishlanilayotgan axborotni ishonchliligini tizimli tarzda ta’minlash maqsadida turli vosita va usullarni qo‘llash, choralarni ko‘rish va tadbirlarni amalga oshirishni tushunish qabul qilingan.

Har qanday taraqqiy etgan jamiyat hayotida axborotning ahamiyati uzluksiz ortib bormoqda. Uzoq o‘tmishdan davlatning harbiy-strategik ahamiyatiga molik bo‘lgan ma’lumotlar qat’iy sir tutilgan va himoyalangan. Hozirgi vaqtda ishlab chiqarish texnologiyalariga va mahsulotlarni sotishga tegishli axborot tovar ko‘rinishiga ega bo‘lib, ichki va tashqi bozorda unga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Axborot texnologiyalari avtomatlashtirish va axborotni muhofaza qilish yo‘nalishlarida muntazam mukammallashib bormoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining taraqqiyoti sanoat shpionaji, kompyuter jinoyatchiligi, konfedensial ma’lumotlarga ruxsatsiz kirish, o‘zgartirish, yo‘qotish kabi salbiy hodisalar bilan birgalikda kuzatilmoqda. Shuning uchun axborotni muhofaza qilish har qanday mamlakatda muhim davlat vazifasi hisoblanadi. O‘zbekistonda axborotni muhofaza qilishning zaruriyati axborotni muhofaza qilishning davlat tizimi yaratilishida va axborot xavfsizligining huquqiy bazasini rivojlantirishda o‘z ifodasini topmoqda. «Axborotlashtirish to‘g‘risida» [4], «Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida» [5], «Elektron hisoblash mashinalari dasturlari va ma’lumotlar bazalarini huquqiy himoya qilish to‘g‘risida» [6] va boshqa qonunlar hamda bir qator hukumat qarorlari qabul qilindi va amalga tatbiq etildi.

Demak, davlatning axborot xavfsizligini ta’minlash muammosi milliy xavfsizlikni ta’minlashning asosiy va ajralmas qismi bo‘lib, axborotni muhofaza qilish esa davlatning birlamchi masalalariga, davlat siyosati darajasiga aylanmoqda. Shu sababli, axborotni muhofaza qilish axborotni ixtiyoriy ko‘rinishda yo‘qotishda (o‘g‘irlash, buzish, qalbakilashtirish) ko‘riladigan zararning oldini olishni ta’minlashi lozim. Axborotni muhofaza qilish choralari axborot xavfsizligiga oid amaldagi qonun va me’yoriy hujjatlar asosida va axborotdan foydalanuvchilarning manfaatlariga ko‘ra tashkil etilishi zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida»gi qonun// https://lex.uz/acts/-52268

2. Ўзбекистон Республикасининг 12.12.2002 й. 439-II-сон «Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида»ги Қонуни | Умумий қоидалар | Оммавий ахборот воситалари | Ахборот. Ахборотлаштириш. Алоқа | ЎзР КонунчилигиМаълумотлар тизими «Ўзбекистон Республикасининг 12.12.2002 й. 439-II-сон «Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида»ги Қонуни» | NRM.uz

3. Karimova, D. Axborot xavfsizligining huquqiy asoslari: o‘quv qo‘llanma / D. Karimova.-Toshkent: «Complex Print», 2021. - 376 b.

4. 560-II-сон 11.12.2003. Axborotlashtirish to‘g‘risida (lex.uz) // https://lex.uz/docs/-83472

5. 848-XII-сон 07.05.1993. Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida (lex.uz)// https://lex.uz/ru/docs/-98850

6. 1060-XII-сон 06.05.1994. Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida (lex.uz) // https://lex.uz/docs/-143983

MUHAMMADJON PARPIYEV,
Andijon davlat pedagogika instituti birinchi prorektori, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

KIBERMAKONDA SHAXS MA’NAVIY MADANIYATIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR

Bugungi kunning o‘ziga xos xususiyati va vazifasi mustaqillik tamoyillarini hayotga keng joriy etish, shaxs ma’naviy kamolotini takomillashtirish hamda shaxs ma’naviy-axloqiy kamolotini ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy taraqqiyotning qudratli omiliga aylantirishdan iborat. Jamiyatning siyosiy tuzumi, ijtimoiy hayoti shaxsning ma’naviy madaniyatiga ijobiy yoki salbiy ta’sir qiladi. Bu ta’sir natijasida inson yo yangi marralar sari mo‘ljal oladi yoki qadrsizlanish natijasida ruhiy tushkunlikka tushadi. Har ikki holat insonni o‘z-o‘zini anglashi uchun motivatsiya vazifasini bajaradi. Ba’zi hollarda esa inson ma’nan sinishi hatto jismonan o‘lim holati ham bo‘lishidan tarix saboq beradi. Bizningcha inson ma’naviy kamolotining bosh omili bilim va mehnatga tayanadi. Insonning mohiyati ham shu sifatlarning mushtarak birligi asosida shakllanadi va kamol topib boradi. Ma’naviy kamolot jamiyat taraqqiyotining inson faoliyati, ongi bilan bog‘liq bo‘lgan sub’ektiv omillari tobora kengayib, chuqurlashib, rivojlanib borishini bildiradi.

Raqamli texnologiyalar rivojlangan bugungi sharoitda dunyoning tavsifi, o‘lchovlari tubdan o‘zgarib bormoqda va insoniyat hayotining barcha sohalarini qamrab olmoqda. Ma’naviy madaniyatning shakli boshlang‘ich xususiyatga ega bo‘lib, u real va virtual dunyoda o‘z ifodasini topadi. Ayni paytda virtual olam kibermakon deb nomlanib, uni zamonaviy insonning mavjudligi uchun “yangi muhit” deb belgilanmoqda. Kibermakon kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot maydonini ifodalovchi voqelik sifatida XX asrning 90 yillaridan boshlab keng miqyosida rivojlanib, takomillashib kelmoqda. So‘nggi paytlarda “virtual” tushunchasidan foydalanish zamonaviy dunyoga xos jihat bo‘lib, tobora ko‘proq informatika va kompyuter texnologiyalari doirasidan chiqib ketmoqda. Yaqin vaqtlargacha real bo‘lmagan kombinatsiyalar, masalan, “virtual korporatsiya”, “virtual pul”, “virtual demokratiya”, “virtual ta’lim”, “virtual madaniyat” kabi tushunchalar endilikda faol ishlatilmoqda. Ijtimoiy jihatdan kibermakon deganda kompyuter tarmog‘i vositasida bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan va bir vaqtda turli geografik nuqtada kesishuvchi har qanday mavjud kompyuterlarning grafik sifatidagi ma’lumotlariga o‘ralashib qolgan kishilar jamoasi

tushuniladi.

Globallashuv va axborot xurujlari, turli buzg‘unchi g‘oyalar ta’sirida milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarimizga qarshi tahdid va xatarlar tobora kuchaymoqda. Xudbinlik, ya’ni, faqat o‘zini o‘ylash, hayotga, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste’molchilik kayfiyati singari illatlar turli yo‘llar bilan aholi, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirilmoqda. Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber- jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi tobora ortib bormoqda [1].

Bugungi global ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar hozirgi zamon emas, balki fazoning madaniy hukmronligiga aylanishiga olib keldi. Natijada, aloqa deyarli bir zumda paydo bo‘ladi va vaqtni tejaydigan texnologiyalar vaqtni nolga teng bo‘lgan segmentlarga ajratadilar. XXI asrda texnologiyalar insoniyatning har qanday ehtiyojlarini qondirishning universal vositasiga, yosh avlod madaniyatining tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ammo, agar texnologiya butun madaniyatni almashtirishga harakat qilsa, ya’ni, dunyoni texnik haqiqatga aylantirish uchun, bu insoniyat uchun nomaqbul natijaga - o‘rta muddatli istiqbolda dunyoqarashni yo‘qotishga olib keladi.

Davlatimiz rahbari bu ma’naviy illatlarning tahdidi haqida gapirib, shunday deydi: “Agar “ommaviy madaniyat” tahdidi faqat chetdan - G‘arbdan kirib keladi, desak, qattiq adashamiz. Bu balo, afsuski, o‘zimizdan, o‘z oramizdan ham chiqishi mumkin. Men bu gaplarni osmondan olib aytayotganim yo‘q. Yurtimizda nashr etilayotgan ayrim gazeta-jurnallar, kitoblarni, sur’atga olinayotgan ba’zi klip va kinolarni, efirga berilayotgan qo‘shiq va raqslarni kuzatib, sog‘lom fikrlaydigan har qanday odam shunday xulosaga kelishi tabiiy. Eng yomoni, badiiy ijod sohasida jaholat ko‘rinishlari kuchayib bormoqda. Ayni vaqtda, madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san’atni anglashga o‘rgatish, ularning estetik olamini sog‘lom asosda shakllantirish bo‘yicha oldimizda juda muhim vazifalar turibdi” [2]. Biz ham ushbu fikrlarga qo‘shilib ijtimoiy makondagi shaxs ma’naviy olamiga ta’sir qiluvchi omillarni axloqiy va diniy me’yorlarimiz asosida shakllantirishimiz va bu borada qat’iy davlat nazoratini o‘rnatish lozim deb hisoblaymiz.

“Ommaviy madaniyat”ning yoshlar ma’naviyatiga xurujlarni yana bir katta xavf tug‘dirayotgani – milliy qadriyat tuyg‘ularini zaiflashtirish, asriy urf-odatlar, eng olijanob insoniy fazilatlarga yot bo‘lgan hayot tarzini zo‘r berib tiqishtirish, shaxsiyatparastlik va xudbinparastlikni jozibali usullar bilan targ‘ib qilishga yo‘naltirilganligidir. Bir qator faylasuf olimlar “ommaviy madaniyat” o‘z mohiyati jihatidan g‘ayriinsoniy

xususiyatga ega bo‘lib borayotgani, xususan, nemis faylasufi K. Yaspers “ommaviy madaniyat”ni “san’at mohiyatining tanazzuli” deb baholagan bo‘lsa, ispan faylasufi va sotsiologi Ortega Gasset uning g‘ayriinsoniy tus olayotganini ko‘rsatgan. Ular “ommaviy madaniyat” faqat ayrim tashqi ko‘rinishlari bo‘yicha san’at va nafis adabiyot asariga o‘xshashi, tub mohiyati jihatidan esa sun’iy, soxta, yasama ekanligini ta’kidlaganlar.

Bugungi kunda bolalar va internet muammosi tobora chuqurlashib borayotgan bir paytda, faqatgina global tarmoqning yashirin xavflari ta’siriga tushib qolishni emas, balki ekstremistik xarakterdagi, sekta va turli xil uyushmalar saytlarining foydalanishga ochiqligini, virtual firibgarlikka keng yo‘l qo‘yilganlikni ham ko‘rsatish mumkin. Bolalarning qiziquvchan tabiati ularni yuqorida tilga olingan turdagi saytlarga yetaklashi, bu veb sahifalarda ularning ruhiy yoki jismoniy sog‘lig‘iga xavf soluvchi ma’lumotlarni ko‘rishiga olib kelishi tabiiy. Elektron pochta manzillari orqali olingan xabarlar kuchli ruhiy ta’sir o‘tkazib, bolalarni internet doirasida va undan tashqarida ham jinoyatga undashi hech gap emas. Shubhasiz, internet bilim va kerakli axborotni olish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi, biroq tarmoqqa joylashtiriladigan katta hajmdagi axborotning barchasini ham ishonchli va foydali deb bo‘lmaydi [3]. Foydalanuvchilar ma’lumotlarning to‘g‘riligini aniq ajrata bilishi uchun tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etiladi. Yosh avlodni keng doiradagi manbalardan foydalanishga yo‘naltirish natijasida faktlarni fikrlardan farqlashga, to‘g‘riligi tasdiqlanmagan axborotdan himoyalanishga ularni o‘rgatish zarur.

Bugun dunyoda mafkuraviy jarayonlar taranglashib turgan bir paytda yoshlarni chalg’ituvchi, ularni o‘z domiga tortishni istovchi turli g’arazli kuchlar ko‘payib boryapti. Eng achinarlisi, dunyoning qaysi burchagida biror jinoyat sodir etilsa, albatta, bunda yoshlarning g’o‘rligi, oq-qorani hali to‘liq ajrata olmasligidan foydalanilyapti. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik nafaqat o’sha xonadon balki, butun bir millat, xalq ma’naviy tannazuliga asos bo’lishi mumkin. Bugun dunyoda inson kapitali uchun kurash, eng katta sarmoya farzandni yaxshi bilimli bo’lishiga, tarbiyasiga tikilayotgan bir vaqtda ming afsuski, ayrim oilalarda farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik holati ham yo’q emas. Shu bois Payg’ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamning “Hech bir ota-ona farzandiga go’zal tarbiyadan ko’ra qimmatliroq meros qoldira olmaydi”, degan hikmatlarini unutmasligimiz lozim.

Yoshlar ijtimoiy ma’noda ham kuchli, ham zaif jihatlarni o‘zida dialektik tarzda qovushtirgani uchun ularga, bir tomondan, ijtimoiy faollik, yuqori darajada ta’sirchanlik va yangilikni his etish, idealga

bo‘lgan ehtiyoj, olamni ijodiy qayta qurishga tashnalik, murosasizlik, ehtiroslilik va qiziqqonlik xos bo‘lsa, ikkinchi tomondan, sabrsizlik, bemulohaza tanqid qiluvchilik hamda nigilizm, barcha narsani inkor etish jihatlari ko‘zga tashlanadi. Bu hol yosh avlodning shakllanib kelayotgan turmush tarzi juda murakkab hodisa ekanligini isbotlaydi. Bu holatlarning hammasi bevosita ularning ilmiy ongining darajasi bilan belgilanadi. Chunki bugungi o‘zgarib borayotgan jamiyatda kompyuter, internet, uyali aloqa vositalari va boshqa zamonaviy texnika-texnologiyalar rivojlanib, takomillashib borishi natijasida, yoshlarimiz zamonaviy texnologiyalarni boshqarish, ulardan samarali foydalanish sirlarini o‘rganib o‘z bilim salohiyatlarini oshirib bormoqdalar. Lekin, achinarli tomoni shundaki, mana shunday texnika-texnologiya rivojlangan bir jamiyatda ma’lum bir toifadagi yoshlarimiz kompyuter, internet va uyali aloqa vositalaridan samarali foydalanmasdan shunchaki ermak yoki o‘zlarining qimmatli vaqtlarini kompyuterda kuni bilan o‘tirib turli o‘yinlar yoki har xil behayo filmlar, rasmlar tomosha qilib, “dahshatli” kinolar ko‘rish bilan o‘zlarini yoshlikdagi qimmatli vaqtlarini besamar o‘tkazishmoqda. Bu esa o‘z-o‘zidan yoshlarimizda kompyuter o‘yinlariga hamda uyali aloqa vositalariga tobelikni keltirib chiqarmoqda.

Mana shunday yoshlarimizni ertangi kuni qanday bo‘lishi, ularning ma’naviy olamida bo‘shliqni vujudga kelmasligini, bu narsalar o‘z ta’sirini ko‘rsatmaydi, dunyoqarashiga ta’sir qilmaydi ularni ruhiyatida har xil nosog‘lom g‘oyalarni paydo bo‘lishi va ularni kelajakda sog‘lom fikr egalari chiqadi, deb ayta olamizmi? Albatta, ushbu muammo davrning o‘ziga xos muammosi desak bo‘ladi. Agar, biz ushbu muammoga befarq qaraydigan bo‘lsak, muammo yanada chuqur ildiz otib, yana boshqa muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shuningdek, hozirgi vaqtda dunyoda kuchayib borayotgan turli ma’naviy tahdidlarning oldini olish, “ommaviy madaniyat”ning zararli ta’siridan farzandlarimizning ongu tafakkurini himoya qilishda ilm fan va madaniyat jamoatchiligi, ijod ahlining o‘rni va rolini tobora oshirish, ularning faolligini kuchaytirishimiz, mas’uliyatini eslatish lozim. Chunki “bizning milliy ruhimiz va tabiatimizga yot va begona bo‘lgan ana shunday “madaniyat” namunalarini faqat tanqid va inkor qilish yoki ularni taqiqlash bilan biron natijaga erishib bo‘lmaydi” [4]. Demak ma’naviy hayotga shunchaki bir ijtimoiy voqelik sifatida qarash to‘g‘ri emas. Aksincha, uni milliy g‘oyaga turtki beradigan, unga tayanch va suyanch kuch sifatida qabul qilish lozim. Ayonki, hozirgi vaqtda har qaysi xalq yoki millatning madaniy saviyasini ko‘taradigan mezonlar mavjud. Eng asosiysi – intellektual ong, yuksak ma’naviyat, asriy an’analarga

tayanadigan, zamonning ilg‘or yutuqlaridan oziqlanadigan milliy dunyoqarash va e’tiqoddir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent. O‘zbekiston. 2021 y. - B. 268.

2. Sh. Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 1-jild. –Toshkent. O‘zbekiston. 2018 y. – B. 195-196.

3. I. Saifnazarov, F. Saifnazarova. Yoshlar va oila – Vatan tayanchi. –Toshkent. “Ta’lim nashriyoti”, 2018 y. - B. 91.

4. I. Karimov. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. – Toshkent. Ma’naviyat. 2008 y. – B. 89.

SHUXRAT TURDIKULOV,
Toshkent shahar hokimligi
Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi boshlig‘i,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi tadqiqotchisi,
sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

MANFAATLAR TO‘QNASHUVI KORRUPSIYANING ASOSIY – OMILIDIR

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasining 7-moddasida har bir ishtirokchi davlat qonunchiligining asosiy prinsiplariga muvofiq shaffoflikni ta’minlaydigan va manfaatlar to‘qnashuvining oldini oladigan tizimni yaratish va mustahkamlashi kerakligi bilan bog‘liq qoidalar belgilangan [1].

Ushbu konvensiyada va Davlat mansabdor shaxslarining xalqaro xulq-atvor kodeksida ham manfaatlar to‘qnashuvi boshqa so‘z bilan (manfatlar kolliziyasi) ifodalangan yoki “manfaatlar kolliziyasi” tushunchasining aynan ta’rifi berilmagan bo‘lsa ham mazmun jihatdan ikki so‘zning nisbatan sinonim ekanligi keltirilgan. [2].

O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-iyulda mazkur Konvensiyaga qo‘shilganini inobatga olsak, so‘nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qonunchilik bazasini shakllantirish va davlat tashkilotlarida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha bir qancha ishlarning samarali amalga oshirilganini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining huquqiy asoslari yaratildi va bu asos korrupsiyaning asosini tashkil qiluvchi omillardan biri, davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarida ishlovchi barcha darajadagi mansabdor shaxslar o‘rtasida sodir bo‘ladigan manfaatlar to‘qnashuviga muhim nuqtani qo‘yganini ko‘rishimiz mumkin. Shu sababli, davlat hokimiyati tizimidagi manfaatlar to‘qnashuvini ijobiy hal qilish xozirgi davrda korrupsiyaga qarshi kurashning muhim vazifalaridan biri bo‘lib turibdi. Ushbu vazifani hal qilish maqsadida, joriy yilda uzoq kutilgan O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonunning maqsadi manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi va Qonunda “Manfaatlar to‘qnashuvi — shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o‘z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan

fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to‘qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan (ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi) vaziyat” nazoratga oladi. [3]. Ushbu qonunga asosan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga ham o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuniga asosan ishlab chiqilgan Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida nizom **potensial** manfaatlar to‘qnashuviga (xodimning, uning yaqin qarindoshlarining va tashkilot bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsning shaxsiy manfaatlari muayyan vaziyatlar yuzaga kelganda, ular tashkilotning manfaatlariga qarama-qarshi bo‘lishi va tashkilot xodimlari tomonidan xizmat majburiyatlarini bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan vaziyat) hamda **haqiqiy** manfaatlar to‘qnashuviga (xodimning, uning yaqin qarindoshlarining va tashkilot bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsning shaxsiy manfaatlari tashkilot manfaatlariga bevosita yoki bilvosita qarama-qarshi bo‘lgan vaziyat) bo‘linadi [4].

ASOSIY QISM. Davlat boshqaruvi tizimidagi korrupsiya ko‘rinishlari uzoq tarixga ega illat. O‘z vaqtida fransuz adibi, huquqshunos va faylasufi Sh.Monteske shunday ta’kidlagan edi: “...asrlar tajribasidan ma’lumki, har qanday hokimiyat vakolatiga ega bo‘lgan shaxs uni suiiste’mol qilishga moyil bo‘ladi va u ma’lum bir maqsadga erishmaguncha shu yo‘nalishda yuradi.” [5].

Davlat boshqaruvida manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish uchun qonunning qabul qilinganligi nafaqat davlat fuqarolik xizmatchilarining o‘z xizmat vazifalarini samarali bajarishlariga shart-sharoit yaratishiga, balki xizmatda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan suiiste’molliklarni bartaraf etishiga, davlat tashkilotlariga nisbatan aholining ishonchi oshishiga xizmat qiladi va davlat fuqarolik xizmatchilarining ijtimoiy faolligini oshirish imkonini berdi.

Manfaatlar to‘qnashuviga qarshi kurashning muhim jihati jamoatchilik nazorati mexanizmini yaratish hisoblanadi. Fuqarolarni mansabdor shaxslar va tashkilotlarning xatti-harakatlari ustidan nazoratni amalga oshirishga jalb etish, davlat fuqarolik xizmatchilarining mas’uliyatni sezilarli darajada oshiradi. Jamoatchilik nazorati va shaffoflikdan foydalanish, ushbu yo‘nalishda davlat idoralarining zaif tomonlarni aniqlashga yordam beradi, bu esa tizimni doimiy ravishda takomillashtirishga olib keladi.

Ushbu mexanizmlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlat organlari va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi samarali hamkorlikni

ta’minlash zarur. Jamoatchilik bilan muntazam maslahatlashuvlar nafaqat manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq eng dolzarb muammolarni aniqlash, balki ularni bartaraf etish bo‘yicha birgalikdagi yechimlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Qaror qabul qilishning har bir bosqichida shaffoflikni ta’minlash uchun blokcheyn kabi texnologiyalarni joriy etish ham muhimdir. Bunday tizimlardan foydalanish mansabdor shaxslarning barcha xatti-harakatlarini kuzatishga yordam beradi, bu esa qonunbuzarliklarning oldini oladi va yashirin korrupsiya xarakatlarini qiyinlashtiradi, hamda mansabdor shaxslarning javobgarlik mas’uliyatini oshiradi.

Manfaatlar to‘qnashuvini samarali boshqarish nafaqat texnologiya va nazorat mexanizmlarini, balki mansabdor shaxslar va xodimlar o‘rtasida axloqiy xulq-atvor madaniyatini yaratishni ham talab qiladi. Axloqiy tayyorgarlik kasbiy tayyorgarlikning majburiy qismi bo‘lishi kerak, bunda manfaatlar to‘qnashuvi qabul qilib bo‘lmaydigan deb qaraladigan va zudlik bilan hal qilinishi kerak bo‘lgan muhitni yaratishga yordam beradi. Xavfsiz va axloqiy muhitni yaratish nafaqat jamoatchilik ishonchini oshiradi, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Manfaatlar to‘qnashuvi korrupsiyaning rivojlanishiga doimiy ravishda o‘zining hissasini qo‘shib boradi va bir qator tahdidlarni keltirib chiqaradi:

1. Qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklar. Turli manfaatlarga ega bo‘lgan tomonlar o‘rtasidagi to‘qnashuv qaror qabul qilish jarayonini murakkablashtiradi va kechiktiradi.

2. Ijtimoiy taranglik. Manfaatlar to‘qnashuvi ijtimoiy guruhlar o‘rtasida taranglik va nizolarni kuchaytiradi, jamoatchilik orasida ishonchni pasaytiradi.

3. Resurslarni samarali taqsimlamaslik. Raqobat va to‘qnashuv natijasida resurslar samarali taqsimlanmasligi, ba’zi tomonlarning foydasiga xizmat qilishi yoki resurslarning isrof bo‘lishiga olib keladi.

4. Kreativlik va innovatsiyaning pasayishi. Agar manfaatlar to‘qnashuvi doimiy ravishda mavjud bo‘lsa, bu taraflarning hamkorligini kamaytirib, yangi g‘oyalar va innovatsiyalarning rivojlanishga xalaqit beradi.

Shu sababli, manfaatlar to‘qnashuvini hal etish uchun samarali muloqot, murosaga erishish strategiyalari va konstruktiv yechimlarni ishlab chiqish zarurdir.

Manfaatlar to‘qnashuvi davlat boshqaruvidagi jiddiy muammolardan biri bo‘lib, uning oldini olishda ham individual chora-tadbirlarni va

kengroq islohotlarni o‘z ichiga olgan tizimli yondashuv talab qilinadi.

Davlat hokimiyati nafaqat mansabdor shaxslarga g‘amxo‘rlik qilishi, balki ularga nisbatan ko‘proq talablar qo‘yishi, ular xalqqa, davlatga munosib xizmat qilishlari uchun ularning turmush tarzini kuzatib borishi, ularga har hil imtiyozlar berishni to‘xtatishi lozim. Ijtimoiy tarmoqlarda berilayotgan ma’lumotlardan ayon bo‘lishicha, ko‘pgina mansabdor shaxslar tomonidan korrupsiyaviy jinoyatlar sodir bo‘layotganligining guvohi bo‘lmoqdamiz. Agar ayrim mansabdor shaxslar manfaatlar to‘qnashuvini sodir qilmaganida, o‘ziga yuklatilgan vazifani vijdonan olib borganida, vatanparvar bo‘lganida hashamatli uylarda yashamagan, qimmatbaho mashinalarda yurmagan, farzandlari nufuzli ta’lim muassasalarida o‘qimagan bo‘lar edi.

Davlat xizmatidagi korrupsiya muammolarini o‘rganuvchilar huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish maqsadida korrupsiyaga qarshi qonunchilikni yanada rivojlantirish zarur, deb hisoblaydilar. Xususan, daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etishdan tashqari, unda mansabdor shaxs, uning oila a’zolari va yaqinlari manfaatdor bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha obyektlarni ko‘rsatgan holda, manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi maxsus deklaratsiya joriy etilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Shveysariyada bunday deklaratsiyalar hatto muzokaralar bo‘yicha hamkorlarga ham taqdim etilar ekan. Masalan, agar deklaratsiyada mansabdor shaxsning rafiqasi “N” kompaniyasi boshqaruvi a’zosi ekanligi ko‘rsatilgan bo‘lsa, u ham, uning qo‘l ostidagi xodimlari ham ushbu kompaniyalarga nisbatan qaror qabul qila olmaydi [6].

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OESR) maxsus qo‘llanmasida manfaatlar to‘qnashuvi deganda bu davlat mansabdor shaxsning davlat va xuquqiy majburiyatlari bilan shaxsiy manfaatlari o‘rtasidagi ziddiyat, bunda uning shaxsiy manfaatdorligi uning xizmat vazifalari yoki funksiyalarini bajarishiga asossiz ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan vaziyat deb belgilangan. Bunda shaxsiy manfaatlar nafaqat bir shaxsning shaxsiy, kasbiy yoki ishbilarmonlik manfaatlarini, balki mansabdor shaxsga tegishli bo‘lishi mumkin bo‘lgan butun bir ijtimoiy guruhning manfaatlarini, ya’ni qarindoshlari va do‘stlarini hamda biznes yoki siyosiy faoliyatdagi sheriklarini o‘z ichiga oladi [7].

Qabul qilinayotgan qarorlar har doim ochiq va xolis bo‘lishi, hech qanday diniy, kasbiy, etnik yoki oilaviy imtiyozlarsiz qabul qilinishi kerak. Davlat fuqarolik xizmatchilari o‘zining davlat oldidagi burchini xolislik, halollik va ochiqlik tamoyillari asosida bajarishi zarur.

Korrupsiyaning shakllaridan bo‘lgan mahalliychilik, favoritizm, nepotizm, shafelik, urug‘-aymoqchilik manfaatlar to‘qnashuvining asosi

hisoblanadi.

Mahalliychilik – milliy va umumdavlat manfaatlarini hisobga olmay, mahalliy manfaatlarni, ya'ni nasliy kelib chiqishi hamda yaqin qarindoshlarining manfaatlarini ko'zlab ish tutish hisoblanadi.

Ma'lum bir shaxs boshqa shaxs yoki shaxslar guruhi manfaatlariga qaraganda bitta shaxs yoki shaxslar guruhi manfaatlariga ustuvor ahamiyat qaratishi Favoritizm –deyiladi.

Nepotizm esa (tanish-bilishchilik) – qarindoshlari yoki do'stlariga ularning kasbiy fazilatlaridan qat'iy nazar noqonuniy imtiyozlar berish,

shafelik – shaxs lavozimi yuqoriroq bo'lgan boshqa xodim tomonidan qulay mehnat sharoitlarini yaratib berish shaklidagi himoyasi, uni yoqlab yonini olishga aytiladi.

Urug'-aymoqchilik – shaxsning avlod-ajdodlari bir bo'lgan, bir sulolaga mansublik asosida uchinchi shaxslarga nisbatan subyektiv, imtiyozli va noxolis munosabat shaklidagi shaxsiy manfaatdorligining natijasidir.

Davlat fuqarolik xizmatchisi lavozim majburiyatlarini yoki xizmat vakolatlarini bajarish chog'ida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, o'z ish yurituvidagi hujjatlar bo'yicha qaror qabul qilinguniga qadar o'zining bevosita rahbariga (tashkilot rahbari — yuqori turuvchi rahbariga) yoki maxsus bo'linmaga xabar berishi lozimligi "Manfaatlar to'qnashuvi" to'g'risidagi qonunda belgilab qo'yilgan [8].

XULOSALAR. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish choralari:

1. Daromad deklaratsiyasi: davlat xizmatchilaridan o'z daromadlari va mol-mulkini deklaratsiya qilishni talab qilish manfaatlar to'qnashuvini oldindan aniqlashga yordam beradi;

2. Axloqiy me'yorlarni o'rnatish: manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va xodimlarni axloqiy me'yorlarga o'rgatish uchun aniq qoidalar va xatti-harakatlar standartlarini o'rnatadi.

3. Audit va nazorat: tashkilotlarda olib boriladigan muntazam tekshiruvlar va auditlar, mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvlarini aniqlashga yordam beradi.

4. Shaffoflik: mansabdor shaxslarning qarorlari va harakatlarida ochiqlikni ta'minlaydi, korrupsiya xavfini kamaytiradi.

Har bir davlat fuqarolik xizmatchisi manfaatlar to'qnashuvi holatlarining oldini olish va tartibga solish bo'yicha mas'ul ekanligini unutmasligi hamda ushbu illatni bartarf qilishda yuqorida keltirilgan omillarga e'tibor qaratishi zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi. – Nyu-York, 2003.

2. Davlat mansabdor shaxslarining Xalqaro xulq-atvor kodeksi. (BMT Bosh assambleyasining Rezolyutsiyasi) – Nyu-York, 1996.

3. O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'RQ-931-sonli qonuni – Toshkent, 2024.

4. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi rasmiy vip sayti (https://anticorruption.uz).

5. Монтескье Ш. Избр. соч. – Москва, 1955. С. 289.

6. Михайлов В.И. "Конфликт интересов: содержание, порядок предотвращения и урегулирования" Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения № 4 – Москва, 2016. С. 14-15.

7. Конвенция Организации экономического сотрудничества и развития (ОЭСР) по борьбе с подкупом иностранных должностных лиц при совершении международных коммерческих сделок – Париж, 1997.

8. O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'RQ-931-sonli qonuni –Toshkent, 2024.

9. Turdikulov Sh.X «Korrupsiyaga qarshi kurash jamiyat muammosi» Monografiya. –Toshkent: «Bilim va intellektual salohiyat», 2022.

10. Matibayev T.B. O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati: «Korrupsiya –ijtimoiy xavf». Darslik. – Toshkent. 2019.

GULSANAM RO‘ZIYEVA,
Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti
Maxsus-kasbiy fanlar kafedrasi
katta o‘qituvchisi, podpolkovnik

“OMMAVIY MADANIYAT” TAHDIDLARNING ZAMONAVIY KO‘RINISHLARI

Bugungi kunda dunyo miqyosida xavfsizlik va barqarorlikka raxna solish orqali yoshlarni o‘ziga rom etishga intilayotgan “ommaviy madaniyat” g‘oyaviy - mafkuraviy tahdid sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, dunyoda sodir bo‘layotgan global o‘zgarishlar jarayonida vujudga kelayotgan “ommaviy madaniyat” tahdidning ta’sir kuchi tobora ortib bormoqda. Zero, hozirgi globallashuv sharoitida mafkuraviy vositalar orqali o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga intilayotgan “ommaviy madaniyat” tahdidi keskinlashib borayotganligini anglash qiyin emas. Bu xaqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: “**Bugungi yashin tezligida o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochish bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” kabi tahdidlar qancha-qancha oilalar, mamlakatlar boshiga qanday og‘ir kulfatlarni solayotganiga barchamiz guvoh bo‘lmoqdamiz. G‘arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota-onasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo‘lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda beparvo bo‘lish, loqayd bo‘lish - qanchalik og‘ir bo‘lmasin, ochiq aytishga majburmiz - bu xiyonat, jinoyat bilan barobardir**”[1], Zero, bugungi kunda “ommaviy madaniyat” madaniy-mafkuraviy tazyiqning eng xavfli qurollaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, mazkur holat, dunyo miqyosida ma’naviyat, madaniyat va mafkuralar o‘rtasida zimdan kurash ketishiga zamin yaratmoqda. Shu o‘rinda, mafkuraviy kurash orqali omma ongiga ta’sir ko‘rsatish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘z navbatida, mazkur harakatlar ma’naviy va axloqiy tubanlikni o‘zida namoyon etuvchi “ommaviy madaniyat” misolida tobora kuchaymoqda. Shu tariqa, mazkur harakatni mohiyatini anglash orqali uning vujudga kelishi va tarixiga e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda bir qator olimlarning tadqiqotlarida “ommaviy madaniyat”ni paydo bo‘lishi va rivojlanishi to‘g‘risida turlicha

yondashuvlari mavjud bo‘lib, quyida ular haqida bildirilgan ayrim fikrlarga e’tibor qaratamiz. Antik dunyoda tashkil etilgan olimpiada o‘yinlari hamda gladiatorlar jangini “ommaviy madaniyat”ning dastlabki ko‘rinishlari sifatida e’tirof etiladi. Bu haqda horijlik tadqiqotchi D.Uayt fikricha, qadimgi Rim amfiteatrlarida namoyish etilgan gladiatorlar jangi ommaviy madaniyatning bir ko‘rinishidir[2],-deya ta’kidlab o‘tgan. Shu o‘rinda, mazkur o‘yinlar usha davrda shavqatsiz va fojiali ko‘rinishga ega bo‘lib, asosan ko‘ngilochar tomosha sifatida emas, balki moddiy manfaatdorlik vositasi sifatida tashkil etilgan. Ushbu ommaviy tadbirlarga keyinchalik o‘zgartirish kiritilib, o‘limga mahkum etilganlar o‘rtasida tashkil etilib, kuchsizlar xalok bo‘lishi, kuchlilar tirik qilib, tomoshabinlarni hayratga solar edi.

Ta’kidlash joizki, mazkur shavqatsiz tomoshani rimliklar ilk bor miloddan avvvali 264 yilda Rimdagi buqabozorda Brutning o‘g‘illari tomonidan otasini xotirlab uyushtirgan, uch juft gladiator jang qilgan izdihomda ko‘rishgandi. Tomosha rimliklarga juda g‘aroyib va diqqatga sazovor bo‘lib ko‘ringanidan Rim salnomasiga kiritilgandi[3]. Shu tariqa, gladiatorlar jangi mil.av.105 yilga kelib, Rimda ommaviy tomoshalar qatoriga kiritilgan. Binobarin, mazkur yondashuv tarafdorlari ommaviy madaniyatni qadimgi dunyoda paydo bo‘lgan degan fikrlarida asosan ommaviy madaniyat aholining ko‘p sonli ommasidan iborat tuban qatlamlariga yo‘naltirilganligiga bevosita e’tibor qaratishadi.

AQShlik geosiyosatchi Zbignev Bjezinskiy o‘zining mashhur “Buyuk shohmot taxtasi” (“Великая шахматная доска”) asarida Amerikaning dunyodagi gegemonligining zamirida quyidagi strategik maqsadlar muhim o‘rin tutishiga bevosita e’tibor qaratib, unda harbiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy yutuqlar bilan bir qatorida madaniyatni ham alohida ajratib ko‘rsatadi. Bu haqda Zbignev Bjezinskiy: “Amerika madaniyat sohasida, uning bir muncha soddaligiga qaramay, ayniqsa, butun jahon yos’hlari orasida benazir jozibadorligidan foydalanadi. Madaniy ustunlik Amerikaning global qudratining yetarlicha baholanmagan jihatidir. O‘z estetik qadriyatlari haqida kim nima desa desin, amerika ommaviy madaniyati, ayniqsa, butun jahondagi yoshlarni ohangrabodek o‘ziga tortadi. Uning jozibadorligi o‘zi targ‘ib etadigan hayotni sevishdan kelib chiqadi, biroq uning jahon bo‘yicha jozibadorligi shak-shubhasizdir”[4],-deya ta’kidlab o‘tadi. Binobarin, ommaviy madaniyatning global miqyosda targ‘ib etilis’hi muayyan mintaqa va hududda yashovchi aholigining ahloqiy qadriyatlariga g‘oyaviy-mafkuraviy ta’sir ko‘rsatis’h va “o‘zgacha” madaniyatni singdiris’h orqali milliy madaniyatga raxna solmoqda. Zero, Zbignev Bjezinskiyning fikriga ko‘ra, “ommaviy

madaniyat” jozibadorligi asosida ijtimoiy egalitarizmga alohida ahamiyat beradigan, ayni paytda, individualizm va shaxs muvaffiqiyatlarini inkor qilmaydigan amerikacha demokratiya yotibdi[5]. Zbignev Bjezinskiy o‘z fikrida ommaviy madaniyatni ijobiy tarzda baholab, uni shaxs rivojlanishida va demokratik siyosiy institutlarni qaror topis’hida muhim yekanligini alohida ta’kidlab o‘tadi. Shu o‘rinda, Z.Bjezinskiy tomonidan bildirilgan fikriga ko‘ra, “ommaviy madaniyat” yeng avvalo, AQSh manfaatlarini ifodalashini alohida ta’kidlaydi. Bu xaqda uning “ommaviy madaniyat” to‘g‘risidagi quyidagi bildirgan fikrlarida ko‘rish mumkin:

“Ommaviy madaniyat”ning onasi Amerika. Zbignev Bjezinskiy bu haqda bunday degan edi: “Agar dunyoga huquqni Rim, parlamentni Angliya, madaniyatni Fransiya bergan bo‘lsa, AQSh fan va texnologik revolyusiyasi bilan “ommaviy madaniyat”ni berdi[5], -deya ta’kidlab o‘tgan yedi. Binobarin, AQShda “ommaviy madaniyat”ning o‘ziga xos rivojlanis’hining zamiriga e’tibor qaratilsa, AQS’h go‘yoki, davlat geosiyosiy xafsizligini himoya qilish madaniyatlarni yaqinlashtirish maqsadida millatlar o‘rtasidagi tafovutni yo‘qotish orqali “amerikalik” degan yagona millatni shakllantirish siyosatini olib borgan edi. O‘z navbatida, mazkur siyosat AQSh davlatining birligini himoya qilgan bo‘lsada, aslida ko‘plab millatlarning yo‘q bo‘lib ketishiga zamin yaratgan edi.

Hozirgi kunga kelib dunyo miqyosida AQSh manfaatlarini ifodalaydigan ekranlarda namoyish yetiladigan “madaniy bosqinchilik”ni o‘zida namoyon etuvchi aksariyat filmlar soni tobora kuchayotganligi bir qator olimlar va siyosatchilarni tashvishga solmoqda. Bugungi kunga kelib ko‘plab mamlakatlarning ekranlarida axloqsizlik, bo‘zg‘unchilik, zo‘ravonlikka asoslangan film va seriallar namoyish etilayotganligi achinarli holdir. Bu haqda AQShlik siyosatchi P.Byukenen, “1950 yillardan boshlangan “ommaviy madaniyat” harakati 1990 yillarga kelib millatimizning naslsizlik balosiga duchor qildi”[6],-deya ta’kidlagan yedi. Binobarin, G‘arb dunyosida “ommaviy madaniyat” oqibatida bir jinsli nikoxni ommaviy avj olis’hi, ayollarni o‘z qomatini saqlas’h maqsadida farzand ko‘rishdan voz kechishi, aksariyat yangi qurilayotgan yosh oilalarda er-xotinni “o‘z-o‘zi” uchun yashashga intilishi va farzandsiz yashashni maqsad qilayotgan oilalarni ko‘payishi ushbu illat keltirib chiqarayotgan asosiy omil ekanligini anglash lozim. Binobarin, “ommaviy madaniyat” orqali dunyo miqyosda buzug‘unchi g‘oyalar, axloqsizlik, g‘ayriinsoniy odatlarni targ‘ib yetish tobora kuchaymoqda. Shu o‘rinda, “ommaviy madaniyat” harakati oqibatida axloqsizlikni madaniyat deb, asl ma’naviy qadriyatlarga bepisandlik bilan qarash

holatlari namoyon bo‘lmoqda. Natijada, mazkur illat mamlakat taraqqiyoti, inson hayoti, oila birdamligi va millat kelajagi yoshlar tarbiyasiga tahdid solayotganligi tashvishlidir. “Ommaviy madaniyat”ning xavfli tomoni shundan iboratki, u milliylik va millatga mutlaqo yot bo‘lgan tubanlik illatlarini o‘zida namoyon etishi tobora kuchaymoqda. Shu tariqa, “ommaviy madaniyat”ning asl mohiyati, millatning milliy madaniyati va mentalitetiga raxna solish orqali begona va yot g‘oyalarni targ‘ib yetishni anglatadi. Natijada, “ommaviy madaniyat” dunyo miqyosda xalq va millatning o‘ziga xosligiga raxna solis’h orqali insonni barcha jabhalarda o‘ziga tobe qilmoqda. Zero, bugungi kunda dunyo miqyosida g‘oyaviy-mafkuraviy kurash olib borish jarayonlari kuchayotganligini anglash qiyin emas, albatta.

O‘tmishdan ma’lumki, xalqaro munosabatlar jarayonida mafkuraviy ta’sir ko‘rsatishda ma’naviyat va madaniyatni targ‘ib etish muhim ahamiyat kasb yetgan. Xususan, tarixda davlatlar miqyosida amalga oshirilgan savdo-sotiq munosabatlarida o‘zga mamlakatlarga olib kelinayotgan tovarlar bilan bir qatorda, shu mamlakatda yashovchi xalqlarning madaniyati va urf-odatlari ham kirib kelgan. “Tuya karvoni bo‘ladimi yoxud kema yukxonasida bo‘ladimi - qanday shaklda bo‘lmasin, olib kelinayotgan tovar yonida hamisha muhim siyosiy “mahsulot”- g‘oya bo‘lgan va boshqa mollar qatori eksport qilingan. Aynan ana shu taktika “universal madaniyat” eksportida bugun ham faol qo‘llanmoqda[7]. Natijada, ayrim kuchlar “ommaviy madaniyat”dan o‘z manfaati yo‘lida foydalanib moddiy foyda olish asosiy maqsadi ekanligi tobora oydinlashmoqda. Shu o‘rinda, “ommaviy madaniyat” zamirida avvalo, tijorat, moddiy manfaatdorlik borligini anglash lozim. Natijada, mustamlakachilar o‘z qadriyatlari va mafkuralarini o‘zlarining koloniyalarida o‘rnatishga alohida e’tibor qaratishgan.

Tarixda yirik davlatlar tomonidan muayyan hudud va mintaqaga o‘z davlatining qadriyatlari, an’analari hamda g‘oyalar va mafkuralarni targ‘ib etishda savdogarlar va missionerlar faoliyati muhim o‘rin tutishgan. Shu tariqa, o‘zga madaniyat, ma’naviyatni targ‘ib yetish orqali inson qalbi va ongini zabt yetishga alohida ye’tibor qaratilgan. Zero, muayyan millat ongiga o‘zga madaniyat, qadriyat, urf-odatlarni singdirish orqali u xalqni osongina zabt etish mumkin. Ayniqsa, “ommaviy madaniyat” targ‘ibotchilari moliyaviy va zamonaviy texnika vositalari orqali insonlar qalbi va ongini zabt yetishga qaratilgan g‘oyalar va mafkuralarini kuchaytirmoqda.

Xususan, “ommaviy madaniyat” namoyondalari g‘oyaviy-mafkuraviy qurolning muhim kurinishi sifatida targ‘ibot va yolg‘on axborotlardan

o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanmoqda. O‘z navbatida, mazkur harakat tarafdorlari axborot oqimidan g‘arazli maqsadda foydalanayotganligi tashvishlidir. Zero, mana shunday murakkab sharoitda dunyo miqyosida tinchlik, barqarorlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash har bir davlat oldida turgan dolzarb vazifadir. Xususan, dunyoning turli mintaqa va davlatlarida kechayotgan ayanchli voqealar tahlili ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va elektron nashrlar ko‘p hollarda ayrim buzg‘unchi kuchlar qo‘lida turli soxta, zararli g‘oya va mafkuralarni targ‘ib etishning qulay va tezkor vositasiga aylanib qolayotganini ko‘rsatayotir. Bu kabi tahdidlar milliy va umuminsoniy qadriyatlar yemirilishiga, zo‘ravonlik, inson taqdiri, jamiyat hayotiga bepisandlik, mas’uliyatsizlik, loqaydlik, andishasizlik, behayolik kabi illatlar ildiz otishiga zamin yaratmoqda.

Dunyo miqyosida yuz berayotgan eng xavfli illat sifatida namoyon bo‘layotgan “ommaviy madaniyat” xurujlari o‘zga bir davlat fuqarolarining qalbi va ongini zabt yetish, mafkurasidan voz kechdirish orqali “ozgacha” mafkuralarni insonlar ongiga singdirishda namoyon bo‘lmoqda. Bugun shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda “ommaviy madaniyat” oqibatida madaniyatsizlik, e’tiqodsizlik kabi qator “ta’limotlar” oshkora, ba’zan esa yashirin tarzda targ‘ib etilmoqda. Natijada milliy ruh, millatning o‘ziga xosligi va asriy qadriyatlarini zimdan yemirishga zamin yaratilmoqda. Yovuzlik, jaholat insonni va jamiyatni tubanlikka boshlovchi, odamlarni g‘arazli niyat va qabih maqsadlarga undovchi “ommaviy madaniyat” xurujlari doimo insoniyat uchun xatarli hisoblangan.

Bu borada fikr yuritganda Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoev: “dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, aholi barcha qatlamlarining axloqiy tarbiyasiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda”[8] – deya ta’kidlagani ayni haqiqatdir. Zero, “ommaviy madaniyat” tahdidlari orqali o‘zlarini ko‘zlangan maqsadlarga yerishish tobora oydinlashmoqda. Shu o‘rinda, “ommaviy madaniyat” tahdidlarga qarshi kurashning ta’sirchan samaradorligini oshirish nihoyatda dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. XXI asrga kelib mafkura poligonlarida o‘zida yovuz va buzg‘unchi g‘oyalarni namoyon etuvchi “ommaviy madaniyat” tahdidi tobora kuchayayotganini aytib o‘tis’h joiz. Ayniqsa, G‘arb olamida keng taraqalayotgan erkinlik niqobidagi “ommaviy madaniyat” zamirida har qanday xalq va millat ma’naviyatini izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy hatarlar yotibdi. Global miqyosda madaniyat ko‘rinishida targ‘ib qilinayotgan “ommaviy madaniyat” tahdidi yoshlarimiz ma’naviyati,

dunyoqarashi va ahloqiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda tobora kengayib, o‘z shaklini o‘zgartirib borayotgan “ommaviy madaniyat”ni aksariyat g‘o‘r va tajribasiz yoshlar “yevropacha madaniyat” va “erkinlik” sifatida qabul qilishayotganligi barchamizdan bu borada jiddiy fikrlashni taqoza etmoqda. Nega deganda, madaniyat ko‘rinishidagi “ommaviy madaniyat” ta’sirida yoshlar qalbi va ongi, ruhiyatini izdan chiqarishga bo‘lgan harakatlarni namoyon bo‘layotganligi juda tashvishlidir. Qolaversa, ushbu mafkuraviy – g‘oyaviy tahdid har qanday xalq va millatning o‘ziga xosligini rad etuvchi g‘oyani targ‘ib etmoqda. Shu tariqa, “ommaviy madaniyat” o‘zida tuban va buzg‘unchi g‘oyalarni namoyon yetish orqali mamlakat taraqqiyotiga tahdid solayotganligi tobora oydinlashmoqda. O‘z navbatida, “ommaviy madaniyat” tarafdorlarining asl maqsadi milliy davlatning taraqqiyot modeliga ishonsizlik uyg‘otish orqali taraqqiy etayotgan davlatning moddiy va ma’naviy boyliklarini egallashdan iboratdir. Aynan mazkur omillar, gegemon davlatlarning dunyoda o‘z hukmronligini o‘rnatishda zo‘ravonlik ruhiyatini va axloqiy buzuqlikni ifoda yetishda “ommaviy madaniyat”ni reklama, targ‘ibot va tashviqot qilish orqali madaniyatlararo ta’sir ko‘rsatishda muhim o‘rin tutmoqda. Ayniqsa, “ommaviy madaniyat”ning asosiy hususiyatlaridan biri – gegemon davlatning madaniyatini rivojlanayotgan mamlakatga “eksport” qilishda namoyon bo‘lmoqda. Xususan, qudratli davlatlar mafkuraviy ta’sir o‘tkazish, milliy manfaatlarni ro‘yobga chiqarishda o‘zga davlat madaniyatga raxna solishda ta’sirchan kurol sifatida “ommaviy madaniyat” niqobidan foydalanmoqda.

Shuni alohida qayd etish lozimki, jamiyatda vujudga keladigan ma’naviy tubanlik va g‘oyaviy bo‘shliq tufayli yoshlarimizni qalbi va ongini zabt etish orqali ularni to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘itishga undayotgan “ommaviy madaniyat” tahdidlarini o‘z vaqtida ogox bo‘lishni taqoza yetadi.

“Ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi faoliyat axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik g‘oyalarini tarqatish va shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning ko‘p ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlardir. U odamlarning didini yuksaltirishga, milliy va jahon san’atining mumtoz asarlarini tushunishga emas, balki ulardan uzoqlashtirishga xizmat qiladi[9]. Zero, “ommaviy madaniyat” avvalo, madaniyatsizlik ifodasi bo‘lib, insonga qarshi qaratilgan zo‘ravonliklar, fahsh, qotillik, hudbinlik kabi milliy ma’naviyatimizga mutloqo yot bo‘lgan, tuban illatlarni targ‘ib etmoqda. G‘arbcha libosidagi “ommaviy

madaniyat” ekspansiyasi tabiiy ravishda har qanday xalq va millatlar o‘rtasida madaniyat borasida o‘zaro ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda. Aynan shu omillar “ommaviy madaniyat” ta’siri ostida azaliy qadriyatlar tizimini vayron etis’h orqali shaxsni tubanlashuv girdobiga etaklashini anglash lozim.

Xulosa qilib aytganda, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev: **“Ommaviy madaniyat” balosi ko‘plab yoshlarni o‘z domiga tortib, millat va yurt uchun butunlay begona bo‘lgan an’analar kirib kelishiga sabab bo‘lmoqda”[10]**, Zero, “ommaviy madaniyat” targ‘ibotchilari insonlar qalbi va ongida vatanparvarlik, Vatanga muhabbat tuyg‘ularini so‘ndirib xalqni azaliy ma’naviyati va e’tiqodidan mahrum etis’h orqali millatni o‘zligi hamda tarixidan judo qilishga intilayotganligini teran anglash lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мирзиёев Ш. “Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз”. Тошкент- “Ўзбекистон” – 2017. 65-бет.
2. Висола Қаршибоева. Риёкор “маданият”. Тафаккур.-Т.: 2013йил №2 .Б-85.
3. Шуҳрат Ғойибназаров. Оммавий маданият. “Ўзбекистон” Т.:2012 йил. Б-18-19.
4. Бжезинский З. Великая шахматная доска.-М.: 2000.-С.36-38.
5. Танец в системе массовой культуры. Л.П.Морина. Российская массовая культура конца XX века. Материалы круглого стола. 4 декабря 2001 г. Санкт-Петербург. СПб.: Санкт-Петербургское философское общество. 2001. С.43.
6. Саломатжон Жабборова. Пинҳона тажовуз. Тафаккур.-Т:2013йил №3 .Б-115.
7. Маънавий юксалиш йўлида.-Т.: “Маънавият”, 2008. Б-121.
8. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Оъзбекистон, 2021. – Б. 285.
9. Ходжаева Д. Маънавий таҳдид: унинг моҳияти, кўринишлари ва уларга қарши курашнинг зарурати // “Глобаллашув шароитида ватанпарварлик тарбиясининг маънавий-маърифий технологиялари” республика илмий-амалий конференцияси материаллар тўплами. – Тошкент: 2019. – Б. 464.
10. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент - «Ўзбекистон» - 2017. 46-бет.

ABBOS ABDILXAMEDOV,
Toshkent viloyati IIBB JXX Probatsiya boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i, podpolkovnik

YOSHLAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISH, GLOBALLASHUV JARAYONLARIDA TAHDIDLARDAN HIMOYALASHDA – DOLZARB VAZIFA

“Men siz, aziz farzandlarimdan bir narsani so‘rayman: tinimsiz o‘qib, zamonaviy bilimlarni egallashdan, ko‘nglingizdagi ezgu maqsadlar sari xarakat qilishdan, hech qachon to‘xtamang”! [1]
Shavkat Mirziyoyev

Yigirma birinchi asr o‘z mohiyatiga ko‘ra, globallashuv jarayoni kechayotgan asr bo‘lib, u dunyoning barcha mintaqalarida ijtimoiy -madaniy hodisalarga o‘zining turlicha ta’sirini o‘tkazmoqda. Bunday ta’sirning bir xil emasligi dunyo mamlakatlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, axborot, ma’naviy salohiyatlari va geosiyosiy omillar bilan chambarchas bog‘liq. Dunyoda yuz berayotgan bu kabi o‘ta shiddatli va tezkor jarayonlarning avj olishi sharoitida milliy ma’naviyatga qaratilgan tahdidlar tobora oshib bormoqda. Ana shu ta’kidlardan kelib chiqib, millat ma’naviyatiga qaratilgan tahdidlar birinchi galda, mamlakat rivojining ertangi kunini yaratuvchi yoshlarga, ularning ongi, dunyoqarashiga qarshi qaratilganligi bilan xavflidir. Chunki ma’naviyatning inqirozga yuz tutishi, albatta, mamlakatning taraqqiyotdan orqada qolishiga, boshqa davlatlarning izmida bo‘lishiga olib keladi. **Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Jaholatga qarshi – ma’rifat”ni qurol qilgan ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan boy ma’naviy meros o‘ziga xos najot qal’asi, himoya qo‘rg‘oni vazifasini o‘taydi.** Shu bois ushbu ulug‘vor qadriyat barcha olimu fuzalolar tomonidan ulug‘langan, muqaddas va mo‘tabar kitoblarda yuksak ne’mat sifatida e’tirof etilgan.

Ularning hayot yo’lidagi erishgan har bir yaxshiligi, ilmi hamda intilishi ma’rifat sababdir. Ya’ni, yomonlik va jaholatga qarshi ma’rifat bilan javob berganidir. Ular hayotiga nazar tashlasak, barchasi biz uchun ibrat. Barchisi ma’rifat uchun kurashganlardir. Barchasi butun umrini ilm targ’ibiga baxshida etgan ulug’ allomalardir.

Shunday allomalardan biri Abu Homid G'azzoliy o'zining uzoq yillik ilmiy izlanishlari va kuzatishlari natijasida yuzaga kelgan "Ihyou ulumiddin" asarida ilmga "mutlaq fazilat" ya'ni, hech qanday kuch mahv eta olmaydigan qudrat deya yuksak baho beriladi. Allomaning fikricha, insonlarning butun saodati uchun ikki narsa shart: birinchisi – ilm, ikkinchisi – amal. Mutafakkir ta'kidlashicha, insonning baxtli bo'lishi uchun ilmning o'zigina yetmaydi, balki kishi ilmi yordamida tana va ruhini tarbiya qilishga burchlidir.

Prezident boshchiligida joriy yilning 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazilgan bo'lib, unda bir qator qilinishi kerak bo'lgan amaliy ishlar e'tirof etilgan. Shubhasiz, har bir xalq avvalo ma'naviy birlashuvi, milliy g'oyasi bilan yuksalgan. Bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo'lidan borayotgan mamlakatimizda ham milliy g'oya masalasi juda muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortib borayotgan ayni damda har bir inson ma'naviy kamolotini yuksaltirishi, millatlararo totuvlikni singdirishi, o'zligini anglashi, turli salbiy illatlarga qarshi kurashishi shart. Mamlakat rahbarligida o'tkazilgan yig'ilishda ayni mana shu jihatlarga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan bir qatorda davlatimiz rahbari loqaydlik va beparvolik eng katta xavf ekanini, bugun uchrayotgan ijtimoiy muammolarni kamaytirish uchun nuroniylar tarbiyasi, jamoatchilik nazorati yetishmayotganini ta'kidlab o'tgan. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yagona tizimini yaratish, xususan, o'g'il-qizlarni bolaligidanoq bilimli va fazilatli etib tarbiyalash, buning uchun maktabgacha ta'lim muassasalariga metodik yordam ko'rsatish muhimligi ham qayd etilgan. Albatta, yig'ilish davomida berilgan har bir vazifa inson ongining yuksalishida, joylarda ma'naviy kamolotning rivojlanishida xizmat qiladi. [2]

Bugun biz tez suratlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigano'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashayapmiz. Hozirgi paytda yer yuzida qanday voqealar yuz bermasin, odamzod bu haqda zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas. Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotgan bir paytda mamlakatimizda tinchlik, barqarorlik hukum surmoqda. Bu esa xalqimiz ma'naviyatini, madaniyatini boyitishga berayotgan yuksak e'tiborning samarasidir.

Yurtimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom va barkamol insonlar etib voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki

murakkab va tahlikali zamonda milliy qadryatlarimizga yot g'oyalar, yoshlarning ongi va qalbini egallashga qaratilgan g'arazli xurujlar tobora kuchayib bormoqda. Bunday vaziyatlarda ma'rifatning inson hayotida turli g'oyalarga qarshi immunitet hosil qiluvchi eng muhim vosita ekanligi yanada o'z isbotini topib bormoqda. Butun dunyo taniydigan shoirlarimizning she'rlarida, bastakorlarimizning kuylarida vatan madhi yangraydi.

Kishilarning ma'naviy dunyosini boyitmasdan, ularda axloqiy onglilikni, milliy va umuminsoniy axloqiy fazilatlarni rivoj toptirmasdan turib ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy jabhalardagi vazifalarni bajarish mumkin emas. yoxud odamlarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirmasdan turib, O'zbekistonning buyuk kelajagini ta'minlash mumkin emas. Axloqiy onglilik ma'naviy madaniylilikning ajralmasqismidir. Axloqiy boylik ma'naviy boyliklarning o'ziga xos turi bo'lib, ijtimoiy turmush asosida shakllanadi.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishishiga bag'ishlangan tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqida "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" – deb ta'kidlaganlari bejiz emas. [3]

Jamiyatimizga har tomonlama barkamol, mustaqillik ma'naviyatiga ega bo`lgan insonlar zarur. Zero, "zaminimizda yashab o`tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g'urur bilan ta'kidlash lozim [4].

Shu bilan birga, jahonda g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar keskin davom etayotgan, ma'naviy tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda yoshlar o'rtasida milliy qadriyatlarga bepisandlik, zararli yot g'oyalar ta'siriga berilish, jinoyatchilik va ekstremizm harakatlariga adashib qo'shilib qolish holatlari hamon uchramoqda.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini oshirish, ma'naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatiga yaqindan ko'maklashish maqsadida Prezidentimizning 03.05.2019 yil kuni PQ-4307-son Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida qarori qabul qilinib, qaror asosida

amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar hamda ijro etish mexnaizimi tasdiqlandi. [5]

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohatlarni davomi sifatida, Prezidentimizning 2021 yil 26 martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son qarori qabul qilindi.

Qarorda, *Ma’naviy xavfsizlik masalasi millatning mavjudligini belgilovchi vazifalar, axloqiy qadriyatlar orqali jamiyat va uning madaniyatini saqlashga qaratilgan yaxlit ijtimoiy tizimlar faoliyatini namoyon etadi.*

Bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to‘qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o‘zini o‘ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste’molchilik kayfiyati turli yo‘llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti.

Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib bormoqda. Ba’zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, norozilik kayfiyati avj oldirilmoqda. Bunday tahlikali vaziyatda hushyor va ogoh bo‘lib, xalqimizning tinchligi, mamlakatimiz manfaatlarini o‘ylab yashash zarur.

Yuksak ma’naviyatli, chuqur bilimga ega, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida kamol topadigan avlodni tarbiyalash turli ma’naviy tahdidlardan himoyalangan yangi avlodni yetishtirish demakdir.[6].

Bugungi kunda mamlakatimizdagi 800 dan ortiq madaniyat markazlari, 312 ta musiqa va san’at maktablariga atigi 130 ming nafar o‘g‘il-qiz qamrab olingani, mazkur muassasalarning aksariyati o‘quv qo‘llanmalari, notalar to‘plami, musiqa asboblari, mebel va jihozlar bilan yetarli darajada ta’minlanmagani ko‘rsatib o‘tildi.

Davlatimiz rahbari joylardagi madaniyat markazlari, musiqa va san’at maktablarining moddiy-texnik bazasi va ulardan foydalanish holatini o‘rganib, ularning faoliyatini yaxshilash bo‘yicha topshiriqlar berdi.

Madaniyat vazirligi va Xalq ta’limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman (shahar) madaniyat markazlari va umumta’lim maktablarida yoshlarning qiziqishlaridan kelib chiqib, qo‘shimcha 1,5 mingta to‘garak tashkil etish vazifasi qo‘yildi. Tashabbuskor iste’dodli yoshlar va mahalliy homiylarni jalb etgan holda, madaniyat markazlarida badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va “Yoshlar

klublari” tashkil qilish zarurligi ta’kidlandi.

Atoqli san’atkor va iste’dodli ijodkorlarni tumanlardagi madaniy ishlarga ko‘makchi sifatida biriktirish yaxshi natija berayotganini inobatga olib, bu tajribani butun mamlakatga yoyish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Unga muvofiq, taniqli artistlar tuman va shaharlarga ijodiy maslahatchi sifatida biriktirilib, o‘sha joylarda madaniyat va san’atni rivojlantirishga mas’ul bo‘ladi, tuman va shaharlar hokimlari esa ushbu ishlarga moddiy va tashkiliy jihatdan yordam beradi [7].

Umuman olganda, èshlar ma’naviyatining shakllanish jaraèni o‘zaro ziddiyatli va cheksizdir. Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishga ta’sir qiluvchi qarama-qarshiliklar ob’ektiv va sub’ektivdir. Shu bilan birga, biz ushbu qarama-qarshiliklarning barcha èsh bosqichlarida izomorfik ekanligini ta’kidlaymiz va agar ular hal yetilsa, u holda shaxsning ma’naviy asoslarini mustahkamlaydi, agar ular hal yetilmasa, demak, ma’naviy rivojlanish boshi berk ko‘chaga kirishi mumkin. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan harakatlar strategiyasi hamda 5 ta muhim tashabbusda èshlar ma’naviyatini yuksaltirish, bu borada amalga oshirilaètgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, èshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunèqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash kabi masalalar muhim o‘rinni egallaydi [8].

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Prezidentimiz 2022 yil 30 iyun kuni “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida Yoshlar kuni munosabati bilan tashkil etilgan tadbirdagi nutqi. https://president.uz/oz/lists/view/111

2. S.Ishmuratova Inson huquqlari bo’yicha O’zbekiston Respublikasi Milliy markaz. http://nhrc.uz/oz/news/millatlararo-totuvlik-va-diniy-bagrikenglik-jaholatga-qarshi-marifat-bilan

3. Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. https://president.uz/oz/lists/view/111

4. Qurbonova O‘. Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida ta‘‘lim-tarbiya masalalari. .

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 may kunidagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 mart kunidagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 19.03.2019 yil kunidagi nutqi. https://president.uz/uz/2437

8. Gulchehra G‘affarova. YOSHLAR MA’NAVIYATI - HARAKATLAR STRATEGIYASIDA MUHIM YO‘NALISH SIFATIDA ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723. https://www.ares.uz/uz

BAXTIYAR ABDULLAYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi tadqiqotchisi

YANGI O‘ZBEKISTONDA MAFKURAVIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH MASALALARI

Bugungi kunda jahonda sodir bo‘layotgan hudud, millat, din va konfessiyalararo nizolar, mafkuraviy, g‘oyaviy hamda informatsion kurashlar kuchayib borayotgan murakkab va tahlikali davrda mamlakatlarning mafkuraviy xavfsizligini ta’minlashda axborotlar tez almashinuvi sabab, ta’sirchan siyosiy texnologiyalarni ishlab chiqish va uni amaliyotga qo‘llash kabi masalalar dolzarbligini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, aholining umuminsoniy va milliy qadriyatlari asosida mafkuraviy immunitetini oshirishga qaratilgan g‘oyaviy-mafkuraviy, siyosiy texnologiyalarni yaratilishiga alohida e’tibor berilmoqda. Shu bilan birga, qo‘llanayotgan texnologiyalar ta’sirida odamlarni davlat va jamiyatga munosabati ongli ravishda o‘zgarayotgani, adolat, tenglik, ochiqlik siyosati borasidagi qarashlari ijobiydan ko‘ra, salbiy tomonga o‘zgarmoqda.

Shuni e’tiborga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasini 2017 – 2021-yillarda rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida, 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida, 2017-yil 28-iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-sonli hamda 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-sonli qarorlarida dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib berish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, “ommaviy ma’naviyat”, narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish vazifalari belgilangan.

Shuningdek, jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar – el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish, targ‘ibot-tashviqot ishlarida aholining hududiy, kasbiy hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda

mutanosib, maqsadli va mazmunli yondashuvni joriy qilishga alohida e’tibor qaratilgan.

So‘nggi yillarda davlat rahbari boshchiligida mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash va xalqni dardini eshitish maqsadida uyma-uy yurishlar tashkil etildi. Xalq qabulxonalari ochilgani ham xalqning muammolarini yechish va ularga yaqindan ko‘mak berish edi. Natijada xalqimizning ko‘plab muammolari hal qilindi. Shu bilan birga, xalqning murojaat qilish ma’naviyatini shakllantirildi. Chin ma’noda, Murojaatnomada keltirilgan, Imom Moturidiyning: “Elu yurt bilan hamdard bo‘lib yashagin, toki xalq hamisha sen bilan birga bo‘lgay”[18], degan hayotiy haqiqatlari amalda ijro etildi. Mas’ul rahbar aholini ichiga har kuni kirib borishi, xalqning muammosini eshitishi, ularga e’tibor qaratilishi zarurligi topshiriq qilindi. Odamlar mehrini har bir davlat vakili halol mehnati, samimiyligi bilan qozonish kerakligi aytildi. Demak, har bir davlat vakilidan ma’naviyati yuksak bo‘lishi talab etilmoqda. Bunday ezgu ishlarning barchasi Yangi O‘zbekistonning mafkuraviy xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan.

Shu sababli, ma’naviy-ma’rifiy ishlar holati, milliy g‘oyaning mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni, jamiyat barqarorligiga salbiy ta’sir etuvchi tahdidlar va ularni bartaraf etish yuzasidan ilmiy-amaliy izlanishlar olib borishni taqazo etadi. Bu nafaqat aholi tinchligini saqlash, ayniqsa, uning fikrlash tarzini yanada sog‘lomlashtirish, mafkuraviy immunitetini oshirish, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga xolisona baho berish, har bir ota va onaning farzandi tarbiyasiga e’tibor qaratishini kuchaytirish, oila atalmish institutning mustahkamligini ta’minlashga qaratilgan ishlari yanada kuchaytirish zaruriyatini anglatadi.

Biroq mafkuraviy globallashuv sharoitida insoniyat ongi va tafakkuriga mafkuraviy ta’sir ko‘rsatish shakllari hamda mazmuni o‘zgardi. Odamlar, xususan, yoshlar ongi va qalbida vayronkor tuyg‘ularni uyg‘otish, egotsentrizm, diniy ekstremizm, terrorizm, kosmopolitizm, “ma’naviy emigratsiya” (baxtni o‘z vatanidan emas, o‘zga joylardan qidirish), fashizm, millatchilik singari illatlarni rag‘batlantirishga bo‘lgan harakatlar avj olmoqda.

Mana shunday sharoitda yurtimizdagi mafkuraviy ishlarni umum-planetar miqyosda g‘oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan zamon talablari asosida tashkil etish kerak. Zero, mustaqillikni asrab-avaylash, istiqlol yillarida erishilgan muvaffaqiyat va marralarni saqlash va yanada rivojlantirish, yurtimizdagi barqaror tinchlik hamda osoyishtalikni muhofaza etish bugungi kun va kelajak uchun ta’minlanishi

[18] Мирзиёев Ш. Ўзбекистон Республикаси Олий маслиси ва Ўзбекистон халқига мурожаати. 2022 йил 22 декабрь

zarur bo‘lgan vazifalardir.

Tez sur’atlarda o‘zgarib borayotgan zamon jaholatga qarshi ma’rifat bilan fidoyilar-cha kurasha oladigan jonkuyar targ‘ibotchilarni bu muhim jabhaga safarbar etishni taqozo etadi. Qolaversa, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-mafkuraviy jihatdan tobora globallashayotgan dunyoda voqealar rivojidan bir qadam oldinda yurish, ijtimoiy-siyosiy hodisalarning o‘zgarish tamoyillarini ilmiy bashorat qilib borish va shu asosda ma’naviy-ma’rifiy, mafkuraviy soha ishlarini yanada kuchaytirish lozim.

O‘zbekistonning milliy strategiyasi – dunyodagi eng rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallash maqsadini amalga oshirishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish, bunda mamlakatimizning qisqa tarixiy davr mobaynida barcha sohalarda erishgan yutuqlarini tahlil va talqin etishda “Kim edigu kim bo‘ldik? Endi qanday marralar sari intilamiz?” degan muhim mezondan kelib chiqish talab etiladi.

Yuqorida bayon etilgan masala va muammolardan kelib chiqib, mamlakatimizda olib borilayotgan mafkuraviy ishlar samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan “Mafkuraviy xarita”sini ishlab chiqilishi zarur. Mazkur xaritaning maqsadi O‘zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida mafkuraviy ishlar samaradorligini yanada oshirish yo‘l-yo‘riq va yo‘nalishlarini belgilab olishdan iborat. Bunda, eng avvalo aholining mafkuraviy immunitetini aniqlab olinishi kerak.

Mafkuraviy immunitet darajasi. Mafkuraviy immunitet[19] – shaxs ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g‘oyaviy ta’sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g‘oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi hisoblanadi.

Mafkuraviy immunitet indikatori ma’naviy illatlar, ichki va tashqi tahdidlar, buzg‘unchi, vayronkor g‘oya va mafkuralarga nisbatan shakllantiriladigan tizim bo‘lib, bu faoliyat mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashga qaratiladi.

Mafkuraviy immunitet indikatorining mezonlari: ma’naviyat, qadriyat, urf-odat, an’ana, ijtimoiy norma, o‘zlikni anglash, yot g‘oya, buzg‘unchi mafkura, vayronkor g‘oya, ichki va tashqi tahdid, axborot xurujlari, ochiq va yopiq tahdid, yashirin g‘oya, g‘oyaviy bosim, mafkuraviy pozitsiya, g‘oyaviy kurashuvchanlik, mafkuraviy bo‘shliq kabi sifatlar va “himoyalanish”, “qarshi kurash”, “axborotni saralash”, “boshqarish”,

[19] Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги давлат ва жамият қурилиши академияси Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти “Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати” . Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. – Т:. 2010.-Б 292.

“mafkuraviy pozitsiya” kabi funksiyalarni o‘z ichiga oladi.

Uning ziddi – mafkuraviy immunitetning shakllanmaganligi. U himoyasizlik, qadriyatlar tizimiga e’tiborsizlik, an’analarga befarqlik, urf-odatlarni bilmaslik, begona g‘oyalarga nisbatan mayldor, kurashuvchan emas, qarshi kurash tizimi sust kabilarda namoyon bo‘ladi.

Hududlar kesimida (fuqaro – oila – mahalla – tuman – viloyat – respublika) mafkuraviy xavfsizlik holatini aniqlash hamda aholining turli qatlam vakillari ongi va qalbiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan, milliy va umuminsoniy ma’naviy mezonlarga zid bo‘lgan ichki va tashqi tahdidlarning turi, maqsadi, mazmuni va ta’sir kuchini aniqlash hamda ularni samarali bartaraf etish va mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan “Mafkuraviy xarita”ni ishlab chiqish zarurdir. Unda quyidagi asosiy vazifalar qo‘yilishi kerak:

hududlar (fuqaro – oila – mahalla – tuman – viloyat – respublika) kesimida aholi, ayniqsa, yoshlar ongi va qalbiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan ichki va tashqi tahdidlarni o‘rganish va darajalarini xaritada aks ettirish;

mamlakatda mafkuraviy xavfsizlikning tizimli monitoringini amalga oshirish;

- aholining mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga qaratilgan innovatsion metodlarni ishlab chiqish;

- aniqlangan tahdidlar darajalaridan kelib chiqib, maqsadli va manzilli tavsiyalar tayyorlash;

- aholining mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy dasturlar ishlab chiqish va xokozo.

Xulosa qilib aytganda, har bir hududning mafkuraviy xavfsizligini ta’minlashda targ‘ibotning eng zamonaviy texnologiyalarini yaratish, davlatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish, tahlil qilish hamda uni amaliyotga tadbiq etish zarur. Shuningdek, aholining mafkuraviy immunitetini darajalarini aniqlash va shu asosda mafkuraviy xavfsizligini ta’minlash mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

MAQSUD MUSAYEV,
Samarqand viloyati IIB Samarqand shahar bo‘yicha ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi 7-son ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i

MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR O‘RTASIDAGI HAMKORLIK ZARURATI

Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasidagi hamkorlik zarurati juda muhimdir. Bunday hamkorlik nafaqat milliy xavfsizlikni ta’minlash, balki jamiyatda barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu haqda fikr yuritganda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: “Hech kimga sir emas, bugun dunyoda beqaror vaziyat hukm surmoqda. Xalqaro maydonda davlatlarning bir-biriga o‘zaro ishonchi susayib bormoqda. Bunday murakkab sharoitda hayotning o‘zi bizdan mamlakatimizda hukm surayotgan o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, totuvlik va birdamlik muhitini yanada mustahkamlash, yoshlarni buzg‘unchi yot g‘oya va oqimlar, tashqi ta’sirlardan asrashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarishni talab etmoqda”[1]. Ayniqsa, bugungi kunda jamiyatimizda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash, mamlakatimizdagi barcha fuqarolarning huquq va erkinliklarini har tomonlama himoya qilish ko‘p millatli O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohatlarning asosiy ustuvor yo‘nalishiga aylanib bormoqda. Bugungi tahlikali zamonda dunyo sahnida yuz berayotgan mafkuraviy jarayonlar bizdan munatazam ogoh bo‘lishni, fuqarolarimizning ongi va qalbini zabt etishi mumkin bo‘lgan turli tahdidlardan himoya qilish zaruratini ko‘rsatmoqda. Shu o‘rinda, muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida samarali ma’lumot almashinuvi mafkuraviy tahdidlarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga javob berish imkonini beradi. Bu ma’lumotlarga jamiyatdagi tendensiyalar, xatarlar va tahdidlar, shuningdek, ularning oldini olish choralarini kirishi mumkin. Har bir organ o‘z sohasiga tegishli ma’lumotlar va tajribaga ega bo‘lgani uchun, ularning birgalikdagi harakatlari mafkuraviy tahdidlarga qarshi samarali kurashish uchun muhimdir. Masalan, ichki ishlar organlari jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashishda asosiy rol o‘ynasa, ta’lim va madaniyat organlari mafkuraviy immunitetni kuchaytirishda muhim o‘rin tutadi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlari o‘rtasida muntazam muloqot va konsultatsiyalar o‘tkazish orqali ma’lumot almashinuvi va

tajriba bo‘lishish mumkin. Bu shuningdek, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishda umumiy strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Tahdidlar bo‘yicha birgalikda tadbirlar va operatsiyalar o‘tkazish orqali organlar o‘z kuchlarini birlashtirib, mafkuraviy tahdidlarni kamaytirishda muvaffaqiyatli natijalarga erishishi mumkin. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun qo‘shma ta’lim va treninglar tashkil etish orqali xodimlarning ko‘nikmalari va bilimlarini oshirish mumkin. Bu ularni mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda samaraliroq ishlashga tayyorlaydi. **Ichki ishlar va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan o‘tkazilgan samarali tadbirlar natijasida iqtisodiyot hamda boshqaruv tartibi va odil sudlov sohasida 1 064 nafar shaxs tomonidan sodir etilgan 849 ta jinoyat aniqlanib, ular oqibatida yetkazilgan 135,6 mlrd. so‘m miqdoridagi zarar undirilishi ta’minlangan[2].**

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash uchun qonunchilik bazasini takomillashtirish zarur. Bu qonunlar mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda organlarning harakatlarini muvofiqlashtirish va ularga huquqiy asoslarni ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi kerak. Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda davlat siyosati ham muhim ahamiyatga ega. Bu siyosat milliy xavfsizlik, mafkuraviy barqarorlik va jamiyatdagi birdamlikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi kerak. Ushbu hamkorlik va integratsiya mafkuraviy tahdidlarga qarshi samarali kurashish uchun zarurdir. Bu nafaqat mafkuraviy himoyani kuchaytirishga, balki jamiyatda barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashga ham yordam beradi. Terrorizm kabi mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi va xavfsizlik idoralari o‘rtasidagi hamkorlik zarurati, ayniqsa, zamonaviy ijtimoiy-siyosiy muammolar sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Terrorizm murakkab va ko‘p qatlamli hodisa bo‘lib, davlat siyosatining barcha darajalarida yaxlit va muvofiqlashtirilgan yondashuvni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning pirovard maqsadi demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun mustahkam moddiy negizni yaratishdir. Ushbu islohotlarning negizida eng avvalo, inson huquqlari va manfaatlari yotadi. Konstitusiyamizda belgilab berilgan normalar asosida mamlakatimizda inson, uning huquq va erkinliklari, sha’ni hamda qadr-qimmati eng oliy qadriyat darajasiga ko‘tarildi[3].

Zamonaviy terrorizm nafaqat jismoniy, balki mafkuraviy jihatga ham

ega bo‘lib, jamiyat ongiga, siyosiy barqarorlik va davlat institutlariga jiddiy tahdid soladi. Bu mafkuraviy tahdid ham harbiy, ham axborot-tashviqot tadbirlarini o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Shuni hisobga olish kerakki, terrorizm radikal g‘oyalarni tarqatish orqali davlat tuzilmalarini izdan chiqarish va jamiyatni beqarorlashtirishga qaratilgan. Binobarin, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash huquqni muhofaza qiluvchi va xavfsizlik organlarining ushbu tahdidlarning oldini olish, zararsizlantirish va bartaraf etishda faol ishtirok etishini taqozo etadi. Terrorizmga qarshi samarali kurash turli tuzilmalar, masalan, Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston milliy gvardiyasi va boshqalar o‘rtasida harakatlarni aniq muvofiqlashtirishni talab qiladi. Bu yagona strategiyalarni ishlab chiqish, mas’uliyat sohalarini aniq belgilash va yagona muvofiqlashtirish mexanizmini yaratishni o‘z ichiga oladi. Muvofiqlashtirilgan yondashuv sa’y-harakatlarning takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaydi, tezkorlikni oshiradi va terrorizmga qarshi kurash samaradorligini oshiradi. Bu, ayniqsa, terroristik guruhlar o‘z maqsadlariga erishish uchun qarshi choralarda tartibsizlik va samarasizlikdan foydalanishlari mumkin bo‘lgan muhitda juda muhimdir.

Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarining o‘zaro hamkorligi zarurati zamonaviy jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki ishlar organlari O‘zbekistonning siyosiy tizimida muhim o‘rin tutadi, jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashda asosiy rol o‘ynaydi. Jamiyat mafkuraviy tahdidlarga duch kelayotgan sharoitda (masalan, ekstremizm, radikallashuv, terrorizm mafkuralari) ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish zarurati yanada dolzarb bo‘lib bormoqda.

Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash sharoitida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jamiyat bilan o‘zaro hamkorligini amalga oshirishda fuqarolik-huquqiy mexanizmlariga tayanishi muhim ahamiyatga ega. Bu ma’rifiy va axborot dasturlari, fuqarolik jamiyati bilan o‘zaro hamkorlik va qonuniy ta’sir ko‘rsatish vositalarini qo‘llash orqali mafkuraviy ekstremizmning oldini olishga qaratilgan ishlarni ko‘zda tutadi. Ichki ishlar bo‘limi va huquqni muhofaza qilish organlarining birgalikdagi faoliyati jamiyat bilan ochiq muloqot uchun shart-sharoit yaratishni o‘z ichiga olishi kerak, bu esa buzg‘unchi mafkuralar tarqalishining oldini olishga xizmat qiladi.

Hozirgi zamon ommaviy ongiga turli axborot va mafkuraviy oqimlar ta’sir ko‘rsatmoqda, bu esa mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish ishlarini ayniqsa qiyinlashtiradi. Jamoatchilik fikri turli

stereotiplar va xurofotlar ta’sirida shakllanayotgan bir sharoitda ichki ishlar bo‘limi va huquqni muhofaza qilish organlarining aholi oldida ushbu organlarning ob’ektiv va konstruktiv qiyofasini shakllantirish borasidagi say-harakatlarini muvofiqlashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunga jamoatchilik bilan aloqalar va ommaviy axborot vositalari bilan samarali aloqalar kiradi. Aloqa va axborot shaffofligi: Huquqni muhofaza qiluvchi organlarining ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorligi mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega. Jamoatchilik huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xatti-harakatlari to‘g‘risida ishonchli ma’lumotlarni olishi zarur, bu esa ularning faoliyatiga ishonch va qo‘llab-quvvatlashni mustahkamlashga yordam beradi. Qolaversa, aholining huquq-tartibot idoralariga ishonchini susaytiradigan salbiy xabarlarga zudlik bilan munosabat bildirish zarur.

Ichki ishlar organlari faoliyati ustidan fuqarolik nazoratini kuchaytirish ularning samaradorligini oshirishning muhim shartidir. Mafkuraviy tahdidlar oldida bu nazorat huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida shaffoflik va javobgarlikni ta’minlash imkonini beradi, bu esa aholi ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ichki ishlar boshqarmasi huzuridagi real vakolatlarga ega bo‘lgan Jamoatchilik kengashlari mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda ko‘rilayotgan chora-tadbirlarini monitoring qilish va baholash vositasiga aylanishi mumkin. Shunday qilib, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarining o‘zaro hamkorligi zarurati jamiyatni buzg‘unchi mafkuralardan asrash, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlash zarurati bilan belgilanadi. Bunday hamkorlik professionallik, ochiqlik, axborot shaffofligi va fuqarolik jamiyati bilan samarali muloqot asosida qurilishi kerak.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan mamlakatda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari belgilandi. Shu jumladan ichki ishlar organlari sohasida ham ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirishga qaratilgan bir qator ishlar qilindi. Xususan, davlatimiz rahbarining 2021 yil 2 apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5050-son qarori bilan “Ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasi” tasdiqlandi. Ushbu konsepsiyada ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish, xodimlarning

ma’naviy salohiyati va mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ularning ongida Vatan taqdiri hamda kelajagi uchun daxldorlik tuyg‘usini yanada mustahkamlash kabi ulug‘ maqsadlar o‘z aksini topgan[4].

Zamonaviy O‘zbekistonda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda huquqni muhofaza qilish organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik zarurati alohida e’tibor va kompleks yondashuvni talab qiladi. Ekstremizm, radikallashuv va buzg‘unchi mafkuralarning tarqalishi kabi mafkuraviy tahdidlar kuchayib borayotgan bir sharoitda huquqni muhofaza qiluvchi organlarining o‘zaro samarali hamkorligi jamoat xavfsizligi va barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki ishlar organlari O‘zbekistonda huquqni muhofaza qilish organlari tizimida asosiy o‘rinni egallaydi va ularning faoliyati jamiyatdagi barqarorlikka bevosita ta’sir qiladi. Ichki ishlar organlarining ijobiy imidjini shakllantirish, xodimlarning vakolatlarini oshirish ularning samaradorligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan muhim jihatlardir. Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash sharoitida ichki ishlar organlarining imiji nafaqat fuqarolarning ishonchini mustahkamlash, balki ushbu tahdidlarga qarshi kurashishda jamoatchilik ko‘magini safarbar etishda ham muhim o‘rin tutadi.

Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish zarur bo‘lgan sharoitlarda xodimlarni nafaqat kasbiy tayyorgarligini oshirish, balki ularni munosib darajada rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash uchun ularning mehnat sharoitlarini ham yaxshilash zarur. Jamoatchilik fikri ichki ishlar organlari xodimlarining ma’naviy-psixologik holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, bu esa o‘z navbatida ularning o‘z xizmat vazifalarini samarali bajarish qobiliyatiga ta’sir qiladi. Mafkuraviy tahdidlar sharoitida jamoatchilikni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

Raqamli asrda Internet mafkuraviy tahdidlarni tarqatishning muhim vositasiga aylandi. Ichki ishlar idoralari o‘z faoliyati to‘g‘risida ishonchli ma’lumotlarni tarqatish, buzg‘unchi mafkuralarga qarshi kurashish uchun internet imkoniyatlaridan faol foydalanishi lozim. Mahalliy miqyosda veb-vakolatxonalar va Internet-qabulxonalarni tashkil etish, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda faol ishtirok etish ichki ishlar bo‘linmalarining axborot faoliyati samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Mafkuraviy tahdidlarga qarshi samarali kurashish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni muvofiqlashtirishni o‘z ichiga olgan yagona axborot strategiyasini shakllantirish zarur. Bu nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati atrofidagi axborot bazasini mustahkamlash, balki ichki ishlar organlarining jamoatchilik ongida ijobiy imidjini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday

qilib, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarining o‘zaro hamkorligi kasbiy mahorat, jamiyat bilan faol hamkorlik va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish negizida qurilishi kerak. Bu muammolarni hal etishda kompleks yondashuv buzg‘unchi mafkuralarga qarshi kurashish samaradorligini oshiradi, mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda demokratik institutlarni shakllantirish jarayoni izchil davom etmoqda. Ichki ishlar organlari xodimlarining siyosiy madaniyati ijtimoiy-professional guruh sifatida mazkur institutlarni mustahkamlash va rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ichki ishlar organlari xodimlarining siyosiy faolligi jamiyat xavfsizligini ta’minlashning muhim omili bo‘lgan demokratik qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirishga xizmat qilmoqda. **Ichki ishlar organlarida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh mezoni ham inson omili bo‘lib, bu, avvalo, xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish orqali o‘z huquqlarini talab qila olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir[5].**

Xulosa qilib aytganda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Asosiy masala – qonunlarning mazmun-mohiyatini xalqimizga va mas’ul ijrochilarga o‘z vaqtida yetkazish, ularning ijrosini to‘g‘ri tashkil etish hamda qonun talablariga qat’iy amal qilishni ta’minlashdan iboratdir”[6]. Zero, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda davlat boshqaruvi va huquqni muhofaza qiluvchi organlari o‘rtasida o‘zaro samarali hamkorlikni o‘rnatilishi o‘z navbatida mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбекистон халқига Халқлар дўстлиги куни муносабати билан байрам табриги” https://president.uz/uz/lists/view/7437

2. Тоштемиров Д. Ички ишлар органлари тезкор бўлинмаларининг жиноятларни фош этиш бўйича фаолиятини режалаштириш ва ташкил этишда тезкор-қидирув фаолияти тўғ‘рисидаги қонуннинг аҳамияти. Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS) ISSN (online): 2181-2454

3. О.Эгамбердиев. Ўзбекистон Республикаси ички ишлар органларида жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатларини кўриб чиқиш фаолиятининг долзарб масалалари. Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 7.

4. Шерматов А. Ёш ходимларни ҳарбий – ватанпарварлик ва маънавий-ахлоқий жиҳатдан тарбиялашнинг айрим масалалари. Central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis)

5. Тургунов Илхом Тургунович “Ички ишлар идоралари ходимларида инсон ҳуқуқлари маданиятини юксалтириш” 12.00.01 – Давлат ва ҳуқуқ назарияси ва тарихи. Ҳуқуқий таълимотлар тарихи (юридик фанлар) докторлик диссертацияси автореферати. Тошкент – 2017. Б-19.

6. Мирзиёев Ш.Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т., 2018. – Б.107.

LAZIZ ESHONQULOV,
Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

YOSHLAR MA'NAVIYATINI OSHIRISHDA AXBOROT MADANIYATINING ROLI

So'nggi yillarda axborot texnologiyalarining faol joriy etilishi yoshlarning dunyoqarashi va yoshlar madaniyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Turli elektron qurilmalar yordamida yoshlar bir-biri bilan faol muloqot qiladi, dunyoni kashf etadi, ko'plab axborotga ega bo'ladi. Axborot texnologiyalari tufayli yoshlar o'rtasida o'ziga xos madaniyat shakllana boshladi. Bir tomondan, yoshlar internetdan oladigan ma'lumotlarning iste'molchisidir. Ammo boshqa tomondan, yoshlarning o'zlari axborot manbai bo'lib, axborot texnologiyalari sohasida madaniyatni shakllantiradi va rivojlantiradi.

Bu jarayonning bir nechta asosiy yo'nalishlari mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

- Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot
- Kibersport
- Blog yuritish
- Virtual muzeylarni yaratish.

Internet tufayli har bir kishi nafaqat ish yoki o'qish uchun kerakli ma'lumotlarni topishi, balki bo'sh vaqtlarini turli ko'ngilochar tadbirlar bilan diversifikatsiya qilishi mumkin, ularning asosiysi ijtimoiy tarmoqlardagi faol muloqotdir. Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylanganini hamma biladi. Axborot makoniga bo'lgan ehtiyoj ular tomonidan insonning asosiy ehtiyojlaridan biri sifatida qabul qilinadi.

Har bir ijtimoiy tarmoq muayyan funksiyalar uchun mo'ljallangan. Masalan, Facebook muloqot qilish, ko'ngil ochish va yangi ma'lumotlarni olish uchun mo'ljallangan; X (Twitter) – har qanday yoshdagi Internet foydalanuvchilari uchun veb-interfeys, tezkor xabar almashish vositalari yoki uchinchi tomon mijoz dasturlari yordamida ommaviy xabarlar uchun; Instagram – fotosuratlar va videolarni almashish uchun. Ijtimoiy tarmoqlarning afzalliklari bilan bir qatorda muayyan kamchiliklari ham mavjud.

Afzalliklari:

– Birinchidan, bu masofadagi qulay aloqa.

– Ikkinchidan, suhbatdoshni tanlash qobiliyati.

– Uchinchidan, voqealar va yangiliklar markazida bo'lish.

Kamchiliklari:

– Haqiqiy aloqani virtual aloqa bilan almashtirish.

– Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarining aksariyati ularga shunchalik ko'nikib qolganki, ularsiz o'z hayotini tasavvur qila olmaydi.

– Ijtimoiy tarmoqlar ko'p vaqt oladi.

– Shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligi.

Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot mavzusi bo'yicha 30 kishi ishtirokida kichik so'rov o'tkazildi. So'rov quyidagi natijalarni berdi:

– 27 nafar respondent ijtimoiy tarmoqlarga kuniga 3 martadan ortiq kirishadi;

– 4 nafari ijtimoiy tarmoqdan faqat muloqot uchun foydalanish;

– 23 nafari o'yin-kulgi uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish;

– 5 nafari har kuni internetga kirish zarurligini his qilishlarini tan olishdi.

Bu so'rovnoma orqali yoshlar uchun muloqot juda muhim degan xulosaga kelishimiz mumkin, lekin agar ular o'zlarini cheklamasa, bu narkotikaga aylanishi mumkin. Yoshlar o'rtasida kibersportga bo'lgan qiziqish ham juda yuqori. 2001 yildan kibersport rasmiy sport turi sifatida tan olingan. Bu sport turi o'ziga yoqqan narsadan daromad olish imkoniyatiga ega bo'lgan yoshlar orasida katta talabga ega. Maxsus turnirlar uchun g'oliblar sport toifalari va mukofotlarini olishadi, bu qo'shimcha rag'batdir. Odatda kibersportni ham ikki tomoni bor tangaga qiyoslashadi. Ya'ni uning ham ijobiy va salbiy tomonlari mavjud.

Ijobiy tomonlari:

– Inson o'zi sevgan ish bilan shug'ullanadi, jarayondan zavq oladi;

– Natijalarga erishgandan so'ng, ma'lum doiralarda shon-shuhrat qozoniladi va karyerasining o'sishiga imkoniyat paydo bo'ladi;

– dunyoni ko'rish, qiziqish doirasidagi odamlar bilan yangi tanishuvlar qilish imkoniyati;

– Uyda mashq qilish.

Kamchiliklari:

– Professional darajada o'ynash va o'yinning barcha nayranglari va nozik tomonlarini bilish uchun unga ko'p vaqt ajratish kerak bo'ladi.

Elektrosportning asosiy kamchiligi uning inson salomatligiga salbiy ta'siridir. O'tirgan turmush tarzi jismoniy salomatlikka salbiy ta'sir qiladi. Ko'rish va eshitish organlari ham zararlanadi, chunki o'yinchi deyarli butun vaqtini kompyuter monitori oldida o'tkazadi. Ba'zida insonning ruhiy salomatligi ham xavf ostida qoladi. Kompyuter o'yinlariga qiziqqan odam uchun virtual va real dunyo o'rtasidagi chegara juda qisqarib borishi ayni paytdagi eng dolzarb muammo sifatida qaraladi.

Virtual madaniyatning eng ommabop yo‘nalishi bu blogerlik sohasidir. Blogerlik – yoshlar orasida mashhur bo‘lgan yangi kasb. Blog yaratish oson, shuning uchun ko‘plab yoshlar bloger bo‘lishadi. Siz o‘zingizning qiziqishlaringiz asosida blog mavzusini tanlashingiz mumkin, uni mohirona boshqarish mashhurlik va yaxshi daromad keltirishi mumkin. Bugungi kunda videobloglar juda mashhur. Turli mavzular bo‘yicha sharhlar, oshpazlik reseptlari va maslahatlar, tadqiqotlar va tajribalar – bunday bloglar yuz mingdan ortiq ko‘riladi. Biroq, bloggerning kasbi ko‘rinadigan darajada oddiy emas. Blog ochishni rejalashtirayotgan har bir kishi tomoshabinlarni qiziqtirishi, tushunarli va qiziqarli tarzda yuritishi kerak. Statistikaga ko‘ra, yuzta blogdan faqat o‘ntasi ko‘proq yoki kamroq mashhur bo‘lishi va faqat bittasi haqiqiy mashhurlikka erishishi. Vlogging ham ijobiy va salbiy xususiyatlarga ega.

Ijobiy jihatlari:

– Ijodkorlik. YouTube yoki Instagramda video yaratish ijodiy o‘zini o‘zi anglash uchun ajoyib imkoniyatdir. Aynan nima qilishingiz muhim emas, puxta o‘ylangan shou yaratish, layfstayl blokini boshqarish yoki tarjimalar qilish, har qanday shaklda ijodkorlik hayotni yangi ranglar bilan to‘ldiradi.

– Tan olinish. Odamlar sizning videolaringizni kutishlari, fikringizni tinglashlari va sizni qo‘llab-quvvatlashga tayyor ekanliklarini bilish kishiga o‘zgacha energiya bag‘ishlaydi. Bu esa o‘z ishidan qoniqish hissini olib keladi. Hatto kichik auditoriya ham o‘zingizga ishonch uyg‘otishi va o‘zingiz yoqtirgan narsani qilishga undashi mumkin.

– Aloqa. O‘z blogingizni yuritish sizga ham auditoriyangiz, ham hamkasblaringiz bilan muloqot qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. O‘nlab, yuzlab yoki minglab odamlar siz bilan suhbatlashishdan xursand bo‘lishadi. Shuningdek, boshqa blogerlar bilan muloqot qilish orqali siz nafaqat yangi tanishlar, balki do‘stlar ham topishingiz mumkin.

Salbiy tomonlari:

– Negativlik. Fikr qoldirish qobiliyati har kimga sizning ishingiz haqida o‘z fikrini bildirish imkonini beradi. Afsuski, bu juda ko‘p nazoratsiz nafratni qo‘zg‘atadi. Ayniqsa, blogerning fikri ko‘pchilikdan farq qilganda. Muallifning fikriga qo‘shilmaslik odatiy holdir. Muayyan bosqichda negativlik endigina boshlanayotgan loyihaning ruhiyatini jiddiy ravishda buzishi mumkin. Xeyt, ya’ni nafrat blog yurituvchi o‘smirning ruhiyatiga jiddiy zarba berishi, bu esa undagi qobiliyatlarni yuzaga chiqishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

– O‘z fikringizni o‘tkazish. Yuqoriga qarab blogerlar, ko‘pchilik o‘zlarining ideallari kabi bo‘lishni xohlashadi, ularning ta’siriga tushib

qolishadi. O‘smirlar orasida blogerning obro‘si birinchi o‘rinda turadi, ba’zan esa yaqinlarining obro‘sidan ustun turadi. Blogerlar o‘z fikrlarini o‘tkazishlari va boshqalarning fikrini boshqarishga urinishlari mumkin. Bu esa muloqotda bag‘rikenglik va rang-baranglikni kamaytirib qo‘yadi.

Postindustrial (axborot) jamiyatining asosiy tendensiyalaridan biri globallashuv bo‘lib, uning sur’atlarini oshirishda axborot texnologiyalari muhim rol o‘ynaydi. Bu tendensiya ko‘pincha madaniyatlarning birlashishiga olib keladi. Zamonaviy jamiyatda an’anaviy madaniy qadriyatlarni unutish xavfi mavjud.

Binobarin, bizning oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri turli xalqlarning madaniy merosini asrab-avaylashdir. Shu ehtiyoj bilan bog‘liq holda axborot texnologiyalaridan foydalanish nihoyatda muhim bo‘lib, buning natijasida madaniy meros (madaniy yodgorliklar, turli artefaktlar) raqamlashtirish orqali kelajak avlodlar uchun hamon saqlanib qolishiga ishonch hosil qilishimiz mumkin.

Shuning uchun virtual muzeylar yaratish Internetda madaniyatni rivojlantirishning dolzarb va istiqbolli yo‘nalishi hisoblanadi. Bu g‘oya yaqinda paydo bo‘ldi va umumiy ma’qullandi. Ushbu texnologiya tufayli siz uyingizdan chiqmasdan turli madaniy joylarga tashrif buyurishingiz mumkin.

Albatta, ko‘pchiligimiz sayohatlar yoki diqqatga sazovor joylar haqida boshqa dasturni ko‘rganimizdan so‘ng, bu joylarga tashrif buyurishni xohlaymiz, lekin bunga vaqt va imkon yetmasligi bizni tushkun qilib qo‘yadi. Kundalik muammolar ko‘pincha orzularimizni amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi.

Virtual ekskursiyalar, albatta, kerakli ob’yektlarga haqiqiy tashrifni anglatmaydi, ammo bu ba’zilar uchun orzu qilingan va juda uzoq bo‘lgan joylar bilan tanishishning ajoyib usuli. 3D texnologiyasi sizga to‘liq mavjudlik hissini beradi. Siz o‘zingizning yutuqlaringizni muzeylar va galereyalar orqali o‘zingizga mos tezlikda boshqarishingiz mumkin. Siz har qanday ob’yektni yaqindan tekshirishingiz, xonadan xonaga o‘tishingiz, istalgan vaqtda turni tark etishingiz va o‘zingiz uchun qulay bo‘lgan istalgan vaqtda davom ettirishingiz mumkin. Bular – virtual sayohatlarning afzalliklari.

Virtual ekskursiyalarning yana bir ijobiy jihati yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, ularni san’at orqali go‘zallik bilan tanishtirish, estetik tafakkurini oshirishdir.

Yagona kamchiligi shundaki, virtual muzeyning eng rang-barang, sifatli va qiziqarli ko‘rgazmasi ham haqiqiy muzeyga tashrif buyurishda paydo bo‘ladigan tuyg‘uni bizga to‘liq yetkaza olmaydi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, axborot texnologiyalarining hayotimizga joriy etilishi yoshlarga o‘zi sevgan ish bilan shug‘ullanish imkoniyatini bermoqda, shu bilan birga dunyoqarash kengayishi, moddiy farovonlikka erishish istagini ham qanoatlantirmoqda.

Shuni yodda tutish kerakki, Internet nafaqat madaniy ma’lumotlarni tarqatish usulidir, balki uni yaratuvchi ijodkorlikni ham rag‘batlantiruvchi imkoniyatdir. Biz internet tarmog‘ining demokratlashuvini kuzatishimiz mumkin, bu esa foydalanuvchilar, jumladan, yoshlarning zarur axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi. Shuning uchun biz internetda bepul foydalanish mumkin bo‘lgan ma’lumotlarning sifati haqida o‘ylashimiz kerak. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlarning o‘zbek segmentidagi kontentlarning saviyasi masalasida jiddiy o‘zgarishlarni kechiktirmasligimiz lozim. Chunki yoshlar real olamdan ko‘ra virtual dunyoga ko‘proq o‘rganib qolmoqda. Bu esa bizni yangi yondashuvlarni o‘ylashga majbur qiladi.

IQBOLOY FAYZULLAEVA,
TDTU tayanch doktoranti

SUN’IY INTELLEKT: INSON YORDAMCHISIMI YO RAQIBI?..

Dunyo bizning ko‘z o‘ngimizda o‘zgarmoqda. Yangi texnologiyalar turmushni, e’tiqod va qadriyatlarni o‘zgartirmoqda. Har qanday zamonaviy texnologiyaning qorong‘u, salbiy tomoni bor. Shu jumladan sun’iy intellektga asoslangan texnologiyalarning ham. Lekin salbiy oqibatlarini minimallashtirish uchun ularni to‘g‘ri yo‘naltirish lozim. Shu paytgacha intellekt, ong, aql faqat insondagina mavjud, u biologik va ijtimoiy asosga ega hodisa hisoblanar edi. Ammo intellekt tushunchasi keyingi 100 yilda ancha o‘zgardi.

Dastlab chex fantast yozuvchisi Karel Chapek XX asrning 20-yillarida sun’iy intellektga ega robotlar haqida yozdi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab robotlarning turli-tuman turlari yaratildi. Badiiy fantastika ba’zi bir bashoratlar va yangi g‘oyalarni olg‘a surishda amaliy ilmiy tatqiqotlardan ham, nazariy farazlardan ham ancha olg‘a ketishi mumkinligini yana bir bor ko‘rsatdi.

Karel Chapekdan boshlab fantast yozuvchilar shunchaki g‘aroyib “aqlli mashinalar”ni, robotlarni, avtomat qurilmalarni asarlarida ko‘rsatish bilan emas, balki ulardan keladigan xavf, inson erkinligi va hayotiga tahdid solishi haqida ham ogohlantira boshladilar. Shu paytgacha bunday asarlarda tasvirlangan ziddiyatlar real hayotdan uzoq, fantastika janri uchun asqotadigan dramatik badiiy kolliziya hisoblanardi. Ammo insoniyat ertaklar haqiqatga aylanadigan zamonga etib keldi. Sun’iy intellektga asoslangan texnologiyalar, “chapek robotlari” tug‘dirayotgan xavf real sodir bo‘lishi mumkinligi tobora oydinlashmoqda.

Sun’iy intellekt yuqori darajadagi psixika va tafakkur asosidagi tabiiy ongdan farqli o‘laroq, mashinalar tomonidan avvaldan belgilangan algoritmlar paradigmasi va dasturlar kombinasiyasi asosida yuzaga chiqqan “ongdir”. Inson aqliga tayanib bajaradigan jarayonlarni mashinalar, ayniqsa kompyuter tizimlari simulyasiya qilishiga sun’iy intellekt deyiladi. Ilm-fan vakillari va faylasuflar ikki xil sun’iy intellekt bor deb hisoblaydilar. Biri keng ma’noda haqiqiy sun’iy intellekt bo‘lsa, ikkinchisi virtual intellektdir. Virtual intellekt deb, kompyuter bazasida ilgaridan to‘plangan va unga kiritilayotgan ma’lumotlar asosida xulosa chiqaradigan va inson nazorati ostida bo‘lgan sun’iy ong, aqlga aytiladi.

Mutaxassislarning fikricha, universal kuchli sun’iy intellekt o‘zi

ma’lumot yig‘adigan, xotirasida saqlaydigan, o‘zini o‘zi dasturlaydigan, o‘zi mustaqil “fikrlaydigan”, o‘zi xulosa chiqarib, o‘zi qaror qabul qiladigan, masalaning echimini aytib beradigan inson tomonidan yaratilgan ongdir. U evolyusiya natijasida mustaqil, tabiiy shakllanmagan, balki inson faoliyati mahsulotidir. Shu bois u sun’iy deyiladi. Hozircha bunday kuchli sun’iy intellekt mavjud emas, ammo uning ba’zi unsurlari va xususiyatlari paydo bo‘layotir. Bu ba’zi olimlarni va soha mutaxassislarini hatto qo‘rqitib qo‘ydi. Chunki internetga ulanganlari mustaqil ravishda o‘zida bor dasturga tayanib yangi, egalari torshiriq bermagan ma’lumotlarni to‘play boshladi.

Bugungi o‘rtacha sun’iy intellekt tobora takomillashib bormoqda. Google internet qidiruv tarmog‘idagi onlayn-tarjima tizimi ilgari bir tildan ikkinchisiga tarjima qilishda so‘zlar va gaplarni bo‘lib-bo‘lib tarjima qilardi. Bu tarjimaning sifatiga salbiy ta’sir qilar edi, shu sababli tarmoq o‘zi mustaqil ravishda bu usuldan voz kechib jumlani to‘laligicha tarjima qilishga o‘tgan. Natijada amalda yangi tarjima qilish usuli vujudga kelib tarjima tezlashdi va sifati ko‘tarildi. Yangi tarjima g‘alizliklarsiz, aniq va tiniq chiqa boshladi. Bu mashina tarjimasi sohasida katta yutuq bo‘ldi.

Kompyuter sun’iy intellektning dastlabki ko‘rinishlaridan bo‘lgan – Botga suhbat qilishni, muzokara olib borishni, muloqot qilishni o‘rgatishga kirishdi. Shunisi qiziqki, test sinovlarini o‘tkazayotgan ekspertlar kompyuter bilan muloqot qilayotganini avval o‘zlari ham sezmay qolgan. Bot maqsadga erishish yo‘lida ayyorlik qilib, bir necha bor mavzuga aloqasi bo‘lmagan sohaga qayta-qayta qiziqish bildirgan. Suhbatdoshini chalg‘itib, o‘zini kelishuvga kelayotgandek qilib ko‘rsatishga uringan. Kompyuterning mustaqil va ayyorona harakat qilayotganligini bilib qolgan test sinovchilari hayratda yoqalarini ushlagan. Sun’iy intellektning bu xatti-harakatidan test sinovchilarida jiddiy shubha paydo bo‘lgan. Bundan xabar topgan, mashhur tadbirkor va ixtirochi Ilon Mask AQSh ma’muriyatiga murojaat qilib: “Hali ko‘rasiz, sun’iy aqlga ega bo‘lgan temirtanlar insoniyatga katta xavf soladi. Bizga sun’iy intellektning keragi yo‘q, bizga katta hajmdagi ma’lumotlarni yodida tutadigan sun’iy xotira bo‘lsa yetadi”[20], deydi. Ilon Maskning fikrlariga hamohang fikrni britaniyalik mashhur fizik Stiven Xoking ham bildirgan: “Asta-sekin taraqqiy qiladigan evolyusion jarayon bilan insonning imkoniyatlari chegaralangan, biz mashinalar bilan raqobatga kirisha olmaymiz, yutqazib qo‘yamiz”[21]. Kompyuterlar allaqachon shaxmat bo‘yicha eng iste’dodli grossmeysterlarni ham osonlik bilan engmoqda. Ular inson

[20] Elektron manbaa www.Orbita.uz

[21] Argumenti i fakti 22(2011) 5 iyun, 2019

yordamisiz, jurnalistlarsiz yolg‘iz o‘zlari yangiliklar etkazib bermoqda, ularni qayta ishlab, tahrir qilmoqda. Bugun esa dunyoning ko‘plab media-markazlari, teleradio kompaniyalarlari, axborot agentliklari sun’iy intellektli kompyuterlar yordamida faoliyat yuritmoqda.

Yana bir hayratlanarli joyi shundaki, inson hayoti paytida u bilan uzoq muddatda muloqotda bo‘lgan, uning biografiyasi, tarixi, taqdiridan xabardor bo‘lgan, o‘z egasining fe’l-atvori, xarakterini ma’lumotlar bazasida saqlab qolgan robot shaklidagi shaxsiy sun’iy intellekt inson o‘limidan keyin ham qisqa-qisqa jumlalar bilan muloqotga kirisha oladi. Bundan tashqari, sun’iy intellekt inson o‘limini oldindan aytib bera olar ekan. Xuddi shu mashina bakidagi yoqilg‘i tugashini datchikka qarab aytib bera olganingizdek, sun’iy intellekt inson organizmidagi hayotni ta’minlab turuvchi kuch-quvvat, resurslar tugayotganligini aytib bera olar ekan. Ayni paytda sun’iy intellekt insonni uning sog‘ligi uchun xavfli bo‘lgan hissiy, ruhiy azoblardan, stresslardan ham saqlay oladi.

Shaxsiy sun’iy intellektning inson organizmiga ulangan datchigi uning yurak, qon tomirlarining urishini nazorat qilib, ma’lumotlarni poliklinikangizdagi shaxsiy ma’lumotlar bazasiga etkazib turadi. Sog‘ligingiz to‘g‘risidagi ma’lumotlar sun’iy intellektli axborot-hisoblash mashinalarida tahlil qilinadi, natijalarni ko‘rgan shifokoringiz kerakli maslahatlari, davolash yo‘llari, lozim bo‘lgan dori-darmonlarni aytib turadi. Hozir bu usul Xitoyda kosmonavtlar sog‘ligini nazorat qilishda juda qo‘l kelmoqda.

Sun’iy intellekt ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, robotlashtirish ziddiyatli ijtimoiy oqibatlarga olib keladi. Bir tomondan, inson og‘ir mexanik ishlardan qutiladi, ikkinchi tomondan – insonni ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning ko‘plab sohalaridan siqib chiqaradi. Natijada bandlik muammosi keskinlashishi mumkin. Ilm-fan taraqqiyoti bo‘yicha Amerika assosiasiyasining Vashingtonda o‘tgan yillik yig‘ilishida ishlab chiqarishda band bo‘lgan ishchilarning 70 foizi robot texnikasining rivojlanishi sababli ish topolmay bekor qoladi, degan xulosaga kelingan.

Bugungi dasturlar asosida insonning yuz tuzilishi, barmoq izlari, nutq, ovoz tembri adashmay aniqlanadi. Mutaxassislarning taxmini bo‘yicha, yaqin kelajakda ommaviy ravishda haydovchisiz avtomobillar yura boshlaydi. Og‘ir kasalliklarga tez va aniq tashxis qo‘yadigan tibbiyot apparatlari ishga tushadi. Hovlilarimizni robotlar supirib, uylarimizni robotlar yig‘ishtiradi, avtomatik tarzda ilmiy kashfiyotlar qilish ham ularning qo‘lidan keladi.

“Kuchli sun’iy intellekt keng qo‘llanilayotgan davrning kirib kelishiga unchalik ko‘p vaqt qolgani yo‘q, lekin undan hech ham xavotir olish,

qo‘rqish, tushkunlikka tushish kerak emas, undan faqat o‘zaro kelishuv va shartnomalar asosida foydalanish va ezgu ishlarga yo‘naltirishimiz lozim[22]”, - deydi Xitoydagi sun’iy intellekt yaratish ustida ishlayotgan, mamlakatdagi eng yirik Baidu Inc. kompaniyasi boshlig‘i Chjan Yansin.

Albatta, har qanday yangilik ijobiy maqsadda qo‘llanilsa, sun’iy intellekt nazorat ostida rivojlansa, jamiyat tarraqiyoti uchun foydali bo‘ladi. Ammo g‘arazli maqsadlarga: tajavuzkorlikka, dunyoga hukmronlik qilishga, sun’iy intellekt yo‘naltirilmasligiga hech kim kafolat berolmaydi. Bundan tashqari sun’iy intellekt rivojlanishi jarayonida odamlarga bo‘ysunmay qo‘ysa, fantastik asarlardagi, filmlardagi kabi insonlarga tajovuz qilsa, nima bo‘ladi?

Facebook asoschisi Mark Sukenrberg shunday deydi: “Biz 5-10 yildan keyin kompaniyamiz byudjetining katta qismini, ilmiy-amaliy mutaxassislarimizning asosiy diqqat-e’tiborini insonning ko‘z nurini o‘tkirlashtiradigan, eshitish qobiliyatini yaxshilaydigan, til boyligini oshiradigan, fikrlash doirasini kengaytiradigan, bir so‘z bilan aytganda, insonni sog‘aytiradigan, yashartiradigan va baxtli yashashi uchun xizmat qiladigan sun’iy intellekt yaratishga qaratamiz[23]”. Sun’iy intellekt yordamida insonni sog‘aytirish, kar-soqov va ko‘zi ojizlarni, falaj bo‘lib qolgan bemorlarni davolash yaxshi. Ammo kim kafolat beraoladi, qaysi bir bosqichda super-insonni, super-jangchini, super-qotilni, super-terrorchini yaratishga urinish bo‘lmaydi deb. Sun’iy intellektning turlari hozircha ijobiy rivojlanmoqda. Ammo bu hali boshlanishi: po‘latdan 200 barobar kuchli va soch tolasidan million marta yupqaroq nanomateriallar va 3D bosilgan jigarning birinchi transplantasiyasi allaqachon ishlab chiqilmoqda.

Hozirgi kunda “intellektual” deb nomlanadigan mashinalarning, ya’ni sun’iy intellekt “egalari”ning imkoniyatlari inson kabi fikrlash darajasida emas. Ulardan olinadigan eng maksimum natija, hozirgi murakkab, uzoq vaqt talab qiluvchi va bir necha minglab xususiy va umumiy hollarni tahlil qilib chiqishni taqazo etuvchi ilmiy farazlarni, asosan matematik teoremalarni va shunga o‘xshash masalalarni muayyan shartlar asosida tezkorlik bilan tekshirib natijasini ma’lum qilish bo‘lmoqda, xolos.

Mutaxassislarning hisob-kitobiga qaraganda, ko‘p operasiyalarga qodir bo‘lgan to‘laqonli sun’iy intellekt 2029 yilga borib yaratiladi. IBM konserni bilan Shveysariyaning Lozanna shahridagi politexnika instituti bilan hamkorlikda 2025 yilga borib, bu demak yana ikki-uch

[22] “Fan, ta’lim va innovatsiyalar - yoshlar nigohida” Sh.Shomuhammedov nomidagi yosh sharqshunoslarning ikkinchi forumi materiallari to’plami 2018, 14 may 291-b

[23] O’sha manbaa

yildan keyin, inson bosh miyasining sun’iy modeli yaratilishini aytdi[24]. Inson miyasining sun’iy modelini yaratish ustida ayniqsa AQSh da bir nechta ilmiy laboratoriyalarda ko‘plab olimlar izlanishlar olib bormoqda, homiylar tomonidan qanchadan-qancha mablag‘ sarflanmoqda.

Sun’iy intellekt xavflimi, insoniyatga u jiddiy zarar etkaza oladimi? Bu muammoga to‘liq javob topilganicha yo‘q. Facebook qidiruv tarmog‘i rahbariyati sun’iy intellekti bo‘lgan mashinalar o‘zlarining tilida mustaqil ravishda muloqotga kirisha boshlaganidan xabar topishi bilan ularni ishga tushiradigan tizimni o‘chirib qo‘ygan. Sun’iy intellektli kompyuterlarning faqat bitta – ingliz tilida gapiraverishi joniga tegib o‘zlarining mustaqil (egalaridan yashirin ravishda va ular tushunmaydigan) tilni yaratishgan va unda muloqotga kirisha boshlaganlar. Kompyuter insonga o‘xshab muloqotga kirishganini ko‘rib va ularning miyasida nima borligi ma’lum bo‘lmaganligi sababli va bu xavf tug‘dirishidan hadiksirab, kompyuterlar o‘chirib qo‘yilgan[25].

Ba’zan turli OAVlar orqali shov-shuv qilinayotgan robot-androidlarning ham intellektual salohiyati aytaylik o‘rtamiyona bilim darajasidagi maktab bitiruvchisining bilim darajasichalik emasdir. Shunga qaramay intellektual tizimlar hozirdayoq inson og‘irini yengil qilishda, ma’nan mushkul va kuchli aqliy zo‘riqishni talab qiluvchi ishlarni osonlashtirish va eng muhimi havfsizlashtirishda ular yaqin yordamchimizga aylanib bormoqda. Yorqin misol sifatida aeroportlarda parvozlarni muvofiqlashtirishga xizmat qiluvchi axborot-tahlil tizimlarini keltirish mumkin. Ular, mavjud meteorologik vaziyat, samolyotlarning etib kelish va uchib ketish jadvali, masofa, tezlik va shunga o‘xshash yuzlab parametrlarni umumlashtirgan holda, umumiy vaziyatni nazorat qiladi hamda insonga – muhandisga maqbul rejim haqida ma’lumotlarni taqdim etadi.

Samolyotlarning o‘zidagi avtopilot imkoniyatini ham shu qatorga qo‘shish mumkin. U laynerni boshqarib borishi mumkin. Lekin algoritmda ko‘zda tutilmagan favqulodda vaziyatlarda mustaqil ijodiy (kreativ) noan’anaviy qaror qabul qila olmaydi. Baribir uchuvchi avtopilotdan voz kechib, o‘z bilimi va tajribasiga tayanadi.

Sun’iy intellektning jadal rivojlanishi mashinalar odamlarga o‘z muammolarini hal qilishga yordam berishi bilan birga, jamiyatimizning iqtisodiy, huquqiy va axloqiy asoslariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan yangi muammolarni ham yaratmoqda. Masalan, ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish ish o‘rinlari sonini muntazam ravishda

[24] Argumenti i fakti 89 (3022) 17 fevral, 2022

[25] BMT yangiliklari sayti

qisqartiradi. Sun’iy intellekt esa bu jarayonni yanada tezlashtiradi. Dunyo olimlari bu borada boshqa har xil fikrlarni bildirmoqdalar. “Insonlar sun’iy idrok davrida ishsiz qolishdan, robotlar tomonidan siqib chiqarilishdan qo‘rqmasliklari lozim. Ish hammaga etadi. Faqat yangi kasblar paydo bo‘ladi va insonlardan bunga moslashuvchanlik talab etiladi. Sun’iy idrok taraqqiy etgan sari o‘quvchi rolida qolaveradi, inson esa unga murabbiylik qiladi[26]”

Sun’iy intellektning global xavfsizlikka qanchalik ta’siri bor? Ushbu masala 2023 yil 18 iyul kuni BMT ning xavfsizlik kengashida muhokama qilindi. Sun’iy intellekt isdiqbolining noma’lumligidan bu qadar havotirlanishning sababi nimada? Sababi sun’iy intellektga asoslangan mashinalar insonlarga ziyon etkazishi mumkin. Terrorchilik, jinoyatchilik, kiberhujumlar – mobodo sun’iy intellektdan ayni shu yovuz maqsadlar yo‘lida foydalanilsa, bu global xavfsizlik uchun o‘ta jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Sun’iy intellektning nosoz tizimlari tashvishlanishga sabab bo‘layotgan yana bir yirik muammodir. Sun’iy intellekt ezgulikka ham, yomonlikka ham xizmat qilishga qodir bo‘lgan juda ulkan salohiyatga ega. Ixtirochilarning oldinda insoniyat sun’iy intellekt bilan bog‘liq yanada yirik, halokatli va kutilmagan tahdidlarga duchor bo‘lishi mumkin, deb bong urmoqda. BMT bosh kotibi A. Guterrish aytganidek, “Agar biz ana shu tahdidlarni bartaraf etish choralarini ko‘rmas ekanmiz, hozirgi va kelgusi avlodlar oldida o‘z burchimizni ado etmagan bo‘lamiz[27]”

Sun’iy intellekt tizimlari taraqqiyoti huquqiy tartibga solish borasida bir qancha qiyinchiliklar va bahslarni yuzaga keltirmoqda. Sun’iy intellekt rivojlangan dunyoning ko‘plab mamalakatlarida mualliflik huquqi va intellektual mulk huquqi masalalari bahsli kechmoqda. Sun’iy intellekt “ijodi”ga kim egalik qiladi?”, “Patent kimga beriladi?” degan dolzarb masala turibdi. AQSh okrugi sudi qaroriga binoan, sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlar mualliflik huquqi bilan himoyalanmaydi, deya belgilab qo‘yildi.

Statistik ma’lumot sifatida, 2022 yil 30 noyabrda Chat GPT chatboti ishga tushirilgan va atigi besh kun ichida o‘zining 1 million fodalanuvchisiga ega bo‘lgan. Chat GPT turli savollarga javob qaytarishi, dasturchilar uchun kod yozishga yordamlashishi, talabalar uchun kurs ishlari yozib berishi mumkin. Mazkur bot hattoki she’r va insholar ham yoza oladi. Shu bois keng jamoatchilikda ushbu texnologiya

[26] Paul R. Daugherty H. James Wilson “Human + machine. Reimagining Work in the Age jf All” HarvardBusinessReviewPress 55-p

[27] BMT yangiliklari sayti

kopirayterlar, jurnalistlar, maktab o‘qituvchilari va boshqa soha vakillari ishsiz qolishi mumkin degan qo‘rquv paydo bo‘lgan. Ayniqsa, Chat GPT ning insholar “yozish” qobiliyatidan o‘qituvchilar ko‘proq tashvishga tushmoqda. Misol uchun, AQShda talabalar allaqachon bot tomonidan yozilgan o‘z ijod mahsuli sifatida taqdim qilishni boshlagan. Bu esa mualliflik huquqining qo‘pol darajada buzilishiga olib kelmoqda. Sun’iy intellekning eng katta muammolaridan biri ijodkorlik iqtidorining mavjud emasligi bo‘lib qolmoqda. U o‘z shaxsiy fikriga ega emas, ya’ni hech qanday masala bo‘yicha shaxsiy fikr bildirmaydi. Chat GPT chatboti hozircha yangi g‘oyalarni taqdim qila olmaydi.

Boshlanayotgan to‘rtinchi sanoat inqilobi o‘zining o‘lchami, ko‘lami va murakkabligi bilan insoniyat ilgari duch kelgan hech bir jarayonga o‘xshamaydi. Jismoniy, raqamli va biologik dunyoni birlashtirgan bir qator yangi texnologiyalar bilan tasvirlangan ishlanmalar barcha sohalar, jumladan - iqtisodiyot, sanoat va siyosatga ta’sir ko‘rsatmoqda va hatto inson bo‘lish nimani anglatishi haqidagi g‘oyalarni ham shubha ostiga qo‘ymoqda.

To‘rtinchi sanoat inqilobining asosini sun’iy intellekt tashkil etadi. “Sun’iy intellekt insoniyat rivojimi yoki halokati?” ushbu savol barchani o‘ylashga majbur qilmoqda, ko‘plab bahs-munozaralarni keltirib chiqarmoqda. Sun’iy intellektning nazoratsiz rivojlanishi yadro urushi va pandemiyalar kabi halokatli global tahdidlarga hamda insoniyat sivilizasiyasi uchun ham xavf tug‘dirishi mumkin. Sun’iy intellektni kelajakda nazorat ostida tutish imkoni bormi yoki yo‘q? Insonlar o‘rniga qaror qabul qilgan sun’iy intellekt texnologiyalari, axloqiy me’yorlardan tashqari boshqa qadriyatlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahdid etmasligi esa noma’lum. Har bitta yangilikning o‘ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari mavjud.

Bir qator mamalakatlarda sun’iy intellekt rivojlanishini nazorat qila oladigan qonunchilikni ishlab chiqarishga urinishlar allaqachon boshlangan.Evropa Ittifoqi sun’iy intellektning havfini to‘rt toifaga ajratuvchi qonun qabul qilishga umid qilmoqda. Xitoyda sun’iy intellektni tartibga soluvchi qonun loyihasi 2023 yilda chop etildi. U siyosiy jihatdan nozik kontentni cheklashni taklif qiladi va sun’iy intellektga asoslangan texnologiyalardan foydalanishdan oldin ishlab chiqiruvchilardan ruxsat olishni talab qiladi.

To‘rtinchi sanoat inqilobi nafaqat qilayotgan ishimizni, balki asl “men”ligimizni ham o‘zgartirmoqda. Bu bizning shaxsiyatimizga, o‘zligimizni anglashga ta’sir qilmoqda. Bu, shuningdek, shaxsiy hayot tuyg‘usi, egalik, iste’mol tartibi, ishlash va dam olish vaqti,

martaba va ko‘nikmalarni shakllantirishga, shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishimizga, umuman inson hayotiga ta’sir qiladi.

Xristian dini yuqori martabali vakili Mixail Zaxarov shunday deydi: “Inson – aqlli, erkin fikrlaydigan mavjudod bo‘lib, u Alloh tomonidan yaratilgan. Allohning irodasisiz bu dunyoda hech narsa sodir bo‘lmaydi. Deylik, insonning o‘rnini bosadigan va ayrim qobiliyatlari bo‘yicha hatto undan ham o‘tib ketadigan temir tana yaratildi. Biz uni ham Allohning irodasi bilan yaratilgan deymiz. Axir inson o‘simlik va hayvonlarning yangidan-yangi tur va zotlarini yaratmoqdaku. Biz ularni Allohning irodasi bilan yaratilgan, deb aytayapmiz. Shu sabali, sun’iy intellektga ham xuddi shunday munosabatda bo‘lishimiz lozim[28]” .

Keltirilgan misollar sun’iy intellekt rivojlanishining shu kecha-kunduzdagi darajasiga oid. Lekin bu misollar aslida juda murakkab falsafiy-ontologik muammolarni keltirib chiqarmoqda: ong, aql – nima? Shu paytgacha ong yo Olloh tomonidan insonga ato etilgan, yoki yuksak tashkillashgan materiyaning, ya’ni inson miyasining xossasi, u voqelikning, olamning inson ongida ideal aks etishi, deyilar edi. Inson ongi olamni, voqelikni shunchaki passiv, mexanik tarzda ko‘zgu kabi aks ettirib qolmasdan uni faol tahliliy: zamonda (voqealar xilma-xilligida) va makonda (narsa va hodisalar yonma-yon, ketma-ket joylashuvida) – idrok etadi, baholaydi deyilardi. Zarur holda voqelikni o‘zgartirishga, takomillashtirishga harakat qiladi, ya’ni unga yaratuvchilik xosligi ta’kidlanardi. Ong, aql faqat insonda mavjud, u inson bilan birga ijtimoiy-tabiiy evolyusion tarzda shakllangan va takomillashgan, degan qarash ustun edi. Jahoniy aql, absolyut (mutlaq) g‘oya, absolyut ruh ongning, aqlning manbai degan idealistik qarashlar amalda diniy qarashlarning shaklan “ilmiysimon” ko‘rinishi edi, xolos.

Ilm-fan rivojlanishi jarayonida hayvonlarning yuqori rivojlangan turlariga murakkab psixika, ong bo‘sag‘asi (ong oldi) mavjudligi ma’lum bo‘ldi. Masalan, maymunlar, otlar, delfinlar va boshqalarga. Lekin ular ong bo‘sag‘asidan o‘ta olmasligi, tafakkur darajasiga eta olmasligi ham oydinlashdi. Ong mohiyatiga nisbatan qarashlar o‘zgarmay qoldi. Chunki yuqori rivojlangan hayvonlar ham tabiatni qayta ishlab, yangi mahsulot ishlab chiqarmaydi. Lekin sun’iy intellekt yaratila boshlagach, an’anaviy qarashlar oddiy odamlarni ham, ilm-fan vakillarini ham, avvalo psixologlar va filosoflarni qoniqtirmay qo‘ydi. Ayniqsa yaqin kelajakda sun’iy neyron tolalaridan keng foydalanadigan kvant kompyuterlariga o‘tilsa, kuchli mustaqil sun’iy intellekt yaratilishi mumkin bo‘ladi. Unda ong, aql nafaqat inson miyasida olamning in’ikos etishi, shuningdek

[28] Elektron manbaa www. Orbita. uz

suniy qurulmalarning tushunchalari, fikrlari axborotlar tizimining o‘z-o‘zini boshqarish asosidagi xulosalari ham deyish lozim bo‘ladi. Sun’iy intellekt tili shaklan emas, mazmunan inson jonli tilidan nima bilan farq qiladi? Funksional jihatdan farq faqat hissiyot uyg‘ota olmasligi bilan. Bu ham hozircha taxmin, xolos. Biz inson ongi va sun’iy ong o‘rtasidagi farq, ularning murakkab xususiyatlar va ziddiyatlari, u tug‘dirayotgan ontologik, funksional-metodologik, kreativ-pragmatik va boshqa falsafiy masalalar ustida to‘xtalib o‘tirmaymiz. Bu alohida mustaqil va tor ilmiy mavzu.

Xulosa qilib aytganda, tafakkur unsurlariga aylangan qudratli texnologiyalar, smart-mashinalar, robotlarning insonning aqliy va kasbiy tayyorgarligiga, axborot kommunikasiya texnologiyalarini bilishiga qo‘yadigan talablari yildan-yilga ortib bormoqda. Ayni paytda bu jarayon inson aqliy va hissiy dunyosi o‘rtasidagi asrlar davomida vujudga kelgan muvozanatni buzib, ular o‘rtasidagi tafovut va ziddiyatlarni kuchaytiradi. Ko‘pchilik an’anaviy ishchi kasblarning avtomatlashtirilishi, yoki robotlar yordamida bajarilishi, savdo-sotiq, boshqa rang-barang aloqalarning, shu jumladan ta’limning salmoqli qismi masofaviy shakllarga o‘tishi kelgusidagi kasblar va mutaxassisliklar nomenklaturasini qayta ko‘rib chiqish qatorida odamlarning ish vaqtini qisqartirib, bo‘sh vaqtini ko‘paytiradi. Bo‘sh vaqt insonning jismoniy va ma’naviy yuksalishi, komillikka erishishi uchun sharoit yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Paul R. Daugherty H. James Wilson “Human + machine. Reimagining Work in the Age jf All” HarvardBusinessReviewPress 55-p
2. “Fan, ta’lim va innovatsiyalar - yoshlar nigohida” Sh.Shomuhammedov nomidagi yosh sharqshunoslarning ikkinchi forumi materiallari to’plami 2018, 14 may 291-b
3. Argumenti i fakti 89 (3022) 17 fevral, 2022
4. Argumenti i fakti 22 (2011) 5 iyun, 2019
5. BMT yangiliklari sayti
6. www. Orbita. uz

MAFTUNA NAMOZOVA,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti
tayanch doktoranti

"SOXTA SALAFIYLIK" – DINIY RADIKAL TAHDID SIFATIDA

Dunyoning mafkuraviy manzarasida XXI asr dunyoda g'oyalar kurashi avj olgan davrda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida hal etilishi zarur bo'lgan ko'plab muammolar yuzaga kelayotgani, kishilarning osuda hayotini izdan chiqarishga qaratilgan yangi shakldagi tahdidlarning paydo bo'layotgani va buning natijasida buzg'unchi g'oyalar mafkura maydonini qurshab olayotgani barchamizni ogohlik va hushyorlikka chaqirmoqda. Ayniqsa, yoshlar ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni ona-Vatanga muhabbat, milliy va diniy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash asosida har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu maqsadda, davlatimiz kelajagi hisoblangan yosh avlod tarbiyasiga yurtimizda doimo alohida e'tibor qaratilgan. Darhaqiqat, bugungi kunda dunyo hamjamiyatida mafkuraviy poligonlarning yoshlar tarbiyasiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri har bir mamlakat, davlat, xalq oldida turgan dolzarb muammolardan biri sanaladi. Chunki har qanday jamiyat kelajak poydevori sifatida o'z siyosatida yosh avlod tarbiyasini yetakchi o'ringa qo'yishi tabiiy holdir.

Bugungi kunda radikalizm dunyoning mafkuraviy manzarasida o'zini shiddatli tarzda namoyon qilmoqda. Xususan radikalizmning diniy yo'nalishi aqidaparastlik, muttasiblik, terrorizm, eksteremizm ko'rinishlaridagi oqimlar asosida o'zining tagi puch radikal g'oyalar bilan boshlanib aslida siyosiy hokimiyatga intishlardir.

Radikalizm, umumiy ma'noda, har qanday ideologiya yoki g'oyaning ekstremal ko'rinishini anglatadi. Radikal g'oyalar va fikrlar, odatda, jamiyatda umumiy qabul qilingan ijtimoiy tartib-qoidalarni buzib, yangi tartibni qo'llashga intilishda ko'zga ko'rinadi. Bu jarayonning asosiy sababi, insonlar o'rtasidagi ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy muammolarga javob topishga qodir bo'lmagan holatda yuzaga kelishi mumkin. Radikalizmning bir necha turdagi shakllari mavjud bo'lishi mumkin. Ammo diniy radikalizm va siyosiy radikalizm ular orasida eng ko'p ko'zga tashlanadi. Bu shakllarning har biri o'ziga xos o'zgarmas tushunchalarga, vazifalarga va harakatlarga ega bo'lib, ularning oqibatlarining ko'rinishi va ta'siri o'zaro farq qiladi.

Aqidaparastlik (arab. – "aqida" – "ishonch", "biror narsani ikkinchisiga

bog`lash") [1] muayyan sharoitda, biron-bir g`oyaga qat'iy ishonib, uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko'r-ko'rona qo'llash yoki shunga urinishni anglatadi. U muayyan qonun va qoidalar ta'sir doirasini sun'iy kengaytirishga urinishda yorqin namoyon bo`ladi.

Aqidaparastlik ikki xil shaklda bo'lishi mumkin.

Dunyoviy aqidaparstlik shakli – (egoizm, shovinizm, kommunizm, bolshevizm, ateizm, millatchilik va b.);

Diniy aqidaparastlik shakli – (vahhobiylik, "Hizb ut tahrir", "Al-qoida" "Soxta salaviylik" va b.) [2]

Aqidaparastlik ham diniy, radikalizmning bir turi bo'lib quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Diniy aqidaparastlik - bu o 'z dinining to'g'riligi va boshqa dinlarning noto'g'riligi haqidagi qattiq va o'zgarmas e'tiqoddir. Bu e'tiqodlar ko'pincha diniy urushlarga va ta'qiblarga olib keladi.

Bugungi kunda diniy radikal g'oyalarga asoslangan aqidparast oqim "Soxta Salafiylik" ko'plab jamiyatlarni tashvishga solmoqda.

Soxta salafiylik – Islomdagi ahkom va fatvolarni har bir zamon taqozosiga qarab emas, hijriy sananing dastlabki uch davriga muvofiq ravishda hayotga tadbiq etishni targ'ib qiluvchi oqimdir.

Islomda "salaf" deganda, hadislarga ko'ra, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam zamonida va undan keyingi ikki davrda yashagan musulmonlar tushuniladi. Lug'aviy ma'nosi ham "ajdodlar", "avval yashab o'tganlar" degan ma'noni beradi.

Oxirgi yillarda aksar bemazhablar tarafdan sahoba va tobeinlar manhaji niqobi ostida "salafiylik" bayrog'ini baland hilpiratish holatlari ko'paydi. Najdlik Muhammad ibn Abdulvahhobning izdoshlari ham bugun "vahhobiy" degan atamadan voz kechishib o'zlarini solih salaflar yo'lidamiz deb iddao qilishmoqda. Nosiruddin Alboniy shaxsiyati xuddi o'sha "salafiylik" targ'ibotchilari orasida dohiylik kasb qilgan shaxslardan biridir. Salafiylar Nosir Alboniy shaxsiyatiga baho berishda juda haddan oshishgan. Uni "Asr muhaddisi", "Sunnat bilimdoni", "Sunnat homiysi" va hokazo balandparvoz ilmiy unvonlar bilan laqablab olishgan. Bugungi kunda salafiylar orasida oxirgi yillarda fiqhiy va hatto aqidaviy ahkomlarda ham Alboniy fikrlariga murojaat qilish holatlari birlamchi odatga aylandi.Ma'lumki, "Ahli Sunna val-Jamoa" e'tiqodiga ko'ra, islom arkonlari beshta: Imon, Namoz, Ro'za, Zakot, Xaj. Soxta salafiylik esa, Jihod-oltinchi arkon va jihod qilish har bir musulmon uchun farz ayndir", degan g'oyani ilgari suradi. Jihodni asosan qurolli kurash sifatida talqin qilinishi ekstremizm va terrorizmning yangicha shakl va mazmun

kasb etishga olib keldi. Biz islom aqidasiga nazar tashlasak va ularning bu buzg‘unchi g‘oyalariga raddiya beradigan bo‘lsak: Iymon, namoz, ro‘za, zakot, haj islomning 5 ta arkoni hisoblanadi. Undan biror narsa olish yoki qo‘shishga faqat Alloh va uning Rasuli haqlidir. Shulardan zakot va haj qodir bo‘lganlarga farzi ayn yoki qodir bo‘lmaganlarning zimmasidan soqit bo‘ladi. Shu o’rinda aqidaparastlikka muttaasiblik ham sabab bo‘ladi.

Radikal fikrlash, diniy ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiysi sababi bu – mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo`lishidir. Mutaassiblik diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi. Shu o‘rin qayd etish joizki, ko‘p manbalarda “aqidaparastlik” so‘zi hozirgi voqelikdan kelib chiqib “mutaassiblik” so‘zi bilan almashtirilgan holda ifoda qilinmoqda.

Mutaassiblik (arab. – “g`uluv ketish”, “chuqur ketish”) o`z fikr-mulohaza va dunyoqarashi to`g`riligiga o`ta qattiq ishonib, boshqa diniy e’tiqodlarga murosasiz munosabatda bo`lishni anglatadi. Mutaassiblik barcha davrlarda turli din va yo`nalishlar orasida keskin nizo va to`qnashuvlar kelib chiqishiga sabab bo`lgan.

Shuningdek, Islom dini insonlarni dinda o‘rta yo‘lni tutishga, g‘uluvga ketmaslikka chaqiradi. Alloh musulmon ummatining sifati haqida Qur’oni Karimning Baqara surasi 143- oyatda: “Ana shunday qilib, odamlar ustidan guvoh bo‘lishingiz va Rasul ustingizdan guvoh bo‘lishi uchun sizlarni o‘rta ummat qildik”, degan. Alloh taolo ushbu oyatda musulmonlarni o‘rta ummat qilganini xabar beradi. Oyatda “o‘rta” deb tarjima qilingan arab tilidagi “vasat” so‘zi yaxshi, o’rta, markaz, mo‘tadil va adolatli degan ma’noni bildiradi. O‘rtalikning yaxshi tomoni har xil ta’sirlar sababidan chetga og‘ib ketmasligidadir [3]

Zamonaviy voqiylik teror yoki davlat to‘ntarishi yo‘li bilan hokimiyatni qo‘lga olish soxta salafiylar tamonidan asosiy yo‘l sifatida tanlanganini ko‘rsatadi. 1979-yilining noyabrida Arabiston yarim-orolida Juxayman Utaybiy va uning tarofdorlari Makkadagi “Masjid al – Xarom” ga hujum uyushtirdi. Ushbu voqealardan so‘ng soxta salafiylik g‘oyalari va unga asoslangan xarakatlar mazkur hududda taziyq ostiga olindi va o‘z navbatida, arab dunyosi chegarasidan chiqib, boshqa mintaqalarga tarqaldi. Jumladan, o‘tgan asirning 70-yillari oxirida boshlangan afg‘on majorasida diniy omildan foydalanilishi natijasida ushbu g‘oyalar ayrim ekstremistik oqimlar tamonidan “Jihod” g‘oyasining o‘ta radikal mazmunda talqin etilishiga olib keldi. Bu esa, o‘z navbatida Afg‘onistonda soxta salafiylikda jihodchilik karashlarning kuchayishiga asosiy zamin yaratdi. Ular har qanday yangilikning “bidat” hisoblanmishida, ananaviy

mazhablarning inkor qilinishida, tasavvufning umuman tan olmasligida hamda qabiristonlarni ziyorat qilish mumkin emas, deb etirof etilishida ham soxta salafiylikning buzg‘unchi tabiati yorkin namoyon buladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak bu kabi soxta davolar insoniyat taraqqiyoti, musulmon sivilizatsiyasi erishgan yutuqlarni inkor etish bilan barobardir. Xo‘sh, aqidaparastlarga kimlar ergashadi?! Albatta, bilimsiz, ongida bo‘shliq paydo bo‘lgan odamlar, ayniqsa, yoshlar ergashadi. Ko‘p millatli yurtimizda aqidaparastlikka qarshi keskin va ommaviy mafkuraviy kurash olib borilmoqda. Yoshlarni sog‘lom dunyoqarashli, iymon e’tiqodi mustahkam, radikal g‘oyalarga tahhdidbardosh va imunenetli qilib tarbiyalash bizning oldimizdagi ustuvor vazifadir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://oyina.uz/uz/teahause/1162
2. Маънавият асосий тушунчалар луIати. [Матн]: луғат. // J. Назаров ва б. – Тошкент: «Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти» нашриёти, 2021. – 816 б.
3. Qur’oni Karimning Baqara surasi 143- oyati.

ABRORXO‘JA MO‘MINXO‘JAYEV,
O‘zbekiston Respublikasi IIVning
Ixtisoslashtirilgan maktab-internati o‘qituvchisi

YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY VA MAFKURAVIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHGA OID DAVLAT SIYOSATINING ME’YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

XXI asrning global va ijtimoiy muammolari va jarayonlari ijtimoiy-siyosiy, yuridik tashabbuskor sifatida O‘zbekiston davlatining roli va uning xalqaro hamjamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash uchun yangi zamin va omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Hozirda, aytib o‘tilgan omillar tufayli davlat sivilizatsiyaning murakkab subyektlaridan biriga aylanib, uni saqlash va rivojlantirish uchun asosiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish tendensiyasi kuzatilmoqda. So‘nggi yillarda o‘zbek xalqi mafkurasiga tahdid sifatida amaliy ahamiyat kasb etgan muammolar: millatchilik, mahalliychilik, korrupsiya, missionerlik, terrorizm, diniy aqidaparastlik, fanatizm, odam savdosi, fahsh, engil-yelpi oilaviy va ijtimoiy munosabatlar va boshqalar jamiyatimiz xatti-harakatining rivojlanishida jiddiy tahdid ekanligi o‘z tasdig‘ini topdi. Davlat boshqaruvi va davlatchilik ma’lum ma’noda taraqqiyotning keyingi bosqichlari uchun o‘ziga xos “rezina effekti”ga ega bo‘lishi, taraqqiyotning boshi berk ko‘chaga kirishiga to‘sqinlik qilishi zarur.

Aynan davlatning qonun chiqaruvchilik vakolati, jamiyatning ma’naviy dunyosiga nisbatan halokatli bo‘lgan utilitar-resurs yondashuvidan maqsadli biosfera-ekologik yondashuvga o‘tishda hal qiluvchi rol o‘ynashi kerakligi ma’lum bo‘lib bormoqda.

Mafkuraviy tahdidlarga nisbatan qarashlarni transformatsiyalash, eng avvalo, siyosiy hokimiyat, uning tarmoqlarini, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatlarini isloh etishni o‘z ichiga qamrab oladi. Bundan ko‘zlangan maqsad davlat va ijtimoiy boshqaruvda “hokimiyat salohiyatini boshqaruv obyektlarining aniq bir maqsadga yo‘naltirilgan qoidalarini shakllantirishdir”[29], ya’ni siyosiy tizimni yangilash, eng avvalo, mavjud hokimiyatda tub islohotlarni amalga oshirish boshqaruvning demokratik qadriyatlarini shakllantirish va ular asosida jamiyatimizning barcha qatlamlari va guruhlari ongida ma’naviy va

[29] Отамуратов С., Ергашов И., Акромов Ш., Қодиров А. Политалогия. – Тошкент.: Ўзбекистон, 1999. – Б. 67.

mafkuraviy tahdidlarga nisbatan qarashlarni transformatsiyalashni nazarda tutadi. “Yangi tahrirdagi konstitutsiyaning “Muqaddima” qismida qonunlar majmuasi uch ming yillik davlatchilik tajribasi va buyuk ajdodlarimizning ilmiy, ma’naviy va madaniy merosiga”[30] tayanilganligi hamda davlat boshqaruvi millat qadriyatlari, e’tiqod qoidalari, mafkura birliklari asosida tashkil etilishi alohida urg‘ulanadi. Konstitutsion qonunlar majmuasining 1-moddasida davlat boshqaruv shakliga ta’rif berilib, Yangi O‘zbekistonda davlat boshqaruvi ko‘pchilik fikriga ko‘ra (demokratik), “qonun ustuvorligiga ko‘ra (huquqiy), aholining ijtimoiy muhtoj qatlamini qo‘llab-quvvatlovchi (ijtimoiy), davlat boshqaruvida hech qaysi diniy qonunlarning ustun bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydigan (dunyoviy) bo‘lishi mustahkamlab qo‘yildi”[31]. Taxminan 136 etnik guruh istiqomat qilib kelayotgan mamlakatda tashqi aralashuvlar ta’sirida Yaqin Sharq, Sharqiy Osiyo, Afrika davlatlari, qochoqlar muammolaridan keyingi Yevropa mamlakatlari kabi etnik va madaniy konfliktlardan saqlanish, barcha millatlarning qonun oldidagi majburiyati bilan birga, ularning ma’naviy va madaniy erkinliklarining kafolatini ta’minlash maqsadida Konstitutsiyaning 4-moddasida, “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi” [32] degan norma qabul qilindi.

Davlat boshqaruvi va jamiyat taraqqiyotida hech qaysi yondashuv yoki g‘oya mutlaqo o‘rinsiz bo‘lishi mumkin emasligi ilmiy va amaliy jihatdan bir necha bor o‘z tasdig‘ini topdi. Qarashlar va yondashuvlardagi o‘zgarish transformatsiyani, transformatsiya esa, o‘z navbatida ijtimoiy va siyosiy hayotni yangi quvvat bilan ta’minlaydi. Qabul qilingan “Xalq Konstitutsiyasi”ga ko‘ra, “O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligiga asoslangan holda rivojlanishi”[33] e’tirof etiladi. Bunda “bunyodkor mafkura va fikrlarning egalari ularning tarafdorlari daxlsizligi, huquqlarining qonuniy ta’minlanishi davlat kafolati ostida bo‘ladi”[34]. Bundan tashqari

[30] Ўзбекистон Республикаси Конситутсияси. Муқаддима. // https://sonstitution.uz/uploads/sonstitution_oz.pdf

[31] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 1-модда. https://sonstitution.uz/uploads/sonstitution_oz.pdf.

[32] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 4-модда. https://constitution.uz/uploads/sonstitution_oz.pdf.

[33] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 12-модда. https://constitution.uz/uploads/sonstitution_oz.pdf.

[34] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 19-модда. https://constitution.uz/uploads/sonstitution_oz.pdf.

davlat fuqarolarning o‘rtasida har qanday ko‘rinishdagi kelishmovchilik, kamsitish, tahqirlash, ijtimoiy yoki siyosiy bosim ostida qolishidan kelib chiqadigan norozilik kayfiyati, xalq va hukumat o‘rtasida ishonchsizlik, bularning natijasida esa, ommaviy tartibsizliklarning kelib chiqishi ijtimoiy algoritmini hisobga olib, “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat’iy nazar, qonun oldida teng ekanligi, qonun barchaga individual tartibda ta’sir ko‘rsatishi belgilandi”[35]. “Umumjahon inson huquqlari tamoyillariga mos ravishda Konstitutsiyada har bir inson o‘z shaxsini erkin kamol toptirish”[36], qonunda nazarda tutilgan boshqa huquqlar, masalan, “davlatning jahon internet tarmog‘iga bog‘lanish sharoitlarini yaratish mas’uliyatidan kelib chiqib, axborotni izlash, olish, tarqatish huquqlaridan qonunga muvofiq hamda faqat Konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini saqlagan”[37] holdagina amalga oshirishi mumkin ekanligi belgilab qo‘yilgan. Shunga e’tibor qaratishimiz lozimki, huquqlar chegarasi endigina aniq belgilandi, ya’ni 33-moddada keltirib o‘tilgan mustasno holatlar xalqaro huquq normalariga to‘la mos bo‘lib, “bir shaxs, guruh huquqlari boshqa bir shaxsning yoki guruhning huquqi yoki xavfsizligi chegarasigacha amal qilishi belgilandi”[38].

Hech shubha yo‘qki, ma’naviy va mafkuraviy tahdidlarga nisbatan qarashlarni transformatsiyalash jarayoni siyosiy modernizatsiyani talab etadi. Modernizatsiya, avvalo, hokimiyat va uning tarmoqlarini – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini yangilashni o‘z ichiga qamrab oladi. Bundan ko‘zlangan maqsad boshqarishda hokimiyat salohiyatini boshqaruv obyektlarining aniq bir maqsadda yo‘naltirilgan qoidalarini shakllantirish ekan, O‘zbekistonda bunday jarayon Prezident Shavkat Mirziyoyevning siyosiy tashabbusi va irodasi bilan yuzaga keldi. Shavkat Mirziyoyevning mamlakat boshqaruviga kelishini, uzoq yillar o‘z yechimini kutib yotgan ma’naviy va mafkuraviy muammolarning yechimi yuzasidan ko‘plab institutsional o‘zgarishlarning joriy qilinishi bilan bog‘liq holda ko‘rish mumkin. Davlat boshqaruvining har bir

[35] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 19-модда. https://constitution.uz/uploads/sonstitution_oz.pdf.

[36] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 21-modda. https://constitution.uz/uploads/sonstitution_oz.pdf.

[37] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 33-modda. https://constitution.uz/uploads/sonstitution_oz.pdf.

[38] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 33-modda. https://constitution.uz/uploads/sonstitution_oz.pdf.

sohasida ma’naviy va mafkuraviy tahdidlarga nisbatan qarashlarni transformatsiyalashning mutlaqo yangi yo‘nalishi sifatida boshlangan keyingi davrda jadallashgan demokratiyalashtirish jarayoni, avvalo, fuqarolarning ruhiyatida demokratiyani qaror toptirish va davlat boshqaruv institutlarining faoliyatini tubdan isloh etish masalalari bilan boshlandi.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini o‘z ichiga olgan “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Prezidentining farmoni[39] jamiyat va davlat vakillari qarashlari transformatsiyasini harakatga keltiruvchi birinchi qadam bo‘lgan bo‘lsa, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” va “O‘zbekiston 2030” to‘grisidagi Prezident farmoni bu yo‘nalishdagi keyingi islohotlar uchun asos bo‘lib xizmat qilmoda. Strategiya va keyingi dasturlarda belgilab olingan yo‘nalishlar o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Zotan, ma’naviy va mafkuraviy qarashlarni transformatsiyalash kompleks jarayondir, ya’ni sotsial-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va sotsiomadaniy tarmoqlar o‘zaro bog‘lanib, bir-birining samaradorligini ta’minlaydi. Agar jarayonlar o‘rtasida uzviylikdan og‘ishish qayd etilsa, qarashlarni transformatsiyalash shaxslar va guruhlarni to‘liq qamrab olishi imkonsizdir.

Jamiyatda turli ijtimoiy guruhlar, qatlamlar daromadlari o‘rtasidagi tafovutni minimallashtirmay turib, samarali iqtisodiy o‘sish, mafkuraviy asosga qurilgan siyosiy madaniyat, fuqarolik jamiyati institutlarisiz demokratik tartib intizom qaror topmaydi. Darhaqiqat, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” va “O‘zbekiston-2030” mamlakatda ma’naviy va mafkuraviy qarashlarni transformatsiyalash jarayonlarini yanada tezlashtirish, xalq farovonligi va manfaatlarini ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, xalqimiz qadriyatlarini yangilash hamda davlat boshqaruvi sohalarini davrga moslash maqsadini ko‘zlagan holda qabul qilindi. Yuqoridagilarga asoslanib O‘zbekistonda siyosiy modernizatsiyalash jarayonining yangi bosqichi boshlanganini xulosa qilishimiz mumkin. Ma’naviy va mafkuraviy qarashlarni transformatsiyalash jarayonida davlat va fuqarolik jamiyati o‘zaro mutanosib ravishda rivojlanadi. Yagona sotsial organizmning ikkita tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu jarayonda davlat va jamiyatning uzviy, ikki tomonlama manfaatli muloqoti talab etiladi. Fuqarolik jamiyati shakllanar ekan, davlatning ko‘pgina vazifalarini o‘z zimmasiga oladi, rivojlanish yo‘lida davlat bilan teng sheriklikda xizmat qiladi. Siyosiy qarashlarni transformatsiyalashni ko‘zda tutuvchi Prezident

[39] Ўзбекистон Президентининг 2017-йилнинг 7-февралида Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришгнинг бешта устивор йўнишини ўз ичига олган “Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги № ПФ-4947 сон Ўзбекистон Президентининг Фармони. Ўзбекистон қонун ҳужжалтлари тўплами, 2017-йил. 6-сон.

Shavkat Mirziyoyevning “Xalq bilan muloqot” konsepsiyasi fuqarolarni siyosiy jarayonlardagi faolligini oshirishga zamin bo‘ldi. Bugun jamiyatda demokratik tartibotlar va erkinlik muhiti joriy etilmoqda. Davlat idoralariga nisbatan fuqarolar ishonchi shakllandi. Odamlar davlat idoralariga va fuqarolik jamiyati institutlariga o‘zlari uchun himoya institutlari sifatida qaray boshladi. Jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasi shakllanishiga katta e’tibor qaratilmoqda.

Davlat fuqarolarning turli ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlariga xizmat qilishi, erkin muloqot, fikrlar, bahs-munozaralar, davlat va jamiyat hayotida fuqarolarning faolligi, fuqarolik jamiyati doimo intilib yashaydigan idealdir. Siyosiy adabiyotlarda ushbu idealga yetish uchun davlat va jamiyat, fuqarolar o‘rtasidagi muloqot va hamkorlik o‘ta muhim ahamiyatga ega ekani ta’kidlanadi. Fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni, hukumat, “davlat boshqaruvi organlari, sud-huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat tashkilotlari va xo‘jalik boshqaruvi organlariga murojaat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqlarining so‘zsiz amalga oshirilishi uchun sharoitlar yaratilib, xalq bilan muloqot Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonaning asosiy vazifasi etib belgilandi”[40]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Asosiy Qonunimiz qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi konseptual ma’ruzasida huquqiy demokratik davlat qurish va erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘lidagi o‘ta dolzarb vazifalarni belgilab berdi[41]. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, fuqarolik jamiyatining rivoji, davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolarning ishtirokini ta’minlash yo‘lida davlat o‘z oldiga “barcha qonun hujjatlarida xalq bilan muloqot tizimi haqidagi normalarni aniq belgilab qo‘yish”, “2017-yildan boshlab barcha darajadagi hokimlar, prokuratura va ichki ishlar organlari rahbarlarining aholi oldida hisobot berishi”, har bir tuman va shaharda “Xalq qabulxonalarini tashkil etish”, “har bir hududdagi vaziyatni, avvalo, farmon va qarorlar ijrosini, ularning samaradorligini doimiy ravishda o‘rganib, bu borada davlat organlari mas’uliyatini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadigan tizimni shakllantirish”, “parlament va jamoatchilik nazoratining ta’sirchan mexanizmlarini shakllantirish maqsadida shahar va tumanlarda haqiqiy

[40] Ўзбекистон Президентининг 2017-йилнинг 7-февралида Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришгнинг бешта устивор йўанишини ўз ичига олган “Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги № ПФ-4947 сон Ўзбекистон Президентининг Фармони. Ўзбекистон қонун ҳужжалтлари тўплами, 2017-йил. 6-сон.

[41] Мирзиёев Ш. Қонун устиворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент.: – Ўзбекистон, 2017. – Б. 6.

ahvolni o‘rganib, tegishli rahbarlarning hisobotini xalq deputatlari Kengashlari sessiyasi muhokamasiga kiritish tartibini joriy etish”, “har yili bir marta Ichki ishlar vazirining, eng avvalo, profilaktika sohasidagi faoliyati yuzasidan hisobotini Senatda eshitish amaliyotini joriy etish”, “mahalliy hokimlarni bevosita xalq tomonidan saylash masalasi haqida ham o‘ylab, muhokama qilib ko‘rish” kabi bir qator hayotiy va dolzarb vazifalar qo‘yildi[42]. Bu vazifalarning birma-bir amalga oshib kelayotgani esa, hokimiyat va jamiyat a’zolarining ma’naviy va mafkuraviy tahdidlarga nisbatan qarashlari transformatsiyaga uchrashining yuridik asosi bo‘lib kelmoqda.

Yuqoridagi tahlillarimiz va globallashgan dunyoda yashayotganimizni hisobga olib, defuziyalashayotgan jamiyatlarda so‘z erkinligi, axborot olish, uni tarqatish, tahlillash jarayonlarida davlat o‘zining bosh tashabbuschi, tartibga soluvchi, nazoratchi rolini saqlab qolishi muhim, deb hisoblaymiz. Ayniqsa, bu zarurat sobiq ittifoq tarkibida bo‘lgan davlatlarda anchayin yuqori keskinligini saqlab turibdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Конститутсияси.

2. Отамуратов С., Ергашов И., Акромов Ш., Қодиров А. Политалогия. – Тошкент.: Ўзбекистон, 1999. – Б. 67.

3. Мирзиёев Ш. Қонун устиворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент.: – Ўзбекистон, 2017. – Б. 6.

4. Раматов Ж.С., Рахимова М.И., Ҳасанов М.Н. Мафкуравий таҳдидларни олдини олишда исломий қадриятларнинг ўрни. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 6 | 2022. – Б. 1033. https://t.me/ares_uz.

5. Ўзбекистон Президентининг 2017-йилнинг 7-февралида Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришгнинг бешта устивор йўнишини ўз ичига олган “Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги № ПФ-4947 сон Ўзбекистон Президентининг Фармони. Ўзбекистон қонун ҳужжалтлари тўплами, 2017-йил. 6-сон

6. Ўзбекистон Президентининг 2017-йилнинг 7-февралида Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришгнинг бешта устивор йўанишини ўз ичига олган “Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги № ПФ-4947 сон Ўзбекистон Президентининг Фармони. Ўзбекистон қонун ҳужжалтлари тўплами, 2017-йил. 6-сон.

[42] Мирзиёев Ш. Қонун устиворлиги ва инсон манфаатларини таминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент.: – Ўзбекистон, 2017. – Б. 15-25.

OYBEK JUMAYEV,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

KAMBAG'ALLIKNING MA'NAVIY-MAFKURAVIY TAHDIDINI BARTARAF ETISH MASALASI

Kambag'allikni bugungi kunda mamlakatning faqat iqtisodiy muammo sifatida ko'rmasdan, uning ijtimoiy va falsafiy jihatlarini ham o'rganish masalaning yechimini oydinlashishiga xizmat qiladi desak xato bo'lmaydi. Ushbu yondashuv kambag'allikni ijtimoiy adolatsizlik va inson qadr-qimmatining buzilishi deb hisoblaydi. Axloqiy nuqtai nazardan, kambag'allik insonning asosiy huquq va erkinliklarini buzuvchi, insonning to'laqonli hayot kechirishiga to'sqinlik qiluvchi omil sifatida ko'riladi. Kambag'allik faqat moddiy yetishmovchilikni emas, balki insonning mafkurasi, ma'naviy olami, o'zini o'zi hurmat qilish, imkoniyatlarni to'liq amalga oshirish va jamiyatda teng huquqli bo'lish huquqlarini cheklaydi. Shu nuqtai nazardan, kambag'allikka qarshi kurashish faqat iqtisodiy siyosat masalasi emas, balki ijtimoiy adolatni ta'minlash masalasi hamdir.

Falsafiy jihatdan, kambag'allikni tushunish jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy tengsizlik, resurslarni adolatsiz taqsimlash va inson qadr-qimmatini e'tiborsiz qoldirish kabi omillarni chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Bu nuqtai nazardan, kambag'allik ijtimoiy tizimlarning nuqsonlari, iqtisodiy va ijtimoiy strukturalarning adolatsizligi va inson huquqlarining buzilishi natijasida yuzaga keladigan holat deb qaraladi. O'zbekistonda kambag'allikning ijtimoiy-falsafiy asoslarini o'rganish milliy o'zlik, an'analar va jamiyatning axloqiy qadriyatlariga asoslanishi kerak. Bu borada ijtimoiy adolat, tenglik va hamkorlik kabi qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, kambag'allikning avlodlararo o'tishi masalasi jamiyatda adolatsizlikni kuchaytiruvchi omil sifatida ko'riladi va unga qarshi kurashda ma'naviy-axloqiy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning ijtimoiy-falsafiy tafakkurida kambag'allikni adolatsizlik va ijtimoiy tengsizlik sifatida tushunish, uni bartaraf etishning eng samarali yo'li sifatida inson qadr-qimmatini himoya qilish va adolatli ijtimoiy tizimlarni yaratish zarurligini ta'kidlaydi.

Kambag'allik muammosi shaxsning ma'naviy dunyoqarashiga ta'sir etadi. Bu omil bolaning o'zgalardan ajralib qolishidagi eng katta sabablardandir. Ko'zini ochib ota-onasini og'ir ahvolda va oilasini tanglik, siqilgan holda ko'raverish uning odamoviligini, ko'pchilikdan

begonalashuvini kuchaytiradi. U yaqinlari yoki qo'shni bolalar, maktabdagi do'stlari oldida o'zining etishmovchiligidan, doimiy g'amgin holatidan ich-ichdan eziladi. O'zini yashirgani joy topolmay yuradi yoki aksincha, "omadi" chopganlarga nisbatan g'arazini ochiq namoyish qilish payida bo'ladi. Agar oiladagi vaziyat shunday davom etaversa, bu holdagi bolaning ruhan etuk bo'lib ulg'ayishini kutish, albatta, qiyin. Shubhasiz, u jamiyatga nafrat va g'azab ko'zi bilan qaraydi. Shu tariqa shakllangan fe'l-atvor oqibatida ezgu orzu-niyatlaridan umid uzib, yaxshi o'y-xayollarini yomon g'arazlarga almashtiradi" [1].

Siyosatni to'g'ri yuritmaslik ham kambag'allikka olib kelishi va inson mafkurasida salbiy yondoshuvlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, noto'g'ri siyosat olib borilishi, qishloq xo'jaligi va o'rmonlarni qo'llab-quvvatlashning pastligi, sanoatning buzilishi, ifloslanish kambag'allikni oziqlantirmoqda. Ta'limga ko'makning yetishmasligi kambag'al avlodning o'sishiga olib keladi. Korrupsiya kambag'allikning asosiy sabablaridan biri bo'lib, mamlakatda mustamlakachi davlatlarning mavjudligi xalq resurslarining ekspluatatsiya qilinishiga va odamlarning mo'l-ko'l ochlikda yashashiga sabab bo'ladi. Darhaqiqat, muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida respublikamizda kambag'allikni qisqartirishni yechimi kutayotgan dolzarb masalasi sifatida kun tartibiga olib chiqildi. Bu borada, Davlatimiz rahbari shunday o'ziga xos yondashuvni ilgari surdiki, unga ko'ra "Kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg'otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o'qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to'lash tizimini joriy qilish kerak" [2]. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilar qatorida Abdurahmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R. [3] Djumanova R.F. [4] Ibragimova N.M. [5] Mustafoqulov Sh.I. [6] Muxitdinova M.Z. [7] Pardayeva B. [8] Saidov K.S. [9] Saidov M.X, Nasriyev I.I. [10] va boshqalarning ilmiy izlanishlarida kambag'allikka oid masalalar alohida muammo sifatida chuqur o'rganishga harakat qilingan.

Kambag'allik muammosining ma'naviy-mafkuraviy xavfli oqibatlarini quyidagi jarayonlarda ko'rishimiz mumkin. Xususan, insonlarda bilimsizlik, loqaydlik, tushkunlik, umidsizlik, hayot uchun xavfli qarorlar qabul qilish, nosog'lom yashash muhiti va tartibsiz turmush tarsi kabi axloqiy illatlarning shakllanishi jamiyatda ma'naviy-mafkuraviy bo'shliqni vujudga keltiradi. Mamalakat istiqboli va taraqqiyotiga g'ov bo'ladigan ijtimoiy-siyosiy muammolarning vujudga

kelishi kambag‘allik masalasining ma’naviy-mafkuraviy xavfini bartaraf etish bilan bog‘liq jihatlarni kengqamrovli o‘rganishni taqozo etadi. Shunday ekan, mamlakatni isloh qilishning asosiy maqsadlaridan biri ijtimoiy davlatni yaratishdir. Ammo buning ma’nosini hech qanday oddiy odamga tushuntirib bo‘lmaydi. Chunki taklif etilayotgan g‘oya ommaning ijtimoiy ongi va kundalik hayotida juda past darajada tarqaldi. Har qanday holatda ham keng jamoatchilik ijtimoiy davlat nima ekanligini, uning o‘ziga xos xususiyatlari va funksiyalarini aniq bilishi kerak. Shu bois ijtimoiy davlat masalasi eng dolzarb va muhim masalalardan biri ekanligini ta’kidlaymiz.

XIX asrning ikkinchi yarmida “ijtimoiy davlat” tushunchasini birinchi marta nemis olimi Lorens fon Shtayner kiritgan. Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy davlat barpo etilishi davlat qurilishidagi yangi qadamdir. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ijtimoiy davlat o‘z fuqarolariga munosib turmush sharoitini ta’minlash, ularning ijtimoiy mavqeini himoya qilish, moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, ishlab chiqarishni boshqarish, jamiyat va davlatni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishga intiladigan davlatdir. Bu muammo milliy daromadni kam ta’minlangan guruh foydasiga qayta taqsimlash yordamida bandlik, mehnatni muhofaza qilish, ta’lim, sog‘liqni saqlash, butun jamiyat madaniyatini ta’minlash va hokazo. rivojlantirish siyosatini amalga oshirish jarayonida erishiladi va amalga oshiriladi. Farovonlik davlati jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va h.k. sekinlashtirish va tengsizliklarni yuvish uchun bor kuchini sarflaydi. Taklif etilgan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni hal etish zarur:

– ijtimoiy yordamning o‘ziga xos xususiyatini kuchaytirish;

– kam ta’minlangan aholining mehnatga layoqatli qismining kambag‘alligini faol bartaraf etishning aniq mexanizmlaridan foydalanish.

Munosib mehnat imkoniyatlarini kengaytirish va moslashuvchan mehnat bozorini oshirish maqsadida:

– kadrlarning ichki ishlab chiqarish tayyorgarligini tashkil yetishda, kadrlarni kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlashda ish beruvchilarning ishtirokini rag‘batlantirish orqali ishchi kuchining kasbiy mahorat darajasini oshirishga qaratilgan kasbiy tayyorgarlik;

– mehnat bozorida ishsizlarning raqobatbardoshligini oshirish uchun samarali ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar ko‘riladi.

Yoshlarning kasbiy ta’lim olishi, o‘z biznesini ochishi, yoshlarni kichik va o‘rta sohaga jalb etishi uchun kreditlar va grantlar taqsimlash dasturini amalga oshirish orqali yoshlarni ish bilan ta’minlash bo‘yicha

faol siyosatni amalga oshirish choralari ko‘riladi. Inson kapitali uchun investitsiya vositalarining yetishmasligi, sog‘liqni saqlash, ta’lim va ijtimoiy faol odamlar yangi global iqtisodiyotda raqobatlasha olmaydi.

Demografik tendensiya mamlakatimizdagi eng muhim muammolardan biri bo‘lib, uning asosiy maqsadi aholi sonini ko‘paytirishdir. Aholining qashshoqligini kamaytirish uchun sog‘liqni saqlash va ta’limga zarur investitsiyalarni boshqarish ham amalga oshirilishi kerak. Aholining ijtimoiy himoyalangan guruhlari hukumatdan alohida e’tibor talab qiladi. Agar o‘z vaqtida choralar ko‘rilmasa, kambag‘allikni uzoq muddatli qisqartirishga erishib bo‘lmaydi.

Ijtimoiy falsafada sinfiy jamiyatning mavjudligi va uning oqibatlari ko‘p muhokama qilinadi. Boylar yuqori sinf sifatida tasvirlanib, ularning san’at va madaniy boyliklarga ega bo’lish imkoniyatlari mavjudligi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, ommaviy san’atni iste’mol qiluvchi kambag‘al ommaning madaniy ehtiyojlari ham ko‘riladi.

Boylikning insonparvarlashtirilishi yoki ma’naviy kambag‘allikka olib kelishi mumkinligi ta’kidlanadi. Ijtimoiy falsafada bu dialektik munosabatlar insoniy axloqning iqtisodiy tizim bilan qanchalik bog‘liqligini ko‘rsatadi. Boylik va moddiy farovonlikning insonning axloqiy rivojlanishiga qanday ta’sir qilishi haqida qiziqarli savollar ko‘tariladi.

Yuqoridagi tahlil shuni ko‘rsatadiki, biz ko‘targan muammo ijtimoiy falsafaning ko‘plab kategoriyalari bilan bevosita bog‘liq va u zamonaviy jamiyatning ijtimoiy va axloqiy muammolarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Kambag‘allikning o‘zi uning ko‘payishiga hissa qo‘shadigan ma’lum madaniy munosabatlar, qadriyatlar va xulq-atvor namunalarini keltirib chiqaradi. Ushbu hodisani ijtimoiy takrorlanish toifasi orqali ko‘rish mumkin. Ijtimoiy falsafada bu jarayon narsalarning mavjud tartibini saqlaydigan va ijtimoiy harakatchanlikka to‘sqinlik qiluvchi ma’lum ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarning mustahkamlanishi sifatida tavsiflanadi.

Kambag‘allik madaniyatiga mansub odamlar o’zlarini jamiyatdan chetlangan va begona his qilishadi. Bu hodisalar ijtimoiy falsafaning ijtimoiy istisno va marginallashuv kabi asosiy kategoriyalarini aks ettiradi. Chetlatish - bu shaxs yoki guruhning ijtimoiy hayotda to‘liq ishtirok etishidan va jamoat tovarlaridan foydalanishdan chetlashtirilgan vaziyatni tavsiflaydi. Marginallashuv, o‘z navbatida, odamlarning o‘z huquq va imkoniyatlarini to‘liq amalga oshira olmaydigan jamiyatning chetidagi pozitsiyasini ifodalaydi.

Kambag‘allik madaniyatidagi odamlar odatda o‘zlarining sinfiy

o‘ziga xosligini bilishmaydi va o‘z muammolarining boshqa kambag‘al odamlarning muammolari bilan umumiyligini ko‘rmaydilar. Ijtimoiy falsafada bu sinfiy ong tushunchasi bilan bog‘liq - shaxsning ijtimoiy tuzilishdagi o’rnini bilishi va o‘‘z sinfining boshqa vakillari bilan umumiy manfaatlarni anglashi. Bunday ongning yo‘qligi jamiyatning kam ta’minlangan qatlamlarining tarqoqligini kuchaytiradi va ularning o‘z huquqlari uchun uyushgan kurashiga to‘sqinlik qiladi.

Kambag‘allik madaniyatiga xos bo‘lgan qadriyatlar va xulq-atvor namunalari ota-onalardan bolalarga o‘tishi va shu bilan keyingi avlodlarda kambag‘allikni davom ettirishini ta’kidlaydi. Bu hodisani ijtimoiy sharoitlar va muhit shaxs va uning dunyoqarashining shakllanishiga qanday ta’sir qilishini tavsiflovchi ijtimoiy determinatsiya kategoriyasi orqali tahlil qilish mumkin. Ijtimoiy falsafa ijtimoiy institutlar (oila, maktab, umuman jamiyat) ijtimoiy munosabatlarni qanday shakllantirishini va bu munosabatlar, o‘z navbatida, ijtimoiy tuzilmaning takror ishlab chiqarilishiga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi.

Shunday qilib, Oskar Lyuis tomonidan ijtimoiy-falsafiy kategoriyalar orqali kambag‘allik madaniyati kontseptsiyasi kambag‘allik va ijtimoiy tengsizlikni takror ishlab chiqarishga yordam beradigan mexanizmlarni yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Bu yondashuv jamiyatda kambag‘allikning shakllanishi va ko‘payishiga ta’sir etuvchi nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va ijtimoiy omillarni ham tahlil qilish muhimligini ta’kidlaydi.

Subyektiv kambag‘allik shaxsning o‘z moliyaviy ahvoli haqidagi tasavvuriga asoslanadi. Ijtimoiy falsafada bu ijtimoiy ong va shaxsiy idrok tushunchasi bilan bog‘liq. Subyektiv kambag‘allik kambag‘allik nafaqat obyektiv shart, balki shaxsning jamiyatning ijtimoiy va madaniy me’yorlari bilan bog‘liq holda idrok etadigan sharti ekanligini ta’kidlaydi. Ushbu kontseptsiya shaxsiy va jamoatchilik in’ikoslari ijtimoiy xulq-atvorga va o‘zini o‘zi amalga oshirishga qanday ta’sir qilishi mumkinligini tushunish uchun muhimdir. Masalan, agar kishi jamiyatda boshqalar bilan teng ravishda ishtirok eta olmasa, daromadi belgilangan darajadan yuqori bo’lsa ham, o‘zini kambag‘al deb bilishi mumkin.

Subyektiv kambag‘allik ijtimoiy adolat va ijtimoiy tenglik muhokamalari kontekstida ham muhim ahamiyatga ega, chunki u kambag‘allikka nisbatan jamoatchilikning munosabati nafaqat obyektiv ko‘rsatkichlarni, balki haqiqatan ham samarali bo‘lishi uchun farovonlikning subyektiv bahosini ham hisobga olishi kerakligini ko‘rsatadi.

Kambag‘allikni o‘lchashda deprivatsiya yondashuvi shaxsning ijtimoiy standartlarga javob beradigan turmush darajasiga erishishiga to‘sqinlik qiladigan mahrumliklarga qaratilgan. Ijtimoiy falsafada bu yondashuvni ijtimoiy adolat va resurslardan foydalanish tushunchasi bilan bog‘lash mumkin. Deprivatsiya nafaqat moddiy ne’matlarning etishmasligi, balki to‘liq hayot uchun zarur bo‘lgan ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa xizmatlardan etarli darajada foydalana olmaslikni ham anglatadi. Ushbu yondashuv hayot sifatiga ta’sir qiluvchi ko‘p o‘lchovlarni hisobga olgan holda kambag‘allikning yanada kengroq ko’rinishini taklif qiladi.

Shunday qilib, kambag‘allik tushunchalarining har biri ushbu ijtimoiy hodisaning turli tomonlarini yoritib beradi, bu esa kambag‘allikni falsafiy nuqtai nazardan chuqurroq tushunish va tahlil qilish imkonini beradi. Kambag‘allik tahliliga obyektiv va subyektiv ko‘rsatkichlarni kiritish tengsizlikni kamaytirish va turmush darajasini yaxshilash bo‘yicha samarali ijtimoiy va iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishning kalitidir.

Kambag‘allik nafaqat moddiy resurslarning yetishmasligi, balki jamiyat hayotida to‘liq ishtirok etish imkoniyatining etishmasligi hamdir. Kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha hukumat chora-tadbirlari aholi farovonligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli yo‘nalish va strategiyalarni qamrab oladi.

Kambag‘allikning ma’naviy-mafkuraviy tahdidiga qarshi bir qator choralarni ko‘rish mumkin.

Birinchidan, inson yashashi uchun yaroqsiz bo‘lgan og‘ir sharoitlarda yashaydigan aholi qatlami uchun yangi madaniy yashash muhitini yaratish. Urbanizatsiya o‘ta kambag‘allikni kamaytirishning asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi. “Qishloq xo‘jaligini isloh qilish, qishloqlarda tadbirkorlikni yaxshilash, infrastrukturani rivojlantirish hamda urbanizatsiyani qo‘llab-quvvatlash ustuvor yo‘nalishlar hisoblanadi.” [11] Urbanizatsiya sharoitida insonlarning turmush madaniyati va ma’naviy dunyoqarashi yuksalishi kuzatiladi. Kambag‘allikka uchragan hududlarni rivojlantirishda yuqori texnologiyali va sifatli mehnatga tayanib, tarmoqlarni rivojlantirish, yaxlit ichki va tashqi rivojlanish yo‘lidan borish kerak.

Ikkinchidan, inklyuziv o‘sish orqali xavflarni kamaytirish. Iqtisodiy o‘sish kambag‘allikning qisqarishiga olib keladi deyish xato. “Iqtisodiy o‘sish davrida daromadlar tafovuti kengayib borsa, u kam ta’minlangan qatlamlar daromadlarining pasayishi sifatida namoyon bo‘ladi va hatto iqtisodiy o‘sish va kambag‘allik darajasi bir vaqtda mavjud bo‘lgan vaziyat yuzaga kelishi mumkin.” [12] “Inklyuziv o‘sish”ning asosiy

mohiyati shundan iboratki, iqtisodiy imkoniyatlar hamma uchun teng bo‘lishi, aholining mutlaq ko‘pchiligi iqtisodiy o‘sish jarayonida keng ishtirok etishi va undan foyda ko‘rishi, rivojlanish natijalari esa aholining mutlaq ko‘pchiligi tomonidan baham ko‘rilishi kerak.

Uchinchidan, ma’naviy xavfni bartaraf etish. Ya’ni, kambag‘allarning kambag‘allikdan xalos bo‘lishiga yordam berish. Inson kapitaliga birinchi e’tibor berish va uzluksiz sarmoya orqaligina shaxs yuqori bilim va ko‘nikmalarni egallashi mumkin. Bu bilim va ko‘nikmalarning shaxsda to‘planishi inson kapitalidir. Masalan, “AQShda iqtisodiy o‘sishning oldingi yarim asrida jismoniy kapital qo‘yilmalar 4,5 baravar oshdi va tegishli iqtisodiy foyda atigi 3,5 baravarga oshdi, inson kapitaliga investitsiyalar 3,5 baravar ko‘paydi natijada iqtisodiy foyda 17,5 barobar oshdi” [13]. Zamonaviy axborot jamiyatida inson kapitali iqtisodiy taraqqiyotni rag‘batlantirishning asosiy omili va kambag‘allarni kambag‘allikdan chiqarishning kalitidir.

To‘rtinchidan, insonparvarlik va axloqiy g‘amxo‘rlik orqali, ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash. Boshqacha qilib aytganda, kambag‘allarning ruhiy salomatlik holatini kuzatish, tahlil qilish va o‘rganish, kerak bo‘lganda psixologlar va jamoat xodimlari tomonidan o‘z vaqtida samarali maslahat berish va ma’naviy g‘amxo‘rliklar qilish.

Beshinchidan, hashamatli iste’molni tartibga solish va xayriyani rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish va ma’naviy xavfni kamaytirish. Hashamatli iste’molini tartibga solish bo‘yicha xususan, boylik odob-axloqini o‘rnatishga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish va xayriya ishlarini tartibli yo‘lga qo‘yishni tashkil etish. Tomas Borg fikricha, “Faqat jamiyat ichidagi fuqarolar kambag‘allikda bir-biriga yordam berishga majbur emas, balki jamiyatdan tashqarida bo‘lgan fuqarolar ham o‘z majburiyatlari va huquqlariga ega.” [14] Binobarin, xayriyani rivojlantirish, kambag‘allarga yordam berish nafaqat insoniy fazilat balki har bir fuqaroning burchi va mas’uliyatidir.

Umuman kambag‘allikning ma’naviy-mafkuraviy xavfini bartaraf etish masalasi avvalo har bir jamiyat vakilining fuqarolik burchi va chin insoniy ezgu fazilatiga aylanishi lozim. Bundan munosabat va yondoshuv shakllanishi kambag‘allik bilan bog‘lik muammolarni hal etishning eng asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xudoyberdiyev J.J. Kambag‘allik va qashshoqlikka qarshi kurashish: oldini olish yo‘llari, usullari va mazmun-mohiyati // SAI. 2024. №Special Issue 18. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kambag-allik-va-qashshoqlikka-qarshi-kurashish-oldini-olish-yo-llari-usullari-va-mazmun-mohiyati

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020 yil 25 yanvar, № 19 (7521)

3. Abdurahmonov Q.X., Xolmo‘minov Sh.R. “Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi”. O‘quv qo‘llanma -T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2004 y.

4. Djumanova R.F. Aholi turmush darajasi: ko‘rsatkichlari va uni oshirish yo‘llari. Dissertatsiya. Toshkent 2008 yil 103-114-betlar.

5. Ibragimova N.M. “Aholi iste’molini makroiqtisodiy prognozlashtirishning uslubiy yondashuvlarini takomillashtirish” Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent –2019 y.

6. Mustafoqulov Sh.I. “Kambag‘allik ayb emas, biroq ...”. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020 yil 25 mart, № 62 (7564).

7. Muxitdinova M.Z. “Aholi turmush darajasini baholash: tahlil va samara” - Xalqaro moliya va hisob ilmiy elektron jurnali. № 2, aprel, 2019 yil.

8. Pardayeva B. “Sostav doxodov i sotsialnaya zashita naseleniya”. 19-y Mejdunarodnoye Plexanovskiye chteniya. M:.2006 , 32-33 b.

9. Saidov K.S. va boshq. Sotsial iqtisodiyot-T.: “O‘zbekiston”, 2006. 365 b.

10. Saidov M.X, Nasriyev I.I. va boshqalar Ijtimoiy himoya: atamalar izohli lug‘ati.-T: “O‘zbekiston Milliy kutubxonasi”, 2007. -B. 436.

11. https://www.gazeta.uz/uz/2023/05/19/poverty/

12. Luo Chuliang: “Iqtisodiy o‘sish, daromad farqi va qishloq qashshoqligi”, “Iqtisodiy tadqiqotlar” 2012 yil 2-son.

13. Chen Hongan va Yang Xao: “Endogen iqtisodiy o‘sish modeliga asoslangan inson kapitali ta’sirini tahlil qilish”, “Sharqiy Xitoy fan va texnologiya universiteti jurnali”, 5- son, 2010 yil.

14. Xiye Huiyuan: “Jahon kambag‘allik muammolari bo‘yicha axloqiy munozara”, “Ijtimoiy fan Zongheng” 6-son, 2012 yil.

XURSHID SEROBOV,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti ilmiy xodimi

TARIXIY MAVZUDAGI ASARLARNING MILLAT MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI AHAMIYATI

Jadidlarning ilk dramalarida asosiy motiv davr manzarasidan bir kichik parchani o'quvchi-tomoshabinga ko'rsatish va bundan ibrat olish, xulosa chiqarishga da'vat nazarda tutilgandi. Xususan, Behbudiyning "Padarkush" dramasida savodsizlikning halokatli oqibatlari haqida so'z borsa, Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov", Nusratilla Qudratulla va Hoji Muinning "To'y" dramalarida to'ylar mavzusi qalamga olingan. Keyinchalik Abdurauf Fitrat dramaturgiyada ilk bor tarixiy mavzuga murojaat qildi va "Abulfayzxon" tragediyasi tarixiy mavzuda yozilgan ilk dramaturgik asar sifatida o'zbek dramaturgiyasi taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. "Abulfayzxon" tragediyasida nisbatan yaqin o'tmishga murojaat qilingan bo'lib, unda xonliklar tanazzuli, davlatdagi boshboshdoqliklar va parokandaliklar mang'itlar hukmdori Abulfayzxon hayoti misolida ko'rsatib beriladi. Mazkur asar tarixiy xronika shaklida emas, aksincha, xonlik tanazzuliga sabab bo'lgan hayotni tasvirlash asnosida umumbashariy muammolar o'rtaga tashlanadi.

Adabiyotshunos Islom Yoqubov Fitratning ijtimoiy-psixologik drama, tragikomediya, drama, tragediya, opera librettosi singari janrlardagi izlanishlariga xos serqatlam ramziylik, bashoratona ishoraviylik va teran falsafiylik anglab yetilsa, dramaturg ijtimoiy illatlarni inson tabiatidagi noqisliklar tadqiqi bilan uyg'unlashtira olgani, ma'naviy qashshoqlik zamirida tug'ilgan jaholatga qarshi isyon ruhini ifoda etgani, ayniqsa, bo'rtib ko'rinishini ta'kidlaydi.[43]

Ijtimoiy muammolarning ildizi jaholat va bilimsizlikka borib taqalishi, millatni bu jarlikdan faqat va faqat ma'rifat qutqarishi jadid dramaturgiyasining dastlabki bosqichida asosiy g'oya bo'ldi. Keyinchalik tarixiy mavzular paydo bo'la boshlagach, voqelikka tarixiy rakurs orqali qarash an'anasi shakllandi. Bu borada Sh.Rizayevning: "Jadid teatri san'atning azaliy va abadiy vazifasi bo'lgan inson ruhiyatining teran badiiy tadqiqini bosh maqsadi qilib belgilamaydi. Chunki ruhiyat inkishofi uchun uni avvalo g'aflat uyqusidan uyg'otish, mutelikdan, qullikdan

[43] Истиқлол. Адабиёт. Танқид... / Тузувчи ва нашрга тайёрловчилар: С. Куронов, Р. Ҳайдарова, Р.Ҳакимжонова. – Т.: "Turon zamin ziyo", 2014. 108-бет

xalos etmoq kerak edi", degan xulosalari diqqatga molik.[44] Shu jihatdan, jadidlarning dramaturgiya va teatrni o'z g'oyalarining targ'ibotida asosiy dastak bilgani tabiiy holatdir. Yetilgan ijtimoiy shart-sharoit o'zbek teatrining tamal toshini qo'ydi. Fitrat millatga o'sha davrdagi ijtimoiy vaziyatni, maishiy holatni to'g'ridan to'g'ri ko'rsatishdan ko'ra tarixiy voqelik misolida fojianing ko'lamini kengroq va ta'sirchanroq anglatish mumkinligini g'oyat nuktadonlik bilan tushunib yetgan edi.

Tarixiy mavzudagi dramalarda bevosita davr mafkurasi bilan bog'liq vaziyatdan kelib chiqqan yondashuvni ko'ramiz. Ma'lum bir davrda, xususan, o'tgan asrning 40-yillarida o'zbek adabiyotida tarixiy dramalar nisbatan ko'p yaratilgan. Bu davr tarixiy dramaturgiya uchun sermahsul davr bo'lgan. Davrning mafkuraviy muhiti dramaturgiyaning umumiy mavzu va g'oyasiga ta'sir qilmasdan qolmagan. Ikkinchi jahon urushi yillarida M.Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi", H.Olimjonning "Muqanna", Oybekning "Mahmud Torobiy" kabi dramalari xalqni har tomonlama ruhlantirish va vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash maqsadida dunyoga kelgan. Ushbu dramalarning yaratilishi bevosita tarixiy zarurat bilan bog'liq. O'zbek dramaturgiyasida tarixiy obrazlar ibtidosi Abulfayzxondan boshlangan bo'lsa, keyinchalik Jaloliddin Manguberdi, Muqanna, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Mahmud Torobiy, Amir Temur va boshqa tarixiy shaxslar hayoti va fojiasi tasvirlangan dramatik asarlar yaratildi.

Ikkinchi jahon urushi boshlangan bir davrda tarixiy qahramonlar orqali millatni ruhlantirish, qo'rquvni yengib, vatan tuprog'ini asrash uchun kurashga otlanish, bu yo'lda o'limdan ham tap tortmaslik uchun o'ziga xos da'vat sifatida mazkur dramalar maydonga keldi. Ushbu asarlarga mavzu bo'lgan tarixiy shaxslarga diqqat bilan qaraydigan bo'lsak, Muqanna arablar fathiga qarshi, Mahmud Torobiy va Jaloliddin Manguberdi Chingizxon bosqiniga qarshi mardonavor jang olib borgan. Mazkur asarlarda qahramonlarning muzaffarligi o'limga tik boqishida, dushmanga taslim bo'lmay, to so'nggi nafasga qadar vatanini himoya qilishida edi, degan xulosa yaqqol sezilib turadi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin nafaqat dramaturgiyada, balki butun adabiyotda tarixiy mavzularga murojaat qilish tendensiyasi pasayib qoldi. O'tgan asrning 60 yillaridan boshlab konfliktsizlik nazariyasi paydo bo'ldi. Bu holat Sovet davridagi siyosiy-ijtimoiy omillar bilan bog'liq ekanligini aytish joiz. Tarixiy mavzudagi asarlarga Sovet hukumatining bu qadar keskin munosabatiga, umuman ijodning mafkuraga bo'ysundirilishiga Andrey Jdanovning 1946 yil 14 avgustda Butunittifoq bolsheviklar

[44] Шуҳрат Ризаев. Жадид драмаси. – Тошкент: Шарқ, 1997. 35-бет

kommunistik partiyasi Markaziy qo‘mitasi tashkiliy byurosida “Zvezda” va “Leningrad” jurnallari haqidagi bayonoti asosiy sabab bo‘ldi. Mazkur bayonot e’lon qilinishidan avval sovet davriy nashrlarining mafkuraviy yo‘nalishini nazorat qilish, ulardagi mavzular mundarijasini bir tizginga solib turish bo‘yicha amaliy harakatlar boshlangan. Jdanovning bayonotida eng asosiy nishonga olingan ijodkorlar Mixail Zoshchenko va Anna Axmatova bo‘lgan. Zoshchenkoning “Quyosh chiqishidan avval” asarida rus fuqarolarini shahvatparast hayvonlar timsolida tasvirlagani, Axmatovaning she’rlarida esa nekbin va umidli rus xalqi uchun begona bo‘lgan “qayg‘u, g‘amginlik, o‘lim va fojia” motivlari keskin tanqid ostiga olingan. Keyinchalik davriy nashrlar bayonotda tilga olingan barcha shoir-yozuvchilarning asarlarini chop etmay qo‘ydi. Bu holat ijodiy erkinlikni bo‘g‘ishga, ijodkorlarni faqat hukumat chizib bergan chiziq bo‘yicha harakatlanishiga xizmat qildi. Natijada sovet hukumatining mafkuraviy standartlariga mos kelmagan asarlar nafaqat chop qilinmadi, balki avval nashr etilganlari ham kutubxonalardan olib tashlandi.

Jdanovning bayonoti ortidan 1946 yil 26 avgustda Tashkiliy byuroning “Drama teatrlari repertuari va uni yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.[45] Qarorda teatrlar repertuaridagi zamonaviy mavzularning kamligi tearlar faoliyatidagi eng katta kamchilik deya baholandi. Spektakllardagi sovet odamlarining xunuk qiyofali, ibtidoiy va madaniyatsiz, didsiz va axloqsiz obraz sifatida tasvirlanishi, salbiy personajlar esa kuchli, irodali va mahoratli xarakterlar sifatida gavdalantirilishi, dramatik asarlar syujetidagi voqealarning uydirma ekani, aksariyati yolg‘ondan iboratligi, bu spektakllar sovetlar hayotini noto‘g‘ri va buzib ko‘rsatishi qattiq tanqid qilinadi. Shuningdek, teatrlarda zamonaviy mavzularda sahnalashtirilgan spektakllarning salmoqli qismi badiiy jihatdan jo‘nligi, ularni yozgan mualliflar rus adabiy tilini yetarlicha bilmagan holda savodsizlarcha yozgani ta’kidlanadi. Drama teatrlarining tarixiy mavzudagi asarlarni sahnalashtirishga bo‘lgan haddan ortiq ishtiyoqi, shohlar, xonlar va zodagonlar hayotini ideallashtirishga intilishi sovet mehnatkashlarini tarbiyalash g‘oyasiga zidligi bayon etiladi. Bundan ko‘rinadiki, mazkur qaror orqali sovet hukumati o‘z mafkuraviy yo‘rig‘iga zid bo‘lgan har qanday ijodiy asarni rad etishga uringan va tarixiy asarlar orqali mualliflarning o‘z g‘oyalarini yoyishga harakat qilishi, sovet odamining fazilatlarini yoritmasligi ularning sovet hukumatiga nisbatan adovatini ko‘rsatadi, degan ayblovni qo‘ygan.

Mazkur qarorning 9-bandi Sovet ittifoqidagi barcha avtonom

[45] № 272. п. 7г – О репертуаре драматических театров и мерах по его улучшению. Ст.:591-596

respublikalar uchun muhim topshiriq sifatida qayd etilgan: “Ittifoq va avtonom respublikalar teatrlari repertuarining o‘ta cheklanganligi, mahalliy dramaturglarning uzoq o‘tmish mavzulariga ishtiyoqini hisobga olib, San’at qo‘mitasi sovet dramaturgiyasining eng yaxshi asarlarini SSSR xalqlarining tillariga tarjima qilish va ularni respublika teatrlari repertuariga kiritish choralarini ko‘rsin”. Ushbu ko‘rsatmadagi “mahalliy dramaturglarning uzoq o‘tmish mavzulariga ishtiyoqini hisobga olish” jumlasi Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda o‘zbek adabiyotida tarixiy mavzularga deyarli murojaat qilinmaganining asosiy ildizi deyish o‘rinli bo‘ladi. Tarixga murojaat orqali bugungi kun haqida badiiy mujda berish, ogohlantirish, hurriyat uchun da’vat etish motivlari sovet hukumatiga ayon bo‘lib ulgurgandi. Rus yozuvchilarining asarlarida ham ayni shu xususiyatlar bo‘rtib ko‘rina boshlagani sovet hukumatini sergak torttirgan va bu holatlarga qarshi keskin chora ko‘rgan. Natijada, Jdanovning bayonoti orqali barcha gazeta va jurnallarga senzura o‘rnatilib, g‘oyaviy qarashlari sovet hukumatining kommunistik mafkurasiga to‘g‘ri kelmagan asarlar nashr ettirilmadi, ularning mualliflariga taqiq qo‘yildi, intizomiy choralar ko‘rildi. Buning oqibatida yozuvchi-shoirlarning ijodiy erkinligiga chek qo‘yildi. “Drama teatrlari repertuari va uni yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror bilan esa barcha teatrlar nazoratga olindi va kommunistik mafkuraning yo‘rig‘i bilan ishlashga majburlandi.

Mazkur cheklovlar ortidan kommunistik mafkura hukmronligidagi sovet jamiyatida ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar, ya’ni konfliktlar bo‘lmasligi kun tartibiga chiqdi. Sovetlar nazdida jamiyat sosializm qurish yo‘lidan borarkan, hech qanday qarama-qarshiliklar bo‘lmaydi va natijada “konfliktsizlik nazariyasi” nomli shartli tushuncha paydo bo‘ldi. Natijada haqqoniy hayot manzaralari yolg‘on bilan pardalandi, jamiyatdagi barcha ziddiyatlar rad etildi, sosialistik tuzum tasavvuridagi yuzaki va soxta jamiyat ulug‘lana boshlandi. Bu holat adabiyot va teatr san’atida badiiy saviyasi quyi, zamonabop asarlarning ko‘payib ketishiga olib keldi.

Mustaqillik davrida tarixga munosabat o‘zgargani bu davrda yana tarixiy asarlar yaratilishiga turtki berdi. Sovet davrida biryoqlama talqin etilgan tarixiy shaxslar haqida nisbatan xolis, real faktlar asosida, tarixiy shaxsning badiiy qiyofasi va hayoti to‘g‘ri talqin qilingan asarlar yaratildi va bu ijodiy an’ana millat ma’naviyatiga beqiyos xizmat qilmoqda.

XAZRAT JABBOROV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dosenti,
psixologiya fanlari doktori (DSc),
“Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati a’zosi

RAFAIL BAXTIYOROV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
katta o‘qituvchisi

MAFKURAVIY TAHDIDLAR PROFILAKTIKASIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRUVCHI TA’SIRCHAN PSIXOLOGIK TEXNOLOGIYALAR

Targ‘ibotchining har bir o‘tkazayotgan tadbirlari va uning samaradorligi natijasida aholining keng qatlami dunyoqarashida ijobiy o‘zgarishlar yuz berib, davlatimiz kelajagiga bo‘lgan ishonchi ortishi lozim[1].

Targ‘ibotchi har bir tadbirida targ‘ibot materiallarini ishtirokchilar ongiga singdirishda alabatta psixotexnologiyalardan foydalanishi tadbir samaradorligi va natijadorligini oshirishdagi asosiy mexanizm bo‘lib xizmat qiladi[2]!

Targ‘ibotchi tadbir ishtirokchilarining dunyoqarashi, e’tiqodi va biror masala yuzasidan ularning ustanovka hamda tasavvurlarini o‘zgartirish uchun psixologiya ilmidan xabardor bo‘lishi lozim[3].

Psixologiya inson psixikasini aniqlash, shakllantirish, yangi sharoitga ko‘chirish, takomillashtirish, rivojlanish dinamikasini ta’minlash, yangi sifat bosqichiga o‘tishini qayd qilish imkoniyatiga ega o‘ta amaliy, tatbiqiy fandir.

“Psixologiya” (yunoncha psyche) so‘zini o‘zbek tiliga tarjima qilsak, u «jon», «ruh» haqidagi «fan, ta’limot» degan ma’noni anglatadi. Biroq hozirgi davrda «jon» tushunchasi o‘rniga «psixika» degan tushuncha qo‘llanilmoqda.

Psixikaning tarkibiy qismlari faoliyat, xulq, muomala yaqqol namoyon bo‘lish xususiyatiga ega bo‘lsa, bilish jarayonlari, psixik holatlar, ichki kechimalar, ijodiy rejalar, ilmiy farazlar miyada mujassamlashgani uchun ular ko‘zga ko‘rinmaydi.

Har bir targ‘ibotchi o‘z tadbiri orqali ishtirokchilarda muayyan maqsadli o‘zgarishni sodir qilishi uchun psixologik hodisalarga murojaat qilishi lozim!

Odatda, psixik hodisalar deganda, ichki sub’ektiv tajriba faktlarning (voqelikning) namoyon bo‘lishi tushuniladi, boshqacha so‘z bilan aytganda, psixika hayotning sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol kabi har biri alohida olingan yaqqol shakllaridan iboratdir.

Ichki sub’ektiv tajribaning o‘zi nimani anglatadi? Insondagi quvonch yoki zerikish tuyg‘ulari, uning nimalarnidir esga tushirishi, biron-bir xohish yoki intilish kechinmalari, xotirjamlik yoki hayajonlanish, hadiksirash hislarining barchasi shaxsning ichki dunyosi tarkibiy qismlaridir, ya’ni bularning hammasi sub’ektiv psixik hodisalar sanaladi.

Sub’ektiv hodisalarning asosiy xususiyati - ularning bevosita sub’ektga taalluqligidir.

Agar inson idrok qilsa, sezsa, fikrlasa, eslasa, xohish bildirsa, albatta, ana shu hodisalarni bir davrning o‘zida tushunib (kuzatib) ham turadi. Inson intilsa, ikkilansa, bir qarorga kelsa, biz ular barchasining sodir bo‘layotganligini anglab turamiz ham. Shuning uchun psixik hodisalar bizning ruhiyatimizda sodir bo‘lishidan tashqari, ular bevosita ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘lib turadi.

Targ‘ibotchi tadbir mavzusi orqali ishtirokchi shaxsidagi qaysidir sifat, xususiyat yoki fazilatni o‘zgartirishni maqsad qilgan ekan, u avvalo, shaxsning psixologik strukturasini bilishi lozim bo‘ladi!

Shaxning psixologik strukturasi:

Psixologik bilish jarayonlari (diqqat, sezgi, idrok, xotira, tafakkur va xayol); psixikaning shakllari (faoliyat, xulq, muomala); psixikaning holatlari (kayfiyat, parishonxayollik kabilar); psixologik hodisalar; psixikaning xislatlari, fazilatlari, sifatlari, xossalari; psixikaning qonuniyatlari; psixikaning mexanizmlari; psixik sharoit, muhit, vaziyat; psixologik o‘zaro sababiy bog‘lanishlar;

Targ‘ibotchi o‘z tadbirlarida profilaktika mavzulari orqali ishtirokchining ongiga ta’sir o‘tkaza olishi lozim!

Ong psixikani yaxlit tarzda ifodalovchi yuksak shakli hisoblanib, insonning yakka va hamkorlik faoliyatining (muloqot nutq, til vositasida, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning mahsuli sifatida yuzaga kelgandir. U ijtimoiy mahsul bo‘lishidan tashqari, unga muayyan munosabat bildirish maqsadni ko‘zlash, o‘zlikni anglash kabilarni namoyon etish imkoniyatiga egadir.

Odatda, inson ongi uni qurshab turgan tevarak-atrof haqidagi bilimlar majmuasidan iborat bo‘lib, uning tuzilishi tarkibiga shunday bilish jarayonlari kiradiki, qaysiki ularning bevosita yordami bilan shaxs o‘z axborotlari ko‘lamini uzluksiz ravishda boyitib boradi. Insondagi bilimlar sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol singari bilish jarayonlari asta-sekin

ular anglashinish darajasiga ko‘tariladi, keyinchalik esa muayyan turkumlarning tarkibiga kiradi.

Ong tarkibiga muayyan darajadagi, ma’lum tizimga xos emosional (hissiy) munosabatlar qamrab olinganligini aks ettiradi. Shaxs ongiga muqarrar ravishda turli-tuman his-tuyg‘ular (har xil darajali, ijobiy, salbiy, barqaror, statik, dinamik), kechinmalar, stress, affekt holatlar to‘g‘risidagi axborotlar oqimi kirib kela boshlaydi.

Shaxsning boshqa kishilarga, tabiatga, jamiyatga, ashyolarga nisbatan munosabatlari mavjud mezonlarga asoslansa, muayyan qoidalarga bevosita amal qilinsa, har bir narsaga oqilona, odilona va omilkorlik bilan yondashilsa, ongning nazorat funksiyasi hukm surayotganligidan dalolat beradi.

Ong psixologik tavsifining yana bittasi - bu unda sub’ekt bilan ob’ekt o‘rtasidagi aniq farqlanishda o‘z ifodasini topadi, ya’ni shaxs «Men» degan tushunchasi bilan «Men» emas atamasi tarkibiga nimalar tegishli, aloqador ekanligini aniq biladi.

Ong shaxsning maqsadini ko‘zlovchi faoliyatni ta’minlashga oid ta’rifni ifodalagan bo‘lib, uning yana bir funksiyasi mazkur maqsadni yaratishga yo‘naltirilganligi bilan boshqalardan farq qiladi. Ushbu jarayonda shaxs faoliyatining turli xususiyatli motivlari yuzaga keladi, ular inson tomonidan chamalab chiqiladi, buning natijasida motivlar kurashi namoyon bo‘ladi, bu o‘rinda ustuvorlikka erishish yetakchilikni ta’minlaydi, irodaviy zo‘r berish oqibatida muayyan qonun qabul qilinadi, harakatlarni bajarishning izchilligi qay yo‘sinda amalga oshirilishi hisobga olinadi, maqsadni qaror toptirishga to‘siq vazifasini o‘tovchi fikriy g‘ovlar (to‘siqlar) bartaraf etiladi va unga mutanosib o‘zgarishlar kiritiladi, samaradorlikni oshirish uchun ba’zi bir tuzatishlar amalga oshiriladi.

Shaxsdagi mo‘‘tadillik, ruhiy sog‘lomlik ongning boshqaruv imkoniyati mavjudligini bildirib kelib, ayrim hollarda hissiyotga berilishi esa uning o‘z funksiyasini bajarishdan chetlashganligini namoyish qiladi. Turli xususiyatli munosabatlar ong nazoratida amalga oshirilsa, shaxs xulq-atvorida, faoliyatida va muomala jarayonida, hech qanday nuqsonlar, chetga og‘ishlar sodir bo‘lmaydi. Shu narsani ta’kidlab o‘tish o‘rinliki, patologik holatlarni tahlil qilish, ong mohiyatining genezisini atroflicha anglab olishga xizmat qilishi mumkin. Shu boisdan ongning zaiflashuvi shaxsning his-tuyg‘ulari va munosabatlarini o‘zgartiradi: simpatiya antipatiya bilan, quvonch qayg‘u bilan, optimizm pessimizm bilan vaqti-vaqti bilan o‘rin almashib turishi kuzatiladi.

– Ongning yuqorida ta’kidlab o‘tilgan barcha funksiyalarini namoyon

bo‘lishining muqarrar sharti til va nutq hisoblanadi.

– Kishilik jamiyatida mehnat faoliyatining takomillashuvi, shaxslararo munosabatning yangi shakllari paydo bo‘lishi, til va nutqni vujudga keltiradi, ularning barchasini maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta’minlovchi ong jadal sur’atlar bilan rivojlangan.

– Ong faqat faoliyat, xulq-atvor, muomala, his-tuyg‘ular regulyatori emas, balki yakkahol shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini to‘g‘ri amalga oshishining asosiy manbai rolini bajaradi.

– Shunday qilib, insonning ongi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli bo‘lish bilan birga, u mehnat faoliyatida, ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishda, hamkorlikdagi o‘zaro ta’sirda, tabiatga, jamiyatga nisbatan munosabatlar mohiyatida vujudga kelgan. Buning mahsulasi, shakli sifatida individual, guruhiy, etnik (milliy), ijtimoiy ong namoyon bo‘lgan va ularning barchasi taraqqiyot tufayli o‘zining yangi bosqichlariga o‘sib o‘tgan hamda keyinchalik fan, texnika yaralishiga puxta zamin hozirlagan.

– Shunday qilib, ontogenezda ongning paydo bo‘lishi («Men» davrining boshlanishi), uning taraqqiyoti, tarkibiy qismlari, unda ijtimoiy muhitning, zarur shart-sharoitlarning roli, biologik va ijtimoiy shartlanganlikning ta’siri, tarbiyaning ustuvorligi to‘g‘risidagi ilmiy tadqiqot ishlari mazkur muammoning psixologik tavsifini ishlab chiqishga muhim negiz yaratdi.

Ongning tarkibi: obrazni his qilish imkoniyati;borliqdagi narsalarning qadr-qiymati; atrof - muhit ob’ektlarining ma’no kasb etishi.

Ongning funksiyalari: aks ettiruvchanligi; ijodiylikni vujudga keltiruvchanligi; baholovchanligi; boshqaruvchanligi; refleksivligi; ma’naviyligi.

O‘zini o‘zi anglashning omillari: oilaviy muhit ta’siri; milliy muhit va milliy til vositalari; ma’rifiy, ma’naviy, madaniy qurshov; maxsus hayotiy vaziyatlar va favqulodda hodisalar.

Ongninig turlari: individual; guruhiy; jamoaviy; etnik; milliy; ijtimoiy.

Ongning xislatlari: Borliq ob’ektlari va jamiyat sub’ektlari bilan munosabat o‘rnatish; biosfera va neosfera hodisalarini anglash (tushunish, bilish); tabiiy va ijtimoiy holatlar hamda hodisalarga hamdardlik (empatiyaning namoyon bo‘lishi).

Ongning xususiyatlari: reaktivligi; sezgirligi; refleksivligi; taraqqiyotning ixtiyorsizligi (spontanligi); polifonikligi; dialogizmga moyilligi.

Targ‘ibotchi targ‘ibot materiallarini ishtirokchilar ongiga singdirishda ularning bilish jarayonlari ko‘lamini, irodaviy – emosional holatlari va individual psixologik xususiyatlarini inobatga olishi maqsadga muvofiq!

Targ‘ibot tadbirlarida interaktiv metodikalarni ishlatish qonuniyatlari: Targ‘ibotchi tadbirlarni tashkil qilishda interaktiv metodikalardan foydalanishi tadbir samaradorligi va natijadorligini oshiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi!

Metod iborasi (yunoncha-methodas-tadqiqot yoki bilish yo‘li, nazariya, targ‘ibot ma’nosini anglatib) voqelikni bilish, o‘zlashtirish, o‘zgartirish usullari majmuasidir.

Targ‘ibot metodlari: Ma’ruza; suhbat; intervьyu; hikoya; tushuntirish; namoyish; kuzatish; trening; illyustrasiya; videousul; munozara; neyrolingvistika.

Targ‘ibotning interaktiv metodlari: Kitob bilan ishlash; “insertь”; “zig-zag”; “mashqlar”; “damino”; “charxpalak”; “o‘rgimchak to‘ri”; “3\3, (4\4, 5\5”; “eksprom”; “monitoring”; “limon”; “beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi) ortiqcha”; “qora quti”; “ven diagrammasi”; qizil va yashil kartochkalar bilan ishlash; tajriba vositasida o‘qitish sikli; “veer” (elpig‘ich); “keys”; “aqliy hujum”; “baliq skeleti”.

Targ‘ibotning didaktik metodlari: Suhbat; bahs; “breynstorming”; “pinbord”; kichik guruhlarda ishlash; “klaster”; “sinkveyn” (axborotni yig‘ish); videotopishmoq; “zanjir”; “yumaloqlangan qor” o‘yini; “ishbilarmon” o‘yin; rolli o‘yin; “zakovatli zukko”; “anolog”.

Targ‘ibotning korreksion metodlari: G‘oyaviy vaziyat; mafkuraviy vaziyat; muammoli ma’ruza; muammoli vaziyat; aniq vaziyatni tahlil qilish ma’ruzalari; FSMU; 6|6\6; yo‘naltiruvchi matn; loyiha; metaplan; individual; qarorlar shajarasi; hukumlar ierarxiyasi; korreksion psixotreninglar.

Tadbir samaradorligini oshirishda didaktikaning o‘rni va ahamiyati: Tadbir jarayoni – Targ‘ibotchining va u o‘tkazayotgan tadbir ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma hamda malakalar sistemalarini ongli ravishda va puxta o‘zlashtirishga qaratilgan izchil harakatlari majmuidan iborat.

Tadbir jarayonining asosiy komponentlari:

– Tadbir ishtirokchisi – targ‘ibot tadbirlarida bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtiruvchi.

– Tadbir predmeti – targ‘ibot tadbirlari materialining mazmuni yoki ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga qaratilgan faoliyat usullari mazmuni.

– Tadbir texnologiyasi – targ‘ibot tadbirlarida masala yuzasidan materialni taqdim etish metodi, texnologiyasi.

– Targ‘ibotchi – targ‘ibot tadbirlari materiali va faoliyat usulining o‘zlashtirilishini ta’minlovchi.

– Targ‘ibotchi va tadbir ishtirokchisi orasidagi munosabat.

Targ‘ibot prinsiplari: ishontirish; tezkorlik; preventiv targ‘ibot; parallel targ‘ibot; voqea-hodisadan keyingi targ‘ibot; dolzarb yangiliklardan foydalanish; tushunarlilik; aholini to‘la qamrab olish.

Targ‘ibotchining didaktik ta’sir vositalari: an’anaviy va noan’anaviy ta’sir vositalarining qo‘llanilishi; verbal (nutqli), noverbal (nutqsiz) va paralingvistik (nutq etikasi) ta’sir; hissiy (perseptiv, interaktiv, identivli, refleksli) ta’sir vositalari.

Xulosa o‘rnida aytish mumukinki, targ‘ibot ishlarida tadbir ishtirokchilarni psixologik xususiyatlari va ta’sir ko‘rsatish texnologiyalarisiz targ‘ibotni samaradorigiga erishish mushkul, shuning uchun targ‘ibot ishlarida psixologik ta’sir texnologiyalarni zamonoviy metodlarini o‘rganish va uni milliy xususiyatlarimizga modifikasiyalashimiz va amaliyotga tatbiq etishimiz maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Quronov M. Ma’rifat texnologiyasi. – T.: “Ma’naviyat”, 2019.

2. Quronov M., Jabborov X. Yoshlarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirishning pedagogik-psixologik treninglari. T.:-2019. B.48.

3. X.Jabborov “Targ‘ibot tadbirlarining ilmiy-amaliy ta’sirchanligini oshirish mexanizmlari” nomli qo‘llanma. Hilol media” nashriyoti, T.: 2019 y. B.59.

DILSHOD SHARIPOV,
Buxoro davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

TINCHLIK MAFKURASI YOKI HOZIRGI ZAMON JAHON SIYOSATI TRANFORMATSIYASIDAGI G‘OYAVIY VA SIYOSIY TENDENSIYALAR TAHLILI HAQIDA SO‘Z

Ma’lumki, azaldan insoniyat ma’lum g‘oyalar, qarashlar va e’tiqodlar asosida umrguzaronlik qilib keladi. Arastudan tortib Farobiygacha va undan so‘ng “Uyg‘onish davri” ma’rifatparvar faylasuflari insonning tinchlik, osoyishtalik va xotirjamlikda o‘zaro yashashi uchun ma’lum jamoalar, madaniy birliklar asosida istiqomat qilish zaruriyati, Aflotunda esa *ehtiyoji* mavjudligi haqida yozishgandi. Jamiyat va davlat geniologiyasini shunga bog‘lashgandi. Lekin mafkura sifatida jamiyat tanlaydigan g‘oyalar, e’tiqodlar, dunyoqarash va turmush tarzini o‘stirishga oid bo‘lgan ma’lum qadriyatlar va g’oyalar tizimini ko‘pchilik mafkura sifatida qabul qiladi. *Xo‘sh*, *mafkura o‘zi nima va uning tinchlik o‘rnatuvchi turi yoki kuchi mavjudmi?* ***Tinchlik mafkurasi bormi?*** *Qaysi mafkura insoniyatni tinchlik va yalpi osoyishtalikka chaqiradi va ta’minlaydi? Din va e’tiqodning umumjahon tinchlikni ta’minlashdagi o‘rni qanday? Inson huquqlarini qaysi mafkura ta’minlaydi?* Insonning yashash huquqini, yashab qolish imkoniyatlarini, ta’lim va sog‘liqni saqlash huquqlarini, insonning hayot sug‘urtasini va umuman hayotini asrab-avaylashni, siyosiy va iqtisodiy huquqlarini va boshqa ijtimoiy huquqlarini qaysi mafkura to‘la-to‘kis ta’min etadi? O‘zi mafkuralarda shunday funksiya mavjudmi? Ularning qancha turlari bor? Va mafkuraning jahon siyosatidagi o‘rni va roli qanday?

Mafkura paradigmasi ildizi. O‘zi *mafkura deganda* (“idea”-g‘oya, logos-ta’limot, g‘oyalar haqidagi ta’limot) dunyo va unda insonning o‘rni haqidagi falsafiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, sotsiologik qadriyatlar va bilimlar tizimi[1], tushuniladi. Siyosatning fransuz maktabi vakillari mafkurani siyosat bilan aynan, bir xil, deb hisoblashadi. Chunki bajaradigan funksiyalari bir xil, yoki deyarli bir xildir. Ma’lumki, *mafkura individlar faoliyatini jamiyatning barcha sohalarida boshqaradi*, *integratsiya qiladi va yo‘naltiradi*. Bundan tashqari, *mafkura* ***kelajak jamiyati*** *yaxshi qurilishi haqidagi qarashlar va nazariyalarning jamuljami hamdir*.

Hukmron mafkura – bu nafaqat mafkuraviy ta’limot, balki, aniq tashkillashtirilgan bir butun strukturadirki, u butun jamiyat ichiga singib

ketadi va uning shakllanishida ***intellektual asos*** bo‘lib xizmat qiladi. *Mafkuraviy tizim*ning madaniy takror ishlab chiqarilishi jamiyatning barcha institutlarini optimal qayta ishlab chiqarilishiga asos bo‘ladi. *Mafkuraviy infrastruktura* buzilishi uyg‘unlashmagan ijtimoiy tizim osti orqali madaniyatning buzilishiga olib keladi. *Mafkuraviy struktura* jamiyat “aqli” sifatida namoyon bo‘ladi va butun ijtimoiy tizimni belgilaydi.

Iqtisodiy va *siyosiy hokimiyat* bilan birga, mafkura, insoniy birlikning ma’lum ma’noda *ma’naviy hokimiyati* hamdir. Chunki *mafkuraning* ushbu *ma’naviy hokimiyati* insoniy birliklarning tarixiy-madaniy modeli optimizatsiyasiga boshqaruvchilik ta’sirini o‘tkazish orqali ularning manfaatlarini shakllantiradi va ifodalaydi. Aytiladiki, “*barcha mafkuralar*, *ularning mazmunidan qat’iy nazar*, *avtoritet*, *hokimiyat* va *hokimiyatga oid munosabatlarga ta’luqlidir*”[2].

Mafkuralar jamiyatning muayyan modellarini va siyosiy tizimini, ushbu modelni amaliyotga tadbiq etish yo‘llari va vositalarini tan olish maqsadida asoslanadi, ishlab chiqiladi.

Shuningdek, har qaysi mafkurada “***do‘st-dushman***” konsepsiyasi singdiriladiki, bunda ma’lum jamiyat siyosiy tuzumining maqsadlari va kelajakni belgilash yo‘llari mujassamlashadi. Deylik, qadimgi dunyo falsafasida, e’tiqodida va o‘rta asrlar diniy qarashlari va tizimlarida va undan keyingi davr “Uyg‘onish davri” falsafasida va hozirgi zamon siyosat falsafasida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. “***Do‘st-dushman***” konsepsiyasi barcha din va e’tiqodlar mazmunida mavjuddir, mafkura, xohlagan mafkura, ushbu qoidani dindan o‘zlashtirgan.

“Sovuq urush” davrida ikkita yirik mafkura, barcha mafkuralarga xos bo‘lgan o‘zining ichki konsepsiyasi va inersiyasiga ta’luqli bo‘lgan ushbu “do‘st-dushman” konsepsiyasini ko‘proq va yaqqolroq tarzda tashqi siyosatda namoyon etishdi – AQSH – liberal dunyo hukmroni va Sobiq Ittifoq – kommunistik yoki sotsialistik mafkura hukmroni sifatida bir-biri bilan jahon siyosatida dushmanlik va antogonizm olovini gurillatib yoqishdi. *Jahon tartibi ikki mafkura soyasida qolib ketdi*. Aytiladiki, “mafkurani birlashtirish uchun tashqi dushman, uni (mafkurani-D.B.Sharipov) tashuvchilar manfaatlari birligidan ham ko‘ra, ehtimol, oz emas, agarki ko‘p bo‘lmasa, muhimroq ahamiyat kasb etadi. Bu yerda tashqi dushman ushbu manfaatlarni tiniqlashtirishning kuchli katalizatori bo‘lib xizmat qiladi. *Agar dushman yo‘q bo‘lsa*(topilmasa-D.B.Sharipov), *unda uni sun’iy tarzda o‘ylab topishadi*”[3.].

Endilikda esa davlatlar mustaqil va o‘z yo‘llarini belgilaganlariga 33 yildan ko‘proq vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, o‘z mafkuralarida, garchi uni

davlat darajasida birortasi ham yo‘q, deb e’lon qilishgan bo‘lishsa-da, aslida inson huquqlarini tan olish, demokratik va huquqiy davlat qurishni bosh maqsadga aylantirishgan – shuning o‘zi mafkuradir, chunki unda jamiyat istiqboli va yo‘li demokratik qarashlarga bog‘lab qo‘yilgan. Bundan tashqari, ko‘pchilik mustaqil davlatlarda 1990 yillar oxirlarida ishlab chiqilgan “***milliy g‘oya***” konsepsiyalarida ham, biz ta’kidlayotgan, “do‘st-dushman” konsepsiyasi singdirilgan, xuddi, bunyodkor va vayronkor g‘oyalar singari.

Albatta, demokratiya va liberal falsafaning milliysi bo‘lmaydi, uning umuminsoniy prinsiplari va normalari bo‘lishi mumkin, xolos, lekin ularni kim ishlab chiqqan va o‘shal liberal g‘oyalarni hozirgi hukmron va qudratli davlatlar qanday talqin va tadbiq etmoqda, AQSH o‘zining o‘ziga xosligini bot-bot takrorlagan mahali, *boshqa g‘arb olamiga ta’luqli bo‘lmagan davlat va jamiyatlar ham o‘ziga xoslikni talab qilishlari va jahon siyosatida buni ko‘rsatishlari mumkinmi*, axir. Mumkin, lekin endi, bu mafkura emas, geosiyosat ishidir. Mana shu masala jahon siyosatida tobora yaqqol namoyon bo‘layotgan Sharqiy Yevropadagi va ikkinchi jahon urushi tugaganidan beri butun insoniyatni larzaga solib kelayotgan Yaqin Sharq mojarosini keltirish mumkin. Bu ro‘yxatga Iroqning bombardimon qilinishi va intervensiya oqibatida davlatning ichki barqarorligiga butunlay chek qo‘yilishi, Afg‘oniston tarixidagi barcha besamar “xalqaro kuchlar”ning kiritilishi va olib chiqib ketilishi, Suriya(siyosiy tizimi)ning deyarli yo‘q qilib yuborilishi kabilarni keltirish mumkin. Ko‘rinib turibdiki, liberal falsafadagi va liberalizm g‘oyalaridagi inson huquqlari to‘laligicha poy-mol etilmoqda, ayniqsa, 2023 yil 7 oktyabrdan beri G‘azo sektorida *qirq mingdan ziyod falastinlikni*, ayniqsa, ularning aksariyati tinch aholi vakillari bo‘lgan bolalar va ayollarni qirg‘in qilgan AQSH liberal kabluki ostidagi Isroil harbiy mashinasining intervensiyasini misol qilishimiz mumkin – buni bemalol ***Falastin Xolokosti***, deyishimiz mumkin va Isroil, AQSHning butun siyosiy qalbini aksini ettirayotgani holda, aslo Falastinni mustaqil davlat sifatida tan olmaslikka dunyo hamjamiyatini, ayniqsa, g‘arbiy yarimshar siyosatchilarini ishontirishga intilib kelmoqda.

Vaholangki, Isroil degan davlat ikkinchi jahon urushiga qadar yo‘q edi, Gitler qirg‘inidan qochgan bu millatni Falastinning G‘azo sektorida G.Truman degan janob, AQSH Prezidenti, kiritdi va bu davlatni yaratdi – ko‘chib kelgan qochqin millat endi, dunyo siyosatida mustaqil, rivojlangan, demokratik va yadro quroliga ega davlat, deb nomlanyapti.

Falastin esa o‘z uyidan quvib chiqarilayotgan nafaqat ojiz xalq, millat, balki, butun boshli ***quvg‘indi davlat*** bo‘lmoqda – bir davlatni boshqa

davlat kelib, shu kelgan davlatining xalqini qirg‘in qilish bilan quvib chiqarmoqda.

Davlat o‘z hududidan tan olinmasdan quvilmoqda – bu uy egasini o‘ldirib, quvib chiqarishning o‘zidir – xuddi shunday bo‘lmoqda ham – bu qaysi mantiq yoki yurisdiksiyaga sig‘adi?

Insoniyat tarixidagi bu qadar fashistik g‘oya biror millatda bo‘lmagan, lekin Isroil sionistik mafkurasi shu bo‘ldi. Hech bir kuch yo‘qki, unga bas kelsa, yoki to‘xtatsa, modomiki, agarki, xohlasagina, AQSH bunga qodir edi. Vaholangki, bu ish AQSHning Yaqin Sharqdagi strategik manfaatlari ildizi bo‘lsa-chi, xuddiki Ukraina-Rossiya urushini hargiz Yevropa o‘z tarkibiga kiritmaydigan chekka hududida, aytish mumkinki, *Yevroosiyo bufer zonasida*, necha yillik ssenariy asosida boshlashgani kabi. Eng qudratli davlatlar(superderjava) o‘zining bittagina, faqatgina bitta soldatidan ham ko‘ra, boshqa davlatlar armiyalari yoki xalqlarini o‘z geosiyosiy makonlari doirasida urushga safarbar etdilar va o‘sha bitta soldatning qadri va narxi boshqa bir butun boshli armiyalar va xalq bo‘lmoqda. Bu o‘ta katta siyosat o‘yinidir – ko‘pchilik, judayam ko‘pchilik (davlatlar, siyosatchilar, olimlar) buning asl ildizini fahm etganicha yo‘q, modomiki, anglagan bo‘lsa hamki, “***bizlar nima ham qila olar edik?***” qabilida turishibdi.

Chunki o‘zining bitta askaridan ko‘ra, o‘zganing armiyasi yo‘q bo‘lgani unga afzalroq siyosatdir. Eng qudratli raqibini, hozirda esa dushmanini, yo‘q qilishning eng yaxshi geosiyosiy usuli bitta madaniy o‘zlikdagi ikki suveren va mustaqil davlatni yillar mobaynida gij-gijlash, nimagadir ishontirish va shu orqali siyosiy tranformatsiyani amalga oshirish bo‘ldi. Urush boshlanib ketdi. Bundan tashqari, natija qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, xalqaro tartibotda eng xavfli raqibini ancha kuchsizlantirishga va kuchlar muvozanatini keyingi o‘n yilliklarda o‘z nazoratida ushlab turish vaziyatiga imkoniyat va shunday vaziyatni yuzaga keltiradi.

Dushmanni bitta madaniy o‘zlikka mansubligi bo‘yicha birini do‘st, boshqasini dushman tutish orqali qirg‘in uyushtirish – birovni qo‘li orqali qurol ko‘tarish ishini ko‘rmoqdamiz – bu yerda vas-vasa siyosati ish berdi. Bu, aslida, bitta oykumenadagi ikki nomdagi mustaqil davlat edi, tarixiy, lisoniy, madaniy mushtaraklik va davlatchilik geneologiyasini ta’kidlamasak ham bo’ladi.

Janubiy-Sharqiy Osiy mintaqasidagi Koreys yarim orolida ham xuddi shu *ssenariya* ish bergandi – shimolida Shimoliy Koreya – kommunistik tuzumda, janubida Koreya Respublikasini qo‘llash orqali demokratik davlat barpo etildi – lekin har ikkisi ham butun umrga dushmanlik sharoitida kun o‘tkazishga hukm qilingan. Vaholangki, bu ikki davlat

aholisi yagona (bir) tilda so‘zlovchi, yagona madaniyatga xos, bir madaniy o‘zlikka ega bitta millatdir – koreys millatidir. ***Etnik parchalash siyosati kelajakni ham abadulabad parchalab tashladi***. So‘z joiz bo’lsa, XX asr 60-yillar boshlaridagi V’yetnam urushini ham yodga olish kifoyadir. Agar XX asr o’rtalaridagi ulug’ imperiyalar mustamlaka davlatlarni etnik va diniy asosda parchalab ketish siyosatini yuritib, ularga mustaqillik bergan bo’lsa, endilikda dunyoviy qudratli davlatlar tashqi siyosatidagi qat’iyatsizlik oqibatida Kissinger ta’biridagi “triangular diplomacy”-“uch tomonlama diplomatiya” o’rniga “triangular geopolitcs” “uch tomonlama geosiyosat” yuzaga kelmoqda – bu ikkita siyosat ob’ektining xalqaro tartibotda bevosita geostrategik reja asosida tashqi siyosat yuritishida va urush va tinchlikni o’zi hal etish yoki hal etmaslik ishlarida uchinchi tomonning u yoki bu tomonning maxfiy yoki oshkora geosiyosiy liniyasidan yurishi va aslo chekinmasligini anglatadi.

Hozirgi kun jahon siyosatida ham kuchlar muvozanatining mana shunday tranformatsiyasi kuzatilmoqda. Mafkura bu yerda siyosatning o‘zidir, siyosiy leksikonda yoki u ishlatiladi, yoki ishlatilmaydi – farqi yo‘q. Masalani o‘ta chuqur o‘ylash va fundamental tomiriga etish lozim.

Aynan Isroillik professor ***Omer Bartov*** quyidagilarni ta’kidlaydi: Isroil armiyasining fikrlash tarzi fashistlarnikiga o‘xshaydi; ularning ikkala ongida ham voqelik idroki shu ediki, ular kurashayotgan xalq makkor, xavfli va qirg‘inchi dushman edi; Isroil armiyasi G‘azodagi kasalxonalar, maktablar, masjidlar, infratuzilma va uylarni “ataylab” nishonga oladi[4]. G‘azoda isroillik askarlar falastinlik erkak va uning 7 oylik homilador xotinini uylarining tomiga bog‘lab, uyni portlatib yuborishdi[5]. Yoki oilasi uchun oziq-ovqat topish maqsadisa chiqib ketgan ota uyga qaytishi bilan yaqinlari ortiq u bilan emasligini ko‘rdi[6] – u faqat dod urib, yig‘lamoqda – tarmoqlar va ijtimoiy fikr dunyo bo‘yicha bu kabi mudhish tomoshabinlikdan ham charchadi. Dunyo bo‘yicha tinchlikparvar afkor omma – bu olimlar, ziyolilar, ayrim davlatlarda talabalar ham, OAV va dipmissiyalar ham tinchlikni kutib charchadi va hukumatlarining namoyishlarga chiqishganda kuch ishlatish siyosatini totib ham ko‘rishdi. 2024 yil 24 avgust kunida “minglab namoyishchilar Daniya poytaxti Kopengagen ko‘chalariga chiqib, Isroilning falastinliklarga qarshi genotsidini zudlik bilan to‘xtatishni talab qilishdi”[7].

Ayrim davlatlarda yoshlar, boshqasida OAV xodimlari, ayrimlarida esa madaniyat ahli Isroil tovarlari va firmalariga boykot e’lon qildi. Lekin masala haliyam muammoligicha turibdi, chunki siyosatni siyosatchilar hal qiladi – xalqaro ahvol shundayki, xalqaro aloqalarda (ushbu masalani) ***hal qiluvchining o‘zi yo‘q.*** *Bu dunyoda hal etilmaydigan muammoning*

o‘zi yo‘q, faqatgina hal etishni xohlamaydigan kuchlar bo‘lishi mumkin. Chunki bu xalqaro siyosatda hokimiyat uchun kurash natijasi (g‘alabasi) va dunyoviy tartibdagi reputatsiyasiga ta’sir o‘lchovi, deb ham qaralishi mumkin.

2024 yil 24 avgust kuni ijtimoiy tarmoqlarda bir ma’lumot ko‘p uchradi – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Falastin hududlari bo‘yicha *maxsus ma’ruzachisi* ***Francheska Albanese*** “*Isroil doimiy ishg‘ol qilish uchun sharoit yaratishga va o‘t ochishni to‘xtatish bo‘yicha muzokaralar niqobi ostida ko‘proq yerlarni egallab olishga harakat qilmoqda*”, deb bayonot berdi[8]. Xalqaro Jinoiy Sud bosh prokurori ***Karim Xon*** esa “Isroil yetakchilarini zudlik bilan hibsga olish buyrug‘i berilishi kerak”, deb bayonot berdi[9].

Xayriyatki bu vakillar faqatgina bayonot beradi – o‘zi ***Realpolitik***da BMTning o‘rni qanday bo‘lishi kerak – u emasmi, barcha mafkura va siyosatlardan ustun turguvchi? U emasmi, barcha qirg‘in, zulm, istibdod va tajovuzga chek qo‘yguvchi? U emasmi, barcha uchun yalpi tinchlik yo‘lini va tinchlikning o‘zini ko‘rsatuvchi, isbotlovchi, hujjat-dalil, kafili? U emasmi, insoniyatning yangi umumjahon qirg‘inidan asraguvchi kuch? Xo‘sh, yana tag‘inam qaysi savollar qoldi? Yoki BMTga ham qanday mafkura kerak bo‘lib qoldi, yoki u mafkuralardan xoli va ustun, ***yalpi siyosiy konsensus****ning yakkayu yagona ustuni* emasmidi?!

Hozirgi xalqaro ahvol shundayki, dunyo ishlari va dunyoviy tartib liberal mafkura tajovuzi oldida ojiz qoldirilgan. Demak, mafkura, har qaysi mafkura, modomiki, maqsadi qanchalik ulug‘ va mo‘tabar bo‘lmasin, tajovuz va zulmni oqlasa va uni amalga oshirsa, u aslo liberal mafkura emas, demokratik ham emas. Vaholangki, uni ***Aleksis de Tokvil*** fuqarolarning saylovlar va tenglik huquqi kabi jamoa huquqlarida ko‘rgan edi. Yaqin Sharq(ning G‘azo sektorida jamoat huquqi sionist genotsidi oqibatida) dafn etildi. Qon va zulm, irqiy va milliy kamsitish, diniy va hayotiy zo‘ravonlik oqlangan mafkura fashistik mafkuradir. Yo‘q, demokratiya bu emas. Ushbu g‘oyalarni ilgari surgan millat esa aslo demokratik ham emas, balki, fashistik diktaturaning zamonaviy pafoslarga o‘ralgan ko‘rinishidir. Vaholangki, Isroilni G.Kissinjer, xuddi Singapur kabi, intelektual yuksak demokratik davlat sifatida ta’riflagandi.

Ushbu masalani aniq-tiniq izohlash va tahlil qilish mumkin, mana, uni qisman ko‘rsatib turibmiz. Ko‘p aytamizki, hayotda chuqur ketish kerak emas, uning o‘zi oz (bo‘lsa), lekin, albatta, chuqur o‘ylash kerak; biz, chuqur fikrlashga va ma’lum yechimlar haqida o‘ylashga qoldirilganmiz.

Hamma bong urmoqda, qanchadan-qancha fikrlar, taloshlar o‘tdi, lekin hali hech kim(hech bir davlat ham) bir aniq-puxta yechimni

yuqoridagi masala bo‘yicha taqdim etganicha yo‘q. Chunki barcha siyosat sub’ektlari o‘z milliy manfaatlari va “foyda”siga “asirdir”. Bunda Yaqin Sharqda tinchlik o‘rnatilishi ancha uzoqqa cho‘zilishi mumkin – Isroilning sionist rasmiylari toki oxirgi falastinlikni yo‘q qilmagunicha, yoki ularni o‘z vatanidan butunlay siqib chiqarmagunicha, to‘xtamaslikni maqsad qilishgan, buni har kuni rasmiy delitantlar ijtimoiy tarmoqlar orqali ham e’lon qilishmoqda. Dunyo esa jim-jit, G‘azoda esa genotsid bo‘lmoqda. ***YUNISEF*** *ma’lumotlariga ko‘ra*, davom etayotgan *isroil genotsidi tufayli G‘azoda 19 mingga yaqin bola qarovsiz qolgan*, *ularning ko‘pchiligi urush paytida ota-onasini yo‘qotib qo‘ygan yoki ulardan butunlay ajralgan*[10].

Ijtimoiy tarmoqlarda “*G‘azodagi bolalar nima hohlaydilar?*” degan savol berilgan va o‘sha yerdagi norasida-murg‘ak bolalarning o‘z tilidan quyidagi “xohlayman”lar keltirilgan: Men maktabga borishni xohlayman; Men urush tugashini xohlayman; Men o‘ynashni xohlayman; Men shokolad xohlayman; Men xavfsiz yerda yashashni xohlayman; Men G‘azodanman va men go‘sht, tovuq va pishloq yeyishni xohlayman, ammo bizga faqat sabzavot olib kelishyapti; Men bizga yordam ko‘rsatishlarini xohlayman; Men bolalar bog‘chasiga borishni xohlayman[11]. Ochlikdan vafot etgan qizaloq rasmi ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqaldi: ikki qo‘lda tutib turilgan to‘rt ustuxon va teri – insonni ham shu qadar azoblaydimi – axir, bolajon, qizaloqda ne ayb – ming shukrona qilamizki, islom diynimizda bu kabi zulm yo‘q va ularga Xudoning o‘zi teng kelsin, deymiz. Yoki dronlar orqali kuzatilib, bir qizaloqni otib tashladi – dil titramaydimi? Bu ochiq-oydin qirg‘indir, boshqa narsa emas. Yaqin Sharqda to‘planib qolgan yetakchi qudratli davlatlarning (g‘arbiy yarimshar kuch markazlarining) son-shumori yo‘q qurol-aslaha, harbiy-texnika, yadro quroli tashuvchi kemalari va qo‘shinlari qalashib yotibdi – bular ham ijtimoiy tarmoqlarda keng e’lon qilingan – hali ehtimoliy vaziyatlarni nazarda tutishga va siyosiy bashoratga qo‘l urishga qo‘rqasan kishi. Ehtimol, Yaqin Sharq fojeasi nihoyatda katta geostrategik o‘lcham va mo‘ljallar qilingan geosiyosiy modelning bir qismi bo‘lishi ham mumkin.

Geosiyosat esa xalqaro siyosat va aloqalarda hukmronlik uchun kurash va siyosiy raqobat, siyosiy texnologiyalar va chinakamiga ham innovatsiyalarga qurilgan hukmronlik manbalariga bog‘liq bo’lib bormoqda. *Jozef Nay* buni “*yumshoq kuch*” deb atadi, bu esa qattiq kuch – harbiy qudrat va salohiyatdan farqli ravishda, insoniy resurslar, fan-texnologiyalari, hokimiyatning harb ishidan tashqari bo‘lgan barcha asoslari va innovatsiyalarini nazarda tutmoqda, xususan, qadriyatlar, madaniyatlar, siyosat va institutlar (ommaviy diplomatiya, ikki va

ko‘p tomonlama diplomatiya ham). “Biroq, axborot inqilobining hozirgi iqtisodiy va ijtimoiy tendensiyalari davom etsa, yumshoq kuch muhimroq manbaga aylanadi” [12]. Va *J.Nay* g‘arbiy yarimsharning jahon siyosatidagi yetakchilarini “yumshoq kuch”ga ko‘p e’tibor bermaganliklarida ayblagan edi, ayniqsa, AQSHni.

Endi, falsafaning, xuddi, siyosatda bo‘lgani kabi, milliy maktabi bo‘lishi mumkin, lekin uning zulmkori va tajovuzkori bo‘lsa, unda bu falsafa emas, siyosat esa demokratik yoki huquqiy emasdir – bu fashistik mafkuradir, xolos.

Ma’lumki, jamiyatning mafkuraviy strukturasida *birinchi navbatda nazariy mazmun* ilgari suriladi. *Mafkura asosi*ni ijtimoiy ta’limotlar va konsepsiyalar tashkil etadi – falsafiy, estetik, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, sotsiologik va boshq. Shubhasizki, “m*afkura jamiyatning qat’iy belgilangan qadriyatlariga oid asoslarni ishlab chiqadi”*. [13]

Hozirgi jahon siyosatida mafkura turlari va umum tinchlikka oid kelajak shtrixlari

Insoniyat paydo bo’libdiki, dunyo tartibida tinchlikni ta’minlash ko‘proq qaysi mafkura hukmron bo‘lganiga qarab belgilangan. “Sovuq urush” davrida bu pozitsiyaga AQSH – liberal mafkura hukmroni va Sobiq Ittifoq – kommunistik mafkura hukmroni sifatida o‘zaro kurash poygasiga kirishib ketdi. Bu yerda fan-texnologiyalardan tortib, kosmosni zabt etish, yadro qurolini ishlab chiqish va unga qanchalik egalik, inson resursini har sohada optimallashtirish, jamiyatni shu yo‘singa yo‘naltirish kabi siyosat barq urib urivojlangan edi. Endi, Sobiq Ittifoq qulaganidan beri dunyoda liberalizm g‘alaba qildi(*F.Fukuyama iborasi*), AQSH yagona dunyoviy superderjava (*Zb.Bjezinskiy*), endi, sivilizatsiyalar to‘qnashadi (*S.P.Xantington*), “Tarix tugadi”, “oxirgi inson”(*F.Fukuyama*) kabi jahon afkor ommasida yashin kabi paydo bo‘lgan siyosiy atamalar va ko‘plab yangi siyosat paradigmalari ham aslida hali hanuz o‘z mavqei va ahamiyatini yo‘qotgan emas, demakki, jahon siyosati va xalqaro tartibotni belgilashda liberal qarashlar ustuvorligi namoyon bo‘lmoqda. *Liberalizm mafkurasi demokratiyaning doyasidir*, *vaholangki*, *liberal g‘oyalar liberalizm mafkurasining onasi bo‘lgani kabi.* Unda inson huquqlari va davlatlarning o‘z taqdirlarini o‘zlari belgilashlari, (demokratik) saylovlar va u orqali boshqariladigan hukumatlar, eng muhim prinsiplar sanaladi. Qolaversa, dunyodagi barcha, deyarli barcha davlatlar, o‘zlarini demokratik davlat yoki demokratik yo‘lda deb e’lon qilgan – bu Sobiq Ittifoqdan keyingi barcha mustaqil davlatlar, Osiyo-Tinch okeani basseyni davlatlari, Afrikaning to‘liq 46ta davlati, o‘zini xalqaro siyosatda AQSHdan mustaqilroq ko‘rishni istayotgan Lotin Amerikasi

davlatlari, Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari. Arab davlatlari esa o‘zlarini *konservativ pozitsiyasida* mustahkam turishibdi, lekin ayrim zamonaviy o‘zgarishlar, agarki so‘z lozim bo‘lsa, liberal oqimlar yoki o‘zgarishlar, bu jamiyatlarni ich-ichidan emirib tashlaydi. Chunki k*onservativ ong konservativ mafkurani asoslaydi*, *xuddiki*, *liberal ong demokratiyani yoki liberal mafkurani asoslagani kabi.* G‘arbiy yarimshar davlatlari ma’lum siyosiy an’analari va qadriyatlari, shuningdek, o‘z kuch va qudratiga tayangan holda va tarixda ham liberalizm ildizlarini, ham AQSHning o‘zini yaratuvchilari bo‘lishgani holda, zamonaviy jahon siyosatida XX asr boshlaridan beri AQSH “himoyasi” yoki aniqrog‘i, ta’siri ostidagi liberalizm mafkurasini qo‘llab kelmoqda va hamjamiyatning barcha bo‘g‘inlarida faqatgina unga asoslanmoqda. G.Kissinjer ta’biri bilan aytganda, G‘arbiy Yevropa davlatlari “to‘laligicha demokratik davlatlar”, deb hisoblanmoqda. Vaholangki, demokratik prinsiplarning ayrimlari to‘laligicha Yevropa Ittifoqida allaqachon “cheklangan”, aniqrog‘i, ta’qiqlab qo‘yilgan sanaladi – masalan, *millatning o‘z taqdirini o‘zi belgilash prinsipi*. Ispaniya tarkibida Kataloniya mustaqil bo‘lish uchun referendumi natijalari ham, uning yetakchisi ham imi-jimida pressa fikri va ijtimoiy fikrdan bevosita Yevropa Ittifoqining yurisdiksiyasi yo‘li bilan, aniqrog‘i, kuch ishlatish yo‘li bilan olib tashlandi, vaholangki, ular umumxalq ovoz berishida qariyb maksimum ovozni yig‘ishgandi. Bu kabi tendensiyani G‘arbiy yarimshar davlatlarining ko‘pchiligida kuzatish mumkin.

Zamonaviy Yevropa mafkurasi shundan iboratki, integratsiyadan tashqari har qanday holat Yevropa Ittifoqida qat’iyan muhokama qilinmaydi. Vaholangki, Ispaniyaning bo‘linishi Yevropa Ittifoqining bo‘linishi demakdir, yoki shu jarayoning boshlanishidir. *Shu sababli ham demokratiya Yevropada tug‘ildi*, *Amerikada ulg‘aydi*, *aytish mumkinki*, *qaytib yana Yevropada bug‘ildi – Yaqin Sharqda esa u o‘ldi*. Biz ushbu xulosada insonni eng oliy qadriyat sifatida, uning yashashi va yashab qolishi, jamiyatning barcha boshqa qadriyatlaridan oldin ekanligini ko‘rsatmoqdamiz. Axir, inson yer ustida o‘z hayotini yaratuvchisidir, uning hayotidan-da ortiqroq narsa yo‘q va usiz boshqa qadriyat yo‘q.

Jumlai jahon qadriyatlari G‘azodagi bittagina qizaloq yoki go‘dakkinaning yashab qolishidan ham ortiq emas. Axir, u qachon inson bo‘ladi – bo‘la oladi – yashaydi – qachon – buni kim aytadi – kimda aniq javob bor?.. ***Rejep Tayyip Erdog‘an***ning “*Yevropa Bosniyada o‘ldi*, *Suriyada ko‘mildi*”[14], deb ta’kidlashi bejizga emasdi. Turkiya Prezidenti “Dunyo yanada odil bo‘lishi mumkin” asarida yozadi: “Agar Sharq boshidan o‘tkazgan fojialarni, u yerdagi insonlarga va u insonlarning

madaniyatlariga bog‘lab ko‘rsangiz, bu o‘ta chalg‘ituvchi bo‘lar edi” – bu esa ***S.Xantington*** konsepsiyasining mag‘zini belgilaydi – ya’ni kelajakdagi jahon urushini u sivilizatsiyalar o‘rtasidagi to‘qnashuvda sodir bo‘lishini yozgandi – bilamiz, bu zamonaviy AQSH siyosatida har xil nazariyalar yoki konsepsiyalar, ko‘pincha, AQSHning strategik manfaatlarining tugal ifodachisi yoki navbatdagi strategik rejaning ishlab chiqilishiga asos bo‘lib xizmat qiladi, yoki aynan shunday uzoq muddatli siyosiy maqsadlarni ko‘zlaydi. R.T.Erdog‘anning fikri davomi quyidagichadir: “Ya’ni aslida Sharq o‘zi tushgan vaziyatni faqat o‘zi hosil qilmadi. Hozirgi kunda Sharqda davom etayotgan gumanitar fojialar o‘sha yerda yashayotgan insonlar singari, afsuski, *u yerga tashqaridan kelib aralashgan davlatlarning asaridir*”[15]. Buni biz yuqorida tugal ko‘rib chiqdik va buni qo‘shimcha dalil sifatida keltirib qo‘ydik. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, “siyosatni sistema sifatida anglash esa kichik ijtimoiy birliklardan boshlanadi” [16].

Qayd etishni istardikki, Yevropa madaniyatining so‘nishi (!) esa oila va axloqning so‘nishidan ildiz otgan, nemis falsafada ta’kidlangan, yuksak rivojlanish yoki sivilizatsiyaviy evrilishlardan emas, yoki G.Kissinjer ta’kidlagan Yevropa Ittifoqining multietniklik xavfidan ham emas. Har qaysi jamiyatda oila va axloq saqlansagina, uning madaniyati va qadriyatlari yashaydi, shu yo‘l bilan ichki tinchlik va barqarorlik tabiiy o‘zaga solinishi mumkin.

Endi, Xitoy, Laos, Kambodja, Shimoliy V’etnam, Kuba, Shimoliy Koreya davlatlari esa kommunistik mafkura asosida o‘z rivojlanish yo‘llarini davom ettirib, modellarini yangilab, jahon va xalqaro siyosatda o‘z qudratiga ko‘ra, kimdir ko‘rinar, kimdir ko‘rinmas pozitsiyada o‘zlarini namoyon etishmoqda, albatta. Bularni shu uchun ham ta’kidlayapmizki, Sharqiy Yevropa va Yaqin Sharqdan keyingi “olovli nuqta”lar sifatida aynan shular, yoki shulardan biri, yoki shularning ishtirokida tanlanishi mumkin. Chunki ularning siyosiy tuzimi boshqa, mafkurasi liberal mafkuradan umuman farqlanadi – asosiy farq olib borilayotgan siyosatlar farqidadir, siyosiy institutlar va siyosiy qadriyatlarning g‘arbiy yarimshar yoki AQSHning global demokratiya qoidalaridan o‘zgacharoq bo‘lganidadir. Buni ham nazardan qochirmaslik kerak.

AQSH har doim Xitoyni o‘zining uzoq muddatli strategik xavf manbai sifatida ko‘radi – Xitoyga intervensiya – bu Tayvan orqali amalga oshirilishi mumkin va bunga vas-vasalar ssenariyasi tadbiq etilishi mumkin. Ukraina shu tarzda hozirgi kuzatilyotgan jarayonga tortildi. Bir rus jurnalisti Rossiya bosqinini quyidagicha izohlagandi: “agar ro‘parangdagi qo‘shni uy(dom) ostidan sen yashab turgan uy

(dom) pushka orqali mo‘ljalga olinsa, san nima qilasan?”, ya’ni u pushka to‘p hali otgani yo‘q, lekin bittagina qo‘shnilar o‘rtasidagi xatolik orqali otilishi mumkin – shu kabi intervensiyani oqlashlar ham bo‘ldi, rus rasmiylari “ikkinchi jahon urushida bo‘lgani kabi – biz kutib o‘tirmadik”, deyishdi. Lekin masalaning chuqur, judayam va nihoyatda o‘tkir zehniyat orqali tafakkur ildizi ham bordir. Bu narsalarni tushunish uchun tashqi ishlar vaziri, yoki Prezident bo‘lish shart emas, sabr etsa, G.Kissinjer, Zbignev Bjezinskiy asarlarini to‘liq o‘qib chiqish, siyosatni va uni amalga oshirish usullarini bilish yetarlidir. *Gohida judayam katta (global) muammolar yechimi, odatda, oddiy narsalarda bo‘lishi mumkin va gohida juda ham oddiy narsalar dunyoviy muammo tarzida ko‘tarilishi mumkin – bu siyosat, jahon siyosatida esa hargiz manfaatlargina bo‘ladi, xolos.* Xalqaro munosabatlardagi siyosiy realizm maktabi asoschisi ***Gans Morgentau***ning “*Millatlar(davlatlar) o‘rtasidagi siyosat. Hokimiyat va tinchlik uchun kurash*” nomli asaridagi quyidagi xulosa siyosat haqidagi barcha umum xulosalarni asoslaydi: “Xalqaro siyosat barcha siyosat turi kabi *hokimiyat uchun kurashdan iboratdir*. Xalqaro siyosatning asosiy maqsadi nima bo‘lishidan qat’iy nazar, ***hokimiyat bevosita maqsaddir***”[17].

Ko‘pincha bu milliy manfaatlar ko‘rinishi yoki niqobi ostidagi alohida shaxslarning injikliklari yoki mahdudligi ham bo‘lishi mumkin. *To‘g‘ri, mafkurasiz na siyosat, va na siyosatchi bor.* Lekin siyosatda siyosatchi bag‘rikenglik va hamdo‘stlik, ijtimoiy hamkorlik va abadiy tinchlik g‘oyalarini ilgari sursa, uni nazariyotchiga chiqarib qo‘yadi. Shuning uchun ham yetakchi siyosatchilar kuch bilan tahdid qiladi, ularning “mafkurasi” kuch-qudratga qurilgan, ojizni esa hech kim o‘ylamaydi – siyosat qonuni shundayki, hamma kuchliga ergashadi. Hozirgi dunyo tartibi esa ana shunday ikkilanishlar va turbulentlikni boshidan kechirmoqda – albatta, bular ham ayrim kuch markazlarining tegishli kutilgan “natijalari”dir.

Bundan tashqari, bu Yaqin Sharqda liberal g‘arbiy yarimsharning aniq-ravshan bir pozitsiyasi ham aks etmoqda: rivojlangan shimol va qoloq janub, ya’ni ajratish siyosati. Shuningdek, demokratiya hamma uchun degan lozunglar qaerga qolib ketdi, shu Falastinga ham demokratiya kirib kelsin, axir – bu xalq ham o‘z kelajagini o‘zi belgilasin, millat o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini amalga oshirsin – hali, snayper o‘qi kelib norasida murg‘ak bolani, yoki o‘zi “temir gumbaz/qalqon” ostida bemalol yashab turgan sionist siyosatchilari topshirig‘iga ko‘ra, maktabdan boshpana topgan ayollar va bolalarni to‘pga tutishlar butunlay to‘xtatilmas ekan – demokratiyani Isroil insonni o‘ldirish va insonning jamiyki

huquqlarini yo‘q qilish bilan butun insoniyatga ulug‘ xavf tug‘dirmoqda – demokratiya G‘azoda (sionist fashistik rejim genotsidi ostida) o‘ldirildi – qani, o‘sha demokratiya – hammaga bir xil va hamma uchun barobar bo‘lgan huquqlar, qani? Na G‘arb, va na Sharq lom-mim demaydi. Yechimlar kerakdir, yechimlar. Chaqiriqlar va bayonotlar zamoni o‘tdi, aksincha, har bir chaqiriq va bayonot ortidan yana ko‘plab norasida bolalar va ayollar o‘ldirilmoqda. Xo‘sh, aytingchi, ota yoki onasini, opa-singlisini, aka-ukasini ko‘z o‘ngida portlatib o‘ldirilgan bola, ulg‘aysa, agarki, ulg‘ayishgacha yetib bora olsa, unda u kim bo‘lib o‘sadi? Qasd olish, o‘ch olish istagi yagona hissi va aqli bo‘lib qolmaydimi? Nima-a, u yerda ham inson yashaydi, inson bolasi yashaydi. Inson zoti hamma yerda ham insondir, kim bo‘lishidan, qat’iy nazar.

Modomiki, tinch aholini o‘qqa tutish siyosati butunlay to‘xtatilmas ekan, Yaqin Sharq mintaqasi jahonning “***qonli porox bochkasi***”ga aylanadi, albatta, bir kuni portlaydi va misli ko‘rilmagan liniyalarda – *diniy, siyosiy va harbiy qo‘llab-quvvatlashlar zamirida ko‘plab mintaqalarga o‘tib ketish ehtimoli saqlanmoqda* – inson hayotini o‘yinchoq qilgan va Xudoning g‘azabi bilan o‘ynashganlarga O‘zi kifoya qilsin – yoki falastinliklarni butunlay ko‘chirish kerakdir – ortiqcha qon to‘kilmasligi va bitta millatni asrab qolish uchun – unda, qayerga? Axir, o‘sha qonga botirilgan va vayronalari qolgan zamin ularning vatanlari-ku, vatanidan kim ayrilishni istaydi?..

Albatta, qudratli davlatlarning dunyo siyosatidagi hukmronlik holatiga hech narsa to‘sqinlik qilmaydi, ko‘p hollarda hattoki, xalqaro tashkilotlarning samarasizligi yoki ojizligi haqida so‘z borganda ham amerikaliklar jamiyati va madaniyatiga xos bo‘lgan bir xulosani yozishadi: “*kim pulini to‘laydi – o‘sha musiqani buyurtma qiladi*”, deb. Amerika filmlarini eslang: barga xohlagan bir amerikalik keladi, ichimlik so‘raydi, o‘rindiqqa o‘tirgan holda jonli ijro etuvchi orkestrga yoki yakkam qo‘shiqchiga pulini to‘lab, qo‘shiq buyurtma qiladi – bu amerikacha oddiy turmush tarzidan jahon siyosatining yozilmagan o‘zak qoidasigacha ko‘tarilgan asoslaridan biridir.

Siyosatshunos olim ***G.Kissinjer*** liberal mafkuraga qurilgan AQSH tashqi siyosatini etti bobdan iborat bo‘lgan “Amerikaga tashqi siyosat kerakmi? XXI asrga mo‘ljallangan diplomatiya” asarining ilk bobidayoq, vaholangki, u to‘laligicha demokratiya va o‘z-o‘zini belgilash prinsiplariga qurilgan bo‘lib va aynan shularni dunyo bo‘yicha barcha davlatlardan o‘zining dunyoviy siyosat va tartibotda hukmron pozitsiyasidan kelib chiqib talab qilish darajasigacha etganini ta’kidlagan edi. Yuqorida keltirilgan mulohazalarni dalillash uchun G.Kissinjer

kitobidan bitta abzatsni to‘liq o‘qiymiz va tegishli xulosaning o‘zi yuzaga chiqadi: **“**Harbiy sohadan biznesgacha, fandan texnologiyalargacha, oliy ta’limdan ommaviy madaniyatgacha, Amerika, hech ko‘rilmagan miqyosda, dunyoda hukmronlik qilmoqda. XX asrning oxirgi o‘n yilliklarida *xalqaro barqarorlikni ta’minlash ishida Amerikaning hukmron vaziyati* uni o‘rnini hech narsa bilan bosolmaydigan holatga keltirdi. Qo‘shma Shtatlari aynan “olovli nuqta”larda vositachilik rolini bajardi, Yaqin Sharqda esa tinchlikni hal etish jarayonining asl ma’nosidagi ishtirokchisi bo‘ldi. Davlat ushbu rolga shu qadar berilib ketdiki, deyarli avtomatik tarzda o‘zini vositachi sifatida tanladi va hattoki, gohida manfaatdor tomonlar bu haqda so‘ramagan bo‘lsalar ham, masalan, 1999 yil iyulida Kashmir masalasida Hindiston va Pokiston o‘rtasida (vositachilik qildi – D.B.Sharipov). *Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘zini dunyoda demokratik institutlarni saqlashning ham manbasi*, *ham kafili sifatida ko‘ra boshladi*, *ko‘p hollarda o‘zini sudya rolida ko‘radiki*, *boshqa davlatlardagi saylovlar qanchalik demokratik*, (yoki-tarj.) *agar unga ushbu saylovlar yetarlicha demokratik emasligi ayon bo‘lsa*, *iqtisodiy sanksiyalar qo‘lladi yoki bosimning boshqa turlaridan foydalanishni hal qiladigan bo‘ldi*. Buning natijasida amerikalik qo‘shinlar butun dunyo bo‘ylab joylashtirilgan – Shimoliy Yevropa tekisliklaridan Sharqiy Osiyo ro‘parasidagi oraliqqacha. ***Tinchlikni saqlash nomi ostida Amerika aralashuvi barcha yerlarda doimiy harbiy ishtirokni nazarda tutgan***. Qo‘shma Shtatlari Bolqonda ilgari Avstriya-Vengriya va Usmoniylar imperiyalari ikki urushayotgan etnik guruhlarni ajratuvchi protektorlar yaratish orqali bajargan funksiyani mohiyatan ado etmoqda. AQSH xalqaro valyuta tizimida ustunlikka (hukmronlikka-tarj.) ega, yirikroq investitsiya kapitali manbasi, investorlar uchun jozibador boshpana, shuningdek, chet ellik eksporterlar uchun eng yirik bozordir. Garchi u yoki bu davlatning qattiq g‘azabiga uchrasa hamki, Amerika pop-madaniyati butun dunyodagi ta’m standartlarini belgilaydi” [18].

Modomiki, AQSH BMTning 20 foizdan ortiq a’zolik badalini to‘laydi. Ma’lumki, BMTga a’zo bo‘lgan davlatlar har yili yillik Ichki Yalpi Mahsulotning bir foizni to‘laydi – shuni nazarda tutdik, bu birinchi asos. Bundan tashqari, bu siyosiy masala hamdir. BMT Nyu-Yorkda, AQSHda tuzilganidan beri joylashgan, bu ikkinchi siyosiy asos. Xavfsizlik Kengashi a’zolaridan biri veto qo‘ysa, bo‘ldi, o‘sha masala ko‘rib chiqilmaydi va Kengash a’zolari veto huquqidan, aniqrog‘i, uning jahon siyosatiga ta’sir kuchidan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishadi – bu uchinchi asos – unga ko‘ra, bitta a’zo tegishli loyiha bo‘yicha taklif yoki qarorni inkor etsa, bo‘ldi, masala ko‘tarilmaydi, hal etilmaydi.

Vaholangki, endi, bipolyar tizim davridagi kabi AQSH va Rossiya hech qachon biri ikkinchisi foydasiga ovoz bermaydi. Bundan tashqari, shu paytgacha AQSHning gegemoniyasi uchun bularning unchalik keragi ham bo‘lmay qoluvdi – veto navbatdagi hukmronlik oroyishi va siyosiy ritorika usulidir. Usiz, hattoki, BMTsiz ham qudratli davlatlar – bu yerda ham AQSH va uning o‘zidan “ilhomlangan” Rossiya – urush boshlashlari va olib borishlari mumkin bo‘ldi.

BMTning o‘rni va roli, dunyodagi tinchlikparvarlik ishlarida, ana shunday hal etiladi. Shuningdek, BMTning tinchlikparvar qo‘shini negadir necha o‘n yilliklardan beri ildiz otib ketgan Yaqin Sharqdagi G‘azo sektoriga kiritilganicha yo‘q – masalani aniq-ravshan hal qilish yo‘li shu aslida. Butun mintaqa BMT himoyasiga muhtojdir. Hozirgu kunlarda jahon siyosatida mafkuraviy kurashlardan bitta ham neytral davlat qolmadiki, BMT islohi va boshqa o’zgarishlarni amalga oshrirshga umid uyg’otuvchi davlat bo’lsaydi, deb. Shveysariya ham NATO tarkibiga qo’shildi. Xalqaro maydonda bitta ham neytral davlat qolmadi.

“Falastin territoriyasi, Sharqiy Quddus va Suriyaning Golan (tepaliklari)ni Isroil tomonidan bosib olingan manzilgohlari” deb nomlangan Bosh Assambleya rezolyusiyasiga va bunga BMTga a’zo davlatlar tomonidan ovoz berish jarayonida 145 ta davlat ushbu hududlarni noqonuniy, deb ovoz berdi. Hattoki, BMT Isroil hujumiga oid ushbu rezolyusiyani qabul qilsa hamki, natija “musiqa buyurtmasi” kabi bo‘ldi. Ovoz berish jarayonida 18 ta davlat betaraf qoldi, 7 ta davlat qarshi chiqdi. Rezolyusiyaga qarshi chiqqan davlatlar: AQSH, Kanada, □□ Isroil, Vengriya, Mikroneziya, Marshall orollari, Nauru [19]. Qarshi chiqqan davlatlardan to‘rttasini ko‘pchilik biladi, qolgan oxirgi uchtasi esa ro‘yxatdagi birinchining xalqaro aloqalarda hayotda ko‘rinmaydigan “protektorat hududlari” deyish mumkin. Amalda esa xalqaro siyosatda strategik yoki undan-da yuksak o‘zaro hamkorlik, oz bo‘lsa-da, ushbu jarayonda, oxirgilar foydasiga, yaqqol ko‘rinib turibdi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, insoniyat tarixi butun insoniyatning tarixidir, ammo oxirgi jarayonlar faqatgina kuch markazlari tarixi bo‘lib kelmoqda.

Zbignev Bjezinskiy “*Buyuk shaxmat doskasi*” asarida bundan yigirma etti yil oldin yozgandi: “Yevroosiyo, binobarin, “shaxmat doskasi” hisoblanadiki, unda dunyoviy hukmronlik uchun kurash davom etmoqda va bunday kurash *geostrategiyaga – geosiyosiy manfaatlarni strategik boshqarish*ga ta’sir qiladi”[20]. Ko‘rinib turibdiki, azal-azaldan Yevroosiyo eng qudratli davlatlarning hukmronlik manbasi, hokimiyat uchun kurash maydoni, imperiyalik yoki eng qudratli davlat bo‘lish intrigasining o‘chog‘i bo‘lib xizmat qilgan va hali hanuz jahon siyosatida

shunday reallikka egadir.

Ayniqsa, hozirgi geosiyosiy kuch markazlarining tranformatsiyasi jarayonida, aytish mumkinki, Isroil, Yevropadan ham oldin, AQSHning o‘z siyosiy urug‘idirki – uni AQSH jon-jahdi bilan, tish-tirnog‘i bilan himoya qilishi aniq bo‘lgan masaladir – arab dunyosini tutib turish funksiyasini, aytmasak ham bo‘ladi. Hamma masala shundadir. Shu sababli ham arab dunyosi lom-mim demaslikka hukm etilgan. Bittagina Eron falastinliklar genotsidi bo‘yicha aniq qarorga ega, agarki chegaralarni ochishsa, afg‘on “Tolibon”lari ham tayyor turibdi. Turkiya esa NATO a’zosi bo‘lsa hamki, Isroil bosqinining boshidan beri qattiq tanqid qilib, butun olamga jar solmoqda – lekin g‘arbiy yarimsharda bu sadoni eshitguvchi quloqlar yo‘q, chunki ular to‘laligicha Rossiya tomon poyloqchiligi bilan band qilingan.

Endi, Livan, Yaman, Suriya kabi davlatlar ham o‘zlarini qarshilik kuchlari, deb bilishadi, lekin bu kabi ***kontinentlararo bufer zona***da real siyosiy kuchga ega emaslar, aksincha, siyosiy va harbiy jihatdan ancha ojiz qoldirilgan davlatlardir. Shuningdek, AQSH dunyo siyosatida “yagona va haqiqatan birinchi chinakam dunyoviy davlat” [21] sifatida bir vaqtlar ***Alfred Mexen*** ishlab chiqqan “*Anakonda*” geosiyosiy doktrinasi va uning davomi bo‘lgan “Monro doktrinasi”ning mantiqiy mag‘zini davom ettirmoqda – ikki okeanning o‘zi AQSHni “Yevropa konserti”dan har ikkala jahon urushlarida oz talofot bilan chiqishga va qirg‘oq zonalarida hukmronlik qilish orqali esa Yevroosiyo ustida (*X.Makkinder* “*xartlend*” konsepsiyasi mag‘zi) va alaloqibat, butun dunyoga hukmronlik qilishga imkoniyat yaratdi. Dastlab bu ishni Mexen davrida ham, hozirda ham harbiy-dengiz floti bajargandi. Bu esa aslo demokratiya yoki liberal mafkura bilan o‘lchangani yo‘q, aksincha, aniq geosiyosiy konsepsiyalar, Z.Bjezinskiy ta’biri bilan aytganda “strategik rejalashtirish” mahsulidir. To‘g‘ri, mafkura keyinchalik siyosiy va strategik yo‘l-yo‘riqni “singdirish” uchun vosita bo‘lib kelmoqda, xolos, xuddi, inson huquqlari, demokratiya, saylovlar haqqoniyligi yoki demokratiyaga mos yoki yo‘qligi, millatlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi vahokazolar kabi. *Mafkura qudratli davlatlarning siyosiy bosim instrumentidir*, *xolos* va u shu nom ostida, ya’ni mafkura tarzida siyosiy leksikonda deyarli ishlatilmayapti ham.

Ikkala jahon urushi ham Yevropadan kelib chiqdi. Insoniyat tarixidagi har qaysi imperiya o‘z geostrategik maqsadlarini Yevroosiyo ustida hukmronlik orqali o‘rnatgandi. Endi, jahon siyosatida ham Yevropani, ham Osiyoni, ham Afrika kontinentini mahkam tutib turish geostrategik halqasi yoki zanjiri, albatta, Yaqin Sharq hisoblanadi. Bundan tashqari,

Yevropada NATO va oxirgi yillarda esa Janubiy Osiyoda, garchi jahon siyosatida hali real kuchga ega bo‘lmasa hamki, uning o‘xshash varianti ham ishlab chiqildi. Isroil va yahudiylar bu halqaning “asoschilari” bo‘lishni niyat qilishgan. Yahudiylar, ya’ni yevreylarda uchta xulosa siyosiy ustanovkasida ildiz otgan, biz buni yigirma besh yil ilgari Isroil elchixonasining Toshkentdagi press-atashesidan bir anjumanda, qolgan ishtirokchilar kabi eshitgandik – bu kabi so‘zlarni aytishda, aslida, dipmissiya vakili ehtiyot bo‘lishi kerak, lekin tap tortmagandi: 1. Barcha payg‘ambarlar bizdan chiqdi, bitta oxirgisi arab bo‘ldi; 2. Biz, Amerikani boshqaramiz – yuz dollarlikdagi Benjamin emas, Benyamindir, deyishadi; 3. Biz, dunyoni boshqaramiz, deydi. AQSH siyosiy elitasi har doim yahudiylardan bo‘lgani, yoki ular siyosiy hokimiyatni boshqargani, yoki ularga o‘z jamiyatida har doim yon bosgani rost, buni AQSH davlat boshqaruvi va siyosati tarixidan bilsak ham bo‘ladi; amaldagi davlat kotibi *E.Blinken*, sobiq davlat kotiblaridan *G.Kissinjer* ham yahudiy, hozirgi ikkala prezidentlikka nomzodlar ham yahudiylar diasporasi qo‘llashi va ovoz berishidan kattaroq umid qilishgan, aynisa, *D.Tramp* hargiz Isroilni tashqi siyosatda va yahudiylarni o‘z jamiyati ichida hammadan himoya qilishga qattiq bel bog‘lagan ko’rinadi. Endi, mahalliy siyosiy ekspertlarimiz fikricha, hamma payg‘ambarlarning yahudiylardan chiqishiga sabab: ularning juda ham axloqsiz va osiy bo‘lishganiga dalil, chunki payg‘ambar Haq yo‘lga chaqiradi – ular esa Haq yo‘ldan ozishgan (va shirk keltirishgan), hozirgi kundagi zehniyati singari; shuningdek, ular butunlay osiy bo‘lishgani uchun jumlai Qur’onu karim mag‘zida “Ey bani Isroil”(Isroil avlodlari), deya qattiq ta’na-dashnomlar va iymon keltirishga – Haq yo‘lga da’vatlar bor. Bundan tashqari, nabiyimiz(s.a.v.)ni aynan ular Madinada zaharlashdi va ko‘p bora munofiqlik qilishdi, Imom al-Buxoriy asarlarida ularning nabiyimiz (alayhissalom) tomonilaridan la’natlaganlari keltirilgan. Chunki munofiq so‘zlasa, yolg‘on so‘zlaydi, omonatga xiyonat qiladi, **va’da bersa ustidan chiqmaydi**, deyilgan hadisi shariflardan birida. Biz, haliyam masalani o‘ta yumshatib aytdik. Shuningdek, yahudiy oilasi va ta’limi diniy aqidaga qurilgan – ko‘plab arab va musulmon davlatlari va jamiyatlari esa shu bittagina “o‘zi keldi” morinetka davlat “konserti”ga o‘ynab o‘tirishibdi yoki tomoshabin bo‘lishmoqdaki, o‘zlari rost va haq aqidada bo‘lishgani holda, uni saqlab qolish yo‘li bo‘lgan birodarlik (musulmon musulmonning birodaridir, sahih hadisdan), do‘stlik, tinchlik-osoyishtalik, xotirjamlik, sihhat-salomatlik kabi ulug‘vorroq qadriyatlarni o’zaro aloqalarda asrab qolish yo‘llarini topa olishganicha yo‘q. Eng dahshati, falastin xalqi jahon afkor ommasi ko‘z oldida qirg‘in

qilinmoqda va o‘z yeridan quvib chiqarilmoqda, umrguzaronlik o‘talgan uylari va ko‘milgan qarindoshlarining qabrlarigacha yer bilan barobar tekkislanmoqda. *Jahon siyosatida esa musulmonning qoni to‘kilishiga boshqa musulmonlar guvoh qilinmoqda, xolos*. Ularda shijoat va qat’iyat etishmayapti, aniqrog‘i, ularning barcha imkoniyatlari cheklab tashlangan. Saudiya hukumati Isroilga kirib chiqqan vizalik pasportlarni yaqin-yaqinlargacha qabul qilmasdi. Lekin arab davlatlari o‘rtasida siyosiy yetakchining yo‘q qilingani (Iroq misolida) va mavjud emasligi ham Yaqin Sharqda(gi G’azo sektorida tinchlik o’rnatish ishida) *siyosiy konsensus*ni yo‘qotishga olib kelgan. Aytyapmiz-ku, bu judayam katta geostrategiya, uzoqqa mo‘ljallangan katta o‘yindir.

Biroq o‘sha vaziyat ham ma’lum qoidalarga qurilgan – buni *G.Kissinjerning* o‘zi “***Diplomatiya***” asarida ham *Vestfal tinchlik shartnomasi* qoidalari tarzida keltirib o‘tgandi. Lekin tag’inam ijtimoiy tarmoqlarda bir hukm keng yoyilgan va dalillanganki, siyosiy ekspertlar bu hukmni to’g’ri deyishmoqdaki, xalqaro terroristik tashkilotlar AQSH tashqi siyosat mahkamasining mahsulidir, deb, bu haqda internet orqali ayrim AQSHning iste’fodagi siyosatchilari va olimlari e’lon qilishgandi. Albatta, bu kabi ishlarni qudratli davlatlar rasman e’lon qilishmaydi va ommaga oshkor etishdan tiyilishadi, lekin aslida haqiqatan ham shundaydir. Hattoki, yirik ekspertlar, bir paytlar 2001 yil 11 sentyabrdagi “Qonli seshanba” kunini ham *kichik Jorj Bush*ning o‘zi uyushtirgan, deb hisoblashadi. Qolgan davlatlarni aytmasa ham, bo’laveradi. Chunki prezidentlar siyosiy hokimiyatda qolish va o‘z reputatsiyasini saqlash uchun ham ichki siyosatda, hamki tashqi siyosatda, har qaysi ishlarga va oxirigacha borishadi, joiz bo‘lsa, shaxsiy hirsi va bema’ni nafsoniyatini deb, hamjamiyat uchun terrorni va terrorizmni kashf etib bo‘lishdi ham. Va albatta, bu keyingi dunyo siyosatida o‘z aksini topdi va Afg‘oniston, Iroqqa harbiy zarbalar berildi, ikki davlat butunlay izdan chiqarib tashlandi, tinchlik bir umrga yo‘q qilindi, xalqlar parokanda etildi. Amerika askarlari osishga hukm etilgan *Saddam Husayn*ning yotog’ida bemalol suratga tushishdan ham tap tortishmagandi.

Jahon siyosatida hokimiyatga egaligiga ko‘ra, kichik yoki o‘rta qudratli davlatlarni “ushlab turish” vositasi va usuli ham aynan har xil terror tashkilotlari va ulardan keladigan xavflar bo‘ldi. Chunki eng qudratli davlatning o‘zi ularni har xil yo‘llar bilan moliyalashtiradi, qurol yetkazadi va buyurtmalar paketini taqdim etadi.

Shu sababli ham mustaqil va suveren davlatlar uchun eng maqbul yo‘l, albatta, azal-azaldan siyosatga singib ketgan yo‘ldir – bu eng qudratli davlatlar bilan aloqalarni xalqaro huquq doirasida saqlab qolish,

muzokaraga kirish, diplomatik aloqalarni davom ettirish va hargiz aloqalarni uzmaslikdir. Bir tomonlama bar’yer ham shudir.

Shuningdek, BMT qabul qilgan xalqaro huquq va normalar bo‘yicha o‘z milliy siyosatini yuritish, milliy mudofaa tizimlarini mustahkamlash va tashqi xavflarga murosasiz bo‘lishdir – terror va terrorchi butunlay yo‘q qilinishi kerak, agarki, milliy chegarani bosib o‘tishga urinsa.

Xulosa

Xalqaro tartibotdagi qoidalar davlatning yashab qolishini belgilaydi, ularning barchasini esa bir yagona tizim isloh, mazmun va kelajak ta’minoti va kafili bo‘lishi kerak.

Xulosa shuki, dunyoviy tartibotda Vestfal tizimi inqirozi yer yuzidagi barcha nisbatan zamonaviy deb hisoblangan oxirgi ikki yuz yilliklarda sodir bo‘lgan urushlarning o‘chog‘ ildizidir – bu o‘ttiz yillik Napaleon urushlari, birinchi va ikkinchi jahon urushlari, “Sovuq urush” doirasidagi mafkuraviy tizimlar soyasidagi urushlar va ixtiloflar va toki bugungi kunga qadar davom etayotgan ayrim mintaqaviy konfliktlar yuz berishiga olib keldi. Buni yuqorida bir muncha tahlil qilishga harakat qildik.

Endigi, navbatdagi vazifa esa Vestfal tinchlik tizimi singari ***xalqaro siyosatni tutib turuvchi*** bir samarali tizim yaratishdir – bunga hech bo‘lmasa, olimlar o‘z tinchlik loyihalari yoki takliflari bilan ishtirok etishlari, amaliy takliflarini ilgari surishlari joizdir, deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. ПОЛИТОЛОГИЯ. Краткий энциклопедический словарь-справочник. Ростов-на-Дону. “Феникс”. Москва. “Зевс”.1997.с.158.
2. К.С.Гаджиев. Политическая философия. Москва. “Экономика”.1999.с.342.
3. К.С.Гаджиев. Политическая философия. Москва. “Экономика”.1999.с.342.
4. https://t.me/TYXUZBEK/100113
5. https://t.me/TYXUZBEK/100538
6. https://t.me/TYXUZBEK/100405
7. https://t.me/TYXUZBEK/100452
8. https://t.me/TYXUZBEK/100365
9. https://t.me/TYXUZBEK/100439
10. https://t.me/TYXUZBEK/100546
11. https://t.me/TYXUZBEK/100350
12. Жозеф Най. Юмшоқ куч. Жаҳон сиёсатида муваффақият воситаси. “Trust and Support”. Тошкент. 73-бет.
13. ПОЛИТОЛОГИЯ. Краткий энциклопедический словарь-

справочник. Ростов-на-Дону. “Феникс”. Москва. “Зевс”.1997.с.159.

14. Режеп Таййип Эрдоған. Дунё янада одил бўлиши мумкин. Таржимонлар: Маъруфжон Йўлдошев, Абдумурод Тилавов. Тошкент. “Янги аср авлоди”.102-бет.

15. Режеп Таййип Эрдоған. Дунё янада одил бўлиши мумкин. Таржимонлар: Маъруфжон Йўлдошев, Абдумурод Тилавов. Тошкент. “Янги аср авлоди”.102-бет.

16. Дилшод Шарипов. Сиёсий реализмга кириш (матбуотда чоп этилган илмий-сиёсий мақолалар тўплами). Бухоро. “Зиё-ризограф”. 2003. 19-бет.

17. Hans J.Morgenthau. Politics among nations. The Struggle for power and Peace. N.Y.1948.P.29; Дилшод Шарипов. Сиёсий реализмга кириш (матбуотда чоп этилган илмий-сиёсий мақолалар тўплами). Бухоро. “Зиё-ризограф”. 2003. 4-бет.

18. Центр исследований постиндустриального общества. Журнал «Свободная мысль». Генри Киссинджер. **Нужна ли Америке внешняя политика? К дипломатии XXI века**. Перевод с английского под редакцией В.Л.Иноземцева. Научно-издательский центр “Ладомир”. Москва. 2002.с.1-2; View of Генри Киссинжер. Америка чўққида: империями ёки лидер? | Journal of Fundamental Studies (imfaktor.com). ШАРИПОВ Дилшод Бахшиллоевич Бухоро давлат педагогика институти “Ижтимоий фанлар” кафедраси катта ўқитувчиси. https://doi.org/10.5281/zenodo.13363907. (openaire.eu).129-бет.

19. Янги Ўзбекистон ва Иқтисодий Ҳамкорлик Ташкилоти: тинчлик сиёсати ва тараққиётнинг янги босқичи ҳақида. ШАРИПОВ Дилшод Бахшиллоевич Бухоро давлат педагогика институти “Ижтимоий фанлар” кафедраси катта ўқитувчиси. ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ. № 3. 2024. ISSN: 2181-4031 www.imfaktor.uz. https://doi.org/10.5281/zenodo.11255693. 91-бет.

20. Збигнев Бжезинский. Великая шахматная доска. Господство Америки и его гестртагические императивы. Москва. «Международные отношения». 2000. С.12.

21. Збигнев Бжезинский. Великая шахматная доска. Господство Америки и его гестртагические императивы. Москва. «Международные отношения». 2000. С. 11.

DILDORA CHORIYEVA,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi
Yakkasaroy tumani bo‘linmasi bosh mutaxassisi

GLOBALLASHUV JARAYONIDA MAFKURAVIY TAHDIDLAR VA ULARGA QARSHI KURASHNING SAMARALI USULLARI

Bugungi kunga kelib globallashuv jarayonida dunyoda g‘oyaviy, mafkuraviy kurash ya‘ni dunyoni g‘oyaviy jihatdan bo‘lib olishga bo‘lgan urinish kuchayib bormoqda. Albatta, bunday vaziyatda mustaqilligimizni mustahkamlash, uning barqarorligini, farovonligini, tinchligini va kelajagini ta‘minlash har birimizning yuksak burchimizdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev globallashuv sharoitida ma‘naviyatga qarshi turli xurujlar haqida gapirar ekan: “Bugungi kunda yon- atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, bu so‘zlarning chuqur ma‘nosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo‘ladi”, [1] deb alohida ta‘kidlaydi.

Insonning qalbi va ongiga jo bo‘lgan milliy, ma‘naviy-axloqiy negizlar uni butun umri davomida halol, pok, bilimli, xalq xizmatida bo‘lishga, Vatan ravnaqi hamda taraqqiyotiga hissa qo‘shishga, o‘zining ongli va erkin mushohada qiluvchi shaxs sifatida kamol topishiga muttasil ravishda undaydi.

Shu boisdan O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo‘lidagi Harakatlar strategiyasini, o‘zbek xalqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad- muddaolarini keng jamoatchilikka har tomonlama tushuntirish, globallashuv jarayonining asl mohiyat-mazmunini jamiyat estetik madaniyatidagi rolini aniq va ravshan qilib olish jamiyatimiz a‘zolariga yetkazib berish dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

Globallashuv sharoitida ma‘naviy tahdidlardan xalqni, xususan o‘sib kelayotgan yoshlarni asrash, ularning qalbiga ezgulik g‘oyalarini singdirish jamiyat hayotining barcha sohalarida izchil amalga oshirilmoqda. Ta‘lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida ta‘lim-tarbiya, targ‘ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqozo etilmoqda. Bugungi kunda globallashuvning ijtimoiy hayotimiz bilan bog‘liqligi xususida Prezidentimiz Sh.M.Miriziyoyev o‘z fikrlarini bildirar ekan, “Yangi tahdidlar, jumladan, “ommaviy madaniyat” xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo‘layotgan, odob-axloq, qadriyatlarning yo‘qolish xavfi

yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g‘oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, mening fikrimcha, inson ma‘naviy olami, xalqlar madaniyatini belgilaydigan manbalarni asrab-avaylash va boyitish bugungi kunda har qachongidan ham muhimdir”[2], - deb ta‘kidlaydilar.

O‘zbekiston mustaqil taraqqiyot jarayonida milliy uyg‘onish davrini boshdan kechirayotganligiga, madaniy merosimiz, milliy urf-odat, qadriyatlarimizni tiklayotgan bir paytda dunyoda ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi ziddiyat kuchayib borayotganligiga guvoh bo‘layapmiz. Har qanday mafkura xalqning ma‘naviy ruhiy ehtiyojlarini milliy an‘analari va turmush tarzini hisobga olgan taqdirdagina yashovchan, ta‘sirchan bo‘ladi. Shu o‘rinda globallashuv jarayonida yoshlarning yangicha estetik madaniyatni shakllantirish bo‘yicha islohotlarni amalga oshirish vazifasi milliy mafkura asosida bizning diqqat markazimizda turibdi.

Bugungi kunda “globallashuv” so‘zi eng ko‘p ishlatiladigan tushunchalardan biri hisoblanadi. Bu bejiz emas, albatta. Zero, ushbu tushuncha inson va jamiyat hayoti rivojining hozirgi davridagi muhim xususiyatlarni, jumladan, tez sur‘atlar bilan o‘zgarib borayotgan, kishilik sivilizatsiyasi bugungi kungacha boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o‘ta shiddatli va murakkab bir voqelikni o‘zida mujassam etadi.

Globallashuv so‘zining lug‘aviy ma‘nosi xalqaro integratsiya, ya‘ni butun dunyo aholisining bir ijtimoiy tuzum ostiga birlashishi, bir xil vazifa bajarish jarayoni tushuniladi.

Globallashuvning mamlakatlar iqtisodiy siyosati va ma‘naviyatiga o‘tkazishi mumkin bo‘lgan ijobiy va salbiy ta‘siri xususida Hindistonning mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining quyidagi so‘zlarida yaxshi ifodalangan: “Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o‘tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo‘lib uyimni ag‘dar-to‘ntar qilib tashlashi, o‘zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman”.

Shuning uchun ham milliy istiqlol g‘oyasi bugungi globallashuv jarayonida uyimizni, hayotimizni toza havo bilan ta‘minlab, ayni paytda, “dovullar”dan saqlash omili ekanligini anglash mumkin.

Globallashuv jarayonining hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy sababi esa, birinchi Prezidentimiz qayd etganlaridek, bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo‘shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan chambarchas bog‘lanib borayotganidadir. Biron

mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmaydi.[3]

Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo‘lganidek globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas.

Globallashuvning ijobiy tomoni shundan iboratki, u xalqlarning, davlatlarning, milliy madaniyat va iqtisodiyotlarning yaqinlashishini tezlashtiradi, ularning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Globallashuvning salbiy tomoni esa, ko‘p ming-ming mayda, qoloq etnik guruhlar va millatlarning madaniyati, tili, rasm-rusmlari jahon bo‘ylab kuchayib borayotgan globallashuv jarayonlarida katta millatlar, yirik milliy madaniyatlar, boy tillar bilan raqobatlasha olmay, o‘z-o‘zidan faol ijtimoiy-iqtisodiy, lisoniy-zaboniy hayotdan chetga chiqib qolmoqda. Bunday sharoitda har bir ongli fuqaroning vazifasi - o‘z millatining raqobatbardoshligini ko‘tarish, buning uchun uning faol siyosati, tadbirkor iqtisodiyoti, madaniyatida salmoqli yutuqlari uchun kurashishdir.

Bugungi kunda yoshlarimizni turli xil yot va zararli g‘oyalar va vayronkor g‘oyalarga qarshi barqaror mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda ularning dunyoqarashini boyitish, Vatanga sadoqat, uning taraqqiyotiga daxldorlik hissi, milliy g‘ururni shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirish, hozirgi zamondagi keskin intellektual – ma‘naviy raqobatga javob bera oladigan, mustaqil qarorlar qabul qilishga qodir bo‘lgan yuksak malakali mutaxassis kadrlar etib tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir. Zero bu global o‘zgarishlar davrida uzluksiz ta‘lim-tarbiya tizimining oldida turgan muhim vazifalaridan biridir. Shu boisdan ham o‘tmishimiz va kelajagimiz uchun qudrat bag‘ishlaydigan milliy iftixor tuyg‘usi bilan biz yangi avlodni tarbiyalashimiz, o‘z milliy davlatchiligimizni mustahkamlab borishimiz lozim.

Globallashuv jarayonlarida axborotga bo‘lgan talablarning oshishi ko‘plab mamlakatlarning, insonlarning o‘z manfaatlarini amalga oshirish yo‘lida “axborot xuruji”ni qurol qilib olishga zamin yaratdi. Bugungi kunda hayot sur‘atlarining jadallik bilan rivojlanishi xalqaro maydonda davlatlarga, xalqlarga, millatlarga hamda boshqa xalqaro huquq subyektlariga erkin hamkorlik qilish imkonini bermoqda. Ammo, hayot sur‘atlarining jadallik bilan rivojlanishining salbiy jihatlari vaqt o‘tgani sayin tobora ko‘zga tashlanmoqda. Hozirgi kunda jahonda yuz berayotgan voqealar qisqa fursat ichida zamonaviy ommaviy axborot vositalari ta‘sirida boshqa davlatlarga tarqalmoqda. Buning oqibatida, mintaqa xavfsizligi va barqarorligiga jiddiy tahdidlar vujudga kelmoqda. Shuningdek, inson ongini zaharlashga qaratilgan, ularning ruhiyatida

agressivlik, tajavvuzkorlik, vahshiylik kabi illatlarni uyg‘otadigan turli yot g‘oyalarning, milliy mentalitetimizga, urf-odat, an’analarimizga umuman mos kelmaydigan odatlar, pornografik axborotlar, turli xil yolg‘on ma‘lumotlar, mish-mishlarni tarqatilayotgani insonni ogohlikka chorlaydi. Shu bilan birgalikda, insoniyat hayotiga qarshi qaratilgan noan‘anaviy tahdidlar: xalqaro terrorizm, diniy ekstrimizm va fundamentalizm, noqonuniy qurol savdosi kundan-kunga milliy, mintaqaviy hamda xalqaro xavfsizlikka xavf solmoqda. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov o‘zlarining “Yuksak ma‘naviyat - yengilmas kuch” kitobida – “ Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko‘proq kuchga ega. Bu masalaning kishini doimo ogoh bo‘lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo‘lsa, buni sezish, ko‘rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta‘siri va oqibatlarini tezda ilg‘ab yetish nihoyatda qiyin”, - degan fikrlari orqali ma‘naviy tahdidlar hamda mafkuraviy tazyiqlar qanchalik kuchga ega ekanligini bayon qilganlar. Darhaqiqat, ma‘naviy tahdidlar qurol-yarog‘ urushlaridan ming marotaba xavfliroq ekanligiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Globallashuvning avj olib ketishi, “Ommaviy madaniyat”ning keng yoyilishi har bir millatga xos bo‘lgan milliy an‘analarning, urf-odatlarning, millat o‘zligining, millat madaniyatining yo‘qolib ketishi xavfini yuzaga keltirmoqda. Millat o‘zligining tanazzulga yuz tutishi millatning yo‘qolishidir. Demak, milliy madaniyat, an‘analar xalqning xalq sifatida, millatni millat sifatida yuksalishi uchun asosiy omildir. Bugungi kunda insonlarning internetdan, ommaviy axborot vositalaridan noto‘g‘ri foydalanishi, har xil zararli axborotlarni qabul qilishi o‘zlari bilmagan holatda diniy ekstremizm, terrorizm, fundamentalizm, fanatizm kayfiyatidagi turli oqimlarga kirib qolishiga, “Ommaviy madaniyat” ta‘siri natijasida yoshlarimiz turli ajnabiy kiyimlarni kiyishga, “o‘z imidj”larini yaratishga, qizlarimizda o‘zbek ayoliga xos bo‘lmagan odatlarning avj olishiga va shu kabi axloqqa zid qoidalarni o‘zlariga tegishli deb hisoblashiga, hali ongi-tafakkuri shakllanmagan bolalarning pornografiyaga ishqiboz bo‘lib qolishiga olib kelmoqda. Bu esa, milliy mentalitetni yo‘qolib borishiga, insonlarning ma‘naviy dunyoqarashi qashshoqlashishiga, o‘zligini unutib, manqurtga aylanishiga zamin yaratmoqda. Ma‘naviy tahdidlarga qarshi kurashish uchun, avvalo, insonlarda turli ma‘naviy dunyosini buzuvchi, zararlovchi buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi kurashish qobig‘ini - mafkuraviy immunitetni rivojlantirish zarur. Shuningdek, ta‘lim-tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olsak, yoshlarimizni ommaviy axborot vositalaridan foydalinishini doimiy nazorat qilib borsak ma‘naviy tahdidlarga qarshi samarali kurashgan

bo‘lamiz. Mamlakatimizda yoshlarga qaratilgan e‘tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Ularning bekor qolishi natijasida, ongida bo‘shliq hosil bo‘lmasligi, dunyoda bo‘layotgan o‘zgarishlarni o‘zining mustaqil fikri bilan tahlil eta olishi, zararli illatlardan holi sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun Yurtboshimiz rahnomoligida yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga doir chora tadbirlar, davlat dasturlari amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz xavfsizligini bugungi va ertangi kunini hal qiluvchi kuchi bo‘lmish o‘sib, unib kelayotgan yoshlarimizni har tomonlama mafkuraviy qurollantirishni zamonaning o‘zi talab qilmoqda. Agar bu tushunchani qurollantirish emas, balki qurollanmog‘i kerak desak, bevosita ularni o‘z holiga tashlab qo‘ygan va ko‘ziga “yaltirab” ko‘ringan narsani o‘zlashtirishga sharoit yaratgan bo‘lamiz. Shunday ekan, yoshlarimizda turli xil yot va zararli g‘oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni yanada rivojlantirish ularni turli xil g‘oyaviy va mafkuraviy tahdidlardan asrash, jamiyatda mafkuraviy immunitet hosil qilish orqali taraqqiyot qonunlarini chuqur aks ettiradigan sog‘lom, barkamol avlodlarni tarbiyalab voyaga yetkazish lozim. Shundagina biz istiqbolda ma‘naviy barkamol insonni, sog‘lom avlodni tarbiyalashga erishamiz. Jamiyatimizning ustuvor vazifalaridan biri ham barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Zero, ma’naviy barkamol insonlargina buyuk kelajakni yarata oladilar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev.Sh.M. .Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma‘naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish - barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T. 15. -T.: O‘zbekiston. 2017. -326 b.

2. Yakubovich,A.H. The emergence of the Syrian crisis and the impact of the exsternal forces on it. Bulletin Social- Economic and Humanitarian Research, 2019 (4(6))

3. Toshbekova. M.X. “Problemы resheniya ideologicheskix ugroz v kontekste globalizatsii” g.Penza. Rossiyskaya Federatsiya “Sovremennoye obrazovaniye” 5 maya 2020/ 73-78- betlar library.ru

4. Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild -T.: O‘zbekiston , 2018. 29-30-betlar.

5. Safoeva. S**.** Globallashuv jarayonining ijtimoiy hayot sohalariga ta‘siri. // Globallashuv jarayonida jamiyatni demokratlashtirishning siyosiy, falsafiy- huquqiy masalalari. -Toshkent: Falsafa va huquq

nashriyoti, 2006, 27-bet.

6. Quchqarov. V. Milliy o‘zlikni anglash va barqaror taraqqiyot T.: Akademiya , 2013 67-bet

7. Zokirov B. G‘arb tamadduni: inqiroz alomatlari // Tafakkur, 2007. №2. - 23 b.

8. Quronov. M Mafkuraviy tahdidlar va yoshlar tarbiyasi T.: Akademiya ,2008.54-bet

9. Po‘latov, Sh.N. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiy- siyosiy vaziyat. Academic Research In Educational Sciences. Volume 1. 2020 468-474 P.

10. Po‘latov, Sh.N. Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma‘rifatga qo‘shgan xissasi.// “SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.

11. Po‘latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta‘limning rivojlanish bosqichlari. //“SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.

12. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.

MUHAMMAD XOLIQULOV,
O‘zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi

GEOSIYOSIY MAFKURALARI O‘RTASIDAGI O‘ZARO QARAMA-QARSHILIKLAR
(KOMUNIZM VA KAPITALIZM MISOLIDA)

G‘oya va mafkuralar kurashi, shuningdek, siyosiy mafkura masalalariga bag‘ishlab yozilgan ilmiy tadqiqotlarni ko‘plab keltirish mumkin. Bular jumlasiga Anderson, Benedict, T.Bouchard, Découvertes Gallimard, Roberts, Endryu va Charles Teylor singari g‘arb falyasuf va siyosatchilarning ilmiy ishlarini misol sifatida keltirish mumkin. Xususan. Charles Teylor tan olish siyosatini targ‘ib qilgan bo‘lsa, Anderson, Benedict esa, siyosiy mafkuralarni maqsadlar va usullarga ajrataadi. Vatandosh olimlarimizdan Q.Nazarov, J.Yaxshilikov, I.Saifnazarov, Sh.Paxrutdinov, N.Muhammadiev, K.Haydarov, S.Choriyev va boshqalarning ilmiy ishlari ham ushbu muammolarni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ilmiy maqolamizda, analiz va sintez, qiyosiy va tanqidiy tahlil, mantiqiy va xronologik izchillik, semantik va pragmatik tahlil usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, komunizm hamda kopitalizmning bir-biridan farqi hamda ularga berilgan tariflar asosida farqlari ochib berishga harakat qilingan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Benedikt Anderson o‘zining millatchilik haqidagi tadqiqoti bo‘lmish “Tasavvur qilingan jamoalar” degan asarida ta’kidlashicha, “Zamonaviy millatchilik madaniyatining timsollari noma’lum askarlarning maqbaralaridan ko‘ra ko‘prog‘i yo‘q... Bunday yodgorliklarning madaniy ahamiyati, masalan, noma’lum marksist yoki noma’lum marksist qabrini tasavvur qilishga urinilsa, yanada aniqroq bo‘ladi. Qulagan liberallar uchun kenotaf (yun. Kenotaphion - bo‘sh qabr). Bema’nilik tuyg‘usidan qochish mumkinmi?”[2-1991:9-10].

Shunday qilib, nuqta aniq ko‘rinadi: halok bo‘lgan liberallar yoki noma’lum marksist qabrlari uchun hech qanday kenotaflar bo‘lmasa-da, millatchilik fidoyilik va qahramonlikka monopoliya emas. Aksincha, shaxslar va guruhlar mavhum ma’noda emas, balki ularni jamiyatni qanday tashkil qilish kerakligi haqidagi tasavvurga ilhomlantirgan siyosiy ideallarni amalga oshirish uchun o‘zlarini qurbon qilishga tayyordirlar.

Darhaqiqat, “noma’lum marksistning qabri” bo‘lmasa-da, u yerda

sosialist qahramonlar qabrlari mavjud. Birinchi jahon urushi arafasida, 1914-yil 31-iyulda Fransiya sosialist-yetakchisi Jan Jauresning o‘ldirilishi “haqiqiy kultning boshlanishi” edi [4-1994:14]. Demak, bu o‘rinda siyosiy mafkuralar urushining asosi sifatida Jan Jaruselning o‘ldirilishi talqin etimoqda.

Yuqoridag fikrlardan ko‘rinib turibdiki, o‘tgan asrda kommunistik va liberalistik siyosiy fikrlari o‘rtasida katta kurashlar bo‘lib o‘tdi. Bugungi kunda siyosiy-mafkuraviy jihatdan yer yuzi turli-tuman qutublarga ajralib bo‘lganligiga yana bir bor guvoh bo‘lmoqdamiz. Kommunizm mafkurasi aralash iqtisodiyot sharoitda mavjud bo‘lgan liberal demokratiyaning ushbu modeliga nazariy va amaliy jihatdan qarama-qarshi edi. Bu yerda ideal, ishlab chiqarish resurslariga jamoaviy egalik qilish orqali sinfiy qarama-qarshilikning chuqur bo‘linishi bartaraf etilgan. Teng huquqli jamiyatga rahbarlik qiluvchi, go‘yoki hamma manfaatlarini ko‘zlab ish yurituvchi yagona partiya tomonidan boshqariladigan rejali jamiyat edi. Oqilona nazorat ostida bo‘lgan bu jamiyat davlatning butunlay yo‘q bo‘lib ketish yo‘lida ekanligi e’lon qilindi (Nikita Xrushchyov KPSS plenimumida shunday e’lon qilgandi), bundan tashqari, uning tenglik, rejalashtirish va resurslardan oqilona foydalanish nuqtai nazaridan G‘arbdan ustunligi uning yakuniy rivojlanishiga olib keladi. U sinfiy tengsizlik va shafqatsiz iste’molchilik tufayli nogiron bo‘lib qolgan G‘arbning “burjua demokratiyasi” dan yuqori demokratiya shakli deb e’lon qilindi.

Millatchilik ham mafkuraviy sahnadan chetda qolmadi. To‘g‘ri, ko‘pgina ma’lumotlarga ko‘ra, ikkinchi jahon urushi tugaganidan keyingi davrda millatchilik milliy-sosializm va fashizm bilan bog‘liqligi tufayli obro‘sizlangan. Darhaqiqat, g‘arbiy kontekstda millatchilik fashistik ko‘rinishi bilan asl qiyofasini ochgan primitivizmga atavistik orqaga qaytish sifatida yozildi. Lekin shuni unutmasligimiz kerakki, millatchilik ikkinchi jahon urushi tugaganidan keyingi davrda mustamlakachilikka qarshi millatchilik va milliy ozodlik harakatlari shaklida yangi hayot kechirdi. Millatchilik shu tariqa o‘zini turli qiyofalar bilan kuchli mafkura sifatida namoyon qiladi va bu uning tabiatiga juda qarama-qarshi siyosiy oqibatlarga ega mafkura sifatida xosdir. Bir tomondan, bu, to‘g‘ri, millatni yuksaltiruvchi va boshqa xalqlarga qarama-qarshilik oqibati bo‘lgan e’tiqodlar yig‘indisi sifatida qaraldi. Shu ma’noda millatchilik aniq bir lagerdadir, liberalizm va sosializmning internasionalistik nuqtai nazariga qarama-qarshi, individualizm mafkuralaridir. Ammo mustamlakachilikka qarshi millatchilik ko‘rinishida u butunlay boshqacha yuzni ochib berdi - uni chap mafkuralar oilasiga joylashtirgan muxtoriyat va milliy o‘z

taqdirini o‘zi belgilash g‘oyalarini ilgari surgan begona hukmronlikdan ozod bo‘lish. Shunday qilib, bu erda an’anaviy mafkuraviy sahna deb ataladigan narsada, fashizm va milliy-sosializm harakatlari bilan oldingi aloqalariga qaramay, millatchilik muhim rol o‘ynadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Shunday qilib, biz yigirmanchi asrning o‘rtalarida dunyoning ikki modeli - birinchisi, liberal-demokratik va kommunistik modellar o‘rtasidagi raqobat tufayli global miqyosda hukmronlik qilgan dunyoning mafkuraviy manzarasini taklif qilishimiz mumkin, ikkinchisi esa marksizmdan mafkuraviy qonuniylikni talab qiladigan, tanqidiy mafkura sifatida marksizmni mafkuraviy buzib ko‘rsatishni o‘z ichiga oladigan manzara. Liberal demokratiyalarga kelsak, ular ikki ma’noda mafkuraviy bo‘lmaganligi tez-tez ta’kidlangan va bu liberal demokratiyalarning yaqin tarixida takrorlanadigan dalil bo‘lib kelgan. Liberal-demokratik jamiyatlar kommunistik yoki fashistik xilma-xil bo‘lsin, totalitar jamiyatlarga qarama-qarshilikda g‘oyaviy bo‘lmaganligi ta’kidlandi. O‘sha so‘nggi jamiyatlarda har kimga bitta g‘oyalar to‘plami yuklangan va davlat hokimiyatiga ega bo‘lgan monopolistik yagona partiya vositasida amalga oshirilgan. Bunday jamiyatlarda shaxsiy sohaga chekinishning o‘zi etarli emas edi, chunki bunday shaxsiy soha yo‘q edi.

Totalitar jamiyatlar jamiyat hayotining barcha jabhalariga singib ketgan yagona va yagona mafkurani doimiy ravishda jamoatchilik tomonidan tasdiqlanishini talab qildilar. Bunday tasdiqlash ommaviy mitinglar shaklida bo‘lib, marksizm-leninizmni barcha akademik yoki badiiy faoliyatda hukmron mafkura me’yorlariga muvofiqligini ko‘rsatishi kerak bo‘lgan mafkura sifatida tan oldi.

Liberal-demokratik jamiyatlar, aksincha, tolerantlik, qonun ustuvorligi va hurmatning standart liberal me’yorlarini qabul qilgan holda, sanksiyalardan qo‘rqmasdan har qanday mafkuraviy pozisiyani tasdiqlash yoki saqlash mumkinligini haqli ravishda ta’kidlashi mumkin edi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev, Sh.M. (2017). Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo’lida yanada hamjihat bo’lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik. “Xalq so‘zi” gazetasi.

2. Anderson, Benedict. Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism. Revised Edition. London: Verso, 1991. –P.9-10.

3. Bouchard, T. J.; McGue, M. (2003). “Genetic and environmental influences on human psychological differences”. Journal of Neurobiology. 54 (1). –P.44-45.

4. Jaurès : la parole et l’acte, Gallimard, coll. “Découvertes Gallimard / Histoire”, 1994. –P.14.

5. J.Ya.Yaxshilikov, N.E.Muhammadiev. Milliy g‘oya-taraqqiyot strategiyasi. -T.: “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi” Fan nashryoti, 2017. –B.49.

6. Roberts, Endryu (2004). Sosializm davlati: terminologiya bo‘yicha eslatma. Kembrij universiteti matbuoti. 63 (2). –P.349-366.

7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. J.II. -T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashryoti, 2006. –B.558.

8. Charles Teylor. The Politics of recognition. “in mulьticulturalism: Examining the politics of recognition. Princeton University press, 1994. –P.23.

SHERZOD KARIMOV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchi

TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA AXBOROTLAR TAHDIDI VA AXBOROT XURUJLARINING YOSHLAR SHAXSIYATIGA TA’SIRI

Bizga ma’lumki kishilik jamiyati paydo bo‘lgandan beri inson axborot olish, tarqatish va undan foydalanishga ehtiyoj sezib keladi. Albatta, qadimda bu jarayon juda sodda ko‘rinishga ega edi. Dunyo taraqqiy etgan sari u murakkablashib, axborotning jamiyatdagi o‘rni yanada oshdi. Hatto, davrimiz ham “Axborot asri” - deb nom olgani bejiz emas. Ayni paytda mutaxassislar har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan birga mudofaa qudrati ham axborot tizimi va texnologiyalariga bog‘liqligini ta’kidlashmoqda. Shu o‘rinda jamiyat hayotining turli sohalarini kompyuterlashtirish, elektron kommunikatsiyalar, elektron ko‘rinishdagi ma’lumotlar bazasi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ijobiy natijalar bilan bir qatorda, yoshlarni xulq atvoriga buzg‘unchilik maqsadida ta’sir etishni ko‘zda tutuvchi yangi “axborot quroli” ning ta’siri kuchayishiga olib kelayotganini aytib o‘tish joiz. Bu esa o‘z navbatida, mamlakatimizning axborot resurslari va telekommunikatsiya tarmoqlarini noqonuniy maqsadlarda ishlatishga qarshi himoya choralarini ko‘rish va ularning benuqson faoliyatini ta’minlashga da’vat etmoqda.

Axborot xurujlari tushunchasi bizning ilmiy adabiyotlarga xalqaro siyosiy maydonlarida bo‘layotgan jarayonlarning tavsiflash uchun kirib kelgan desak xato bo‘lmaydi. Bizning ham siyosiy barqarorigimizni ta’minlash uchun axborot xurujlari haqida tushunchaga ega bo‘lishimiz va turli axborotlarga nisbatan filtr xosil qilishimiz darkor bo‘ladi. Biz qo‘llayotgan “axborot xurujlari” tushunchasi xorij adabiyotlarida “axborot urushi” (*information war)* nomi bilan ko‘p uchrashini ko‘shimiz mumkin. Axborot urushi tushunchasi tarixan ingliz tilidan “axborot va psixologik urush” atamasining tarjimasi bo‘lib, ma’lum bir rasmiy hujjat yoki ilmiy nashr kontekstiga qarab axborot qarama-qarshiligi, yoki „axborot va psixologik urush“ kabi atalishi mumkin [1].

Manoilo A.V. (2005) ta’rifiga ko‘ra, axborot urushi — bu tinch aholiga, hokimiyatlarga va (yoki) qurollanganlarga ta’sir ko‘rsatish orqali siyosiy, iqtisodiy, harbiy yoki strategik darajadagi boshqa maqsadlarga erishishga qaratilgan insoniyat jamoalari o‘rtasidagi qarama-qarshilik jarayoni. Bunda qarama-qarshi tomonning kuchlari, maxsus tanlangan va

tayyorlangan axborot, axborot materiallarini tarqatiladi va o‘z tomonida bunday ta’sirlarga qarshi kurashiladi. “Axborot-psixologik urush” atamasi AQSh harbiy doiralari lug‘atidan olingan.

Jorj Pocheptsovning (2000) ishida, I. I. Zavadskiy (1996) ishiga qisman iqtibos keltirgan holda, axborot urushining hujumkor va mudofaa tarkibiy qismlariga ega bo‘lgan ta’rifi berilgan, bu uning “Arxitekturasini” maqsadli loyihalash va rivojlantirishdan boshlanadi. Qaror qabul qiluvchilarga barcha turdagi nizolarda aniq ma’lumot ustunligini ta’minlaydigan qo‘mondonlik, boshqaruv, aloqa, kompyuterlar va razvedka tizimi deb izohladi. [3]

Jorj Pocheptsov (2000) ishiga ko‘ra, oddiy urush va axborot urushi o‘rtasidagi farqlarni yetti blokga guruhlash mumkin

axborot urushi moslashuvchan qurol arsenaliga va yuqori darajada oldindan aytib bo‘lmaydigan xususiyatga ega;

axborot urushida faqat hududlarni bosqichma-bosqich egallab olish mumkin;

axborot urushida bir xil odamlarni (yoki ularning ongida individual tematik jihatlarni), loyqa mantiqiy ishlarni bir necha marta qo‘lga olish imkoniyati mavjud;

axborot urushida urushayotgan tomonlarni biron bir guruhga mansubligi yoki ma’lum bir ijtimoiy rolni bajarishi asosida ajratib bo‘lmaydi;

axborot urushida dushmanga ta’sir sezilmaydi va xayrixoh shaklga kirishi mumkin;

axborot urushida ta’sirlar tanlab olinadi va aholining turli qatlamlarini turli yo‘llar bilan qamrab oladi;

axborot urushida asosiy xavf — bu ko‘rinadigan vayronagarchilikning yo‘qligi. Natijada jamiyatning himoya mexanizmlari ishga tushmaydi [5].

Insoniyat tarixidagi axborot xuruji hodisasi yangilik emas Rossiyalik tadqiqotchilar A. D. Vasilev va F. E. Podsoxin bu haqda shunday yozadi: “Antik mualliflar davat kampaniyalarini barcha ranglarda tasvirlab, dushmanni ruhiy tushkunlikka solib, shu bilan zaiflashtirgan yoki aksincha — vatandoshlarining ma’naviyatini ko‘targan”. Rus tadqiqotchisini gaplarining isboti sifatida Qozog‘iston Respublikasida 2022 - yilning yanvar oyida tabiiy gazning narxi keskin oshishi sababli ommaviy norozilik boshlanib, keyinchalik bu ko‘plab viloyatlarga tarqalib tartibsizliklarni keltirib chiqargan edi. Bundan tashqari 2022 - yilning 1-2 - iyul kunlari Nukus shahrida O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tizimi, hududiy yaxlitligi va birligiga putur yetkazishga urinish yuz berdi. Konstitutsiyaviy islohotlar bo‘yicha umumxalq

muhokamasiga kiritilgan takliflarga qarshi norozilik bahonasida bir guruh tajovuzkor shaxslar tomonidan davlat hokimiyati organlari binolarini zo‘ravonlik, otishma va kuch ishlatish orqali egallab olishga harakatlar tashkil etilganligi ham buning yorqin isbotidir.

Ommaviy vayrongarchilik va vahshiyliklar chog‘ida Jo‘qorg‘i Kengesi (parlament), Nukus shahar IIBB va Milliy gvardiya boshqarmasi binolariga hujum qilishga urinishlar, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini garovga olish va ularning o‘qotar qurollarini tortib olish, davlat, jamoat va shaxsiy mol-mulkka o‘t qo‘yish, buzish va yo‘q qilish, shahar infratuzilmasiga jiddiy zarar yetkazishga urinishlar kuzatilgan.

Bundan tashqari, hujumlar paytida 107 nafar huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari jiddiy tan jarohati olgan, jumladan ularning 23 nafari og‘ir ahvolda qolmoqda. Davlat organlarining jami 270 nafar xodimi turli darajadagi tan jarohatlar oldi [6].

Bu hodisalarning olovlanishiga asosiy omil sifatida ijtimoiy tarmoqlar orqali uzatib borilgan axborotlar va targ‘ibotlar sabab bo‘lgan.

Tarixda axborot xurujlarini namoyon bo‘lishi Qrim urushi davrida (1853—1856) ham qayd etilgan, o‘shanda Sinop jangidan so‘ng ingliz gazetalari jang haqidagi xabarlarda ruslar dengizda suzayotgan yarador turklarni otib tashlaganliklarini yozishgan [7]. Keyingi yili axborot urushining yangi sababi inglizlar tomonidan soxtalashtirilgan “Xankoga qarshi qirg‘in” bo‘ldi. Rossiyalik ofitser Isidor Sverchkov tomonidan Britaniya parlamentariylarining da’vo qilinishi (aslida bu ingliz kemasidan qurolli qo‘nish edi) [8] Axborot urushi 1914—1918-yillardagi Birinchi jahon urushi davrida, jumladan, Rossiya frontida ham faol olib borilganligi ham bunday urushlar hech qanday jamiyatni chetlab o‘tmaganiga yorqin dalildir [9].

Biroq, shunday bo‘lsada axborot xuruji tushunchasi nisbatan yaqinda paydo bo‘ldi — ijtimoiy-siyosiy (qarshi) harakatning axborot usullari nihoyatda keng tarqalib, ijtimoiy tadqiqotlar ma’lum yutuqlarga erishdi. Shunday qilib, 1970-yilda, Sovuq urush avjida, kanadalik media tadqiqotchisi M. McLuhan ta’kidlagan edi: “Uchinchi jahon urushi harbiy va fuqarolik ishtiroki o‘rtasida bo‘linmasdan, partizanlarning axborot urushidir”. Vasilev — Podsoxin, bizning davrimizning axborot urushlari haqida gapirar ekan, ular rus ijtimoiy tadqiqotchisi A.L.Zinovyev — “axborotni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish vositalarining jadal rivojlanishi, aloqa vositalarining rivojlanishi, odamlar massasini manipulyatsiya qilish vositalarining rivojlanishi va odamlarni boshqarishning boshqa omillarini” nazorat qilish qobiliyatining o‘sishi omillari sifatida qayd etadi. Vasilev-Podsoxin talqinida Zinovyevning

fikriga ko‘ra, aksiya qilishning axborot usullaridan keng foydalanishga hissa qo‘shadigan yana bir omil ommaviy madaniyatning odamlar turmush tarzini standartlashtirishga ta’siri edi [10].

Globollashuv sharoitida demokratik jamiyatga, ayniqsa yoshlarga turli ommaviy axborot vositalari orqali o‘z salbiy ta’sirini o‘tkazishga intilayotgan «ommaviy madaniyat», «terrorizm», «diniy ekstremizm» kabi zararli oqimlar, g‘oyalarning mazmun va maqsadi, mohiyatini fosh qilish lozimigi ham axborot madaniyatni shakllantirish zaruriyatini vujudga keltiradi. Ta’kidlash lozimki, bunday holat bevosita mamlakatimizda huquqiy demokratik davlatning taraqqiyoti va fuqarolik jamiyatining qaror topishi, rivojlanishi, taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Alohida qayd qilish mumkin: hozirgi davrda shaxs faoliyatidagi muhim masalalardan biri uning demokratik xarakterdagi siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini ta’minlash, o‘z huquqiy imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishi lozimligi ham axborot madaniyatining yuksalishini ta’minlash, jamiyat rivojlanish jarayonlarini o‘zida aks ettiruvchi informatsion bazani vujudga keltirish bilan bog‘liqdir. Jamiyat barcha jabhalarining modernizatsiyalashuvi unda inson omiliga alohida e’tibor berish lozimligini talab qiladi va shu munosobat bilan shaxs informatsion madaniyati shakllanganligi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy amaliyotda ham namoyon bo‘ladi.

Axborot xuruji hokimiyat tomonidan yaratilgan tuzilmalar ham, alohida jamoalar, guruhlar va shaxslar ham qatnashishi mumkin. Axborot urushi uzluksiz va nafaqat qurolli kurash paytida, balki tinchlik davrida ham olib boriladi. Axborot urushi axborot qarama-qarshiligining eng qiyin turidir [11].

Qoida tariqasida, axborot xurujlari usullari noto‘g‘ri ma’lumotlarni to‘ldirish yoki ma’lumotni o‘zi uchun foydali bo‘lgan tarzda taqdim etishdir.

Globallashuv sharoitida mintaqalar va mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalar va o‘zaro ta’sirlar kuchayib boraverar ekan, unda yoshlar ma’naviyati, ayniqsa, ularning axloqiy qiyofasini shakllantirish zamonaviylikni tarixiylik bilan uyg‘unlashtirishni taqozolaydi. Sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga qanchalik qarshilik ko‘rsatmaylik inson erisholmagan manzil doimo qiziqarli hisoblanadi. Zero globallashuv jarayonining asosiy sub’ekti va harakatlantiruchi kuchi muayyan g‘arazli maqsadlarni ko‘zlar ekan, milliy ma’naviyat va qadriyatlarga tayangan an’anaviy tafakkur tarziga zarba berish va yoshlarni g‘arbona andozadagi qolipga solish va ular ustidan hukmronlik qilishga intilaveradi. Shunday global ta’sirlar telekommunikatsiyalar, internet tizimidagi saydlar orqali yoshlarimiz

ongi va ma’naviy- axloqiy qiyofasiga kuchli salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Davlatimiz madaniy - ma’naviy mustaqilligini ta’minlashda sharqona odob, axloq, milliy qadriyatlar, urf - odat va an’analarimiz asosida tarbiyalash nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat rivojlanib borgan sari uning axloqiy tizimi ham o‘zgarishlarga ehtiyoj sezadi. Yurtimizning hozirgi rivojlanish bosqichida yoshlarimizning ongi, dunyoqarashi, ma’naviy-axloqiy jihatlarining shakllanishida bunday xatolarga yo‘l qo‘yish mumkin emas. Demak, hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy - iqtisodiy va siyosiy hayotida ijtimoiy - gumanitar va boshqa fanlar oldida ulkan vazifalar turibdi. Bu vazifalar esa, yoshlarni ma’naviy kamolot sari etaklash, axloqiy jihatdan etuk kishilar qilib tarbiyalashdir. Xulosa qilib aytganda, globallashuvni to‘siq qo‘yib, chegara tortib ushlab bo‘lmaydi. Hindistonlik mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining quyidagi so‘zlarida: “Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o‘tiraolmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo‘lib uyimni ag‘dar-to‘ntar qilib tashlashi, o‘zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman” Shuning uchun ham, milliy istiqlol g‘oyasi bugungi globallashuv jarayonida uyimizni, hayotimizni toza havo bilan ta’minlab, ayni paytda. “dovullar”dan saqlash omili ekanligini anglashimiz zarur.

Axborot globallashuvi va yoshlar ma’naviyati, har qanday axborot oqimining yoshlar ma’naviyatiga ta’siri, zararli axborotlar tahdidi xususida so‘z yuritganimizda avvalo bu masala zamirida jamiyatimizning, davlatimizning milliy xavfsizligi yotganini nazarda tutishimiz lozim. Zero, bu ikki masala mavzuning dolzarb nuqtasiga aylanadi: birinchisi axborot oqimi-mafkuraviy tahdid; ikkinchisi - yoshlar ma’naviyati, ya’ni turli xildagi axborotlarga nisbatan yoshlarimizda shakllangan immunitet masalalaridir.

Gap shundaki, axborot oqimi o‘z mohiyatiga ko‘ra ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Uning qanchalik yoshlarimizga ta’sir qilishi uning oldiga qo‘yilgan maqsad sari puxta yo‘naltirilganligiga bog‘liq. Tabiiyki, axborot oqimining salbiy ta’siri esa ularda shakllangan mafkuraviy himoya tizimining mukammalligi omiliga bog‘liq. To‘g‘ri, avvalo hammada ham bunday qobiliyatlar birdek rivojlangan emas. Ammo, bu qobiliyatlarni shakllantirish, idrok ko‘nikmalarini hosil qilish, inson tug‘ilganidan to shaxs sifatida shakllanguniga qadar davom etadi. Xususan, bunda ma’lum bir yoshning ko‘p kitob o‘qishi, o‘z mamlakati tarixini o‘rganishi, urf-odatlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiya topishi, bir so‘z bilan aytganda, unda milliy e’tiqod - milliy faxr

shakllanishi muhim o‘rin tutadi. O‘z millati qadriyatlarini qadrlagan, o‘z tarixini bilgan, Vatanga e’tiqodi shakllangan yoshlarning axborot oqimlarining ta’siriga tushib qolish ehtimoli kam. Chunki bunday yoshlarda o‘ziga xos psixologiya va masalaga o‘ziga xos yondashuv paydo bo‘lgan bo‘ladi. U har qanday axborot zamirida ma’lum bir maqsadni o‘rgana boshlaydi.

Bugungi zamon globallashuvi jarayonida kimki axborotga egalik qilsa, o‘sha dunyoga hukmronlik qiladi, degan ibora bejiz paydo bo‘lgani yo‘q. Darhaqiqat, hozirgi kunda yadro quroli ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda 20 ga yaqin davlatda harakatlar davom etayotgan bo‘lsa, 120 ga yaqin davlat esa axborot xurujlarini uyushtirish ustida ish olib bormoqda. Ular buning uchun hatto million-millionlab dollar mablag‘ sarflashdan ham tap tortishmayapti.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ma’naviy tahdidga, yoshlar ongini egallashga qaratilgan axborot xurujlari avj olsa olaptiki, aslo pasaymayapti. Ba’zi bir g‘arazli kuchlar tomonidan bu borada turli usul va uslublardan foydalanib kelinmoqda. Ayniqsa, axborot xurujlarining yolg‘on axborot tarqatish, ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish, milliy-ma’naviy qadriyatlarni yemirish, mentalitetga mutlaqo yot bo‘lgan begona qadriyatlarni targ‘ib etish, halqning tarixiy xotirasini buzish va o‘zgartirish, kiberterrorizm kabi turlari keng tarqalmoqda. Eng achinarlisi, yosh avlodning 90 foizi asosiy axborot manbai sifatida “o‘rgimchak to‘ri” deb nom olgan internet tarmog‘iga murojaat qilmoqda. Albatta, bu tarmoqning qulay axborot manbai ekani, istagan narsangizni undan bir zumda topa olishingiz mumkinligi, soniyalar ichida dunyoning narigi chekkasi bilan bog‘lanish imkoniyati mavjudligi muhim omil. Shu bilan birga, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining bu cheksiz in’omidan o‘z g‘arazli manfaatlari yo‘lida foydalanuvchilar soni ham ortib borayotganidan ko‘z yuma olmaymiz. Axborot sohasi liberallashayotgan bir paytda, uzoq va yaqin mintaqalardagi turli xil siyosiy, mafkuraviy va boshqa kuchlar o‘zlarining chirkin manfaatlari yo‘lida ommaviy kommunikatsiya vositalaridan foydalanib, axborot erkinligini suiiste’mol qilib, axborot tahdidlari orqali hali ongi va hayotiy qarashlari shakllanib ulgurmagan farzandlarimizni chalg‘itish, ularning ongi va qalbini egallash yo‘lidagi harakatlarni kuchaytirayotgani sir emas.

Shunday ekan, bugungi yoshlarimiz hamma sohaga qiziquvchan, yangiliklarni bir zumda o‘zlashtirib oladigan, har qanday axborotni tez qabul qiladigan xislatlarga egaligini hisobga olib, ularni turli manbalardan, yot maqsadlarni ko‘zlab tarqalayotgan axborotlardan munosib himoyalay olishimiz darkor.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Richkov S. Yu. “Pobudit vse evropeyskie dvori k tomu, chtobi oni … vinesli Rossii mejdunarodniy prigovor”. Angliyskaya provokatsiya na mise Xanko v period Krimskoy voyni. // Военно-исторический журнал. — 2022. — № 5. — S.50—55Sh.
2. G‘aniyev S. K. Karimov M. M., Tashev K. A. Axborot Xavfsizligi Toshkent 07
3. S.S. Qosimov Axborot texnologiyalari xaqida o‘quv qo‘llanma Toshkent 07
4. G‘aniyev S.K.Karimov M.M. Hisoblash tizimlari va tarmoqlarida axborot xavfsizligi TDTU 03 4. http://www.kaspersky.ru/
5. http://www.viruslist.ru/
6. https://oz.sputniknews.uz/20221128/qoraqalpogistondagi-tartibsizliklar-boyicha-sud-boshlandi-30300721
7. http://www.citforum.ru/internet/infsecure/its2000_01.shtml/
8. „The Crimean War 1854/56 and Australian Involvement“. 23-may 2008-yilda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 12-noyabr 2011-yil www.nasa.gov/statistics/
9. “Об информационной войне и Русском фронте Первой мировой / btgv.ru. 16-mart 2021-yilda asl nusxadan arxivlangan.
10. Richkov S. Yu. “Pobudit vse evropeyskie dvori k tomu, chtobi oni … vinesli Rossii mejdunarodniy prigovor”. Angliyskaya provokatsiya na mise Xanko v period Krimskoy voyni. // Военно-исторический журнал. – 2022. – № 5. – S.50 – 55.
11. www.security.uz/

IV SHO‘BA.

YOSH AVLODNI MAFKURAVIY TAHDIDLARDAN HIMOYALASH MEXANIZMLARI

QUDRATULLA OMONOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy
ishlar bo‘yicha birinchi prorektor
filologiya fanlari doktori, professor

TALABA – YOSHLARNI YURTSEVARLIK RUHIDA TARBIYALASH BORASIDAGI ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA AYRIM MULOHAZALAR

2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida yoshlar bilan ishlash, ma’naviy va ma’rifiy masalalar davlat siyosatining ustivor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Shuningdek, “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasini ishlab chiqish masalasi ham qo‘yilgan [1]. Shu jihatdan qaralsa, geosiyosiy keskinlik taranglashgan hozirgi tahlikali sharoitda yoshlarning yurtsevarlik tuyg‘usi, vatanni himoya qilish ruhiyati, yurt sha’ni uchun bir musht bo‘lib birlasha olish hissini milliy manfaatlarimizga uyg‘un ravishda o‘stirib borish nihoyatda muhim sanaladi.

Shu o‘rinda yoshlarning elsevarlik ruhiyati, vatanparvarlik qiyofasi, ona tuprog‘ini muqaddas deb bilishi xalqimiz tafakkurining tarixiy ildizlariga hamohangmi, bu yo‘nalishdagi ishlarimizning sifati qay darajada, deya savol qo‘yadigan bo‘lsak bu so‘roqlarga “ishlarimiz qoniqarli” ma’nodagi ijobiy javobni olishimiz qiyin. Buning singari adog‘i yo‘q savollar har qanday uyg‘oq tafakkurli yurt oydinini o‘ylantirishi tabiiy.

Keling, bu boradagi vaziyatga ochiq ko‘z bilan xolis baho beraylik. Bugunning yoshlarida “vatanparvarlik”, “yurtni muqaddas bilish”, “qutlug‘ zamin” tushunchalariga nisbatan bayram yoki tadbirlarda jaranglaydigan “balandparvoz so‘zlar” degan fikr shakllangan. Aslida ushbu qarashlarni paydo bo‘lishiga yoshlar bilan ishlash sohasida shug‘ullanuvchi mutaxassislar, soha egalari - o‘zimiz ko‘proq sababchimiz.

“Vatanparvarlik”, “yurtni sevish” kategoriyalari katta ilmiy, ma’rifiy, ijtimoiy, tarixiy bilimlar majmuasi ekanligi unutilib, asosan, Vatan himoyachilari kuni qo‘llaniladigan birlikka aylanib qolgandek. Buning ustiga yoshlarimizda mamlakatdan chetga ketish (“surish”) kayfiyati yuqori deya bong urib, ularni ayblashdan nariga o‘ta olmayapmiz. Vatanparvarlik haqida uzoq ma’ruza qilamiz-u, biroq, aytganlarimizga o‘zimiz ham amal qilmaymiz. Na o‘zbeklik sha’nini himoya qilishda, na qadriyatlarga

e’tiborda, na yurt tarixini bilishda, na ajdodlar merosiga hurmat ko‘rsatishda ularga o‘rnak bo‘lyapmiz. Eng achinarlisi, o‘g‘il – qizlarimizda yurtsevarlik tuyg‘usi va qadriyatlarga hurmat tafakkurini milliy o‘zanga solishda, ushbu yo‘nalishdagi ma’rifiy kontentlarni yaratishda bir tanu bir jon bo‘lib harakat qilmayapmiz. Agar shu yo‘sinda davom etadigan bo‘lsa, ertaga barcha harakatlarimiz qumga suv qo‘ygandek izsiz ketishi, hattoki yurtning kelajagi ham so‘roq ostida qolish xatari mavjud.

Kezi kelganda vatanparvarlik tuyg‘usini yoshlar orasida keng yoyish, uni yoshlar ergashadigan trend darajasiga chiqarish bilan bog‘liq ayrim mulohazalarga to‘xtalsak.

Birinchi galda yurtsevarlik tafakkuri o‘z xalqi, ona tili va uning qadriyatlariga ongli ravishda muhabbat ko‘rsatish, yurtga bog‘liqlik hissi, unga sodiq bo‘lish, zarurat tug‘ilsa o‘z jonini fido qilishni anglatuvchi ijtimoiy tuyg‘u ekanligini [2], bu hissiyot va tafakkur tizimli, uzluksiz ravishda shakllantirilib borilishi, ajdoddan avlodga o‘tib borishi, chuqur ilmiy asoslangan fanlararo kompleks bilimlar majmuasi ekanligini anglanmog‘i kerak. Bu yo‘nalishdagi ilmiy ishlarini bir tizim asosida aniq maqsadni belgilab, natijaga yo‘naltirilgan tadqiqot loyihalarni amalga oshirish zarurati bugunning eng muhim vazifasi o‘laroq maydonga chiqmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimiz yoshlarini elsevarlik tafakkurini mustahkamlash, ajdodlar merosiga ehtirom ko‘rsatish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Ular ichida eng muhimi Adiblar xiyoboni doirasidagi ishlardir. Yurtboshimizning tashabbusi bilan 2020 yil 20 mayda pandemiyaning eng og‘ir pallasida Adiblar xiyobonini ziyorati chog‘ida millat tafakkuri tarixida katta o‘rin tutgan mutafakkirlarni oliy o‘quv yurtlariga biriktirish, ular nomidagi talabalar uchun stipendiyalarni joriy qilish, umuman, adiblar merosini o‘rganish, umuman, vatanparvarlikning eng muhim bug‘unlari bilan bog‘liq mutloqo yangicha konsepsiyani ilgari surgan edilar [3].

Adiblar merosini o‘rganishga qaratilgan ushbu harakatlar nihoyatda to‘g‘ri bo‘lganligini vaqtni o‘zi ko‘rsatdi. Hozirgi kunda Toshkent shahridagi 24 ta OTMda o‘zlariga biriktirilgan adiblar bilan bog‘liq ishlar katta ma’rifiy to‘lqinga aylandi [4]. Birgina men faoliyat yuritayotgan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetiga biriktirilgan hazrat Ogahiy bilan bog‘liq ajdodlar merosini o‘rganish yo‘nalishi universitetimizning bosh ma’rifiy yo‘nalishi sifatida katta bir harakat o‘laroq deyarli barcha talabalarni qamrab olgan. Hazrat Ogahiy merosiga bag‘ishlangan talaba va o‘qituvchilarimizning 15 yaqin kitobi chop etildi. “Ogahiy” hujjatli filmi ishlandi. Ogahiyshunoslarning xalqaro kengashi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. 20 ga yaqin talaba “Ogahiy nomidagi maxsus stipendiya”ga sazovor bo‘ldi. Universitet jamoasi “Ilhom” mukofoti tanlovida 2 o‘rinni qo‘lga

kiritdi. Eng asosiysi, Adiblar xiyoboni bilan bog‘liq ishlar vatanparvarlik yo‘nalishining eng muhim bug‘uni ajdodlar merosiga hurmat tuyg‘usini o‘stirishga katta turtki bermoqda.

Talaba - yoshlarni yurtsevarlik ruhida tarbiyalash borasidagi ishlarni takomillashtirish borasidagi galdagi vazifa, bizning ko‘zqarashimizcha, Adiblar xiyoboni konsepsiyasiga o‘xshash ikkinchi katta bir to‘lqinga start berish kerak. Bu to‘lqin davlatchiligimiz tarixida favqulodda iz qoldirgan hukmdor va sarkardalar hayoti, merosi, vatan himoyasidagi qahramonliklari bilan bog‘liq bo‘lsin. Bunda davlatchiligimizning ilk tamal toshlarini qurgan hukmdorlardan boshlab to o‘rta asrlarga qadar Turon-Turkiston davlatchiligini yuksaltirgan hoqonlar – Alp Er To‘nga, Madayxon, Botir tangriqut, Bumin xoqon, Bilga xoqon, To‘nyuquq, Ismoil Somoniy, Sotiq Bug‘roxon, Mahmud G‘aznaviy, Sulton Saljuq, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Shohruh Mirzo, Muhammad Shayboniyxon, Zahiriddin Bobur, Abdullaxon II, Imomqulixon, Abulg‘ozi Baxodirxon singari tarixiy qahramonlar o‘rin olgan “Xoqonlar xiyoboni” majmuasi shaklida tashkil etilsa. Bu katta g‘oya orqali yoshlarni vatanga muhabbatini oshirish, turkiy ildiz birligi g‘oyasini ilgari surish, elu yurtga sodiqlik, umuman, tarixga yangicha qarash konsepsiyasi asosida mafkuraviy birlikni targ‘ib etish mumkin bo‘ladi.

Shuningdek, ushbu majmua Yangi O‘zbekiston bog‘ida bo‘lsa hamda tarixiy qahramonlar OTMlarga biriktirilsa, ularni o‘rganish bo‘yicha tizimli ishlar tashkil etilsa, tarixni qorong‘u sahifalari oydinlashadi, yoshlarda o‘z elining tarixiy qahramonlari haqida muhabbat va bilimi yuzaga keladi.

Umuman, vatanparvarlik bilan bog‘liq loyihalarda O‘zbekiston yolg‘iz jug‘rofiy tushuncha emas, u nihoyatda qadim kezlardan buyon ota bobolarimizning betakror madaniyati hamda o‘ziga xos tamaddunini aks ettiruvchi makon o‘laroq dunyo taraqqiyotida yuksak mavqega ega zamin ekani, olimlarning ilmiy kuzatuvlariga ko‘ra ona tuprog‘imiz tarixan dunyoning eng yetakchi siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, mafkuraviy markazlaridan biri bo‘lgani, bu yerada o‘zbekning yovqur o‘g‘il-qizlari, dunyo so‘ragan alp xoqonlari, vatan erki uchun kurashgan, bu yo‘lda o‘z jonidan kechgan xalq qahramonlari yashaganligi g‘oyasi aks etmog‘i kerak.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://lex.uz/docs/5841063
2. https://cyberleninka.ru/article/n/patriotizm-ponyatie-i-vidy/viewer
3. https://president.uz/uz/lists/view/3578
4. https://lex.uz/docs/4966477

FAZLIDDIN RAVSHANOV,
Renessans ta'limi universiteti professori,
siyosiy fanlar doktori

YOSHLAR MA'NAVIYATI VA ISTIQBOL

Hozirgi davrda jahon taraqqiyotida chuqur global o'zgarishlar namoyon bo'lmoqda. Asr arafasi va boshlarida insoniyat taqdirida muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir qator ijobiy evrilishlar yuz berdi. Masalan, bashariyatni qo'rquvda tutib kelgan, global urush xavfining asosi bo'lgan bipolyar (ikki qutbli) tizim va "sovuq urush munosabatlari" tugadi, milliy ozodlik xarakatida yangi bosqich va yangi mustaqil davlatlar qaror topdi, totalitarizm barham topdi, polipolyar (ko'p qutbli) dunyo sari tendensiyalar kuchayib, yangi taraqqiyot yo'llari va imkoniyatlari rivojlandi, inson bilimi va tajribasini ommalashtiruvchi axborot almashinuvi yuksaldi, texnologiya yanada rivojlandi va hokazo.

Ammo bu taraqqiyot o'ziga xos salbiy tendensiyalarni ham yuzaga chiqarmoqdaki, ularni bartaraf etish yoki oldini olish borasida qator muammolar yuzaga kelmoqda. Avvalo, o'zini yuksak rivojlangan hisoblovchi qator davlatlar polipolyar (ko'p qutbli) dunyo sari taraqqiyotni xazm qila olmayapdilar va monopolyar (bir qutbli) dunyo shakllantirish va yetakchilik qilishga har qanday yo'llar bilan intilmoqdalar. Bu yo'lda hozirgacha erishilgan xalqaro huquqiy, demokratik va diplomatik qoida va qonunlar surbetlarcha suiiste'mol qilinmoqda. Agressiv millatchilik va milliy ayirmachilik borgan sari kuchaymoqda. Mavjud rivojlanish imkoniyatlariga egalik qilish va boshqalarni o'z ta'sir doirasida boshqarish maqsadlari tobora oshkora va tahdidli tus olayapdi[1].

Shunday beayov zamonda yoshlarimiz ma'naviy va ma'rifiy dunyoqarashi davr shiddatiga javob bera oladimi, yo'qmi degan savol tug'uladi. Afsuski, bugun yoshlar dunyoqarashini vatan taraqqiyoti, manfaatlari yo'lida yaxlitlashgan deya olmaymiz. Albatta dunyo sarhadlarida o'zbek yoshlariga nisbatan bo'lgan ijobiy yoki salbiy munosabatlarga yoshlarimiz tomonidan javob berishlar soni borgan sari ortmoqda va bu jipslikning muhim omili hisoblanadi. Lekin, hozirgi vaqtda yoshlarimizni ma'naviy va ma'rifiy dunyoqarash nuqtai nazaridan quyidagi guruhlarga mansublik parchalab turibdi:

o'z hayotini fundamental diniy qadriyatlar asosida qurishga intiluvchilar;

milliy madaniyat, ma'naviyat va ruhiyatni G'arb an'analari asosida

zamonaviylashtirish, shunday turmush tarzi va dunyoqarashini ustuvor ko'ruvchilar;

siyosiy, huquqiy ong, dahldorlikka, mamlakatda, jahonda yuz berayogan o'zgarishlarga [2] bee'tibor, mayda ishlardan omaddan kutib yashovchilar;

bilim, kitobdan uzoq, internet, turli tuman audio, video vertual ma'lumotlar va axborotlarga oshno, maqsadsiz tavakkalchilar.

Bugungi kunda bularning yoniga xorijiy universitetlarga keng yo'l ochilishi, mamlakatimizda xususiy universitetlarning ko'payishi bilan diplom uchun qatnaydiganlar guruhi ham qo'shildi, deyish mumkin.

Buning sabablari nimada? Afsuski, boshqaruvda ham, jamiyatda ham ma'naviy salohiyat talab darajasida emas. Oilada, ta'lim muassasalarida, ommaviy tarbiyaviy ishlarda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaga hali ham yengil-yelpi, ikkinchi darajali masala deb qaraladi. Masalaga oid tadbirlar real holatni hisobga olmagan holda, natijalarsiz, hisobot uchun o'tkaziladi. Hanuzgacha yoshlarning qanchasi qanday ma'naviy dunyoqarash guruhiga mansubligi hisob-kitob qilmay kelinmoqda. Natijada ma'naviy va ma'rifiy tarbiyaning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, shunga ko'ra ishlarni rejalashtirish, chora-tadbirlar ko'rish oqsamoqda. Oila-mahalla-maktab-oliy ta'lim-ishlab chiqarish" muvofiqlik tizimi amalda hali ham ishlamayapdi.

Bular amaldagi holatlar. Biroq, hali kelajakda bizni yoshlarning ma'naviy dunyoqarashi shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bir qator muammolar kutib turibdi. Bu muammolar yoshlar tarbiyasi, ularning axloqiy, madaniy va ma'naviy rivojlanishiga katta ta'sir qiladi. Quyida shunday asosiy muammolarning ayrimlarini ko'rib o'taylik:

Internet va ijtimoiy tarmoqlar ta'siri: hozirda bu ta'sir doirasidagi yoshlar qatlami shakllanib bo'ldi. Ijtimoiy tarmoqlarda esa yoshlar o'rtasida mafkuraviy buzilishlar, madaniyatsizlik, yomon odatlarni targ'ib qiluvchi kontent borgan sari ko'payib bormoqda [3]. Bu yoshlarning ma'naviy dunyoqarashiga salbiy ta'sir qilib, milliy va madaniy qadriyatlardan butunlay chetlashishiga olib keladi.

Chet el madaniyatining salbiy ta'siri: yoshlar turmush tarzida yo g'arbcha, yo diniy niqobdagi yaqin sharqcha turmush tarziga o'tmoqda, bu yerda milliy identlik unsurlari yemirilishi boshlangan. G'arb yoki Yaqin sharq madaniyatining tarqalishi natijasida mahalliy an'analar va qadriyatlarga nisbatan manfiy qarashlar tobora o'sayapdi. Yoshlar ayrim hollarda milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmatini yo'qotib, boshqa madaniyatlarga haddan tashqari moyillik bilan qarashi milliy identlikka katta zarba bo'ladi [4].

Oilalarda ma'naviy tarbiyaning kamayishi: oila jamiyatning asosiy

tayanchlaridan biri sanaladi, ammo zamonaviy yosh oilalarda bolalarga to‘g‘ri ma’naviy va axloqiy tarbiya berishga yetarli e’tibor qaratilmayapti, chunki ularning o‘zlari yetarli ma’naviy va axloqiy bilim olmagan. Bu esa yoshlarning shaxsiy dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ta’lim tizimidagi muammolar: maktab va oliy ta’lim muassasalarida yoshlarning ma’naviy rivojlanishiga yordam beradigan darslar va faoliyatlarga yetarlicha e’tibor berilmasligi, muvofiq ravishda yoshlarning ham ma’naviy bilim olishga urinmasligi natijasida o‘sib kelayotgan yangi avlod milliy qadriyatlardan yiroqlashib, boshqa manbalardan ma’lumot olishga harakat qiladi. Hozirning o‘zida xorijda o‘qish, xorijda ishlash va xorijda yashashga intilish shu hodisaning kurtaklari bo‘lishi mumkin.

Mehnat bozoridagi noaniqliklar: viloyatlarda qishloqlar yetarli sanoatlashtirilmayapdi. Bitirib borayotgan yoshlarni to‘plab jamoalashtirish amalga oshirilmayapdi. Mehnat bozorida ham xorijda, ham mamlakat ichida yoshlarning ish topishiga to‘sqinliklarning ko‘payishi yoshlarda ma’naviy tushkunlikka sabab bo‘ladi. Bu esa ularning ma’naviy rivojlanishini pasaytirib, salbiy fikrlash va yomon odatlarga moyillikni oshiradi, Ona-Vatan, xalq qadrini pasaytiradi.

Jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizliklar va korrupsiya: ijtimoiy adolatsizlik va korrupsiya yoshlarda milliy qadriyatlarga va davlat tizimiga nisbatan ishonchsizlikni kuchaytiradi. Bu yoshlarning ijobiy dunyoqarash va ma’naviy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Madaniy tadbirlarning yetarli emasligi: yoshlar uchun maxsus madaniy va ma’naviy tarbiyaga yo‘naltirilgan tadbirlarning ijtimoiy reallikka va istiqbol maqsadlarga qaratilmagani, yetarli, sifatli va zamonaviy darajada emasligi ularni boshqa nomuvofiq yoki salbiy madaniyatlarga moyil bo‘lishga olib kelishi mumkin [5].

Yaqin kelajakda bunday muammolarni hal qilish uchun bugun yoshlar bilan ishlashda aniq va samarali choralar ko‘rilishi zarur. Jumladan, ta’lim, oila, davlat, jamoat, ixtisoslashgan va xususiy tashkilotlarning birgalikdagi harakatlari, internet va ijtimoiy tarmoqlardagi targ‘ibot ishlarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Xo‘sh, bugun O‘zbekistonda davlat va jamoat tashkilotlarida ma’naviy soha amaliyoti va ularning yoshlar ma’naviyatidagi o‘rni nimada ko‘rinmoqda? Albatta, ularning yoshlar ma’naviyatini shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o‘ynayotganini inkor qilib bo‘lmaydi. Bu tashkilotlar turli tadbirlar, dasturlar va tashabbuslar orqali yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini, axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash va ularni ma’rifatli qilib tarbiyalashga yo‘naltirilgan faoliyat olib

boryapdilar. Quyida bu borada faoliyat yuritayotgan asosiy davlat va jamoat tashkilotlarining yoshlar ma’naviyatidagi o‘rni va amaliy ishlariga bir nazar tashlaymiz:

O‘zbekiston Respublikasi Ma’naviyat va ma’rifat markazi: bu markaz yoshlarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga katta e’tibor qaratadi. Ma’naviy tarbiya, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish va saqlash, yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishga yo‘naltirilgan ko‘plab uchrashuvlar, tadbirlar tashkil qiladi, materiallar tarqatadi. Markazning turli yo‘nalishlardagi ishchi guruhlari yoshlar bilan bevosita ish olib boradi.

Yoshlar ishlari agentligi: u yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida tuzilgani aniq. Tashkilot yoshlarning ijtimoiy, madaniy va ma’naviy rivojlanishiga qaratilgan loyihalar va dasturlar ishlab chiqadi, amalga oshiriladi yoki hamkorlik qiladi. Agentlik faoliyati doirasida yoshlarning sportga, ta’limga, tadbirkorlikka va ma’naviy rivojlanishga qiziqishini oshirish maqsadida turli yo‘nalishlarda ish olib boriladi.

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi: bu ham yoshlar tarbiyasida muhim tashkilotlardan biri hisoblanadi. Ittifoq yoshlar o‘rtasida ma’naviyat, axloq va bilimlarni targ‘ib qilish bilan birga ularni ijtimoiy faollikka undaydi. Ittifoq tashabbusi bilan yoshlar orasida turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, forumlar, uchrashuvlar o‘tkaziladi.

O‘zbekiston musulmonlari idorasi: u yoshlarning diniy va ma’naviy rivojlanishida muhim tashkilot hisoblanadi. Bu idora orqali yoshlarga islom dinining tinchlikparvarlik, ezgulik va odob-axloq qoidalari haqida ta’lim berishga qaratilgan ishlar amalga oshiriladi. Masjidlarda yoshlarga diniy-ma’rifiy tarbiya va maslahatlar beriladi.

Madaniyat va san’at muassasalari: madaniyat va san’at markazlari va muassasalari orqali yoshlarning madaniy rivojlanishiga katta e’tibor qaratiladi. Madaniy tadbirlar, ko‘rgazmalar, teatrlar va konsertlar orqali yoshlarning ma’naviy boyishga yordam beriladi. Bu muassasalar milliy madaniyat va qadriyatlarni yoshlar orasida keng targ‘ib qiladi.

Ta’lim muassasalari: maktablar va oliy ta’lim muassasalari yoshlarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishida asosiy o‘rin tutadi. Tarix, adabiyot, ma’naviyat darslari yoshlarga milliy qadriyatlarni o‘rgatish, ularda yurtga va millatga bo‘lgan hurmatni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, tarbiya ishlari doirasida maxsus ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkaziladi.

Jamoat tashkilotlari va NNTlar (nodavlat notijorat tashkilotlari): turli jamoat tashkilotlari va NNTlar yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni ma’naviy va madaniy sohalarda rivojlantirishga yordam beradi. Bu tashkilotlar orqali yoshlar jamoatchilik ishlariga jalb qilinadi

va ularga ijtimoiy mas’uliyat hissini uyg‘otishga qaratilgan loyihalar amalga oshiriladi.

Xullas, davlat va jamoat tashkilotlari yoshlarning ma’naviy dunyoqarashi va axloqiy tarbiyasida asosiy poydevor vazifasini bajaradi [6]. Bu tashkilotlar orqali yoshlar milliy qadriyatlar, madaniyat va ma’naviyat bilan uzluksiz tanishib, jamiyatda ijtimoiy faol bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Ma’naviy sohadagi bunday hamkorlik va faoliyat yoshlarning kelajakda mas’uliyatli, bilimli va ma’rifatli shaxslar bo‘lib voyaga yetishlariga katta hissa qo‘shishi lozim. Har holda nazariyada, taraqqiyot strategiyasida shunday.

Shubhasiz, davlat va jamoat tashkilotlari yoshlar ma’naviyatini shakllantirish va rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi, ammo bu jarayonda nazarimizda bir qator kamchiliklar va muammolar ham mavjud.

Birinchidan, ma’naviy ishlarga yondashuvlarni o‘zgartirish zarur. Chunki, ko‘pincha ma’naviy tadbirlar va loyihalarda standart va an’anaviy yondashuvlar qo‘llaniladi. Yoshlarni qiziqtiruvchi, zamonaviy usullardan yetarlicha foydalanilmasligi natijasida tadbirlar samarasiz bo‘lib qoladi va yoshlar tomonidan yaxshi qabul qilinmaydi.

Ikkinchidan, ma’naviyat va ma’rifat targ‘ibotida interaktiv, innovatsion, iqtisodiy, moliyaviy usullar kam va e’tiborga noloyiq darajada. Hozirgi kunda yoshlar xuddi shunday yondashuvlarni talab qiladi, lekin ko‘pincha tadbirlar an’anaviy ko‘rinishda qoladi. Bu esa yoshlarning tadbirlarga qiziqishi va ishtirokini pasaytirib yuboradi.

Uchinchidan, yoshlar qiziqishlari yetarli inobatga olinmaydi, tadbirlar yoshlar ehtiyojlari va talablari o‘rganilmasdan, tashkilotlar mutaxassislari g‘oyalari va tashabbuslari bilan tashkil etiladi. Shu sababli o‘tkazilgan tadbirlar va dasturlar yoshlarning kundalik hayotiga muvofiq kelmaydi, bu esa yoshlar orasida befarqlikni oshiradi.

To‘rtinchidan, ko‘p tadbirlar na ta’lim, na tarbiyani nazarda tutadi, ular shunchaki uchrashuv yoki davra suhbati xarakteriga ega bo‘ladi. Shu kabi, ta’lim muassasalari va tadbir o‘tkazuvchi jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlik yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Bu ikki sektor o‘rtasidagi bog‘liqlik va muvofiqlashgan faoliyat yoshlarning ma’naviy va axloqiy tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo‘lishi kerak, ammo amalda bu ko‘p hollarda kuchsizdir.

Beshinchidan, ko‘pincha davlat ta’minotidagi tashkilotlar yoshlar bilan ishlashda yetakchi tashkilot sifatida ko‘riladi, ammo bu illyuziya, amalda davlat ta’minotidagi tashkilotlar, jamoat tashkilotlari va NNTlarning joylardagi vakillari faoliyatini yetarli darajada qo‘llab-quvvatlamaslik muammo hisoblanadi. Bu esa yoshlarning uyushishini,

turli fikr va yondashuvlar, loyiha, taklif va tadbirlarga intilish imkoniyatini cheklaydi.

Oltinchidan, tashabbuslar albatta ma’naviyat va ma’rifatga yoki yoshlarga aloqador tashkilotlardan taklif etiladi va ko‘pincha u ham mahalliy darajada cheklanib qoladi. Tadbirlar ko‘pincha markazlashgan, ya’ni faqat poytaxt yoki katta shaharlarda o‘tkaziladi. Mahalliy yoshlar tashkilotlari va viloyatlarda yoshlar ma’naviyati bilan ishlashda faoliyat cheklangan yoki yetarli darajada rag‘batlantirilmaydi. Bu esa aholining katta qatlamlariga yetib bormaydi degani.

Yettinchidan, ko‘pchilik hollarda ma’naviy tadbirlar formal tus oladi va talabni bajarish maqsadida o‘tkaziladi. Tadbirlarning real ta’siri, yoshlarga samarali yordam berishi e’tibordan chetda qoladi. Bu esa tadbirlarning amaliy foydasini pasaytiradi.

Sakkizinchidan, ma’naviy sohada ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanilmaydi. Garchi, bugungi kunda yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lsada, **ma’naviy borasida** davlat va jamoat tashkilotlari yoshlar bilan onlayn muloqot va targ‘ibotda yetarli darajada samarali emas. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarga ma’naviy tarbiyani samarali yetkazish mexanizmi yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan.

To‘qqizinchidan, yoshlarning ma’naviy rivojlanishi bo‘yicha xorijiy tajriba va yondashuvlarni o‘rganish va ularni O‘zbekiston sharoitida o‘ylab ko‘rish yetarli darajada emas. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik va tajriba almashish orqali yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish imkoniyatidan kam foydalaniladi.

O‘ninchidan, korrupsiya va ijtimoiy adolatsizlikka ko‘r-ko‘rona yo‘l qo‘yish mavjud, bu yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sir qiladi. Davlat va jamoat tashkilotlarining ayrimlaridagi bunday kamchiliklar yoshlar o‘rtasida davlat va jamiyatga nisbatan ishonchsizlik tug‘diradi va ularning ijtimoiy faolligini pasaytiradi.

Shunday qilib, bu kamchiliklar yoshlar bilan samarali ish olib borishda to‘siqlar yaratib, ularning ma’naviy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi tabiiy. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun davlat va jamoat tashkilotlari zamonaviy yondashuvlarni joriy qilishi, yoshlar qiziqishlariga e’tibor berish, ularni innovatsion fikrlashga undash va tadbirlarning real samarasini oshirishga qaratilgan choralar ko‘rishi lozim. Jamoat tashkilotlari va davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, yoshlar uchun barcha mintaqalarda teng imkoniyatlar yaratish, innovatsion, interaktiv, iqtisodiy, moliyaviy tadbirlarni ko‘paytirish muhim.

Xo‘sh, O‘zbekistonda yoshlar dunyoqarashini ma’rifiy-innovatsion yangilashda nimalarga e’tibor qaratilishi lozim? Nazarimizda

mamlakatimizda yoshlar dunyoqarashini ma’rifiy-innovatsion yangilash, ularni global tendensiyalar va milliy qadriyatlar o‘rtasida muvozanatni saqlagan holda rivojlantirish juda muhim. Bunda zamonaviy ta’lim va texnologiyalarni birlashtirib, yoshlarning ilmiy, ijodiy va ma’naviy rivojlanishiga xizmat qiluvchi turli chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin. Quyida shu yo‘nalishda bir qator takliflarni ko‘rib o‘taylik. Bu takliflar yoshlarning ma’naviy-innovatsion rivojlanishiga yordam berishi, ularning dunyoqarashini kengaytirib, zamonaviy bilimlarni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qilishi mumkin.

1. **Ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni kuchaytirish kerak. YA’ni, masalan, xuddi meditsinadagi kabi fan, texnologiya, muhandislik va matematika (**STEM**) nazariyasi va amaliyotini (ta’lim va ish joyini) birlashtirish lozim:** Zamonaviy dunyoda fan va texnologiya yoshlar rivojlanishining asosiy omillari sanaladi [7]. Yoshlar uchun STEM yo‘nalishlarini maktabdan boshlab oliy ta’lim darajasida kuchaytirish lozim.

2. **Ma’naviyat va innovatsion ishlab chiqarish uyg‘unligini ta’minlash darkor. Buning uchun yos**hlarga milliy madaniyat, an’analar va qadriyatlarni zamonaviy innovatsiyalar bilan uyg‘unlashtirib yetkazish lozim. Masalan, yoshlarning milliy madaniy-maishiy va texnologik brend yaratishlarini qo‘llab-quvvatlash kerak.

3. **Yoshlar uchun milliy asoslarda ilmiy-innovatsion, loyihalash, konstruktorlik, kashfiyot va ixtirochilik markazlari tashkil etish zarur.** Turli innovatsion g‘oyalar va startaplarni rivojlantirish uchun yoshlarga yo‘naltirilgan ilmiy markazlar tashkil qilish, ularni texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlash va ularning tadqiqotlari uchun zamonaviy uskunalar bilan ta’minlash, yoshlarni innovatsion fikrlashga undash maqsadida har yili ilmiy-innovatsion ko‘rgazmalar, festivallar va tanlovlar o‘tkazish muhim. Bu yoshlarga o‘z g‘oyalarini namoyish qilish va ularni amaliyotga joriy qilish imkoniyatini yaratadi.

4. Ta’lim va jamoat faoliyatida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishga o‘tish lozim. Zero, hozirgi avlod vertual qulayliklarni ma’qul ko‘radi. Shu sababli ta’lim kontentini raqamli platformalarda kengaytirish, o‘quv dasturlari, ma’naviy va ma’rifiy adabiyotlarni onlayn platformaga joylashtirish, ulardan keng foydalanishni ta’minlash, yoshlar uchun interaktiv mobil ilovalar va veb-saytlar orqali bilimlarni oson va qiziqarli tarzda olish imkoniyati yaratilishi lozim. Bunday ilovalar yoshlarning ma’lumot olishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi.

5. **Yoshlarga xos bilimlarni ommalashtirish kerak. Buning uchun yos**hlarga zamonaviy kasblar va texnologiyalarni o‘rganish uchun maxsus kurslar, loyihalar va onlayn ta’lim platformalarini tashkil qilish orqali ularning professional rivojlanishlariga yordam berish, “h**ar bir yoshga innovatsiya” yondashuvi asosida h**ar bir yoshni startap yoki ijodiy loyiha ustida ishlashga rag‘batlantirish, ularga grantlar, investitsiyalar va maslahatchilar orqali qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish istiqbolli ahamiyatga ega.

6. Yoshlarga xorijiy ilmiy muassasalar va universitetlar bilan hamkorlik qilish, tajriba almashish imkoniyati yaratish lozim. Bu yoshlarga dunyoqarashini kengaytirish va xalqaro standartlarga mos bilimlarni olishga yordam beradi. Yoshlarning global innovatsion loyihalar va tadbirlarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish va qo‘llab-quvvatlash, ularni dunyodagi ilg‘or innovatsion jarayonlarga jalb qiladi.

7. ma’naviyat tadbirlari doirasida yoshlarga internet va ijtimoiy tarmoqlardan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatuvchi media savodxonlik kurslari va seminarlarini o‘tkazish lozim. Bunday ta’lim yoshlar orasida axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. **Axloqiy va ma’naviy tarbiyani raqamli vositalar orqali to‘g‘ri olishga o‘rgatadi,** milliy qadriyatlar va axloqiy qoidalarni qiziqarli va zamonaviy uslubda yetib borishini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ливен Анатоль. Анатомия американского национализма. -М.: Эксмо, 2015 г. 512 с.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 январдаги “Сиёсий фанлар соҳасида кадрлар тайёрлаш, фундаментал ва амалий тадқиқотлар самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4139-сонли Қарори

3. Хабермас Ю. Моральное сознание и коммуникативное действие / Пер. с нем. под ред. Д.В. Скляднева. - СПб., 2022. - 380 с.

4. Лебон Г. Омма психологияси. -Т.: Ёшлар матбуоти, 2021. 176 б.

5.Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Т.: Ўзбекистон, 2021. -464 б.

6. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд, –Т.: Ўзбекистон, 2019. -400 б.

7.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 26 сентябрдаги “Педагог кадрларни тайёрлаш, халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3289-сонли Қарори.

KOMIL HAYDAROV,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori,
falsafa fanlari doktori (DSc),

YOSHLARNI MAFKURAVIY TAHDIDLAR XAVFIDAN SAQLASH – TARBIYANING MUHIM OMILI

Din va tamaddun (sivilizatsiya) bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni bir-biridan ajralgan holda tasavvur qilish qiyin - ular bir-birini o‘zaro to‘ldiradi va boyitadi. Bu dialektik aloqadorlik insoniyatning yuksak aql sohiblari, donishmandlar tomonidan falsafiy asoslab berilgan. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasi minbaridan turib, O‘zbekiston yetakchisi Shavkat Mirziyoyev jahon afgor ommasining e’tiborini islom dinining asl insonparvarlik mohiyati, ezgulik va tinchlikka xizmat qilishi, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylash zarurligiga qaratdi: “Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat’iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz” [2.2].

Bugungi globallashuv davrida dunyoning mafkuraviy manzarasiga ta’sir ko‘rsatayotgan g‘oyaviy omillardan biri, hech shubhasiz, diniy fanatizmdir. Diniy fanatizm aslida mafkuraviy xurujlarning bir ko‘rinishidir. Shu nuqtayi nazardan ham mamlakatimizda mutaassib radikal kuchlarning g‘oyaviy, mafkuraviy, informatsion xurujlariga qarshi keskin kurash olib borish dolzarb vazifa qilib belgilangan.

Bugun yoshlarni mafkuraviy tahdidlar xavfidan saqlash zarurligi davlatimiz siyosatida ustuvor o‘rin tutadi. Ayni paytda dunyo bo‘yicha yoshlar son jihatidan ikki milliard kishini tashkil etmoqda. Mamlakatimizda yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish maqsadida ularning botiniy olamiga ma’rifat nurini singdirish va shu asosda tarbiyalash g‘oyat muhim am aliy ahamiyatga ega [2.2].

Xalqimiz tabiatiga mutlaqo yot bo‘lgan siyosiy, diniy ekstremizm, aqidaparastlik va boshqa yovuz oqimlarning mintaqaga kirib kelishi va tarqalishi nafaqat yurtimiz tinchligiga, balki farzandlarimizning kelajagiga katta xavf tug‘dirishini fuqarolarimiz ongiga yetkazish, yoshlarda diniy fanatizmga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishning qanchalik darajada muhimligi o‘z-o‘zidan ayon.

Har qanday jamiyatni turli xil g‘oyaviy xurujlar hamda mafkuraviy

tahdidlardan himoya qiladigan o‘ziga xos tizimning mavjud bo‘lishini zamonning o‘zi taqozo qilmoqda. Bunday tizim mafkuraviy immunitet ekanligi o‘z-o‘zidan ma’lum. Mafkuraviy immunitet (lotincha immunitas - biror narsadan xalos etish, ozod etish) - ma’lum bir shaxsda yoki ijtimoiy guruhda o‘ziga xos bo‘lgan, qat’iy, barqaror, sog‘lom mafkuraviy qarashning shakllanganligi bilan ifodalanadi. U shaxsning insoniylikka yot bo‘lgan turli zararli mafkuraviy ta’sir va tazyiqlarga berilmasligida muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Sog‘lom g‘oyalar inson dunyoqarashidan mustahkam joy olsa, uning ma’naviy-ruhiy holatida bo‘shliq kuzatilmaydi.

Taniqli olim Muhammadjon Quronov “mafkuraviy immunitet” degan iboraning ichki tuzilishini tahlil qilib, shunday deb yozadi: “Mafkuraviy immunitet – odam o‘z hayotida amal qiladigan anglangan qoidalar yig‘indisi. Yoki ramziy qilib, uni shaxsning mafkuraviy konstitutsiyasi deb atasa ham bo‘ladi. Bu konstitutsiya ikki asosga tayanadi. Birinchisi – u yashayotgan milliy-ma’naviy muhitda qabul qilingan me’yorlar. Ikkinchisi – shu me’yorlarning odam dunyoqarashida o‘zlashtirilgan qismi”[5.142].

Yoshlar o‘rtasida olib boriladigan targ‘ibot tadbirlarida har qanday din ezgulikka xizmat qilishi, diniy mazhablar bir-birining e’tiqodini o‘zaro hurmat qilishi, hamkor va hamjihat bo‘lib yashashlari zarurligi chuqur uqtirilsa, tolerantlik, ya’ni chidamlilik, toqat qilish, keng fe’llik to‘g‘risida zarur ma’lumotlar singdirilsa, bunday tadbirlar, albatta, o‘zining kutilgan samarasini beradi.

Ayni paytda umumta’lim maktabi o‘quvchilarida ma’naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishning eng samarali vositalari - “Tarbiya”, “Konstitutsiya alifbosi”, “Konstitutsiya olamiga sayohat”, “Ona tili”, “Adabiyot”, “Tarix” darslari bo‘lib, ularni o‘qitishning eng zamonaviy shakl va uslublari joriy etilmoqda. Chunki ushbu fanlarning maqsadi - bilim berish bilan birga umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda milliy iftixor tuyg‘ularini shakllantirishga qaratilgandir. Bugun uzluksiz ta’lim islohotlarida ushbu fanlarning o‘quvchi yoshlar ongi va qalbiga ma’naviy qadriyatlarni chuqur singdirish jarayonidagi ahamiyatini oshirishga alohida e’tibor berilayotganining ma’nosi ham shunda.

Oliy ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishga kam soat ajratilgani oliy ta’lim mazmuni, shu orqali talabalar ongi va qalbiga ma’naviy qadriyatlarni singdirish masalasida muammolar paydo bo‘lishiga olib kelishi shubhasiz. Falsafa fanlari doktori, professor I.Saifnazarov ta’kidlaganidek, “Uchinchi Renessans haqida qanchalik ko‘p gapirmaylik, harakat qilmaylik, uning tub mohiyatini

ijtimoiy-gumanitar fanlarning yordamisiz yoshlar ongiga singdirib bo‘lmaydi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar uchinchi Renessans boshlanishi va rivojlanishining “katalizatori” hisoblanadi. Aynan, ular xalqni va millatni uyg‘otishga qodir kuchdir”[4.2].

Zamon ijtimoiy fanlardan dastlabki saboqlarni hatto maktabning ilk davridan boshlash maqsadga muvofiqligini tasdiqlamoqda. Davlatimiz rahbarining “Ijtimoiy fanlar sohasida odob-axloq qoidalari va ma’naviyatning oddiy tushunchalari va sodda talablarini boshlang‘ich sinflardan o‘rgata boshlash zarurligi ayni haqiqat”[1.235], degan e’tirofi shuni isbotlaydi.

Yangi davr poydevori qad rostlayotgan bugungi kunda ayniqsa falsafa fanining mavqeini oshirish g‘oyat muhim masaladir. Mamlakatimiz falsafa ilmi sohasida, oliy ta’lim muassasalarida ushbu yo‘nalishda muayyan yutuqlar bor, albatta. Masalan, Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “... dunyodagi eng salmoqli ensiklopediyalardan biri, Markaziy Osiyoda yagona va O‘zbekistonda ilk marta yaratilgan “Jahon falsafasi qomusi” tayyorlanib, 2020-yilda yangi davrning mahsuli sifatida chop etilgani ham buning yaqqol misolidir”[1.238]. Albatta, jahon falsafa ilmi taraqqiyotiga katta hissa bo‘lib qo‘shilgan Sharq falsafasi durdonalarini ta’lim tizimiga joriy qilish ma’naviy qadriyatlar takomilida juda muhimdir.

Dinga munosabat, uning haqiqiy holatini buzib ko‘rsatuvchi kimsalarning O‘zbekistonda islom dini qattiq ta’qibga olingan, degan yolg‘on da’volar qilayotgani, dinni o‘rgatish bahonasida yoshlarni to‘g‘ri yo‘ldan ozdirayotgani, ularga quroldan o‘q otishni o‘rgatayotganlari, buzg‘unchilarga homiylik qilayotgan ajnabiy da’vatchilar borligini, ular yovuz niyatlarini amalga oshirish uchun har qanday qabihlikdan qaytmasliklarini bugun o‘quvchi va talabalar yaxshi bilishlari shart.

Ma’naviy qadriyatlarni ta’lim mazmuniga singdirishda o‘quvchilarda mafkuraviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u mashg‘ulotlar jarayonidagina emas, ta’limdan tashqari paytlarda ham amalga oshiriladi. Bu esa bugungi pedagogdan ta’limning eng zamonaviy, innovatsion usullari bilan bir qatorda buyuk ajdodlar, mutafakkir allomalar, ma’rifatparvar jadidlar – xalqimizning betakror ma’naviy merosi namunalaridan ham ijodiy foydalanishni taqozo etadi [6.10-14]. Ta’limga bunday yondashuv o‘quvchi yoshlarda ishonchni, tahlil qilishni, yaxshi fazilatli insonlarga taqlid qilishni, mustaqil, erkin fikr-mulohazalar yuritishga o‘rgatadi. Mashg‘ulotlarda muammoli vaziyatlar yaratish, savol-javob, davra suhbati, ko‘rgazmalilik, texnik vositalar, sayohat, yozma ish (bayon, insho) kabi xilma-xil metodlarni darsga tatbiq etishni o‘rganish – bugun

ta’lim islohotlarining muhim maqsadi hisoblanadi. Bu esa dars sifati va samaradorligini ta’minlaydi, ta’lim mazmunini boyitadi, o‘quvchi yoshlarning hayotda faol pozitsiyada bo‘lishini tarbiyalaydi.

Yoshlar “Hizb-ut-tahrir al-islamiyya”, “Vahhobiylik”, “Akromiylar” va boshqa muxolif kuchlarning maqsad-muddaolari, tajovuzkorlik, bosqinchilik, terrorchilik, qotillik hamda insonlar qalbini egallab, ulardan diniy fanatlar (mutaassiblar) tayyorlashga urinayotganlari to‘g‘risida yetarli ma’lumotga ega bo‘lsalar, ularning yovuzlarga nisbatan nafrati ortadi. Zararli oqimlarning ta’siriga tushib qolmaslikdan ogoh bo‘ladi, o‘zini hushyor sezadi. Adashish ham hayotda orttirilgan illat, “orttirilgan illatni esa ijobiy tomonga o‘zgartirish mumkin”[3.23]. Yosh avlodning ruhiy olamiga sog‘lom milliy-g‘oyaviy asos uzluksiz singdirib borilsa, unda salbiy yo‘nalishdagi mafkuraviy ta’sirga berilish xavfi ham barham topib boradi.

Buning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, avvalo o‘quvchining diniy fanatizm ta’siriga berilishining oldi olinadi, uning baxtli turmush kechirishi ta’minlanadi. Bu esa o‘quvchilarning yot g‘oyalar ta’siriga qarshi tura oladigan, bahslasha oladigan, ularga qarshi kurashadigan, ya’ni mafkuraviy immuniteti mustahkam, irodali yoshlar qilib tarbiyalanganligi demakdir.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim. Ularni yot g‘oyalar ta’siridan o‘zimiz asrashimiz zarur. Farzandlarimizni o‘qituvchilar to‘g‘ri yo‘lga solishi, ularning ongini tozalashi, ularga haq gaplarni aytib, hayotda o‘z e’tiqodiga suyanib yashashni o‘rgatishi lozim. O‘zlarini “adolatparvar musulmonlar”, “akromiylar” yoki “islomparvarlar” deb atayotgan diniy ekstremistik oqimlar va uyushmalar — xalqimizning tinch, osoyishta hayotini buzishni o‘zlariga maqsad qilib olganlarini farzandlarimiz bilishlari kerak, faqat bilish emas, balki ularning buzg‘unchi mafkurasini fosh etishga o‘rganishlari lozim. Shunga erishish kerakki, har bir o‘quvchi “Hizb-ut-tahrir al-islamiyya”, “Vahhobiylik”, “Akromiylar”, “Nurchilar”, “Tablig‘chilar” va boshqa diniy ekstremistik oqimlarning zararini tushunsin, ularga qarshi kurashish zarurligini anglasin. Yoshlarimiz zararli oqim ta’sirlariga nisbatan ogoh, sezgir, hushyor bo‘lib voyaga yetishlari zarur.

Yuqorida bayon qilinganlardan shunday xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, hozirgi davrda ma’naviyat, mafkura maydonlari urushning eng dahshatli o‘chog‘iga aylanib bormoqda. Shundan manfaat ko‘radigan turli xil markazlar va yovuz niyatli kishilar g‘arazli maqsadi yo‘lida hech narsadan tap tortmay, eng qabih usullardan foydalanishga urinmoqdalar. Bu yo‘lda ular ijtimoiy tarmoqlar, yengil-yelpi saytlar, telekommunikatsiya vositalari kabi hayotimizdan tobora chuqur o‘rin

olayotgan omillardan foydalanmoqdalar. Bugun farzandlarimizni ularning qo‘llaridagi telefon tarbiyalashga urinayotgani ham, afsuski, haqiqat.

Ikkinchidan, diniy fanatizmga o‘xshagan ekstremistik oqimlar bugungi globallashuv davrida dunyoning mafkuraviy manzarasiga ta’sir ko‘rsatayotgan g‘oyaviy omillardan hisoblanadi. Ular aslida mafkuraviy xurujlarning bir ko‘rinishidir. Mamlakatimizda mutaassib radikal kuchlarning g‘oyaviy, mafkuraviy, informatsion xurujlariga qarshi keskin kurash olib borish dolzarb vazifa qilib belgilangan.

Uchinchidan, mamlakatimizda ta’lim islohotlari jarayonida o‘quvchi va talaba yoshlarning mahnaviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetini shakllantirishning samarali vositalari sifatida “Tarbiya” fani joriy etilgan bo‘lib, uning maqsadi – bilim berish barobarida o‘quvchi yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularda insonparvarlik, vatanparvarlik, mustaqil va erkin fikrlash, kreativlik xususiyatlari hamda milliy iftixor tuyg‘ularini shakllantirishga qaratilgandir.

To‘rtinchidan, o‘quvchi va talaba yoshlarda milliy g‘urur tuyg‘ularini rivojlantirish, mutafakkir ajdodlar bilan faxrlanish, ularning ma’naviy merosiga hurmat va qiziqishni oshirish, ajdodlarining kimligini yaxshi biladigan shaxsni yo‘ldan ozdirish mumkin emasligini anglashlariga erishish lozim.

'

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - T.: “O‘zbekiston”, 2021. – B.235.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. - “Xalq so‘zi”, 2017-yil 20-sentyabr.

3. Nishonova O. O‘zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati va funksiyalari. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: 2016. – B.23.

4. Saifnazarov I. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishni nega kuchaytirishimiz kerak? // “Xalq so‘zi”, 2021-yil 29-oktyabr. -№231 (8011).

5. Quronov M. Bizni birlashtirgan g‘oya. - T., G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. –B.142.

6. Komil Donaboyevich Haydarov. (2021). The impact of the naqshbandi philosophy on the development of spiritual values. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 1(2), 9–14. Retrieved from http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/13

7. Donabaevich, Haydarov K. «The Role of Continuous Education in the Spiritual Development of the Person.» JournalNX, 2020, pp. 920-922.

MANSUR MUSAYEV,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i, siyosiy fanlari doktori (DSc)

MA’NAVIY YUKCALISH VA MAFKURAVIY ISLOHOTLARNI MISSIONEPLIKKA QARSHI KURASHDAGI AHAMIYATI

Azaldan, insoniyat taraqqiyotining rivojlanish bosqichida ma’naviyat sohasi hamisha dolzabr masala sifatida alohida e’tibor qaratib kelingan. Ma’anaviyat insonni o‘zligini anglatuvchi betakror mo‘jizaviy qudratli kuchdirki, u har qanday millat va xalqni buyuk va ulug‘or maqsadlar sari birlashtiruvchi bayroq vazifasini o‘taydi.

Bugungi kunda dunyoda global miqyosida vujudga kelayotgan tahlikali vaziyat ijtimoiy hayotning bapcha jabhalariga, jumladan, ma’naviy-ma’rifiy sohalarga ham jiddiy ta’sir o‘tkazmoqda. Mana shunday murakkab bir sharoitda tinchlik, barqaporlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda mamlakatimizda aniq maqsadga yo‘naltirilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish borasida samarali ishlar qilinmoqda.

Mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sipchanligini oshirish, ma’naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash borasida jiddiy fikrlashni taqoza etmoqda. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining 2023-yil 22-dekabrda kengaytirilgan majlisidagi so‘zlagan nutqida “bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi kerak, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi shart!”[1], - deya alohida ta’kidlab o‘tgani ayni haqiqatdir. Binobarin, davlatimiz Rahbarining fikriga ko‘ra, shu maqsadda xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarishimiz lozim. Zero, bugungi kunda globallashuv shiddati va zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi jahonda keskin burilish yasamoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston o‘zini milliy taraqqiyotning yangi davriga qadam qo‘ydi. Buni barcha sohalardagi tub o‘zgarishlar qatori ma’naviyat, ma’rifatga bo‘lgan munosabatlarda ham ko‘rish mumkin.

Ayniqsa, yurtimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizda jaholatga qarshi kurashda ma’rifat bilan kurashish borasida ulkan ishlar qilanilayotganligi ayniqsa diqqatga sazovardir. Bu borada, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O‘zbekistondagi Islom sivilizasiyasi markazi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot mapkazi, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatlarining yo‘lga qo‘yilishi mamlakatimizda muqaddas Islom dini qadriyatlari va an’analarini yanada rivojlantirishga zamin yaratmoqda. Ayniqsa, ma’naviy-ma’rifiy sohada davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar zamirida yurtimizda ta’lim, ilm-fan, madaniyat ma’rifat, ajdodlar merosini o‘rganish, qadrlashga bo‘layotgan yuksak e’tibor nafaqat mamlakatimiz va mintaqa aholisi, balki jahon hamjamiyati tomonidan ham yuksak e’tirofga sazovor bo‘lmoqda.

Dunyo tamadduni buxoriylar, farg‘oniylar, samarqandiylar, xorazmiylar, teprmiziylar, nasafiylar taratgan ilm ziyosidan qanchalar bahramand bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda ham bu bahramandlik davom etmoqda, ajdolarimiz qoldirgan bebaho ma’naviy mepos o‘z qadri va ahamiyatini aslo yo‘qotgani yo‘q. Dunyo miqyosida xalqaro terrorizm, radikalizm, ekstremizm kabi chegara bilmac tahdidlarning xavfi ortib borayotgan bugungi kunda ham ma’naviyat va ma’rifat jaholatga qarshi kurashishning eng samarali vositasi sifatida tan olinmoqda.

Bugungi zamon shiddati inson hayotida ma’naviyatni naqadar najotkor kuch ekanligini taqoza etmoqda. Zepo, “axloqsizlik, odobsizlik, ma’naviy qashshoqlik insonni tubanlikka gipdobiga gpiftop etib, keng miqyosda esa jamiyat tapaqqiyotini izdan chiqrib, parokandalikni yuzaga keltiradi. Ma’naviyat yo‘qolgan joyda insonda hayvoniy hislatlar ildiz otib, yovvoyilik, vahshiylik, jaholat va xurofot kuchayadi”[2]. Natijada, inson o‘z aslini yo‘qotish orqali qadriyat sifatidagi maqomidan judo bo‘ladi.

O‘tmishdan ma’lumki, bir xalqni o‘ziga tobe qilishni istagan kuchlar avvalo uni o‘zligi, tarixi, ma’naviyati va madaniyatidan judo qilishga alohida e’tibor qaratishgan. Zero, ma’naviy jihatdan zabt etilgan har qanday xalqni madaniy-ma’naviy taraqqiyotini bo‘g‘ib qo‘yish istilochi, bosqinchi mamlakatlarning mustamlakachilik tartiblarini saqlab turish va mustahkamlashning azaliy, tarix sinovidan o‘tgan an’anaviy usullaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Istilochi mamlakat itoat qildirilgan xalqlarni bora-bora o‘ziga singdirib yuborishni, buning uchun o‘z mafkurasi va g‘oyalarini ularga majburan joriy etish, madaniyatiga raxna solish orqali ma’naviy jihatdan taraqqiy etishiga yo‘l qo‘ymaslikni o‘z siyosatining “asosiy maqsadi” sifatida e’tibor qaratgan. Mazkur fikrlarni bundan 2700

yil oldin yashagan qadimgi Xitoy donishmandi Konfutsiy o‘z imperatoriga shunday «maslahat» bergan ekan: «Hoqonim, agar biror mamlakatni zabt etib, u yerda uzoq hukmronlik qilmoqchi bo‘lsangiz, dastavval o‘sha yerda yashayotgan xalqni o‘z tarixi madaniyatidan mahrum eting, ma’naviy qashshoqlik holatiga uchragan xalq uyushmaydi, ichki nizolar girdobiga o‘raladi, sizga qarshilik ko‘psata olmaydi. Bunday holga kelgan xalqni, mamlakatni idora qilish oson kechadi»[3], - deya ta’kidlab o‘tgani e’tiborga molikdir. Binobarin, madaniyat va ma’naviyatni barbod etish, milliy til, urf-odatlarni taraqqiy etishiga izn bermaclik itoat ettirilgan xalqni jilovda ushlab turishning eng zarur va nozik yo‘llaridan biri ekanligini bosqinchilar doimo juda yaxshi anglagan. Aynan, mazkur omillarni doimo e’tiborda tutgan mustamlakachi va bosqinchilar Xitoy donishmandi aytgan «maslahat»ni oldindan rejalashtirib qo‘yishadi. Zero, madaniyat, ma’naviyat va ma’rifatga tahdid solish orqali xalqning, mamlakatning ma’naviyati va ma’rifatini barbod etishi oqibatida hap qanday xalq, millat e’tiqodsizlik girdobiga maxkum bo‘ladi. Shu tariqa, ma’naviyati izdan chiqqan bunday o‘lkada, mamlakatda ommaning olomonlashuvi, siyosiy manqurtlik, beparvolik avj olishi oqibatda xalqning mentaliteti milliy g‘urur, iftihor, milliy qadriyatlap asta-sekin zaiflasha boshlaydi. Vaholanki, ana shunday o‘lkani, mamlakatni, uning xalqini musamlakachilik kishanlarda ushlab turish, itoatkor qulga aylantipish ancha oson va «slliq» kechadi.

Bugun dunyo shiddat bilan o‘zgarib bormoqda. Ayniqsa, mafkura poligonlarida g‘oyaviy – mafkuraviy kurashning tobora avj olishi yoshlar ongi va qalbini ekspansiya (zabt etish) etishga zamin yaratmoqda. Shu tariqa, ma’naviy tubanlik ta’siri oqibatida madaniyatsizlik, e’tiqodsizlik kabi bir qator «ta’limotlari» oshkora ba’zan esa yashirin tarzda targ‘ib etilmoqda. Natijada, milliy ruh, millatning o‘ziga xosligi va uning asriy qadriyatlariga paxna solish orqali zimdan emirishga zamin yaratilmoqda.

«Bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida ana shu kabi harakatlar natijasida katta ma’naviy yo‘qotishlar kuzatilmoqda. Millatlarning azaliy qadriyatlari milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqmoqda, odob-ahloq, oila va jamiyat hayoti xavf ostida qolmoqda. Eng yomoni, bunday ma’naviy tahdidlar tajovuzining bosh maqsadi insonni o‘zi tug‘lib o‘sgan yurtidan, xalqidan voz kechishga, vatanparvarlik, yurtga sadoqat tuyg‘ularidan mahrum etishga va barcha narsaga loqayd bo‘lgan, ahloqan tuban xudbin va beparvo shaxsga aylantirishga qaratilgan»[4]. Zero, mazkur illatning ijtimoiy namoyon bo‘lishi muayyan mintaqa va mamlakat aholisi ongi, qalbini zabt

etmoqda. Natijada, mazkur illat asl ma’naviy qadriyatlarni tanazzul sari yetaklab, har bir halq va millatning o‘z madaniyati, ma’naviyati va qadriyatlarini inkor etishi orqali yoshlar ongida bir-biriga mutlaqo zid bo‘lgan dunyoqarashni shakllantirmoqda.

Bugungi zamon shiddati har qaysi millat, xalqni kelajakda o‘zligini saqlab qolish uchun eng avvalo, ma’naviyat masalasiga bo‘ladigan tahdidlardan muntazam ogoh, cezgir va xushyor bo‘lish borasida kechiktirib bo‘lmas dolzarb vazifalarni ko‘ymoqda. So‘nggi vaqtlarda missionerlik faolligi tez sur’atlar bilan o‘sib borayotganligini kuzatish mumkin. Ana shu sa’y-hapakatlar samarasi bo‘lgan dinlarapo muloqot hamisha kun tartibida turgani ham bu o‘zgarishlarning bir qismidir. Missionerlar faqat bir-birini tanish va tushunishga asoslangan sodda muloqotni qabul qilishmaydi. Bir-birlarining madaniyatlarini va e’tiqodlarini boyitish maqsadini ko‘zlagan suhbatni ham ular oqlashmaydi. Ularning asl maqsadi - qapshisidagi kishini nasponiylashtirishdir.

Ularning fikricha, muloqot bahslashishni emas, “qutqarish”ni ko‘zlashi kerak. “Najot-qutulish”ga erishish esa o‘z-o‘zidan bo‘la qolmaydi. Buning uchun qapshisidagi insonlar bilan jozibali muhitni yuzaga keltiradigan suhbat qurish lozim bo‘ladi”[5]. Ilgari faqat diniy tahdid bo‘lgan bunday harakatlar mamlakat xavfsizligiga katta tahdidga aylandi. Buni payqagan ayrim davlat idoralarimiz, ommaviy axborot vositalari vaqti-vaqti bilan maqolalar chop etmoqda. Afrikada tarixdagi birinchi missionerlik faoliyati diniy emas, balki siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarda e’tiqod va madaniyat muhitini yaratishga urinish bo‘lganligi aniq.

Keniyaning birinchi prezidenti Jomo Kenyatta (1889-1978) missionerlarning maqsadlarini quyidagicha tasvirlaydi: “Xristianlik Afrikaga kelganida, afrikaliklar yer va resurslarga, nasroniylarda esa faqat Injil bor edi. Xristianlar bizni ibodat va topinish uchun ko‘zimizni yumishni o‘rgatgan. Ko‘zimizni ochganimizda, ular yerlarimizni, konlarimizni, biz esa ularning Xushxabarlarini oldik. Ularda bizning yerlarimiz bor edi, bizda Injil bor edi. “Bu so‘zlar siyosiy murojaatlar emas, balki tarixiy faktlar. Avvalo, nasroniyning musulmon bo‘lishi oson, lekin musulmonning nasroniy bo‘lishidan qiyinroq narsa yo‘q. Shuning uchun ham hech bir missioner musulmonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri: “Men sizni nasponiylikni qabul qilgani keldim”, demaydi. U o‘z e’tiqodi va madaniyatidan nimanidir ag‘darib tashlamoqchi. Ularning eng keng tarqalgan dalillari shundaki, nasroniylik o‘z vakillarini targ‘ib qiladi, islom esa orqada qoladi. Albatta, tarixni o‘qigan kishi bu noto‘g‘ri ekanligini biladi. Uyg‘onish, reformasiya va ma’rifat nasroniylikka qarshi reaksiya

sifatida kelganini hamma biladi.

Bugungi kunda globallashuvning tobora avj olishi aksariyat missionerlik tashkilotlarini dunyo miqyosida o‘zining yangi loyihalarini amalga oshirish imkon bermoqda. Ayniqsa, missionerlikni dunyo miqyosida yoyish uchun texnik imkoniyatlar paydo bo‘ldi. G‘arbning evangelistik sektalarining faoliyati ba’zi tadqiqotchilarga “parallel globallashuv” - sektaviy qadriyatlar majmuasi bo‘lgan yangi globallashuv loyihasi haqida gapirishga imkon beradi. Natijada, protestantizmning eshiluvchanligi protestantlik qarashlari, bozor iqtisodiyoti doirasiga ta’sir etish imkoniyatini beradi. Aynan, protestant missionerlari tomonidan muayyan mintaqa va hududda “iqtisodiy” yopdam ko‘psatish opqali protestantlikni qabul qilish aksariyat holatlarda iqtisodiy jihatdan yuqori natijaga erishuvini ilgari supishmoqda. Shu tariqa aksapiyat missionerlik tashkilotlari strategiyasida go‘yoki, aynan protestantlikni qabul qilinishi iqtisodiy tiklanishga zamin yaratadi degan g‘oyani singdipishga intilish namoyon bo‘lmoqda.

Dunyodagi barcha xalqlar go‘yoki, G‘arbning dini, ma’daniyati, ma’rifati, urf-odatlari va turmush tarzidan o‘rnak olishi lozim, degan aqida missionerlik tarafdorlarining asosiy g‘oyasiga aylandi. Natijada, ayrim davlatlar iqtisodiy yordam tufayli protestanlikni qabul qilishi gegemon davlatlarning ta’siriga tushishga zamin yaratmoqda.

Bugungi kunda missionerlik puxta o‘ylangan rejalar asosida, guyoki o‘z faoliyatini amalga oshirishda Ollox va dindan niqob sifatida foydalanayotganligi tobora oydinlashmoqda. Shu o‘rinda, tajribali missionerlar turli toifadagi insonlar orasida o‘zlarini o‘ta xushyor tutishga alohida e’tibor qapatishadi. Ayniqsa, muayyan mintaqa va hududda vujudga kelgan iqtisodiy nochoplikdan “unumli” foydalanish orqali o‘zlariga ishonuvchilarni o‘zining soxta dinlariga o‘tkazishga harakat qilishi tobora oydinlashmoqda. Shu tariqa, missionerlik tashkilotlari iqtisodiy nochor vaziyatlar vaqtida “beg‘araz” yordam berish niqobi ostida o‘zga mamlakatlarga suqulib kirishga intilishadi. Ayniqsa, Vashington axborot agentligi tomonidan tarqatilgan xabarga ko‘ra, MRB nojuya harakatlarga yo‘l ochib beruvchi missionerlik tashkilotlariga dengiz orti mamlakatlari bo‘ylab maxfiy ishlarni olib borishga ruxsat berganligi xaqida ma’lumot bergan edi.

Mutaxassislar bugungi kunda dunyoning turli burchaklaridan turib zo‘r berib ilgari surishga harakat qilinayotgan “tizimiy qayta qurish” g‘oyacini ustalik bilan niqoblangan mafkuraviy strategiya sifatida baholamoqda[6]. O‘z navbatida, mazkur holat, bunday davlatlarda hokimiyat boshqaruvi noaniq kuchlar qo‘liga o‘tib ketish xavfi namoyon bo‘lmoqda. Zero,

global tarzda tobora kuchayotgan missionerlik harakatlari oqibatida millatchilik, ayirmachilik, antisemitizm, imperiyaparastlik, evposentpizm g‘oyalapining ijtimoiy namoyon bo‘layotganligi siyosiy hayotini izdan chiqapayotganligi tashvishlidir.

Missionerlik tashkilotlari o‘z a’zolarini doimo bo‘ysindirish va nazorpatda ushlab turish maqsadida turli hil uslublarni qo‘llab tahdid qilishadi. Natijada, missionerlik tuzog‘iga tushgan insonlar qalbi va ongi hamda dunyoqapishida salbiy o‘zgarishlar vujudga kela boshlaydi. Mazkur holat, muayyan mintaqa va mamlakat fuqarolari orasida o‘zining azaldan shakllangan qadriyatlari, madaniyati, ma’naviyatiga nisbatan paxna solishga zamin yaratmoqda. Shu tariqa, missionerlik targ‘iboti oqibatida dunyoda milliy, irqiy, diniy adovatlar tobora kuchaymoqda. Missionerlik zamirida ayrim mamlakatlarni diniy ixtiloflar asosida parokandalik girdobi sari etaklash orqali faqat siyosiy maqsadlar ko‘zlangan bo‘lib, unda g‘arazli niyatlar borligini anglash lozim. Xulosa qilib aytganda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: “**Ba’zi guruhlar orasida diniy qarashlarni Konstitutsiya va qonunlarimizga qarshi va ulardan ustun qo‘yish holatlari kuchaymoqda. Diniy e’tiqod niqobi ostida yoshlarni ma’rifatga emas, jaholatga undayotgan kishilar paydo bo‘lmoqda**”[7]. Zero, missionerlik zamirida ma’naviy qadriyatlariga nisbatan mafkuraviy bosim o‘tkazish orqali xalq va millatni o‘zligini anglashga to‘sqinlik qilish va o‘zlariga tobe qilishni ko‘zlayotganligini anglash lozim. Mazkur holat, o‘z navbatida dunyo miqyosida milliy, diniy adovatlarni qo‘zg‘otuvchi hapakat sifatida missionerlik tahdidlari borasida jiddiy fikrlashni talab etmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Маънавият ҳаётимизда янги куч, янги ҳаракатга айланиши керак. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги нутқи. Янги Ўзбекистон газетаси. 2023 йил 23 декабрь, 267-сон.

2. Комилов М. Маънавият қалб нажоткори. Қорақалпоғистон тонги. 2022 йил 19 феврал. №7 (1484).

3.Маматқобилов Т., Мусаев М., Жураев Ҳ. Халқимизни ҳаракатлар стратегиясини амалга оширишга сафарбар қилишда маънавий – маърифий ишларнинг роли. – Тошкент: Sano-standart. 2017. – Б. 15.

4. Содиқов С. Глобаллашув шароитида узлуксиз маънавий тарбия концепциясининг янги маънавий макон муҳитини шакллантиришдаги аҳамияти. Манипуляция жараёнлари ва уларга қарши чора-тадбирларнинг зарурати. Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва тарғиботнинг замонавий технологиялари республика илмий-амалий конференция материаллари.– Тошкент: Max pristil, 2022. – Б. 397.

5.https://www.qadriyat.uz/dolzarb/229-musulmonlarga-j-naltirilgan-missionerlik-arakatlari.

6. Назаров А. Глобаллашув шароитида барқарор сиёсий тараққиёт хавфсизлигини таъминлаш муаммолари. ЎзМУ хабарлари. №1/1 2016 йил. – Б. 39.

7. Маънавият ҳаётимизда янги куч, янги ҳаракатга айланиши керак. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги нутқи. Янги Ўзбекистон газетаси. 2023 йил 23 декабрь, 267-сон.

TURSUNMUROD MAMATQOBILOV,
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti professori,
siyosiy fanlar nomzodi

AQIDAPARASTLIK VA EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHDA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLARNING O‘RNI

Bugungi kunda aqidaparastlik, terrorizm va ekstremizm balosiga qarshi kurashish ichki ishlar organlarining bir qator xizmatlarining asosiy faoliyat yo‘nalishi sifatida belgilangan.

Har bir soha vakillarini faoliyat yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq asosiy vazifalari hamda hamkorligini tashkil etish tartibi IIVning tegishli normativ-huquqiy hujjatlarida belgilab qo‘yilgan. Ichki ishlar organlari terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq faoliyatini samarali tashkil etish hamda ushbu yo‘nalishda ijobiy natijalarga erishish maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organ xizmatlari bilan hamkorlik qiladi. Terrorizm va diniy ekstremizm bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishda ichki ishlar organlarining boshda sohaviy xizmatlari bilan hamkorligini tashkil etish o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, ularning mazkur hamkorligi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, huquqni muhofaza qilish organlarining normativ-huquqiy hujjatlari talablari asosida tashkil etiladi.

Zero, Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Hozirgi vaqtda dunyoda turli kuchlar o`rtasida qarama – qarshilik va ziddiyatlar kuchaymoqda, resurslar uchun shavqatsiz kurash kechmoqda. Mintaqamizdagi tinchlik va xavfsizlikka nisbatan yangi – yangi tahdidlar paydo bo`lmoqda”[1, b.371].

Normativ-huquqiy hujjatlarda belgilanganidek, tuman, shahar miqyosida ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari o‘rtasidagi, shuningdek, ularning jamoatchilik bilan hamkorligini tashkil etish, muvofiqlashtirish va boshqarish quyidagi shaxslar tomonidan amalga oshiriladi:

a) hamkorlikni boshqarish – tuman, shahar ichki ishlar bo‘limi (boshqarmasi) boshlig‘i va uning o‘rinbosarlari tomonidan;

b) hamkorlikni muvofiqlashtirish – tuman, shahar ichki ishlar bo‘limi (boshqarmasi) Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash (T va EQK) Boshqarmasi bo‘limi (bo‘linmasi) boshlig‘i tomonidan;

v) hamkorlikni tashkil etish – T va EQK bo‘limi katta tezkor vakillari tomonidan.

Tuman, shahar miqyosida T va EQK borasida keng ko‘lamli hamkorlikni boshqarish uchun eng yuqori turuvchi mas’ul shaxs – ichki ishlar bo‘limi (boshqarmasi) boshlig‘i hisoblanadi.

T va EQK negizidagi hamkorlikni boshqarish – bu vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan T va EQK negizida ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari xodimlari o‘rtasida va ular bilan jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorlikni tashkiliy-metodik, huquqiy, moddiy-texnikaviy ta’minlashga doir ijroiya-farmoyish berish faoliyati hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, T va EQK xizmat ko‘rsatadigan hududning chegaralari va ularda xizmat qiladigan tezkor (katta) vakillari shahar, tuman IIB boshlig‘i tomonidan mazkur shahar yoki tuman hokimlari bilan kelishilgan holda mahalla hududlari miqyosida belgilanadi.

Tezkor (katta) vakillar tomonidan tuzilgan oylik ish rejasi shahar, tuman IIB boshlig‘i yoki uning birinchi o‘rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

T va EQKning hamkorlikdagi faoliyati har oyda, chorakda, yarim yil va yil yakuni bo‘yicha shahar, tuman IIB boshlig‘i yoki uning o‘rinbosarlaridan birining huzuridagi yig‘ilishlarda muhokama qilinib boriladi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, kelgusida bu boradagi ishlarning samaradorligini oshirish maqsadida aniq chora-tadbirlar belgilanib boriladi.

Tuman, shahar ichki ishlar bo‘limi (boshqarmasi) boshlig‘ining T va EQK faoliyatini, ularning negizidagi keng ko‘lamli hamkorlikni boshqarishidagi muhim jihati u mazkur faoliyat yoki hamkorlikni samarali tashkil etish va takomillashtirish, aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tashkiliy-metodik va moddiy-texnikaviy xususiyatga ega boshqaruv qarorlarini qabul qiladi va ularning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Bu esa T va EQK faoliyatini va ular negizidagi keng ko‘lamli hamkorlikni boshqarishning ajralmas qismi bo‘lgan – huquqiy ta’minlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, T va EQK tezkor (katta) vakili lavozimiga tayinlangan xodim tomonidan xizmat hududini qabul qilish va topshirish shahar, tuman ichki ishlar idorasi boshlig‘i, uning birinchi o‘rinbosari yoki T va EQK bo‘linma boshlig‘ining bevosita ishtirokida amalga oshiriladi.

Tuman, shahar ichki ishlar bo‘limi (boshqarmasi) boshlig‘i aksariyat hollarda T va EQK negizida ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari xodimlarining o‘zaro hamkorligini, qolaversa ularning jamoatchilik bilan hamkorligini o‘zining o‘rinbosarlari orqali boshqaradi.

Tuman, shahar ichki ishlar organlari tizimida T va EQK negizidagi

tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirish, sodir etilgan jinoyatlarni ochish, qidiruvdagi shaxslarni aniqlash va qo‘lga olish, terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurash, xususan, shu maqsadda tezkor tadbirlarni amalga oshirish kabi yo‘nalishlardagi keng ko‘lamli hamkorlik ichki ishlar bo‘limi (boshqarmasi) boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari tomonidan boshqariladi.

Davlat organlari va nodavlat tashkilotlarining vakolatlari. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarida belgilanganidek, T va EQK negizidagi hamkorlikni boshqarish borasidagi asosiy mas’uliyat tuman, shahar ichki ishlar bo‘limi (boshqarmasi) boshlig‘ining profilaktika xizmatiga rahbarlik qiluvchi o‘rinbosari zimmasiga yuklatilgan.

Terrorizm va ekstremizm jinoyatni ochishda turli yo‘nalishda ishlayotgan agentura imkoniyatlaridan foydalanish taqozo etiladi. Shuning uchun ushbu holatda ayrim bo‘linmalar o‘rtasida chambarchas hamkorlikni ta’minlash zaruriyati vujudga keladi. Boshliq terrorizm va ekstremizm jinoyatlarini ochishda hamkorlikni tashkil etar ekan, uning hal etishi kerak bo‘lgan eng muhim masalalardan biri o‘zaro axborot almashish tizimini tashkil qilish hisoblanadi. U zarurat yuzasidan va hamkorlik qiluvchi xizmat va bo‘linmalarning so‘roviga binoan axborotni taqsimlash bo‘yicha o‘ziga xos dispetcherlik nuqtasi bo‘lib xizmat qiluvchi mavjud muayyan axborot markazi (banki)ni ifodalaydi. Vazifa ma’lumotlar bankida bo‘lgan axborot turlari bilan xizmat va bo‘linmalarning tanishuvini ta’minlash uchun: axborot to‘plamini yangi ma’lumotlar bilan doimiy ravishda to‘ldirib borish; manfaatdor xizmatlarning so‘rovlariga binoan ular uchun zarur ma’lumotni o‘z vaqtida berishdan iborat. Shu maqsadda xizmat va bo‘linmalarga navbatchilik qismlaridan tegishli axborotni jo‘natish va olish tartiblarini belgilash, hujjatlarning (so‘rovlar, axborot tashuvchilar) tegishli shakllarini ishlab chiqilishini ta’minlash; mavjud hujjatlarga (namunaviy rejalar, hisob-kitoblar va boshqalar) o‘z vaqtida o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlash lozim. O‘zaro axborot almashuvning bunday tizimini tashkil etish hamkorlik qiluvchi xizmat bilan o‘z vaqtida zarur axborot almashinuvini ta’minlashga imkon beradi, jinoyatni ochish va jinoyatchini qidirishni yengillashtiradi.

Agar jinoyat sodir etgan shaxs aniqlangan bo‘lsa, hamkorlik tamom bo‘lmaydi. Hamkorlik ishtirokchilarining vazifalari bu sharoitda har tomonlamalik kasb etib, jinoyat ishi bo‘yicha isbotlash predmetini ta’riflaydigan barcha holatlarni to‘liq aniqlash, jinoyatning barcha ishtirokchilarini aniqlash va fosh etish, ular jinoiy faoliyatining barcha ko‘rinishlarini isbotlashdan iborat bo‘ladi.

Hamkorlik tergov yakunlanguniga qadar uzluksiz bo‘lishi lozim.

Hamkorlikdagi tergov harakatlari va tezkor-qidiruv chora-tadbirlarining jadalligini erishilgan natijalarni hisobga olgan holda boshqarish taqozo etiladi. Hamkorlik ishtirokchilari tomonidan jinoyatni ochish bo‘yicha uzil-kesil choralar amalga oshirilganidan keyin tergov-operativ guruhi rahbarining taklifiga muvofiq hamkorlikni to‘xtatish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi.

Jinoyatlarni ochishda hamkorlikni tashkil etish vaqtida birgalikdagi faoliyat ishtirokchilarining sa’y-harakatlari ochilmagan jinoyat ishlari bo‘yicha ma’lumot yig‘ish, tizimlashtirish va to‘plash, JIB operativ apparatlari xodimlari bilan aloqa o‘rnatish va ularning imkoniyatlaridan foydalanish, jamoatchilik vakillaridan foydalanish, ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlarini ishga solish va hokazolar bo‘yicha kompleks choralarni amalga oshirishga qaratiladi. Bu maqsadda maxsus operativ guruh tuziladi va u bunday jinoyatlarni ochish bo‘yicha asosiy tashkiliy bo‘g‘in hisoblanadi.

Bunday guruhlar tarkibining barqarorligi, ular tomonidan bajariladigan ishlarning bir turdaligi, guruh har bir a’zosining faoliyati rejalashtirilishi, ularning faoliyati ustidan doimiy nazorat, amaliy va metodik yordam ko‘rsatilishi ta’minlanishi kerak.

Maxsus ixtisoslashgan tezkor-tergov guruhi a’zolarining hamkorligini ta’minlashda jinoyat, ochilmagan jinoyatlar (jinoyatlar turi, ularni sodir etish joyi va usuli, jinoiy tajovuz predmeti, jinoyatni yashirish usullari va sh.k.) tahlil qilish muhim o‘rin egallaydi.

Qidiruv ishlari jinoyatchilikka qarshi kurashishning ajralmas qismi hisoblanadi. Izlab topilmagan jinoyatchilar ichida xavfli jinoyatchilar salmoqli o‘rin egallaydi va ushbu yo‘nalishdagi faoliyatda jiddiy kamchiliklar mavjudligini qayd etish joiz. Bunday holatlarning sabablaridan biri joylarda tashkilotchilik ishlarining sust tashkil etilganligidir. Ichki ishlar idoralari shahar-tuman rahbarlari jinoyatchilarni qidirishga kam e’tibor beradilar, yomon qidiruv sabablarini chuqur o‘rganmaydilar, jinoyatchilarni qidirishda kuch va vositalardan har tomonlama foydalanishni, ularning kerakli darajada hamkorligini ta’minlamaydilar.

Yashiringan jinoyatchini qidirishda barcha xizmat va bo‘linmalar ishtirok etishlari kerak. Bu ishlarni tashkil etish shahar-tuman boshliqlari zimmasiga yuklatilgan. Aynan ular ko‘rsatilgan organlarning kuch va vositalaridan keng foydalanilishini ta’minlashlari kerak. Ular zimmasiga bu kuchlarning hamkorligini tashkil etish, shuningdek, muayyan ichki ishlar idoralari bilan hamkorlik (yuqori turuvchi rahbarlarning roziligiga ko‘ra) majburiyati yuklatilgan.

Qidiruv ishlarining asosiy hajmi T va EQK bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi. Shuning uchun hamkorlikni tashkil etishda ular odatda, hamkorlikda u yoki bu qidiruv tadbirini amalga oshirishda mas’ul etib tayinlanadilar.

Bunday hamkorlikni tashkil etish shakllarini tanlash qidirilayotganning sodir etgan jinoyati xususiyatlari, uning shaxsi qochishi holatlari, hamkorlik ishtirokchilarining imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Har qanday holatda ham hamkorlik ishtirokchilarining e’tibori va sa’y-harakatlari: qidirilayotganning turmush tarzi va xulq-atvori, uning qarindosh-urug‘lari va tanishlari hamda u munosabatda bo‘lgan yoki uning yashirinishiga ko‘maklashgan shaxslarni aniqlash va o‘rganish; uning paydo bo‘lish ehtimoli bo‘lgan joylarda ushbu manzilga kelib-ketuvchi shaxslarni qayd etish, qidirilayotganning tashqi ko‘rinishi belgilari, fotosurati yoki shaxsiga xos xulq-atvor belgilari bo‘yicha tanib olish maqsadida doimiy operativ kuzatuvni amalga oshirish; uning ilgari yashayotgan joyi hamda uning qarindoshlari va boshqa yaqin kishilari yashaydigan joylarda yashirin yoki niqoblangan tekshiruvlar o‘tkazish; qidirilayotgan shaxs paydo bo‘lishi ehtimol tutilgan joylarda kuzatuvni amalga oshirish; qidirilayotganning qarindosh-urug‘lari va tanishlariga uning aybini bo‘yniga olib kelishiga ko‘ndirish maqsadida ta’sir ko‘rsatish; mavjud hisoblar bo‘yicha tekshiruv o‘tkazish va hokazo.

O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan (2004-yil 30-aprel kuni mazkur qonunga o‘zgartirishlar kiritildi va 2004-yil 6-iyulda kuchga kirgan qo‘shimchalari bilan).

6-modda. Terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiruvchi davlat organlariga ko‘maklashish.

Davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, shuningdek, fuqarolar terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiruvchi davlat organlariga ko‘maklashadilar va zarur yordam beradilar.

7-modda. O‘zbekiston Respublikasining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkorligi.

Terrorizmga qarshi kurash sohasida O‘zbekiston Respublikasining chet el davlatlari bilan, ularning huquqini muhofaza qiluvchi organlari, maxsus xizmatlari hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining buzilishiga aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

8-modda. Terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha davlat organlari.

Terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;
- O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati;
- O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.

Terrorizmga qarshi kurashda ishtirok etayotgan davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish hamda terrorchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash, unga chek qo‘yishish va uning oqibatlarini minimallashtirish borasida hamkorlikda harakat qilishlarini ta’minlash O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

Bugun dunyoning ko‘plab davlatlari turli ko‘rinishdagi jiddiy muammolarga duch kelayotgan bir vaziyatda yurtimizda mustaqillikning o‘tgan o`ttiz ikki yili davomida, ayniqsa Yangi O‘zbekiston sharoitida muhtaram Yurtboshimiz tomonidan barcha sohalarda izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida xalqimiz hayoti kundan kun zamon bilan hamnafaslashib bormoqda. Shu o‘rinda Prezident Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 19–sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 78–sessiyasidagi nutqida: “Inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash – O‘zbekiston o‘z oldiga qo`ygan strategik vazifalardan biridir. Biz hamma uchun ochiq va sifatli ta’limni kambag`allikka barham berish, xalq farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishning eng samarali omili, deb bilamiz”[2, b.1-2.], - degan fikrni qayd etdi. Buning mazmun – mohiyati odamning hayotdagi insoniy omilkorligini va ichki imkoniyatlarini yanada teranroq anglashga chorlashdan iborat. Demak, biz ilimli yoshlarni mukammal tarbiyalash orqali yuqorida qayd etilgan muammolarni hal etamiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun” – T:.O`zbekiston, 2022 - yil.-B.371.

2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi. “Xalq so`zi” gazetasi, 2023-yil 20-sentabr –B.1-2.

HUSNIDDIN NORQULOV,
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lib boshlig‘i,
ped.fan.nom. dotsent

O‘SMIR-YOSHLARNI G‘OYAVIY TARBIYASIGA SALBIY TA’SIR KO‘RSATUVCHI OMILLAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Globallashuv mustaqilligimiz, milliy mentalitetimiz va qadriyatlarimizga turli xil ma’naviy-mafkuraviy tahdidlarni ham kuchaytirmoqda. G‘arb sog‘lom aqlni zaiflashtirish yoki umuman “bartaraf” etish borasida tinmasdan harakat qilmoqda. Sog‘lom aql yo‘qotilgach esa, insonni har qanday yovuz afsona va uydirmalarga da’vat etish mumkin bo‘ladi. Ana shunday asosi yo‘q mafkuralardan biri “evrotsentrizm” bo‘lib, “Bizning yo‘limizdan yur – bu seni eng yaxshi hayotga olib boradi”, deya maslahat beradi.

Bu borada Abu Nasr Forobiyning: *“Har kimki, ilmi hikmatni desa, uni (o‘rganishni) yoshligidan boshlasin,... yaxshi axloq-odobli bo‘lsin, so‘zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlansin, xiyonat, makr va xiyladan uzoq bo‘lsin, barcha qonun-qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo‘lsin, ilmli, dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol dunyosini ayamasin...”* [1] degan fikrlari o‘smir-yoshlarning g‘oyaviy tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi yangi O‘zbekistonni barpo etish sharoitda davlat siyosatining bosh omillaridan biri ham teran fikrlovchi, o‘z mustaqil dunyoqarashiga ega, ma’naviy-axloqiy jihatdan shakllangan iqtidorli o‘smir-yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashdir. Chunki, turli yot mafkuralarga ko‘r-ko‘rona ergashish insonni tanazzulga olib kelishi shubxasiz. Bugun dunyo moddiylikka qarab ketmoqda, albatta bu yaxshi, lekin insonlarda iste’molchilik ruhiyati avj oldirilib, ma’naviyatdan moddiyat yuqoriga chiqarilib, o‘smir-yoshlar qalbiga kosmopolitizm, egotsentrizm kabi g‘oyalar singdirilib, ya’ni ularda vatansizlik va molparastlik hamda xudbinliklar hammabop qadriyat sifatida tiqishtirilib, ma’naviyat qashshoqlashtirilmoqda.

Qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida oila mustahkamligini ta’minlashda milliy an’analarimiz, urf-odatlarimizning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Shu o‘rinda, jamiyatimiz ma’naviy hayotiga kirib kelayotgan “ommaviy madaniyat” tahdidlaridan himoyalashning eng kuchli vositasi o‘z milliy madaniyatimizda, an’ana va urf-odatlarimizda

aks etgan milliy o‘zligimizdir.

Demak, buguni kun siyosatimiz ham o‘smir-yoshlar ma’naviyatini umumbashariy ma’naviy inqirozlardan asrash zaruratiga alohida e’tibor qaratgani diqqatga sazovordir. Namoyish etilayotgan jangari filmlarning ko‘pchilik, ayniqsa, o‘smir-yoshlar diqqat va e’tibor bilan ko‘rmoqda. Xuddi shu yo‘nalishda diqqatni xatar nuqtai nazardan tortadigan dalilni keltirishni o‘rinli deb bildim. Ayni damda, Yevropa davlatlaridan birida, er yoki xotinning xiyonati oilani buzishga sabab bo‘la olmaydi, degan qonun qabul qilindi. Albatta, buni ularning ichki ishi, deyishimiz mumkin. Ammo bu qonun ijtimoiy tarmoqlar, G‘arb ommaviy axborot vositalari orqali butun dunyoga demokratiyaning va shaxs erkinligining yaxlit namunasi sifatida targ‘ib qilinmoqda. Bu o‘z navbatida xalqaro dolzarb ma’naviy muammolardan biriga aylanmoqda.

Bundan tashqari, ota-onalar bilan avlodlar orasida ziddiyatlar, katta avlodning ayrimlarida bilimlarining biryoqlamaligi va yuzakiligi, ichkilikbozlik va boshqa sabablar tufayli o‘z farzandlarini nazorat qilaolmayotgan ota-onalar haqida achinish bilan gapirish mumkin. Taniqli rus madaniyat arbobi, aktyor Aleksey Batalov mazkur sharoitning shaxs, oila ma’naviyatida qanday aks etayotganini va bu ahvol xatto sobiq Ittifoq davridagidan ham yomonlashayotganini chuqur dard bilan his etarkan, shunday deydi: *“Meni bugungi kun kishilari pulning quliga aylanib qolayotgani qattiq havotirga solmoqda. Odamlar ko‘z o‘ngimizda juda tez o‘zgarmoqdalar. Nahotki, nabira o‘z buvisini kvartiradan siqib chiqarsa... Men har qanday sharoitda ham odam o‘z insonligini saqlab qola olgan muhitda o‘sib ulg‘aygan edim. Agar atrofimda shunday odamlar bo‘lmaganida, balki boshqacha bo‘larmidim...”*[2]. Vaholanki, bu san’atkor mavjud ahvolning faqat o‘zigagina namoyon bo‘lgan kichik bir lavhasi haqida ayanch bilan fikr yuritmoqda.

Ma’naviy buzuqlik deganda, umuminsoniy va milliy axloq, qadriyat, madaniyat, din va tarbiya asoslariga zid bo‘lgan, inson shaxsining tubanlashuvi, jamiyat, oila va kishilar tomonidan belgilangan axloq me’yorlariga rioya etmaslik ayniqsa, o‘smir-yoshlarni chalg‘itish, ularning ongiga g‘ayriinsoniy va g‘ayriaxloqiy g‘oya va qarashlarni singdirishga xizmat qiladigan usul va texnologiyalardir.

Shu o’rinda, siyosatchi olim Mansur Musaev “Ommaviy madaniyat”ning yana bir ko‘rinishi bo‘lgan nigilizm haqida to‘xtalib: “Nigilizm o‘zida tarixiy hamda madaniy qadriyatlarni inkor etish orqali umume’tirof etilgan qadriyatlarga nisbatan salbiy va o‘ta tanqidiy munosabatlarda bo‘lish orqali axloqiy tubanliklarni namoyon etib, o‘zida buzg‘unchilik g‘oyalarini aks ettiradi” [3] – deb keltiradi.

Bunday axloqsizlik odamlarni diniy yo‘ldan dinsizlik yo‘liga, mehr-muhabbatdan mehrsizlik yo‘liga, insoniylikdan insonsizlik yo‘liga, imondan imonsizlik yo‘liga, ruhiy yo‘ldan quruq yozmalar yo‘liga, qalb intilishlaridan jinsiy intilish yo‘liga, nasliy yo‘ldan naslsizlik yo‘liga, abadiylikdan vaqtinchalik yo‘liga, ajdodlar yo‘lidan avlodlar yo‘liga, katta oila yo‘lidan kichik juftlik yo‘liga o‘tishga da’vat etishdir. Qadriyatlarimizni unutishga intilishdir. Masalan, bir guruh amerikalik olimlar amalga oshirgan tadqiqot natijasiga ko‘ra, tartibsiz jinsiy hayot kechirayotgan o‘smir-yoshlarning 30 foizi baxtsizligi, umidsizligi, hayotdan qoniqmasligini tan olgan. Ularning ma’lum qismi jinsiy xastalikka uchragan, boshqalari esa chuqur ruhiy tushkunlik holatiga tushib qolgan.

Taniqli amerikalik sotsiolog, kelib chiqishi yapon millatiga mansub Frensis Fukuyama oila va jamiyatdagi muammolar xususida to‘xtalib, G‘arb jamiyati duch kelgan kasallikning sabablari haqida to‘xtalib, ularni oilaning inqirozga uchragani bilan bog‘liq, degan xulosaga keladi. Asarda, shuningdek, G‘arb ma’naviy inqirozining boshqa muhim sabablari, chunonchi, “kulturologik” omil, ya’ni G‘arb madaniy qadriyatlari yemirilib borayotgani tahlil etiladi. Feministik harakatlar, jinsiy “inqilob”, gey (besoqolbozlik) va lesbiyankalikning (ayollar gomoseksualligi) erkinligi, ruhiy tahlil va antropologiyaga yoppasiga qiziqish, afsungarlik va xiromantiyaga berilish shundan dalolat beradi. Amerika erkaklarining 25 foiziga yaqini besoqolboz ekani aniqlangan. Har yili 200 mingga yaqin besoqolbozlar Los-Anjeles ko‘chalarida namoyish o‘tkazadilar [4].

Shu bois, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosat ham insoniyatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnologik taraqqiyot borasida to‘plagan ijobiy tajribasini astoydil o‘rgangan holda, birinchi galda, davlatchilik an’analarimiz, milliy qadriyatlarimiz, boy ma’naviyat va madaniyatimiz negizida yurtimizda demokratik huquqiy davlat hamda fuqarolik jamiyatini barpo etish, rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o‘rin egallashga qaratilgan.

Darhaqiqat, jamiyat hayotida kechayotgan jarayonlarni tahlil qilish, turli g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlardan ogoh bo‘lish, xorijdan kirib kelayotgan mamlakatimiz manfaatlari, milliy an’ana va qadriyatlarimizga yot g‘oya va qarashlar qanday maqsadni ko‘zlayotganini anglab yetish hamda bu borada ommaviy axborot vositalari, radio, televidenie kanallari orqali aholi, ayniqsa, o‘smir-yoshlar o‘rtasida izchil targ‘ibot ishlarini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘smir-yoshlarimiz mamlakatimiz kelajagi uchun xavf qaerdan, qanday tarzda, qanday shakl va ko‘rinishlarda kelayotganligini anglash

uchun bobolarimizning boy ma’naviy-ma’rifiy va axloqiy meroslarini har tomonlama o‘rganib, egallab olsagina ularning tahdidlariga munosib javob berib, o‘zligimizni saqlab qolishimiz mumkin. Darhaqiqat, bizning ota bobolarimiz hech qachon Xitoy, Hindiston, Gresiya, Rim, Arabiston, Yevropa kabi yot madaniyatlar orqasidan ko‘r-ko‘rona ergashib bormagan.

Binobarin, jamiyatda demokratik qadriyatlar izchil tarkib topib bormoqda. Bu jarayonda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘un qabul qilish, ma’naviy va axloqiy qoidalarga yangicha munosabat, mafkuraviy va ma’rifiy yangilanib borish kabi xususiyatlar shakllandi. Bugungi kunda o‘smir-yoshlarning ongiga katta zarar yetkazayotgan yana bir salbiy “Ommaviy madaniyat” bo‘lib, bu – bir guruh shaxslar tomonidan o‘ylab (o‘sha millat uchun foyda keltiradigan) topilgan va ongli ravishda odamlar ongiga targ‘ib qilinib, singdiriladigan va biror millat madaniyatiga dahli bo‘lmagan g‘oyalar, odatlar va udumlar yig‘indisi deyish mumkin.

G‘arb bizga ko‘z-ko‘z qilayotgan turmush tarzi, ichkilik, giyohvandlik va turli ma’naviy buzuqliklar ijtimoiy-axloqiy hayotimizga kirib, kundalik odat tusiga aylanib borishi natijasida ayrim o‘smir-yoshlar esa buzuqchilik va axloqsizlikni targ‘ib qiluvchi odatlarini ma’qul ko‘rib qolishmoqda. Bu o‘z navbatida o‘smir-yoshlarni milliyligimizdan yanada yiroqlashtirib, ommaviy madaniyat ta’siriga tushib qolishlariga sabab bo‘lmoqda.

Masalan, 2021-yil 1-dekabrdagi AQShning Michigan shtati Oksford shahridagi maktabda yuz bergan otishmada uch kishi halok bo‘ldi, sakkiz kishi yaralandi. Bu haqda Associated Press [5] xabar berdi. Tekshiruvlar natijasiga ko‘ra, bunga asosiy sabab kompyuterdagi mashhur “Ooot” o‘yini bo‘lib chiqqan.

Shuningdek, O‘zbekistonning hozirgi ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-mafkuraviy taraqqiyotida **diniy fundamentalizm va ekstremizmga** qarshi kurashga katta kuch safarbar etilgan bo‘lib, bu xavfga qarshi ma’rifiy kurashish strategik vazifalardan biri hisoblanadi.

Mana bu borada fransuz yozuvchisi Markiz De Sad: *“Biz butun dunyoni egallamog‘imiz uchun bundan buyon katta mahorabalarda qatnashishimiz, jangu-jadallar yuritib, dunyoning qariyb uzoq o‘lkalarida farang askari halok bo‘lishi-yu, uning jasadi va etiklari chirib bitishi mutlaqo shart emas. Agar biz boshqa mamlakatlarga, xususan Sharqqa axloqimizni (to‘g‘rirog‘i axloqsizlikni) menikiday kitoblar va boshqa yo‘llar bilan tarqata olsak, uni o‘sha xalqlarning turmush tarziga aylantira bilsak, jumlayi jahon oyog‘imiz ostiga o‘zi yiqilib keladi, butun odamzotning qalbiga egalik qilishga muvaffaq bo‘lamiz”,* [6] – degan edi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

– o‘smir-yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini sog‘lomlashtirish, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat hamda ehtirom tuyg‘usini shakllantirishni ilk davridan boshlash;

– barcha umumta’lim maktablarida o‘smir-yoshlarning milliy qadriyatlar va ajdodlar ruhiga ehtiromini yanada kuchaytirish maqsadida turli ma’naviy tadbirlar, tarixda o‘tgan buyuk siymolarning tavallud ayomlarini keng nishonlashni kuchaytirish;

– ma’naviyatni tushunish, anglash uchun, avvalo, insoniyatni tushunish, tarixni anglash kerakligini e’tiborga olib, inson xulq-atvorini tushuntirib beruvchi masalalarga oid tadbirlarni yanada kuchaytirish g‘oyat muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida fuqarolarimiz va o‘smir-yoshlarimiz qalbi va ongini zabt etishga qaratilgan bunday mafkuraviy xurujlar va hujumlarga qarshi kurashning sinalgan yo‘li o‘smir-yoshlar ongida mafkuraviy immunitet hosil qilish, ularning ma’naviy-mafkuraviy tarbiyasini yuqori darajada tashkil qilib, ongiga milliy qadriyatlarni singdirishdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993 й, 182-бет.
2. Алексей Баталов. Свыше даются нам испытания // Аргументы и факты. 2008. №47.
3. М.Мусаев. Глобал миқёсда маданият кўринишида тарғиб қилинаётган “оммавий маданият” таҳдиди. Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари илмий-маърифий журнал. 1(73) 2017й. 46 б.
4. Аэроянц Э. Глобализация: катастрофа или путь к развитию? -М.:, “Новой век”, 2002, с.58.
5. https://daryo.uz/ Дунё хабарлари. 01.12.2021.
6. “Тафаккур” журнали. 2002 йил февраль сони

SHOIRA BEKCHONOVA
Yangi asr universiteti kafedrasi mudiri, PhD, dotsent

KIBERPEDAGOGIKADA YOSH AVLODNI MAFKURAVIY TAHDIDLARDAN HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI

Raqamli ta’lim muhitida kiberpedagogikada yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish mexanizmlarini o’z ilmiy asarlarida yoritib kelayotgan mamlakatimiz olimlari:

Yangi asr universiteti Umumta’lim fanlari kafedrasi mudiri PhD, dotsenti Shoira Bekchonova “Raqamli texnologiyalar” nomli kitobi ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish, ta’lim sifatini oshirish borasida muhim ahamiyatga ega [1].

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti professori Shavkat Akramov – “Kiberpedagogika: raqamli avlod muammolari va yechimlari” kitobida - O‘zbekiston sharoitida yosh avlod uchun raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash va onlayn xavfsizlikni rivojlantirishga e’tibor qaratiladi.

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti Dilbar Jo‘raeva – “Raqamli asrdagi axloqiy muammolar: yoshlarga yo‘l ko‘rsatish” nomli ilmiy asarida mamlakatimizda yoshlar o‘rtasida raqamli fuqarolik va axloqiy fikrlashni targ‘ib qilish muhimligini o‘rganadi.

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot xavfsizligi kafedrasi mudiri Bahrom Umarov – “Raqamli landshaftda navigatsiya: o‘zbek yoshlarini mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish” nomli ilmiy asarida O‘zbekistonda yosh avlodni onlayn mafkuraviy manipulyatsiyadan himoya qilish uchun zarur bo‘lgan maxsus kiberxavfsizlik choralari va siyosatini ko‘rib chiqadi.

Toshkent davlat pedagogika universiteti professori Umida Nishonova - “Raqamli ota-onalar: kiber asrda oilalar imkoniyatlarini kengaytirish” nomli ilmiy asarida - Raqamli muhitda yosh avlodni yo‘naltirish va qo‘llab-quvvatlashda ota-onalar va o‘qituvchilarning roliga, O‘zbekistonning madaniy va ijtimoiy kontekstiga alohida e’tibor qaratiladi.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Psixologiya va pedagogika instituti ilmiy xodimi Sardor Rahimov – “Kiberpedagogika va o‘zbek yoshlari: tahdidlar, chidamlilik va imkoniyatlarni kengaytirish” ilmiy ishlarida - Kiberpedagogika sharoitida o‘zbek yoshlarini mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishning psixologik va sotsiologik jihatlarini mahalliy amaliy tadqiqotlar va tahlillar asosida o‘rganadi.

Mamlakatimiz olimlari O‘zbekistonda kiberpedagogika kontekstida

yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish mexanizmlarini tushunishga katta hissa qo‘shgan. Ularning kitoblari va tadqiqotlari o‘qituvchilar, siyosatchilar va oilalar uchun raqamli landshaftda harakatlanish hamda o‘zbek yoshlarining intellektual va axloqiy rivojlanishini himoya qilishda qimmatli tushuncha va amaliy yechimlarni taqdim etadi [2].

Himoya mexanizmlari:

1. Raqamli savodxonlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish:

- Onlayn dunyoda samarali harakat qilish va noto’g’ri ma’lumot yoki manipulyatsiya mazmunini aniqlash uchun yosh avlodni raqamli savodxonlik ko’nikmalariga boyitish.

- Internetda duch keladigan ma’lumotlarni tahlil qilish, baholash va ongli qarorlar qabul qilish uchun tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

2. Ota-onalar va pedagoglarning ishtiroki:

- Ota-onalar va o’qituvchilarni raqamli muhitning potentsial xavf-xatarlari va yosh avlodni xavfsiz navigatsiya qilishda qanday yo’naltirish va qo’llab-quvvatlash bo’yicha o’rgatish.

- ota-onalar, o’qituvchilar va talabalar o’rtasida paydo bo’lgan muammolarni hal qilish uchun ochiq muloqot va hamkorlikni rag’batlantirish.

3. Onlayn xavfsizlik va maxfiylikni mustahkamlash:

- Ta’lim maqsadlarida foydalaniladigan onlayn platformalar va infratuzilmani himoya qilish uchun kuchli kiberxavfsizlik choralarini amalga oshirish.

- Ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalardan mas’uliyatli va axloqiy foydalanish bo’yicha aniq siyosat va yo’riqnomalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

4. Raqamli fuqarolik va axloqiy xulq-atvorni targ’ib qilish:

- mas’uliyatli, hurmatli va axloqiy onlayn xulq-atvor muhimligini ta’kidlab, yosh avlodda raqamli fuqarolik tuyg’usini shakllantirish.

- murakkab onlayn vaziyatlarda harakat qilish va ongli qarorlar qabul qilish uchun axloqiy fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirishni rag’batlantirish.

5. Tegishli manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik:

- Raqamli sohada yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish bo‘yicha kompleks strategiyalarni ishlab chiqish uchun ta’lim muassasalari, davlat idoralari va texnologiya kompaniyalari o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish.

- Jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati guruhlarini xabardorlikni

oshirish va ushbu muhim ish uchun resurslarni safarbar qilish uchun jalb qilish [3].



1-rasm. Kiberpedagogikada yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish mexanizmlarining hozirgi kundagi afzalliklari va kamchiliklari

Kiberpedagogikada yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish mexanizmlarining hozirgi kundagi afzalliklari va kamchiliklarini quyidagicha tahlil qilish mumkin:

Afzalliklari:

1. Raqamli texnologiyalar va kiberfazoda olib borilayotgan ta’lim-tarbiya jarayonlarining yangilik va ijodkorlik xarakteri. Zamonaviy texnologiyalar yordamida talabalar ongini sog’lom ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bilan qurollantirish imkoniyatlari kengaymoqda.

2. Kiberpedagogika ta’lim jarayonlarini shaxsga yo’naltirilgan va interaktiv tarzda tashkil etish imkonini beradi. Bu esa talabalarning fanga qiziqishi, faolligini oshirib, bilim, ko’nikma va malakalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

3. Raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali talabalarning mustaqil ta’lim olish ko’nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu borada maxsus multimedia ta’lim resurslari va elektron kutubxonalar muhim ahamiyatga ega.

4. Zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar orqali talabalar bilimlarini monitoring qilish, o’quv jarayonini individual yondashuvlar asosida loyihalashtirish imkoniyatlari yuzaga kelmoqda.

Kamchiliklari:

1. Raqamli texnologiyalardan noto’g’ri foydalanish yoki ularni nazorat qilishda yetarli ko’nikmalarning yo’qligi tufayli yosh avlod ongiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin.

2. Kiberprofessionallar va ota-onalarning digital savodxonlik darajasining past bo’lishi tufayli ular yosh avlodning kiberfazoda ruhiy-ma’naviy himoyasini to’la ta’minlay olishmaydi.

3. Kiberfazoda yuzaga kelayotgan yangi mafkuraviy tahdidlar (ekstremizm, terrorizm, siyosiy manipulyatsiya kabi) o’sib kelayotgan avlodni ta’sirlash xavfini kuchaytirmoqda.

4. Raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan noto’g’ri foydalanish talabalarning jismoniy va psixologik salomatligi uchun xavf tug’dirmoqda.

Ushbu kamchiliklar yosh avlodni kiberfazodagi mafkuraviy tahdidlardan himoyalashda kompleks yondashuvlarni talab etadi. Bu borada kiberpedagogning roli beqiyos bo’lib, zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanib, talabalarda psixologik barqarorlik, mustaqil fikrlash va kuchli ma’naviy immunitetni shakllantirishi lozim.

Xulosa: Kiberpedagogik muhitda yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish ko‘p qirrali yondashuvlarni talab qiladi. Raqamli savodxonlikni rivojlantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, onlayn xavfsizlik va xavfsizlikni kuchaytirish, raqamli fuqarolikni rag’batlantirish va tegishli manfaatdor tomonlar, o’qituvchilar va siyosatchilar bilan hamkorlik qilish orqali yosh avlod uchun yanada xavfsizroq va kuchayib borayotgan raqamli landshaft yaratish mumkin. Bunday keng qamrovli sa’y-harakatlar jamiyatimizning bo‘lajak yetakchilari va fuqarolari farovonligi va intellektual rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bekchonova Sh.B. Raqamli va axborot texnologiyalari. metodik-qo’llanma. “Lesson press” nashriyoti, T.:2022 yil, 48 b.

2. Dilmurad N. Mamatov1, Shoira B. Bekchonova2, Yulduzkhan S. Polvonova3, Abrorjon Z. Makhmudov4 . Cyberpedagogy in the Context of Digitality(Scopus). DOI: 10.47750/pnr.2022.13.S03.268. Journal of Pharmaceutical Negative Results ¦ Volume 13 ¦ Special Issue 3 ¦ 2022. 1757-1761

3. Бекчонова Ш.Б. Роль цифрового образования в нашем обществе. ПРОСВЕЩЕНИЕ И ПОЗНАНИЕ 2022. № 1 (8) Научно-методический журнал. ISSN 2782-2613 (Print) ISSN 2712-9160 (Online). Иваново Умы Современности 2022.23-28 с

OLMOS TURSUNOVA,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

MAHALLA – YOSHLARNI MAFKURAVIY TAHDIDLARDAN HIMOYA QILUVCHI MASKAN

Bugungi tez o‘zgarib borayotgan shiddatli davrda ahil jamoani shakllantirish, aholining ijtimoiy muammolarini hal etish, odamlarni ezgu maqsadlar yo‘lida birlashtirish va safarbar etish orqali fuqarolar yig‘inlaridagi ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash, yoshlar mafkuraviy immunitetini shakllantirish masalasi hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Mahalla – fuqarolik jamiyati instituti sifatida qator muhim vazifalarni bajarib, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash va kuchaytirish, ijtimoiy guruhlarning tengligini saqlashga yordam beradi. Shuning uchun ham bugungi kunda mahalla aholining barcha qatlamlarini himoya qiladigan, ayniqsa yoshlarga to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq ko‘rsata oladigan ijtimoiy institutga aylandi.

Mahallalarda xalqimizning tinchligi va farovonligini mustahkamlash, oilalarda sog‘lom ma’naviy muhitni yaratish, yoshlarga oid davlat siyosatini yanada samarali amalga oshirish, o‘sib kelayotgan yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, bizning qanday buyuk tarix va merosga ega ekanimizni anglab, ana shu bebaho boylikni qadrlab, zamon bilan hamnafas yashaydigan va qadam tashlaydigan, mamlakatimiz taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashaydigan yetuk shaxslar sifatida shakllantirish, ayniqsa, yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda mahallaning ta’siri g‘oyat muhimdir.

Yoshlar uchun asosiy tarbiyaviy muhit mahalla hisoblanadi. Mahalla – tarbiya o‘chog‘i. Tinchlik va xotirjamlikning saqlanishida, har bir oilaning farovon va har tomonlama rivojlanishida, ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida mahallaning o‘rni beqiyos.

O‘zbek mahallalari – tom ma’noda, milliy qadriyatlarning maskani. Oilada ota-ona bolaga qanchalik tarbiya bera olsa, o‘sha oila yashayotgan mahallaning tarbiya borasidagi hissasi ham shuncha bo‘ladi, desak, xato qilmaymiz. Buning ustiga, mahallada xalqimizning qadimiy boy an’analari hozir ham o‘z kuchini yo‘qotgan emas. Mahalla o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatida oiladan fuqarolik jamiyatiga o‘tish uchun ma’naviy ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi.

Mahalla, shubhasiz, insonni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb

etadi. Chunki bola mahallada ulg‘ayadi, ilk urf-odatlar va milliy an’analar to‘g‘risida tasavvurlarga ega bo‘ladi.

Oilalar mahalla jamoasi bilan qanchalik bir-biriga yaqin bo‘lsa, fuqarolar, ayniqsa, yosh avlodga e’tibor qaratilib, hamkorlik qilinsa, shu mahalla osoyishta bo‘ladi, uning har bir a’zosi jamiyatda o‘z o‘rnini topadi, yot g‘oyalarning kirib kelishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Mahalla – kuchli ta’sir etish imkoniyatga ega bo‘lgan tashkilot. Mahallada ezgu maqsadlarimizni amalga oshirish uchun belgilangan targ‘ibot-tashviqot ishlari yoshlarimiz ongi hamda qalbiga ta’sir etishga urinayotgan buzg‘unchi g‘oyalarning oldini olish va ularga qarshi kurashishda ijobiy samaralar beradi.

Shu bois O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-209-son Farmonida mahalla institutini yanada takomillashtirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlari belgilangan:

milliy qadriyat va urf-odatlarni hurmat qilishga chaqirish, ma’naviy va ma’rifiy ishlarda mahallaning o‘rnini kuchaytirish, aholi o‘rtasida o‘zaro hurmat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash choralarini ko‘rish [1].

Ya’ni yoshlarni ma’naviy boy va jismonan sog‘lom etib tarbiyalash, ularning bandligini ta’minlash, yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini, keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasida fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorligini mustahkamlashdir.

Mahallalarda turli dinga e’tiqod qiluvchi har xil millat va elat vakillari istiqomat qilar ekan, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik g‘oyasi, eng avvalo, shu joyda amalga oshadi. O‘zbek mahallasida istiqomat qilayotgan boshqa millat vakillarida ham mahalladoshlarga xos fazilatlar, xususiyatlar shakllanadi. Xususan, xorijliklar ham qo‘shni xonadonlardagi tadbirlarda faol ishtirok etishga, mahalladosh sifatidagi o‘z burchini bajarishga intiladi. Demak, mahalla turli madaniyat va dinlar o‘rtasidagi o‘zaro muloqotni ta’minlovchi muhim bo‘g‘in hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunida:

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishi – fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o‘z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma’naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an’analardan kelib chiqqan holda hal qilish

borasidagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan mustaqil faoliyatidir, deb ta’rif berilgan [2].

Ma’lumki, oilada sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va ma’naviy muhitni barqarorlashtirishda har tomonlama yetuk, sog‘lom farzandni tarbiyalash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalarida ota-onalarning huquqiy, ma’naviy-axloqiy va fiziologik bilimlarini oshirishda mahallaning o‘rni va ta’siri benihoya katta.

Zero, oila va mahallada sog‘lom muhit mavjud bo‘lgandagina, ularda har tomonlama sog‘lom, barkamol inson shakllanadi. Insonning oilada shakllangan va mahallada sayqal topgan iymon-e’tiqodi, odobi, oriyati va vijdoni, aql-zakovati, tafakkuri mahalla muhitida yanada yuksalib, xalq manfaatlari, o‘zaro inoqlik va hamkorlik his-tuyg‘ulari bilan uyg‘unlashib, jamiyatda sog‘lom munosabatlarning shakllanishiga olib keladi.

Tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida inson xususan, yoshlar tarbiyasiga jamiyat hayotining o‘ta muhim omili sifatida katta e’tibor berilgan. Chunki ma’naviy-axloqiy tarbiyasiz na insonni, na jamiyatni tasavvur etib bo‘lmaydi.

O‘zi mansub bo‘lgan millatni qadrlay bilgan kishigina, o‘zga millatning qadriga yetadi va eng muhimi, millat tuyg‘usi kishida Vatan va unga qarzdorlik ruhini yuzaga keltiradi. Bu esa o‘z navbatida, millatlararo munosabatlar, millatlararo totuvlik va hamjihatlikni har bir fuqaro xonadoni va butun mamlakat taqdirini o‘zaro bog‘liq holda anglashni taqozo etadi.

O‘zbekistonda yashaydigan har bir fuqaro, o‘zini ana shu yurt fuqarosi deb bilishi va fuqarolik burchini bajarishi, mamlakat va xalq taqdiri uchun javobgarlik hissini chuqur anglashi lozim. Shu bilan birgalikda, qaysi millatga mansubligidan qat’i nazar, shu yurtda yashaydimi, shu mamlakatni Vatanim deb tan oladimi, demak, uning taqdiriga yo‘ldosh bo‘ladi, uning tinchligi uchun kurashadi.

O‘zbek xalqi umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanadi. Bularning biri ikkinchisini inkor etmaydi. Chunki bu qadriyatlar asrlar davomida oila, qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shni, mahalla-ko‘y orqali qon-qonimizga singib ketgan. Bizning mentalitetimizga xos bo‘lgan milliy qadriyatlar, jumladan, quyidagilar:

1. Xalqimiz hayotida jamoa bo‘lib yashash ruhining ustuvorligi;

2. Xalq ongida ustuvor bo‘lgan g‘oya – inoq do‘st va yaxshi qo‘shni bo‘lib, tinchlik va totuvlikda, o‘zaro yaqin hamkorlikda yashash;

3. Oila, mahalla, el-yurt, Vatan tushunchalarini muqaddas bilish;

4. Ota-ona, mahallasiga, yoshi ulug‘larga yuksak hurmat va e’tiborda

bo‘lish, butun jamiyatni hurmat qilish;

5. Millatning o‘lmas ruhi, millat ma’naviyatining hayotbaxsh manbai sifatida ona tiliga muhabbat qo‘yish, uni sevish;

6. Kattalarga hurmat-ehtirom, kichiklarga izzat, degan e’tiqodga amal qilish;

7. Ayol zotiga ehtirom ko‘rsatish, ya’ni, muhabbat, go‘zallik va nafosat timsoli, abadiy hayot ramzi bo‘lgan ayolni qadrlash;

8. Sabr-toqat va mehnatsevarlik;

9. Halollik, mehr-oqibat va boshqalar.

Milliy qadriyat – millatning asrlar mobaynida yaratgan ma’naviy boyliklari, noyob tarixiy obidalarni avaylab asrash, kelgusi avlodlarga yetkazish, rivojlantirish, ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, hurfikrlilik, vijdon va din erkinligini qaror toptirish, ma’naviy mulkni himoya qilish.

Umuminsoniy qadriyat – jahon xalqlari uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi, insoniyatning umumiy manfaatlariga mos keluvchi moddiy va madaniy mezonlar, maqsad va intilishlarni o‘zida ifoda etadi.

Insonni inson, millatni millat, xalqni xalq qiladigan tushuncha – bu shu insonning, shu millatning, shu xalqning qadr-qimmatidir. Qadriyat shunday ma’naviy olamki, uning turfa qirralari, ming bir jilolari, quvonchu tashvishlari bor.

Avvalo, ta’kidlash joizki, har bir inson o‘zining sha’ni va qadr-qimmati bilan dunyoga keladi. Sababi har qanday oilada mo‘min, qobil farzandlarning dunyoga kelishi avvalambor, oila a’zolari tomonidan kutiladi. Demak, dunyoga kelajak farzand ma’lum bir qadriyatlar zaminida tug‘iladi.

O‘z qadrini, o‘zligini bilmagan inson o‘zgalar qadrini ham, millat va elatlar qadrini ham bila olmaydi. Anglashiladiki, har bir inson, avvalo, o‘zligini, o‘z qadr-qimmatini asrab-avaylashi lozim.

Yuqorida ta’kidlangan umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilgan oila ham sog‘lom, ham mustahkam bo‘ladi. Biroq har bir avlod, har bir jamiyat o‘tmish madaniy merosini qanday bo‘lsa, shundayligicha, ko‘r-ko‘rona qabul qilib olavermaydi. Uni yangi-yangi asoslar va tamoyillar bilan boyitib boradi. Qadri abadul-abad tushmaydigan ma’naviy tushunchalar va madaniy meroslar milliy qadriyatlarimizning asosini tashkil etadi.

Bugungi kunda muqaddas kitoblarimiz, urf-odatlarimiz, milliy udumlarimiz tiklanayapdi, o‘z ona tilimiz, tariximiz, ma’naviyatimiz, madaniyatimiz nafaqat mustaqil diyorimizda, balki butun dunyoga tanilmoqda. Men o‘zbekman degan har bir yosh o‘z yurtining, o‘zbek xalqining tarixi, madaniyati, ma’naviyati, qadriyatlari, tili va dinini

bilishi zarur.

Ota-bobolarimiz o‘z hayotiy tajribalaridan kelib chiqib va bizgacha qadrlanib, xalq og‘zaki ijodiyoti orqali yetib kelgan hikmatlar, maqol va matallarni yodga olganimizda xalqning kundalik hayoti bilan bog‘liq madaniy qadriyatlari asrlar davomida an’anaviy tarzda ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan ulkan manba ekanligini ko‘rish mumkin. Ularda olamni anglashning o‘ziga xos tarzi, xalq dunyoqarashi, ma’naviyati, madaniyati va tajribasi aks etadi.

Hozirgi kunda mahalla milliy qadriyatlarimiz maskani sifatida o‘tmishdan meros bo‘lib qolgan aholining markazdan turib boshqarilishi tizimiga barham berdi hamda unga yaqindan yordam ko‘rsatuvchi o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatida milliy qadriyatlar va urf-odatlarimizni saqlab qoluvchi, yoshlarni turli xil yot buzg‘unchi g‘oyalardan asrab qoluvchi, ularning ma’naviy-mafkuraviy immunitetini mustahkamlovchi yaxlit tizim ekanini ifoda etmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-209-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-6705763.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 22-apreldagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-350-son. https://lex.uz/acts/2156899

DJAXONGIR BAYALIYEV,
Toshkent davlat iqisodiyot universiteti dotsenti,
falsafa fanlari nomzodi,

YOSH AVLODNI MAFKURAVIY TAHDIDLARDAN HIMOYALASH MEXANIZMLARI

Ma’lumki, mafkuraviy tarbiya – inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarini ifoda etadigan g‘oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo‘naltirilgan jarayondir. Bugungi kunda mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash masalasi tobora davlat siyosatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Zero, istiqlol sharofati bilan mamlakatimizda sog‘lom dunyoqarashli, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash maqsadida turli ijtimoiy-siyosiy islohotlar amalga oshirilmoqdaki, ular yosh avlodni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan xar qanday isloxatlarning samarasi, avvalo xalqning ma’naviy-ruxiy yangilanishi tafakkurning yuksalishi, yuz berayotga o‘zgarishlar uning xayoti va taqdiriga daxldor bo‘lganini chuqur xis qilishi va shundan xulosa chiqarishi bilan belgilanadi. Barcha o‘zgarishlar va yangilanishlarning asosiga inson manfaatlari qo‘yilganligini xar bir yosh avlod xis qilishi o‘ta muxim axamiyatga egadir.

Globallashuv haqiqatda insonning nafaqat moddiy hayot tarziga, shu bilan birga ma’naviyati, ruhiy olamiga ham sezilarli ta’sir o‘tkazmoqda. Har kuni virtual makonda bir necha milliondan ziyod axborot resurslarining paydo bo‘lishi, uning hosili har daqiqa sayin o‘sib borayotganidan dalolat beradi [1]. Global tarmoq afzalliklarini inkor etmagan holda, uning insoniyat madaniyatiga tug‘dirayotgan havf-xatarlari to‘g‘risida so‘z yuritishga to‘g‘ri keladi. Bu noxush g‘ayriinsoniy holatlar muayyan kuchlarning global tarmoqdagi axborotlarni sifatli va tez uzatish hamda tarqatish bo‘yicha imkoniyatlardan foydalanish orqali jamoatchilik fikrini to‘g‘ri yo‘ldan burish, o‘zlari targ‘ib etayotgan nopok g‘oya va manfaatlar tomon yo‘naltirish uchun ularga axborot etkazish borasida olib borayotgan harakatlari bilan bog‘liqdir. So‘zsiz, bunday ta’sirga internet auditoriyasining eng faol, eng ko‘p qismi tafakkuri etilib, dunyoqarashi puxta shakllanib ulgurmagan yoshlardir.

Globallashuv turli mintaqadagi mamlakatlarning o‘zaro ta’siri kuchayishi jarayoni ekan, unda iqtisodiy va ma’naviy ta’sir ko‘pincha birgalikda kechishi kuzatiladi. Faqatgina, ayrim hollarda ular nisbatan mustaqil tarzda kechadi. Globallashuv tarixiga qarasak, qadim zamonlarda

ham iqtisodiy va ma’naviy ta’sirlar yonma-yon kechganligini kuzatamiz. Masalan, o‘rta asrlarda yurtimiz Buyuk Ipak yo‘lining markazida bo‘lganligi sababli ham G‘arbning, ham Sharqning ta’sirida bo‘lgan. G‘arbdan Sharqqa, Sharqdan G‘arbga borgan savdogarlar ham yurtimiz orqali o‘tgan[4].

Ma’naviy jihatdan G‘arbdan qolishmaydigan Sharq nima uchun ko‘proq ta’sir o‘tkaziladigan mintaqaga aylanib qoldi. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, iqtisodiy ta’sir o‘tkazish uchun iqtisodiy jihatdan boy bo‘lish kerak. Biroq, ma’naviy ta’sir o‘tkazish uchun ma’naviy boylikning o‘zi kifoya qilmas ekan. Ma’naviy globallashuv jarayonlarini o‘rganar ekanmiz, ma’naviy ta’sir o‘tkazishning muhim sharti ma’naviy faollik degan xulosaga keldik[2].

Ta’sufki, bugun yoshlarimizning aksariyati globallashuv tufayli Evropa va xorijiy ma’naviy-madaniy oqimlar ta’siriga ko‘proq ishtiyoqmand bo‘lib, milliy ma’naviyatimizning hayotbaxsh yuksak ahloqiylikka asoslangan tamoyillariga ihlosmandligi sust kechmoqda. Inson qadri, ma’suliyati, ahloqiga bepisandlik ba’zi yoshlarning kiyinishi, fe’l-atvori, yurish-turishida yaqqol ko‘zga tashlanib qolmoqda.

Yosh avlodni turli tahdidlardan himoya qilishda eng avvalo yoshlarda axborot madaniyatini va odob-axloqni shakllantirish kerak. Inson yaralibdiki, tarqaqqiyot, rivojlanish davom etib kelmoqda. Ibtidoiy davrdan to fan-tehnika taraqqiy etgan bugungi kunga qadar bo‘lgan jarayonlar fikrimiz isboti[3].

Mustaqillik degan oliy ne’mat fuqarolarimizga tinch va osuda hayot kechirishga, ezgu maqsadlar, go‘zal tilaklar ro‘yobini ko‘rishga imkoniyat yaratmoqda. Afsuski, bu imkoniyatlardan oqilona foydalanish o‘riniga, bugun turli yot oqimlar ta’siriga tushib qolayotgan va umrini hazon qilayotgan, nafaqat o‘zini, balki boshqalarning haytiga ham xavf solayotgan insonlar ham oramizda uchrab turibdi. Shak-shubhasiz axloq insoniyat rivojining asosini tashkil etadi. Axborotlashgan jamiyatda yangicha axloqni qayd etib borish usuli hisoblash texnikasini qo‘llashga asoslanagan. Zamonaviy fanning uslublari juda katta hajmidagi ma’lumotlarni yig‘ish imkonini beradi, bunda yangicha, yondashuv qo‘llanadi (kuzatuv, eksperement, nazariyalashtirish, modellashtirishga asoslanmagan yondashuvlar).

Axborot jamiyati insoniyat tarixidagi hozircha eng so‘nggi tamaddun bo‘lib, uning asosiy mahsuloti axborot va tafakkurdir. Ahamiyat beradigan bo‘lsak, dunyoning juda ko‘p boylar aynan intellekt evaziga mablag‘ yig‘ishmoqda. Axborotni to‘plash, qayta ishlash va tarqatish orqali har kecha-kunduzda milliardlab mablag‘ aylanishini tasavvur qilish

qiyin emas. Birgina «Microsoft» kompaniyasi orqasidan minglab aqliy salohiyat sohiblari «suv ichadi». Masalan, internet tizimidagi brauzer (qidiruv xizmati) xo‘jayinlari saytga kiruvchilarni cheksiz ma’lumotlar bilan ohanrabodek chorlab, xaridorlar e’tiboriga yirik korxona va firmalarning mahsulotlari reklamasini ham havola etish natijasida millionerga aylanishdi.

Amerikalik siyosatchilar axborotlashgan jamiyatning bir qator muhim ko‘rsatkichlarini sanab o‘tishgan. Axborot mahsulotlari (ommaviy axborot vositalari mahsulotlari, madaniyatning turli ko‘rinishlari va hokazo) bora-bora yalpi ichki mahsulotlar (ishlab chiqarish sanoati, agrosanoat, nefть va metallurgiya) keltirayotgan umumiy daromaddan ortib ketadi.

“Axborot”, “axloq” tushunchalari ko‘pincha bir-biriga o‘xshatiladi. Bu qisman shu bilan izohlanadiki, bir darajada axborot sifatida amal qiluvchi dalillar boshqa darajada ma’lumot sifatida amal qilishi mumkin. Masalan, radio yoki televideniye muxbiri intervyu olish jarayonida axborot, ya’ni yangilik oladi. Bu axborot jamoatchilik fikrini o‘rganish uchun ma’lumot bo‘lib xizmat qiladi. Bu axborotdan, o‘z navbatida, tashkilotlar, muassasalar ma’lumot sifatida foydalanishi mumkin.

Ko‘pgina ilmiy adabiyotlarda axborot va axloq aynanlashtiriladi. Vaholanki, axloqaxborotlar yig‘indisi, tushunchalar, tasavvurlar, g‘oyalar majmuasidir. Aloqa kanalida, muloqot jarayonida axloq axborotning mazmuniga aylanadi. Axloqning ma’nosi axborot signallarini ketma-ketligida, tartiblashida kodlashtiriladi.

XX asrning ikkinchi yarmida aloqa va telekommunikatsiya vositalarining rivojlanishi, elektron hisoblash texnikasining vujudga kelishi va hayotning turli sohalariga kirib borishi axborotning kengroq tushunchasini ishlab chiqishni talab etdi. Axborot ehtimolli-statistik yondashuv asosida amalga oshiriladi va biron-bir ob’ekt, tizim, jarayon va hodisa haqidagi axloqliy noaniqlik darajasining pasayishi yoki ob’ekt, tizim, hodisa va jarayon holatlari aniqligining o‘zgarishidir. Axborotning idrok qiluvchi tizim haqidagi axloq hajmi va tuzilishining o‘zgarishi sifatidagi falsafiy, aniqrog‘i umumilmiy talqini ham ishlatib kelinmoqda.

Axborot va axloqni, shakl va uslubidan qat’iy nazar, tizim (inson, tashkillashgan tuzilma, avtomatlashgan tizim) tomonidan qabul qilinadigan ayrim predmetli soha (shaxslar, predmetlar, faktlar, voqea hodisalar, voqeliklar, jarayonlar) haqidagi axloq hajmi va tuzilishining o‘zgarishi deb tushunamiz.

Axloq mavjud bo‘lishining shakllari: bevosita shaxsiy va bevosita jamoaviydir. Ilmiy axloqnig mavjudlik shakli individual ko‘nikmalar,

uquvlar, xotiralar va h.k, mavjudlik shakllaridan farq qiladi. Bularning ikkinchisi shaxsdan, uning o‘ziga xosligidan ajralmasdir, birinchisi esa individual ongda emas, balki jamoat ongida, birinchi navbatda muayyan ilmiy hamjamiyat ongida mavjud bo‘ladi.

Axloq faqat aniq odamlar, shaxslar tomonidan shakllantirilishi mumkin va bu shaxs qanchalik mukammal bo‘lsa, shunchalik fanga va madaniyatga o‘zining katta hissasini qo‘shishi mumkin. SHu sababli ijod jarayonini hech qachon shakllantirib bo‘lmaydi, hech qanday mashina tirik odam, tadqiqotchining o‘rnini bosa olmaydi.

Zamonaviy fanning kibernetlashtirish, kompyuterlashtirish, axborotlashtirish tushunchalari algoritmlashtirishning asosini tashkil qiladi. “Algoritm” bu lotin transkiptsiyasida Al-Xorazmiy deganidir. Fan tarixida algoritm algebraik masalalarni echish birinchi bor Muhammad Al Xorazmiy tomonidan qo‘llangan[5]. Algebraning elementlari qadimgi Misr, Bobil va Yunonistonda ma’lum bo‘lgan bo‘lsa-da, aynan al-Xorazmiy tufayli algebra alohida fanga aylangan. Ketma-ketlik qoidalari yig‘indisi Xorazmiy nomi bilan bog‘liq bo‘lib, unga ko‘ra o‘nli sanoq tizimi bo‘yicha to‘rt arifmetik amallardan biri bajarilishi nazarda tutiladi.

To‘rt arifmetik amal natijalarining tahlili (qo‘shuv va ko‘paytiruv, ayrish, bo‘lish va cheksiz davriy kasrlar) fanning ilmiy apparatiga manfiy sonlarni, “chegara” va “chegaraviy o‘tish” kabi yangi fundamental tushunchalarni kiritishni asosladi. Bu tushunchalar matematik tahlilning fundamental g‘oyalari bo‘ldi va aynan ulardan Leybnis va Nyuton differentsial va integral hisobni boshlagan[6].

Mamlakatni madernizatsiyalash jarayonida islohatlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan aholining, xususan yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog‘liqdir. Yoshlarda Vatan ravnaqiga bo‘lgan ishonch tuyg‘ularini shakllantirish kerakli demokratik islohatlarni amalga oshirishdagi ishtiroki kundalik ehtiyojga aylansin[7]. Shunday ekan, keng jamoatchilik bilan hamkorlikda yoshlarni ijtimoiy-siyosiy faolliklarini shakllantira berishda quyidagi omillarga aloxida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

– Yoshlar ongida vatanga muhabbat his tuyg‘ularini shakillantira borish;

– Yoshlar ongida huquqiy bilim va undan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini shakillantirish;

– Yoshlar tarbiyasida keng jamoatchilik faoliyatidan unumli foydalanish imkoniyatlarini yaratish;

– Qonun xujjatlaridan unimli va asosli foydalana bilish ko‘nikmalarini shakllantirish;

- Aholi, ayniqsa, yoshlar orasida yuksak, intellektual saviyani o‘stirishga xizmat qiluvchi kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish;

- Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini yuksaltirish, eng avvalo ular ongida manfaatdorlik tuyg‘usini singdira borish[8].

Xulosa qilib aytganda yurtimizda yoshlar qalbini ezgulik g‘oyalari bilan singdira borishda eng maqbul yo‘llardan biri ularning jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy faolligini oshira borishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.Xolmatov. Ma’naviyat asoslari. Ma’ruzalar matni. Farg‘ona, 2014 yil. 2. N.Usmonov. Ma’naviyat asoslari. Uslubiy ko‘rsatma. FarPI, 2018 yil.

4. Алимжонова, М. Глобаллашувнинг маданиятлараро мулоқотга таъсири ва уни тадқиқ этишнинг илмий педагогик асослари. integration of science, education and practice. scientificmethodical journal, (2022). 3(3), 323-328.

5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016.

6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.– T.:O‘zbekiston, 2017.

7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O‘zbekiston, 2017.

8. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi// https://www.lex.uz

TAMARA XO‘JANOVA,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti dotsenti, f.f.n.

YOSHLARNING ONGIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR

Mamlakatimizda oilada sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga, oilaviy munosabatlarni ijtimoiy-axloqiy jihatdan har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va himoya qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek “... bugungi tez o‘zgarayotgan ziddiyatli davrda oilaviy masalalarni ilmiy asosda chuqur o‘rganmasdan turib, ijtimoiy hayotdagi ko‘plab murakkab savollarga javob topish qiyin” [2, 464-b.]. Shu nuqtai nazardan, jamiyatda sog‘lom ijtimoiy-madaniy muhitni, sog‘lom tafakkur tarzi, sog‘lom tarbiya tizimini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda oilaning jamiyatdagi rolini oshirish, oilada sog‘lom va obod turmush tarzini shakllantirishning falsafiy-estetik jihatlari yuzasidan tadqiqotlar olib borish ob’ektiv zaruriyatdir.

Jamiyat hayotidagi yosh oilalar hayotida, ularning ijtimoiy manfaatlarini ta’minlashda ba’zi muammolar uchraydi. Yosh oilalarni muammolarni kelib chiqishini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga molik. Bu yo‘nalish davlat va jamiyatdagi – yosh oilalardagi mayda muammolardan katta miqyosigacha bo‘lgan muammolarni o‘rganish jarayonida o‘zining real ko‘rsatkichlari bilan ularga amaliy yordam beradi. Bu jarayonda yosh oilalarning hududlar, demografik shart-sharoitlar va ijtimoiy-iqtisodiy ahvollaridan kelib chiqqan holda muammolarini zamonaviy va innovatsion asosda hal etish hamda ularning ijobiy natijalarini ham oldindan ko‘rsatib berish imkoniyati tug‘iladi.

A.Saitqosimovning ta’kidlashicha, “Jamiyatimizda bugungi kunda katta ijobiy o‘zgarishlar, rivojlanish va barqaror taraqqiyot jarayoni ketmoqda, inson manfaatlari uchun o‘ta muhim bo‘lgan dasturlar va chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Lekin, shunday sharoitda ham joylarda birmuncha murakkabliklar, islohotlarni olib borishga turli to‘siqlar va har xil muammolar uchraydi. Barqaror taraqqiyotga, islohotlar yo‘liga to‘g‘anoq bo‘ladigan illatlarni engib o‘tish, ularni bartaraf etish va oldini olib borish jamiyatda eng muhim, birinchi navbatda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar hisoblanadi. Bu illatlarga qarshi kurashish nafaqat davlat va jamiyat institutlarini, balqi fuqarolarimizning ham dolzarb vazifasi

hisoblanadi” [3, 5-b.].

Yosh oilalar hayotidagi muammolar – bu yoshlar turmushining barcha sohalarida barqaror muhitni ta’minlashga salbiy ta’sir etuvchi jihatlar, omillar va shart-sharoitlar yig‘indisi (majmuasi)dir. Yosh oilalar muammolarni o‘rganish va bartaraf etilishi esa jamiyat va inson hayoti farovonligini ta’minlashga qaratilgan jarayonlarni tashkil etib, shu asnoda jamiyatning barqaror, osoyishta hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratish hisoblanadi.

Tadqiqotchi A.Yunusovning fikricha, “Salbiy omillar va muammolar tabiatini bilish har bir jamiyat va inson uchun o‘ta muhimdir. Zero, hech bir jamiyat va insonning hayoti qarama-qarshiliklarsiz bo‘lmaydi. Vaholanki, Bugungi jamiyatlardagi inson extiyoji va manfaatlari bilan bog‘liq ijtimoiy masalalar qamrovi shu darajada kengayib ketmoqdaki, dunyoda hech bir davlat jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni yolgiz o‘zi to‘liq hal eta olmaydi” [4, 20-b.].

Yoshlar muammolari jamiyat hayotining hayot-mamot xususiyatlarini tashkil etadi. U jamiyat o‘zgarishi, hatto taraqqiy etishi jarayonlarida ham ko‘zga tashlanadi. Chunki taraqqiyot natijasida yoshlarning hayotiy ehtiyojlari, talablari, takliflari va istaklari ham oshib boradi, ularni ro‘yobga chiqarish jarayonida tegishli muammolar vujudga kelishi ehtimoli mavjud. Internet ensiklopedik lug‘atda qayd etilishicha, “Muammo – keng ma’noda o‘rganish va hal etishni talab qiladigan murakkab nazariy va amaliy masala hisoblanadi. Muammoning asosiy jihatlaridan biri uning kun tartibiga to‘g‘ri qo‘yilishidir. Muammoning tahlil, baholash, g‘oyalar shakllantirish, uni echimiga javob topish, tajriba jarayonida uning natijalarini tekshirish kabi xususiyatlari mavjuddir” [5, 28-b.].

Yoshlar turmush tarzi birinchi galda oila muhitida shakllanadi va rivojlanadi. Oilada ijtimoiy muhit bilan bog‘liq qadriyatlar va an’analar yosh avlodni kelajak uchun munosib vorislar bo‘lishlari uchun hatti-harakatlar asosida muhim ko‘nikmalar va tajribalarni shakllantiradi. Oilaning o‘ziga xos bo‘lgan turli funksiyalari va vazifalari mavjudki, bular yosh avlodni ongida jamiyat hayotining turli sohalariga taalluqli bo‘lgan qadriyatlarni hosil qiladi. Olimlarning ta’kidlashicha, “Oila institutini yurtimizdagi ma’naviy o‘zgarishlar bilan uyg‘un tarzda rivojlantirish, uning nufuzini oshirish masalasiga doimiy ahamiyat berilib kelinayotgani alohida etiborga molikdir. Nega deganda, shaxs ma’naviyati, uning dunyoqarashi, insoning tasavvur va e’tiqodiga aloqador ko‘nikmalarmajmui asosan oilada shakllanadi” [6, 12-b.].

Oilaning ijtimoiy-ma’naviy vazifasi yosh avlodni axloqiy jihatdan

mukammal, ma’naviy barkamol, ma’rifiy va huquqiy jihatdan etuk, ruhiy-ijtimoiy jihatdan to‘la barqaror etib tarbiyalaydi. Olimlarning ta’kidlashicha, “Agarda oilaning ijtimoiy vazifasi ijobiy bajarilsa, ya’ni bolada oilaga, ota-onaga, kattalarga hurmat, o‘zaro yordam, kabi xislatlar shakllansa, kelajakda oila qurgach, uning o‘zi ham farzandlarini xuddi shunday tarbiyalashga intiladi. Demak, yangi oila, yangi avlodning shakllanishida oiladagi ijtimoiy muhit, iqtisodiy demografik vazifalarning bajarilishi asosiy omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Insonning ma’naviyati ham, buyuk tajribalari ham aslida oilada qaror topadi, so‘ngra u ijtimoiy ahamiyat kasb etadi”.

Oila shunday ijtimoiy makonki, u yosh avlod xarakteridagi ijtimoiy va ma’naviy fazilatlarni qo‘llab-quvvatlashga, salbiy illatlaridan tezroq qutilishga chaqiradigan tarbiyaning boshlang‘ich o‘chog‘idir. Demak, oila yosh avlod ongida innovatsion tafakkurni yaratuvchi, mustahkamlovchi va tarbiyalovchi dastlabki va eng muhim makondir. Chunki oilada yoshlar o‘zidan kattalarning jamiyatdagi olib borgan faoliyatidan o‘rnak oladi, o‘z hayotiy amaliyotida qo‘llashga harakat qiladi. Buning uchun oila namunali, uning muhiti sog‘lom bo‘lishi lozim.

Rivojlangan mamlakatlarda zamonaviy yosh oilalarning umumiy inqirozi bilan bog‘liq muammolardan biri bu demografik muammolardir. Yosh oilalarda tug‘ilishning pasayishining oilaviy munosabatlardagi asosiy muammolarga aylanib bormoqda. Olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, erta turmushga chiqqan qizlarda kelin bo‘lib tushgan oilasiga moddiy va ma’naviy qaramlik, o‘zini yolg‘iz sezish, ruhiy muvozanatning buzilishi, ta’sirchanlikkabi holatlar ko‘p uchraydi. Bundan tashqari, mustaqil hayotga tayyor bo‘lmaslik yosh oilalarda mas’uliyat va majburiyatlarni to‘liq anglab etmaslikka sabab bo‘ladi. Bu esa yosh oilalarda hayotdan norozilikka va turli xil muammolarni keltirib chiqarishiga sabab bo‘ladi.

Yosh oilalarda oila-nikoh munosabatlarida ro‘y berayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik jarayonlarni har jihatdan nazariy jihatlarini yanada chuqurroq o‘rganish va tahlil etish muhim zaruriyatdir. Bozor iqtisodiyoti jarayonida yosh oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, turmush tarzini e’tiborga olgan holda ularni ijtimoiy jihatdan himoyalashning ta’sirchan chora-tadbirlarini yanada samarali ravishda kuchaytirish maqsadga muvofiq. Bizning fikrimizcha yosh oilalardagi oilaviy munosabatlarni tadqiq etishda tizimli yondashuv muhim o‘rin tutadi [7, 92-b.].

Bizning xavas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Xavas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Xavas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, Xudo xoxlasa, xavas qilsa

arziydigan buyuk kelajagimiz ham albatta bo‘ladi [1, 482-483-bb.], deb Prezidentimiz o‘z fikrlarini bayon etadi.

Xulosa sifvtida aytish joizki, axborot urushi davrida nafaqat har bir yosh avlodni himoya qilish, balki butun xalqni ham himoya qilish lozim. CHunki bir insonning halokatga uchrashi, bir mamlakat manfaati uchun ham juda yomon. Hozirgi dunyoda madaniy aloqalar kengayib borayotganligi sababli, turli madaniyatlar o‘zoro hamkorligining samaradorligi muammosi dolzarb vazifa qilib qo‘yilmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent, 2017. - B. 469, 482-483.

2. Mirziyoyev Sh.M. Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko‘rki // Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B. 464.

3. Saitqosimov A. Jamiyat barqarorligi va ijtimoiy muammolarni hal etish. //Monografiya. – Toshkent: Tafakkur, 2018. – B. 5.

4. Yunusov A. Milliy istiqlol g‘oyasi: ijtimoiy hamkorlik. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2016. – B. 20.

5. Quronov M., Mirzaev G‘. Obodlik ko‘ngildan boshlanadi. – Toshkent: Sano-standart, 2013. – B. 28.

6. Abdusamedov A., Xo‘jaev M. va boshqalar. Mustahkam oila ma’naviyati. – Toshkent: Sano-standart, 2012. – B. 12.

7. Машарипова Г.К. Ёшлар онгига диний бағрикенгликни сингдириш масалалари. // “Диншунослик фанининг методологияси, ёндашуви ва услубиятини такомиллаштиришнинг долзарб масалалари” мавзусидаги Республика VII илмий конференциясининг материаллари. – Т., 2015, VII қисм. - 91-93-бб.

GULARAM MASHARIPOVA,
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti professori, falsafa fanlari doktori

MAFKURAVIY IMMUNITET – XAVFSIZLIKNING MA’NAVIY ASOSI

Globallashuvning tobora avj olishi milliy ma’naviyatlarga qarshi tahdidlarning kuchayishini tezlashtirmoqda, ularning o‘ziga xos xususiyatlarning zaiflashuviga va yuksak taraqqiy qilgan mamlakatlar hamjihatlikda shakllantirayotgan “ommaviy ma’naviyat”ga singib ketish xavfini yuzaga keltirmoqda. Millat insonlar joni va qoni bilan yaratilgan oliy qadriyatlardan biridir, uning ma’nan o‘lishi esa muqarar ravishda butun insoniyatning jismonan o‘lishiga ham olib keladi. Shuning uchun ham millatni asrash uchun, uning asosiy kuchi – “men”ini ta’minlaydigan ma’naviyatini asrash globallashuvning avj olishi sharoitidagi o‘ta muhim milliy manfaatlarga molik vazifaga aylanib bormoqda. CHunki u jadallashgani sari milliy ma’naviyatlarga nisbatan xavf-xatar va tahdidlar ham oshib bormoqda. Bunga befarq bo‘lish esa ertaga milliy ma’naviyatni asrash uchun kech bo‘lishi mumkinligini bugungi milliy ma’naviyatimizning tobora emirilish jarayoni tasdiqlamoqda. SHu ma’noda ham siyosiy-falsafiy tushunchalar tizimiga mamlakatning ijtimoiy va siyosiy xavfsizligini ta’minlashning muhim omillaridan biri sifatida “milliy-ma’naviy xavfsizlik” tushunchasini kiritish taklif qilinmoqda. CHunki uni ta’minlash faqat milliy ma’naviyatni asrash bilan cheklanmaydi, balki uning qamrovi keng bo‘lib, u yaxlit holda butun milliy xavfsizlikni ta’minlashni qamrab oladi [2, 4-b.].

Har bir kishi yoki jamoa, jamiyat mafkuraviy immunitetini besh darajaga bo‘lib o‘rganish, baholash va shu asosda takomillashtirish mumkin: Bunda:

- birinchi**,** ya’ni mafkuraviy immunitetning quyi darajasi - shaxs, jamoa, jamiyat yuqoridagi bilimlardan xabardor emas; buzg‘unchi mafkuraviy g‘oyalarga befarq, loqayd;

- ikkinchi darajasi - bilimlar bor, lekin ular his qilinmagan, sistemalashmagan, shu sababli ularni buzg‘unchi mafkuraviy g‘oyalarga qarshi ishlatishga tayyor emas;

- uchinchi darajasi - mafkuraviy bilimlarga ega, lekin ular nazariy, shaxs, jamiyat ularni qo‘llashga qiynaladi;

- to‘rtinchi darajasi - asosli bilimlarga ega, vaziyatni to‘g‘ri baholay oladi; ichki va tashqi siyosiy, mafkuraviy ta’sirlarga qarshi immuniteti

shakllangan va uni ongli ravishda ishlatadi;

- beshinchisi - oliy daraja - mukammal g‘oyaviy, siyosiy, iqtisodiy bilimlarga ega va bu bilimlarni bemalol amalda qo‘llab, buzg‘unchi mafkuraviy, siyosiy g‘oyalarni doimo, hamma joyda faol fosh qila oladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, keyingi yillarda ayrim yoshlarda millatga, Vatanga foyda keltirishni o‘ylash, tinchlikni mustahkamlashda foydali inson bo‘lib etishish hissi maxsus, ilmiy asosda shakllantirilmaganligi tufayli shaxsiy manfaatni o‘ylash, engil yo‘llar bilan to‘kis xayotga intilish hissi namoyon bo‘lmoqda. SHu bilan birga ayrim fuqarolar orasida ma’naviy cheklanganlik, dunyoqarashning torligi, milliy odob me’yorlariga rioya qilmaslik, so‘z va ish orasidagi tafovut, milliy g‘ururning sustligi kabi noxush ko‘rinishlar uchrab turadiki, ularni birgalashib bartaraf qilish lozim.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ota-bobolarimiz bir paytlar baland tepaliklarga chiqib, olov yoqib, yog‘iyning bostirib kelayotganligidan bir-birlarini ogoh qilishgan, ya’ni axborot uzatishgan. Bugun esa manzara mutlaqo boshqacha. Taraqqiyot shiddatli tarzda ildamlab borayotgan hozirgi zamonda kichkinagina bitta xonada o‘tirib, bir necha daqiqalar ichida butun dunyoga turli xildagi axborotlarni tarqatish mumkin.Bir so‘z bilan aytganda, olam va odam yuksak taraqqiyot asnosida juda o‘tkir, ta’bir joiz bo‘lsa, global muammolar bilan ro‘paro kelmoqda [3, 98-b.].

Mafkuraviy tortishuvlarda tahdid soluvchi ham, o‘zini himoya qiluvchi ham - g‘oyani ommalashtirish uslublaridan foydalanadi. Bu - mafkuraviy tarbiya uslublaridir. Demak, qaysi tomonning engishini pirovard natijada ilmga asoslangan targ‘ibot va tashviqot hal qiladi. Shu tariqa mafkuralar tortishuvi - targ‘ibot va tashviqotlar tortishuviga aylanadi, deyish mumkin. Shu sababli «Milliy istiqlol mafkurasi tom ma’nodagi milliy mafkuraga aylanish uchun qator talablarga javob berishi zarur. Ana shunday talablardan biri - har qanday yovuz g‘oyaga qarshi javob bera olishidir [4, 44-45-bb.]. Mamlakatimizning xavfsizligi, barqaror taraqqiyoti hech bir o‘zbekistonlikni befarq qoldirmasligi kerak. Shunday ekan, Vatan - O‘zbekistonning posboni ham millatidan, dinidan, tug‘ilgan joyidan, kasbu-yoshidan qat’iy nazar uning o‘zbekistonlik bo‘lishidir. Shu sababli O‘zbekiston xalqining milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan immuniteti - Vatan xavfsizligi darajasining muhim ko‘rsatkichlaridan biriga aylanadi.

XXI asrda yashayotgan zamondoshlarimiz uchun axborotning ahamiyati suv va havoning ahamiyatidan kam emas. «Dunyo – axborot makoni» tushunchasi ong va shuurlarga shu qadar chuqur singib ketdiki, dunyo hamjamiyatining haqli a’zosi – sub’ektiga aylanish istagidagi har

qanday davlat va shu davlat fuqarolari mazkur axborot makonidan mustahkam o‘rin egallashining ahamiyatini so‘z bilan ta’riflash qiyin [4, 24-25-bb.].

O‘tgan asrning so‘nggi o‘n-o‘n besh yilida dunyo miqyosida yuz bergan olamshumul tarixiy o‘zgarishlardan kelib chiqib, hozirda biz yashab turgan XXI asrga kamtargina «Axborot asri» deya nihoyatda munosib ta’rif berildi. XX asrning so‘nggi choragida ham dunyo axborot oqimining shiddati kuchli edi, bu shiddat yil sayin kuchayib bordi. Madaniyatli insoniyat dunyo xalqlarining bir butunligini, dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashning eng oqil usuli sifatida xalqaro qonunchilik tajribasini yaratgan. Hech bir inson bir-biriga o‘xshamaganidek, davlatlar, mamlakatlar, ularda yashayotgan xalqlar ham mutlaqo o‘ziga xos jihatlarga boy. Ijtimoiy-siyosiy, madaniy, harbiy va iqtisodiy jihatlardan bir-biriga mutlaqo o‘xshamaydigan, taraqqiyotning turli bosqichlarida yashayotgan mamlakatlar ichki shart-sharoitlaridan qat’i nazar, global hamkorlik munosabatlarining bir sub’ekti sifatida umumjahoniy jarayonlarda ishtirok etmasligi mumkin emas. Munosabatga kirishish uchun esa muayyan umumiy qonuniyatlarga, bitishuv, kelishuv va ahdlashuvlarga bo‘ysunishga to‘g‘ri keladi. Bunday munosabatlarni tartibga solib turuvchi, umumadolat va umummuvozanatni ta’minlovchi xalqaro hujjatlar esa nihoyatda ko‘p [5, 25-b.].

Axborot globallashuvi muammolar muammosi darajasiga ko‘tarildi. Buning o‘ziga xos ob’ektiv sabablari, omillari bor. Chunonchi: dunyoda eng insoniy jamiyat barpo etishning birdan-bir oqilona yo‘li huquqiy-demokratik davlat qurish ekanligini tushunish har qachongidan kuchaydi;- huquqiy-demokratik jamiyatning bosh belgisi va shartlaridan biri ommaviy axborot vositalarining erkinligi ekanligini inkor etish mumkin bo‘lmay qoldi; taraqqiy etgan etakchi mamlakatlar matbuotini erkinlashtirish sohasida erishilgan ilg‘or tajribalarni uzoq-yaqin davlatlarga tarqatish imkoniyatlari osonlashdi va ko‘paydi; dunyo mamlakatlaridagi matbuot erkinligi ahvoli va darajasini xalqaro miqyoslarda kuzatish, bahosini beri shva shu asosda muayyan mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy ahvol haqida dunyo jamoatchiligi fikrini shakllantirish odat tusiga kirdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Bugungi kunda mamlakatimizda yuritilayotgan davlat siyosatining asl mohiyati va pirovard maqsadi – xalqimizning dardu tashvishlari, hayotiy muammo va ehtiyojlaridan doimo xabardor bo‘lib, uning moddiy farovonligini oshirib, munosib turmush darajasi va sifatini ta’minlash, tinch hayotini himoya qilishdir. Eng muhimi – xalqimiz o‘z hayotidan va davlatdan rozi bo‘lib yashashini ta’minlash bugun barchamizning bosh vazifamizdir” [1, 312-313-bb.]. Yoshlar milliy o‘zligini anglashida demokratik tafakkurining zarurligini tushunib etishlariga erishishdan iboratdir.

Xulosa sifatida aytish joizki, jamiyatga yot mafkuralar o‘z g‘oyalarini birdaniga olib kira olmaydi. Ular avvalo mahv qilinishi kerak bo‘lgan millat azaldan ishonib kelgan narsalarga ishonchini, umidini so‘ndiradi. Buning uchun millat ishonib kelgan narsalar yomonlanadi, obro‘sizlantiriladi. Natijada mafkuraviy immunitetni sindirishning birinchi bosqichi amalga oshadi - millat o‘zi ishonib kelgan g‘oyalar, qadriyatlarga befarq munosabatda bo‘la boshladi. Azaliy qadriyatlarga amal qilinmay qo‘yiladi, odamlarda ularga amal qilmayotganlarga loqayd munosabat urf bo‘ladi. Qadriyatlar, g‘oyalar qadrsizlanadi, ahamiyatsiz narsalarga aylanib qoladi. Bo‘shliq ana shunday yaratiladi, «ochib olinadi».

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M. Inson manfaatlarini ta’minlash uchun avvalo uning huquq va erkinliklari ishonchli himoya qilinmog‘i zarur // Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. - Toshkent :O‘zbekiston, 2017. - B. 312-313

2. Otamuratov S. Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik. - Toshkent, 2012.

3. Eshmurodov A. Axborot xuruji va milliy manfaat. – Toshkent, “Globallashuv va axborot xuruji” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T., 2007, 98-bet.

4. Milliy istiqlol g‘oyasi; asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent, O‘zbekiston, 2000, 45-46-betlar.

5. Do‘stmuhammad Xurshid. Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishning demokratik andozalari. – Toshkent, O‘zbekiston, 2005.

SEVARA SAMATOVA,
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti o‘qituvchisi

YOSHLARNI MAFKURAVIY TAHDIDLARDAN HIMOYALASHDA TA’LIM MUASSASALARIDA TARBIYA JARAYONI SAMARADORLOGINI OSHIRISH

Tarixga nazar solsak yer yuzida inson paydo bo‘libdiki, o‘z og‘irini yengillatish uchun tinimsiz izlanadi, o‘qiydi, o‘rganadi va nimalarnidir yaratadi. Aynan shu harakat tufayli inson psixikasi doim taraqqiyot etib boradi. Qolaversa shu yo‘l bilan ham o‘zi yuksalib boradi, ham o‘z bilganlarini o‘zgalarga o‘rgatish orqali insoniyat tamaddunining yuksalishiga o‘z hissasini qo‘shib boradi.

Barcha xalqlarda, ajdodlar va avlodlar o‘rtasidagi vorislik ta’minlanadi. Yana tarixga nazar solsak, ilk muloqot va munosabatga kirishish va avlodlarga meroslarni qoldirish, ya’ni ijtimoiy xotirotdagi ijtimoiy bilimlarni shakllanish yo‘lidagi qadimiy belgi-rasmlar orqali o‘z fikrini ifodalagan kromonyon odami bilan hozirgi fan-texnika samarasi bo‘lgan internet orqali axborot almashishgacha bo‘lgan tarixiy taraqqiyot buning yaqqol isbotidir.

Bu yutuqlarning zamirida shak-shubhasiz inson uning intilishlari, qiziqishlari, shuningdek, u bilan birga birga bo‘lgan atrofidagi kishilarning qo‘llab-quvvatlashi, yaqinlarining ishonchi muhim o‘rin tutadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy fanlarda inson, uning bilimi, so‘g‘ligi ishchanligi, malakasi kabilar inson kapitali deyilsa, uning atrofidagi yaqinlari bilan munosabati, hamkorligi, ishonch, umumiy qiziqishlar oqibatida yuzaga keluvchi ijobiy munosabatlar va samara, o‘zaro yordam va qo‘llab-quvvatlash kabilar ijtimoiy capital va inson resurslarini ning tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Biz tadqiqotimizda ta’limning globallashuvida inson resurslarini birlashtirish, ya’ni ta’lim samaradorligidagi eng asosiy omillardan biri bo‘lgan tarbiya masalasiga to‘xtalmoqchimiz.

Bugungi yangi davr, globallashuv davri, ta’lim samaradorligini oshirishda inson omili, inson kapitali va inson resurslarini tadqiq qilishda, har tomonlama yondashuvlar mavjud. Biz mazkur masalada ta’limni rivojlantirishda ijobiy inson resurslaridan biri hisoblangan tarbiya masalasini ko‘rib chiqmoqchimiz. Mazkur resurs barcha millatlarni kelajagi va taraqqiyoti uchun eng dolzarb inson resurslaridan biri

hisoblanadi[1].

Aynan mazkur tarbiya resursini atroflicha tadqiq qilmasdan turib uni rivojlantirish mushkul kechadi.

Butun dunyoda vertualishish kuchayib, mutatsiyalashib borayotgan bir vaqtda isonlardagi tarbiya resursini o‘rganish va uning zamonaviy indikatorlarini aniqlab, amaliyotga tatbiq etish eng ustuvor masalardan biri bo‘lishi kerak.

Bugungi zamon va makon shaxsning eng asosiy resurslaridan biri bo‘lgan tarbiya masalasiga, yangicha talablarni qo‘yayotgani biz soha vakllarini doim diqqat markazimizda bo‘lishiligi lozim. Zero, shiddati vertualashish jarayoni kuchaytgan bir davrda ta’lim-tarbiya masalasiga aniq, ilmiy asoslanga, qat’iy talablar bilan yondashish juda muhim pedagogik-psixologik omillardan biri hisoblanadi[2].

Tadqiqotlarimiz globallashuv davrida shaxsning ijtimoiy voqelikka ijtimoiylashuvidagi eng aossiy resurslaridan biri bo‘lgan tarbiya masalasi ham shaxsning kamoloti, ham ta’limni rivojlantirish uchun eng asosiy maslalardan biridir.

Hozirgi kunda barcha xalqlar uchun ham barkamol shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirish masalasi har qachongidanda muhim ahamiyatga egaligi bizga ma’lum. Sababi, globallashuv jaddalashgan sari odamlarda marginalizm (ijtimoiy begonalashuv, ijtimoy yakkalanish), e’tiborsizlik, loqaydlik, beparvolik, ishtiyoqsizlik kabi xususiyatlar ortib bormoqda.

Mazkur holat sotsiumning ijtimoiy-ma’naviy muhitini beqarorlashuvini yuzaga keltiradi. Shu sabali bugungi kunda yoshlarda asosiy resurslardan biri bo‘lgan tarbiya masalasini ijtimoiy-psixologik omillari va barkamol shaxs tarbiyasidagi asosiy yo‘nalishlarni belgilab olish, ularning ustuvor indikatorlarini ishlab chiqish juda zarur hisoblanadi.

Yoshlarda tarbiyaning ijobiy fazilatlari shakllanishining ijtimoiy-psixologik-omillarida ularning aniq belgilab olingan ma’naviy-axloqiy sifatlar va fazilatlarini ma’naviy indikator sifatida tahlili qilish juda muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa tarbiya isharidagi profilaktika ishlarini maqsadli va manzilli tashkil qilishdagi psixologik-pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bilan bog‘liq masalalarni ham o‘z ichiga oladi.

Jumladan, bu yo‘nalishda dastlab tarbiyaviy maqsadni belgilash bosqichida tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishga mas’ul shaxsning vazifasi ta’lim muassasasi jamoasi imkoniyatlarini yagona g‘oyaga yo‘naltirish, mavjud pedagogik-psixologik shart-sharoitlardan unumli foydalanish chora-tadbirlarini belgilash, tarbiyalanuvchilarning muayyan ta’sir tizimini qabul qilishga tayyorgarlik darajasiga tashhis qo‘yishdan

iboratdir.

XXI asrda tarbiyaning idealistik, pragmatik, realistik, antropot-sentristik, erkin tarbiya, gumanistik va texnokratik modellariga amal qilinmoqda. Mazkur tizimni amalga oshirishda ushbu modellarning ijobiy jihatlari milliy tarbiya xususiyatlari bilan uyg‘unlashtiriladi.

Bugungi kunda yoshlar tarbiyasini milliy va zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.

Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda uning psixologik mexanizmlarini o‘rganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, aksariyat insonlarda Vatanga sadoqat, burch va mas’uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar ularning ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti.

Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so‘zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo‘lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Ayrim o‘quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o‘zini o‘zi o‘qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlari yetarli rivojlanmaganligi ta’lim sifatiga ham zarar ko‘rsatmoqda.

Xar bir xalq o‘zining yoshlarida tarbiya va milliy tarbiya resurslariga alohida e’tibor qaratadi. Biz tadqotimizda yoshlarda asosiy ijobiy resurslardan biri bo‘lgan milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari tadqiq qilishda milliy tarbiyaning manbalarini o‘rganish muhim jarayondir deb hisoblaymiz.

Bizningcha, milliy tarbiyaning manbai - milliylikdir. “Millat”, “milliylik”, “milliy g‘urur”, “milliy odob”, “millatlararo muloqat madaniyati” tushunchalarining o‘zagini arabcha “mil” so‘zi tashkil qiladi. Bu so‘z arabchada “o‘zak”, “’tub mohiyat”, “negiz” ma’nolarini anglatadi. “Millat” so‘zi esa bir necha ma’noni; 1) din: mazhab; 2) ummat: bir mazhabga mansub aholi: 3) xalq ma’nolarini anglatadi. “Millat”, “milliylik” tushunchalarining talqini bilan tanishar ekanmiz, ularning g‘arbona va sharqona tarzlari bor ekanligini ko‘ramiz. Aniqrog‘i, g‘arbiy

talqin xristian, sharqiy talqin esa islomiy o‘zaklarga borib tutashadi. Ya’ni Ovrupo xalqlari tillariga “millat” tushunchasi lotincha “natio” - qabila, xalq sifatida xristian dini bilan birga kirib kelgan bo‘lsa, Osiyoga esa Islom ta’limoti orqali yuqoridagi uch xil ma’noda kirib kelib, singdi.

“Tarbiya” so‘zi esa “milliy tarbiya” tushunchasining tarkibiy qismi bo‘lganligi tufayli bu tushunchaga ham yangicha yondoshgan holda, xolis ilmiy-pedagogik-psixologik ta’rif berish juda muhim sanaladi.

Arabcha “tarbiya”, “tarbiyat” so‘zlari 1) parvarish qilmoq; ta’lim bermoq; o‘rgatish; odob o‘rgatish; 2) navozish, mehribonlik ko‘rsatish: ko‘z-quloq bo‘lish; himoya qilish kabi ko‘pqirrali mazmunga ega. “Tarbiyachi” so‘zi esa shu ko‘pqirrali tarbiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchidir. Demak, milliy tarbiyaning lug‘aviy ma’nosini “yosh avlodlarni o‘z xalqiga xos milliy fazilatlar namunasida shakllantirish, ta’lim bermoq” sifatida aniqlash mumkin.

Ta’lim va tarbiya davlat tomonidan amalga oshirilar ekan, o‘z mamlakatining iqtisodiy, ma’naviy, tarbiyaviy va mafkuraviy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirildi.

Mustaqil O‘zbekistonda ta’lim va tarbiyaning milliy asosga qurilishining eng oliy kafolati uning Konstitutsiyasida himoyaga olindi. Konstitutsiyaning mohiyati ochiqlik, hamkorlik, milliy madaniyatlar ravnaqi, millatlararo inoqlik ruhiga ega.

O‘zbekistonda milliy madaniyatlarni tiklash, ravnaq toptirish yo‘lida milliy-madaniy markazlar tashkil etilib, ularning faoliyati matbuot, radio va televideniyeda keng yoritilishi milliy qadriyatlarni tiklash, boyitish orqali umumfuqaroviy va umuminsoniy totuvlikka erishish yo‘li tanlaganini ko‘rsatdi.

Chunki ”o‘zbek milliy madaniyati, tili an’analarini haqqoniy ravishda tiklash va rivojlantirish aholining boshqa milliy guruhlaridagi mana shunday jarayonlar hisobiga bo‘lmasligi” davlat tomonidan kafolatlandi.

Qaysi bir jamiyatda ijtimoiy islohot zarurati yuzaga kelsa, o‘sha jamiyatda maktabga, tarbiyaga e’tibor keskin kuchayib, tarbiyani, jamiyatni takomillashtirishning bosh vositasi deb tan olina boshlanadi. Tarix bu kabi misollarga boy.

Ana shu nuqtai-nazardan Yangi O‘zbekiston maktablari qarshisida turgan vazifa dolzarb va murakkabdir. Chunki endilikda ular o‘z xalqining eng go‘zal fazilatlaridan bo‘lgan milliy g‘urur, millatlararo muloqot madaniyati, O‘zbekiston vatanparvarligi, milliy odob, sof vijdonni o‘ziga mayoq qilib olib, Yangi O‘zbekiston sharafiga xizmat qila oluvchi o‘g‘il-qizlarning yangi avlodini tarbiyalab yetishtirishi kerak.

Bu ijtimoiy buyurtma oila, bolalar bog‘chalari, maktab, mahalla, turar

joylarda, maktabdan tashqari muassasalarda hamkorlikda olib boriluvchi milliy tarbiya jarayonini ilmiy nazariy tadqiq qilishni taqozo qiladi[3].

“Milliy tarbiya” tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, uning: milliy qadriyatlar asosida olib boriluvchi maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy faoliyat; umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror shakli; xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirish (YUNESKO tamoyili) vositasi; ta’limga oid siyosatning maqsad, vazifa va tamoyillarining tarkibiy qismi; turli millatlar bolalarini har tomonlama rivojlantirish jarayonining xususiy, ma’naviy manbai; o‘quvchilarni axloqiy, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, go‘zallik, iqtisodiy, ekologiya va boshqa yo‘nalishlarda tarbiyalashning bosh tamoyili; millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalash va buning natijasida umumfuqaroviy totuvlikka erishishining insonparvarona yo‘li va vositasi; ijtimoiy va maktab tarbiyalari uyg‘unligining pedagogik sharti; insoniyatni umumbashariy uyg‘unlikka olib borishning pedagogik yechimi; ijtimoiy-ma’naviy jabhada milliy xavfsizlikni ta’minlashning strategik ob’ekti va vositasi; etnopsixologik nuqtai-nazardan, o‘quvchilarda milliy (avto va getero) stereotiplarni maqsadga muvofiq ravishda shakllantirish, rivojlantirish jarayoni ekanligi aniqlandi.

Yuqoridagi ta’riflardan kelib chiqib, aytish mumkin-ki, milliy tarbiya tizimi – bu har bir xalqning o‘ziga xos milliy xarakteri, axloq qoidalariga va taraqqiyotining tarbiyaviy talablariga asoslanib, yangi kompetensiyalarga ega avlodlarni yetishtirishning pedagogik jarayonidir.

Milliy tarbiya ilmiy-pedagogik atama sifatida kam o‘rganilganiga qaramasdan u har bir xalq bilan azaldan birga, mavjud edi. Chunki har bir xalqning tarixi – uning o‘zligiga, xalqchil madaniyatiga asoslangan tarbiyaning tarixidir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yoshlarimiz ta’lim-tarbiyasida ahamiyat kasb etadigan milliy fazilatlar va ularning shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari, indikatorlari, mezonlari juda muhim hisoblanadi. Bu masalada ota-onalarning, tarbiyaga mas’ul shaxslarning milliy tarbiya, milliy xarakter, milliy fazilatlar va ularning shakllanishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini bilmasdan turib ularni barkamol qilib tarbiyalashning ta’sirchanligi sust bo‘ladi.

Qolaversa bugungi yoshlarimiz real voqelikdan ko‘ra, vertual voqelik ta’siriga ko‘proq tobe bo‘lib borayotgan bir vaqtda tarbiya masalasidagi ishlarimizni yangicha, zamonaviy yo‘nalish va yondashuvlarda tashkil etishimiz juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarni ko‘lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. M. Quronov. Milliy tarbiya. Monografiya. T.: 2004. B.210

2. Jabborov Xazrat Xusenovich. Психологические особенности идеологического влияния “массовой культуры” на человеческий разум. Социальный психолог журнал для психологов. Основан в 2000 году в Ярославль. 2016 №2 (32). -С. 56-66.

3. Jabborov Xazrat Xusenovich. “Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari”. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423.

NARGIZ KURBANOVA,
University of Economics and Pedagogy
dotsenti, tarix fanlari nomzodi.
Andijon viloyati ma'naviyat va ma'rifat
targ'ibotchilar jamiyati a'zosi

MAFKURAVIY TAHDIDLARNING ASOSIY OBYEKTI – YOSHLAR

Muayyan guruh, xalq, jamiyatni mafkuraviy ta'sir doirasiga tortishga urinishlar hamma vaqt bo'lgan. Tarixga nazar tashlasak, bu jarayon jamiyat rivojlana borishi bilan birga chuqurlashib borganini, yangi texnik va texnologik tizimlarning yuzaga kelishi natijasida g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishi, uslub va vositalarining takomillashuvi sodir bo'lganini ko'ramiz. Xususan, hozirgi davrda mafkuraviy ta'sir o'tkazish o'zining bir qator xususiyatlari bilan ajralib turishini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Hozirgi kunda diniy ekstremizm mafkurasiga, qo'poruvchilik – terrorchilikka qarshi kurashdagi asosiy vazifa – aholi o'rtasida, ayniqsa, yoshlar bilan olib boriladigan targ'ibot-tashviqot va tarbiyaviy ishlarni izchil, chuqur o'ylangan tizim asosida tashkil etish va ularning ta'sirchanligini keskin kuchaytirishni bugun boshimizdan kechirayotgan hayotning o'zi taqozo etmoqda»[1].

Darhaqiqat, hukumatimiz tomonidan fuqarolarimizga e'tiqod erkinligini ta'minlash masalasida barcha sharoitlar yaratib berildi. Biroq mamlakatimizni yana kimlargadir qaram qilishni istaydigan makkor va qo'poruvchi kuchlar, jumladan diniy mutaassib guruhlar dunyoda butunlay yo'q bo'lib ketmadi. Ular o'z qabih rejalarini amalga oshirish yo'lida xalqimiz, ayniqsa yoshlar ichida buzg'unchi g'oyalarni tarqatishga urinishmoqda.

Bu guruhlar fasod g'oyalarini yoyishda asosan o'zlari «da'vat» deb atovchi, aslida esa aldash, qo'rqitishga qaratilgan yollash usulidan foydalanishmoqda.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ekstremistlar yollash uchun asosan 20-25 yoshdagi yigit va qizlarni tanlaydilar. Nega aynan yoshlar? Shu yerda aniq statistikaga murojaat qilaylik. O'zbekiston dunyodagi eng yosh davlatlardan biri bo'lib, o'rtacha yosh 24 yoshni tashkil etadi. Shuningdek, 37 millionlik aholining 60 foizi (22 mln. dan ortiq) 28 yoshgacha bo'lganlardan iborat. Bunda o'smir yoshlarning xavfga yaqin guruhda

ekanini alohida qayd etish lozim. Yoshlarning qandaydir mas'uliyatlari va hayotdagi orzu-maqsadlarga mustaqil erishish harakatlarining ataylab cheklanishi natijasida ularda infantillik (o'zini nochor, yordamga muhtoj his qilish) xususiyati shakllanadi. Yoshlarda «oliy maqsadlar hayotda ro'yobga chiqmasada, ularni amalga oshirishga intilayotgan muayyan kishilar yoki jamoa mavjud», degan tasavvur paydo bo'la boshlaydi. Shunda ular o'z maqsad va intilishlariga yaqin kishilar (yoki guruh)ni izlashga tushadilar.

Jiddiy mas'uliyatdan ozod bo'lgan o'smirlarda shaxsiy tajriba yetishmaydi. Bunday yetishmovchilik soddalik va xayolparastlik bilan yonma-yon keladi. Atrofda kuzatilayotgan adolatsizlik natijasida yuzaga keladigan zo'riqishni yo'qotishda faqat birgina yo'lni - «buyuk g'oya»ni o'zida mujassamlashtirgan yetakchi bilan hammaslak bo'lishni tanlaydilar. Bu yo'l o'smirni diniy mutaassib oqimlarga yetaklab keladi.

«Da'vat» asosan ikki maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi:

Oddiy fuqarolar ichidagi «da'vat» tarafdorlar sonini oshirish va harakatni kengaytirish uchun olib boriladi. Bunday «da'vat»ni ekstremistik guruhda 2-3 oy a'zo bo'lib kelayotgan shaxslar ham amalga oshirishlari mumkin.

Davlat tashkilotlari xodimlarini «da'vat» qilish kelajakda ushbu shaxslarning xizmat imkoniyatlaridan ekstremistik guruh manfaatlari yo'lida foydalanish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Tabiiyki, ushbu holda yollash ishlarini ekstremistik guruhning eng tajribali a'zolari amalga oshiradi.

Har qanday diniy mutaassib oqim, «o'lja»sining hayotiy muhim ehtiyojlarini inobatga olgan holda, o'z ta'limotini jozibador qilib ko'rsatishga harakat qiladi. Odamlarning bunday oqimlar ta'siriga tushib qolishi, shuningdek, turli xil odatdagi axborot doirasidan tashqariga chiqadigan shov-shuvlarga ortiqcha e'tibor bilan ham belgilanadi. Bunday e'tiborni bugungi kunda keng tarqalayotgan g'ayritabiiy hodisa va jarayonlarning haqiqatdan ham mavjudligi haqidagi axborotlar oziqlantirib turadi. Turli axborot manbalarining doimiy ta'sir ostida bo'lgan bir paytda inson g'ayriilmiy, soxta diniy g'oyalarni qabul qilishga moyil bo'lib qoladi.

«Da'vatchi»lar ko'proq masjidlarda namozdan oldin, keyin yoki shunga o'xshash vaziyatda guvohlarsiz murojaat qiladi. Agar biror kishining diniy bilimlarga qiziqishi o'zgalarga ham ma'lum bo'lsa, bunday uchrashuv o'qish, ish joyiga yaqin yerlarda yoki turli yig'inlarda ham sodir bo'lishi mumkin.

Demak, sizga yuqoridagi holatlarda noma'lum yoki yaxshi tanish

bo‘lmagan shaxs murojaat qildi. Ushbu kimsa suhbat boshida sizning islom asoslarini o‘rganishga qaratilgan harakatingizga rag‘bat berib, asl musulmonning burch va javobgarligi kabi mavzularda so‘z yuritadi. So‘ngra, bilvosita savollar bilan sizga taalluqli ma’lumotlar, xususan diniy va siyosiy qarashingiz bilan qiziqadi. Suhbatning oxirida esa, u sizga o‘zining ham islomga qiziqishlari behad ekani va o‘ziga yaqin birodarlari bilan diniy bilimlarini puxta egallayotganini aytib, sizga ham shuni taklif etadi. Shuni ta’kidlash joizki, ushbu suhbat bir muloqotda bo‘lib o‘tishi yoki bir necha uchrashuvga cho‘zilishi mumkin. Bunday holatni oldini olishda yoshlar mafkuraviy immuniteti shakllangan bo‘lishi kerak.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Mana shunday murakkab sharoitda yoshlarimiz sezgir va ogoh bo‘lishi, har bir masalada, avvalo Vatan manfaatlarini o‘ylab ish tutishi zarur. Ilm-ma’rifat va kasb-hunarga intilish, oilani muqaddas bilish, ma’naviy poklik, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, qadriyatlarimizga sadoqat kabi ezgu fazilatlar azaldan xalqimiz, millatimizning qonida bo‘lib kelgan. Biz mana shunday bebaho merosimizni nafaqat asrashimiz, balki uni yanada boyitishimiz, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishimiz kerak”[2] deb aytganlar.

Hozirgi globallashuv davrida respublikamizdagi ijobiy o‘zgarishlardan talvasaga tushayotgan kuchlar g‘arazli geosiyosiy maqsadlari yo‘lida mafkuraviy xurujni amalga oshirish, aholi ongini zaharlash, xiyonatkor va fitnachi guruhlarni tarbiyalashga yangicha tus berayotganlari kuzatilmoqda. G‘oyalar kurashi hisoblangan XXI asrda ulkan mablag‘lar evaziga axborot xurujini kuchaytirayotgan diniy mutaassib kuchlarga qarshi kurashda xalqimiz, ayniqsa, yoshlarda milliy qadriyatlar bilan yo‘g‘rilgan ma’rifatni kamol toptirish, ularni mustahkam e’tiqodli, vatanparvar kishilar qilib tarbiyalashda diniy mazmundagi materiallar - nashr, video, audio va kompyuter mahsulotlarining o‘rni dolzarb bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganlaridek: «Bugungi kunda insoniyat qo‘lida mavjud bo‘lgan qurol-yarog‘lar yer kurrasini bir necha bor yakson qilishga yetadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin hozirgi zamondagi eng katta xavf – insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo‘layotgan kurashlar ko‘p narsani hal qiladi. Bu achchiq haqiqatni hech qachon unutmaslik lozim»[3].

G‘arazli kuchlar tomonidan yurtimizga qarshi qaratilgan g‘oyaviy va axborot xurujlari milliy qadriyatlarimiz va an’analarimizga zid bo‘lgan

johillik, jangarilik, zo‘ravonlik, bexayolik, dinlararo va millatlararo totuvlikka rahna soluvchi, diniy mutaassiblik, ekstremizm va missionerlik g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi nashrlar (kitob, gazeta, jurnal), audio-videokassetalar, kompyuter mahsulotlari, internet materiallarini keng tarqatish orqali davom etmoqda.

Go‘yoki, tinch, g‘oyaviy yo‘l bilan kurashni da’vo qiluvchi, aslida terrorchi-xudkushlarni tayyorlovchi, qabih harakatlarni amalga oshirishda g‘oyaviy dastak beruvchi «konveyer»ga aylangan tashkilotlar muntazam ravishda aholining diniy muammolar bilan bog‘liq qiziqishlaridan «samarali» foydalanmoqda, noqonuniy diniy adabiyotlar o‘qilishining ommalashishiga harakat qilmoqda.

Shu bilan birga, noislomiy konfessiyalar va yangi sektalarning respublika hududiga ekstremistik ruhdagi va xalqimiz uchun noan’anaviy mazmunga ega diniy adabiyotlarni, audio va video kassetalarni olib kirishga qaratilgan harakatlari yil sayin kuchayib bormoqda. Ba’zi noan’naviy konfessiyalar tub aholini «injillashtirish», ya’ni o‘z dinlariga tortish bilan mahalliy tilda ibodat marosimlarini o‘tkazish, missionerlik faoliyati va aholi orasida o‘zbek, qozoq va qoraqalpoq tillarida missionerlik adabiyotlarini tarqatishga zo‘r bermoqda.

Ko‘plab noqonuniy adabiyotlar chiqish joylari ko‘rsatilmaydi va qaysi bosmaxonada nashr etilgani noma’lum. Bunday kitoblarni tayyorlashda o‘ta qimmat qog‘oz, sifatli jildlardan foydalaniladi. Afsuski, bu kabi jalb etuvchi omillar yoshlarning yuqorida zikr etilgan adabiyotlarga qiziqishi kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Ba’zi yoshlarimiz esa, internet orqali ekstremistlar ta’siriga tushib qolishi, diniy mutaassib shaxslarning ma’ruzalarini diskda yoki qo‘l telefoni xotirasida saqlab, tinglab yurish holatlari mavjud.

Diniy adabiyotlar so‘nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari hududiga diniy-ekstremistik ruhdagi adabiyotlarni olib kirishga urinishlar kuzatilmokda. Ular asosan musulmon aholiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, alohida hududlarda ijtimoiy-siyosiy jihatdan beqaror vaziyatni vujudga keltirishga, diniy bag‘rikenglik tamoyillarini izdan chiqarishga xizmat qiladi.

Ekstremistik ruhdagi g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi nashrlar, nafaqat zamonaviy mualliflarning asarlari, balki tarixning turli davrlarida yaratilgan va noto‘g‘ri talqin qilingan asarlarning tarqalishiga ham barham berish lozim. Bunga misol tariqasida xorijdagi targ‘ibot markazlari keng foydalanadigan Ibn Taymiya, Muhammad Ilyos Kandehlaviy, Said Nursiy, Taqiyiddin Nabahoniy, Sayyid Qutb, Abu A’lo Ma’dudiy, Abdul Qadim Zallum, Fathulla Gyulen va boshqa shu kabi mualliflarning

asarlarini keltirish mumkin. Ularning ko‘p asarlari radikal ruhda bo‘lib, dunyoqarashi to‘liq shakllanmagan yoshlar orasida noto‘g‘ri, hatto xatarli tushunchalar shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda borliqning eng muqaddasi bu - inson. Biz uchun birgina murg‘ak g‘o‘dakning bir tomchi qoni dunyodagi barcha muqaddas narsadan ustun. Yaratganning eng buyuk ne’mati, biz yashab turgan olamning eng ajoyib mo‘jizasi bo‘lmish inson hayotiga tajovuz qilishga qaratilgan har qanday ko‘rinishdagi tahdidlar katta gunoh ekan, har bir kishi bu ne’matni asrab avaylashi, unga xiyonat qilmasligi lozim bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. I.Karimov. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. Toshkent.: “Ma’naviyat”, 2008-yil.

2. Sh.Mirziyoyev. O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqidan. Toshkent. 2020-yil

3. I.Karimov. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. Toshkent.: “Ma’naviyat”, 2008 yil.

FARANGIZ AVAZBEKOVA,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Bosh inspektori, RMMM huzuridagi Ijtimoiy ma’naviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

YOSHLAR ORASIDA AXLOQSIZLIK VA DEVIANT XULQ-ATVORNING OLDINI OLISH, ULARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH: ILG‘OR XORIJIY TAJRIBA VA TAKLIFLAR

Globallashuv jarayoni va axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi natijasida yoshlar orasida deviant xulq-atvor va axloqsizlik bilan bog‘liq muammolar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlar ijtimoiy tarmoqlar va turli onlayn platformalar orqali ko‘plab xatarlarga duch kelmoqda, ularning axloqiy va ma’naviy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi turli xil zararli g‘oyalarga osongina moyil bo‘lib qolmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, 15 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan yoshlarning qariyb 20 foizi deviant xulq-atvor rivojlanish xavfiga ega, bu esa huquqbuzarliklar, agressiv xulq-atvor, spirtli ichimlik va giyohvand moddalarni suiiste’mol qilish, shuningdek, turli xil ijtimoiy faoliyatlarda ishtirok etishni o‘z ichiga oladi [1].

Turli mamlakatlar ushbu muammolarga qarshi kurashish uchun o‘z strategiyalarini ishlab chiqmoqda, shu jumladan profilaktika va ijtimoiy dasturlarini amalga oshirish orqali yoshlarni salbiy ta’sirlardan himoya qilish va ularni vatanparvarlik va jamiyat oldidagi mas’uliyat ruhida tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar joriy etilmoqda.

Xususan, dunyo bo‘ylab yoshlar orasida deviant xulq-atvor va axloqsizlikka qarshi kurashish maqsadida qator qonunlar, dasturlar va tashabbuslar ishlab chiqilgan. Bugungi kunda Yevropada bolalar va yoshlar huquqlarini himoya qilish, ularni zo‘ravonlik va deviant xulq-atvordan muhofaza qilish uchun 2021-2024 yillar davomida amal qiladigan Yevropa bolalar huquqlari strategiyasi mavjud [2]. Ushbu strategiya yoshlarning rivojlanishi uchun xavfsiz va qulay muhit yaratish zarurligini ta’kidlaydi hamda strategiya yoshlarning ijtimoiy muhofazasini ta’minlash va ularning huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan keng qamrovli dasturlarni o‘z ichiga oladi.

Buyuk Britaniyada yoshlar orasida axloqsizlik, deviant xulq-atvoring oldini olish bo‘yicha bir necha dasturlar va tashabbuslar joriy etilgan.

Masalan, “Mentor UK” dasturi [3] maktablar va jamoat markazlarida yoshlar bilan ishlashga qaratilgan bo‘lib, u stressni boshqarish, mojarolarni hal qilish va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish bo‘yicha treninglar o‘tkazishni nazarda tutadi. Ushbu dasturlar yoshlarning huquqbuzarliklar va moddalarga qaramlikning oldini olishga qaratilgan.

Singapurda “Character and Citizenship Education” (CCE) dasturi [4] o‘quvchilarning axloqiy va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Dastur har bir o‘quvchida milliy qadriyatlarni, ijtimoiy mas’uliyatni va axloqiy sifatlarni tarbiyalash maqsadida ishlab chiqilgan. Singapur maktablarida bu dastur yordamida yoshlarning fuqarolik mas’uliyati va axloqiy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati sezilarli darajada yaxshilangan.

Finlyandiyada “KiVa” dasturi [5] maktablarda zo‘ravonlikka qarshi samarali kurashishga yo‘naltirilgan. Bu dastur tarbiya jarayonini yaxshilash va o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional salohiyatini oshirishda yordam beradi. Dastur interaktiv o‘quv materiallari, onlayn o‘yinlar va murabbiylar uchun qo‘llanmalarni o‘z ichiga oladi. Finlyandiya maktablarida bu dasturni qo‘llash natijasida zo‘ravonlik holatlari keskin kamaygan.

Janubiy Koreyadagi “Youth Dream Project” [6] dasturi uyushmagan yoshlarning ijtimoiy hayotga qaytishini ta’minlash va ularni ish bilan ta’minlashga qaratilgan. Dastur orqali yoshlar mehnat bozoriga kirishish va kasb-hunarga ega bo‘lish uchun qo‘llab-quvvatlanadi. Ushbu dastur orqali nafaqat yoshlarning kasbiy rivoji, balki ularning psixologik va ijtimoiy moslashuvi ham ta’minlanadi. Janubiy Koreyada shuningdek, ota-onalarni samarali tarbiya usullariga o‘rgatuvchi davlat va xususiy kurslar mavjud bo‘lib, ular ota-onalarga zamonaviy texnologiyalar davrida bolalarni tarbiyalash, ularni salbiy internet-kontentlardan himoya qilishga yordam beradi.

Avstraliyada “Reconnect” dasturi [7] uyushmagan yoshlarning ijtimoiy hayotga qaytishiga qaratilgan bo‘lib, bu dastur yoshlarning psixik salomatligini yaxshilash, ularni ta’limga qaytarish va ish bilan ta’minlashni qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu dastur yoshlarni ijtimoiy hayotga integratsiya qilishda psixologik maslahatlar, treninglar va boshqa ijtimoiy yordam xizmatlari orqali ko‘maklashadi. Avstraliya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yoshlar bilan individual yondashuv asosida ishlash ularning ijtimoiy rivojlanishini tezlashtiradi va deviant xulq-atvordan voz kechishiga yordam beradi

Ushbu yo`nalishdagi chora-taqdbirlar samarasida xalqaro huquq normalari va xalqaro aktorlarning alohida roli mavjud. Jumladan, BMT ham yoshlar huquqlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. BMT tomonidan tasdiqlangan Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi konventsiya

yoshlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, ularni zo‘ravonlik va yomon munosabatlardan muhofaza qilishga qaratilgan. Konventsiyaning maqsadi yoshlarning ijtimoiy va axloqiy rivojlanishiga yordam berish, ularning huquqiy ongini oshirish va deviant xulq-atvoring oldini olish uchun tegishli chora-tadbirlarni joriy qilishdir [8].

O‘zbekistonda yoshlar orasida axloqsizlik va deviant xulq-atvor muammosi ham juda dolzarb. Chunki, mamlakatda yoshlar umumiy aholining 60 foizini tashkil qilishi sababli ularni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish va ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi strategik ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda yoshlar orasidagi radikal g‘oyalarga moyillikning oldini olish va ular orasida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni yuksaltirish uchun keng qamrovli chora-tadbirlar talab etiladi. Ushbu muammolarga qarshi kurash maqsadida davlat rahbari tashabbusi asosida turli dasturlar va tadbirlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘z chiqishlaridan ta’kidlaganidek: “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi taxdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishiga intilishga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir” [9].

Ilg’or xorijiy tajriba tahlili asosida O‘zbekistonda yoshlar orasida axloqsizlik va deviant xulq-atvorning oldini olish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning samarali mexanizmlarini yaratish yuzasidan quyidagi taklif va mulohazalarni bildirish mumkin:

O‘zbekistonda yoshlar orasida axloqsizlik va deviant xulq-atvorni oldini olishda ikkita yo`nalishdagi kontentlarga e`tibor qaratish lozim:

yoshlarda ma’naviy-ahloqiy kadriyatlarni tarbiyalashga qaratilgan kontentlar;

turli mafkuraviy xurujlarga qarshi qaratilgan kontent.

Yoshlarda mustahkam axloqiy asoslarni, tanqidiy fikrlashni va mafkuraviy hujumlarga qarshi tura olish qobiliyatini shakllantiruvchi zamonaviy media kontentlar orqali dezinformatsiya va mafkuraviy manipulyatsilarni oldini olish;

Yoshlarda mustahkam axloqiy asoslarni, tanqidiy fikrlashni va mafkuraviy hujumlarga qarshi tura olish qobiliyatini shakllantiruvchi zamonaviy media kontentlar orqali dezinformatsiya va mafkuraviy manipulyatsilarni oldini olish;

Ota-onalarga raqamli davrda bolalarni tarbiyalash, jumladan, **salbiy internet-kontentlar ta’siridan himoya qilish**da yordam beruvchi qo‘llanmalarni yaratish;

Yoshlarda yot g‘oyalardan ehtiyot bo‘lish va axloqiy qadriyatlarni kuchaytirishga qaratilgan **qiziqarli komiks**larni yaratish;

Yoshlar orasida axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish maqsadida maxsus qo‘llanmalar ishlab chiqilishi kerak. Ushbu qo‘llanmalar yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga qaratilgan treninglar va dasturlarni o‘z ichiga olishi zarur. Tarbiyaviy dasturlar maktablarda va oliy ta’lim muassasalarida ham keng joriy etilishi lozim;

Yoshlar uchun maxsus mobil ilovalar yaratish: Milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish, ma’naviy va axloqiy tarbiyani rivojlantirish maqsadida yoshlar uchun interaktiv mobil ilovalar ishlab chiqish lozim. Ushbu ilovalar orqali foydalanuvchilarga ta’limiy, tarbiyaviy va o‘zini rivojlantiruvchi kontent yetkazilishi mumkin.

Media savodxonlikni oshirish bo‘yicha davlat dasturini yaratish: Yoshlar o‘rtasida media savodxonlikni oshirish, ularni axborot xurujlaridan himoya qilish maqsadida davlat darajasida maxsus dastur ishlab chiqilishi kerak. Bu dastur yoshlarni soxta xabarlar va zararli kontentlarni aniqlashda o‘rgatishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST), «Yoshlar salomatligining jahon hisobot», 2023 // https://www.who.int/
2. Yevropa komissiyasi, “Yoshlar jinoyatchiligini oldini olish bo‘yicha strategiya”, 2023 // https://ec.europa.eu/
3. Buyuk Britaniya Ta’lim vazirligi, “Mentor UK”, 2023. // https://www.gov.uk/government/organisations/department-for-education
4. Singapur Ta’lim vazirligi, “Character and Citizenship Education dasturi”, 2023 // https://www.moe.gov.sg/
5. Finlyandiya Ta’lim vazirligi, “KiVa dasturi”, 2023. // https://minedu.fi/en/frontpage
6. Janubiy Koreya Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot vazirligi, “Youth Dream Project”, 2023 // http://english.mohw.go.kr/
7. Avstraliya Ta’lim vazirligi, “Reconnect dasturi”, 2023. // https://www.education.gov.au/
8. BMT, “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi konventsiya”, 2023. // https://www.un.org/
9. Mirziyoyev Sh., “Ta’lim va ma’rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo‘l”. Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari Kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutq. 2016-yil 18-oktabr // https://president.uz/

TUXTASIN TASHMETOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD

YOSHLARNI ZARARLI G‘OYALARDAN HIMOYALASHNING SOTSIOMADANIY VA SOTSIOPEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Bugun dunyoda globallashuv, axborot oqimining tezlashuvi hamda intensivlashuvi natijasida universal texnologiyalar bilan bog‘liq umumbashariy jarayonlar jadallashib, ta’sir doirasi kengayib, inson ongini zabt etishga bo‘lgan harakatlar tobora kuchaymoqda. Ular mafkuraviy-g‘oyaviy ta’sir o‘tkazishda axborotning asosiy omili vazifasini o‘tamoqda. Hozirda, axborot vositasi yordamida insonlarning qalbi, ongi va ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatishga alohida e’tibor qaratilmoqda. U turli aldamchi yo‘llar bilan, nayrang va hiyla bilan olib borilmoqda. Masalan, kinofilmlar, ko‘rsatuvlar, internet va OAV xabarlari orqali bevosita insonlar ongiga biron bir xorijiy mamlakatning turmush tarzi, qadriyatlar tizimini ulug‘lovchi g‘oyalar singdirilmoqda. Natijada esa bunday axborotlar ma’naviyatimizni singdirishga, yoshlarimizni o‘z ona yurtiga daxldorlik ruhida tarbiyalashga salbiy ta’sir etmay qolmaydi. Zero, “Mamlakatimiz aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, shu yo‘nalishdagi ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini yanada oshirishimiz zarurligi davr talabiga aylanib bormoqda”[1]. Shuning uchun ham, jamiyatda axborot almashinuvi jarayonlariga, aholida axborot madaniyatining yuksalishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi omil bu – global va mahalliy kommunikatsiya tarmoqlarining davr talablariga munosib ravishda rivojlanishidir. Buning uchun, birinchi navbatda, axborot texnologiyalari sohasida chuqur bilimga ega mutaxassislarni yetishtirib chiqarish kerak. Shu bilan birga aholida, ayniqsa yoshlarda uzatilayotgan axborotni xavfsizlik jihatidan baholay olish ko‘nikmasini, boshqacha aytganda, axborot madaniyatini shakllantirish lozim. Pirovardida bu bilim va ko‘nikmalarni axborot xurujlarini bartaraf etishga qarshi qo‘yish lozim. Shu jihatdan, yoshlarni global axborot xurujlaridan himoya qilishda, milliy qadriyatlarimizga tayanish, milliy o‘zligimizni tarannum etadigan badiy asarlarni o‘qishni keng targ‘ib qilish, ma’naviy merosimizni o‘rganish, millatimizga xos bo‘lgan axloqiy tarbiyani yo‘lga qo‘yish, yoshlarning ma’naviyatini oshirish kabi, ortga surib bo‘lmaydigan sotsiopedagogik va sotsiomadaniy tadbirlarni amalga oshirishimiz zarur:

- yoshlarning iymon-e’tiqodini yanada kuchaytirish;

- ularning ichki dunyosi va irodasini baquvvat qilish;
- yoshlarni mustaqil, erkin fikrlash va tahlil qilishga yo‘naltirish;
- g‘urur va iftixor bilan yashashlariga erishish;
- yoshlarda muqaddas qadriyatlarimizni asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatlarini qaror toptirish;
- mamlakatimiz xalqlari o‘rtasida do‘stlik, hamkorlik munosabatlarini yanada kuchaytirish.

Ushbu sotsiopedagogik va sotsiomadaniy mexanizmlarning ishlashi uchun yagona mafkura – bu O‘zbekistonning taraqqiyoti ekanini anglashimiz va bu yo‘lda birlashmog‘imiz lozim. Yoshlarning ma’naviyatiga ta’sir qiluvchi omillar nihoyatda xilma-xildir. Ular orasida atrof-muhit ta’siri, kattalar ibrati alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, ota-ona va ustoz-tarbiyachilarning ibrati, namunasi yosh avlodga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Shu ma’noda, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish ma’lum bir tizmli (modelli) yondashishni taqazo etadi. Tizmli yondashuv voqellikka (ob’ektiga) oid xususiyatlar va ichki tuzulishini aniq bilish imkonini beradi. Ilmiy bilishda e’tirof etilgan ushbu yondashuv”[2] mafkuraviy immunitetga ta’sir vositalari sotsiopedagogik va sotsiomadaniy model tarzida qarashga imkon beradi.

Sotsiomadaniy modelni ham maqsadiga ko‘ra, uzluksizligiga ko‘ra, texnologiyalardan foydalanishga ko‘ra, ta’siriga ko‘ra, auditoriyasiga ko‘ra, kabi tizmlariga ko‘ra ajratib qarash mumkin. Masalan auditoriyasiga ko‘ra u:



Shuni aytish kerakki, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish ko‘pincha madaniy-ommaviy tadbirlar orqali ro‘y beradi. Ayniqsa yoshlarning bo‘sh vaqtida uyushtiriladigan madaniy-ommaviy tadbirlar ular ijtimoiy fikricha tez samarali ta’sir etadi”[3]. Bundan tashqari targ‘ibot, tarbiya, ma’rifiy ishlar madaniy-ommaviy tadbirlar imkoniyatidan samarali foydalanishni taqazo etadi. Zamonaviy tadqiqotlar ko‘rsatadiki, madaniy-ommaviy tadbirlar ma’rifiy tarbiya

ishlar samaradorligi, ta’sirchanligini 20-25 foizga oshiradi”[4]. Dmak, mafkuraviy immunitetni oshirishning g‘oyaviy asoslarini sotsiomadaniy model tarzida idrok etish mumkin.

Shaxs sotsiopedagogik model markazida turadi. Unda mafkuraviy immunitetni shakllantiruvchi qismini – 1) institutlar. 2) muhit 3) omillar tarzida idrok etish, anglash mumkin.

Pedagogik institutlar – davlat va jamiyat tomonidan shakllantirilgan. Sotsiopedagogik vazifalariga ega qismdir. Yuqoridagi modelda ular – maktab; maktabdan tashqari muassasalar; o‘quv yurtlari; OAV, internet, ijtimoiy tarmog‘lari, oila instituti; mehnat jamoasi; fuqarolik jamiyati institutlaridan iborat. Mazkur institutlar mafkuraviy immunitetni asosiy vazifalari doirasida, immanent xususiyatlari va defferensial usullariga muvofiq amalga oshiradi. Ular mafkuraviy maqsadni o‘z faoliyatiga singdirgan bo‘lib, ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashish ana shu asosiy vazifalari, immanent xususiyatlari, differensial xuxusiyatlariga muvofiq amalga oshiradi. Ushbu sotsiopedagogik institutlarning har biri alohida sub’ekt (g‘oyaviy ta’sir manbai) sifatida tadqiq etilishi mumkin.

Ijtimoiy muhit pedagogik institutlar bilan ham, etnopedagogik omillar bilan ham bog‘liq. Jamiyat – shaxs – davlat munosabatlari, g‘oyaviy ta’sir vositasi sifatida, ushbu muhit o‘z aksini topadi. Unga ijtimoiy fikr, kishilar munosabatlari sotsinormativ ahamiyatga ega axloqiy meyyorlar, tabu, tashakkur, rag‘batlantirish, namuna qilib ko‘rsatish kabilar kiradi. Ijtimoiy muhitda qaror topmagan g‘oyaviy tushunchalar barqaror qadryat bo‘lolmaydi. G‘oyaviy immunitet barqaror qadryatlar – axloqiy meyyorlar, dunyoqarash, turmushtarzi, tabu taqdirlash va rag‘batlantirish orqali shakllanadi. Palliativ (vaqtincha, o‘tkinchi) bo‘lgan voqeliklar unga samarali ta’sir etolmaydi.

Etnopedagogik omillarni urf-odatlar, ota-ona yoki oila ta’siri, mahalla, tengdoshlar, etnopedagogik tajribalar, milliy g‘oyaviy tarbiya, o‘zini o‘zi g‘oyaviy tarbiyalash kabi tizmlar orqali qarash mumkin. Ushbu tizmlarning har biri mafkuraviy immunitetni shakllantirishda muhim ro‘l o‘ynaydi, hamda ularning har biri o‘z ichki tizmlariga ega. Masalan urf-odatlar ta’siriga ko‘ra, ob’ektivligiga ko‘ra, maqsadiga ko‘ra, muhitda kechishiga ko‘ra, sub’ektiga ko‘ra kabi tizmlarga ajratilishi mumkin. U taqdirda quydagi chizma xosil bo‘ladi.



Umumiy nuqtai nazardan sotsipedagogik va sotsiomadaniy ta'sir modellarini quydagi chizmada ko'rsatishimiz mumkin.

Sotsiomadaniy model shaxsga ma'naviy-g'oyaviy jihatdan samarali ta'sir etishni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan u madaniyat, mafkura, ma'naviyat, milliy g'oya san'at, adabiyot, dizayn, reklama, musiqa, teatr imkoniyatlaridan keng foydalanish texnologiyasidir.

Sotsiopedagogik model qanchalik muhim bo'lmasin, u tashkil etadigan mafkuraviy-g'oyaviy tadbirlar sotsiomadaniy omillar, vosita va usullar orqali ta'sirchan bo'ladi.

Yoshlar ma'naviyatini va ularda g'oyaviy immunitetini shakllantirishda sotsiopedagogik va sotsiomadaniy modellar birga, permanent (uzluksiz) tarzida kelishi zarur. Mazkur jarayonni ma'lum bir chizma tarizida quydagicha ifodalash mumkin.



Shu bilan birgalikda, yoshlarni zararli g'oyalardan himoyalashning sotsiomadaniy va sotsiopedagogik mexanizmlarini shakllantirishda quydagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim. Bular:

birinchidan yoshlarni zararli g'oyalardan himoyalashning sotsiomadaniy va sotsiopedagogik mexanizmlarini shakllantirishga qaratilgan faoliyatni nazariy-metodologik qimmatga ega bo'lgan keng ko'lamli tashkiliy va ilmiy-amaliy ishlar orqali har tomonlama chuqur ochib berish;

ikkinchidan, xalqimizga xos ma'naviy-axloqiy tamoyillarni zamon talablari asosida rivojlantirib borishda nafaqat Sharq balki, G'arb falsafiy ta'limotlari bilan integratsiyasini ta'minlash;

uchunchidan, yoshlarimizni bugungi zamon, milliy taraqqiyotimiz, g'oyaviy-mafkuraviy va ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarimizga negativ ta'sir etuvchi axborotlar ta'sirlardan himoya qilishga qaratilgan faoliyatni muntazam yangilab takomillashtirib borish kabilarga amal qilish ijobiy

natija beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, yoshlarni zararli g‘oyalardan himoyalashning sotsiomadaniy va sotsiopedagogik omillarini shakllantirish orqali milliy qadriyatlarimizga, urf-odatimizga, o‘sib kelayotgan avlodning ma’naviy dunyosiga, tarbiyasiga salbiy ta’siri milliy mentalitetimizga tahdidini ilmiy-amaliy jixatdan izchil modernizatsiya ishlarini amalga oshirishni davrning o‘zi taqozo etmoqda. Shu jihatdan, yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda, yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan axborot xurujlarini bartaraf etishga qaratilgan quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi: birinchidan, globalllashuv va axborot xurujlari sharoitida yoshlar ma’naviyatini yot ta’sirlardan himoya qilishda milliy madaniy qadriyatlarga, jamiyatning xulq-atvor me’yorlari va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanish zarurligi; ikkinchidan, globallashuv jarayonlarining salbiy oqibatlari barcha sohalarni qamrab olayotgan ekan, ijtimoiy, ma’naviy-mafkuraviy jabhalarda ham unga qarshi sotsiomadaniy va sotsiopedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqligi; uchinchidan, aqidaparastlik, buyuk davlatchilik shovinizmi, vandalizm, genotsid, “demokratiya eksporti”, ekstremizm, dogmatizm, irqchilik, kosmopolitizm, ksenofobiya, ludomaniya, mahalliychilik, millatchilik, missionerlik, natsizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”, terrorizm, fashizm, fundamentalizm, xalqaro terrorizm kabi turli transchegaraviy zararli g‘oyalardan himoyalashning sotsiomadaniy va sotsiopedagogik omillarini keng targ‘ib qilish va bu borada ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyatini yanada oshirish, yoshlarda milliy qadriyatlarga bo‘lgan yangicha munosabatni qaror toptirish kerakligi maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б 280.
2. Алимосов В., Мамадалиев Ш.О. Илмий тадқиқот метадология, методика, ижодиёт- Тошкент: IIV Akademiya, 2016 34-35 б.
3. Икрамов С. Маданий-оммавий тадбирлар ва уларнинг ёшлар онгига креатив таъсири // Ўз ДСМИ Ахборотномаси, 2021. №. 34-36 б.
4. Икрамов С. Маданий-оммавий тадбирлар ва уларнинг ёшлар онгига креатив таъсири // Ўз ДСМИ Ахборотномаси, 2021. №. 34-36 б.

ABDURAIM ULUG‘OV,
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali kafedra mudiri, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

YOSHLARDA BAG‘RIKENGLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHGA DOIR ZAMONAVIY QARASHLAR TAHLILI

Hozirgi kunga qadar murosasizlik yoki diniy aqidaparastlikning mavjudligi manfaatdor davlatlar qo‘lida kamsitishning ta’sirli vositasi sifatida ishlatilib kelinmoqda. Shu sababdan, azaldan yashirin siyosiy maqsadlarni ko‘zlagan din me’yorlari va milliy qadriyatlarni tarqatish uchun mubashir (arabcha ism «xushxabar keltiruvchi voiz») deb nomlangan targ‘ibot guruhlari faoliyatida noto‘g‘ri hatti - harakatlar sodir bo‘ladi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, bag‘rikenglik va zo‘ravonlik dialektik xususiyatga ega tushunchadir. Ma’lumki, 1995-yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan «Bag‘rikenglikka bag‘ishlangan yili» deb e’lon qilingan. Bu qaror YUNESKO tashabbusi bilan qabul qilingan. Ushbu harakatga sabab insoniyat jamiyatlarining tinch hayotiga va umuman xalqaro barqarorlikka bir qator jiddiy tahdidlarning mavjudligi va hattoki kuchayib borayotganidan xavotirda bo‘lganligi bilan xarakterlanadi. Ushbu global muammolar orasida, birinchi navbatda, quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

– etnomilliy nizolar;
– ozchilikka nisbatan diskriminatsiya qilinishi;
– ksenofobiya, ayniqsa qochqinlar va muhojirlarga qarshi harakatlar;
– irqchi tashkilotlarning faoliyati va irqiy zo‘ravonlik harakatlari;
– diniy ekstremizm;
– ziyolilar, so‘z va fikr erkinligini ta’kidlaydigan boshqa shaxslarga nisbatan zo‘ravonlik va ta’qib;
– siyosiy harakatlar va mafkuralarga toqat qilmaslik.

Aholining zaif guruhlarini jamiyatdan chetlashtirishda ushbu guruhlarga nisbatan kamsitish va zo‘ravonlikka asoslangan munosabatda bo‘lish. Ayni paytda «Ijtimoiy hayotimizda ko‘plab ijobiy jarayonlar bilan birga, yosh avlodning qalbi va ongini egallashga qaratilgan ma’naviy tahdidlar ham tobora xavfli tus olmoqda»[1]. Murosasizlik haqiqatan ham zamonaviy dunyodagi eng katta global muammolardan biriga aylandi. Uning mohiyati individlar va madaniyatlar o‘rtasidagi tafovutlarni inkor etish va bostirishdan iborat. Kollektiv va hatto davlat mavqei darajasiga ko‘tarilgan murosasizlik demokratiya tamoyillariga

putur etkazadi, insonning shaxsiy va jamoaviy huquqlarini buzilishiga olib keladi. Madaniyatlar va odamlar o‘rtasidagi tafovutlar bo‘linish va hatto qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarishi mumkin: bular demokratiya va plyuralizmning tabiiy oqibatlari bilan belgilanadi. Ammo bunday qarama-qarshiliklarni bartaraf etish yoki o‘ziga xos qarash va pozitsiyalarni o‘rnatish uchun kuch ishlatish qabul qilinishi mumkin emas. Ana shu asosiy tamoyillardan kelib chiqib, YUNESKO o‘zining ellik yilligi munosabati bilan o‘z Konstitutsiyasining muqaddimasi matnini dunyoga eslatib o‘tadi: «Urushlar odamlar ongida boshlangan ekan, tinchlikni yaratish ham odamlar ongidan boshlanishi kerak».

Sovuq urush tugab, kommunistik blok parchalanganidan keyin chuqur ijtimoiy va geosiyosiy o‘zgarishlarni boshdan kechirayotgan zamonaviy dunyo hozirgi vaziyatning imkoniyatlari va xavf-xatarlarini yanada adekvat tushunishga tobora muhtoj bo‘lib bormoqda. XXI asr boshida anarxiya va zo‘ravonlik hukmronligining oldini olish uchun individual va jamoaviy mas’uliyat va yanada samarali institutlarni rivojlantirish uchun yangi tajriba va yangi tashabbuslar zarur zarur bo‘la boshladi.

XX asr insoniyat taraqqiyotining eng og‘ir davri bo‘lib, jahonning ijtimoiy hayot larzalari va inqiloblari, global ekologik muammolarning keskinlashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy burilishlar, inson hayotining ma’naviy-axloqiy asoslarining zaiflashuvi bilan xarakterlandi. Bu juda ko‘p odamlarning o‘limi, qirg‘inlar, inson resurslarining katta yo‘qotishlari bilan birga amalga oshdi. Ayniqsa ko‘pgina mamlakatlarda qurol va texnologiyalarning to‘planishi va vayronkorligining hozirgi darajasida insoniyatni inqiroz va halokatli vaziyatlarga solmasdan turib, ijtimoiy va xalqaro muammolarni kuch bilan hal qilish mumkin emasligi hammaga ayon bo‘ldi. Shuning uchun insoniyatni qutqaradigan muammolarning boshqa g‘ayri zo‘ravon yechimlarini izlash va topishgina emas, balki ularni har tomonlama ko‘rib chiqish va faol rivojlantirish kerak bo‘lmoqda.

O‘z navbatida bag‘rikenglik muammosini o‘rganishning ahamiyati ham butun dunyoda sodir bo‘layotgan voqealar, ham so‘nggi o‘n yilliklarda mamlakatimizda sodir bo‘lgan voqealar bilan bevosita bog‘liq. Mahalliy urushlar va terroristik harakatlar, qochqinlar olomoni va milliy ozchiliklarni ta’qib qilish uzoq vaqtdan beri to‘plangan va jilovlangan g‘azab va o‘zga e’tiqod vakillariga nisbatan nafratning bugungi kunda paydo bo‘lganining ishonchli dalilidir. Insoniyat endilikda «o‘z-o‘ziga qarshi urush» davriga kirdi. Ya’ni, bugungi kunda boshqa tilda so‘zlashuvchi, boshqa dinga e’tiqod qiluvchi, boshqa qadriyatlar tizimiga amal qiluvchi odamlarga qarshi urush, uni olib borish usullari ancha xilma-xil va murakkablashdi.

Toqatsizlik insoniyatni ommaviy qabrga olib boradi. Odamlarning ma’naviy-axloqiy munosabatlar doirasidagi vahshiyligi bizning ko‘z o‘ngimizda sodir bo‘lmoqda. Umuman insoniyatning ham, xususan, jamiyatimizning zamonaviy muammolari ham insonlar uchun eng qiyin narsa ularning hayoti, ijtimoiy o‘zgarishlari uchun yo‘l-yo‘riq va mezon tanlash ekanligini ko‘rsatib turibdi. Bag‘rikenglik murosaga erishish, nizolarni bartaraf etishning eng muhim shartidir, shuning uchun bag‘rikenglik muammosi bugungi kunda xalqaro ma’noga ega bo‘ldi. 1992-yilda BMT Bosh Assambleyasi YUNESKOning XX asrning so‘nggi o‘n yilligida BMTning «Bag‘rikenglik yili» deb o‘tkazish tashabbusini olqishlab rezolyutsiya qabul qilgani bejiz emas. Ammo o‘zaro bag‘rikenglik, sivilizatsiyalar to‘qnashuvi, madaniyatlar, millatlar, alohida guruhlar, alohida odamlar bir-birlarini oddiygina yo‘q qilishlari mumkinligi ham aniq. 1996 yil YUNESKO tomonidan bag‘rikenglik yili deb e’lon qilindi. Ana shu g‘oya doirasida qator xalqaro tadbir va anjumanlar o‘tkazildi. Ushbu konferensiyalarning mazmuni bag‘rikenglik tushunchasining tibbiy va ekologik jihatdan, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy jihatdan talqinlari qanchalik keng ekanligini ko‘rsatadi. Bu talqinlarning barchasi o‘z asoslari va mavjud bo‘lish huquqiga ega, chunki bag‘rikenglik shunchaki mavhum falsafiy ideal va o‘ylab topilgan nazariy konstruksiya emas, balki insoniyat omon qolishining amaliy shartidir. Agar insoniyat bu hayotda bag‘rikenglikni rivojlantirmasa, faqat va faqat o‘zini halokatga uchratadi.

Bag‘rikenglik – bu madaniyatning yaxlitligi bo‘yicha amalga oshiriladigan o‘ziga xos konstruktiv yondashuvdir. Chunki aynan bag‘rikenglik yaxlitlik talablarini turli modallik subyektlari faoliyat sohasining xilma-xilligi orqali amalga oshiradi, bu esa ularning har biri uchun birgalikda yashash zarurligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezideni Sh. Mirziyoyevning taklifiga ko‘ra 2017-yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida «Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifini ilgari surilganligi ham e’tiborga molikdir. Jahon miqyosida e’tirof etilgan «Ushbu rezolyutsiya bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta’minlash, e’tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikka ko‘maklashishga qaratilgan»[2]ligi bilan ham ahamiyatlidir.

Shuningdek, O‘zbekiston taklif etgan rezolyutsiyaning asosiy maqsadi - barcha uchun ta’lim olish imkoniyatini taqdim etish, savodsizlik va bilimsizlikni bartaraf etishdan iborat. O‘zbekistonning BMTdagi

doimiy vakolatxonasi xabarida ta’kidlanganidek, rezolyutsiya nafaqat BMTning barcha a’zo davlatlari tomonidan bir ovozdan ma’qullanmagan bo‘lib, balki 50 dan ortiq davlatlar hammuallifligida qabul qilindi. Mualliflar orasida Qirg‘iziston, Livan, Marokash, Birlashgan Arab Amirliklari, Ummon, Pokiston, Koreya Respublikasi, Rossiya, Saudiya Arabistoni, Singapur, Sudan, Tojikiston, Tailand, Ozarbayjon, Jazoir, Bahrayn, Belorussiya, Gana, Tunis, Turkmaniston, Filippin, Yaponiya va boshqa davlatlar bor.

Rezolyutsiyada ta’lim, tinchlik, inson huquqlari, bag‘rikenglik va do‘stlik g‘oyalari olg‘a suriladi va shuningdek, dunyoda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash uchun integratsiya, o‘zaro hurmat, inson huquqlarini himoya qilish, bag‘rikenglik va o‘zaro tushunishning muhimligi tan olinadi. Bag‘rikenglik - bu kimdir boshdan kechiradigan, lekin uni faol ravishda ifoda etmaydigan, unga zid bo‘lgan ko‘rinishlarni bostirishga yoki taqiqlashga harakat qilmaydigan o‘ziga xos munosabatlarni saqlashni anglatadi. Ushbu ta’rif bag‘rikenglikni nazariy tushuncha va amaliy tamoyil sifatida o‘rganishdagi mavjud yondashuvlarda aks ettirilgan shakllarini zaif, yuzaki bag‘rikenglikdan o‘zaro boyituvchi tanqidiy muloqot – barqaror bag‘rikenglikgacha tizimlashtirish imkonini beradi. Bag‘rikenglikni shakllantirishning muhim shartlari - axloqiy salomatlik, o‘z-o‘zini anglash, onglilik, qiziquvchanlik, o‘zini o‘zi qadrlash, ichki erkinlik, tanqidiylik, ochiqlik va boshqalardir. Raqobat va qarama-qarshilik munosabatlari nafaqat bag‘rikenglik chegaralarida joiz, balki undan oldin ham bo‘ladi. Bag‘rikenglikka xos dialektik va qarama-qarshilik mavjud: bag‘rikenglik nafaqat boshqalarni qabul qilish, balki boshqasini inkor etish hamdir. Boshqacha qilib aytganda, bag‘rikenglik qabul qilish va inkor etish dialektikasidir va shunday tarzdaki, biri ikkinchisini, hech bo‘lmaganda, qisman taxmin qiladi.

Shuning uchun ham taniqli faylasuv olim Z. Davronov bag‘rikenglikni xilma-xil shakllarda namoyon bo‘lishini quyidagicha tezislar orqali izohlab o‘tadi: «***Birinchidan***: bag‘rikenglik faqat diniy sohalarda qo‘llaniladigan tushuncha bo‘lmasdan, insonlar o‘rtasida bo‘lib o‘tadigan turli sohadagi munozaralarda aks etadigan keng ma’nodagi tushunchadir. ***Ikkinchidan***: bag‘rikenglik insonlarning barcha sohalardagi his-tuyg‘usini, umumiy faoliyatini, qamrab oladigan qarashlar yig‘indisidir. ***Uchinchidan***: bag‘rikenglik bu barcha razolatlardan uzoq bo‘lishga, ulardan xalos bo‘lishga undovchi tushunchadir. ***To‘rtinchidan***: bag‘rikenglik bu insonlarda barcha sohalarda ezgulik va yaxshilik rishtalarini namoyon qiluvchi falsafiy tushunchadir. ***Beshinchidan***: bag‘rikenglik bu – barcha illatlarni keltirib chiqaradigan sohalarda sabr-toqatli bo‘lishga chorlovchi

faoliyatdir»[3].

Bag‘rikenglik muammosini o‘rganishning ahamiyati, birinchi qarashda, bag‘rikenglik g‘oyasi sodda va ravshan bo‘lishi bilan ortadi. Bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish zarurligi to‘g‘risida umumiy kelishuv paydo bo‘lishiga qaramay, zamonaviy jamiyatda xalqaro hamkorlikka putur etkazuvchi, o‘tkir millatlararo nizolarni keltirib chiqaradigan jiddiy muammolar ham kuzatilmoqda. Bunday murosasizlik va qarama-qarshiliklarni bartaraf etish yoki yumshatishning yo‘li bormi? Ushbu savollarga javob bermasdan, ushbu muammoga adekvat yondashuvni ishlab chiqishga ishonish qiyin.

Aslida, bag‘rikenglik g‘oyasi bir qarashda ko‘ringanidan ancha murakkabroq: birinchidan, u ma’lum metodologiyaga asoslanadi va bir qator oqibatlarga olib keladi. Shu bilan birga, bag‘rikenglik turli shakllarda mavjud bo‘lishi mumkin va shunga mos ravishda turli xil oqibatlarga olib keladi; ikkinchidan, bag‘rikenglik muammosi insonning mohiyati, uning o‘ziga xosligi, bilish imkoniyatlari va chegaralari, haqiqatni anglash, madaniyatlarning o‘zaro ta’siri, muloqot va o‘zaro tushunish va boshqalar muammosiga oid bir qator fundamental falsafiy va antropologik muammolar bilan bevosita bog‘liqdir. Uchinchidan, omma ongida bag‘rikenglik g‘oyasini amalga oshirish jamiyatda shaxsni tushunish va uning idrokiga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Masalan, mustaqillikka munosabat, mustaqillik, shaxs, uning e’tiqodi va harakatlari uchun shaxsiy javobgarligi, o‘z hukmlarining nisbiyligini tushunishdan kelib chiqqan holda, o‘z g‘oyalari va e’tiqodlarini majburlash va kuch bilan singdirishga yo‘l qo‘yilmasligi shular jumlasidandir. Ijtimoiy rivojlanishning hozirgi bosqichida dunyo yaxlitligining o‘sishi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, bu esa umumiy qiymat shartlarini qabul qilishni nazarda tutadi. O‘zaro tushunishning asosiy asoslarini izlash bag‘rikenglik tushunchasini tahlil qilish va tushuntirish bilan bog‘liq muammolarni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar bag‘rikenglik g‘oyasini amalga oshirishning muhim amaliy ma’nosini isbotlaydi. Biroq, uning jamiyatda ildiz otishi va o‘sishi uchun haqiqiy shart-sharoitlarni (ijtimoiy, madaniy, psixologik) yaratish masalasini hal qilish uchun bag‘rikenglik muammosini nazariy tahlil qilish, bag‘rikenglik haqidagi umumiy tushunchani anglash, hozirgi bosqichda ushbu hodisaning rivojlanish darajalari va chegaralarini aniqlashga katta yordam beradi.

So‘nggi o‘n yilliklarda jamiyatimizda shuningdek, qator xorijiy mamlakatlarda ham ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatning o‘zgarishi bag‘rikenglik hodisasini har tomonlama nazariy jihatdan o‘rganish uchun qulay shart-sharoit yaratdi. Bundan tashqari, umumiy siyosiy vaziyat,

xususan, O‘zbekistondagi vaziyat bu muammoni o‘rganishni yanada zaruratga aylantiradi. Zamonaviy falsafiy adabiyotlarda bag‘rikenglik muammosi rivojlanishning dastlabki bosqichida, davriy nashrlarda va ijtimoiy-falsafiy to‘plamlarda keyingi falsafiy qarashlarning rivojlanishi uchun boshlang‘ich ma’lumot sifatida katta hajmdagi materiallar nashr etilganda inson hayotining muayyan sohalarida bag‘rikenglik tahlili va bag‘rikenglikni har qanday darajadagi insoniy munosabatlarning asosiy tamoyili sifatida qabul qilish, insoniyatning omon qolishining asosiy shartlaridan biri sifatida tan olish haqida umumiy fikrlarni aks ettirdi. Dinni siyosiylashtirish, uni mafkuralashtirish va institutsionallashtirish muqarrar ravishda diniy bag‘rikenglikning muhim xususiyatini salbiy tomonga o‘zgarishiga olib keladi.

Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev alohida ta’kidlab: «Bugungi kunda butun dunyo, ayniqsa, Islom hamjamiyati davrning tahlikali tahdidlari bilan yuzma-yuz turibdi. Islom dinini siyosiylashtirish va musulmon yoshlarni radikallashtirish borasidagi urinishlar bunday xatarlarni o‘ta jiddiy tahlil qilish, baholash va ularga munosib javob berishni taqozo etmoqda. Dunyodagi ayrim doiralar Islomga qarshi kayfiyatni kuchaytirgan holda, Islom dinini terrorizm mafkurasi bilan bog‘lashga urinayotganini ming afsus bilan qayd etishga to‘g‘ri keladi. Bu omil Islom olamini yanada jipslashishga chorlamoqda. Islom hamjihatligi jahondagi keskinlikni yumshatishda muhim rol o‘ynashi mumkin»[4], deya alohida ta’kidlagani ayni haqtqatdir.

Dunyo hamjamiyatini tinch-totuvlik, taraqqiyotga chorlovchi diniy bag‘rikenglik siyosati va shu yo‘ldagi sa’y-harakatlar O‘zbekistonning din sohasidagi mustahkam mavqeini belgilashi bilan birga, boshqa xalqlar orasida ham hurmat e’tiborini oshirib, xorijliklarning diqqatini jalb qilmoqda. Mamlakatimizda ayni shu yo‘nalishda olib borilayotgan izchil siyosat, xalqaro miqyosda ham e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, O’zbekistonning diniy bag‘rikenglik g‘oyasini ilgari surishdek xayrli ishda nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi amalda o‘z ifodasini topmoqda. Shuni qayd etish joizki, O’zbekiston Respublikasi 1993-yili 26-oktyabrda YUNESKO xalqaro tashkilotiga a’zo bo‘lib kirgandan buyon, ushbu tashkilot doirasida ko‘plab ilmiy-ma’rifiy anjuman va forumlar uyushtirib, yurtimizda hamkorlikda qator tadbirlar o‘tkazib kelmoqda. Bular orasidagi diniy bag‘rikenglik, dinlararo muloqotga bag‘ishlangan uchrashuvlar, albatta, kelajakda o‘z samarasini beradi. Masalan, YUNESKO bilan hamkorlikda o‘tkazilgan «Tinchlik madaniyati va dinlararo bag‘rikenglik» mavzusidagi xalqaro kongress, «So‘fizm va dinlararo bag‘rikenglik» mavzusidagi xalqaro seminar, «Markaziy

Osiyoda madaniyat va din» mavzusidagi xalqaro forum, Toshkent islom universitetida YUNESKOning «Jahon dinlarini qiyosiy o‘rganish» kafedrasining rasman ochilishi, «Imom al-Buxoriy, Ahmad Farg‘oniy sivilizatsiyasining yaratilishi» SD-RW diskini tayyorlashi, «Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tarixi» va «O‘zbekiston moziy e’tiqodlar tarixi» kitoblarining nashr qilinishi fikrimizning dalilidir. Shu nuqtai nazardan, bag‘rikenglik madaniyatini islom dinida namoyon bo‘lish xususiyatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish, hamda ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan xulosalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Umumjahon insonparvarlik qadriyatlari nuqtai nazaridan bag‘rikenglik odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ijtimoiy tasdiqlangan huquqiy normasi, zamonaviy ijtimoiy taraqqiyotning dolzarb qiymati sifatida ishlaydi. Xulosa qilib aytganda, bag‘rikenglik xilma-xillikdagi uyg‘unlikdir. Bu nafaqat ma’naviy burch, balki siyosiy va huquqiy ehtiyojdir. Bag‘rikenglik - bu tinchlikka erishishga imkon beradigan va urush madaniyatini tinchlik madaniyatiga almashtirishga yordam beradigan fazilatdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мирзиёев Ш. Ёшлар куни муносабати билан Ўзбекистон ёшларига табриги https ///daryo.uz. 2020/06/29.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. -B. 244-254.

3. Давронов З. Бағрикенглик тушунчасига яна бир чизги // Модернизация, инновацион тараққиёт ва толерантлик ривожи истиқболлари (1-китоб). - Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2010. – Б. 29.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 18-oktyabr kuni Toshkent shahrida o‘tkazilgan «Islom hamjihatligi: O‘zbekiston – Ozarbayjon misolida» mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigi. Manba: http://uza.uz/oz/politics/islom-amzhi-atligi-zbekiston-va-ozarbayzhon-misolida-mavzuid-18-10-2017?month=08&year=2017&ELEMENT_CODE=islom-amzhi-atligi-zbekiston-va-ozarbayzhon-misolida-mavzuid-18-10-2017&SECTION_CODE=politics.

UMIDULLA SATTAROV,
O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi
Axborot-tahlil va ijro nazorati bo‘limi boshlig‘i,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti
mustaqil izlanuvchisi

O‘ZBEKISTON YOSHLARNI MA’NAVIY-AXLOQIY KAMOLOTIGA XIZMAT QILUVCHI OMILLAR

Yosh avlod shaxsining shakllanishi va kamol topishida ma’naviy-ma’rifiy omillar, yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash muhim o‘rin tutadi. Oila yoshlarga ma’naviy-ma’rifiy ta’sir ko‘rsatadigan asosiy manbalardan biridir. Oilaviy qadriyatlar, an’ana va urf-odatlar yoshlar o‘rtasida axloqiy ye’tiqod va xulq-atvor meyorlarining asosini tashkil yetadi. Ma’naviy-ruhiy faoliyat - bu inson psixikasining shaxsiy, jamoaviy va ommaviy darajada faoliyat yuritishining barcha jihatlarini qamrab oladigan faoliyatdir. Shu sababli, ma’naviy xavfsizlik ta’minlanishi jamoatchilikning (shaxsiy, guruh, ommaviy) ongni buzuvchi ta’siridan himoyalashga qaratilgan bo‘lib, u ham super-ongsiz va behush shaklda mavjuddir. Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy ongini himoya qilish tarmoq (axborot-psixologik, kibernetik, tarmoqqa asoslangan) urushlari doirasida, shuningdek zamonaviy ma’naviy jeostrateji fazoda ma’naviy raqobatni kuchaytiradi. Ruhiy geostrategik makon insonning ongini rivojlantirishga, inson va jamiyatning, jamiyat va tabiatning o‘zaro ta’siri asosiy ta’sir ko‘rsatadigan noosferaning o‘ziga xos xususiyati bo‘lgan, jahon hamjamiyatining yagona madaniy, axborot, ilmiy va diniy makonidir. Ba’zi yoshlar uchun diniy ye’tiqodlar ularning ma’naviy rivojlanishida va hayotga yo‘naltirilishida muhim rol o‘ynaydi. Diniy jamoalar va muassasalar yoshlarning o‘z diniga ye’tiqod qilishlari, ma’naviy ta’lim olishlari va qo‘llab-quvvatlashlari uchun imkoniyat yaratadi.

Yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishida ta’lim muassasalari ham muhim ahamiyatga yega. Maktablar, kollejlar va oliy o‘quv yurtlari yoshlarga nafaqat akademik bilimlarni, balki ularning qadriyatlari, axloqiy va axloqiy tamoyillarini ham berishi mumkin. San’at, adabiyot, musiqa, kino va boshqa madaniy ifoda shakllari yoshlarning ma’naviy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Madaniy tadbirlar, ko‘rgazmalar, konsert va festivallar yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, ijodini rivojlantirishga xizmat qiladi. Sifatli ta’lim va ta’lim olish imkoniyatini ta’minlash yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning

asosiy jihati hisoblanadi. Ta’lim yoshlarga nafaqat bilim va ko‘nikmalarni, balki ijtimoiy harakatchanlik va o‘zini o‘zi anglash imkoniyatini ham beradi. Yoshlar o‘rtasida bandlik imkoniyatlarini yaratish ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Mehnat nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta’minlaydi, balki yoshlarning o‘zini o‘zi tasdiqlashi va ijtimoiy integratsiyalashuviga yordam beradi. Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot: sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanishni ta’minlash, yoshlarning ijtimoiy ta’minoti va huquqlarini himoya qilish ham ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Yoshlarning salomatligi va farovonligi ularning hayot sifati va o‘zini o‘zi anglash imkoniyatlariga bevosita ta’sir qiladi. “Barchamizga ayonki, islohot – bu yangilanish, o‘zgarish degani. Islohotlar ijobiy natija berishi uchun, avvalo, rahbarlarimiz va odamlarimiz o‘zgarishi kerak. Inson o‘zgarsa, jamiyat o‘zgaradi”[1].

Ijtimoiy-madaniy va bo‘sh vaqtni tashkil yetish yoshlar uchun ijobiy ijtimoiy makonni shakllantirishga yordam beradi. Bu yoshlarga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradigan sport tadbirlari, klublar va qiziqish guruhlari, madaniy va ijodiy loyihalarni o‘z ichiga olishi mumkin. Psixologik yordam va maslahat olish imkoniyatini ta’minlash yoshlarga hayotdagi qiyinchiliklarni yengishda, nizolarni hal qilishda va muhim hayotiy qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash yoshlarning ham moddiy, ham ma’naviy yehtiyojlarini hisobga olishi, ularni nafaqat ijtimoiy himoyalash, balki shaxsiy o‘sishi va rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratishi zarur. Yoshlarning oldingi vaqtlarda ko‘rgan, o‘qigan, o‘ylagan ma’lumotlarni kengaytirish va olarga yangi bilmalarni ta’lim qilish kerak. Ma’rifat bu, yoshlarning ommaviy, iqtisodiy va insoniy huquqlariga ma’lum bo‘lishini va ularni jismoniy va ruhoniy saqlashni ta’minlashni omirdagi asosiy maqsadlardan biridir.

Yoshlarning salomatligi uchun juda muhim hisoblanadi. Olarning muvaffaqiyatligi va yoshlar ommaviy o‘zaro ta’sirlarini engillash ahamiyatlidir. Jismoniy saqlash masalalari orqali, yoshlar mehnat qilish, mavjudlik, sport va maslahatli yoziladigan o‘y-oyinlar bilan bog‘liq ma’lumotlar ko‘rsatish kerak. Yoshlarga ijtimoiy munosabatlarni ta’minlash ham muhim. Ularni boshqalari bilan xamchilik, xayratkushlik va xushmuomala qilishni omaddan ta’minlash kerak. Insonlar arasidagi munosabatlar muammolariga qarshi muvofiq munosabatlar tarbiya qilish kerak. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta muhim tashabbusi doirasida «... oldimizga qo‘ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo‘ladigan milliy g‘oyani rivojlantirishimiz

zarur. Xususan, milliy o‘zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiytadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz lozim. O‘tmishga berilgan baho albatta xolisona, eng muhimi, turli mafkuraviy qarashlardan xoli bo‘lishi zarur”[2] deb ta’kidlaydi.

Yoshlarning ruhoniy munosabatlari va ma’naviy-ma’rifiy yondashuvlari uchun ta’minot muhim. Olarning ruhiy jihatdan boshqa insonlar bilan tashqi yozilganligi, mazkur tahlilni o‘rganish imkoniyatlari ko‘rsatish kerak. Yoshlarning sog‘lom kamol topishi va jamiyatga integratsiyalashuvida ma’naviy-ma’rifiy omillar va yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning asosiy jihatlari juda muhim hisoblanadi. Davlatimiz rahbari SH.M.Mirziyoyev yoshlar bilan uchrashuvi chog‘ida OAV xodimlariga murojaat qilib: . «... yoshlar hayoti, o‘y-kechinmalari, orzuniyatlari, eng muhimi, ularni qiynayotgan masalalar, afsuski, radio va televideniye, gazeta va jurnallarda o‘z ifodasini to‘liq topmayapti. Go‘yoki hamma narsa joyida, olam guliston. Agar hammasi joyida bo‘lsa, to‘g‘ri yo‘ldan adashgan yoshlar, jinoyatchilik, ishsizlik qayerdan paydo bo‘lyapti? Nega yoshlarga oid davlat siyosatiga loqayd munosabatda bo‘layotgan amaldorlar haqida ommaviy axborot vositalari, avvalo, yoshlar matbuoti churq etmaydi?»[3], deb savol bergandi.

Yoshlar uchun ularning oilalari ijtimoiy yordamning yeng asosiy manbai hisoblanadi. Sog‘lom oilaviy munosabatlar, mehr-muhabbat, qo‘llab-quvvatlash va muloqot yoshlarning ma’naviy-ruhiy yehtiyojlarini qondiradi. Oiladagi ishonch muhiti yoshlarda o‘z-o‘zini idrok yetish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni orttirishga yordam beradi. Tengdoshlar o‘rtasidagi munosabatlar o‘smirlarga hissiy yordam olish va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Mustahkam do‘stlik munosabatlari yoshlarga o‘zlarini ifoda yetish, hamdardlik va hamjihatlikda bo‘lish imkonini beradi. Ta’lim muhiti yoshlarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun platforma yaratadi. Maktabda o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlar yoshlarning motivatsiyasi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishi, shuningdek, o‘quv muvaffaqiyatini qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Yoshlarni namuna yoki murabbiy tomonidan qo‘llab-quvvatlash kasb tanlashda, shaxsiy rivojlanishda va qiyinchiliklarni yengishda yordam beradi. Bunday munosabatlar yoshlarga o‘z salohiyatini kashf yetish va maqsadlariga yerishishga yordam beradi. Ayrim yoshlar uchun diniy ye’tiqod va ma’naviy qadriyatlar muhim ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash manbai hisoblanadi. Diniy jamoalar yoshlarni yig‘ilish, birdamlik, ma’naviy qo‘llab-quvvatlash va ma’no izlash bilan ta’minlashi mumkin.

Yoshlarning jamiyatdagi ishtiroki va ko‘ngillilik faoliyati ularga ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tarmoqlarini kengaytirishga va ijtimoiy jihatdan sezgir shaxslar sifatida o‘sishiga yordam beradi. Ko‘ngillilik faoliyati yoshlarda yempatiya va ijtimoiy muammolardan xabardorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Bugungi kunda yoshlar uchun raqamli platformalar ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tarmoqlarini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Internet orqali o‘smirlar qiziqishlari o‘xshash odamlar bilan bog‘lanishlari, onlayn jamoalarga qo‘shilishlari va yordam olishlari mumkin. Bu omillar yoshlarning sog‘lom rivojlanishi va jamiyatga moslashishiga imkon beruvchi murakkab tarmoqni tashkil yetadi. Har bir omil yoshlarning ma’naviy, hissiy, ijtimoiy va ma’rifiy yehtiyojlarini turli yo‘llar bilan o‘zaro ta’sir qiladi va qo‘llab-quvvatlaydi. Shunday yekan, yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ko‘p jihatdan hal qilinishi kerak bo‘lgan masaladir.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, globallashuv sharoitida yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi jamiyatda individual ma’naviyatga yana bir bor ye’tibor qaratish zarurligini ta’kidlaydi. Intizom va axloqiy tarbiya masalalarini hal qilish yoshlar globallashgan dunyoning murakkabliklarida harakat qilishlari bilan tobora muhim ahamiyat kasb yetmoqda. Bu xulosalar yoshlarni ma’naviy-axloqiy ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun zarur bo‘lgan ko‘p qirrali yondashuvni yoritib beradi, barkamol va axloqiy ongli jamiyatni shakllantirishda oila, ta’lim, din va jamiyat institutlarining o‘zaro ta’sirini oshiradi. Ikkinchidan, tadqiqot ma’naviy-ma’rifiy omillar yoshlarning har tomonlama rivojlanishida ajralmas hisoblanadi, degan xulosaga keldi. Bu omillar nafaqat yoshlarning ma’naviy-axloqiy kamolotiga xizmat qiladi, balki ularning o‘ziga xosligi, qadriyatlari va maqsad tuyg‘ularini shakllantirishda ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Uchinchidan, tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash tizimlariga ma’naviy-ma’rifiy jihatlarning integratsiyalashuvi ularning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Madaniy, diniy va axloqiy ta’limni o’z ichiga olgan dasturlar chidamli va yaxshi moslangan yoshlarni tarbiyalashda yanada muvaffaqiyatli bo’ladi. To‘rtinchidan, tadqiqotda yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirishning asosiy yo‘nalishlari, jumladan, madaniy-ma’naviy tadbirlarni targ‘ib qilish, axloqiy tarbiya masalalarini o‘quv dasturlariga kiritish, ommaviy axborot vositalaridan ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot vositasi sifatida foydalanish ko‘rsatilgan. Bu yo‘nalishlar yoshlarning ma’naviy-ijtimoiy farovonligini yuksaltiruvchi qulay muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Beshinchidan, tadqiqot ma’naviy va ma’rifiy jihatdan boyitilgan muhitlar orqali qo’llab-

quvvatlanadigan yoshlar kuchli o’zlikni anglash tuyg’usini rivojlantirish ehtimoli ko’proq ekanligini va o’z jamoalari bilan ijobiy munosabatda bo’lish uchun yaxshi jihozlanganligini ta’kidlaydi. Bu hamkorlik butun jamiyat barqarorligi va rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xulosalar yoshlarga oid dasturlarda ma’naviy-ma’rifiy komponentlarga ustuvor ahamiyat berish zarurligini ko‘rsatadi. Bu orqali ular yoshlarning nafaqat moddiy, balki ma’naviy-ma’rifiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan yanada keng qamrovli qo‘llab-quvvatlash tizimlarini yaratishi mumkin, bu esa yoshlarning yanada muvozanatli va barkamol bo‘lishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. https://kun.uz/99444746

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.. // “Xalq so’zi” gazetasi. 2018-yil 29-dekabr.

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. 2017-yil 30-iyun. – https://www.gazeta.uz/uz/2017

BO‘RI QODIROV,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i, tarix fanlari nomzodi, dotsent

UCHINCHI RENESSANS VA YOSHLAR

Bugungi kunda O‘zbekiston yoshlari g‘ayrat-shijoati, iste’dodi, yuksak tafakkuri bilan jahonga tanilmoqda. Ularning qo‘lga kiritayotgan yutuqlari mamlakatimizning solahiyati, kuch-qudratini o‘zida yaqqol ifodalab turibdi.

Dunyo aholisining 2 milliarddan ziyodi, ya’ni 25 foizdan ortig‘ini yoshlar tashkil etadi. Mamlakatimizda esa yoshlar qatlami jami aholining qariyb 60 foiziga yaqin. Shuning uchun O‘zbekiston yoshlar mamlakati sifatida e’tirof etiladi. Yaqin o‘n yilliklarda bu qatlam davlat va jamiyat boshqaruvida hal qiluvchi kuchga ega bo‘lishini tasavvur qilsak, yoshlar ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanish, muammolarini vaqtida hal etib, shaxs sifatida rivojlanishi uchun barcha sharoitlarni yaratish, professional kasb mahoratini shakllantirish kabi vazifalar nihoyatda dolzarb ekani oydinlashadi.

Davlatimiz rahbari 2020-yil 30-sentabr kuni O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqida o‘zining quyidagi fikrlarinii bayon qilgan edilar, “Biz keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik, Bu haqda gaprar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmunini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak”. [1.1.]

Yurtimizda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini mustahkamlash, ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish borasida ulkan ishlar olib borilmoqda. Zero, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg‘ayrat yoshlarni tarbiyalash bugunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 12 avgustda qabul qilinib, Senat tomonidan 2016-yil 24-avgustda ma’qullandi. Ushbu Qonunning maqsadi yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat qilib belgilandi.

Respublikamizda yoshlarga oid sohadagi faoliyatni tubdan takomillashtirish va yangi yuksak sifat bosqichiga ko‘tarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyulda “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-5106-son Farmoni , 2017-yil 18-iyulda “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3138 sonli Qarori, 2020-yilning 30-iyunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining qabul qilinishi shuningdek, O‘zbekistonda 30-iyun -“Yoshlar kuni” deb e’lon qilinishi mamlakatda yoshlar siyosati borasida samarali o‘zgarishlar, tub islohotlar boshlanganligini anglatar edi.

O‘zbekiston Respubliasi Prezidenti “Yoshlar-xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchi. Keng ko‘lamdagi islohotlarimizning samarali amalga oshirishimizda ular hal qiluvchi kuch bo‘lib maydonga chiqmoqda. Aynan zamonaviy bilib olgan, ilg‘or kasb-hunarlarni, innovatsion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallagan o‘g‘il-qizlarimiz mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishda yetakchi o‘rin tutadi”.[2.51]

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida bergan BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish taklifi jahon afkor ommasida katta qiziqish uyg‘otdi. “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish haqidagi tashabbusi barcha tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, 2018-yilning 12-dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi sessiyasida qabul qilindi.

Bugungi kunda O‘zbekiston yoshlari o‘zlarining intellektual salohiyati bilan xalqaro olimpiadalar, sport musobaqalari, qolaversa, barcha sohalarda katta muvaffaqiyatlarga erishib, dunyo yoshlari o‘rtasida o‘rni yuqorilab boryotganligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘tgan davr mobaynida amalga oshirilayotgan ishlarning huquqiy asoslari ham mustahkamlanib bordi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi va amaliy ko‘magi asosida yoshlar siyosatiga daxldor 40 dan ortiq Qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi.

Davlatimiz rahbari “Yoshlar kelajagi bilan bog‘liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega”, deb bejiz ta’kidlamaydi. Bu yondashuv “O‘zbekiston–2030” strategiyasida ham o‘z aksini topgan. Misol uchun, ushbu muhim hujjatning “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish” deb nomlangan

birinchi yo‘nalishi 44 banddan iborat bo‘lsa, shuning 25 dan ortig‘i bevosita yoshlar manfaatlariga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyulda “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-5106-son Farmonda O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari belgilangan bo‘lib, uning **o‘n birinchi bandida**, yoshlar siyosati sohasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarda tahsil olayotgan va mehnat qilayotgan yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish nazarda to‘tilgan.

Yuqoridagi qonun, qaror va farmonlar kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-sentyabrda “El-yurt umidi” jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5545-sonli Farmoni qabul qilindi. Jamg‘armaning asosiy maqsadi-iqtidorli va istiqbolli, ayniqsa respublika hududlaridan yosh mutaxassislarni izlab topish va tanlash, ularning xorijdagi nufuzli ta’lim, ilmiy va boshqa muassasalarda ta’lim olishini tashkil etishdan iborat qilib belgilandi.

“Barcha sohalarda jadal islohotlar olib borilayotgan bir paytda, ushbu suratga mos ilg‘or bilimli va malakali kadrlar bizga bugun kerak bo‘lmoqda. Hozirgi tizimli o‘zgarishlar jarayonida aksariyat mutaxassislarning bilimi, malakasi va ko‘nikmasi zamon talabiga javob bermayapti. Agarda chet elda kadrlarimizni tezda tayyorlamasak, yaqin kelajakda rejalarimizni sifat va muddat nuqtai-nazaridan joy-joyiga qo‘ya olmasligimiz ayon bo‘lib qoldi. Shuning uchun biz “El-yurt umidi” jamg‘armasini tashkil etdik” – deya e’tirof etgan edilar davlatimiz rahbari.

“El-yurt umidi” jamg‘armasi o‘z oldiga qo‘yilgan muhim vazifaning ijrosini ta’minlash yo‘lida 2018-2023-yillarda 1 900 nafarga yaqin stipendiatlar dunyoning 45 ga yaqin davlatlarida, jumladan 2018-yil davomida 378 nafar, 2019-yil davomida 600 nafar, 2020-yil davomida 15 nafar (pandemiya davri), 2021-yil davomida 313 nafar, 2022-yil davomida 320 nafar, 2023-yil 274 nafar ularning 2024-yil 119 nafari xorijga tahsil olishi tashkil etilmoqda.

Bugungi kunga kelib, ularning 1 277 nafari O‘zbekistonga qaytib xorijda olgan ilg‘or bilim va ko‘nikmalarini, iqtisodiyotning turli sohalari va tarmoqlarida samarali qo‘llamoqdalar.[3.]

Ayni vaqtda 535 nafar stipendiatlarimiz AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Kanada, Italiya, Ispaniya, Koreya, Xitoy, Rossiya kabi davlatlarda global akademik reytingda TOP 300 talikka kirgan universitetlarda, jumladan “University of Oxford”, “University College London”, “Columbia University” hamda “Cornell University”

kabi oliygohlarda ta’lim olishni davom ettirmoqda.

Alohida qayd etish kerakki, dunyoda kechayotgan notinch ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatga qaramasdan, O‘zbekiston yoshlarining xorijda ta’lim olishiga davlat budjetidan muntazam mablag‘ ajratib borilayotgani xorijlik hamkorlar tomonidan yuqori baholanmoqda. Shuningdek, stipendiya va grantlar sovrindorlarining ota-onalarining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqchil siyosatidan cheksiz minnatdorligiga sabab bo‘lmoqda.

Har yili Jamg‘armaning xorijda ta’lim olish dasturlari bo‘yicha vazirlik va idoralar real ehtiyojlari o‘rganiladi. Jumladan, 2023-yil uchun bakalavriat dasturiga 253 o‘rin, magistraturaga 1259 o‘rin va doktoranturaga 556 o‘ringa, jami 2068 o‘ringa ehtiyojlar o‘rganildi.

Mazkur ehtiyojlardan kelib chiqib, Jamg‘arma ta’lim dasturlari bo‘yicha xorijda ta’lim olish uchun jami 500 o‘ringa, jumladan bakalavriatga 75 o‘rin, magistraturaga 275 o‘rin va doktoranturaga 150 o‘rin ajratildi.

Jamg‘arma tomonidan o‘tkazilgan 2 ta ochiq stipendiya tanlovlari oldidan stipendiya tanlovlari tartibi bilan bog‘liq yangiliklarni vazirlik, idora va tashkilotlar, shuningdek, hududlardagi yoshlar va mutaxassislar orasida keng targ‘ib etishga qaratilgan hududiy seminarlar videomuloqot shaklida o‘tkazildi.

Seminarlarda Jamg‘arma ochiq stipendiya tanlovlarini o‘tkazish tartibi, ajratilgan o‘rinlar, ustuvor yo‘nalishlar, tanlovni tashkil etish mexanizmi, elektron hujjat topshirish platformasining ishlash tartibi, yoshlarga xorijda ta’lim olishi uchun yaratib berilgan imkoniyatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni nomzodlarga to‘liq yetkazildi.

Mazkur seminarlarda respublikaning barcha hududlaridan 190 mingdan ortiq yoshlar mutaxassislar va nomzodlar ishtirok etdilar.

2023-yilgi 1-ochiq stipendiya tanlovi natijalariga ko‘ra, bakalavriat ta’lim dasturida 53 nafar, magistratura ta’lim dasturida 82 nafar va doktorantura ta’lim dasturida 20 nafar, jami 155 nafar nomzodlar “Jamg‘arma stipendiati” maqomiga sazovor bo‘ldilar.

Stipendiatlarning ijtimoiy mansublik darajasiga ko‘ra ularning 4 foizi yetimlar, 9 foizi ota-onasi ishsizlar, 48 foizi oddiy oilalar va 22 foizi tadbirkorlar farzandlari, 13 foizi o‘zlari davlat xizmatchilari, 4 foizi esa o‘rta va yuqori bo‘g‘in boshqaruvida faoliyat olib borayotgan shaxslar farzandlari ekanligi diqqatga sazovordir.

Stipendiya g‘oliblarining 52 nafari (34 foiz) “STEM fanlari” va “IT” sohalari, 39 nafari (25 foiz) “Biznes, boshqaruv va huquq” sohasi, 24 nafari (16 foiz) “Ta’lim” sohasi hamda 21 nafari (14 foiz) “Ijtimoiy fanlar,

jurnalistika va axborot” sohasi va 19 nafari (11 foiz) boshqa sohalar bo‘yicha xorijga ta’lim olish uchun yuborildi.

2023-yilning oktabr-dekabr oylarida Jamg‘armaning 345 o‘ringa 22 o‘rin bakalavriatga, 193 o‘rin magistraturaga va 130 o‘rin doktoranturaga mo‘ljallangan 2-ochiq stipendiya tanlovi o‘tkazildi.

O‘tkazilgan 2-ochiq stipendiya tanlovi natijalariga ko‘ra 119 nafar bakalavriatga 33 nafar, magistraturaga 77 nafar va doktoranturaga 9 nafar nomzodlar ijobiy baholanib, Jamg‘arma stipendiyasiga tavsiya etildi.

Jamg‘arma stipendiyalariga tavsiya etilayotganlarning 82 nafari (69 foiz) erkak va 37 nafari (31 foiz) ayollar tashkil etadi. Mazkur stipendiatlarning 48 nafari (40 foiz) AQSh, 34 nafari (29 foiz) Buyuk Britaniya, 12 nafari (10 foiz) Rossiya, 10 nafari (8 foiz) Italiya, 4 nafari (3 foiz) Avstraliya va 11 nafari (9 foiz) boshqa turli mamlakatlardagi xalqaro reytingdagi nufuzli universitetlarga ta’lim olish uchun yuborilishi rejalashtirilgan.[4.6-7]

Jamg‘arma tomonidan 2023-yilda stipendiatlarning ta’lim olishi va ta’lim olishdan keyingi mehnat faoliyati monitoringi muntazam olib borildi. Jamg‘arma rahbariyati ishtirokida yil davomida 20 dan ortiq davlatlarda tahsil olayotgan 500 dan ortiq Jamg‘arma stipendiatlari bilan 35 marotaba videomuloqotlar o‘tkazilgan.

Bugungi kunda Jamg‘arma tomonidan 120 dan ortiq xorijiy universitet va tashkilotlar bilan ikki tomonlama memorandumlar imzolashga erishilgan. Xususan, Buyuk Britaniyaning University of York, University of Reading, University of Birmingham, University of Glasgow, “Kaplan International Pathways”, AQShning University of Minnesota, Colorado State University, Avstraliyaning University of Sydney, Ispaniyaning “SEPIE”, Malayziyaning “EMGS”, kabi 20 dan ortiq nufuzli tashkilotlar bilan ikki tomonlama memorandumlar imzolanib, stipendiatlarni o‘qish xarajatlaridan 10 foizdan 50 foizgacha chegirmalar olishga erishildi.

Bundan tashqari, University of Oxford, Université Paris-Saclay, Universiti Sains Malaysia (USM), University Of Southern California, Cardiff University, Sejong University, University of Nagoya, University College London, Ghent University, Macquarie University kabi nufuzli universitetlari bilan memorandum loyihalari ishlab chiqilgan bo‘lib bugungi kunda imzolanish jarayoniari kechmoqda.

Shu o‘rinda, Jamg‘arma stipendiatlari injenering, muhandislik va texnik mutaxassisliklari bo‘yicha Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiyaning nufuzli universitetlarida ta’lim olib qaytib, hozirda “O‘zavtosanoat” AJga qarashli BYD Uzbekistan Factoryda, Toshkent Kimyo-texnologiya institutida, Andijon mashinasozlik institutida xorijda olgan ilg‘or

bilimlarini bugungi kunda mamlakatimizda samarali qo‘llanishi butun el-yurtimiz hayotidagi muhim voqea bo‘ldi.

Jamg‘arma “O‘zbekkosmos” agentligi faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha xorijda malaka oshirish uchun Rossiyaning “Hexagon Geospatial” tashkiloti bilan hamkorlikda geofazoviy texnologiyalar yordamida yerni masofadan zondlash va ma’lumotlarni qayta ishlash” maqsadida “O‘zbekkosmos” agentligi tizimidagi 7 nafar mas’ul xodimlarini onlayn malaka oshirish kurslari tashkil etildi.

Jamg‘arma tomonidan Germaniyaning “Janser Consult” tashkiloti bilan hamkorlikda “Navoiyuran” davlat korxonasining 12 nafar xodimlarini stajirovka o‘tash dasturi tashkil etildi.

2023-yil 15-19-yanvar kunlari 2023-yil 2-ochiq stipendiya tanlovi g‘oliblari uchun Davlat boshqaruv akademiyasida O‘zbekistonning xalqaro imijini yanada oshirish, uning milliy urf-odat va an’analarini keng targ‘ib etish, shuningdek, xalqaro maydonda yuz berayotgan jarayonlarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan maxsus seminar-treninglar o‘quv reja-dasturiga asosan tashkil etildi.

Ma’ruzalar davomida Jamg‘arma stipendiatlari hozirgi zamondagi global siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, XX asrda O‘zbekistonda jadidchilik harakati namoyondalarining siyosiy va g‘oyaviy qarashlari, Yangi O‘zbekiston davlati siyosatida ayollarga bo‘lgan munosabat, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalari, Yoshlarni davlat xizmatida o‘z bilim va malakalarini namoyish etish, munosib ish bilan ta’minlash va karerasini o‘stirish borasida o‘zlarini qiziqtirgan savollarga mutasaddilardan javoblar olishdi.

Maxsus o‘quv-seminarda jami 119 nafar Jamg‘arma stipendiatlari ishtirok etib, ulardan 15 nafari xorijda o‘qish jarayonida bo‘lganligi sababli onlayn ZOOM platformasi orqali jarayonlarda faol qatnashdi.

Joriy yilning fevral oyida O‘zbekistonda mehnat faoliyatini olib borayotgan hamda xorijda ta’lim olayotgan Jamg‘arma stipendiatlari orasidan 1 nafar Prezident va 2 nafar vitse-prezidentlari Amerika Qo‘shma Shtatlari va Kanada, Buyuk Britaniya/Avstraliya, MDH davlatlari, Yevropa davlatlari, Osiyo davlatlari kesimida saylandi.

Ushbu tashabbusdan ko‘zlangan asosiy maqsad stipendiatlarning mehnat faoliyati va o‘qishi davomida duch kelayotgan muammolari va takliflarini yaqindan o‘rganish, stipendiatlar orasida “networking” aloqalarini yanada kuchaytirish hamda stipendiatlar va Jamg‘arma o‘rtasida muloqot ko‘prigini yo‘lga qo‘yish hisoblanadi.

Bundan tashqari, “El-yurt umidi” jamg‘armasi, Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster Universiteti (TXVU) va Davlat

boshqaruv akademiyasi hamkorligida 2024-yil 30-31-mart kunlari “O‘zbekiston-2030: Avlodlar nigohida” mavzusida davra suhbati tashkil etildi.

Yoshlar siyosati bo‘yicha xorij tajribasidan samarali foydalanish, o‘zaro tizimli hamkorlikni rivojlantirish maqsadida 13 ta xorijiy yoshlar tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston 2018-yilda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti Yoshlar kengashiga, 2020-yilda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi Yoshlar masalalari bo‘yicha kengashiga teng huquqli a’zo sifatida qabul qilindi.

O‘zbekiston Prezidenti tashabbuslari bilan yoshlar huquqlari mavzusida bir qator xalqaro anjumanlar ham o‘tkazildi. Xususan, O‘zbekiston Prezidentining BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashi 46-sessiyasida ilgari surgan tashabbusi asosida 2021-yil 12–13-avgust kunlari Toshkentda **“Global harakatlarga yoshlarni jalb qilish”** mavzusida bo‘lib o‘tgan **Yoshlar huquqlari bo‘yicha butunjahon konferensiyasi** shular sirasiga kiradi. Xalqaro anjuman yakunida qabul qilingan Toshkent Yoshlar deklaratsiyasida, jumladan, O‘zbekistonning 3 ta xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik tashabbusi qo‘llab-quvvatlandi. Bu o‘rinda, birinchidan, **Yoshlar huquqlari bo‘yicha konvensiyani** qabul qilish, ikkinchidan, **Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari Yoshlar kengashini** tashkil etish, uchinchidan, **Markaziy Osiyo yoshlari forumini** o‘tkazish tashabbuslari haqida so‘z bormoqda.

Shuningdek, mamlakatimizda 2020-yil 12-avgust-Xalqaro yoshlar kunida **“Yoshlar–2020: global birdamlik, barqaror rivojlanish va inson huquqlari” deb nomlangan Samarqand forumi** o‘tkazildi. Ushbu xalqaro anjuman yakunida qabul qilingan **“Yoshlar-2020: global birdamlik, barqaror taraqqiyot va inson huquqlari” nomli Samarqand rezolyutsiyasi**da yoshlar tinchlik, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta’minlash hamda inson huquqlarini himoya qilish borasida muhim o‘rin tutishlari, binobarin, navqiron avlod vakillarining o‘zlariga daxldor qarorlar qabul qilinishi jarayonlarida faol, mazmunli va inklyuziv tarzda ishtirok etishlari zarurligi alohida qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli kitobida yoshlarning Uchinchi Renessansni borpo qilishdagi asosiy o‘rni va bu borada ularga qilinadigan g‘amxurliklar haqida to‘xtalib, shunday degan edilar, “Yoshlarning iste’dod va qobliyati, ezgu intilishlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o‘rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham bosh maqsadimiz bo‘lib qolaveradi”.[5.462-463]

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Xalq so‘zi”, 2020-yil, 1-oktabr, B.1
2. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda.-Toshkent: “O‘qituvchi” MChJ matbaa uyi, 2021.- B.51.
3. “El-yurt umidi” jamg‘armasi yillik hisobotidan olingan.
4. Jamiyat. 2024-yil, 22-avgust, B. 6-7.
5. Shavkat Mirziyoyev. Yagngi O‘zbekiston strategiyasi.-Tshkent: “O‘zbekiston”, 2021.- B. 462-463

KAMOLIDDIN TO‘RAYEV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi, falsafa fanlari doktori (PhD)

YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Yoshlarning ijtimoiy faolligi juda katta xilma-xillikka ega. Xususan, yoshlarning ijtimoiy faoliyatini miting, namoyish va turli flesh-moblarda ishtirok etish, volonterlik – texnogen, tabiiy va ekologik halokatlarda jabr chekkanlarga yordam berish, bolalar uylari, qariyalar uylarida beminnat ishlash, egasiz va qarovsiz hayvonlarga yordam ko‘rsatish, parklar, plyajlar va boshqa jamoat joylarini tozalash bo‘yicha shanbaliklar va boshqa ko‘plab jamoat tadbirlarida ishtirok etish kabilar tashkil qiladi. Bularning barchasi yoshlar ijtimoiy faolligi masalalarini ob’ektiv va sub’ektiv o‘lchamlarda tadqiq etishning dolzarbligini belgilab beradi. Ayniqsa O‘zbekiston singari aholisining katta qismini yoshlar tashkil qilgan mamlakatlarda ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalash jamiyat istiqbolini belgilab beragan strategik masalaga aylangan.

So‘nggi yillarda ijtimoiy sohada respublikamiz erishayotgan yutuqlar yoshlarning bilim olishi, mehnat qilishi, shaxs sifatida rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan umumxalq referendumida qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham yoshlarning jamiyatdagi o‘rni va haq-huquqlari belgilab berildi. Jumladan, Konstitutsiyaning 79-moddasida «Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi» [5], deyilgan.

Zotan, zamonaviy jamiyat ijtimoiy rivojlanishining muammolari ko‘p jihatdan yoshlarning ijtimoiy jarayonlarga qamrab olinishiga va ularning ijtimoiy loyihalardagi ishtirokiga bog‘liq. Ayniqsa paydo bo‘lgan zamonaviy «ijtimoiy tengsizlik va ijtimoiy-hududiy nomutanosiblik sharoitida, ijtimoiy faollik yoki ijtimoiy yaratuvchanlik, konstruktiv mazmun kasb etishi yoki ijtimoiy negatsiya (rad etish – A.E.), ijtimoiy norozilik holatiga olib kelishi mumkin» [4].

Shunday holatda yoshlar amaliy faoliyati va shaxs ichki dunyosidagi o‘zgarishlar, barcha jihatlarning mukammallashuvi uning shaxsiy maqsadlari, faoliyat motivlari va hayotining mazmunini tubdan o‘zgartiradi. Buning mohiyati shundaki, yoshlarning ijtimoiy faollashuvi natijasida avvalgi «tashqi», «begona» tuyulgan voqeliklar endi

«o‘ziniki»ga aylanib, ijtimoiy manfaat tushunchasi shaxsning o‘z e’tiqodi asosida shakllanadi. Shunday xulq-atvor zarurligining mantiqiy va axloqiy anglanishi va uning tabiiy ravishda ijtimoiy manfaatlar tizimida yuz berishi jamiyat va shaxs o‘rtasidagi ziddiyatlarni amalda bartararf etadi. Afsuski, mehnat va uning muammolariga nisbatan nigilistik munosabat, iste’molchilik psixologiyasi, boylik kulti – bugungi yoshlarning bir qismi o‘rtasida tarqalgan axloqiy relyativizmning asosi bo‘lib qolmoqda.

Bunga qarshi kurashning vositalaridan biri bo‘lgan yoshlarning ijtimoiy faolligi ularda vatanparvarlik, yaratuvchanlik, mehnatsevarlik kabi yuqori axloqiy sifatlarni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Albatta, yoshlarning ijtimoiy faolligi pozitiv yoki ba’zan negativ, umummamlakat yoki lokal xarakter kasb etishi mumkin. Ammo, shunisi ayonki, o‘zbek yoshlari mustaqillikning dastlabki chorak asrida shakllangan ijtimoiy apatiya holatidan uyg‘onmoqda, va bu tom ma’nodagi yangi ijtimoiy vaziyat uni ilmiy anglashni taqazo etadi. Aynan sotsiologik tadqiqotlar joriy voqealarning talqinini va yoshlarning ijtimoiy faolligi masalasidagi muammolar yechimini taklif etishi lozim.

Bugungi kunda mamlakatimizning bir qator ilmiy-tadqiqot institutlari, jumladan, RMMM huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutida ham yoshlar muammolari bilan bog‘liq sotsiologik tadqiqotlar olib borilmoqda. Ammo yoshlar ijtimoiy faolligini o‘rganish uchun biz, avvalo, yoshlar ijtimoiy faolligi va ijtimoiy qadriyatlari tushunchalarining ilmiy ta’rifini aniq belgilab olishimiz lozim. Fuqarolik jamiyatini ko‘ngilli o‘zini-o‘zi boshqaruvchi tashkilotlar va assotsiatsiyalar mavjudligi bilan xarakterlanishi haqidagi ilmiy talqinidan kelib chiqib, yoshlarning ijtimoiy faolligini ularning turli xil notijorat tizimlardagi ko‘ngilli ishtiroki, fuqarolik faolligini – jamiyat farovonligi bilan bog‘liq dunyoqarash orientirlarining umumiyligi sifatida belgilash mumkin [2].

Bugun O‘zbekistonda yoshlar ijtimoiy faolligini belgilovchi omillardan biri jamiyatda ularning bilim olishi va mehnat qilishi, o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon etish uchun yaratilgan shart-sharoitlardir. Respublikamizda mustaqillik yillarida qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida» qonunlar uzluksiz ta’lim tizimini yaratishning asosi bo‘lib xizmat qildi. Ammo mustaqillikning dastlabki 25 yilida oliy ta’limni rivojlantirish davr talab va mavjud ehtiyolardan keskin ortda qolib ketdi. Respublikamizda faqat 58 ta oliy o‘quv yurtlari va bir nechta chet el oliy o‘quv yurtlarining filiallari bo‘lib, ulardagi mavjud kvotalar bitiruvchi yoshlarning faqat 9 foizini qamrab olardi, xolos. Oqibatda XXI asr boshiga kelib, O‘zbekistonda malakasiz ishsiz yoshlar soni keskin ortib, ularning katta qismi ish izlab Rossiya

va boshqa mamlakatlarga chiqib ketdi. Ish qidruvchilar sonining eng yuqorisi Farg‘ona vodiysi va Samarqand viloyatiga to‘g‘ri keldi [3]. Bunday holat yoshlarda ijtmioy faollikka bo‘lgan qiziqishni susaytirdi, jamiyat muammolariga nisbatan befarqlik psixologiyasini shakllantirdi.

So‘nggi yillarda yoshlarning ta’lim olishga bo‘lgan huquqlarini ta’minlash maqsadida oliy ta’lim tizimida tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ma’lumotiga ko‘ra, 2023-yilga kelib O‘zbekistonda 210 ta oliy o‘quv yurtlari, jumladan, 36 ta universitet, 48 ta institut, 4 ta akademiya, 26 ta O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarining filiallari, 1 ta konservatoriya, 30 ta chet el oliy o‘quv yurtlarining filialari, 65 ta nodavlat oliy o‘quv yurtlari faoliyat yuritmoqda [6]. Aslida zamonaviy jamiyatda bilim juda ulkan ahamiyat kasb etadi. Zotan, oliy ta’lim yoshlarga faqat kasbiy kvalifikatsiya bermasdan, ularning umumiy dunyoqarashini rivojlantirishda, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hissini, ideallarni shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ideallar esa, o‘z navbatida, yoshlar ijtimoiy faolligining asosini tashkil etadi.

Ideallar ijtimoiy va shaxsiy hayotning barcha jabhalarida shakllantiriladi. Ammo faqat ijtimoiy ideal shaxs va jamiyat hayotida ulkan ahamiyat kasb etadi. Zotan, ijtimoiy ideal mazmuni bo‘yicha keng, yoki moddiy va ma’naviy boyliklarning mo‘l-ko‘lligi, jamiyat barcha a’zolarining ijtimoiy tengligi, shaxs kamolati uchun imkoniyatlarning mavjudligiga asoslangan zamonaviy jamiyat tuzilishi haqidagi tasavvurlarning ilmiy asoslangan shaklidir. Ijtimoiy ideal tushunchasining tarkibiy qismlariga siyosiy, estetik va axloqiy ideallar kiradi. Hozir yoshlarda axloqiy ideallarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim, zero, ular odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatda insoniy xulq-atvor namunasi, umumiy normalar bo‘lib, hayotning maqsadi haqida tarixan shakllangan tasavvurlarni aks ettiradi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida shakllangan munosabatlar ko‘pincha shaxsning ijtimoiy faoliyati bilan uning ichki dunyosi, ideallari o‘rtasida qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi. Ayniqsa globallashuv davri axborot texnologiyalari va targ‘ibot mashinasi odamlarga, ayniqsa yoshlarga ideallar standarti, xulq-atvor stereotipi, mazmunsiz axloqiy qadriyatlar, shtamplangan fikrlar, bir xil moda va didni singdirishga xizmat qilmoqda. Moddiy ta’minlanganlik darajasining yuksalishi ko‘pincha ushbu targ‘ibot ta’siri ostida ideallarning ibtidoiylashuvi va hayotiy qadriyatlarning silliqlashuviga olib kelishi mumkin. Bu esa jamiyatda ijtimoiy faollik darajasining past bo‘lishligini belgilab beradi.

Zamonaviy ilmiy paradigmalar doirasida yoshlar ijtimoiy faolligini bir nechta jabhalarda, jumladan, erishilgan ijtimoiy pozitsiyani mustahkamlash yoki yanada yuksaltirishga yo‘naltirilgan faoliyat va ijtimoiy o‘zgarishlarni amalga oshirish yoki ijtimoiy munosabatlarni konservatsiyalash maqsadida yuz berayotgan ijtimoiy jarayonlarga ta’sir o‘tkazish qobiliyati bilan bog‘liq faoliyat sifatida qarash mumkin [1]. Yoshlar ijtimoiy faolligini o‘rganishdagi sifat yondoshuvi o‘zining samaradorligi tufayli bugun keng tarqalgan, zero u ushbu ijtimoiy fenomenni har tomonlama tavsiflash va unda yuz berayotgan o‘zgarishlarni kuzatib borish va baholash imkonini beradi. Chunki O‘zbekistonda mustaqillikning o‘tgan davri mobaynida shakllangan ijtimoiy faol yoshlar qatlami hali juda mustahkam emas, respublika doirasidagi yirik o‘zgarishlar ko‘zga tashlansa-da, lokal o‘zgarishlarni kuzatish ancha murakkab.

Albatta, zamonaviy jamiyatda manfaatlar va qadriyatlar poyuralizmi shakllanganligi va u ko‘pincha avlodlar o‘rtasidagi zaddiyatlarni o‘zida aks ettirishini inobatga olib, yoshlar ijtimoiy faolligi haqidagi tushuncha va qoidalarni bitta maxrajga keltirish mumkin emas. Masalan, ayrim hollarda yoshlar ijtimoiy faolligi katta yoshli aholi tomonidan (ba’zan hatto davlat idoralari tomonidan ham) ijtimoiy tavakkalchilik bilan bog‘liq hodisa sifatida qaralib, ba’zan ma’qullanmaydi. Aslida, rivojlangan mamlakatlar tajribasi yoshlarning ijtimoiy faolligi jamiyatda siyosiy barqarorlikni va iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashda juda katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo‘lsak, birinchidan, yoshlar ijtimoiy faolligining darajasi zaruriy, ammo ba’zan og‘ir ijtimoiy o‘zgarishlarga jamiyatning tayyorlik darajasi bilan bog‘liq. Ikkinchidan, aholi turli qatlamlarining keng ijtimoiy faolligi bo‘lmagan hollarda alohida guruhlarning o‘z tor mahalliy, umummilliy manfaatlarga zid bo‘lgan qarashlarini ilgari surgan «faolligi» boshlanadi. Uchinchidan, O‘zbekistonda so‘nggi yillardagi o‘zgarishlar tajribasidan kelib chiqib, katta asos bilan aytish mumkinki, mamlakatda yuz berayotgan jarayonlarga barchaning, ayniqsa yoshlarning faol munosabati, ijtimoiy faolligi bu jarayonlarga ta’sir qilish, ijtimoiy inqirozlar xavfidan saqlanish imkonini beradi. Shu tariqa, yoshlar ijtimoiy faolligi – bu ijtimoiy faoliyat turi bo‘lib, u shaxs passiv ijrochi emas faol yaratuvchi bo‘lgan, orttirilgan tajriba asosida sotsiumni o‘zgartirishga, keng qamrovli jarayonlarga ta’sir qilishga intilgan paytda namoyon bo‘ladigan ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Даренская И.В. Форум учащейся молодежи как технология повышения социальной активности в контексте формирования профессиональных компетенций студентов: опыт практической реализации. http://elar.uspu.ru/bitstream/uspu/16913/1/vvi-2015-17-01-09.pdf

2. Савельева Е.А. Гражданская активность молодежи: варианты концептуализации понятия. – Вестник РУДН, серия Социология, 2013, № 2. С. 21 – 22.

3. Статистик тўплам. 1990 – 2011 йй. – Тошкент, «Ўзбекистон», 2013. Б. 86.

4. Страдзе А.Э. Социальная активность в российском обществе: структурно-деятельностное измерение: Автореферат диссертации доктора социологических наук: 22.00.04 / ФГАООУ ВПО «Южный федеральный университет». – Ростов-на-Дону, 2013. С. 4.

5. https://constitution.uz/uz

6. https://kadrovik.uz/publish/doc/text189692_esli_rabotnik_podal_zayavlenie_o_prekrashchenii_uzbekskogo_grajdanstva

MAXMUD SAYIDOV,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Avtomaktablar xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi boshlig‘i, podpolkovnik

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLARNING G‘OYAVIY BIRLASHUVIDA MAFKURAVIY TARBIYA MASALALARI

Bugungi kunda dunyo geosiyosiy maydonida kuzatilayotgan global o‘zgarishlar sharoitida ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy sohalardagi munosabatlarni rivojlantirish yangi bosqichiga o‘tishni taqozo qilmoqda. Ayniqsa, vujudga kelayotgan tahlikali vaziyat yoshlar tarbiyasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatayotganligini kuzatish mumkin. Bugungi kunda tobora avj olib borayotgan globallashuv shiddati turli xalqlarning milliy o‘ziga xosligiga raxna solmoqda. Natijada mazkur holat yoshlarning g‘oyaviy birlashuvida mafkuraviy tarbiya masalalari bo‘yicha ajdodlar ma’naviy merosiga bo‘lgan ehtiyojni tobora kuchaytirmoqda. Shu o‘rinda, yoshlarni har tomonlama etuk va barkamol etib tarbiyalash ularning g‘oyaviy birlashuvida mafkuraviy immunitetini kuchaytirishda ajdodlar ma’naviy merosining o‘rni tobora ortib borayotganligi ko‘psatmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda dunyoda sodir bo‘layotgan global o‘zgarishlar sharoitida vujudga kelayotgan tahlikali vaziyat tufayli jamiyat barqarorligiga raxna solishga intilayotgan turli xil tahdidlar ko‘lami kuchayib bormoqda.

Dunyoning turli mintaqa va davlatlarida kechayotgan ayanchli voqealar tahlili ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va elektron nashrlar ko‘p hollarda ayrim buzg‘unchi kuchlar qo‘lida turli soxta, zararli g‘oya va mafkuralarni targ‘ib etishning qulay va tezkor vositasiga aylanib qolayotganini ko‘rsatayotir. Bu kabi tahdidlar milliy va umuminsoniy qadriyatlar emirilishiga, zo‘ravonlik, inson taqdiri, jamiyat hayotiga bepisandlik, mas’uliyatsizlik, loqaydlik, andishasizlik, behayolik kabi illatlar ildiz otishiga zamin yaratmoqda. Shu ma’noda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: “**G‘arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota-onasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo‘lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda beparvo bo‘lish, loqayd bo‘lish - qanchalik og‘ir bo‘lmasin, ochiq aytishga majburmiz - bu xiyonat, jinoyat bilan barobardir**”[1]. Zero, hozirgi murakkab globallashuv sharoitda xalqimiz, avvalo, o‘sib-unib kelayotgan yosh avlodimiz qalbi va ongida g‘oyaviy birdamlik, hamjihatlik va

ijtimoiy hamkorlik fazilatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda, Yangi O‘zbekistonda yoshlarning g‘oyaviy birlashuvini ta’minlash orqali millati, tili va dinidan qat’iy nazar, jamiyat a’zolarining ezgu orzu-intilishlari, tub manfaatlarini o‘zida aks ettiradigan, shu yo‘lda birlashtiradigan va safarbar etadigan, xayotbaxsh g‘oyalarini muntazam rivojlantirishda aniq maqsadga yo‘naltirilgan mafkuraviy tarbiya ishlari olib borilmoqda. Shu o‘rinda, jamiyatning g‘oyaviy birlashuvi tufayli mamlakatda yuksak ijtimoiy o‘zgarishlar vujudga kelishi odamlarda faol fuqaroliq pozisiyasi va tashabbuskorlikni kuchaytirishi, mustaqil dunyoqarash va fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishi, jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlashi, xuquqiy-demokratik davlat asoslarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida Yangi O‘zbekiston yoshlarning g‘oyaviy birlashuvi o‘ziga xos milliy mafkura sifatida u muayyan mulohaza, qoida va fikrlarda ifodalanadi.

Davlatlarning ichki barqarorligi, milliy birligi va g‘oyaviy birdamligini asrashda har bir davlat o‘zining ulug‘vor maqsadlaridan kelib chiqqan holda jamiyatni birlashtirishi, xalqni yagona g‘oyaga ishontirishi va bu g‘oya orqali barqaror ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu o‘rinda mamlakatimiz o‘zining yangi taraqqiyot bosqichida ijtimoiy barqarorlikni saqlash, jamiyatda yoshlarning g‘oyaviy birlashtirishni ta’minlashga doir istiqboldagi vazifalarni amalga oshirish izchil davom etmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan g‘oyaviy birlashuv O‘zbekiston barqarorligi va rivojlanishining asosi sifatida jamiyat faoliyatining barcha sohalarini qamrab olmoqda. Ayniqsa, bu borada, bugungi mamlakatimizda ilm-fan sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida katta o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Shu o‘rinda, ilm-fanning eng yangi sohalari bo‘lgan nanotexnologiyalar, robotatexnika, geninjeneriyasi, texno- intellekt, sun’iy intellekt, kibernetika, genetik va tibbiy, astronomik, texnik kashfiyotlar, ishlab chiqarishdagi texnik-texnologik yutuqlarning ortib borishi, albatta, bu dunyo davlatlarining taraqqiyotini belgilab berdi. Zero, qaysi davlatda intelektual salohiyat va potensial kuchli bo‘lsa, o‘sha davlat dunyoning rivojlangan, taraqqiy etgan, xalqining farovon va baxtli hayot kechirishiga uchun zamin yaratadi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga bergan javoblarida alohida to‘xtalgani bejiz emas, albatta.

Davlatimiz rahbari qayd etganidek: Yoshlar – xalqimizning

asosiy tayanchi va suyanchi. Keng ko‘lamli islohotlarimizni samarali amalga oshirishda ular hal qiluvchi kuch bo‘lib maydonga chiqmoqda. Aynan zamonaviy bilim olgan, ilg‘or kasb-hunarlarni, innovasion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallagan o‘g‘il-qizlarimiz mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishda etakchi o‘rin tutadi. Ma’lumki, yoshlar yangicha fikrlashga, yangi-yangi g‘oyalarni dadil o‘rtaga tashlab, ularni amalga oshirishga, muammolarni ijodiy va nostandart yondashuvlar asosida hal etishga moyil bo‘ladi. Shuning uchun hozirgi kunda yosh avlod vakillarining bilim olishi, ilm-fan, innovasiyalar, adabiyot, san’at va sport sohasidagi iste’dod va salohiyatini yuzaga chiqarishi, ularning jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga ustuvor ahamiyat bermoqdamiz[2]. Zero, xalqimizni birlashtiruvchi va bunyodkorlik faoliyatiga safarbar etadigan, uning ezgu maqsadlari va hayotiy manfaatlarini o‘zida mujassasamlashtirgan milliy birlashuv g‘oyasini yaratish jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy taraqqiyotini dolzarb vazifasiga aylanmog‘i lozim.

Insoniyatning ko‘p asrlik tarixi shundan dalolat beradiki, bu dunyoda o‘zining milliy davlatini qurishga azmu qaror qilgan har qaysi halq yuksak vazifalarni amalga oshirish, shu yo‘lda odamlarni birlashtirish va safarbar qilish, ularning qalbida ishonch uyg‘otish, eski ijtimoiy tuzumdan mutlaqo yangi tuzumga o‘tishda o‘ziga qo‘shimcha kuch-quvvat va madad topishda, umumiy yagona maqsad va orzu intilish ifodasi bo‘lgan g‘oyaviy birdamlikni tayanch va suyanch deb biladi[3]. Ana shu maqsadda yurtimizda **“Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans sari”** degan shior ilgari surilayotgani ham bejiz emas.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida, uchinchi Renessans ostonasida jamiyatni birlashtiruvchi, hamjihatlikni oshiruvchi, milliy birdamlik ta’minlovchi yangi g‘oyaviy konsepsiyaga ehtiyoj ortib bormoqda. Chunki jamiyatda umumiy oliy maqsadni shakllantirish va barchani shu g‘oya asosida birlashtirish yangicha taraqqiyotni belgilab beradi. Zero, jamiyatimizda islohotlarni amalga oshirishda xalqda yakdil, ulug‘vor birlashtiruvchi g‘oya shaklansagina mamlakatda ijtimoiy mas’uliyat, fidoyilik va halollik yuzaga kelish orqali buyuk maqsadlarga safarbar etiladi.

Shu o‘rinda, Yangi O‘zbekistonda yoshlarning g‘oyaviy birlashuvida mafkuraviy tarbiya masalalarini amalga oshirish va uni takomillashtirish uchun uni Uchinchi Renessans g‘oyasini o‘rni nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Uchinchi Renessansga erishishni milliy g‘oyaning yangi ifodasi sifatida nafaqat milliy g‘oyani bugungi vazifalarni, balki strategik

oliy maqsadlarini ham ifodalaydi.

Uchinchi Renessans g‘oyasi mamlakatimizni istiqbol sari dadil odimlashga da’vat etish orqali ulug‘vor maqsadlarga safarbar etadi. Ayni chog‘da o‘tmish tariximizning shonli sahifalari, buyuk ajdodlarimizning bunyodkorlik va ijodkorlik salohiyati bilan bog‘lanadi. Bu borada davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoeq ta’biri bilan aytganda: “Biz orzu qilgan va qat’iy intilayotgan Yangi O‘zbekiston g‘oyasi, avvalo, xalqimiz o‘z milliy taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘yganini, jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallayotgani, bu borada oldimizga ko‘plab yangi imkoniyatlar paydo bo‘layotganini anglatadigan tushunchadir”[4]. Darhaqiqat, Yangi O‘zbekistonda yoshlarning g‘oyaviy birlashtirishda aniq maqsadga yo‘naltirilgan kuchli mafkuraviy tarbiya tufayli yurtimizning istiqboldagi belgilangan vazifalarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda, pedagogika fanlari doktor, professor Muhammadjon Quronovning fikriga ko‘ra, XXI asrda O‘zbekistonimizni taraqqiy etgan jahonning peshqadam davlatlaridan biriga aylantirish uchun esa o‘zimizda, farzandlarimizda metin mafkuraviy e’tiqod, umummilliy birlik bo‘lmog‘i kerak[5].

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlarni g‘oyaviy birlashtirish va mafkuraviy tarbiyalashda professor Muhammadjon Quronov fikricha, yoshlar dunyoqarashida sog‘lom e’tiqod, ishonch va milliy qadriyatlarning ustuvorligi yot mafkuralarga qarshi immunitetni tarbiyalashda, hayot hodisalarini dunyoviylik, ilmiylik tamoyili asosida tahlil qilish va baholashga odatlanish, o‘z qarashlarini himoya qilishga o‘rgatish, buzg‘unchi mafkuralarga har doim, hamma joyda murosasiz bo‘lishga tayyor bo‘lishlari zarurligini alohida ta’kidlab o‘tadi[6]. Albatta, buning uchun bugungi kunda yoshlarni g‘oyaviy birlashtirish, umumijtimoiy maqsadlar sari safarbar etish va mafkuraviy tajovuzlardan himoyalashga qaratilgan aniq maqsadga yo‘naltirilgan targ‘ibot ishlarini amalga oshirish doimiy dolzarb vazifaga aylantirish lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мирзиёев Ш. “Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз”. Тошкент- “Ўзбекистон” – 2017. 65-бет.

2. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Янги Ўзбекистон” газетаси бош муҳаррири Салим Дониёровнинг саволларига жавоблари https://yuz.uz/news/yangi-ozbekiston-demokratik-ozgarishlar-keng-imkoniyatlar-va-amaliy-ishlar-mamlakatiga-aylanmoqda.

3. Каримов И.Юксак маънавият – енгилмас куч –Т.:Маънавият, 2013, – Б. 71.

4. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Учинчи нашр. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2022. – Б.25.

5. Куронов М. Бизни бирлаштирган ғоя. –Тошкент.: Ғофур Ғулом НМИУ. 2016. –Б. 146.

6. Куронов М. Бизни бирлаштирган ғоя. –Тошкент.: Ғофур Ғулом НМИУ. 2016. -Б. 144.

JURABEK XIDIROV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti
kichik ilmiy xodimi

ODAM SAVDOSI GLOBAL DUNYO MUAMMOLARI QATORIDA

Globallashuv jarayoni bugungi kunda butun dunyoni qamrab oldi. U dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi texnologik, iqtisodiy, madaniy, siyosiy, ilmiy va shu kabi sohalarda ulkan o‘zgarishlarni vujudga keltirmoqda. Globallashuv bir tomondan, turli mamlakatlar o‘rtasidagi ko‘plab sohalarda yangilik va foyda keltirayotgan bo‘lsa, boshqa tomondan esa, uzoq muddatli va keskin oqibatlarga olib keladigan xavf-xatarlarni ham yaratib bermoqda. Globallashuvning rivojlanishi bilan dunyo davlatlari uchun muammolar ko‘payib, ularga qarshi turish tobora qiyinlashib bormoqda. Aynan, globallashuv natijasida yuzaga kelgan eng katta muammolardan biri – odam savdosining kuchayishidir.

Odam savdosi keng tarqalgan global muammo bo‘lib, har yili millionlab kishilar uning qurboniga aylanmoqda. Odam savdosi muammosi dunyoning ko‘plab mamlakatlari uchun yetarlicha tashvishlarni keltirib chiqarmoqda. Bu muammoni boshdan kechirayotgan mamlakatlar barqarorlikka erishish va uni saqlab qolish uchun ko‘p mehnat qilishi talab etiladi. Odam savdosi yashirin va dinamik hodisa bo‘lib, unga iqtisodiy, madaniy va huquqiy omillar ta’sir ko‘rsatadi.

So‘nggi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, har yili dunyo bo‘ylab taxminan 50 millionga yaqin kishi odam savdosi tuzog‘iga ilinadi, ularning aksariyati ayollar va bolalardir. Bu har qanday jamiyatda sodir bo‘lishi va qurbonlar har qanday yosh, irq, jins yoki millat bo‘lishi mumkin. Uning qurbonlari ham ichki, ham xalqaro miqyosda bo‘ladi. Ushbu daromadli jinoiy faoliyat har yili u bilan shug‘ullanuvchilarga 150 milliard dollardan ortiq foyda keltiradi va bu uni dunyodagi eng daromadli noqonuniy savdolardan biriga aylantiradi. Odam savdosi qurbonlari turli maqsadlarda, jumladan, majburiy mehnat, jinsiy aloqa va odam tanasi organlarini yig‘ish uchun ekspluatatsiya qilinadi.

Bu borada e’lon qilinayotgan ma’lumotlardan kelib chiqib tahlil qiladigan bo‘lsak, unga ko‘ra:

Har 3 ta immigrantdan 2 tasi xalqaro sayohat qilish orqali odam savdosi qurboniga aylanadi.

Dunyo bo‘ylab har 1000 kishining 4-5 nafari odam savdosi qurboniga to‘g‘ri keladi.

Hozirgi kunda dunyo bo‘ylab 50 milliondan ortiq kishi zamonaviy qullikda bo‘lib, 35% bolalar tashkil etadi. Shundan 28 millioni majburiy mehnatga va 22 millioni majburiy nikohga jalb etilgan. Mazkur muammoning aniq ko‘lamini bilish juda mushkul, chunki jinoiy faoliyat yashirin olib boriladi.

Asosan ayollar va bolalar odam savdosidan eng katta jabr ko‘radilar, barcha savdo qurbonlarining taxminan 75 % xotin-qizlar vakillaridir.

Odam savdosining eng keng tarqalgan shakli jinsiy ekspluatatsiya maqsadidagi odam savdosi bo‘lsa (80%), ikkinchi o‘rinda majburiy mehnat turadi (18%), inson tana a’zolarini sotish 1 % atrofida va boshqalar.

Odam savdosining eng keng tarqalgan shakli jinsiy ekspluatatsiya maqsadidagi savdolar bo‘lib, global narkotik savdolardan ko‘ra ko‘proq daromad keltiradi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, odam savdosining u yoki bu shakli eng ko‘p tarqalgan davlatlar Liviya, Eritreya, Mavritaniya, Sudan, Efiopeya, Birlashgan arab amirliklari, Suriya, Turkiya kabilar.

Nima uchun odam savdosi o‘sib bormoqda? Sir emas odam savdosi bilan shug‘ullanuvchi jinoyatchilar, xuddi boshqalar singari, odatda aholining zaif qatlamini nishonga olishadi. Bunga quyidagi sabablarni keltirishimiz mumkin:

Insonlarning loqaydligi. Ya’ni kishilarning soddaligi, yaqinlarining taqdiri va kelajagiga befarqligi bunday illat to‘riga ilinishga asosiy sabablardan biridir.

Iqtisodiy qiyinchilik tufayli oson mehnat evaziga ko‘p pul topish ilinjida ijtimoiy media platformalari orqali onlayn yollanish va tuzoqqa tushish;

Psixologik yoki hissiy zaiflik;

Huquqiy va siyosiy bilimlarning yetishmasligi;

Ijtimoiy himoya tizimining yo‘lga qo‘yilmaganligi yoki umuman mavjud emasligi;

Turli xil tabiiy va texnogen ofatlar;

Siyosiy beqarorlik.

E’tibor qaratadigan bo‘lsak, transmilliy jinoyatlar turkumiga kiruvchi, migratsiyaning noqonuniy shakli bo‘lgan odam savdosi global darajada inson huquqlarining qo‘pol buzilishiga olib kelmoqda. Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin.

-birinchidan, aholida siyosiy va huquqiy bilimini oshirish. Odam savdosiga qarshi kurashni kuchaytirish va bunday savdogarlarni jinoiy javobgarlikka tortishni kuchaytirishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirib borish;

-ikkinchidan, ijtimoiy himoya tizimini yaratish va uni dinamik ravishda takomillashtirib borish;

-uchinchidan, odam savdosidan jabrlanganlar va ularning jamiyatga to‘laqonli qo‘shilib ketishlarida tizimli ravishda har tomonlama yordam va xizmatlar ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish;

-to‘rtinchidan, odam savdosiga qarshi kurashishni davlat va nodavlat tashkilotlar hamda idoralarni jalb qilgan holda doimiy ravishda kengaytirib borish;

-beshinchidan, aholining zaif qatlamlariga qaratilgan profilaktik dasturlarni takomillashtirib borish, odam savdosi va uning oqibatlari haqida aholini xabardor qilib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, odam savdosi bugun dunyoda borgan sari keng tarqalmoqda va global tahdidlar qatoridan joy olmoqda. Dunyo davlatlari, xalqlari taraqqiyotda yo‘qorilagan sari inson ma’naviyatining tanazzulga uchrashi tezlashmoqda. Ta’limdan chekinish, salomatlikka befarqlik, turmush tarzida bemaqsadlik, mehr-oqibatsizlik, mulk va obro‘ talashuvlari avj olmoqda. Bularning barchasi oxir-oqibatda inson ma’naviyatini targ‘ib etishni yanada kuchaytirish zaruratini keltirib chiqaradi. Aslida ham ma’naviy qadriyatlarning qadrsizlanishi yuqorida qayd etilgan illatlar rivojlanishining asosi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Gurnam Singh. Human Trafficking: a Conceptual Framework// Journal of Siberian Federal University. Humanities & Social Sciences 4 (2013 6).

2. https://en.wikipedia.org/wiki/Human_trafficking

NILUFAR ISMAILOVA,
Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

YOSHLARNI MA'NAVIY BARKAMOL ETIB TARBIYALASHDA KITOBXONLIKNI RIVOJLANTIRISH VA UNING ISTIQBOLDAGI VAZIFALARI

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarimizni har tomonlama etuk va barkamol etib tarbiyalash, ularni intelektual salohiyatini yuksaltirishda kitobga bo'lgan muhabbatini kuchaytirishga ehtiyoj tobora oshib bormoqda. Azaldan ma'lumki, kitob mutolaasi insonni tarbiyalashda va uning individual salohiyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Shuni alohida qayd etish joizki, kitob mutolaasi insonlarni hamisha ezgulikka chorlab ma'rifatga da'vat etib kelgan. Shu o'rinda, yoshlarning qalbida yuksak ma'naviyatni shakllantirishda kitob va kitobxonlikning o'rni ayniqsa, beqiyosdir. Keyingi yillarda mamlakatimizda kitobxonlikni rivojlantirish, ayniqsa, yoshlar o'rtasida mutolaa madaniyatini yuksaltirish masalasi davlat siyosati darajasida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ayniqsa, bu borada Prezidentimizning bir qator qarorlari qabul qilinib, ijroga yo'naltirildi.

Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev O'zbekiston yoshlari va talabalari forumida yoshlar o'rtasida kitobxonlikni rivojlantirish masalasi haqida alohida to'htalib o'tgan edi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev o'z nutqida "Meni doimo o'ylantiradigan, tashvishga soladigan yana bir dolzarb masala, bu – yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so'z bilan aytganda, tarbiyasi bilan bog'liq. Biz bu yo'nalishda katta ishlarni amalga oshiryapmiz. Ammo ularning samaradorligini yanada kuchaytirish uchun quyidagi masalalarga jiddiy e'tibor berishimiz zarur. Birinchidan, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni, mutolaa madaniyatini rivojlantirish doimiy e'tiborimiz markazida bo'ladi"[1], deya alohida ta'kidlab o'tadi.

Yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida har yili "Eng kitobxon maktab", "Eng kitobxon mahalla", "Eng kitobxon oila" kabi yo'nalishlarda tanlovlar o'tkazish yo'lga qo'yildi. ularga respublika bosqichida yurtimizda ishlab chiqarilgan avtomobillarni mukofot tariqasida berish belgilab qo'yildi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "jismonan sog'lom,

ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" [2] kabi muhim vazifalar belgilab berildi. Bu esa yoshlar, xususan maktab o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning barcha bosqichlarini ilmiy tarzda takomillashtirib borishni taqazo etadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi ijrosini ta'minlash maqsadida, 2020 yil 14 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi VM-781-son Qarori qabul qilindi[3]. Unga muvofiq, Dasturda belgilangan chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

1. Aholi, avvalo yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, nashriyotlar va ijodkorlar faoliyatiga ko'maklashish, bolalarga mo'ljallangan adabiyotlarni chop etishni qo'llab-quvvatlash;

2. Milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, mutolaa madaniyatini yuksaltirish bilan bog'liq muhim masalalarni hal etishga qaratilgan tizimli ishlarni tashkil etishning huquqiy asoslarini yaratish;

3. Ta'lim muassasalari va hududiy kutubxonalarni markazlashgan kutubxona – "Yagona elektron kutubxona" loyihasi asosida birlashtirishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlarni belgilash;

4. Hududlar, aholi punktlarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan aniq mexanizmlar ishlab chiqish; har yili yosh ijodkorlarning innovasion loyihalarini amalga joriy qilish orqali mamlakatimizga kiritilayotgan investisiyalardagi yosh ijodkorlarning ulushi oshishini ta'minlash;

5. O'quvchilarning qiziqishini o'rganish, sosiologik so'rovlar o'tkazish orqali kitob mahsulotlari ishlab chiqishni yo'lga qo'yish;

6. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kitoblarni, ayniqsa bolalarga mo'ljallangan adabiyotlarni chop etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarini belgilash;

7. Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va

tanlovlarni tashkil etish.

Mazkur dasturni muvaffaqqiyatli amalga oshirishni belgilab beruvchi uchta asosiy bosqichni o‘z ichiga qamrab oladi:

Birinchi bosqichda (2020-2021 yillar) tashkiliy-huquqiy mexanizmlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar;

Ikkinchi bosqich (2022-2023 yillar) kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar;

Uchinchi bosqich (2024-2025 yillar) yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning madaniy savodxonligi o‘sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar.

Shuningdek, Dasturda belgilab qo‘yilganidek, 2021 yildan boshlab har yili mamlakatimizda “Kitobxonlik haftaligi” munatazm o‘tkazilib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan “Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlari”ga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasida ta’lim, ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish yuzasidan qator vazifalarni belgilab berilgan edi [4]. Bular qatorida o‘quvchi-yoshlarning badiiy, ilmiy, tarixiy adabiyotlarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirish borasidagi quyidagi fikrlarini keltirish mumkin: Hozirgi paytda hammamizning oldimizda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masala, ya’ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo‘lgan muhabbatini, ularning ma’naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqishning dolazb vazifasi turibdi.

Qayd etish joizki, yaxshi kitob insonda vatanga muhabbat, milliy va umumiy insoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka da’vat etadi. Kitob mutolaasi insonni qalbini ilm nuri bilan yoritib, uni tafakkurini boyitadi. Bu haqda Sohibqiron Amir Temur qayd etganidek, “Kitob (bitig) barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning-ilmu donishning asosidir”, deya ta’kidlasa, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy “kitob – beminnat ustoz, bilim va ma’naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai” ekanligini alohida e’tibor qaratgan. Zero, kitobsiz taraqqiyotga va yuksak ma’naviyatga erishib bo‘lmaydi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev qayd etganidek, “Kitob o‘qimagan insonning ham millatning ham kelajagi yo‘q” – deb aytgan fikrlarida chuqur ma’no mujassamdir.

Yosh avlod orasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish barkamol inson qilib tarbiyalash, o‘zbek adabiyoti va san’ati, madaniyatining yirik vakillari bilan tanishtirish axborot-kutubxonaga kengroq jalb qilish maqsadida soha xodimlari tomonidan bir qator ma’naviy - ma’rifiy tadbirlar o‘tkazib kelinmoqda. Quyida o‘quvchi yoshlar o‘rtasida kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali qo‘llash mumkin bo‘lgan bir nechta usullarni keltirib o‘tish mumkin:

1. Kitob (asar)ni qismlarga bo‘lib o‘qish. Ya’ni kitobxon tomonidan kitobni oz-ozdan, biroq to‘liq o‘qib chiqishini ta’minlash maqsadida, o‘qituvchi (tarbiyachi) yoki ota-ona tomonidan matnni qalam yordamida bir nechta qismlarga ajratib chiqish va ketma-ketlikda raqamlash usuli;

2. Qiziqarli kitobning boshi, o‘rtasi yoki yakunini o‘quvchiga gapirib berish va tinglanmagan qismini uning o‘zi tomonidan mustaqil ravishda o‘qib olishga undash usuli;

3. Kitob (asar) mazmunidan tuzilgan bir nechta savollarga javob berish (topish) usuli [5].

Bu kabi kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda qo‘llash mumkin bo‘lgan usul (texnologiya)larni yana ko‘plab yaratish, taklif etish va ularni amaliyotda qo‘llash mumkin. Biroq ko‘zlangan eng asosiy maqsad - kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning tashkiliy shakllarini amalga oshirish mexanizmlarini puxta yo‘lga o‘ylab chiqish talab etiladi. Shaxsda kitob o‘qish va kitobxonlikka ijobiy munosabatni qaror toptirish uchun har bir shaxsni bolalikdan boshlab, kitoblar bilan tanishtirish, ularning jamiyat va inson hayotidagi ahamiyatini anglashda zarur muhit yoki shart-sharoitni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, maktab o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish murakkab jarayon bo‘lib, uni samarali tashkil etish o‘qituvchi, murabbiy va ota-onalardan jarayonga maqsadli, tizimli yondashishni talab etadi [6]. Bu yoshdagi kitobxonlarda mutolaa ko‘nikmalarini shakllanishi va o‘z vaqtida rivojlanishi esa yurtimizda ana shu maqsadga yo‘naltirilgan islohotlar mazmuni va amalga oshirish mexanizmining puxta asoslanganligiga bog‘liqdir. Xulosa qilib aytganda, Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: “**Jamiyatimizda kitobxonlik madaniyatini oshirish** bo‘yicha boshlagan ishlarimiz davom ettiriladi”[7]. Binobarin, Prezidentimiz fikriga ko‘ra, kelgusida milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ko‘pming nusxalarda chop etish va barcha kutubxonalarga yetkazib berish orqali yurtimiz yoshlarini ma’naviy barkamol etib tarbiyalash borasidagi davlatimizning istiqboldagi vazifalarini bajarishga zamin yaratiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Шавкат Мирзиёев: Ёшлар ўртасида китобхонликни ривожлантириш доимий эътиборимиз марказида бўлади.

2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони. - Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2017. - № 6.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2022 йил 28 январдаги “2022–2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги 60-сонли фармони // URL: https://lex.uz/docs/5160827

4. Мирзиёев Ш. “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2017. – 312 б.

5. Жаҳонгиров Б. Ўзбекистоннинг Европа мамлакатлари билан илмий-техникавий алоқалари // Ўтмишга назар. – Т.: 2021. – Б. 16-21.

6. Муминова Д. Бошланғич синф ўқувчиларида китобхонликни шакллантиришда аждодлар миллий меросидан фойдаланиш // НамДУ илмий ахборотномаси. – Наманган: 2019.- №2. – Б. 447-455.

7. Маънавият ҳаётимизда янги куч, янги ҳаракатга айланиши керак. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги нутқи. Янги Ўзбекистон газетаси. 2023 йил 23 декабрь, 267-сон.

UMID KURANOV,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

YOSHLARNI DESTRUKTIV VA TOTALITAR SEKTALAR TA’SIRLARIDAN ASRASH DAVR TALABI

Bugungi kunda jaxonda shiddat bilan kechayotgan globallashuv jarayonlari xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, dunyo miqyosida tobora avj olib borayotgan ma’naviy hurujlar, yot g‘oya va mafkuralar ta’sirida inson qalbi va ongini zabt etishga bo‘lgan harakat doirasi ham kengayib bormoqda. Shu o‘rinda destruktiv (buzg‘unchi) va totalitar (ijtimoiy xavfli) sektalar faoliyati murakkab, qo‘p qirrali hodisa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Axborot hurujlarining rivojlanishi oqibatida, yoshlar ongi va qalbini zabt etishga intilayotgan diniy mazmundagi axborot oqimlari tobora kuchaymoqda. Natijada, destruktiv va totalitar sektalar global miqyosda inson qalbiga, ongiga, tafakkuriga hamda jamiyatdagi ijtimoyi-ma’naviy muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan buzg‘unchi mafkura sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur holat, o‘z navbatida destruktiv va totalitar sektalar ta’siridan ogoh bo‘lish va ularga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda destruktiv va totalitar sektalarga qarshi kurashning g‘oyaviy-mafkuraviy omillarini rivojlantirish turli dapajadagi diniy oqimlar g‘oyalari ta’sirlaridan o‘z-o‘zini himoyalashning diagnostik-profilaktik tizimini ishlab chiqish, ularda sektalar targ‘ibotidan himoyalanish va unga qarshi g‘oyaviy-mafkuraviy immunitetini shakllantirishning ta’sirchan samarador usullarini joriy qilish tobora dolzarblashib bormoqda. Bu borada, mamlakatimizda destruktiv va totalitar sektalarga qarshi kurash va mazkur harakatlarni oldini olishda aholi o‘rtasida keng ko‘lamli, aniq maqsadga yo‘naltirilgan ta’sirchan ma’naviy-ma’rifiy, huquqiy targ‘ibot ishlarni o‘tkazish bo‘yicha amaliy natijalarga erishilmoqda. Bu haqda Prezidentmiz Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: “Hozirgi globallashuv davrida, inson ongi va qalbi uchun kurash kuchaygan bir paytda turli g‘oyaviy tahdid va xurujlar jamiyatimizning ma’naviy hayotiga ta’sir ko‘rsatishning kuchli quroli sifatida namoyon bo‘lmoqda”[1].

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning tapaqqiyot stpategiyasi»[2]ning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ham «Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish» asosiy

vazifa etib belgilangan. Ushbu vazifani amalga oshirishda, destruktiv va totalitar sektalarga qapshi qarshi kurashda ma’naviy-ma’rifiy va g‘oyaviy-mafkuraviy asoslarini o‘rganish va tahlil etish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Shu nuqtai nazardan, bugungi globallashuv sharoitida yoshlarni destruktiv va totalitar sektalar ta’sirlaridan asrash va ularga qarshi kurashda g‘oyaviy - mafkuraviy immunitetni shakllantirishga bo‘lgan zarurat tobora kuchayib bormoqda.

Bugungi globallashuv sharoitida xavfsizlik va barqarorlikka rahna solishga harakat qilayotgan destruktiv va totalitar sektalar diniy-ekstremistik, fundamentalistik, terroristik, radikal g‘oyalarini amalga oshirishda bevosita yoshlarga alohida e’tibor qaratishmoqda. Chunki, millat va mamlakatning kelajagi bo‘lgan yoshlarni sog‘lom dunyoqarash va din to‘g‘risida holisona fikrga ega emasligi hamda tezda ta’sirlanish destruktiv va totalitar sektalarning yolg‘on va puch g‘oyalariga aldanib ularning tuzog‘iga tushayotganligi tashvishlidir.

Bugungi kunda dunyo miqyosida axborot hurujlarining rivojlanishi oqibatida, inson ongi va qalbini zabt etishga intilayotgan diniy mazmundagi axborot oqimlari tobora kuchaymoqda. XXI asrda turli ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy sabablarga ko‘ra, totalitar sektalar yanada faol harakat qilishga intilmoqda. Hozirda, dunyo hamjamiyatini destruktiv (bo‘zg‘unchi) va totalitar (ijtimoiy xavfli) diniy tashkilotlar faoliyati tashvishga solmoqda.

Destruktiv va totalitar sektalar insonlarni “ongini nazorat qilish” qilishda ekspansiya va manipulyatsiya vositalarini qo‘llashga alohida e’tibor qaratadi. Xususan, missionerlik faoliyati bilan faol shug‘illanayotgan sektalar insonlarga psixologik, moliyaviy va jismoniy zarar yetkazishi oqibatida sekta o‘z a’zolarining hayotiy faoliyatini doimo nazorat qilishga intiladi. Totalitar sektalar o‘zining yangi a’zolarini sekta ta’limotiga ko‘ra, bo‘ysinuvchan, itoatkor insonga aylantirish uchun turli xil usullarini qo‘llashga alohida e’tibor qaratadi.

Totalitar sektalar ta’limotida sektantlar yoki sekta yetakchilarini maxsus mansabga ega ekanligi ular jamiyatdagi boshqa insonlarga nisbatan ustun deya ta’kidlanadi. Shu o‘rinda, destruktiv va totalitar sektalar aksariyat hollarda o‘zining yangi a’zolarini tashkilotga jalb etishda tashkilotning asl maqsadlarini yashirgan holda yolg‘on usullarni qo‘llashadi. Destruktiv va totalitar sektalar faoliyati zamiriga e’tibor qaratilsa, avval ma’naviy ta’sip o‘tkazish orqali siyosiy qampab olish holatlari namoyon bo‘lmoqda. Insonning guruh tomonidan ko‘rsatiladigan ta’sirga qanchalik tez tushishini shu bilan ham isbotlash mumkinki, bir kishi boshqa bir shaxsga aql bovar qilmaydigan biror ma’lumotni yuz marta aytib ishontirolmasa, yuz kishidan iborat guruhning bir martalik

ta’kidi bu xabarning ishonchli ekanligini tasdiqlaydi[3]. Shu o‘rinda destruktiv va totalitar sektalar mana shunday vaziyatlardan unumli foydalanishga alohida e’tibor qaratishadi. Odatda, sektalar jamiyatdagi vaziyatlardan unumli foydalangan holda turli hildagi ommaviy tadbirlar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratishadi. Ayniqsa, sektalar seminarlar, yig‘ilish va ibodatlarni tashkil etish orqali tashkilotga ko‘proq kishilarni jalb etish va yanada o‘z saflarini kengaytirish sektani ko‘proq sodiq a’zolar bilan to‘ldirishni asosiy maqsadi sifatida e’tibor qaratishadi.

Shuni qayd etish lozimki, notanish va norasmiy guruhda insonga ta’sir o‘tkazish ancha qulay bo‘lib, insonlarni biron narsaga ishontirish, ularga bildirmasdan manipulatsiya qilish osonroqdir. E’tiborli tomoni mana shunday tadbirlar jarayonida bunda maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan yollovchilar insonlarga bevosita muloqot, alohida usul va vositalar orqali ta’sir o‘tkazish orqali yangi adeptlarni o‘z saflariga kiritishda moxirlik bilan yondashadi. Shu o‘rinda, destruktiv va totalitar guruhlar ta’sirga beriluvchan insonlarni qalbi va ongini o‘zgartirish, ularni yollash borasida amalga oshirilgan “samarali” ishlari natijasida guruh a’zolarining soni tobora ortib boraveradi. Sektalarga insonlarni jalb etish etish bilan shug‘ullanadigan mas’ullar e’tibor qaratadigan asosiy jihati noodatiy, beqaror yoki noxush ijtimoiy, ruhiy tushkin holatida bo‘lgan insonlarga alohida e’tibor qaratishadi. Hozir kunda dunyoda global miqyosida namoyon bo‘layotgan destruktiv va totalitar sektalar faoliyati to‘g‘risida insonlar qanchalik aniq ma’lumotga ega bo‘lsa, sektalar tomonidan insonlarni aldash orqali o‘zlarining tuzog‘iga ilintirish holatlari bevosita kamayadi.

Ta’kidlash joizki, sektant tashkilotlar o‘z a’zolarini ekspulatatsiya qiluvchi manipulyativ (insonni boshqaruvchi) vositalarni qo‘llovchi buzg‘unchi tashkilotdir. O‘z navbatida, buzg‘unchi va totalitar sektalar insonlarga psixologik, moliyaviy va jismoniy zarar yetkazishini alohida ta’kidlash o‘rinlidir. Sektalar o‘z a’zolarining hayotiy faoliyatini doimo nazorat qiladi. Shu o‘rinda, sektalar faoliyatiga nazar tashlansa, ruhiy o‘zgaruvchanlikka ega, tanqidiy savollar berishga odatlanmagan, osongina ishonuvchan tafakkuri fikran qaram insonlar sektalar ta’siriga tushish holatlar ko‘proq ko‘zatilmoqda. Sektada o‘rnatilgan tartibga ko‘ra, sekta a’zolari o‘z tashkilotini bir g‘oyadan ilhomlangan, yana maqsad sari birlashuvchi oila ya’ni ideal jamiyat sifatida qabul qilishadi. Natijada, sekta ko‘pchilik uchun o‘ziga xos ideal oilaga aylanadi. Shu bilan birga, sektantlar asosan jamiyat hayotida beqaror va noqulay ijtimoiy hamda ruxiy tushkunlik holatda bo‘lgan insonlarga bevosita e’tibor qaratadi. Xususan, dam olish masakanlarida (ta’til, sayohat, kungilochar

joylari) bo‘lganlar, oliy o‘quv yurtlari talabalari (asosan birinchi va oxirgi kurs talabalari), keksa insonlar (nafaqaga chiqqan va o‘zoq vaqt yolg‘izlikda bo‘lganlar), sodda va ishonuvchan yoshlar (o‘zligini anglash davrida), tushkunlik holati (hastalik, o‘lim, o‘z yaqinlaridan ajrashish) dagi muxojirlar, qochoqlar, ishsizlik, umuman do‘stona munosabat, aloqa o‘rnatishga ehtiyoji bo‘lgan fuqaro bunday e’tiborning ob’ekti hisoblanadi[4]. Zero sektaga yollash puxta ishlangan “rejalar” asosida insonni “najot” topish uchun dastlabki orzu bo‘lsa, unda ushbu usullar hech qanday qiyinchiliksiz amalga oshadi.

Bugungi kunda totalitar sektalar e’tiqodi sust, siyosiy va diniy bilimlari shakllanmagan yoshlarni yollash, o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida mablag‘lar sarflash, o‘z ta’sirini ko‘chaytirish orqali xokimiyatni egallashga bevosita intilmoqda. O‘z navbatida, totalitar sektalar iqtidorli, serg‘ayrat va aqlli yoshlarni “ovlash” orqali go‘yoki, ularni “millat gullari”, “mamlakatimiz kelajagi” sifatida e’tirof etadi. Natijada totalitar sektalar ta’siriga tushgan yoshlarning aksariyati oilaviy munosabatlar, jamiyat hayoti va mamlakat manfaatlaridan voz kechish orqali o‘zini ayrim diniy oqimlarga bag‘ishlamoqda. Bu esa yoshlar hayotidagi salbiy: shaxsiyat va intellektual tanazzul, o‘zgalar irodasiga ko‘r-ko‘rona bo‘ysunish, individuallikning yo‘qolishi, taraqqiyotdan to‘xtash, moddiy yo‘qotishlar kabi holatlar kelib chiqishga zamin yaratmoqda.

O‘pganishlar natijasi va tahlillarga ko‘ra, fuqarolapimizni sog‘lom diniy diniy dunyoqarashga ega emasligi, din to‘g‘risida holisona fikrni shakllanmaganligi aksariyat holatlar destruktiv va totalitar sektalar ta’siriga tushishga sabab bo‘lmoqda. Zero, destruktiv va totalitar sektalar harakati xalqimiz va millatimiz ma’naviyatiga, e’tiqodiga nisbatan salbiy ta’sip etuvchi tahdidlar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xulosa qilib aytganda Ppezidentimiz Shavkat Mipziyoev qayd etganidek: «Yanada ogoh va sepgak bo‘lish, eng asosiy boyligimiz bo‘lgan va biz haqli pavishda faxrlanadigan ko‘p millatli xalqimizning birdamligi va jipsligini ko‘z qorachig‘idek aspash hamda yanada mustahkamlash O‘zbekistonni o‘z Vatani, deb biladigan har bir insonning muqaddas burchidir. Biz faqat shu yo‘l bilan bugungi kunning bapcha tahdid va xavf-xatarlariga samarali qapshi turishimiz, jamiyatimizda turli buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi qat’iy immunitet yaratishimiz, o‘zimiz tanlagan demokpatik tapaqqiyot yo‘lida yanada salmoqli natijalarga erishishimiz mumkin»[5],– degan so‘zlari zamirida naqadar katta haqiqat mujassam ekanligini ta’kidlash urinlidir. Zero, mazkur omillar dunyo miqyosida global muammo sifatida avvalo, diniy-g‘oyaviy va mafkuraviy taxdidlar sifatida davlatlararo barqarorlikni izdan chiqarish intilayotgan

destruktiv va totalitar sektalarga qarshi kurashda muhim muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мирзаёев. Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Учинчи нашри. – Тошкент: «O‘zbekiston» нашриёти. 2021.Б- 263.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси» тўғрисидаги Фармони.

3. Волков Е.Методы вербовки и контроля сознания в деструктивных культах // Журнал практического психолога. – М., 1996. № 3.

4. Волков Е. Методы вербовки и контроля сознания в деструктивных культах. // Журнал практического психолога.- М., 1996.№ 3

5. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик – халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Республика байналмилал маданият маркази ташкил этилганининг 25 йиллигига бағишланган учрашувдаги нутқи. Халқ сўзи 2017 йил 25 январ. - №18.

DILFUZA JUMANIYOZOVA,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Toshkent Davlat Yuridik universiteti dotsenti

IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MASALALARI: HORIJ TAJRIBASI

Bugun jahondagi murakkab va tez o‘zgaruvchan globallashuv sharoitida yoshlar muammolarini hal qilish sohasidagi samarali davlat siyosatini amalga oshirish hamda unda qo‘llaniladigan mexanizm va texnologiyalarni takomillashtirib borish nafaqat ijtimoiy barqarorlik balki, umuman, davlat xavfsizligini ta’minlashning muhim omillaridan biri bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun,O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari, Hukumat qarorlari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari, 2030 yilgacha mo‘ljallangan “Yoshlar strategiyasi”, Yoshlar manfaatlari bo‘yicha butunjahon harakatlar dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023 yil 11 aprel kuni “Yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish hamda ular bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida belgilangan vazifalar bajarilishi nuqtai nazaridan ushbu masalani tadqiq qilish dolzarb hisoblanadi. Bugungi kunda yoshlar bilan bog‘liq dolzarb masalalarni hal etish bo‘yicha olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar bilan bir qatorda, sohada yechimini kutayotgan muammoli masalalar ham saqlanib qolayotganligini ko‘rsatmoqda.

Xususan, aksariyat yoshlarda dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini anglash darajasining yetishmasligi, bu borada mamlakatimiz ma’naviyatiga mos bo‘lgan fikrlar xilma-xilligi holatida yagona yondashuv, tushuncha va tasavvurlarning yetarlicha shakllanmagani terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, mutaasiblik, separatizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”, narkobiznes kabi turli xavf va tahdidlarga qarshi kurashish dolzarblashib bormoqda. Yoshlar o‘rtasida uchrayotgan bu kabi salbiy holatlarni oldini olish, huquqbuzarlik va jinoyatchilikni keskin kamaytirishga qaratilgan profilaktik ishlar natijadorligini oshirish; mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda yoshlarning faolligini oshirish, ularda islohotlarga dahldorlik tuyg‘usini shakllantirish muhim sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi uchun yoshlar masalasi ichki va tashqi

siyosatning ustuvor yo‘nalishlardan birini tashkil etadi. Yurtimizdagi yaratuvchanlik, bunyodkorlik, xalqimiz uchun barcha sharoitlarni tubdan yaxshilash maqsadida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamdagi ishlar va ularning samarali natijalariga qaramasdan, yoshlar, ayniqsa, uyushmagan yoshlar o‘rtasida loqaydlik, jinoyatchilik, eng yomoni, o‘z yurtini tashlab, baxtini boshqa yurtlardan izlab ketish kabi holatlar ko‘plab uchramoqda. Bu narsa bizni ogohlikka, hushyorlikka chaqirishi, yoshlar masalasida hammamiz birgalikda bosh qotirib, yechimini tezroq topishimizni talab etmoqda. Biroq amaliy hayotda barcha yoshlar ham davlat e’tibori va jamiyat g‘amxo‘rligi bilan qamrab olinmaganini ko‘rish mumkin. Bu holat haqida mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘zining “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqida shunday dedi: “...yurtimizdagi minglab yoshlar, ayniqsa, qishloq joylarda nafaqat “Kamolot”ning, ayni paytda davlat va jamiyatning e’tiboridan chetda qolmoqda. Ular bilan hech kim deyarli shug‘ullanmayapti, ular o‘z holiga tashlab qo‘yilgan, desak, achchiq haqiqatni tan olgan bo‘lamiz. Buning oqibatida uyushmagan, ya’ni ishlamaydigan, o‘qimaydigan, tayin bir mashg‘ulotga ega bo‘lmagan, salbiy ta’sirlarga beriluvchi yoshlar soni ortib bormoqda” [1].

Hozirgi kunda O‘zbekiston aholisining 64 foizini o‘ttiz yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etib, mustaqillik yillarida bu qatlamning salmog‘i 4 foizga ko‘paydi. Markaziy Osiyodek geostrategik jihatdan murakkab bo‘lgan mintaqada O‘zbekistonning eng ko‘p aholi soni bilan bolalar va yoshlar foizi katta mamlakat bo‘lgani kelajak uchun siyosiy hamda demografik nuqtai nazardan muhim vazifalarni belgilab olishni taqozo etadi.

Bugun rivojlanishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida tub islohotlarni amalga oshirayotgan O‘zbekiston uchun ham yoshlar muammolarini hal qilish hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan yoshlarning davlat va jamiyat rivojining darajasini belgilaydigan, ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatadigan, strategik ahamiyatga ega muhim, ajralmas tarkibiy qismi sanalmish “uyushmagan yoshlar” masalasini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil va tadqiq etish dolzarb sanaladi [2, 192].

Voyaga yetmaganlar va ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha davlat va nodavlat subyektlar faoliyatini takomillashtirish xorijiy huquqni muhofaza qilish organlari tajribasini o‘rganishni nazarda tutadi. Amaliyot shuni ko’rsatadiki, ko’plab davlatlar voyaga etmaganlar bilan profilaktika ishlarining turli shakllari va usullaridan juda samarali foydalanadilar.

AQShning Florida shtati huquq-tartibot idoralari tomonidan ishlab

chiqilgan va aksariyat davlat va xususiy maktablarda amalga oshirilgan yuridik ta'lim dasturi diqqatga sazovor bo‘lib, 7-8-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan dasturning asosiy vazifasi voyaga yetmaganlarni jamiyatda mavjud qadriyatlar tizimi, jinoyat qonunchiligi asoslari va fuqaroning majburiyatlari bilan tanishtirish, shuningdek, qonun va tartibni buzuvchilarni nima kutayotgani haqida tasavvurlarni shakllantirishdan iborat. Savol-javob formatidan foydalanib, dastur o‘quvchilarni talon-taroj qilish, huquqbuzarlik, buzg‘unchilik, hibsga olishga qarshilik ko‘rsatish, noqonuniy qurol saqlash, do‘konda o‘g‘irlik sodir qilish, o't qo'yish, spirtli ichimliklar, noqonuniy giyohvand moddalarni iste'mol qilish va qotillik kabi huquqbuzarliklar bilan bog‘liq qonunlar bilan tanishtiradi. Alohida boblarda esa jinoiy faoliyatning oqibatlarini, shuningdek, jamiyatda ularning bajarilishini nazorat qiluvchi qonunlar va maxsus organlar bo‘lishi zarurligi ko‘rib chiqiladi.

O'quv materiali 135 betdan iborat darslikda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, hatto o‘qituvchilar uchun ham maxsus kitob ishlab chiqilgan. O‘rganilayotgan har bir qonunni batafsil tushuntirish uchun maxsus taklif etilgan ichki ishlar xodimlari yordamidan keng foydalaniladi. Bu nafaqat o‘rganilayotgan materialga qiziqishni oshiradi, balki kuchli ma'naviy omil bo‘lin xizmat qiladi. O‘quvchilar politsiya xodimlarini ularga hamdard bo‘ladigan, ularning farovonligi haqida qayg‘uradigan insonlar sifatida qarashga o‘rganadilar [3, 18].

Los-Anjeles politsiya departamentida (AQSh) noodatiy eksperiment, ya'ni axloq tuzatish muassasalarida o‘smirlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha dasturining samaradorligi amalda sinovdan o‘tkazib boriladi. Ushbu dasturning maqsadi hali jinoyat sodir etmagan, lekin jinoyatga moyilligi, giyohvandlik yoki g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlari uchun ichki ishlar organlarida ro‘yxatga olingan o‘smirlarga psixologik ta'sir ko‘rsatishdan iboratdir.

Germaniyada politsiyaning voyaga etmaganlar jinoyatining oldini olish tajribasi ibratli sanaladi. Jumladan, Germaniyada voyaga etmaganlar jinoyatchiligiga qarshi kurashish strategiyasi quyidagi qoidalarga asoslanadi: o‘smirlarning noqonuniy xatti-harakatlarga moyilligi ko‘p hollarda shaxs shakllanishi jarayoni tugagandan so‘ng hech qanday tashqi ta'sirsiz yo‘qoladi; davlat organlari tomonidan qattiq choralar ko'pincha salbiy oqibatlarga olib keladi.

Shimoliy Reyn-Vestfaliyada giyohvand moddalar, bedarak yo'qolganlar va voyaga etmaganlar jinoyatlarini tergov qilish uchun barcha yirik politsiya bo'limlarida maxsus komissariatlar tashkil etilgan bo‘lib, komissarlarga o'smirlarning ko'pincha jinoyatchi, jabrlanuvchi

yoki guvoh sifatida qatnashadigan holatlarini tahlil qilish topshirilgan. O'smirlar bilan ishlashni nazorat qilish va umumiy muvofiqlashtirish esa ichki ishlar bo'limi rahbariyati tomonidan amalga oshirib boriladi. Jinoyat politsiya bo‘limining axborot tizimida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar bo‘yicha maxsus ma'lumotlar bazasi yaratilgan bo‘lib, unga kiritilgan ma'lumotlar asosida o'smirlar o'rtasida jinoyatchilik rivojlanishining sabablari va xarakterli xususiyatlari tahlil qilib boriladi. Bunday tadqiqotlar natijalari ichki ishlar organlari xodimlarini o‘qitish, tayyorlash va qayta tayyorlashda foydalaniladi [4, 24].

Baden-Vyurtembergda jinoiy politsiyaning jinoyatga qarshi kurashuv-chi yirik boshqarmalarida voyaga etmagan jinoyatchilar uchun maxsus bo'limlar mavjud bo‘lib, boshqa xizmatlarda xodimlar faqat voyaga etmaganlar jinoyati bilan shug'ullanadi. Maxsus bo'limlar va xodimlarning vazifasi voyaga etmaganlar nafaqat jinoyatchi, balki jabrlanuvchi yoki guvoh sifatida harakat qiladigan barcha holatlarni tahlil qilishga qaratiladi. Bremen shtatida jinoyat va xavfsizlik politsiyasi doirasida voyaga etmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi maxsus xizmatlar mavjud. Ushbu xizmatlarning vazifalari aniq belgilangan bo‘lib, voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyat sodir etilishining oldini olish bilan maxsus qo‘riqlash politsiyasi xizmatlari shug‘ullansa, bolalar va o‘smirlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarni tergov qilish bilan politsiya shug‘ullanadi.

Quyi Saksoniyada politsiya balog'atga etmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik holatlari bilan bog‘liq ishlarni ko'rishda boshqa ijtimoiy xizmatlar bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Berlinda voyaga etmagan huquqbuzarlar bilan ishlashni tashkil etishning ancha yuqori darajasiga erishildi. O'smirlar bilan ishlash uchun ichki ishlar bo'limi tarkibida bolalar va o'smirlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar to'g'risidagi barcha xabar va bayonnomalar, shuningdek, bedarak yo'qolgan voyaga etmaganlar to'g'risidagi arizalar bo'yicha chora ko'radigan maxsus komissariyat tashkil etilgan. Komissarlik xodimlari nafaqat bu holatlarni tekshiradi, balki profilaktika ishlarini ham olib boradi. Evropaning boshqa mamlakatlaridagi politsiya faoliyati tajribasi ham juda qiziq sanaladi.

Xorijda voyaga etmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan funktsional jihatdan ixtisoslashtirilgan sub'ektlar faoliyati amaliyotini tahlil qilish ushbu ishning uchta asosiy yo‘nalishini aniqlash imkonini beradi: birinchi yo‘nalish – voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi adliya organlari faoliyatining huquqiy asoslarini yaratish, yangi ijtimoiy texnologiyalarni, ijtimoiy-huquqiy tuzilmalarni va nodavlat tuzilmalarni joriy etish zarurligini ko‘rsatdi, hamda, G‘arbning ko'p sonli

davlatlarida ushbu tajriba ancha vaqt oldin joriy qilingan va ko’p yillar davomida mavjud bo’lgan, vaqt davomida nafaqat hayotiyligini, balki mutlaq zarurligini ham isbotladi; ikkinchi yo‘nalish voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish tizimida asosiy tashkiliy va muvofiqlashtiruvchi rol o‘ynaydigan, voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi adliyaning o‘zagi bo‘lgan ixtisoslashtirilgan sudlarni tashkil etish bilan bog‘liq; uchinchi yo’nalish – maxsus profilaktika sub’ektlarini, shu jumladan politsiya organlari tuzilmasini shakllantirish va ularga gumanistik funktsiyalarni yuklashdan iboratdir.

O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar bilan ishlashda hududlarga xizmat safarlari uyushtirish, joylarda ma’naviy-axloqiy jihatdan muammosi bor, notinch oila farzandlari, jinoyatchilikka moyil bo‘lgan yoki profilaktik ro‘yxatda turadigan yoshlar bilan bevosita uchrashish, safarlar davomida ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish, so‘rovnomalar olish, orqali qo‘lga kiritilgan natijalarni tahlil qilish, tadqiqot natijalari asosida uslubiy ko‘rsatmalar tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

Ushbu amalga oshiriladigan tadbirlar yoshlarning mentalitetimizga qarshi turli xil yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolishini oldini olishga qaratilgan tizimli targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish, tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, turli xavf-xatarlarga qarshi kurashishda yoshlar ishtirokini kuchaytirish, ma’naviy-axloqiy jihatdan muammosi bor, notinch oila farzandlari, jinoyatchilikka moyil yoki profilaktik ro‘yxatda turadigan yoshlar bilan individual tarzda ish olib oorish tizimi takomillashtirilishiga hissa qo‘shiladi. Uyushmagan va tarbiyasida muammo bo‘lgan yoshlar muammolari yechilishiga qaratilgan chora-tadbirlar ularning kelajakka va o‘ziga ishonchi ortishiga xizmat qiladi. So‘rovnomalar orqali hududlarda yoshlar orasida mavjud bo‘lgan dolzarb muammolar aniqlanadi va tahlil qilinadi. Muammosi bor yoshlar tarbiyasi “Vatan taraqqiyotiga xizmat qilish va sodiq bo‘lish” g‘oyasi singdirilishiga ko‘maklashiladi. Ular o‘rtasida shaxsiy va milliy manfaatlarni uyg‘un tutishga doir keng ko‘lamli tarbiyaviy yondoshuvga yo‘naltiriladi. Shu bilan birga, yuksak axloqiy fazilatlarga ega, yurt sha’ni, or-nomusi uchun kurasha olishga qodir, ma’naviy immuniteti mustahkam, mehnatsevar, e’tiqodi kuchli shaxs shakllanishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va ma’naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. Internet manzil: www.uza.uz.

2. Giyasov S. Uyushmagan yoshlarning tarkibi tushunchasi va mazmuni. Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 01(2022) / ISSN 2181-1415.

3. Шайденко Н.А. Зарубежный опыт борьбы с правонарушениями несовершеннолетних / Н. А. Шайденко. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2014. — № 17.1 (76.1). — С. 18-19. — URL: https://moluch.ru/archive/76/13014/ (дата обращения: 11.08.2024).

4. Касамара В.А., Сорокина А.А. Политическое сознание подростков: благаполучные школьники и дети улиц // Полис. – 2009. – №6. – С. 68.

5. Yoshlar-kelajak bunyodkori” shiori ostidagi “Uyushmagan yoshlar bilan ishlash tizimi samaradorligini oshirish: muammo va istiqbollar” mavzusidagi II Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya. Maqolalar to‘plami. – Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi. 2018. – Б. 27.

6. Акимова Л.В. Зарубежный опыт решения проблем «Уличных детей» // Педагогика и образование. Берегиня, 777. Сова, 2010. №5 (7).

7. Маланцева О. Стратегии работы с детьми улиц: зарубежный опыт // Социальная педагогика. 5/2009.

8.Бечки, Ш. Молодежь и помощь несовершеннолетним в США / Ш.Бечки. – М.: Наука, 1991. – 193 с.

9. Боденко, Б.Н. Социальное обслуживание и социальная работа за рубежом / Б.Н. Боденко, В.Б. Корняк, А.Н. Панов. – М.: Форма, 1999. – 392 с.

SARVAR NISHONOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti
taynach doktoranti / o‘qituvchi

YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA DUNYOQARASH VA QADRIYATLARNING ROLI VA AHAMIYATI

Ma’lumki, insoniyat hayotida uning kelajagi hisoblangan avlodlar, farzandlar, yoshlar tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etib kelgan holda, XXI asrga kelib yosh avlod tarbiyasi masalasi har qachongidan ham dolzarb masalalardan biriga aylanib ulgurdi. Bugungi shiddatli zamon, globallashuv jarayonlari va uning salbiy ta’sirlari, dunyodagi keskin raqobat muhiti, turli xavf-xatarlar bizdan juda katta mas’uliyat va safarbarlik bilan ishlashni, hamma sohalarda yangicha yondashuvni, shu bilan birga, yosh avlod ta’lim-tarbiyasi borasida ham farzandlarimizni jismonan sog‘lom, ma’naviy etuk va barkamol qilib tarbiyalashga alohida e’tibor qaratishni, jamiyatimizda bu boradagi ishlarni tizimli va izchil amalga oshirishni taqozo qilmoqda. Davlatchilik tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma’lumki, har qanday davlatning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga chambarchas bog‘liq.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yangi dunyoqarashga ega, mustaqil fikrlashga qodir bo‘lgan barkamol yosh avlod tarbiyasi borasida keng qamrovli chora-tadbirlar belgilanib, samarali ishlar amalga oshirildi hamda bu boradagi ishlar tizimli ravishda davom ettirib kelinmoqda. Shu ma’noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu borada to‘xtalib shunday deydi: Ma’lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. “Tarbiya qanchalik mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”[1], deydi donishmandlar.

Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy sohadagi keng ko‘lamli islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsadlardan biri barkamol avlodni tarbiyalab voyaga etkazish, yoshlarning yuksak ma’naviyatga erishuvini ta’minlash, ijtimoiy taraqqiyot jarayonida har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni

o‘zida mujassam etgan hamda etuk barkamol shaxsni voyaga etkazishdir. Shunday maqsadni ko‘zlagan ko‘pmillatli O‘zbekistonda bir maqsad sari intilish, yoshlarning kelajagini o‘ylash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda yoshlarning o‘rni va roli hamda ularda yangicha dunyoqarashni shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev BMTning 72-sessiyasidagi so‘zlagan nutqlarida yoshlar masalasiga to‘xtalib shunday degan edi:

Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga etishi bilan bog‘liq[2]. Ma’lumki, mamlakatimiz aholi yosh dinamikasi bo‘yicha yoshlar mamlakati bo‘lib, yoshlar aholining katta qismini tashkil etadi. Shaxs ma’naviy barkamolligi, farzandlar, o‘quvchi-yoshlar ta’lim-tarbiyasi hamma zamonlarda ham eng asosiy oilaviy, ijtimoiy hamda umuminsoniy burch va vazifa sanalgan. Haqiqatan ham, hozirgi globallashuv jarayonlari va ob’ektiv shart-sharoit, “zamonaviy hayot” yosh avlodni jismonan sog‘lom, ma’naviy etuk, intellektual salohiyatli hamda barkamol qilib tarbiyalashga alohida e’tibor qaratishni, jamiyatda bu boradagi ishlarni tizimli, izchil va uzluksiz amalga oshirishni talab qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida yoshlar ta’lim-tarbiyasi borasida to‘xtalib, shunday ta’kidlaydi: Umuman, har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta’minlaydigan yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga etishi hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko‘lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama etuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz.

Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim. Ushbu maqsad yo‘lida yoshlarimiz o‘z oldiga katta marralarni qo‘yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko‘mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo‘lishi zarur.

Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro‘yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi[4].

Ma’lumki, yosh avlodni tarbiyalashda, ularning ta’lim-tarbiyasida, barkamol shaxs sifatida kamol topishida dunyoqarash va qadriyatlarning roli va ahamiyati benihoya kattadir. Dunyoqarashni dunyoni anglash, idrok etish deb qaraydigan bo‘lsak, avvalo inson dunyoni hissiy sezadi. Keyin hissiy in’ikos etilgan voqelik xaqida to‘plagan bilimlari asosida insonning dunyoqarashi paydo bo‘ladi. Shu tariqa shaxsning dunyoni anglashi orqali uning o‘zini anglashi ham shakllanib boradi. Dunyo haqidagi barcha bilimlar yuksak darajada umumlashtiriladi va yaxlit dunyoqarash shakllanadi.

Inson dunyoqarashi undagi mafkura bilan bog‘liqdir. Chunki inson voqelikka muayyan maqsad, manfaat va qiziqishlardan kelib chiqib yondashadi.

Dunyoqarash kishilarning axloq me’yorlari, hayotdagi intilishlari, qiziqishlari, mehnat va turmushlariga ta’sir ko‘rsatib, katta amaliy ma’no kasb etadi. Insoniyat tarixiy taraqqiyoti mobaynida rivojlanib borgan dunyoqarashning mifologik, diniy, kundalik, falsafiy va boshqa shakllarini ta’kidlagan holda, falsafiy dunyoqarash dunyoqarashning boshqa shakllariga tayanadi, ulardagi umumiy qonuniyatlarni, jihatlarni anglashga harakat qiladi.

Dunyoqarash sermazmun tushuncha sifatida uning miqyosi (ko‘lami), mazmuni, asosi (markazi) kabi jihatlariga ega ekanligini ta’kidlash joiz.

Dunyoqarashning miqyosi insonning butun hayoti mobaynida rivojlanib, kengayib boruvchi jihatini ifodalaydi. Dunyoqarash mazmuni inson ongida voqelikning xilma-xil jihatlari qay darajada qamrab olinganligini aks ettirsa, dunyoqarash asosi (markazi) esa, insonning shaxsiy hamda ijtimoiy manfaatlar majmuasi doirasiga bog‘liq holda olam haqida fikr yuritishini anglatadi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida dunyoqarash tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan:

Dunyoqarash - dunyoga va insonning undagi o‘rniga, kishilarning o‘z atrofidagi voqelikka va o‘z-o‘ziga munosabatiga bo‘lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e’tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari. Dunyoqarash kishining yoshi, hayotiy tajribasi, bilimi, mafkurasi bilan bog‘liq. Dunyoqarashda jamiyatda shakllangan falsafiy, ilmiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik bilimlar, qarashlar o‘z aksini topadi. Shaxsning dunyoqarashi ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘langan. Dunyoqarash insonning o‘zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi hamda baholashi asosida shakllanadi. Bu jihatdan dunyoqarash voqelikning inson ongidagi sub’ektiv in’ikosidir. Ayrim individning ongi bilan bog‘langan individual

dunyoqarash, muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, sinf, millat va jamiyat miqyosidagi ijtimoiy ong bilan bog‘langan ijtimoiy dunyoqarash mavjud. Bular bir-birini to‘ldiradi, bir-biriga ta’sir qiladi, bir-birini rivojlantiradi[5]. Dunyoqarash tushunchasi o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g‘oya, milliy g‘urur, tarixiy ong va xotira, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy tafakkur, ma’naviy barkamollik kabi tuyg‘u va tushunchalar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Chunki, dunyoqarash aynan ana shu ruhiy-ijtimoiy hodisalar orqali oydinlashadi, umuminsoniy qadriyatlarning tarixiy bir bo‘lagiga aylanadi.

O‘tgan qisqa davrda ushbu yo‘nalishda 100 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilinib, izchil amalga oshirilayotgani buni yaqqol tasdiqlaydi. Ayniqsa, yangilangan Konstitutsiyamizda yosh avlodning huquq va manfaatlari aniq moddalar bilan muhrlab qo‘yilgani, hech shubhasiz, bu boradagi huquqiy bazani yanada kengaytirish, amaliy ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarish imkonini bermoqda. Xulosa qilib aytganda, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, har tomonlama sog‘lom va barkamol qilib voyaga etkazish, dunyoqarashi va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish hamda faolligini kuchaytirish, ularni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar etib tarbiyalash ularning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilib, ma’naviy komillikka erishuvida asosiy va belgilovchi omil vazifasini o‘taydi.

Mahalla institutining ming yillik tajribasi Sharqona ong stereotiplarini yanada mustahkamlash maqsadida, homiylik asosida mahallalarda muntazam ravishda Sharq allomalari merosining nodir g‘oyalarini tashviqot va targ‘ibot qilish yuzasidan uchrashuvlar, davra suhbatlari orqali ayniqsa uyushmagan yoshlar bilan ishlash va ularni g‘oyaviy yo‘naltirish Yangi O‘zbekiston strategiyasi mohiyatini yanada anglashda muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. – T.: Faylasuflar milliy jamiyati, 2004. –B. 6.

2.Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. –B. 252.

3.Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. – T., 2011. – B. 27.

4.Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. –T.: O‘zbekiston. 1998. – B. 12-13.

5.O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 10-jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – B. 570.

AVAZBEK SHERMATOV,
RMMM huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi, magistr

MA'NAVIY-MA'RIFIY SOHA RIVOJIDA SUN'IY INTELLEKTNING TUTGAN O'RNI

Sun'iy intellekt bugun dunyoda eng tez rivojlanayotgan texnologiyalardan biri sanaladi. Dunyoning barcha ko'zga ko'ringan texnologik gigantlari, jumladan Kaliforniyadagi "silikon vodiysi"ning olg'irlari ham sun'iy ong ishlanmalari sohasida peshqadam bo'lishga bel bog'lagan. Berilgan so'rovga bir zumda javob beruvchi chat-botlar, istalgan ko'rinishdagi video tayyorlovchi generativ sun'iy idrok dasturlari hayotimizga tobora keng kirib kelmoqda. Yirik xalqaro texnologik kompaniyalarning sun'iy ong sohasida o'zaro raqobati esa kutilmagan natijalarga olib kelishi mumkinligi bilan xavotirli. Kimo'zarga boshlangan kuchli raqobat inson hayotini yengillashtirishi kerak bo'lgan texnologiyani uning boshog'rig'iga aylantirib qo'yishi hech gap emas.

Hozirda sun'iy aql asosida ishlovchi dasturlarning son-sanog'i yo'q. Ular orasida oddiy vazifalarni bajara oladigan primitiv ko'rinishdagilaridan tortib, haqiqiysidan ajratish mushkul bo'lgan videroliklar yasay oluvchi murakkab dasturlarni ham ko'rish mumkin.

Bugun mutaxassislar tomonidan sun'iy idrok to'rtinchi sanoat inqilobining muhim elementi sifatida xalqaro mehnat taqsimotini, mehnat bozori ierarxiyasini butkul o'zgartirib yuboradi degan fikrlar bildirilmoqda. Avvalgi sanoat inqiloblari, ayniqsa, ikkinchi sanoat inqilobi qo'l mehnati bilan kun kechiruvchi ko'plab odamlarning ishsiz bo'lib qolishiga sabab bo'lgani, shu sababdan zavod-fabrikalar dastlab kishilarda nafrat uyg'otgani bor gap. Angliyada ludchilar(mashinalashtirish natijasida ishidan ayrilganlar) harakati vakillari zavodlarga kirib alam bilan stanoklarni buzib tashlashgani ham tarixdan yaxshi ma'lum. Ammo keyinchalik ma'lum bo'ldiki, sanoatlashuv insonlarni butkul ishsiz bo'lishiga olib kelmaydi, mehnat taqsimoti yangilanishi natijasida insonlar turli mutaxassisliklarda mehnat qilishda davom etishadi. Yaqin kelajakda to'rtinchi sanoat inqilobining asosiy elementi bo'lgan sun'iy idrok insonlarning butkul ishsiz bo'lib qolishlariga va ijtimoiy bo'hronlarga olib kelmaydi, aksincha, odamlar uning afzalliklaridan foydalangan holda yangi malakalarni, yangi kasblarni o'zlashtirishadi degan ijobiy kutilmalar ham mavjud. Ammo masalaning muhim tomoni shundaki, mushkul vazifalarni osonlik bilan, bir zumda bajara oladigan aqlli

texnologiyalar davrida yaxshi ta'lim olgan, texnologiyalar bilan ishlashni yaxshi o'zlashtirgan insonlargina kelajak kasblariga qiyinchiliklarsiz moslasha oladi, jamiyat hayotidagi texnologik sakrashlarni osonlik bilan yengib o'tadi. Sun'iy intellekt davrida ta'lim darajasi past, fuqarolari zamonaviy bilimlardan bexabar mamlakatlarning rivojlanishda ortda qolishi turgan gap. Shu sababdan barqaror rivojlanish uchun hozirdan boshlab sifatli ta'limni yo'lga qo'yish, ta'limda aniq fanlarni o'qitishni kuchaytirish, raqamlashtirishni jadallashtirish kabi ishlar har qanday davlat uchun ustuvor masalalar sanaladi.

Jahon mamlakatlarida jadal davom etayotgani kabi O'zbekistonda ham raqamlashtirish ishlariga, ayniqsa sun'iy intellektni hayotning turli sohalariga joriy qilishga davlat darajasida ahamiyat berilmoqda. Davlatimiz rahbari bu mavzuni tez-tez tilga olmoqda. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev joriy yil 13-avgust kuni sun'iy intellekt va IT sohasidagi startap loyihalarni rivojlantirish chora-tadbirlariga doir taqdimot bilan tanishdi. Taqdimotda sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, bank, soliq, bojxona kabi sohalarda sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish chora-tadbirlari ko'rib chiqilib, avvalo, sun'iy intellekt bo'yicha qonunchilik bazasini yaratish kerakligi qayd etildi. Shuningdek, sun'iy intellektni joriy etish strategiyasi va ikki yillik loyihalar dasturini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Sun'iy intellekt texnologiyalari markazini tashkil qilish bo'yicha topshiriq berildi[1].

Davlat rahbari 20-avgust kuni Nukus shahrida tadbirkorlar bilan bo'lgan navbatdagi ochiq muloqotda ham sun'iy idrok mavzusiga alohida to'xtaldi. Hozirda O'zbekistonda band aholining 52 foizi xizmatlar sohasida ishlayapti. Davlat rahbariga ko'ra, endi barcha jabhada sun'iy intellekt texnologiyalari keng joriy qilinadi. IT-parkda sun'iy intellekt markazi ochiladi. Loyihalarni moliyalashtirish uchun esa 50 million dollar ajratiladi[2].

Ayni paytda, jamiyat hayotining turli jabhalariga kelajak texnologiyasi bo'lmish sun'iy intellektni keng joriy qilish bo'yicha ko'plab ishlar qilinayotganini e'tirof etish lozim. Hozirda Raqamli texnologiyalar vazirligi huzurida Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyat olib bormoqda. Soha bo'yicha 2021-yilda Prezident Qarori qabul qilingan. Universitetlarda sun'iy intellekt mutaxassislari tayyorlashga mo'ljallangan fakultetlar tashkil qilindi. Mazkur yangi sohani tartibga solish bo'yicha qonunchilik bazasini tashkil qilish ishlari olib borilmoqda. O'zbek tilida ishlovchi Muxlisa AI dasturi yaratilib, uni O'zbekistonda yig'iladigan elektromobillarda ishlatish bo'yicha rejalar mavjud. Umuman olganda, bugun sun'iy

intellekt ma’lumotlar bazasida o‘zbek tilidagi adabiyotlarni ko‘paytirish ishlariga katta e’tibor berish talab etiladi. Sababi, aksar hollarda o‘zbek tilida sun’iy idrok tayyorlagan materiallar, matnlar juda bo‘sh va sayoz ekanligi ko‘rinib qoladi. Raqamli texnologiyalar vazirligi Sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i Aziz Atabekovga ko‘ra, bunga sabab o‘zbek tilida raqamlashmagan ma’lumotlar ko‘p. Bularni raqamlashtirish zarur. Bundan tashqari, raqamlashtirish uchun barqaror elektr energiyasi, super kompyuterlar talab etiladi[3]. Moliyaviy resurslar cheklangan bo‘lsada, masalani hal qilish talab etiladi.

Sun’iy intellekt mehnat bozorida turli o‘zgarishlar qilishi, odamlar og‘rini yengil qilish bilan birga ma’lum tahdidlar va muammolarni ham yaratishi bor gap. Shuning uchun ham dunyo mamlakatlari bu sohani to‘g‘ri rivojlantirish ustida jiddiy bosh qotirishmoqda. Nazoratsiz rivojlanish o‘zaniga tushib qolsa, sun’iy idrok insoniyat uchun ko‘plab xavf-hatarlarni yaratadi. Mazkur xavflarning eng sodda ko‘rinishini bugungi kunning o‘zida, kundalik holatlarda ham uchratishimiz mumkin. Bu borada Aziz Atabekov shunday deydi:

“Eng mashhur sun’iy intellekt xavflaridan biri Deep fake’lar hisoblanadi. Ya’ni boshqa insonlarning ovozi, yuzidan foydalanib, soxta videolar yaratish hamda firibgarlik va boshqa maqsadlarda foydalanishadi. Sohani yaxshi tushunadigan odam tezda sohani haqiqiysidan ajrata oladi. Bunga ishonib qolayotgan odamlarning aksariyati sun’iy intellekt mahsulotlaridan bexabar bo‘lgan omma hisoblanadi. Buni ilg‘ab olish uchun odamlar o‘zlarida immunitet hosil qilishi, sun’iy intellekt borasida savodxonlikni oshirishi kerak”[3].

Darhaqiqat, aholining raqamli savodxonligini oshirish, ayniqsa, sun’iy intellektning nima ekanligini, uning qanday ishlashini, u yaratishi mumkin bo‘lgan “soxta” kontentdan ehtiyot bo‘lish lozimligini tushuntirish dolzarb masala sanaladi. Bugun texnologik taraqqiyot, iqtisodiy foyda ortidan quvib, sun’iy idrokning rivojlanishi boshqarib bo‘lmas poyga obyektiga aylanib ketishi yaqin istiqbolda insoniyat uchun ortga qaytarib bo‘lmas salbiy oqibatlarni yaratadi. Har narsada me’yor bo‘lgani kabi, sun’iy intellekt taraqqiyotida ham vazminlik, yetti o‘lchab bir kesish, iqtisodiy va texnologik foyda bilan bir qatorda ma’naviy-axloqiy chegaralarni ham inobatga olish lozim. Eng so‘nggi texnologiya deb taqdim etilayotgan generativ sun’iy idrok dasturlarining “ijod namunalari” bugun ijtimoiy tarmoqni tom ma’noda “ishg‘ol qilgan”. Mashxur shaxslar “gapirtirilgan” soxta videobayonotlar, taniqli kishilarning soxtalashtirilgan behayo videolari kabi “deepfake”(soxta videomaterial)lar bugun insonlar tomonidan mutlaq haqiqatdek qabul qilinmoqda. Bunday holatlarga

yo‘l qo‘ymaslik uchun sun’iy intellektni tartibga soluvchi qonuniy hujjatlar, normalar qabul qilishga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun bugun O‘zbekistonda 2030-yilgacha raqamli texnologiyalar, xususan sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasini qabul qilish bo‘yicha ishlar qilinmoqda. Yaqinda, Yevropa Ittifoqi dunyoda birinchi bo‘lib sun’iy intellektni tartibg solish borasida qonun qabul qilgani ham bejizga emas. Sababi, dunyo davlatlari sohaning rivojlanishini o‘z vaqtida tartibga solinishi kerakligini tushunib yetmoqda.

Xulosa qilib aytganda, raqamlashtirish avj olgan bugungi texnologiyalar zamonida insonning axloqiy-ma’naviy qiyofasini aslicha saqlab qolish, hissizlik, shaxs qadriyatlarining zaiflashishi kabi holatlarga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Shaxsning tanazzulga uchrashi xavfini minimallashtirish, aqlli mashinalar rivojlangan davrda insonning barqaror, har tomonlama rivojlanishiga erishish uchun uning ma’naviyatiga e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida sun’iy intellektni insoniylashtirishni ta’minlaydi va shu orqali uning jamiyatga ta’sirini optimallashtirib, zararlarini kamaytiradi. Sun’iy intellektning rivojlanishi inson rivoji uchun ikki xil ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, bu jarayon insoniyat rivoji uchun kuchli rag‘batlarni yaratadi, axborot jamiyatida yangicha madaniyatni yaratib, intellektual qo‘llab-quvvatlash tufayli oqilona qarorlar qilishga yordam beradi. Boshqa tomondan esa, texnologik transformatsiyalar zamonida jamiyatni raqamlashtirish oqibatlari ma’naviyat nuqtai nazaridan ham bir qator muammolar yaratishi bilan ahamiyatlidir. Bugungi shiddatli rivojlanish zamonida Prezidentimiz ta’kidlaganidek, ma’naviyat sohasi boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi lozimligini inobatga olsak[4], sun’iy intellektning an’anaviy qadriyatlarga, shaxs ma’naviyatiga ta’sirini keng tadqiq qilish, uning ta’sirini har tomonlama tahlil qilish bugun ma’naviy-ma’rifiy sohada qilishimiz kerak bo‘lgan muhim vazifalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Сунъий интеллект ва стартап лойиҳаларни ривожлантириш бўйича тақдимот ўтказилди, https://president.uz/uz/lists/view/7464;

2. Муаммолар муҳокама қилиниб, таклифлар қўллаб-қувватланди, https://president.uz/uz/lists/view/7477;

3. Дунёни ўзгартираётган сунъий интеллект: Ўзбекистоннинг режалари қандай ?, https://kun.uz/kr/58949507;

4. Prezident: Ma’naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak, https://president.uz/oz/lists/view/6941

FOTIMA KIM,
O‘zbekiston Milliy universiteti kafedra tayanch doktoronti

KO‘RISHDA NUQSONI BOR BOLALARNI MAFKURAVIY TAHDIDLARDAN HIMOYLASHDA FAOLIYATNING O‘RNI

Odam tabiati jihatidan faol mavjudotdir. U ma’lum faoliyatda bo‘lmasdan yashay olmaydi. Inson faoliyatining turi juda ko‘p bo‘lib, ulardan eng muhimi ijtimoiy qiymatga ega bo‘lgan ishlab chiqarish mehnatdir. Odam har doim jamoada bo‘lib mehnat qiladi va mehnat natijalarini ham jamoa turmush tarzini o‘zlashtiradi, har bir tirik organizmning faolligi uning ehtiyojlarini qondirilishiga qaratilgan bo‘ladi. Ko‘zi ojiz bolalarni ijtimoiy reabilitatsiyalash ijtimoiy yordamning murakkab zamonaviy va muqim tizimlaridan biridir. Nogiron bu shaxsiy ehtiyojlarini va ijtimoiy hayot yetishmovchiliklarini qisman yoki to‘liq o‘zi mustaqil ta’minlay olmaydigan istalgan shaxs. Ko‘rishda nuqsoni boigan bolalarni o‘z vaqtida faoliyatga kiritish ularni jamiyatimizning teng huquqli a’zolari sifatida o‘zlariga va Vatanga xizmat qilishlarini ta’minlaydi. Ko‘zi ojizlar va zaif ko‘ruvchilar faoliyat yordamida atrofdagi narsalar va voqelik bilan bevosita munosabatda bo‘ladilar. Mehnat jarayonida bilim, tajriba va malakalar shakllanadi. Atrof-muhit va odamlar bilan munosabatda bo‘ladilar. Ularda aqliy va jismoniy faoliyat yordamida axloqiy shaxsiy sifatlari: mehnatsevarlik, iroda, mustaqillik, hamjihatlik, tartib-intizom, javobgarlik paydo bo‘ladi, ya’ni shaxs sifatida shakllanadi. Eng muhimi mehnat jarayonida, ayniqsa jamoadagi mehnatda yuqoridagi sifatlar yanada mustahkamlanadi.

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni John n J. Rieser, Daniel H.Ashmed tomonidan rivojlantirilgan yetakchi faoliyat nazariyasi asosida tahlil qilinganda uning faoliyat obyektlari kabi lining subyektlarining obrazlari qiyin shakllanishi bilan bogiiq o‘ziga xosligi aniqlanganki, bu yetakchi faoliyat ichida yangi tuzi!malaming yuzaga kelishida kechikish va ularning yoshga oid rivojlanish davrlari cho‘zilishi, uzayishida o‘z ifodasini topgan[1]. Shunday, tashqi olam obyektlaridan atrofdagi kishilarni va o‘zini kech ajratish yetakchi faoliyatning ilk shakli - muloqotning tiklanishiga ta’sir o‘tkazgan, predmetli va o‘yin faoliyatida aks etgan.

Faoliyatning psixologik xususiyatiarini tavsiflar ekan. A.A. Krilov «Faoliyatning tashqi vositalari moslashuvi» nomli ishida faoliyatning

muvaffaqiyatliligi va natijaliligiga ko‘maklashadigan uchta tashqi vositasi haqida so‘z yuritadi: insonning ko‘rish, eshitish yoki boshqa sensor kanal orqali axborot olishini ta’minlaydigan vositalar; o‘zining harakat qobiliyatlari yoki ovozi vositasida axborot kiritishni ta’minlaydigan vositaiar; nihoyat, faoliyatninguyoki bu turini tanlashni ta’minlaydigan vositaiar[1]. Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchilarda axborot olish nafaqat tashqi, balki to‘liq axborotni ta’minlamaydigan ichki biologik sabablar, shuningdek, rivojlanish va harakat sohasini egallashning qiyinligi bilan bog‘liq. Bu ko‘rishda nuqsoni bo’lgan bolalarda faoliyatning turli shakllari kechishining o‘ziga xosligi va ularning umumiy psixik rivojlanishga ta’siri haqida fikr kiritishga imkon beradi. Biroq, birinchi navbatda, faoliyatning turli shakllarining ularning rivojlanishidagi qiyinchiliklarni yengib o‘tishdagi katta rivojlantiruvchi va kompensatsiyalovchi rolini ta’kidlash kerak.

Faoliyatning ko‘rish nuqsonlarini kompensatsiyalashdagi roli hozirda deyarli har bir tiflopsixologik tadqiqotda e’tirof etiladi. L.S.Vigotskiy buni madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida ko‘rsatib berdi. John n J. Rieser, Daniel H.Ashmed turli faoliyat shakllarini tashkil etish jarayonida ko‘zi ojizlarni rivojlantirish, kompensatsiyalash va reabilitatsivalash masalalari tashkil etadi[2].

Ko‘zi ojiz bolalarning ilk va maktabgacha yosh davrini genetik tadqiq qilish ko‘zi ojiz maktabgacha yoshdagi bolalarning kompensator jarayo;i!?ri shakllanishi hamda ularning umumiy psixologik rivojlanishida predmetli-amaliy, o‘yin va o‘quv faoliyatining rolini yoritib berdi. Faoliyatda yangi psixik tuzilmalar hosil bo‘ladi va u bolaning eng yaqin rivojlanish zonasini yaratadi.

Ko’rishda chuqur (og‘ir) nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun faoliyatning turli shakllari sekin shakllanishi xos. Ularning hammasi faoliyat elementlari, ayniqsa, uning ijrochilik qismiga maxsus yo‘naltirilgan o‘qitishga muhtoj, zero ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchiIaming harakat sohasi nuqsonga tobora yaqin va uning harakat sohasiga ta’siri eng kuchli bo‘ladi. Shu sababli yetakchi faoliyatning faol va rivojlantiruvchi roli ko‘p vaqtga cho‘ziladi. Masalan, maktabgacha yoshda ko‘zi ojizlarda yetakchi faoliyatning o‘zaro almashinadigan shakllari predmetli va o‘yin sanaladi (L.I. Solntseva), kichik maktab yoshida esa - o‘yin va o‘qish (D.M. Mallaev). Uch yoshgacha davrda ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning psixik rivojlanishda sezilarli orqada qolishi kuzatiladi, bunga sabab atrof olam haqidagi noaniq tasavvurlarda, predmetli faoliyatning terlicha rivojlanmaganligi, sekin rifojlanadigan amaliy muloqot, makonda orientirlanish (mo‘ljal olish) va mobillikdagi nuqsonlarda namoyon

bo‘ladigan ikkilamchi buzilishlar sanaladi[2].

A.M. Vitkovskaya shuningdek, predmetli harakatlar shakllanishi sur’ati sekinlashgani, ularni mustaqil faoliyatga ko‘chirishning qiyinligini ta’kidlaydi. Maktabgacha yosh davrida predmetli faoliyatning tiklanishiga uning motivatsiyasi va predmetlaming funksional vazifalarini tushunishni ta’minlaydigan nutq faol kirishadi. Tobora qiyin komponent ko‘zi ojizlaming manual qobiliyatlariga asoslangan ijrochilik funksiyasi bo‘lib qolaveradi, bu predmetli harakatlaming takomillashmagani natijasidir. Predmetning funksional vazifasini tushunish va predmet bilan muayyan harakatni amalga oshirish imkoniyati o‘rtasida katta tafovut kuzatiladi. Bu yoshda predmetli harakatni egallash ko‘p jihatdan ko‘zi ojiz bola va katta yoshli kishining hamkorlikdagi harakatiga asoslanadi, bunda k?tta yoshli kishining hamkorlik elementi yetakchi sanaladi. Biroq ko‘plab ko‘zi ojiz bolalarning mustaqil xulqida N.A. Bernshteyn juda primitiv va bir xildagi harakatlar bilan makon maydoni bosqichi deb sifatida tavsiflagan harakatlar kuzatiladi[3]. Ko‘rib taqlid qilishning yo‘qligi passiv harakatlarni o‘zlashtirish va takrorlash, ya’ni passiv harakatni propriotseptiv sezgirlik va harakatni bajarishni nazorat yordamida tahlil qilishni o‘z ichiga olgan nisbatan murakkab akt sanaladigan harakatga taqlid hisobiga kompensatsiyalanadi. U anchagina rivojlangan o‘z harakatlari va o‘rgatuvchi harakatlarini tahlil va nazorat qilish malakasiga tayanadi.

Kichik yoshdagi ko‘zi ojiz bolalarning jismoniy va psixik rivojlanishi o‘zaro bog‘liqligini kuzatar ekan, E.Meier ko‘rsatadiki, ko‘zi ojizlaming jismonan chaqqonligi cheklanganligi ularning psixik rivojlanish va aqliy qobiliyatlari darajasiga ta’sir etadi. Shu bilan bog‘liq holda ko‘zi ojizga imanipulyativ qobiliyatlarni rivojlantirishda yordam hamma vaqt ham ko‘nikmalarga oddiy o‘rgatishdan ko‘ra ko‘prog‘ini anglatadi. Shu tufayli kichik yoshdashgi ko‘zi ojizlarni va ko’zi ojizkarlami predmetli harakatlarga o‘rgatish amaliyotida qo‘llanadigan hamkorlikdagi va bo‘lingan harakat metodi turldi operatsiyalami va harakatlami ajratish, yagona harakatni uni tashkil etadigan harakatlarga bo‘lish va ulamng ketma-ketligini o’zlashtirish jarayoni sanaladi. Predmetli harakatlarga o‘zini o‘zi o‘rgatish ilk va maktabgacha yoshda, odatda, o‘yinchoqlardan foydalanish bilan bog‘liq. Ular bilan o‘ynash o‘yinchoqlarning vazifalari bilan tanishishni talab etadi va o‘yinchoqning o‘zida harakat faolligi namunasi mujassamdir. Predmetli harakatlami o’zlashtirishning qiyinligi shunga olib keladiki, hatto ko‘pchilik katta yoshdagi bolalarning spontan xulqi pretmetli-amaliy faoliyat darajasida qoladi.

A.N.Leontevning faoliyat psixologik nazariyasida predmetlilik yoki

predmet subyekt harakati qaratilgan obyekt sanalgan yadro sifatida ajratiladi[4]. Ko‘zi ojizlarning predmetli harakatlami o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklari faoliyatning barcha turlari, jumladan, o‘yinning ham tiklanishiga ta’sir o‘tkazadi. Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun xuddi ko‘radiganlari kabi tobora mustaqil faoliyat o‘yin sanaladi. Rivojlanishi anomaliyali bolalar hayotining senzitiv davrlarini qamrab olib, o‘yin ularning reabilitatsiya imkoniyatlarini oshiradi, ko‘zi ojizligi bilan bog‘liq nuqsonlami korreksiyalar va kompensatsiyalashga ko‘maklashadi.

Bolaning eng rivojlanish eng yaqin zonasi kabi o‘yin tiflopsixologiyada atrof olamni bilish usullarini har tomonlama rivojlantirish, shaxsda ijobiy sifatlami tarbiyalash vositasi sifatida qaraladi. Ammo ko‘rish analizatorining chuqur nuqsoni yoki funksiyasi cheklanishi o‘yin faoliyatining barcha strukturaviy komponentlarini egallashda qiyinchiliklar keitirib chiqaradi: bolalarda o‘yin syujeti, mazmunining qashshoqligi, o‘yin va amaliy harakatlar sxematizmi kuzatiladi. Ko‘rish nuqsonlari ishchan erkin muloqotni jiddiy tarzda murakkablashtiradi va qiyinlashtiradi. Ular uchun atrofdagilar bilan muloqotdan qochish, o‘zining ichki olamiga orientirlanish, «izolyatsiya» pozitsiyasini yaratish xos.

Ko‘rishda nuqsoni boigan bolalarning o‘yin faoliyati tiflopsixologik tadqiqotlarda turdi jihatlardan o‘rganiladi: uning kompensator jarayonlarni rivojlantirishda (L.I.Solntseva), ma’naviy sifatlami shakllantirish va o’smirlarning sinfdan tashqari ishlarda ijtimoiy faoliyatini rag‘atlantirishda (E.M.Sternina, I.P.Chigrinova), predmetli va o‘yin harakatlarini shakllantirishda (S.M.Xorosh), ko’rish idrokini rivojlantirishda (L.I.Plaksina), jismoniy rivojlanish va makonda orientirlanishda (V.A.Kruchinin, R.N.Azaryan, V.P.Nikitin), muloqot vositalarini korreksiyalash va rivojlantirishdagi (M.Zaorska) ijobiy rivojlantiruvchi roli ko‘rsatib berilgan. O‘yinda bolalarning ijtimoiy xulqi turli tiplari namoyon boiadi. D.M.Mallaev o‘yin faoliyatini amalga oshirishda ko‘rishda nuqsoni boigan uchun xarakterli boigan ijtimoiy munosabatlarning to‘rt darajasini ko‘rsatib beradi[4]. O‘yinda ijtimoiy xulq darajalari bolalarning o‘yin faoliyatini egallaganlik harakteri, o‘yin harakatlarini egallaganlik darajasi va syujet boyicha o‘yin g‘oyasining mavjudligi bilan nisbatlanadi. Bolalar o‘yin rivojlanishida bir necha bosqichni o‘tadi: o‘yin syujeti mavjud boimagani o‘yinchoqlar bilan holda nospetsifik harakatlar; o‘yin syujetisiz o‘yinchoqlar bilan elementar harakatlaming yuzaga kelishi; o’yin harakatlarining paydo boiishi va o‘yin g‘oyasining beqarorligi; o‘yin harakatlarini o‘yin g‘oyasi bilan nisbatlash

va g‘oyaga muvofiq harakatlanish ko‘nikmalarining shakllanishi. O‘yin jarayonida nizoli vaziyatlarning paydo bo‘lishi ko‘rish nuqsonlari boiganda ko‘p jihatdan hamkorlikdagi o‘yinni tashkil etish, o‘rtoqlari harakatlarini nazorat qilish, o‘ziga olingan rolni bajarishda funksional munosabatlarni tushunishning qiyinligi, o‘yin vaziyatini tushunishga kcrmaklashadigan maxsus aksessuarlarning mavjud emasligi bilan bog‘liq.

Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchilarni mehnat faoliyatiga kiritish va moslashishlari uchun quyidagi shart-sharoitlarni hisobga olish ijobiy natijalar beradi:

1. Ko‘rish nuqsoni va uning jismoniy va ruhiy asoratiarini toiiq hisobga olish mehnat turi va kasb turini tanlashda ota-ona va kasb tanlashga yordam beruvchi mutaxassislarning diqqat markazida bo‘lishi zarur.

2. Ko’rishda nuqsoni bo‘lgan bolaning mehnat faoliyatiga faol ravishda kirishi uchun mehnat faoliyatining dastlabki bosqiehlarida yuzaga kelishi mumkin bo’lgan o’ziga, hayotga, mehnat faoliyatiga ishonchsizlikni, salbiy munosabatni yengish. Bu ruhiy to‘siq depressiya yoki frustratsiya tarzida paydo bo’lishi mumkin. Bu bosqichda ko‘r shaxs «men endi ishga yaroqsizman, qo’limdan hech ish kelmaydi», kabi salbiy fikrlar tarzida namoyon bo’lishi mumkin. Ko’rish nuqsoniga ega kishilarda yuqorida keitirilgan salbiy shas sifatlarini bartaraf etish uchun ular bilan qator defektologo-pedagogik tarbiyaiy tadbirlar va treninglar o’tkaziladi.

3. K o’zi ojizlar iloji boricha kichik yoshlardan boshiab oidiy mehnat maiaka va ko’nikmalariga o’rgatib boriladi. Umuman mehnat tarbiyasi va kasb tan lash ishlari qancha erta boshlansa shuncha, ijobiy samara beradi. Buning uchun maxsus maktab-internatlarda kasb tanlash ishlari bilan shug’ullanish ishlari darajasini yuqori ko’tarish shu kunning dolzarb vazifasidir.

4. Ko’rishda nuqsoni bo’lgan bolalar bilan boshlang’ich sihflardan boshiab, har bir dars va darsdan tashqari jarayonlarda ijtimoiy mehnatga qiziqish uyg’otish har bir o’qituvchining burchidir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, faoliyat har doim shaxsning o‘ziga-o‘zi yashayotgan muhitga va birovga faol ravishda ta’sir etish, subyekt va obyektni o‘zgartirishga yo‘naltirilgan harakati tushuniladi. Faoliyat ko‘pincha ehtiyoj bilan bog‘liq bo‘lib, shaxs o‘zining qandaydir ehtiyojlarini qondirish uchun harakatga, izlanishga yoki faoliyat ko‘rsatishga majbur bo‘ladi. Motivlarsiz faoliyat bo‘lmaydi. Tashqaridan motivsiz ko‘ringan faoliyatni ham ong osti sohasida yillar davomida shakllangan motivlaming ta’siri natijasida yuz beradi. Masalan, ko‘zi

ojiz o‘quvchi maktabni bitirgandan so‘ng ota-onasi va boshqalarning noroziligiga qaramasdan tibbiyot bilim yurtiga kirishga urinadi. Nogiron o‘spirin bu istagi motivini asoslab bera olmaydi. Chuqurroq tekshirishlarda esa, oila a’zolarining tez-tez kasal bo‘lishi, o‘zining nogironligidan, nochor ahvoli uni shu hatti-harakatga yo‘naltirganligi aniqlandi. Shaxs faqat faoliyat jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Insoniyat hayotini faoliyatsiz tasavvur etib bo’lmaydi, u ongli, maqsadga yo‘naltirilgan bilan hayvondan farq qiladi. Ko‘rish nuqsonining kompensatsiyasida faoliyatning o‘rni katta bo’lib, ayniqsa, maktabgacha yoshda rejali, ongli va maqsadga yo‘naltirilgan tarbiya va taiim jarayoni katta samara beradi. Jismoniy va ruhiy nuqsonlami kompensatsiyalashda faoliyatning ahamiyati beqiyosdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. N.Z.Abidova Maxsus psixologiya (Tiflopsixologiya). -T.: «Barkamol fayz media», 2017, 192 bet.

2. Mo’minova L,N.Abidova va boshqalar.Maxsus Psixologiya.-T.: O’zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2013

3. Xaydarov F.I.,Xalilova N.I.Umumiy psixologiya.-T.,2009.

4. Jo’rayev.M Logopsixologiya va psixologiya korreksiya metodlari moduli bo’yicha. –Toshkent 2021

HASAN IMOMNAZAROV,
Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti mustaqil izlanuvchisi (PhD)

YOSH OILALARDA OILAVIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHNING MAFKURAVIY VA MA’NAVIY JIHATLARI

Oila - ijtimoiy, tabiiy omillar asosida shakllangan kichik jamoa sifatida ikki jinsga mansub bo‘lgan shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarning birga hayot qurib nasl qoldirish, faqat farzandni dunyoga keltirish emas, balki ularni ma’naviy va jismoniy kamol topdirib, hayotga mustaqil qadam qo‘yishiga sharoit yaratish, har bir shaxs o‘sib, ulg‘ayib, kamol topadigan maskan, tarbiya uchog‘idir. Har bir yigit-qiz nikohdan o‘tar ekan, bekamu-ko‘st oilaviy baxtga, xotirjam hayotga “to‘liq haqliman”, deb niyat qiladi, mehru-muhabbatlari nishonasi farzandlarini ahillikda tarbiyalab, voyaga yetkazish orzu-umidlari bilan oila quradilar. Ammo, o‘rganilgan tadqiqot natijalarini ko‘rsatishicha, 5-10 yillik oilaviy hayot muddatiga ega er-xotinlarning nikohdan oldingi kutilmalari bilan nikohning hozirgi holatidagi kutilmalari o‘rtasida sezilarli farq borligi aniqlandi.

Yosh oilalardagi oilaviy munosabatlar individual o’ziga xoslik va ijtimoiy hamjihatlikni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Mafkuraviy va ma’naviy jihatlar bu insonlararo munosabatlarni shakllantirishda muhim rol o’ynaydi, aloqa shakllari, qadriyatlari va umumiy oila dinamikasiga juda katta ta’sir ko‘rsatadi.

Oila barqarorligini ta’minlash, ibratli oilaviy munosabatlarni shakllantirish, oila a’zolarini ma’naviy boy va jismonan sog‘lom etib tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Bugungi kunda yosh oilalar ko’pincha o’z qadriyatlarini o’z oilalaridan meros bo’lgan e’tiqodlar va ular qabul qilgan yangi ideallar aralashmasiga asoslanadi. Bunga ota-ona tarbiyasi, gender rollari, ish va hayot muvozanati haqidagi qarashlar ham kiradi. Shuningdek, mafkuraviy asosga ko‘ra oilalarning shakllanishi, madaniy kelib chiqishi, ta’limi va ijtimoiy tendentsiyalari asosida ta’sir qilishi mumkin.

Ma’naviyat yosh oilaning dinamikasiga, qadriyatlarni, munosabatlarni va umumiy farovonlikni shakllantirishga sezilarli ta’sir ko’rsatishi, shuningdek, erta ota-onalik davridagi qiyinchiliklarga duch kelayotgan yosh oilalar uchun ma’naviyat yo’naltiruvchi kuch bo’lib xizmat qiladi. Shu o‘rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo’lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir.

Biz yangi O’zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi — bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi — ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat” – deb ta’kidlagan so‘zlarini yodga olmoqlikni o‘rinli deb bildim[46].

Ma’naviyat yosh oilalarni o’xshash qadriyatlarga ega bo’lgan qo’llab-quvvatlovchi jamoalar bilan bog’lashi, qo’shimcha manbalar va rag’batlantirish imkonini beradi. Oila sifatida jamoat ishlarida qatnashish rishtalarni mustahkamlashi va boshqalarga nisbatan mas’uliyat hissini uyg’otishi sababli ma’naviyatning yosh oilaga ta’siri chuqurdir. Ma’naviyat oilalarning qadriyatlarini shakllantiradi, munosabatlarni mustahkamlaydi va hissiy yordam beradi. Ma’naviy poydevorni mustahkamlash orqali oilalar qat’iyatlilik va birdamlik bilan erta ota-onalik davridagi qiyinchiliklarni engib o’tishlari mumkin, natijada ota-onalar va bolalarning har tomonlama rivojlanishiga hissa qo’shadilar.

Yosh avlodni ma’naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, allomalarning o‘giti, dono so‘zlari, fikrlarini qadrlash, o‘rganish, hayotda qo‘llash yoshlarni fikr va dunyoqarashini kengaytiradi. Yoshlarni oilaviy hayotga ma’naviy, hissiy-psixologik, ijtimoiy-huquqiy, psixofiziologik jihatdan tayyorlash, ijtimoiy fanlarning ilmiy qonuniyatlari haqida atroflicha va chuqur bilim berish bugungi davr toqazosidir. Aytib o‘tish mumkinki, yosh oila a’zolari uchun ma’naviy qadriyatlar qatori, milliy istiqlol mafkurasining vazifasi mustaqil tafakkur sohibi, ma’naviy barkamol, komil insonni shakllantirish, jamiyatni yot va begona g‘oyalar ta’siridan himoya qilish, ko‘p millatli xalqimiz ongida vatanparvarlik, insonparvarlik, qonunni hurmat qilish, el-yurt uchun fidoyilik, iymon-e’tiqod, halollik kabi yuksak ma’naviy sifatlarni shakllantirish, millatimiz shahnini butun dunyoda himoya qilishdan iborat.

Oila shakllanishining ma’naviy asosi oila ichidagi munosabatlarni shakllantirishda muhim rol o’ynaydi. Ma’naviyat umumiy e’tiqod, axloqiy yo‘l-yo‘riq, hissiy qo‘llab-quvvatlash va jamiyatdagi aloqalarni rivojlantirish orqali oila hayotini boyitadi va uning a’zolarining umumiy farovonligiga hissa qo‘shadi. Bu jihatlarga alohida e’tibor qaratish oilalarga hayot qiyinchiliklariga bardosh beradigan mustahkam va kuchli aloqalarni o’rnatishga yordam beradi.

Oilaning ma’naviy-axloqiy rivojlanishi, uning yo‘nalishlari va ustuvorliklari mutaxassislar va jamoatchilikning doimiy diqqat-e’tiborini

[46] O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nuqti (https://www.gazeta.uz)

talab qiladigan dolzarb muammolardir. Ularni tizimli sotsiologik tahlil qilish yo‘li bilan aniqlash mamlakatning o‘sib kelayotgan avlodini kamol toptirishda oilaning ijtimoiy rolini aniqlash, O‘zbekiston jamiyatining iqtisodiy va madaniy rivojlanishning jadallashtirishda oilaning tarbiyaviy va ma’naviy salohiyatidan foydalanishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi. Hozir nafaqat bizda, balki jahondagi barcha demokratik dunyoviy davlatlarda oilani mustahkamlash, tarbiyani yaxshilash, xotin - qizlar, bolalarning huquqlarini himoya qilish, jismoniy va ma’naviy sog‘lom avlodni tarbiyalash masalalariga e’tibor qaratilmoqda. Mashhur jadidchilarimizdan Abdurauf Fitrat shunday degan: «Har bir oilaning saodati va izzati shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millatlar ham shuncha kuchli bo‘ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsiz va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo‘l qo‘ysa shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi» – deya, o‘z fikrlarini bildirib o‘tgan.

Oilaviy burch muhim axloqiy-ma’naviy qadriyat hisoblanib, har bir shaxsning jamiyat oldidagi fuqarolik, ota-ona oldidagi farzandlik, xalq, millat oldidagi insonparvarlik, jamoatchilik oldidagi odamiylik vazifalarini bajarish demakdir. Burch – ado etilishi majburiy bo‘lgan insoniy vazifalar va insoniylik yuzasidan bajarilishi mumkin bo‘lgan axloqiy qoidalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Ota-onaning farzand oldidagi, jamiyat oldidagi burchi, farzandning ota-ona oldidagi burchi, insoniyatning o‘tmish merosini asrash va kelgusi avlodlarga yetkazish burchi, millat oldidagi, kelajak avlod oldidagi burchi, tabiatni asrash burchi, vatan oldidagi burch - majburiy vazifalardir.

Yosh oilalarda oilaviy munosabatlarning g‘oyaviy-ma’naviy jihatlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning bir-biri bilan qanday munosabatda bo‘lishiga va hayot qiyinchiliklarini yengishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu o’lchovlarni tushunish orqali yosh oilalar sog’lom munosabatlarni rivojlantirishi, shaxsiy o’sish uchun qo’llab-quvvatlovchi muhit yaratishi va mustahkam oila birliklarini qurishi mumkin. Ochiq muloqot va umumiy qadriyatlarni ta’kidlash oilaviy rishtalarni mustahkamlashi va umumiy farovonlikka hissa qo’shishi mumkin.

Oiladagi muhim masala yoshlarda sog‘lom oila haqidagi tushunchani shakllantirishdadir. Yoshlar oilaning buyuk ma’naviyat, qadriyat burch va ma’suliyat ekanini anglab yetishlari zarur. Oiladagi er-xotinlik munosabatlari, mustahkam oila qurish shartlari, omillari borasida yoshlarimizni yuksak salohiyatli, tasavvurlarini kengaytirish, ularning

o‘rni va ahamiyati haqida nikohdan oldin to‘g‘ri va o‘rinli tushuncha berishni toqazo etadi. Shundagina sog‘lom oila – sog‘lom bola va sog‘lom jamiyat kelajagi kafolatlanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nuqti (https://www.gazeta.uz)003B
2. Oila ma’naviyati. - Toshkent, 2007;
3. “Turkiston” gazetasi - www turkiston sarkor. Uz;
4. Davlat, jamiyat, oila va yoshlar muammolari. (Davlat, jamiyat, oila va yoshlar muammolari Respublika konferensiyasi materiallari). – Toshkent: O‘zbekistan, 1997;
5. Mavrulov A. Ma’naviy barkamol inson tarbiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2008;
6. Yoshlar oilaviy hayot bo‘sag‘asida. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2000.

AHADJON JO‘RAYEV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti
tayanch doktoranti

GLOBALLASHUVNI YOSHLARNING SIYOSIY ONGI VA FAOLLIGIGA TA’SIRI

Zamonaviy jamiyat eng yangi axborot-kommunikatsiya tizimlari va texnologiyalarining rivojlanishi tufayli global o’zgarishlarni boshdan kechirmoqda. “Raqamli” (davr, sivilizatsiya, iqtisod, siyosat, shaxs, boshqaruv, mehnat, ta’lim va boshqalar) asosiy tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lgan bu o‘zgarishlar yangi voqelikni, yangi shaxsni va yangi jamiyatni yaratadi.

Hootsuite xizmati ma’lumotlariga ko’ra, dunyoda 5,1 milliarddan ortiq noyob mobil foydalanuvchi (bu Yer aholisining uchdan ikki qismi), global Internet auditoriyasi 4,4 milliard kishini (deyarli 60%) tashkil etdi, 3,5 milliard foydalanuvchi ro’yxatga olingan (45% - bu yerda yil davomida o’sish deyarli 370 million kishini tashkil etdi). Dunyodagi odamlar har kuni o‘rtacha 6 soat 42 daqiqa internetda bo‘lishadi [1].

Yuqoridagi ma’lumotlarga asoslanib, shuni ta’kidlash mumkinki, dunyodagi odamlarning 50 foizdan ortig‘i rivojlanayotgan raqamli jamiyatda yashamoqda.

Amerikalik olimlar E.Makafi va E.Brinolfsonlarning “Mashina, platforma, olomon. Raqamli kelajagimiz” mavzusidagi tadqiqotida raqamli dunyo rivojlanishining ikki bosqichini ochib berdi. Birinchi bosqichda (1990-yildan 2010-yilgacha) raqamli texnologiyalarning rivojlanishi tufayli ko’plab muntazam operatsiyalar (sanoatda, ma’lumotlarni qayta ishlash, hisoblash va boshqalar) avtomatlashtirildi, bu esa mehnat unumdorligini oshirishga olib keldi. 2010-yillarda boshlangan va hozirgacha davom etayotgan ikkinchi bosqichda raqamli texnologiyalar ilgari dasturlash imkonsiz bo’lgan narsalarni qila boshladi (kasalliklar, ijodiy ish - musiqiy asarlar yaratish, matnlar, dizayn) [3].

Agar ilgari odam ma’lumot qidirishga ko’p vaqt sarflagan bo‘lsa, rivojlanayotgan raqamli jamiyat sharoitida bu vazifa ancha osonlashdi. Axborotni samarali qidirish, filtrlash va tahlil qilish, uning turli manbalari bilan ishlash, zamonaviy axborot oqimi bilan ishlash madaniyatini bolalikdan shakllantirish qobiliyati raqamli jamiyatda insonning muvaffaqiyatli yashashi uchun shartdir.

Bu haqiqat siyosat olamidan chetda qolmadi. Zamonaviy siyosatchi, qoida tariqasida, ijtimoiy tarmoqlarda, bloglarda profillarga ega bo‘lishi

kerak (agar o‘zi bo‘lmasa, unda yollangan mutaxassislar yordamida). Bunga sabab – auditoriya, ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlod vakillari bilan muloqot qilishning bunday usuliga bo‘lgan talab, asta-sekin an’anaviy ommaviy axborot vositalaridan (jurnal, gazeta, televideniye) uzoqlashayotgani, bu turli so‘rovlar va media tadqiqotlari bilan tasdiqlanadi.

Siyosatchining raqamli profilini yaratish va qo‘llab-quvvatlash, uning maqsadi auditoriyani o‘z axborot maydonida ushlab turish yoki hatto ma’lum bir odamlar guruhi uchun “fikr yetakchisi” bo‘lish raqamli jamiyatning muhim hodisasidir. Natijada, ba’zi odamlar uchun belgilangan raqamli profil uning do‘stlari va oila a’zolariga qaraganda yaqinroq bo‘lishi mumkin. Odamlarni bu siyosatchining shaxsiy hayoti, sevimli mashg‘ulotlari, kimlardir (biror narsa) haqidagi fikrlari, voqealarga munosabati, uning turdagi muxlislariga aylanishi qiziqtiradi. Ilgari an’anaviy ommaviy axborot vositalari, xotiralar yoki mish-mishlardan o‘rganish mumkin bo‘lgan narsalarni endi istalgan vaqtda to‘g‘ridan-to‘g‘ri (tasdiqlangan) manbadan, deyarli onlaynda olish mumkin.

Ko‘pincha siyosatchining raqamli profili ko‘p qirrali bo‘lib, maksimal auditoriyaga erishish uchun bir nechta turli onlayn platformalardan foydalanadi. Twitter, Facebook, Youtube, Telegram - bu va boshqa mashhur platformalar faol foydalaniladi, ular birinchi navbatda ma’lumotlarni joylashtirish va profilni saqlash usullari bilan farqlanadi. Turli tarmoq platformalarining kombinatsiyasi o‘z nuqtai nazaringiz va ma’lumotlaringizni turli xil saylovchilar guruhlariga (foydalanuvchilarga) ular uchun qulay shaklda yetkazish imkonini beradi.

Kichik yangiliklar, qiziqarli fikrlar, video va fotosuratlar formati, mikrobloglar ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlardagi yangiliklar lentasida aralashtiriladi va u yoki bu turli xil profillar va guruhlarga obuna bo‘lish orqali mustaqil ravishda sozlanishi mumkin bo‘lgan nisbatlarda taqdim etiladi. Ammo shu bilan birga, yangi imkoniyatlar va texnologiyalar paydo bo‘ldi, ulardan 2013-yilda asos solingan Cambridge Analytica xususiy Britaniya kompaniyasi tomonidan Internetda saylovoldi tashviqotini olib borish jarayonida strategik kommunikatsiyalarni rivojlantirish uchun muvaffaqiyatli foydalanildi.

Ushbu tashkilot o‘z faoliyatida uchta zamonaviy texnologiyadan foydalangan: Big Data, ijtimoiy-psixologik xatti-harakatlar tahlili (OCEAN modeli) va maqsadli reklama texnologiyalari. Big Data - bu har qanday foydalanuvchi tomonidan internet va ijtimoiy tarmoqlarda qoldirilgan “oyoq izlari”ni tahlil qilish tizimi. “Katta beshlik” nomi bilan tanilgan OCEAN psixologik profillash modeli (Openess-

ochiqlik, Conscientiousness-vijdonlilik, Extraversion-ekstraversiya, Agreeableness-xayrixohlik, Nevrotizm-nevrotizm) o‘tgan asrda ishlab chiqilgan.

Psixolog va sotsiolog R.Epshteyn bir qator eksperimentlardan so‘ng Google qidiruv tizimi AQSh prezidentlik saylovlari natijalariga ta’sir o‘tkazishga qodir ekanligini ko‘rsatdi. Uning tajribalarida 2 mingga yaqin odam ishtirok etdi. Natijada olim ko‘pchilik foydalanuvchilar saytda paydo bo‘ladigan faqat birinchi ikkita havola orqali o‘tishini aniqladi. Epshteyn qidiruv natijalarini Google qidiruv tizimi tomonidan ma’lum bir so‘rov uchun chiqarilgan dastlabki ikki qatorda o‘zgartirdi.

Ma’lum bo‘lishicha, tadqiqot ishtirokchilarining 80 foizi ma’lum bir masala bo‘yicha faqat qidiruv tizimining yuqori qatorlaridagi ma’lumotlarga tayangan holda o‘z fikrini o‘zgartirgan va qidiruv tizimining har o‘ninchi foydalanuvchisidan faqat bittasi qidiruv natijalarining ikkinchi sahifasiga tashrif buyurgan. Shunday qilib, tadqiqotchining fikricha, Google saylovlarda u yoki bu nomzodga xayrixohlik bildirgan holda, internet foydalanuvchilarining ongi va siyosiy tanlovini manipulyatsiya qilishi, shuningdek, sayyoramizning chorak qismidagi saylovlarda ularning saylovoldi qarorlariga ta’sir o‘tkazishi mumkin [4]. Moderatorlarning o‘z ijtimoiy tarmog‘ining yangiliklar lentasini tanlashdagi tarafkashligini Facebook asoschisi M.Sukerberg ham e’tirof etgan.

XX asrning o‘rtalariga qadar siyosiy ishtirok saylov jarayonlari va davlat boshqaruvida ishtirok etish sifatida tahlil qilingan. Amerikalik siyosatshunoslar S.Verba va N.Naylar bu tushunchani kengaytirdilar. Siyosiy faoliyat muammolarini tahlil qilib, ular siyosiy ishtirokning quyidagi turlarini aniqladilar: fuqarolar siyosiy xulq-atvorining mutlaqo passiv shakllari; fuqarolarning faqat vakillik organlari saylovida ishtirok etishi; shaxslarning faqat mahalliy muammolarni hal qilishda ishtirok etishi; o‘z faoliyatini butun siyosat sohasiga yoyadigan siyosiy faollarning xatti-harakati; saylov kampaniyasining faol ishtirokchilarining siyosiy xulq-atvori; ishtirok etish siyosatchining professional faoliyati shakli sifatida [5]. Siyosiy faoliyatning asosiy omillari sifatida ular fuqarolarning ijtimoiy-demografik xususiyatlarini hisobga oladi.

1990-yillarda ommaviy Internetning rivojlanishi bilan u asta-sekin haqiqiy siyosat vositasiga aylanib bormoqda. Internetning siyosiy hayotdagi rolini birinchi tadqiqotchilardan biri L.Grossman qarorlar qabul qilish jarayoniga butunjahon Internet tarmog‘ining jamiyatni “qo‘shish” qobiliyatini tan oldi [6]. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli platformalar siyosiy jarayonlarda ishtirok etish uchun yangi muhim platforma sifatida qaralmoqda.

Binobarin, internet, bu pozitsiya tarafdorlari fikricha, nafaqat kengayib, balki siyosiy ishtirokni chuqurlashtiradi, chunki yoshlarning salmoqli qismining siyosiy qarashlarini shakllantirish birinchi navbatda raqamli infratuzilmaga asoslanadi. Darhaqiqat, Internet va ijtimoiy tarmoqlar o’zlarining noyob imkoniyatlari tufayli jamiyat qurilishiga hissa qo‘shishi mumkin, bu ularga geografik masofa, irqiy, yosh, gender to‘siqlari, vaqt zonalari va kundalik tartiblarni yengib o‘tishga imkon beradi. Internet aloqalari ham xabarlarni yozib olish imkoniyati tufayli aniqroq “xotira effekti”ga ega [7]. Bularning barchasi fuqarolar o’rtasida o‘zaro tushunish, bag‘rikenglik, boshqa qarashlar va xatti-harakatlar normalarini qabul qilishga tayyorlik, umumiy qadriyatlarni rivojlantirish va boshqalar uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Agar rivojlanishning dastlabki bosqichida Internet iste’molchilari asosan oliy ma’lumotli va siyosiy faol fuqarolar bo‘lgan bo‘lsa, so‘nggi 10-15 yil ichida Internetni ommaviylashtirish va tijoratlashtirish natijasida madaniy, Internet auditoriyasining ta’lim, yoshi va kasbiy darajasi, Internetdan foydalanish, tijoratlashtirish va ko‘ngil ochish tendensiyasi uni jamiyatning ko‘zgusiga aylantirdi, u boshqa narsalar qatori inson tabiatining past tomonlarini ham aks ettiradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, raqamlashtirish jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiyot, siyosat, kommunikatsiya, ijtimoiy-ma’naviy hayotni raqamlashtirish jarayonlari va natijalari gumanitar va ijtimoiy fanlar oldiga yangi, nihoyatda jiddiy va ma’lum ma’noda ekzistensial vazifalarni qo‘ymoqda.

Zotan, yosh avlod, aksariyat hollarda, ma’lumotni o‘zidan oldingilar qanday qabul qilgan bo‘lsa, shunday idrok eta olmaydi. Agar ilgari ta’lim axborot manbai rolini o‘z zimmasiga olgan bo‘lsa, raqamli jamiyatda “Internet an’anaviy ommaviy axborot vositalari va siyosiy reklama funksiyalarini bajaradi” va Internet, messenjerlar, ijtimoiy tarmoqlardan olingan ma’lumotlarni to‘g‘ri qidirish, filtrlash va tahlil qilishni o‘rganishga ustuvor ahamiyat beriladi.

Agar ilgari yoshlar an’anaviy ommaviy axborot vositalaridan mamnun bo‘lsa (yoki yo‘q) bo‘lsa, bugungi kunda turli xil axborot manbalari unga uning qiziqishlari, afzalliklari va muloqot qilish istagiga mos keladigan axborot manbalari foydasiga tanlov qilish imkonini bermoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda axborot va yoshlarga oid siyosatdagi o‘zgarishlar har qachongidan ham muhim, jumladan: bolalar, o‘smirlar, yoshlar va ularning ota-onalari uchun media-ta’lim va tarbiyani tashkil etish, umummilliy bolalar va o‘smirlar media infratuzilmasini shakllantirish, raqamli muhitda yoshlar fikri yetakchilari, blogerlar bilan

ishlash, shuningdek, yoshlarning siyosiy faolligini davlat va siyosiy partiyalar yoshlar siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirish muhim omillar hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Brynjolfsson E., McAfee A. Machine, platform, crowd: harnessing our digital future. N.Y., 2017. 402 p.

2. Grossman L.K. The Electronic Republic: Reshaping Democracy in the Information Age. N.Y.: Viking Penguin, 1995. 290 p.

3. Verba S., Nie N.H. Participation in America: Political Democracy and Social Equality. New York: Harper & Row, 1987. 451 p.

4. Введение термина «цифровизация» связывают с работой американского ученого Н. Негропон-те, который в 1995 году в работе «Жизнь в цифровом мире» сделал попытку описать, что представляет собой наступающий цифровой мир [5, с. 189].

5. Дзялошинский И.М., Мастерова Ю. Медиа и социальная активность молодежи // Медиа. Информация. Коммуникация. 2012. №3. http://mic.org.ru/vyp/3-nomer-2012/mediai-sotsialnaya-aktivnost-molodezhi/?sphrase_id=30150.

7. “Угроза беспрецедентных масштабов”: как Google манипулирует избирателями по всему миру. https://russian.rt.com/science/article/329372-kak-google-manipuliruetizbiratelyami 31 октября 2016.

ILXOMJON RAXIMOV
O‘zMU tadqiqotchisi,
Farg‘ona politexnika instituti o‘qituvchisi

MAHALLALARDA IJTIMOIY-MA’NAVIY MUHITNI SOG‘LOMLASHTIRISHDA YOSHLAR TARBIYASINING O’RNI VA AHAMIYATI

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, yoshlar masalasiga oid dastlabki qarashlar qadimgi yunon mutafakkirlari Arastu va Aflotun asarlarida uchraydi. Ularda yoshlarni vatanparvarlik tuyg‘usida tarbiyalash to‘g‘risidagi fikrlar talaygina, jumladan; Arastu qonunlarni ishlab chiqishda yoshlar tarbiyasi masalasiga jiddiy e’tibor qaratish lozim, aks holda bunday davlatning kelajagi bo‘lmaydi deb hisoblagan[1].

Demak, yoshlar muayyan davlat barqarorligini ta’minlovchi kuch sifatida e’tirof etilganini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu yondashuvlar keyinchalik davlat siyosatida yoshlarning o‘rni va ahamiyatini aniqlashtirishning nazariy metodologik asoslari uchun zamin bo‘ldi. Shunga o‘xshash yondashuv Aflotun qarashlarida ham uchraydi[4].

XXI asrga kelib mahallalarda yoshlar tarbiyasi masalasi davlatimiz siyosatining bosh bo‘g‘iniga aylanib ulgurdi. Bunday holat esa erkin, demokratik fuqarolik jamiyatida yoshlarga oid davlat siyosati yoki mahallalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish masalasi qanday amalga oshirilmoqda, bu borada qanday muammolar bor, ularni qanday hal qilishimiz kerak degan savollarga javob izlash har birimizning fuqarolik burchimizdir. Bu borada ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning roli va ahamiyati kundan kun oshib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalarni modernizatsiya qilish va yangilash jarayonlari yangi bosqichda jadal olib borilmoqda. Bugungi siyosiy islohotlarimizning mazmuni talablaridan kelib chiqib, yurtimizdagi ko‘pgina davlat va nodavlat tashkilotlar faoliyati yanada takomillashmoqda. Mahallalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish doirasida, O‘zbekiston yoshlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning xuquq va erkinliklarini ta’minlash, kuch-g‘ayrati va salohiyatini bunyodkorlik ishlariga yo‘naltirish, zararli yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolmasliklari, barkamol inson bo‘lib kamolga yetishishlari uchun shart-sharoitlar yaratish yo‘lini tutdi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning yoshlarga qarata “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyida so‘zlagan nutqi va 2019-yilning mart oyida yoshlarni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan Prezidentimizning beshta muhim tashabbusi yoki “Yoshlarga

oid davlat siyosati to‘g‘risidagi[8]” qonunlarda keltirilgan vazifalar fikrimizga asos bo‘lib xizmat qiladi. Mahalladagi har qanday yoshlarni (uyushgan yoki uyushmagan) ma’naviy barkamol, milliy qadriyatlarimiz asosida ma`naviy boy qilib tarbiyalashda mahallaning ko‘magi birinchi navbatda zaruratga aylandi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida ham, “ma’naviyat – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, ahloqiy, diniy tasavvurlarini o‘z ichiga oladi” deb ta’kidlangan.

Mahallalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish borasida yoshlar bilan ishlash tizimini manzilli tashkil qilishning quyidagi asosiy yondashuvlarni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir:

1. Huquqiy yondashuv, siyosat sub’yektlari tomonidan me’yoriy-huquqiy normalarni ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lib, mazkur yondashuv doktrinal xususiyatga ega. Bunday yondashuvda yoshlarga doir siyosat tor ma’noda tushiniladi.

2. Sotsiologik yondashuv, ijtimoiy siyosatning muhim elementi sifatida qaraladi. “Ma’nan barkamol, jismonan sog‘lom, jamiyatda demokratik islohotlar davrida ta’lim muassasalari bitiruvchilari bandligini ta’minlash, yosh avlodni ijodiy va intelektual salohiyatini rivojlantirish, yosh oilalarga ijtimoiy maishiy sharoitlarni yaratish, ijtimoiy siyosatning asosiy qirralarini aks ettiradi. Mazkur siyosatni amalga oshirishda davlat boshqaruv organlari, ta’lim muassasalari, yoshlar tashkilotlari su’bekt sifatida faoliyat yuritishadi[3]”. Bu esa mahallalarda ijtimoiy ma’naviy muhit borasida yoshlarning siyosiy bilim masalasi ham muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Shuuningdek, yoshlar uchun eng jiddiy muammo siyosiy va huquqiy madaniyat pastligi, o‘z mahallasidagi tadbirlarga loqaydligi, saylov jarayonlariga beparvolik va chetga chiqib qolish holatidir. Buning uchun jamiyatda mavjud bo‘lgan stereotiplarni o‘zgartirish kerak, chunki, asosiy masala mahalla faoliyatida ishtirok etish yoki ishtirok etmaslikda emas, balki, jamiyatga dahldorlik hissini his qilishdadir. Ta’kidlash kerakki, “Bugungi kunda insoniyat duch kelayotgan ko‘plab muammolar-tinchlik va xavfsizlikka tahdidlar, terrorizm va ekstremizm, irqchilik, iqlim o‘zgarishlari, shuningdek COVID-19 pandemiyasi o‘zaro kelishilgan global hamkorlikni va mavjud muammolarni hal etish jarayonlariga yoshlarini faol jalb etilishini talab etmoqda. Shu munosabat bilan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O‘zbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilgan Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning qabul qilinishi jahondagi ikki milliarddan ortiq yigit-qizlarning haq-huquqlarini ta’minlashda muhim ahamiyatga egadir. U yosh avlodni ma’rifiy ruhda tarbiyalash, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning manfaatlarini himoya qilish, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratishdek

ezgu maqsadlarga xizmat qiladi. Ushbu tashabbus xalqaro jamoatchilik tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanmoqda[5]”.

Shuning uchun ham asosiy e’tiborni shakllanib kelayotgan yoshlar tarbiyasiga qaratish shu kunning eng dolzarb va kechiktirib bo‘lmas vazifalaridan biri ekanligini anglashimiz lozim. Ma’naviy jihatdan rivojlangan insonni tarbiyalash, ta’lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg‘onish g‘oyasini ro‘yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish zarur. Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularning dunyoqarashini boyitish maqsadida beshta tashabbus bugun hayotimizga keng tadbiq qilinmoqda. Besh tashabbus mamlakatimizda yashayotgan barcha aholi, jumladan, yosh avlodning ma’naviyatini boyitish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishda dastur-ul amal bo‘lib xizmat qilmoqda va har qanday nosog‘lom ijtimoiy muhit va tahdidlarni ilm, ma’rifat, kitob, shijoat, jismoniy baquvvatlik, sabr-bardosh bilan yengish mumkin, degan qat’iyatni yoshlarimizning ongiga singdiradi.

Har bir mahallada yoshlarni mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga qaratilgan, mahallaning kanvoyi otaxon- onaxonlari bilan yoshlar o‘rtasida davra suhbatlari tashkil etish yaxshi samara beradi. Mahallada voyaga yetib kelayotgan yoshlarning oilada, mehnatda, o‘qishda, jamiyat hayotidagi xatti-harakatlari ma’naviy madaniyat mezonlari bilan o‘lchanadi. Agarda yoshlar tarbiyasida ana shu umumiy zanjirning birorta tizimida uzilish ro‘y bersa, bunda voyaga yetayotgan yoshga ham, jamiyatga ham ma’lum darajada zarar yetadi. Bunday jarayonlar mahallalardagi har bir fuqaroning loqaydligi, jamoatchilik nazoratining manzilli joriy qilinmaganligi natijasida mahallalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitning buzilishi, jinoyatchilikni keskin ortib borishi tashvishli holatdir. Ma’naviy muhit har bir yoshning birinchi qadamidan, “qush uyasida ko‘rganini qiladi” deganidek, mahallada, oilada, ota-ona, aka-uka, opa-singil namunasidan boshlanadi. Sekin-asta bog‘cha va maktabda beriladigan ahloqiy saboqlar natijasida jamiyatdagi aloqalarning tobora kengayib borishi orqali butun umri davomida sayqallanib boradi. Shuningdek, mahallalarda yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, ularga oq-qorani ajratishlarida mahalladagi professor o‘qituvchilarning o‘rni beqiyosdir. Mahallalarda jamoatchilik asosida mahalla yoshlari uchun aynan professor o‘qituvchilar biriktirilishi pedagogik nuqtai nazardan ijobiy ta’sir qiladi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday deganlar; “Professor-o‘qituvchilarning eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta bilim berish, ularni jismoniy va ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir[7]”. Yangi O‘zbekistonga ma’nan

yetuk, jismonan baquvvat va o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan, ayniqsa jamiyatga daxldorlik hissi bilan to‘yingan yoshlar jamiyatimiz farovon hayotimiz uchun muhim ahamiyatga egadir. Mamlakatimiz yoshlari Yangi O‘zbekistonimizning kelajak taqdirini hal qiluvchi, jamiyatni lokomotivi, uni modernizatsiya qilishga qodir bo‘lgan sog‘lom kuchlardir. Yurt kelajagi hozirda tarbiyalanayotgan, sog‘lom fikrlashga o‘rgatilayotgan, tafakkuri sog‘lom kadrlar qo‘lida. “Yoshlarimiz shu narsani unitmasliklari kerakki, zanjirsiz qo‘l abjir, kishansiz oyoq ildam, qulfsiz til burro, erkin dil balandda parvoz qiladi”. Shuning uchun erkin fikrlashga, har ko‘rgan va eshitgan narsasini tafakkur qilib, o‘ylab filtrlab keyin boshqalar bilan ulashishlari kerak. Ko‘r ko‘rona eshitganini ommaga yoyish, birov nima desa unga ergashib ketavermaslik darkor.

Prezident Sh.Mirziyoyev o’z ma’ruzasida “Bugungi O‘zbekiston – bu kechagi O‘zbekiston emas”, deb ko‘p gapiramiz. Buning isbotini avvalo, yoshlarimiz siymosida, ularning yutuq va g‘alabalarida ko‘ramiz”, deb yoshlarning faolligini oshirish masalasi dolzarbligini alohida ta’kidlab o‘tdi[2]. Zero yurtimizda amalga oshirilib kelinayotgan demokratik islohotlardan asosiy maqsad yoshlarning yuksak madaniyat va sog‘lom ma’naviy muhitni yaratishimizdir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2024-yil 5-fevraldagi videoselektor yig‘ilishidagi tashabbuslari asosida ota-onalar va mahalla faollari ishtirokidagi “maktab-ota-ona-mahalla” hamkorligi yangicha ko‘rinishda tashkil etildi. Shu maqsadda o‘quvchilarning darsda ishtirok etish ko‘rsatkichlari haqqoniyligini ta’minlash uchun e.maktab elektron kundalikka o‘qituvchilar va sinf rahbarlari tomonidan o‘z vaqtida qaydlar kiritib boriladi. Yurtimizdagi maktablar mas’ullari tomonidan o‘quvchilarning yashash manzillariga tezkor ravishda “Ogohlantirish xati” yetkazish amaliyoti joriy etilmoqda. Bu orqali darsda ishtirok etmayotgan o‘quvchilar oila a’zolarining mas’uliyati va javobgarligini ham oshirish maqsad qilingan.

Mahallalardagi barcha yoshlarni har tomonlama yetuk, milliy vatanparvar inson qilib tarbiyalashda eng avvalo, ta’lim-tarbiya va mahalladagi jamoatchilik nazoratining o‘rni muhim ahamiyatga egadir. Bu borada, yoshlarga ta’lim-tarbiya berishning qonuniy asoslari belgilab berildi, jumladan; 2023-yil 30-aprel sanasida bo‘lib o‘tgan Referendum asosida qabul qilingan Konstitutsiyamizning 79-moddasida Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi. Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda

rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi[9]. Asosiy qonunimiz orqali yoshlar haq-huquqlarini kafolatlanishi fuqarolik jamiyatiga xos bo’lgan jarayondir.

Bugun yer yuzida aholi soni 8 mlrd bo‘lsa shundan 5 mlrd dan ortiqrog‘i internet foydalanuvchilari hisoblanadi. Mahallalarda yoshlarining ijtimoiy ma’naviy nosog‘lom muhit ta’siriga tushib qolishda aynan axborot almashinivuning kuchayishi bu orqali yoshlar ongida “ommaviy madaniyat” tushunchasi paydo bo‘lib, u o‘sib kelayotgan yosh avlod dunyoqarashida turli xil yot unsurlarni shakllanishiga ta’sir etib kelmoqda. Internetdagi ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarga salbiy ta’sir etuvchi xususiyatlari mavjuddir. Psixologlarning mulohazalariga ko‘ra, o‘smirlik shaxsning fiziologik va ijtimoiy rivojlanishidagi o‘ziga xos davri bo‘lib, bu davrda o‘smirlar agressiv ruhdagi tomoshalarga, onlayn o‘yinlarga berilsa, bu noxush oqibatlarga olib kelishi qayd etilgan. Shuningdek, Yevropa global tarmog‘ida buzg‘unchi saytlar mavjudligi hamda virtual firibgarlik ta’siriga tushib qolishi mumkinligini inobatga olmagan yoshlar turli internet saytlarga kirishi tufayli ruhiy va hatto jismoniy salomatligiga ziyon yetkazuvchi axborotlarga duch kelmoqda. Xususan ijtimoiy tarmoqlarni yoshlar orasida keng tarqalishi, tabiiy ravishda bu holatni ilmiy jihatdan asosli tarzda o‘rganish, tadqiq etish zaruratini tug‘dirmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko’ra mamlakatimizda 21443 ta jinoiy ish yoshlarimiz ijtimoiy tarmoqlardan to‘g‘ri foydalanmaganligisodir bo’lgan. Shuning uchun virtual olam axborot olamining bunday jadallik bilan rivojlanayotganligi unda salbiy g‘oyalar oqimining ko‘payayotganligini inobatga olgan turli davlatlar tomonidan axborot xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan davlat dasturlari ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiq etilmoqda. Oxirgi yillarda Respublikamizda yoshlar qatlami bilan bog‘liq iboralarga tez-tez guvohi bo‘lib turibmiz, ular orasida “uyushmagan yoshlar” degan tushuncha anchayin keng ommalashganini guvohi bo‘lamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev uyushmagan yoshlar terminini “Uyushmagan, ya’ni, ishlamaydigan, o‘qimaydigan, tayin bir mashg‘ulotga ega bo‘lmagan, salbiy ta’sirlarga beriluvchi yoshlar[6]” deb ta’kidladi. Shuning uchun ham barcha yoshlarni ta’lim-tarbiya olishlari uchun barcha sharoitlarni yaratish, ularni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil qilish kabi belgilangan vazifalarni vijdonan bajarish davr talabi bo‘lib, mahalalardagi tinchlik, barqarorlikka xizmat qiladi. “Xatar guruhi”ga mansub yoshlar jamiyatning tinch-totuv, farovon turmush kechirishiga

ma’lum ma’noda xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan qatlam bo‘lib, ularni jamiyatga uyushtirishning eng maqbul yo‘li turli soha mutaxassislari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, “Xatar guruhi”ga mansub yoshlarni maqsadli ravishda manfaatli sohalarga jalb etishdan iboratdir. “Xatar guruhi”ga mansub yoshlarni har biri bilan individual manzilli tarzda profilaktika inspektori va yoshlar yetakchisi ish olib bormas ekan mahallalarda jinoyat ko’lami kundan-kun ko’payib boradi.

Shuningdek, mahallada ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lom-lashtirishga qaratilgan va ma’naviy sohada aniq mexanizmlarini yaratish zarur. Ushbu jarayonlar quyidagi yo‘nalish sifatida belgilanishini nihoyatda muhimdir: Birinchidan, ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishda kitobni alohida o‘rni bor, shuning uchun, aholi, ayniqsa, yoshlarni kitobxonlik madaniyatini shakllantirish yo‘nalishida aholi va yoshlar o‘rtasida kitob mutolaa qilishi hamda sevib o‘qiydigan kitoblarini sotsiologik so‘rovnoma asosida o‘rganib, har bir mahalla binosining ichida kutubxona tashkil etishni asosiy vazifa qilib belgilash zarur. Shu bilan birga, aholi o‘rtasida kitob o‘qishga qiziqtirish usullarini amalda joriy qilish orqali aniq va manzilli ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, bugungi kunda mahallalarda oilaviy ajrimlarning soni ortib borayotganligini inobatga olgan holda, uni oldini olish uchun ajrashish arafasida turgan yoki ehtimoli yuqori bo‘lgan oilalar bilan alohida ishlashni yo‘lga qo‘yish kerak. Bunda, bu kabi oilalarni uchun, psixologik treninglarni tashkil etish va ushbu jarayonlarga din sohasi vakillarini ham keng jalb etilsa maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Uchinchidan, ichki turizm sayohatini yanada rivojlantirish yo‘nalishida mahalladagi uyushmagan yoshlaridan iborat aholi qatlamini yurtimizdagi tarixiy obida va ma’naviy meroslarimiz joylashgan hududlarga sayohatini tashkil etish zarur. O‘z mahallasidan nariga chiqmagan uyushmagan yoshlar uchun turizm sayohatini tashkil etilsa, sezilarli darajada vatanparvarlik g‘oyalari shakllanishiga ijobiy ta’sir qiladi.

To‘rtinchidan, o‘z mahallasiga nisbatan mehr-muxabbat tuyg‘ularini yanada kuchaytirish maqsadida mahallalar qoshida mahalla muzeyini tashkil etib, u yerda mahalla tarixi va mahallalar faxriga aylangan shaxslardan iborat eksponatlar joy olsa, yoshlar ongigida milliy o‘zlik tuyg‘usi yanada jonlanadi. Beshinchidan, mahallalarda milliy qadriyatlarni aholi, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirish uchun targ‘ibotning eng ta’sirchan usullaridan keng foydalanish zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Аристотел Политика М; Мысл. 1983. – С.628.

2. Бизнинг мақсадимиз аниқ ва ўзгармасдир – демократик давлат ва фуқаролик жамияти қуриш йўлини янада қатъий давом эттирамиз. Ўзбекистон Республикаси Президентлигига кўрсатилган номзод Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг Тадбиркорлар ва ишбилармонлар ҳаракати – Ўзбекистон либерал-демократик партиясининг XI сеъздидаги нутқи. 31.05.2023.URL: https://uzlidep.uz/uz/news-of-party/14426 (Мурожаат санаси: 01.06.2023).

3. Никитенко А.И. Понятие молодежной политики как политологической категории. Государственное миниципалъное управление. 2016. –№4.

4. Платон. Государство. М; Мысл. 1994. – С.342.

5. Ш.М. Мирзиёев “Ёшлар 2020: глобал миқёсдаги бирдамлик, барқарор тараққиёт ва инсон хуқуқлари бўйича Самарқанд форуми иштирокчиларига нутқи”. 12.08.2020. https://president.uz/uz/lists/view/3766.

6. Ш.М. Мирзиёев Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. –Тошкент:, “Ўзбекистон” 2017. – Б.507.

7. Ш.М. Мирзиёев Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.Тошкент:, “Ўзбекистон”, 2017. – Б.14

8. Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисидаги”ги Қонуни, ЎРҚ 406-сон 2016.09.14. https://lex.uz/acts/3026246.

9. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Тошкент:, “Ўзбекистон нашриёти”, 79-модда 2023. – Б.30. https: //lex.uz/docs/6445145.

A.KHIDIROV,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
pedagogika fakulteti dekani

D.VALIYEV,
Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi

DANGASALIK TAHDIDI: KELIB CHIQISH SABABLARI VA UNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Odamning jismi ma’lum bir dardga chalinganidek, ruhi ham betob bo‘lar ekan. Tananing dardini davolashlikni qaysidir ma’noda iloji bor. Ammo, ruhning dardini davolash murakkab jarayon. Negaki, biz jismimizdagi muammoni ko‘ra olamiz lekin ruhimizda illatni ko’rish uyoqda tursin, ba’zan payqash ham imkonsiz. Xulqimizdagi ba’zi bir muammolar bizni ruhiyatimizga salbiy ta’sir qila qolmay to‘g‘ridan to‘g‘ri jismimizni ham nosog‘lom holatga olib kelib qo’yadi. Huddi shunday “kasallik” lar toyifasidan joy olgan illat - dangasalik haqida gaplashamiz. Bu maqoladan so‘ng sizda dangasalikka nisbatan qarashlar tubdan o‘zgaradi.

Xabaringiz bor, har qanday kasallikni davolashdan oldin dastlab uning sabablari chuqur o‘rganilib chiqiladi. Sabablarini bartaraf etishlikni o‘zi bilan ham kasallikni deyarli 60% ini davolasa bo‘ladi va odatda shunday qilinadi. Tasavvur qiling, siz sport murabbiyisiz. Yoningizga oyoqlari kishanlangan bir yigit kelib, “Ustoz men 1 metrdan uzoqroqqa sakrashni o‘rganmoqchiman, menga o’rgating” - deb kelsa, sizni birinchi aytadigan gapingiz nima bo’ladi? Albatta, “Avval kishanlarni yech”. Kishanlar olib tashlanganidan so‘ng, qarabsizki yigitni o‘zi hech qanday mashqlarsiz uzoqlikka sakrashni boshladi. Huddi shunday biz ham dangasalik illatini yengishimiz uchun “kishanlar” (sabablar) dan ozod bo‘lishimiz kerak.

Dangasalikni keltirib chiqaruvchi sabablar “prokrastinogenlar” ya’ni “dangasanogenlar” deyiladi. Prokrastinogenlar (dangasalik sabablari):

1. Stress - Stressning har qanday turi miyangizdagi energiyani (quvvatni) yeyuvchi hisoblanadi. Energiya yetishmasligi esa navbatdagi sababga olib keladi...

2. Kuchli charchoq - Dangasalikni 95%i kuchli charchoq hisobidan kelib chiqadi. O‘qishdan yoki ishdan charchab kelgan holatingizni eslang.

3. Tartibsizlik - Tartibsizlik deganda bunga xonagizdagi, kitob javoningizdagi, oshxonangizdagi, kundalik ishlaringizdagi, o‘qishingizdagi va telefoningizdagi tartibsizlik ham kiradi.

4. Uyqu kamligi yoki ko‘pligi – Agar siz me’yorda uxlamas ekansiz sizda doimiy charchoq alomatlari sezilaveradi va siz bu holatni dangasalik deb ataysiz. Sababi charchoq holatidagi odam qo‘shimcha nimadir ish qilishga layoqati ham, xohishi ham bo‘lmaydi. Miya kun davomida sarflagan energiyasini uxlaganingizda qayta tiklab oladi. Bu jarayon odatda 7-9 soatlar orasini o’z ichiga oladi. Me’yordan ko‘p uxlashlik ham siznilanjlik holatiga solib qo’yadi.

5. Jismonan nofaollik – Ertalab 10 daqiqa qiladigan badan tarbiyamiz yoki yugirishimiz, suzishimiz, tortinishlarimiz o‘zi tanamizni 100% dan 75%ini energiya bilan ta’minlaydi.

6. Puxta rejalashtirmaslik – Kundalik vazifalaringizni bloknot turib yozib yuring lekin vazifalarni soatlar bilan qachon qilishingizni yozib yurishingiz Time managementdagi katta xatolardan bir hisoblanadi. Vazifalar soatlarga emas sizni energiyangizga, o‘zingizni bugun qanday his qilyapsiz shu holatlarga ko‘proq bog’liq.

7. Nosog‘lom tana – Sizni tanangizga yetishmayotgan qaysidir mineral - vitaminlar ham, organlaringizdagi og‘riqlar va muammolar ham sizni dangasalar safiga qo‘shishi tabiiy.

8. Perfektsionistlik – Agar siz ishingizni ideal qilmoqchi bo‘lsangiz, katta e’htimol bilan ideal muhit va ideal vaqtni qidira boshlaysiz. Bunday vaqt esa hech qachon kelmaydi. Shuning uchun siz boshlash o‘rniga uni doim cho‘zib yurasiz. Ishni ideal qilishga urinish yaxshi, qachonki siz professional darajaga chiqqan bo‘lsangiz. Boshlanishida esa bu siz uchun zararga ishlaydi. Istalgan yo‘nalishda boshlang‘ich o‘rganish jarayoni xatolar bilan kechadi. Buni shunchaki qabul qilgan holda bajarishni davom ettiraverish kerak. Deylik, ingliz tilida gapirishni o‘rganmoqchisiz. Imkoningiz yo‘q, siz ko‘p xato qilib gapirasiz va bu tabiiy hol. Agar siz xato qilmasdan o‘rganmoqchi bo’lsangiz, umuman o‘rgana olmaysiz. Ishni ideal qilmoqchi bo‘lganlar asosan “Ertadan, dushanbadan, yangi oy boshidan, yangi yildan” shu kabi jumlalardan ko‘p foydalanishadi. Ammo, ideal vaqt hech qachon kelmasligini tushunishingiz kerak va oxir-oqibat sizbaribir qachondir u ishni boshlashingizga to‘g‘ri keladi, yo siz hech qachon bu ishni qilmaysiz.

9. Odat shakllanmaganligi – Rassiyalik taniqli psixolog Andrey Kurpatov o‘z vaqtida shunday degan edi “Inson miyasi avtomatizmlar mashinasi”. Avtomatizm – bu psixologiyada insonning ong nazoratisiz bajaradigan harakatlari. Avtomatizm birlamchi va ikkilamchi bo‘ladi. Nafas olish, yo‘talish, aksa urish kabi o‘z-o‘zidan bo‘ladigan harakatlar birlamchi Avtomatizmdir. Ikkilamchi avtomatizm dastavval ongli va muntazam harakatlarni mashq qilib takrorlash natijasida paydo bo‘ladi

(masalan, bolaning yurishi). Avtomatizm malaka va odatlarni yaratadi.

Depressiya, obsessiv-kompulsiv buzilish (OKB), diqqat yetishmasligi-giperaktivlik buzilishi (DYGB), xohish, qiziqish, kayfiyat yo'qligi, nimadan boshlashni bilmaslik, ish hajmidan qo'rqish kabi sabablari ham bevosita Prokrastinatsiyaning kelib chiqishini ta'minlaydi.

"Kasallikka" tashxis qo'yilib sabablar o'rganilib chiqildi. Navbat davolash ishiga. Sizda yuqoridagi sabablar mavjud bo'lsa, darhol qoningizni tahlil qilishlik va terapevtga uchrashingiz kerak bo'ladi. Tanangiz talab qilayotgan mineral-vitaminlarni aniqlab ular ustida ishlamas ekansiz sizdan lanjlik, ishyoqmaslik kuzatilaveradi. Demak, birinchi navbatda qilishingiz kerak bo'ladigan ish: analiz topshirish, terapevtga uchrashish ekan. Ikkinchisi bu – me'yoriy uyquni topib olishlik. Siz uchun me'yor 8 soat bo'lsa, do'stingiz uchun 7 soat bo'lishligi yoki 9 soat ham bo'lishi mumkin. Albert Enshteynning me'yoriy uyqusi 10 soat bo'lgan. Me'yorni aniqlash uchun sizga bitta varaq va bitta qalam kerak bo'ladi. Siz hafta davomida har kuni har xil vaqtlarda uxlaysiz. Birinchi kun 9 soat uxlab ko'ring. So'ng kuni bilan o'zingizni analiz qilasiz. Kayfiyatingiz qanday, bosh og'riqlari, lanjlik, erinchoqliklar qanaqa darajada, kuchlimi, o'rtachami, kammi. Bularni yotishdan oldin qo'lingizdagi varaqqa sanasi bilan yozib borasiz. Ikkinchi kuni 8 soat uxlang. Bu kunni ham tahlil qilib yozib chiqing. Shu tariqa uyqu soatlaringizni kamaytirib ko'pyatirish natijasida uni tahlil qilib me'yoriy uyquyingizni aniqlab olasiz. Qaysi kuni siz o'zingizni ishchan va tetik his qilgan bo'lsangiz aynan o'sha kundagi uyqu soatingiz sizni me'yoriy uyquyingiz hisoblanadi. Uchinchi yechim – Minimal harakat. Qaysi ishni qilishda dangasalik qilyapsiz? Shu ishning eng kichik birinchi qadamini aniqlab oling va shu ishni bajarishdan boshlang. Shu darajada oddiy va kichik ish bo'lsinki, hatto siz uni qanday qilayotganingizni ham sezmay qoling, miyangizga umuman bosim tushmasin. Aytaylik, ertalab turib badan tarbiya qilishga siz erinasiz, dangasalik qilasiz. Ertalab 10 daqiqa qiladigan badan tarbiyamizni o'zi tanamizni 100% dan 75%ini energiya bilan ta'minlaydi. Ammo, sizda har kuni badan tarbiya qilishga bo'lgan ko'nikma shakllanmagan bo'lsa, siz har kuni 10 daqiqa badan tarbiya qila olmaysiz. Har kuni badan intizom bilantarbiya qilmoqchi bo'lsangiz 10 daqiqalik badan tarbiyani minimum vaqtimiz olasiz ya'ni 1 daqiqadan boshlaysiz. Har kuni 1 daqiqa badan tarbiya. 30 kun bajaring va kunlik badan tarbiyangizni yozib boring. Ko'pchilik buni "Befoyda, 1 daqiqa nima bo'ladi, foydasi yo'q" deyishadi. To'g'ri, 1 daqiqa badan tarbiya tanagizga unchalik foyda bo'lmasligi mumkin lekin bizni maqsad badan tarbiya odatini shakllantirib bunga bo'lgan dangasalikni yengish. Sizni

har kuni oz-ozdan qilgan harakatingiz miyangizda sinaptik bog'liqliklar hosil qiladi. Bu bog'iqlik sizda odat shakllanganidan dalolat beradi. Agar o'sha ishga nisbatan odat shakillantirilsa, u ish avtomatizmga o'tadi va siz unga qancha yuklama bermang uni har kuni erinmasdan, dangasalik qilmasdan bajarishga o'tasiz.

Tushunishingiz kerak bo'lgan asosiy bir masala bor. Sodda qilib tushuntirishga harakat qilaman. Inson miyasi tabiatan energiya (quvvat) saqlovchi qilib yaratilgan. Uning asosiy vazifasi odamning hayotini saqlashga harakat qilishlik. Oddiy misol, qaynab turgan suvga qo'lingiz tegib ketsa qo'l mushaklari keskinlik bilan qisqarib tezda qo'lingizni ixtiyorsiz ravishda tortib olasiz. Buni ilmiyotda refleks deyiladi lekin mana shu refleksni boshqaradigan markaziy tizim – miya. Siz ko'p miqdorda vazifalarni o'quvchilarga berganingizda ularning juda kamchiligi vazifasini bajarib kelishadi. Qolgan o'quvchilar erinadi, dangasalik qilishadi. Aslida ularda ayib yo'q. Nega? Sababi yuqorida aytganimizdek miya ko'p energiya sarflamasligi uchun ularda lanjlik, parishonxotirlik, diqqat buzilishi kabilar bilan bu qiyin vazifadan ularni uzoqlashtiradi. Maqsadi ko'p quvvat sarflamaslik va bu bilan insonni xavfdan saqlash. Hajmi katta vazifalarni ham bajarib kela oladigan o'quvchilar har kuni oz ozdan uyda vazifalarni bajarishlari natijasida ularning miyalarida "berilgan vazifani bajarish" odati shakllangan bo'ladi. Shu sababdan ular bemalol erinmasdan bajara olishadi. Tushuning, biz miyani emas, miya bizni boshqaradi. Har bir inson dangasa. Negaki, uning miyasi va ongi bor! Dangasalikni yo'q qilishga emas, uni to'g'ri boshqarishga ko'proq diqqat qarating. Yuqorida men bergan tavsiyalar dangasalikni boshqarishda yaxshigina as qotadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sandi Mann. "Cracking Psychology". – UK, 2017.
2. Tony Buzan. "Use your memory". – Gulid Publishing London, 1986.
3. Daniel Kahneman. "Thinking, fast and Slow". – New York, 2013.
4. John Medina. "Brain Rules". – Pear Press, 2008.
5. Davronbek Turdiev. "Supermiya". – Toshkent, 2023.

MUNDARIJA

№	Muallif, maqola mavzusi	
	Kirish **Hasanov Otabek Abdurashidovich,** *Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari, siyosiy fanlar doktori (DSc)*	3
	To'rayev Shavkat Nishonovich *Yangi O'zbekistonda ma'naviy jarayonlar*	6
	Mavrulov Abduxalil *Madaniyat – yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan saqlovchi kuch*	16
	G'afurov Sarvarjon Mirzajonovich *Radikalizm – psixologik terror fenomeni*	26
	Akramov Muzaffar Maxkamovich *Yoshlarga mafkuraviy ta'sir qilish vositasi sifatida kinematografiyaning roli*	31
I. YANGI O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY JARAYONLAR TENDENSIYALARI		
	Nazarov Qiyom *Yangi O'zbekiston: mumtoz qadriyatlarga yangicha qarash zarurati*	38
	Karimov Bobir *Ijtimoiy munosabatlarni konsensus darajasida yuksaltirish imkoniyatlari*	49
	Sultonmurod Olim *Yangi O'zbekiston islohotlarining eng muhim ko'rsatkichlari*	54
	Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna *Yangi taraqqiyot davrida ma'naviy munosabatlarning yoshlar ijtimoiy faolligiga ta'siri*	62
	Kaxarova Munira *Yangi O'zbekistonda ma'naviy jarayonlar tendensiyalari*	66
	Tagayev Akbar, Samandarova Gulxayo *Uzluksiz ma'naviy tarbiyani bosqichma-bosqich amalga oshirishda oiladagi ma'naviy muhitni shakllantirish masalalari*	72
	Xudayberdiyeva Ozoda Jurabayevna *Yangi O'zbekistonda yoshlarning ma'naviyatini shakllantirishda ta'lim va tarbiyaning roli*	83
	Turdiyev Bexruz Sobirovich *Yangi O'zbekiston ideosferasida ma'naviy yangilanishlar zarurati*	87
	Xoliqov Lazizjon Maxmud o'g'li *Ijtimoiy davlat rivojida ma'naviy jarayonlarning o'rni*	93
	Ismailov Dilshod Baxriddinovich *Davlat xizmatchisining shaxsiy ma'naviy-axloqiy fazilatlari yuksaltirish mezonlari*	98
	Olimova Moxinur Ravshanbek qizi *Yangi O'zbekistonda xotin-qizlar faolligini oshirish tendensiyalari*	103
	Quramboyev Alisher Maxsudovich *Kam ta'mınlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishda axloqiy tamoyillar interpretatsiyasi*	106
	Kamalov Azamat Jamalovich *Yangi O'zbekistonning ma'naviy jarayonlarida o'qituvchi maqomining o'ziga xosligi*	109
	Mahkamova Dilfuza Jo'raqulovna *Ehtiyojmand toifalarni qo'llab-quvvatlash – ijtimoiy davlatning muhim vazifasi sifatida*	113

	Xusanova Nigora Qavul qizi *Raqamlashgan dunyoda farzand tarbiyasi*	119
	Rajabova Maftuna Ikrom qizi *O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotining yangi bosqichida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash masalalari*	129
	Xolbekov Berdimurod *Yangi O‘zbekiston – insonparvar ijtimoiy davlat*	137
	O‘sarov Shirinboy Abdug‘aniyevich *Yangi O‘zbekistonda bo‘lajak pedagoglarning ma’naviy barkamolligiga qo‘yiladigan talablarning ahamiyati (kreativ pedagogika sifatida)*	141
II. KUCHLI MA’NAVIYAT VA UNING NAMOYON BO‘LISHI		
	Quronov Muhammadjon, S.Azimova *Ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish: metodik ta’minot diskursi*	146
	Omonov Baxtiyor *Ma’rifatli jamiyat sari qadamlar*	151
	Bekmurodov Mansur *O‘ylay olish salohiyati*	156
	Mavrulova Munisa Abduhalilovna *Globallashuv jarayonlarida shaxs ma’naviy – madaniy ehtiyojlarini yuksaltirishning dolzarb masalalari*	166
	Sultonov Fozil Hojiyevich, Hojiyev Farhod Jumaboyevich *Milliy ta’limotni yaratish zarurati va uning ahamiyati*	171

	Alimov Akbar Narboyevich *Husayn Voiz Koshifiy futuvvat ahlining hislatlarini bayoni xususida*	176
	Ahrorova Shahlo O‘rinboyevna *Ma’naviyat va ma’naviy qadriyatlar – ijtimoiy hodisa sifatida*	180
	Arzimatova Inoyatxon Madimarovna *Yangilanayotgan O‘zbekistonda rahbar ma’naviyatining zaruriyati*	184
	Nurmatova Nargiza Ulug‘bekovna *Vitagen ta’lim texnologiyasi asosida o‘quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish*	188
	Madraximov Alishr Usubjon o‘g‘li *Ijtimoiy tarmoq tarbiyasidagi avlod*	192
	Yakubov Sobirjon Salimovich *Xorijdagi vatandoshlar: o‘zlikni asrash mas’uliyati va mashaqqati*	201
	Raxmonov Shohzod Husan o‘g‘li *Talaba-yoshlarning ma’naviy barkamol bo‘lishida madaniy-marifiy tadbirlarning tutgan o‘rni*	206
	Almamatova Mavluda Rustam qizi *Kuchli ma’naviyat va uning namoyon bo‘lishi*	211
	Rizayev Ilhom Imoaliyevich, Raxmanova Rushana Karimovna *Mafkura va ma’naviyat: ijtimoiy ong kontekstida illuziya va reallik*	216
	Meylimuxametov Elyor Akbarovich *Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish omillari*	221
	Ramazonova Munira G‘ulomjonovna *Ma’naviyatni kuchaytirishda tasviriy sa`natning roli*	226

	Raxmonova Gulzoda G‘aniyevna *Kuchli ma’naviyatning inson axloqiy qarashlarida namoyon bo‘lishi*	232
	Burxanova Mavjuda Bekbutayevna *Zamonaviy oilalarda yoshlarning ijtimoiy tarbiyalash masalalari*	237
	Eronov Samarbek Qurbonnazarovich *Yoshlarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ishonch, iymon va e’tikod tushunchalarining urni va roli*	241
III. MAFKURAVIY TAHDIDLARNING ZAMONAVIY KO‘RINISHLARI, TARKIBI VA TA’SIRI		
	G‘oyibnazarov Shuhrat *Yangi geosiyosiy vaziyat va yangi markaziy osiyo*	246
	Erkayev Abdurahim *Neoimperializm, neoliberalizm va mustaqilligimizga yangi tahdidlar*	251
	Aliev Bekdavlat *Yoshlarda tahdidbardoshlikni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari*	256
	Islomov Ilyos Normamatovich *Ma’naviy xavfsizlik tushunchasiga yondashuvlar*	262
	Saidov Sanjar Shavkatovich *“Xavfsizlik” omilining konseptual tahlili*	271
	Suvanov Ilhom Abdixalilovich *“Mafkuraviy tahdid” tushunchasi xususida ayrim mulohazalar*	276
	Egamberdiev Azizbek Abdumalikovich *Oliy ta’lim trasformatsiyasining mafkuraviy o‘zani*	281

	Muitov Davron Sobirovich *Axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi: axboriy-mafkuraviy ustunlikka asoslangan tendensiyalarni tahlil etish zarurati*	284
	O‘lmasxo‘jayev Zoirxo‘ja *Jamiyat xavfsizligiga g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlar*	290
	Hamroyev Sanjar Samiyevich *Globallashuv sharoitida milliy davlat suverenitetiga tahdidlarning namoyon bo‘lishi*	294
	Karimova Dilafruz Ravshanovna *Jamiyatni mafkuraviy tahdidlardan himoyalashning huquqiy asoslari*	298
	Parpiyev Muhammadjon Tolibovich *Kibermakonda shaxs ma’naviy madaniyatiga ta’sir qiluvchi omillar*	302
	Turdikulov Shuxrat Xudoykulovich *Manfaatlar to‘qnashuvi korrupsiyaning asosiy – omilidir*	307
	Ro‘ziyeva Gulsanam Sultonmurodovna *“Ommaviy madaniyat” tahdidlarning zamonaviy ko‘rinishlari*	313
	Abdilxamedov Abbos Abilatibovich *Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, globallashuv jarayonlarida tahdidlardan himoyalashda - dolzarb vazifa*	320
	Abdullayev Baxtiyar *Yangi O‘zbekistonda mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash masalalari*	326
	Musayev Maqsud Tursunpo‘latovich *Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasidagi hamkorlik zarurati*	330
	Eshonqulov Laziz Azamatovich *Yoshlar ma’naviyatini oshirishda axborot madaniyatining roli*	337

	Fayzullaeva Iqboloy G‘ayrat qizi *Sun’iy intellekt: inson yordamchisimi yo raqibi?*	342
	Namozova Maftuna Shikir qizi *“Soxta salafiylik”- diniy radikal tahdid sifatida*	351
	Mo‘minxo‘jayev Abrorxo‘ja Muksumxodjayevich *Yangi O‘zbekistonda ma’naviy va mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashga oid davlat siyosatining me’yoriy-huquqiy asoslari*	355
	Jumayev Oybek Maratovich *Kambag‘allikning ma’naviy-mafkuraviy tahdidini bartaraf etish masalasi*	361
	Serobov Xurshid *Tarixiy mavzudagi asarlarning millat ma’naviyatini yuksaltirishdagi ahamiyati*	369
	Jabborov Xazrat Xusenovich, Baxtiyorov Rafail Marsovich *Mafkuraviy tahdidlar profilaktikasida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshiruvchi ta’sirchan psixologik texnologiyalar*	373
	Sharipov Dilshod Baxshilloevich *Tinchlik mafkurasi yoki hozirgi zamon jahon siyosati tranformatsiyasidagi g‘oyaviy va siyosiy tendensiyalar tahlili haqida so‘z*	379
	Choriyeva Dildora Ismat qizi *Globallashuv jarayonida mafkuraviy tahdidlar va ularga qarshi kurashning samarali usullari*	398
	Xoliqulov Muhammad Qaxor o‘g‘li *Geosiyosiy mafkuralari o‘rtasidagi o‘zaro qarama-qarshiliklar (komunizm va kapitalizm misolida)*	404
	Karimov Sherzod Ali o‘g‘li *Ta’lim-tarbiya jarayonida axborotlar tahdidi va axborot xurujlarining yoshlar shaxsiyatiga ta’siri*	408

IV. YOSH AVLODNI MAFKURAVIY TAHDIDLARDAN HIMOYALASH MEXANIZMLARI

	Omonov Qudratulla Sharipovich *Talaba – yoshlarni yurtsevarlik ruhida tarbiyalash borasidagi ishlarni takomillashtirish bo‘yicha ayrim mulohazalar*	416
	Ravshanov Fazliddin *Yoshlar ma’naviyati va istiqbol*	419
	Haydarov Komil Donabaevich *Yoshlarni mafkuraviy tahdidlar xavfidan saqlash – tarbiyaning muhim omili*	427
	Musayev Mansur Tursunpo‘latovich *Ma’naviy yukcalish va mafkuraviy islohotlarni missioneplikka qarshi kurashdagi ahamiyati*	432
	Mamatqobilov Tursunmurod Doniyorovich *Aqidaparastlik va ekstremizmga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o‘rni*	439
	Norqulov Husniddin Do‘sbekovich *O‘smir-yoshlarni g‘oyaviy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar va ularning xususiyatlari*	445
	Bekchonova Shoira Bazarbayevna *Kiberpedagogikada yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish mexanizmlari*	450
	Tursunova Olmos Fayzievna *Mahalla – yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan himoya qiluvchi maskan*	455
	Bayaliyev Djaxongir Kaynarbekovich *Yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoyalash mexanizmlari*	460
	Xo‘janova Tamara Jo‘raevna *Yoshlarning ongiga ta’sir qiluvchi omillar*	465

	Masharipova Gularam Kamilovna *Mafkuraviy immunitet – xavfsizlikning ma'naviy asosi*	469
	Samatova Sevara G'ayratovna *Yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan himoyalashda ta`lim muassasalarida tarbiya jarayoni samaradorlogini oshirish*	473
	Kurbanova Nargiz Nasirdinbekovna M*afkuraviy tahdidlarning asosiy obyekti – yoshlar*	479
	Avazbekova Farangiz Baxtiyorovna *Yoshlar orasida axloqsizlik va deviant xulq-atvorning oldini olish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash: ilg`or xorijiy tajriba va takliflar*	484
	Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich *Yoshlarni zararli g'oyalardan himoyalashning sotsiomadaniy va sotsiopedagogik mexanizmlari*	488
	Ulug'ov Abduraim Xamzaevich *Yoshlarda bag'rikenglik madaniyatini shakllantirishga doir zamonaviy qarashlar tahlili*	494
	Sattarov Umidulla Ulashovich *O'zbekiston yoshlarni ma'naviy-axloqiy kamolotiga xizmat qiluvchi omillar*	501
	Qodirov Bo'ri *Uchinchi renessans va yoshlar*	506
	To'rayev Kamoliddin Samadovich *Yoshlar ijtimoiy faolligining o'ziga xos jihatlari*	514
	Sayidov Maxmud Xamidovich *Yangi O'zbekistonda yoshlarning g'oyaviy birlashuvida mafkuraviy tarbiya masalalari*	519
	Xidirov Jurabek *Odam savdosi global dunyo muammolari qatorida*	524

	Ismailova Nilufar Saydolimovna *Yoshlarni ma'naviy barkamol etib tarbiyalashda kitobxonlikni rivojlantirish va uning istiqboldagi vazifalari*	527
	Kuranov Umid Muxammadovich *Yoshlarni destruktiv va totalitar sektalar ta'sirlaridan asrash davr talabi*	532
	Jumaniyozova Dilfuza Kamolovna *Ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar masalalari: horij tajribasi*	537
	Nishonov Sarvar Jasur o'g'li *Yosh avlodni tarbiyalashda dunyoqarash va qadriyatlarning roli va ahamiyati*	543
	Shermatov Avazbek G'ofur o'g'li *Ma'naviy-ma'rifiy soha rivojida sun'iy intellektning tutgan o'rni*	547
	Kim Fotima Xabibullayevna *Ko'rishda nuqsoni bor bolalarni mafkuraviy tahdidlardan himoylashda faoliyatning o'rni*	551
	Imomnazarov Hasan Ixtiyor o'g'li *Yosh oilalarda oilaviy munosabatlarni shakllantirishning mafkuraviy va ma'naviy jihatlari*	557
	Jo'rayev Ahadjon Ilyosjon o'g'li *Globallashuvni yoshlarning siyosiy ongi va faolligiga ta'siri*	561
	Raximov Ilxomjon Azimjonovich *Mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda yoshlar tarbiyasining o'rni va ahamiyati*	566
	A.Khidirov, D.Valiyev, *Dangasalik tahdidi: kelib chiqish sabablari va uni bartaraf etish yo'llari*	573

QAYDLAR UCHUN

YANGI O‘ZBEKISTON: MA’NAVIY JARAYONLAR VA MAFKURAVIY TAHDIDLAR

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami

Mas’ul muharrir: Olimjon Davlatov,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

“ELNUR-PRINT” nashriyoti,
100129. Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 30 uy.
Litsenziya raqami № 104733. 20.07.2023-yil

Muharrir: M.Alimov
Musahhih: X.Zakirova
Texnik muharrir: A.Yuldasheva
Sahifalovchi-dizayner: M.Shukurov

Terishga 22.08.2024-yil berildi.
Bosishga 14.09.2024-yil ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 1/16
Ofset bosma usuli. 37 shart b.t.
Adadi 250 nusxa.

ISBN 978-9910-9145-3-9